

Farhod Musajon

Bo'sh kelma, Aliqulov

Q i s s a l a r



•SHARQ• NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT—2005

84(55)6-4 бўдими 2426чёт

M 90

T a q r i z c h i:

*O'zbekiston Qahramoni
OZOD SHARAFUDDINOV*

Qadrli bolalar!

Taniqli bolalar yozuvchisi Farhod Musajonning qo'llingizdagи to'plами uning «Bo'sh kelma, Aliqulov!», «Bir qultum buлоq suvi» va «Orzuga ayb yo'q» qissalaridan tarkib topган.

Qissalarning Sayfi, Rixsivoy, To'lagan, Gulmira, Anqaboyev kabi qahramonlari sizning tengdoshlarингиз. Hayotдagi ayrim nohaqliklar,adolatsizliklar tufayli ularning boshiga tushgan ko'rgiliklar har qanday yurakni zirqiratib yuboradi. Qissalarda ko'tarilgan masalalar hamma zamonlar uchun ahamiyatlidir.


10 31645
29,

Musajonov, Farhod.

Bo'sh kelma, Aliqulov. Qissalar: (o'rta yoshdagi mактаб bolalari uchun.) — T.: «Sharq».

O'z 2

© «Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririysi.



ORZUGA AYB YO'Q

Q i s s a

Quyosh hali chiqmagan, ufq endi oqara boshlagan payt. Butun borliqda osoyishtalik, sokinlik hukmron. Shahar shirin uyquda. Ko'hna Toshkentning Eski shaharidagi kamqatnov, egri-bugri ko'chalar bo'ylab Sayfi yugurgancha ketyapti. U g'ayrati jo'shib, hapriqib, oshib-toshib olg'a oshiqadi. Chehrasi yorug', ko'zлari porlaydi. Mana, u keng ko'chaga burildi. Yana ozgina yurib hashamatli koshonaning oldida to'xtadi. Nafasini rostlab ulgurmasdan zarb bilan eshikni taqillatdi.

Keng, naqshdor ayvondagi karavotda pishillab uqlab yotgan To'lagan cho'chib uyg'ondi, boshini ko'tarib, devorda osig'liq turgan soatga qaradi, oltidan o'n minut o'tibdi. U turishga shaylanib tirsagiga tayangan edi hamki, ichkari uydan buvisi Xolposhsha xola chiqib qoldi. Karaxt o'tirgan To'lagan so'z topolmay baqrayganicha buvisiga tikildi.

— Hozir, — dedi Xolposhsha xola eshik tomon ketar ekan, yo'lakay nabirasiga yuzlandi, — kallayi saharlab kim keldiykin?

To'lagan, bilmasam, degandek yelkasini qisdi.

Kampir borib eshikni ochdi. Ostonada Sayfi turardi.

— Assalomu alaykum, xola, — dedi u.

— Vaalaykum assalom, — Xolposhsha xola g'ira-shirada Sayfini zo'rg'a tanidi. Xunuk xabar eshitishdan cho'chibmi, ochiq so'ragani yuragi dov bermadi, savol nazari bilan Sayfiga qaradi — kel, bolam.

— To'lagan uydami? — nafasini rostlab ulgurmasgan Sayfi hansirab so'radi.

— Nimaydi?!

— O'zim...

— Vahimang ham bor bo'lsin, Sayfijon... —

Xolposhsha xola ko'ylagining yoqasiga tupurdi. — Odamning o'takasini yorib yubording-ku. Tinchlikmi, ishqilib?

— Tinchlik. To'laganda ishim bor.

— E, sen nuqul hovliqqaning hovliqqan. Kira qol. O'rtog'ing uxbab yotgandi, uyg'otib yubording.

Sayfi Holposhsha xolaning ortidan hovliga kirdi. Ayvondagi karavotda To'lagan oyoqlarini osiltirib o'tirardi. Uning semiz, baqaloq gavdasi xuddi oppoq paryostiqqa o'xshardi. Sayfi unga shitob bilan yaqinlashdi.

— Juda uyquchisan-da! — dedi sal kalaka qilib. — Tur!

To'lagan ko'zlarini ishqalab g'inshidi:

— Nima qilib yuribsan shu paytda?!

Kampir allanimalarni chuldirab ayvonga chiqdi, bolalarning o'zлari bilan o'zлari ovora ekanliklarini ko'rib qo'l siltadi-da, uyga yo'l oldi.

— Gapir, — dedi To'lagan, — nima bo'ldi?

Sayfi havotirlanib Xolposhsha xolaning ketishini kuzatib turdi, keyin, gapini endi hech kim eshitmasligiga ishonch hosil qilgach, sirli ovozda o'rtog'ining qulog'iga shivirladi:

— Bilasanmi, kechasi bilan uxmlamay chiqdim.

— Shuni aytgani atay saharlab yugurib kelding-mi? — bo'rsildoq lablarini osiltirib so'radi To'lagan.

— E, eshitsang dumalab tushasan.

— Bo'pti, ayt.

— Oldin yaxshilab uyg'on, keyin aytaman. Judayam zarur gap. Sening esa hali uyqung chala!

— Qanaqa uyqu, yuragimni yoray deding-ku. Bo'pti, ko'p noz qilmay, ayt.

— Agar qo'shilsang aytaman.

— Oldin ayt, nimaligini bilmasdan turib qanday qilib qo'shilaman deyman.

— Bo'pti eshit! — Sayfi yana bir bor Xolposhsha xola kirib ketgan uyg'a qarab qo'ydi, keyin ko'zlarini chaqchaytirib, bir oz tantanavor ovozda e'lon qildi, — uyda kinostudiya ochmoqchiman!

Nima uchundir To'lagan, Sayfi o'ylaganicha, sevinchdan irg'ib o'rnidan turib ketmadi, «qoyil», deb baqirmadi. Aksincha, hafsalasi pir bo'lib yana

o'rniga cho'zildi, teskari o'girilib, ustiga choyshab tortdi. Ensasi qotib to'ng'illadi:

— Bekorga uygumni buzibsan, maza qilib uxbab yotgan edim.

— Nima, qo'shilmaysanmi? — hayron bo'lди Sayfi.

— Kinostudiya emish! Topgan gapini-chil — Qiqlirlab kuld To'lagan.

Sayfi uning yelkasidan siltab tortib, o'ziga o'girdi.

— Menga qara, oldin eshit, bo'lmasa keyin achinib yurasan, — dedi qizishib.

— Qo'ysang-chi, uyda ham kinostudiya ochib bo'larkanmi?

— Juda ham bo'ladi-da! Nima, bitta qiz bolachalik bo'lmaymizmi? Manavini o'qil — Sayfi do'ppisining tagidan buklog'liq bolalar gazetasini olib o'rtog'iga uzatdi. — Qo'shning Gulmirani kino suratga olgani uchun maqtab chiqishibdi.

To'lagan gazetani olib Gulmira haqidagi yozilgan maqolaga ko'z yugurtirdi. Maqolada Gulmira suratga olgan film kinohavaskorlar konkursida uchta sovrindan biriga sazovor bo'lgani ma'lum qilingan edi. To'laganning unga havasi keldi. Balo ekan Gulmira. Shunday ajoyib hunarni o'rganibdi-yu, bir og'iz aytmabdi-ya! Qani endi To'lagan ham biror ish ko'rsatsa-da, uni ham gazetada maqtab chiqishsa.

— Gulmira o'quvchilar saroyiga qatnaydi-da. Sen bo'lsang uyda kinostudiya ochmoqchisan. Yo biz ham to'garakka yozilamizmi?

— E... to'garakni qo'y, — aftini burishtirdi Sayfi, — o'zing bir oyda o'rganadigan narsani u yerda bir yilda zo'rg'a o'rgatishadi. Keyin ko'pchilikning orasida ko'zga ko'rinish qiyin, itning keyingi oyog'i bo'lib yuraverasan. Biz esa sen bilan dong taratamiz, Gulmira demaganlarni yarim yo'lida qoldirib ketishimiz kerak.

Bu fikr To'laganga yoqib tushdi, u yutinib so'radi:

— Qanday qilib?

— Ikkovlashib pul yig'amiz-da, bitta kinoapparat sotib olamiz, — hovliqib davom etdi Sayfi, — kinoapparat bilan instruksiyasini ham qo'shib sotadi. Ana

o'shani sinchiklab o'qib bir oyga qolar-qolmas kino
olishni o'rganamiz. Ana innaykeyin...

Sayfi g'ayrati ichiga sig'may avvonda uyoqdan-
buyoqqa yura boshladi. Uning ko'zлari chaqnar edi.

— Gapir, — qistadi To'lagan.

— Ana innaykeyin... — Sayfi xayol og'ushida
parvoz etardi, — har xil kinolarni rosa suratga ola-
veramiz. Asosiy rollarni senga o'ynattiraman.

— Menga?

— Senga? Nega deganda sening basharang juda
kinobop! Kinoga senikiga o'xshagan katta basharalar
ketadil Ko'z, qulqoq, burun, og'iz — hammasi yirik
bo'lishi kerak.

— Sen qayoqdan bilasan buni?

Sayfi o'rtog'inining savolini mutlaqo e'tiborsiz
qoldirdi va birdan To'laganning burniga uzoq tikilib
qoldi. To'lagan o'ng'aysizlandi.

— Namuncha tikilib qolding?

— Vey, sen hech o'z burningni ko'rganmisan?

— Nimaydi?

— Ko'rganmisan, yo'qmi?

— Burnimga nima qilibdi? — To'lagan xavotir-
lanib burnini ushlab ko'rди.

— Shunaqasan, hech narsaning qadriga yetmay-
san,— do'q urdi Sayfi, — axir, bu burun emas, xazi-
na-ku! Bunaqa burun bilan mashhur artist bo'lib
ketishing hech gap emas!

To'lagan o'rtog'inining gaplariga mahliyo bo'lib
anqayib qolgandi, o'ziga kelib:

— Shunaqa deysan-ku, pulni qayoqdan olamiz
kinoapparatga? — deb so'radi.

— Topamiz, o'rtoq artist. Hammasi o'ylab qo'yil-
gan. Puxta o'yangan.

Sayfi o'rtog'inining yelkasidan quchib pastga, hov-
liga olib tushdi. Keyin atrofga olazarak bo'lib qarab
qo'ydi-da, To'laganning qulog'iga bir narsalar deb
shivirladi.

— Har kuni uydan nima deb chiqib ketaman. —
To'lagan ikkilandi, — axir hozir o'qish payti bo'l-
masa?

— Buniyam o'ylab qo'yganman. O'quvchilar
saroyidagi ashula to'garagiga yozildim, deysan.

To'lagan dovdirab qoldi.

— Buvimlarni aldaymanmi?
— Buni nimasi aldoqchilik? — ko'zlarini olaytirdi
Sayfi, — san'atga o'zimizni ursak yomonmi?

To'lagan xuddi gunoh qilib qo'ygandek iymandi.

— San'atga o'zimizni ursak, yaxshiku-ya...

— Yo biz buvingni aldab o'g'rilik qilmoqchimizmi? — o'rtog'iga gapini tugatishga imkoniyat bermadi Sayfi, — bir kunmas bir kun olgan kinoyimizni shu hovliga opkelib, qo'ni-qo'shnilarни, tanish-bilishlarni yig'ib qo'yib bersak buving qanchalik xursand bo'ladilar! Boshlari osmonga yetadil

To'lagan o'sha baxtiyor damlarni ko'z o'ngiga keltirib parishonxotir jilmaydi.

— Shuning uchun. — Sayfining shang'illagan ovozi uni yana o'ziga keltirdi, — shuning uchun bugundan boshlab har xil ashulalarни aytib buvingni boshlarini qotiraver. Ha, desalar, ashula to'garagiga yozilib keldim, endi har kuni qatnayman, umrimni san'atga bag'ishlashga qaror qildim, deysan.

To'lagan Sayfining ustomonligiga qoyil qolib angrayganicha turaverdi, hali bir qarorga kelmagani uchun javob bermadi.

— Uqdingmi?

— Ashula bilmayman-da, — dedi bo'shashib To'lagan.

— Nahotki bittayam ashula bilmasang? — jig'ibiyroni chiqli Sayfining.

To'lagan qo'rqa-pisa «yo'q» degandek bosh chayqadi.

— Chala-chulpa ham bilmaysanmi? Uch-to'rt satr, zig'ircha bo'lsa ham mayli, — xurujni kuchaytirdi Sayfi.

— Chala-chulpa bilaman.

— Uf, bor ekansan-ku, — yengil tortib xo'rsindi Sayfi, — bo'pti-da, bilsang, qaytaraverasan.

Sayfi ish bitdi degandek qo'llarini bir-biriga ishqadi. Lekin To'lagan hamon xomush edi, u o'rtog'ini xafa qilib qo'yishdan cho'chigandek ehti-yotkorlik bilan gapirdi.

— Biladiganlarim uncha yaxshi emas-da, hammasi kattalarning ashulasi...

— U nima deganing?

— Mana o'zing eshitib ko'r, — To'lagan tomoq qirib olib ashulani boshladi:

— *Aylama, aylama, aylaganim bor.*
Qizlarning ichida tanlaganim bor...

Sayfi ko'zi olayib qo'li bilan shartta To'laganning og'zini berkitdi:

— Ey, miyang bormi o'zingnil G'irt ahmoq ekansan-kul! Hech vaqt to'garakda ham shunaqa ashula aytishadimi, xomkalla! To'garakda ona vatan, do'stlik, musaffo osmon, baxtiyor bolalik haqidagi qo'shiqlarni o'rgatishadi. Shunaqasidan topgin!

To'lagan «ma'qul» degandek bosh silkidi.

— Nega oxirigacha o'yamasdan bosh silkiyverasan. Men aytgan qo'shiqlarni qayerdan olasan, shuni o'ylab ko'rdingmi?

To'lagan gunoh ustida qo'lga tushgandek ko'zlarini pirpiratib yerga tikildi.

— Kutubxonaga borsang, «Baxtiyor avlod qo'shiqlari» degan to'plam bor. O'shani olasan. Shu bu yil chiqqan, tag'in eskisini opkelib o'tirma.

To'lagan «xo'p» degandek bosh silkidi.

— Ishqilib lalayib ishning pachavasini chiqarib qo'yma, — dedi Sayfi. — Bo'pti, endi men ketdim. Hammasini tushunding-a?

To'lagan yana bosh silkidi-da, «tushundim shekilli», dedi.

— Demak kelishdik, ertaga qayerda uchrashishimizni bilasan!

Sayfining xurujidan hali to'la-to'kis es-hushini yig'ib olmagan To'lagan yana bosh silkidi.

— E, tiling bormi o'zi yo soqovmisan?

— Bor tilim. Bo'pti ertagacha.

— Bu boshqa gap. Tetik bo'l, oshna, oldinda bizni zo'r ishlar kutyapti! Kutubxonaga borib kelish esing-dan chiqmasin!

Sayfi yugurib chiqib ketdi.

To'lagan o'rtog'inining ketidan birpas qarab qoldi. Keyin boshi qotib uyga kirdi. Shirin xayollar og'ushi-da kayf surib o'tirdi. Keyin... Mehmonxonaning bur-chagida yonlari jimjima toshoyna bor edi. To'lagan toshoynaga yaqinlashdi. Kallasini uyoq-buyoqqa aylantirib burnini har tarafдан tomosha qildi. Qiziq,

nega. Sayfi uning burnini «xazina» dedi, oddiy puchuq burun-ku! Lekin bir balosi bordirki Sayfi maqtadi, u bekorga gapirmaydi. To'lagan mamnun kayfiyatda oynadan uzoqlashdi.

«Hay, mayli, endi nima bo'lsa ham Sayfi aytgani-ni boshlash kerak, — qaror qildi u. — Nimani ayt-samikin? E, shungayam bosh qotirib o'tiramanmi?»

To'lagan ovozini baralla qo'yib «ashula» boshladи.

— Do-re! Do-re! — u borgan sari avjga minardi. Qo'shiq kitobi topguncha shu ham bo'laveradi.

Qo'shni xonadan hovliqib Xolposhsha xola chiqdi.

— Ha, To'lagan, nima bo'ldi, biror yering og'riyaptimi? — xavotirlanib so'radi buvisi.

— Yo'q, — ajablandi To'lagan.

— Nega bo'lmasa dori-dori deb uyni boshingga ko'tarayapsan?

To'lagan jilmayib buvisiga boqdi.

— Dori deyayotganim yo'q. Do-re deyapman — bu musiqa notalari. Ashula to'garagiga yozildim, ertadan boshlab o'quvchilar saroyiga qatnayman.

— Ashula to'garagiga yozildim?! — Xolposhsha xola xursand bo'lib ketib nabirasining peshonasidan o'pdi. — Voy aqlingdan o'rgulay, bo'talog'im, juda to'g'ri qilibsan. Adangga o'xshab, injener bo'lib tun-u kun o'tirasanim allaqanday chizma-chiziqlar chizib, ranging chiqmay? Ashulachi bo'lsang ham bo'l, bo'imasang ham bo'l, bo'talog'im. Va-xa-xotollo qilib yurganga nima yetsin?!

To'lagan qoshlarini chimirib sipolik bilan buvisiga tanbeh berdi.

— Qoloq fikrlarni gapirmang! Ashulachi bo'lish oson emas. O'qituvchimiz aytgan, kim bo'laman desang ham yaxshi o'qish, ko'p mehnat qilish kerak.

— Ha, mehnat qilgin-da, bo'talog'im. Ovoz ashula aytgan sari ochilaveradi.

To'lagan xo'rozga o'xshab qichqirishda davom etdi:

— Do-re, do-re!

Buvisi unga dalda berdi.

— Aytaver, bolam, aytaver. Jonim dilim ashula. Aytaver, bo'talog'im, ezib-ezib aytaver!

— Haliyam aytyapman-ku, — To'lagan tag'in

ovoziqa zo'r berdi va sal o'tmay chiyillab qoldi, —
Mi-fa-mi! Mi! Mi! Mil

Kampir birpas nabirasini kuzatib turdi, keyin
ahvoliga rahmi keldimi:

— To'laganjon, oldin nonushta qilib olasanmi,
quvvat bo'ladi! — dedi.

To'lagan o'rtog'inining topshirig'ini qisman bo'lsa-
da bajargan edi, ayvonga chiqib, nonushta qilgani
o'tirdi. Ovgatni musiqa sadolari ostida yeganga nima
yetsin? To'lagan turib ayvonning burchagida turgan
yap-yangi radiopriyomnikning qulog'ini buradi.
«O'zbek paxtakorlari bu yil o'tgan ming to'qqiz yuz
elliginchi yilga nisbatan paxta hosildorligini bir
yarim baravar oshirishga ahd qilganlar» — diktorni-
ng kuchangan ovozi eshitildi. To'lagan priyomnik-
ning murvatini burab allaqanday kuyni tutdi-da, joyi-
ga qaytib o'tirdi.

Shu payt eshikdan Gulmira kirib keldi.

— Assalomu alaykum, xolajon.

— Vaalaykum assalom, kela qol, dono qizim, —

Xolposhsha xola Gulmirani bag'riga bosib ko'rishdi.

— Tinchlikmi, xolajon, kimdir baqirdimi, bizning
hovligacha eshitildi-ya! — dedi Gulmira.

Xolposhsha xola endi javob bermoqchi edi,
To'lagan bezovtalanib gapni burib yubordi:

— Namuncha kanikulda ham kitob ko'tarib yur-
masang?

— Alam qilsin, hamma senga o'xshagan kitob
ko'rsa ko'ngli ozadigan yalqovmi?! — kului Gulmira.

— Ho, gazetada maqtab chiqishdi, deb endi biz-
daqalarни pisand qilmayapsanmi? — kesatdi To'la-
gan.

— Arzimabdimi! Hammani ham gazetada maqtab
chiqavermaydi, — Gulmira birovga so'zini beradigan
qizlardan emas edi.

Gapga Xolposhsha xola aralashdi.

— Hech narsadan xabaring yo'q, qizim. To'lagan
ashulachi bo'imoqchi.

— Iye, iye, muborak bo'lsin, — rasmana suyunib
ketdi Gulmira. — Yaxshi, mahallamizdan ashulachi
chiqadigan bo'libdi. To'garakka yozildingmi?

To'lagan bir oz talvasaga tushib qoldi.

— Ha, yozildim, — dedi u, qarasa gap chuvalashib

ketadigan, yuziga jiddiy tus berib o'rnidan turdi. — Buvi, menga xalaqit bermanglar, repetitsiya qilishim kerak.

Shunday dedi-yu, zip etib uyga kirib ketdi. Zum o'tmay uydan uning «do-re, do-re» deb qichqirgani eshitildi.

To'laganning shoshib qochib qolgani Gulmirada shubha uyg'otdi.

Xolposhsha xola jilmayib Gulmiraga boqdi:

— Ovozini tiniqligini qara... Nafasi shirali nabi-ramnil

— Bulbuligo'yoning o'zi, — jilmaydi Gulmira ham.

Sal maqtov eshitsa darrov taltayib ketardi Xolposhsha xola.

— Buvasiga tortdi shekilli, To'laganim. U kishi garchi qassob bo'lsalar ham to'y-hashamlarda o'rtaga tushib ashula aytib ketaverardilar. Ovozlari shunaqa jarangdor ediki, eshitganlar sel bo'lib ketardi. Qasd qilsa To'laganimdan ham zo'r xonanda chiqadi.

— Ajab emas, — dedi Gulmira g'alati ovozda.

U anoyilardan emas edi. •To'lagan bekorga hovliqib qolmadni, bu yerda bir gap borga o'xshaydi», deb o'ylab qo'ydi u.

BUNING NIMASI TASHKACHILIK?

Ertasiga ertalab Sayfi yana yelib-yugurib eski shahar ko'chalaridan borardi. U shunaqa, shoshgan shoshgan. Mana hozir ham u eski shahardagi kitob magazininining yoniga To'lagan bilan kelishilgan paytdan yarim soatcha oldin keldi.

Nima qilibdir vaqt ni o'tkazish kerak edi. Ikki qadam yursa bozor, kirib aylanib chiqishi mumkin, ammo Sayfi vaqt ni bekorga o'tkazadiganlardan emasdi. U darrov o'ziga yumush topdi.

Kitob magazini bozorning og'zida joylashgan, dehqonlar olib kelgan ho'l meva va poliz ekinlarini aravadan shu yerga tushirishar, keyin hammol yollab bozorga olib kirishardi. Yelkasiga arqon tashlab olgan norg'ul hammollar katta va zil-zambil qoplarni yengil orqalab bozorga yo'l olardilar. Ertalab bo'lgani uchun

bozorga kelayotgan aravalarning keti uzilmasdi. Shalog'i chiqqan eski eshakaravani Sayfi uzoqdan payqadi. Ayniqsa unga aravada o'tirgan chol alomat ko'rindi. U qaddini g'oz tutib, atrofga qiziqish bilan alanglar, bozorga emas, sayilga chiqqan odamdek his qilardi o'zini.

Eshakarava shundoqqina Sayfining yoniga kelib to'xtadi. Chol xuddi yoshlardek epchillik bilan aravadan sakrab tushdi, hamyonidan pul chiqarib aravakashga kira haqini to'ladi, aravakash ikkita qopni yerga tushirdi, chol bilan xayrlashib orqasiga qaytdi.

Chol shoshilmasdan belbog'idan nosqovog'ini olib kaftiga ozgina to'kdi-da, og'ziga otdi. Ko'zlarida sevinch va kulgi porlab atrofga mag'rur boqdi. Rostdan ham bozorga u nainki mol sotgani, hordiq chiqargani kelganga o'xshardi. O'zi qotmadan kelgan, yanoqlari qip-qizil, tetik va xushhol mo'ysafid edi.

Sayfi mundoq qarasa, qoplarning yirtiq joyidan qovunlar ko'rinish turibdi. U tomoq qirib burro ovozda cholga murojaat etdi.

— Assalomu alaykum, otaxon!

Chol yalt etib Sayfiga qaradi. Og'zining tanobi qo'chib jilmaydi, Sayfi bilan ikki qo'llab so'rashdi.

— Vaalaykum assalom. Mullo bo'ling, yigitning xo'rozi. Qalay, sog'-salomat yuribsanmi?!

Chol ustiga-ustak xushmuomala ham ekan.

— Rahmat, yuribmiz tirikchilik orqasidan, — Sayfi ham bo'sh kelmadni, chuchmal munosbatni cho'zib o'tirmay shartta maqsadga o'ta qoldi. — Otaxon, qovunlarni bozorga olib kirasisizmi?

— Ha-da, yigitti xo'rozi.

— Bo'pti, bo'lmasa odam qidirib ovora bo'lmaning, o'zim eltib beraman.

Chol Sayfiga qarab qiyqirab kului.

— Umringizdan baraka topping, yigitti xo'rozi. Ammo jussangiz sal kichkinaroq ekan, qovun og'ir bo'ladi. Tag'in mayib-payib bo'lib qolsangiz tovoningizga qolib o'tirmay.

Sayfi qip-qizarib ketdi, lekin taslim bo'lmasdi.

— Siz jussamga qaramang, otaxon. Kichkina demang bizni, ko'tarib uramiz sizni, degan gapni eshitmaganmisiz?! Kichkina bo'lsak ham yomon



chayirmiz. Bu hunarni kecha tanlaganimiz yo'q. Bir yildan oshdi bozorda hammollik qilayotganimizga. Ha, suyagimiz pishib ketgan.

Chol yana sharaqlab kului.

— E, omon bo'ling, ammo gapni ham olar ekansiz. Man sizning o'rningizda bo'lganimda hammollikni yig'ishtirib sayillarda, to'y-hashamlarda askiya aytardim. Gapimga ishoning, bir yilga qolmay eng zo'r askiyachini bir cho'qishda qochiradigan bo'lib ketardingiz.

Chol shang'illab gapiргани, sharaqlab kulgani uchun atrofга odamlar yig'ila boshlashdi, hamma iljayib o'rtadagi suhbatni tinglardi. Bu choldan ish chiqmasligini tushundi Sayfi, ha, bunga qiziqchilik bo'lsa bo'ldiga o'xshaydi, qovun emas, gap sotishga kelgan ko'rindi.

— Bo'pti, otaxon, bozoringizni bersin, bizga ruxsat, — Sayfi chekinishga majbur bo'ldi.

— Yo'q, yo'q, — dedi chol hamon qiziqchiligini qo'ymay, — ulfat degan unaqa darrov qochib qolmaydi, birpas sabr qilasiz, suhbatimiz chala qolmasin axir.

Qoplarning og'zi tol navdasining po'stlog'i bilan bog'langan ekan. Chol shoshmasdan bittasining og'zini yecha boshladi.

— Nasib qilsa keyinchalik bir otamlasharmiz, otaxon, — Sayfi ham gapga chechan edi, hamma bilan o'z tilini topib so'zlashardi, — tirikchilik degandek, men ham ishidan qolmay.

Chol Sayfining so'zamolligiga qoyil qolib yana shox tashlab kului. Keyin qopdan bitta qovun olib Sayfiga uzatdi.

— Mana shuni mazasini tatib ko'rasiz, yigitti xo'rozi.

Sayfi birdan o'zgardi. Chol qurmagur qovunning ilinjida menga ilashyapti, deb o'ylabdi shekilli. Sayfi qo'lini ko'ksiga qo'yib kamoli odob bilan ta'zim qildi.

— Himmelari uchun qulluq, otaxon. Ammo ma'zur tutadilar, kamina tekinni yeb o'rganmaganlar.

— Qo'lim qaytmasin, yigitti xo'rozi, xafa bo'laman olmasangiz.

-- Yo'q, — o'jarlik bilan bosh chayqadi Sayfi.

Chol Sayfining qaysarligini sezib ortiqcha qistamay, yuziga jiddiy tus berib gapni uzoqdan boshladi.

-- «Man, yigitti xo'rozi, tanti odamman, ayniqsa yaxshi gapni gadosiman. Shu desangiz, odam bolasi borki biror narsaga ishqiboz bo'ladi, birov ashulaga, birov raqsga, birov it urishtirishga, birov bedana asrashga. Men qovunga ishqibozman. Ishonasizmi, qovun demaganni bir kam o'ttiz xil navini yetishtirganman. Bir-biridan shirin. Ayniqsa shakarpalak bilan cho'girining oldiga tushadigani yo'q, — chol yana jilmaydi, — boyta it, xo'roz urishtiradiganlar bo'ladi dedim. Men, yigitti xo'rozi, bozorga qovun urishtirgani tushaman. Ha, kimniki shirin chiqishga o'ynagani kelaman. Pulidan ko'ra shu garovda yutib chiqsam bo'ladi menga. Ha, dovrug'i kerak menga, qovunimdan yeb ko'rigan odam, qo'ling dard ko'rmasin, dehqon», deb duo qilsa bas menga!

Sayfining yuragida beixtiyor bu sergap va xushchaqchaq cholga mehr uyg'ondi. Chol davom etdi.

— Siz singari ochiq, hazilkash odamlar maqtagudek bo'lsa-ku boshim ko'kka yetadi. Ammo tatib ko'rsangiz tan berasiz menga, qovunlarim tilni yorishiga kafilman.

Sayfi bu gal cholning qo'lini qaytarolmay qovunni oldi. Chol barzangidek hammol yollab qoplardan bit-tasini orqalatdi, ikkinchisini o'sha yerda pista sotib o'tirgan kampirdan qarab turishni tayinlab hammolning ketidan bozorga yo'l oldi. U go'yo bellashgani kurash maydoniga tushayotgan polvondek qaddini g'oz, o'zini mag'rur tutib odimlardi.

Sayfi cholning ortidan birpas qarab turdi, keyin yo'lovchilardan soat so'radi. Kelishilgan vaqt dan o'n minut o'tibdi. Ammo To'lagandan darak yo'q edi. Sayfining xunobi osha boshladi. Nahotki To'lagan kelmasa? Yoki bahona to'qiyolmay uyidan chiqib ketolmaganmikin. Yo aynib qoldimikin? Xullas, ming xil xayollarga bordi Sayfi. Lekin baribir yana bir oz kutishga qaror qildi. To'lagan o'zi shunaqa, landovurroq, boshqalar besh minutda boradigan joyga u lo'mbillab bir soatda arang yetadi.

Vaqt o'tgan sari Sayfi o'zini qo'yarga joy topolmay ko'proq tipirchilardi.

Nihoyat uzoqda To'lagan ko'rindi. Sayfi uning qarshisiga otildi. Do'q urishga harakat qilsa ham ovozidan suyunib ketgani sezilib turardi.

— Ha, namuncha kech qolmasang?

To'lagan qo'qqisdan berilgan savoldan sal o'zini yo'qotib qo'ydi. Umuman u xatti-harakatda ham, gapirishda ham hech shoshilmasdi, og'irkarvon edi.

— Endi uydan chiqib ketay deb turganimda Gulmira kirib qoldi. O'quvchilar saroyiga borsang, yur, birga ketamiz dedi. Buvim kecha nabiram ashula to'garagiga yozildi, deb maqtangan edilar-da. Zo'rg'a qutuldim, avval boshqa joyga kirib o'tishim kerak deb.

Sayfi kek saqlashni bilmasdi, birpasda o'rtoq'inining gunohidan kechdi.

— Bo'pti, o'tgan ishga salavot. Xo'sh, endi ishni boshlaylik.

— Qanday ishni?

— Pul topishni-dal Kecha aytgandim-ku!

To'lagan og'aynisiga baqrayib tikildi.

— Qanaqa qilib topamiz pulni? Unisini aytma-ganding!

— Tashkachilik qilamiz, — dedi Sayfi dabdurustdan.

— Nima? — cho'chib tushdi To'lagan.

— Qo'lida yuk bilan kelayotgan qari-qartanglarga yordam beramiz. Ham ularni mushkulini oson qilamiz, ham o'zimiz choyshaqa ishlaymiz. Qarabsanki, bir oy deganda kinoapparatli bo'lib olamiz.

To'lagan orqasiga tisarildi.

— Jinnimisan, qaysi bet bilan tashkachilik qilamiz?

— Nimasi yomon ekan buni. Birinchidan, pul topamiz, ikkinchidan, chiniqamiz. O'zingga bir qaragin, xamirga o'xshaysan. Yuk tashisang chayir bo'lib ketasan.

— Kim xamir? — xafa bo'ldi To'lagan.

— Darrov qizishmagin-da, unaqa. — O'rtog'inining yelkasiga shapatiladi Sayfi. — Og'zimdan chiqib ketdi... Chiniqsak yomonmi, demoqchiman. Tashkachilar eng baquvvat odam bo'lishadi.

To'lagan ikkilanib qoldi. Shu payt tomdan tarasha tushgandek tepalarida Gulmira paydo bo'ldi. Uning yonida qop-qora, indamas dugonasi ham bor edi.

— Salom, Sayfi, — jilmaydi Gulmira.

— Yaxshimisan? — o'zini zo'r lab alik oldi Sayfi.

— Nima qilib turibsizlar bu yerda?

— O'zimiz, — do'q aralash gapirdi Sayfi, — seni nima ishing bor?

Gulmira Sayfining do'qini pisand qilmadi. Mazax aralash kulib dedi.

— Namuncha qo'rslik qilmasang?

— Kim qo'rslik qilyapti, birov bilan nima ishing bor deyapman? Biz sendan bu yerda nima qilib o'ralashib yuribsan, deb so'rayapmizmi? — dedi Sayfi.

— So'ray qol, men o'quvchilar saroyiga ketyapman, — xushhollik bilan javob qildi Gulmira.

— Ketayotgan bo'lsang, ketaver, yo'lingdan qolma! — qo'li bilan yo'lni ko'rsatdi Sayfi.

Gulmira bu gal ham o'zini tutdi, chapanichasiga shang'llab Sayfini qayirib tashladi.

— Voy-bo', namuncha sir saqlamasalaring, xuddi biron narsa ixtiro qilayotgan odamdek. Seni kim bilmas ekan, eski xayolparastsan-kul Nuqul hovliqqanning hovliqqa. Ketdik, Jamila.

Gulmira yo'lga tushdi, uning orqasidan indamas dugonasi ergashdi.

Sayfi shartta o'girilib To'laganga qaradi:

— Bu qizda bir gap bor, ketingdan poylab kelgan.

— Shunaqa shekilli. Ertalabdan biznikiga bekorga kirmagan.

— E, bo'pti, — Sayfi qo'l siltadi, — endi bitta qiz boladan ham hadiksirab yuramizmi? Undan ko'ra ishni boshlash kerak.

Sayfi atrofga alangladi, uning harakatlari chaqqon, oyog'idan o't chaqnardi. Ko'p kutishga to'g'ri kelmadi. Uzoqda birinchi «o'lja» ko'rindi.

— Ana, bitta kampir kelyapti, qo'lida tuguni bor. Qani, qimirla tezroq!

O'rtog'inining kutilmaganda qilgan xurujidan o'zini yo'qotib qo'ygan To'lagan dovdirab qoldi.

— Yo'q, birinchi sen boshla, men keyingisiga borarman... Sen bunaqa ishlarga pishiqroqsan.

— Shunaqa qilmagin-da, bor, degandan keyin borgan-da! — o'rtog'ini ko'z ochirgani qo'y may qistadi Sayfi.

— O'zing bora qolgin, — To'lagan yolvorib o'rtog'iga boqdi. — Aytyapman-ku, keyingisiga albatta boraman.

— Ey, bunaqada qachon pul yig'ib, qachon kinoapparat sotib olamiz. Bor! — Sayfi To'laganning orqasi-dan itarib yubordi.

To'lagan turtki kuchi bilan tugun ko'targan kampirga urilib ketay dedi, arang o'zini to'xtatib qoldi. Orqasiga, Sayfiga bir qarab olib kampirga yuzlandi.

— Buvijon, tuguningizni menga bera qoling, ko'tarishib yuboraman.

Kampir yalt etib To'laganga qaradi, suyunib ket-ganidan jilmaydi.

— Voy, aylanay sendan, bolam, ko'tara qol. Qo'llarim tolib, uzilib tushay dedi-ya. Tromboy to'xtaydigan joygacha oborib qo'ysang, bo'ldi, bolam.

To'lagan kampirning qo'lidan yukini oldi. Kampir allanarsalarni javrab yo'l boshladi. Tugunni arang ko'tarib ketayotgan To'lagan odamlarga turtinib-sur-tinib uning ketidan ergashdi.

Gulmira uzoqqa bormadi, bolalarning ko'zini shamg'alat qilib ko'chaning qarshisidagi dorixonaga kirdi, qop-qora, indamas dugonasi bilan derazadan bolalarning xatti-harakatlarini kuzatib turdi. Gulmira To'laganning yuk ko'tarib ketayotganini ko'rib Jamilaga qaradi. U «tushunarli» degandek bosh silkib qo'ydi.

Gulmira o'ylanib qoldi. Keyin miyasiga yaxshi fikr keldimi jilmaydi. Ha, u qaror qabul qilgandi. Ammo qanday qaror, bu faqat uning o'ziga ma'lum edi.

... Yolg'iz qolgan Sayfi atrofga alanglab birpas turdi. Birdan uzoqdan ikki paqir olma ko'tarib kela-yotgan baland bo'yli, ammo yoshi anchaga borib qol-gan ayolni ko'rib qoldi. Yugurib unga yaqinlashdi.

— Assalomu alaykum, xolajon.

— Nima? — qulog'i og'irroq bo'lgani uchun yaxshi eshitmadi ayol.

— Assalomu alaykum, deyapman.

— Vaalaykum, — ayol dag‘allik bilan javob qildi.
— Xolajon, chelagingizni ko‘tarishga yordamlashib yuboraymi?!

— Nima?! Tur nari, bezoril Bozorda sendaqalarni ko‘pini ko‘rganman. Yordam emish. O‘zim hali otdekman! — yo‘g‘on ovozda do‘rillab gapirdi ayol.

Sayfi qo‘rqib o‘zini chetga oldi. Ayol gurs-gurs qadam tashlab yo‘lida davom etdi.

Ko‘p o‘tmay To‘lagan qaytib keldi.

— Ha, necha pul berdi? — o‘rtog‘iga tashlandi Sayfi.

To‘lagan kampirning gapirishiga taqlid qilib:

— Voy, aylanay sendan, bolam, umringdan baraka topgin. Seni tarbiya qilgan o‘qituvchilaringga, otonangga ming rahmat, dedi, hech narsa bermadi, — ayanchli, gunohkorona iljaydi.

— Nega o‘zing so‘ramading?

— «Rahmat» deb turganda qanday qilib so‘rayman?

— «Rahmat» desa tirjayib turaverdingmi? So‘rolmasang, pulga zor, qorni och odamdek basharangni burishtirib, chuqur-chuqur xo‘rsingin edi, rahmi kelib berib yuborardi.

— Kim ishonardi? — To‘lagan ham hazilkashroq edi, — qorni och odam menga o‘xshagan semiz bo‘ladimi?

Shu payt Sayfining ko‘zi bir qo‘lida oziq-ovqat to‘la xalta, ikkinchi qo‘lida bir qiyiqcha narsa, sal oqsoqlanib kelayotgan keksa mo‘ysafidga tushib goldi.

— To‘lagan, shu yerda uchrashish! Men ketdim. Ko‘rib qo‘y qanday ishlashni.

Sayfi dehqon boboga yaqinlashdi.

— Assalomu alaykum otaxon, qiyiqchangizni menga bera qoling yordamlashib yuboraman.

— Vaalaykum assalom. Dehqon ajablanib Sayfiga qaradi, keyin itoatkorlik bilan qo‘lidagi qiyiqchani unga tutqazdi.

— Mana, jiyan.

Sayfi qiyiqchani ko‘tarib yo‘lga tushdi. Ular yonma-yon jim ketaverdilar. Chorsuga yetganlarida dehqon bobo alanglab atrofga boqa boshladi.

— Boradigan joyimiz uzoqmi? — burro so'radi Sayfi.

— Bilmadim, jiyan, — soddalik bilan javob berdi mo'ysafid, — kasalxonaga borishim kerak. Sizni uchratganim yaxshi bo'lди, shaharliksiz, topishvorasiz. Mana adresi.

U Sayfiga buklog'liq qog'oz uzatdi.

— Bo'pti, men shaharni besh qo'limdek bilaman, topamiz. — Sayfi qog'ozni o'qib, birdan o'zgarib ketdi, keyin jiddiy va bir oz qayg'uli ovozda dedi: — Men bu kasalxonani juda yaxshi bilaman. Yuring.

Ular yo'lда davom etdilar. Endi Sayfi qovog'ini solib ancha xomush bo'lib qolgan edi. Mo'ysafid yosh bolalardek itoatkorlik bilan uning ketidan ergashib borardi. Tramvayga chiqdilar. Uch bekatdan keyin tushdilar. Onda-sonda yo'lovchilar uchrab turardi. Mo'ysafid jim ketayotganlaridan o'ng'aysizlanib gap boshladi.

— Shu desangiz, jiyan, bir haftadan beri jazm qilaman kelishga, hech vaqt topolmayman. Nega hech kim kelmayapti, deb esi ketgandir sho'rlikning.

— Kimingiz kasalxonada?

— Kelnim, jiyan, kelnim. Boyaqish og'ir kasalga chalingan. Qishloqda boqizmagan na birorta tabib, na birorta do'xtir qoldi, hech kim davolay olmadi. Ahvoli og'irlashgandan og'irlashaverdi. Keyin majbur bo'ldim shaharga olib kelishga. — Dehqon gapi raveraymi, degandek Sayfiga qaradi. Sayfining qunt bilan tinglayotganini ko'rib davom etdi: — Xudoyberdim urushga ketganida bu uchta go'dagi bilan qolgan edi. Yosh narsa ham ishni, ham bolalarni eplab erini butun urush kutdi, undan darak bo'lmadi. Urush tugaganidan keyin, yana kutdi sho'rlik.

Birdan mo'ysafid jim bo'lib qoldi. Sal hayajoni bosilganidan keyin yana davom etdi:

— Mana urush tugaganiga ham besh yildan oshyapti, ammo Xudoyberdimdan hamon darak yo'q. Erining dog'ida kuya-kuya oqibati shu kasalga duchor bo'lди... — Cholning gaplari o'ziga ta'sir qilib ketdimi, kuyunib o'zini-o'zi koyidi: — Bir haftadan beri ishdan bo'shab vaqt topolmayman, axir menden

boshqa yo'qlab keladigan odam yo'q. Yetim qizni olib bergandim Xudoyberdimga.

Ular anchagacha sukut saqlab yo'lida davom etishdi. Sayfi bu tinchlikni buzgani cho'chirdi. Uning ko'z o'ngidan necha yillardan beri erining yo'liga intizor bo'lib tikilib o'tirgan va og'ir dardga chalingan ayol ketmasdi. Nihoyat tomoq qirib olib, so'radi.

— Dam olish kunlari kelsangiz bo'lmasmidi, otaxon?

— Iye, jiyan, dehqonda dam nima qiladi? — bolaga gap qaytarayotganidan o'zini gunohkor sezib, iymanib gapirdi chol: — Qishda bir-ikki hafta nafas rostlab olmasak, boshqa paytda tong sahardan to quyosh botguncha daladamiz.

Bu Sayfi uchun yangilik edi, u hayron bo'ldi.

— Unda qachon kir yuvasizlar, qachon kinoga tushasizlar?

Endi chol taajjubini yashirolmay jilmaydi.

— Qiziq yigit ekansiz, jiyan.

— To'g'ri-dal — qizishdi Sayfi. — Mana mening adam zavodda ishlaydilar. Har haftada dam oladilar. Sizlar ham aytинг, berishsin...

— Kimga aytamiz? — soddalik bilan so'radi mo'ysafid.

— Kimga deysizmi?.. Bilmadim... Ishqilib aytish kerak!

Ular gap bilan bo'lib kasalxonaga kelib qolganlarini sezishmadi. Darvozaga yetmasdan o'n qadamcha berida Sayfi to'xtadi. Allaqanday qayg'uli nazar bilan birpas darvozaga tikilib turdi. Chol hayron bo'lib Sayfiga qaradi. U o'ng'aysizlanib xo'rsindi:

— Darvozadan kirib yo'lka bilan to'g'ri ketaver-sangiz kichkina uy keladi. O'sha yerda kasallarning ro'yxati osig'liq. Ro'yxatdan qarab keliningiz qaysi palatada yotganligini bilib oling, keyin qorovulga aystsangiz chaqirib beradi.

— Ma'qul, jiyan, ma'qul. Baraka toping.

Sayfi unga qiyiqchani uzattdi. Chol qiyiqchani oldida, qanday qilib minnatdorchilik izhor etishni bilmay dovdirab Sayfiga qaradi. Sayfi gapni qisqa qildi.

— Xo'p, xayr, otaxon.

— To'xtang, jiyan, to'xtang. — Chol qo'lidagi

xalta va qiyiqchani yerga qo'ydi, cho'qqayib o'tir-di. — Asl yigit ekansiz. Qani, qo'lingizni oching, jiyan. Omin, ilohim omadingiz kelsin, martabangiz ulug' bo'lsin, ota-onangiz rohatingizni ko'rsin, ollohu akbar! Bizni tomonlarga yo'lingiz tushib qolsa hovliga albatta kiring. Biz to'yetepalik bo'lamic. Madrayim bog'bonni uyi qayerda desangiz yetti yashardan yet-mish yashargacha hamma aytib beradi.

Sayfi ham yuziga fotiha tortdi:

— O'sha tomonlarga o'tsak kirarmiz, — deb orqasiga o'girildi-da, yugurbanicha ketdi.

U eski shahardagi tanish kitob magazininining oldiga birmuncha aftodahol kayfiyatda qaytib keldi. Sayfini kutaverib charchab ketgan To'lagan magazin-dan nariroqdagi daraxt tagida o'tirgan ekan, o'rtog'ini ko'rib oldiniga suyunib ketdi:

— Keldingmi, namuncha qolib ketding?

Sayfi javob berishga shoshilmadi.

To'lagan o'rtog'ining avzoyi buzuqroq ekanligini darrov payqadi.

— Ha, dakki yedingmi, so'kib berdimi chol?

— Yo'q, — dedi Sayfi. — Cholning kelini kasal-xonada ekan, oborib qo'ydim.

— Pul bermadimi? — so'radi To'lagan, — bo'pti-da, shunga shunchalikmi?

Sayfi javob berishga shoshilmadi. Keyin jiddiy va hazin ovozda dedi:

— Bersa ham olmas edim!

To'lagan o'z savolidan xijolat bo'lib qoldi.

— Bunaqa paytda men ham olmas edim.

Sayfi yerda yotgan kichkinagina toshni bir tepib, mungli fikrlarni o'zidan haydadi.

— O'zing hech narsa ishladingmi?

— Yo'q. Sen yo'qliging uchun bitta o'zimni oyog'im tortmadi. — Ko'ngilchan To'lagan birinchi mag'lubiyatdan darrov tushkunlikka tushdi, qoshlarini chimirib nolidi, — pul ishslash qiyin ekan.

Ammo Sayfi osonlikcha taslim bo'ladiganlardan emas edi, birpasda har qanday qiyinchilikni, qayg'uni unutib yuborar, har doim ruhi tetik, xushchaqchaq edi. U o'rtog'iga dalda berdi:

— Qo'yaver, bir-ikki oy o'tib mashhur artist bo'lib

olganingdan keyin bu qiyinchiliklar unut bo'lib keta-di. Hamma ulug' san'atkorlar ham oldiniga shunaqa qiyinchiliklarga uchrashgan, azob chekishgan! Shuning uchun lalaymal Irodali bo'll!

Yo'q, To'lagan lalaygan bo'lishni istamas edi. U Sayfiga o'xshab doim serg'ayrat va tetik bo'lishga intilardi. Buning uchun esa iroda kerak deb hisoblar-di u.

— Sayfi, seningcha menda iroda bormi? — deb so'radi To'lagan.

— Sendami? — Sayfi sinchkovlik bilan o'rtog'inining ko'ziga tikildi. — Borga o'xshaydi.

— Iroda borligini ko'zdan biladimi?

— Bo'lmasam-chi, birov senga qaraganda sen ham uning ko'ziga tikka qarab turaversang, demak irodang bor.

— Kim aytdi senga shuni?

— Bitta kitobda o'qiganman, nomi esimda yo'q.

— Iroda haqida men ham o'qiganman. — To'lagan o'qigan gaplarini eslayotgandek qoshlarini chimir-di. — Irodangni mustahkamloqchi bo'lsang, har kuni ertalab turib erinmasdan fizkultura qilishing, kechqurun yotishdan oldin tishingni yuvishni kanda qilmasliging kerak ekan. Shu ishlarni har kuni qiliшга o'zingni majbur eta olsang, irodang o'zidan-o'zi kuchayib ketaverar ekan.

Sayfi o'rtog'inining yelkasiga urdi:

— Demak, bir narsaga qasd qildingmi, maqsadga erishmaguncha orqaga chekinish yo'q. Bo'ptimi?

— Bo'pti-yu... — To'lagan yuzini ayanchli bu-rishtirdi, — uyga borib kelaylik, juda qornim ochib ketdi.

— Mayli, ketdik, — Sayfi qo'l siltadi. — Baribir bunaqada pul topib bo'lmas ekan. Ertagacha boshqa narsani o'ylab kelaman. Ishqilib ertaga shu yerga to'qqizga yetib kelgin. Bo'ptimi?

— Bo'pti, — dedi To'lagan anchayin ishonchsiz ovozda.

Ular bozor oralab uylariga yo'l olishdi. Zum o'tmay odam qaynayotgan g'ala-g'ovur bozor ularni o'z qa'riga yutib yubordi.

ADASINING TAYANCHI

Bozordan qaytishar ekan To'laganning qistoviga qaramay Sayfi ularnikiga kirgani ko'nmadni. Chunki qiladigan zarur ishi bor edi.

U oilada to'ng'ich farzand bo'lgani uchun ota-onasining asosiy suyanchig'i edi. Suyanchig'i bo'lish albatta yaxshi-yu, ammo ishning ham eng og'iri Sayfining bo'ynda edi.

Urush jarohatlari hali to'la-to'kis bitib ketmagani tufayli hayot hali u qadar farovon emas, oziq-ovqat tanqis edi. Oilada faqat bitta odam — Sayfining adasi Rahim aka ishlardi, oldin onasi ham baholi qudrat ro'zg'orga qarashib turardi. Endi ishga yaroqsiz bo'lib qolgandi. Shuning uchun ularni o'ziga to'q oila deb bo'lmasdi.

Rahim aka har kuni ertalab zavodga ketayotgani-da o'g'liga ish buyurib ketardi va Sayfi kechgacha aytilgan ishni qilib qo'yishi shart edi. O'tin yorib qo'yish, jinko'chaning boshidan obkashda o'n ikki chelak suv tashib hovlidagi xumni to'lg'azish, ekin-larning tagini chopish yoki sug'orish, o'rikni terib, quritgani toonga yoyish kabi yumushlarni Sayfi og'rinmay qilardi. Ammo me'dasiga urgan bitta ish bor edi, adasi deyarli kunora o'shani buyurib ketardi. Bu jo'xori tuyish edi.

Rahim aka go'ja oshini yaxshi ko'rardi, buning ikkita sababi bor edi, birinchidan jo'xori arzon bo'lsa, ikkinchidan haqiqatda mazali va ustiga-ustak odamni to'q tutadigan taom edi.

Sayfi ertalabdan kechgacha to'nka yorishga yoki suv tashishga rozi edi. Faqat jo'xori tuyishdan ozod qilishsa bo'ldiydi. Chunki jo'xorini yanchish azob edi.

Dastani qattiqroq ursang hamma jo'xori o'g'irdan sochilib ketardi, sekin ursang maydalanmasdi. Bir me'yorda tuyishga sira bo'yni yor bermadi. Ha, dax-mazali va xunob ish edi jo'xori tuyish.

Sayfi uyga kelib apir-shapir choy ichdi-da, yelkasidan tog' kabi bosib turgan yumushdan tezroq qutulish uchun singlisi Malohatga o'g'irni artib tayyorlashni va tog'orada jo'xori olib chiqishni buyurdi.

Malohat akasi aytgan narsalarni o'rikning tagiga taxt qilib qo'ydi.

— Faqat jo'xorini maydaroq tuy, o'tgan kungisini ertalabdan kechgacha qaynatib qo'ysam ham pishmadi, nomiga tuyibsan, ichida butunlari ham ko'p ekan,— Malohat akasidan atigi bir yarim yoshgina kichkina, shuning uchun sensirab gaplashardi.

Sayfi javob berish uyoqda tursin, singlisi tomon hatto qayrilib boqmadi ham.

— Eshitdingmi? — o'zinikini qo'ymadi Malohat.

— Ovozingni o'chir, — ortiqcha dag'dag'a qilmasdan gapirdi Sayfi, — o'zingdan kattalarga aql o'rgatma deb necha marta aytganman senga, po'skalla!

Biroq Malohat gapdan qoladiganlardan emas edi.

— Senga pala-partish tuyib qochib qolish bo'lsa, azobini men tortaman. Buyoqda o'tinning zavoli. Yo oshib-toshib yotibmizmi, yiliga ikki martalab o'tin sotib olib?

— Nima, kaltak yeging kelyaptimi? — Endi singlisiga rosmana o'dag'aylab berdi Sayfi, uning g'idi-bidi gaplarga tobi yo'q edi.

Bu gal Malohat tilini tiyishga majbur bo'ldi, chunki akasi jo'xorini tuyishni boshlagan, ish qilayotgan odamning jig'iga tegish insofdan emas edi.

Sayfi ikki soatga qolmay jo'xorini tuyib bo'ldi. O'rik daraxti tagiga — salqinga qo'yilgan xumning yoniga borib cho'kdi. Tindirib qo'yilgan suvdan yog'log'ida olib ichdi-da, hushtak chalib singlisini chaqirdi.

— Otim yo'qmi, nuqul hushtak chalib chaqirasan?

— o'pkaladi o'choqboshidan chiqib kelgan Malohat.

— Ko'p gapirmasdan anavilarni yig'ishtirib ol, — o'g'ir tomonga ishora qildi Sayfi, — tuyilgan jo'xorini hammasini bir kunda qozonga tiqmay sal avaylab ishlat.

— Sendan yaxshi bilaman, — Malohat tuyilgan jo'xorini sinchiklab ko'zdan kechirdi, akasining halol ishlaganini ko'rди, ammo maqtamadi.

Chunki maqtaydimi, urishadimi Sayfi uning gapi ni bir tiyinga olmasligini bilardi.

Sayfi yana birpas o'tirib salqinda hordiq chiqardi. Keyin suv tashib xumni to'lдirdi. Kechga tomon,—

— Bo'pti, men ketdim, — dedi-da, ko'chaga ravona bo'ldi.

U to'g'ri adasining zavodiga yo'l oldi. Rahim aka ishdan chiqishimga borib turgin deb tayinlamasdi, lekin Sayfi adasining qaytayotganida bozor-o'char qilib kelishini bilardi, ko'maklashgani borardi. Uylari zavoddan uzoq emas edi.

Sayfi zavodga smena tugab, ishchilar darvozadan chiqib kelishayotgan paytga yetib bordi. U ko'chaning narigi betiga o'tib, adasining chiqishini kutdi. Ko'p o'tmay Rahim aka paydo bo'ldi, ammo Sayfi unga yaqinlashishga shoshilmadi. Ha, shoshilish kerak emas, hozir borsa jerkib berishi mumkin. Otasining odatini bilardi Sayfi, oldin «ish»ini bitkazib olsin, keyin ko'ziga ko'rindi.

Rahim aka muyulishdagi magazinga yo'naldi. Uning qo'lida qalin va daqal matodan tikilgan, eskip yag'iri chiqib ketgan katta xalta bor edi, hech ayrilmasdi bu xaltasidan Rahim aka.

Sayfi ko'chaning bu betidan adasini kuzatib izmiz boraverdi. Adasi magazinga kirib ketgach, o'zini panaga olib, qaytib chiqishini poyladi.

Rahim aka magazinga kirib tanish sotuvchi ayol bilan bosh silkip so'rashdi. Sotuvchi birpas sabr qiling ishorasini qildi.

Rahim aka qunt bilan peshtaxtalarga qo'yilgan oziq-ovqatlarni ko'zdan kechira boshladi. Ochig'ini aytganda, tomosha qilishga arzigulik to'kin-sochin emas edi peshtaxtalar: makaron, guruch, baliq konervalari...

Sotuvchi qo'li-qo'liga tegmay savdo qilardi. U navbatda turgan to'rtta odamni ikki minutga qolmay hojatini chiqardi. So'nggi xaridor chiqib ketishi bilan yana boshqasi paydo bo'lib qolmasin uchun Rahim aka ildam unga yaqinlashdi.

— Alfiya, bitta-yarimtasi kirib qolmasdan meni jo'natvoraqol.

— Bir kun menga gap tekkazasiz-da. Magazinda maydalab sotish taqiqlangan, — shishaning og'zini ochaturib so'zladi Alfiya. Bu gapni u har gal qaytarardi, nima uchun shunday qilardi, o'zi ham bilmasdi.

— Qo'rqlama, senga gard ham yuqmaydi, nega

desang savob ish qiladiganlardan gunoh nari yuradi.

— Shunaqa deb ovutasan-da, — Alfiya stakanga yuz ellik gramm araq quyib Rahim akaga uzatdi, gazagiga tuzlangan pomidor berdi.

Rahim aka kiprik qoqmay stakanni bo'shatdi. Pomidordan bitta tishladi.

— Yozib qo'y, — dedi sotuvchiga.

Alfiya g'ijim-g'ijim bo'lib ketgan daftarni ochib, qalamda belgi qo'ydi.

— Bu uchinchisi.

— Bilaman, maosh ertaga bo'lar ekan. Bu oyda qarzim ancha kamayibdimi?

— Yetadi senga. Shu issiqda zarur kelibdimi ichib? Aslida tashlaganga nima yetsin-a?.. — dedi Alfiya.

— Bu gaping ham to'g'ri, tashlash kerak, — Rahim aka xaltasidan yarim litrli shisha banka chiqardi, yuz gramm sariyog' so'radi.

— Bu ham nasiyagami?

— Yo'q, yog'ga naqd to'layman.

Rahim aka sariyog'ni olib bankaga soldi, og'zini qog'oz bilan yopdi. Xayrlashib eshik tomon yo'naldi. Hali eshikka yetmasidan orqasidan farrosh Marfa Petrovnaning gapini eshittdi.

— Erkak zotiga hayronman-da, bir haftada zo'rg'a yuz gramm sariyog' olishga qurbi yetadi-yu, tag'in ichganiga o'laymi bu xumparning?!

— Bilmasdan birovni qoralama, Marfa. Yuragida dardi bor. Ha, uyida halovat yo'q, to'rtta bolasiga o'zi qaraydi, erkak boshi bilan, xotini kasalmand, — dedi Alfiya, — ammo halol odam, biror marta bir tiyinimga xiyonat qilmagan, qarzini vaqtida oqizmaytomizmay to'laydi. Piyanistalarining ichida bunaqasini ko'rмаганман.

Ayollarni g'iybatga bichgan, tentaklar ularning gapiga e'tibor beradi. Shu xayolga borgan Rahim aka magazindan ochilib chiqdi, atrofga xushhol boqib yo'lga tushdi.

Adasining chiqishini kutib turgan Sayfi endi unga yaqinlashish mumkinligini bilardi.

— Assalomu alaykum, ada!

— Ha, kelgan ekansan-da...

Rahim aka o'g'lini ko'rib ajablanmadi. Chunki keyingi paytlarda Sayfi tez-tez kelib turardi.

— Oyimlarning oldilariga boramizmi, ada?

Rahim aka javob berishdan oldin o'zicha nimalarnidir chamalab ko'rdi.

— Ertaga boramiz, — dedi u.

Yo'lida yana bitta magazinga kirdi, besh kilo guruch olib o'g'liga berdi.

— Sen uyga ketaver, — deb tayinladi, — men bozorga kirib, keyin boraman.

Sayfi uyga jo'nadi. Uning dardi fikri ertagi uchrashuvda, pul topib kinoapparat sotib olishda edi. Ertaga To'laganning oldiga qup-quruq borolmaydi-ku, qandaydir yo'lini topishi kerak. Birdan uning miyasiga g'alati fikr keldi. U uyiga bora solib guruchni oshxonaga qo'ydi-yu katta uyga kirib sandiqni titkilay boshladi. Ishga berilib ketib tepasida singlisi Malohat paydo bo'lib qolganini sezmadni. Singlisi odati bo'yicha o'zini juda mustaqil tutib, hukmdor ovozda so'radi.

— Nima qilyapsan?

Sayfi indamasdan o'z ishini davom ettiraverdi.

— Nega sandiqni titkilayapsan deyapman?!

— Senga nima? Bor, ovqatingni pishir, — sandiqdan boshini ko'tarmay gapirdi Sayfi.

— Titma sandiqni! — Malohat tixirlik qilib turaverdi.

— Nima?! Yaxshilikcha jo'nab qol bu yerdan! — o'shqirib berdi Sayfi.

Malohat akasining vajohatini ko'rib chekinishga majbur bo'ldi. Lekin hamla bilan chekindi:

— Agar yana hamma narsalarni avvalgidek joy-joyiga taxlab qo'ymasang, adamlardan ko'rasan kunningni!

Sayfi singlisiga javob berishni loyiq topmadi. Malohat javrab chiqib ketdi.

Sayfi kerak narsasini topolmay, kiyimlarni yumaloq-yastiq qilib qaytadan sandiqqa tiqdi. Keyin taxmon yonidagi kirxonadan bitta bo'xcha oldi. Uni ham titkilay boshladi. Bitta churuk-churuk shim topdi. Shimni qo'lida ko'tarib uyoq-buyog'ini ag'darib ko'rdi. Yana bo'xhani titkilashda davom etdi.

Nihoyat, qidirayotgan narsasini topib shkafga yashirib qo'ysi. Ko'ngli joyiga tushib hovliga chiqdi.

O'choq boshida Malohat ivirsib ovqat pishirish bilan ovora edi.

— Ey, ovqating pishgan bo'lsa suz, qorin juda ochib ketdi-ku! — dedi Sayfi.

— Birpas tursang uzilib qo'maysan! Adam kelgalarida birga yeymiz.

Sayfi singlisi bilan tortishib o'tirishning foydasizligini tushundi, ayvonga chiqayotganida orqasidan Malohatning ovozi eshitildi:

— Kiyimlarni taxlab qo'ydingmi?

Sayfi bugal ham singlisining savolini javobsiz qoldirdi.

Ayvonda Sayfining biri sakkiz yashar, ikkinchisi to'rt yarim yashar To'lqin va Erkin degan ukalari oshiq o'ynab o'tirishardi. Sayfi o'yinni birpas tomosha qildi, keyin o'zi ham qiziqib o'yinga qo'shilishib ketdi. Ikkita katta aka eng kichkina Erkinni ranjitib chetga chiqarib qo'yishdi. Erkin, «men ham otay, meni galim», deb g'ingshib ularning atrofida girdikapalak edi.

Eshikdan Rahim aka kirib kelganini birinchi bo'lib Erkin ko'rди, qichqirib qarshisiga yugurdi.

— Adam keldilar, adam keldilar, — dadasiga yaqinlashib so'radi, — ada, nima opkeldingiz?

— Shoshilmasang, hozir ko'rasan, — dedi Rahim aka.

— Assalomu alaykum, — Malohat chaqqon kelib dadasining qo'lidan xaltani oldi.

Uning odati shunaqa edi, adasi nima olib kelsa ayttirmasdan o'zi bilib saranjomlab qo'yardi.

— Ura, sariyog'! Sariyog'! — Erkin ikkala qo'li bilan sariyog'ga tashlandi.

Rahim aka vazminlik bilan sariyog'ni kenjasining qo'lidan olib, eski shkafning ustiga qo'ydi. Xaltadan olma chiqarib Erkinga berdi:

— Senga, mana, olma olib keldim. Sariyog' oyingaga! Oying sariyog'dan ko'p yesa, darrov tuzalib keta-di, keyin sening oldingga keladi.

— Yo'q, menga olma kerak emas, sariyog' berasiz, — xarxasha qila boshladi Erkin.

— Bo'ldi, ko'p suyulma, — jerkib berdi ukasini Malohat.

Erkin opasiga norozi bir nigoh tashladi, uning gapini ikkita qilolmasdi, shang'illab xarxasha qilish-dan qo'rqib sal ovozini pasaytirdi, ammo g'ingshishi-ni qo'ymadni.

— Ada, ozgina saryog' beraqoling!

— Manavini ola qol, juda yaxshi olma ekan, — Sayfi Erkinni bir amallab chalg'itdi.

Malohat olmani taqsimchaga bo'shatdi, bo'sh xal-tani qoziqqa ildi. Keyin o'choq boshiga yo'l oldi. Rahim aka hovliga tushdi. Sayfi yelkasiga sochiq tashlab dasasiga yaqinlashdi, tunuka choynakdan adasining qo'liga suv quyib turdi. Rahim aka yuvindi, artindi.

Malohat bir tog'ora moshxo'rda suzib keldi. Hammalari ayvondagi xontaxta atrofiga o'tirdilar. Malohat oldin adasiga, keyin boshqalarga ovqat suzib berdi. Mayda to'g'ralgan rayhon va atalangan qatiq-dan har kosaga bir qoshiqdan soldi.

Yozda moshxo'rda yetadigan taom yo'q, maza qilib ovqatlandilar. Rahim aka bo'shagan kosasidan suyak olib tozalay boshlagan edi.

— Menga ham suyak! — deb yana xarxasha qildi erkatoy.

— O'zingning kosangda ham bor! — hukm o'qigandek gapirdi Malohat.

Erkin kosasini titkiladi:

— Menga go'sht kerak emas, menga ham suyak beringlar, suyak kerak.

— Suyak tozalashni bilmaysan-da hali, o'g'lim, — kenjasini yupatmoqchi bo'ldi Rahim aka.

Sayfi kosasini kovlab kichkinagina suyak topdi, olib iljayganicha Erkinga uzatdi:

— Ushla, suqatoy.

— Berma! — qat'iy buyurdi Malohat.

— Mayli, yeza qolsin, mening yegim kelmayapti.

— Shunaqa qilib bolani buzasan-da. Shuning uchun tantiq bo'lib ketyapti, — norozilik bildirdi Malohat.

Sayfi Erkinga qarab ko'zini qisib qo'ydi.

— Yeyaver, qorinboy.

Erkin suyakni beso'naqay ushlab burni aralash og'ziga tiqdi-da, qalqib ketdi. Hamma kulib yubordi.

Ufq qizarib, quyosh bota boshladi. Rahim aka o'rnidan turib hovlidagi bir tup o'rik shoxiga osib qo'yilgan to'rqovoqqa yaqinlashdi, bedanasiga suv berdi. Keyin kelib ayvondagi eski priyomnikni bura-di, maqomlardan parchalar yangradi...

Hademay kech kirdi, uxlaydigan payt bo'ldi. Malohat ayvonga Sayfi va ikkita ukasiga qator o'rın soldi. O'ziga alohida, karavotga esa adasiga joy qildi. Bolalar yotishdi. Radiodan berilayotgan konsert tugab, soat 22 deb e'lon qilindi va so'nggi axborot boshlandi:

«Dalalarimiz azamatlari mehnat kamarlarini yana-da mahkamroq bog'lab to'rtinchchi besh yillikni ajoyib mehnat zafarlari bilan yakunlamoqdalar. «Tash-selmarsh» zavodining ilg'or ishchisi Mannob To'ychi-yev 1955-yil hisobiga ishlamoqda».

Rahim aka sal ensasi qotib priyomnikni o'chirdi. O'rniga yotdi. Tun. Son-sanoqsiz yulduzlarga to'la osmonning ko'rinishi allanechuk sehrli. Qayerdadir to'y bo'lyapti shekilli, karnay va nog'ora sadolari, kulgi, qiyqiriqlar elas-elas eshitilib qoladi. Rahim akaning uyqusi kelmas edi. Shu payt ayvonda allaqanday sharpa ko'rindi. Rahim aka ko'zini ochib sinchiklab tikildi. Sharpa kenjatoyi Erkin ekanini arang tanidi. Erkin oyoq uchida yurib borib stulni oldi, zo'rg'a ko'tarib shkafning yoniga qo'ydi, tirmashib stulning ustiga chiqdi. Do'mboq qo'lini cho'zib shkaf ustidagi sariyog'ni oldi. Keyin ko'rsat-kich barmog'ini sariyog'ga botirib yalay boshladi. Lazzatdan lablarida tabassum paydo bo'ldi. Mana, u yana bir marta panjasini sariyog'ga botirdi, huzur qilib yaladi.

Qorong'ilikda o'g'lini kuzatib yotgan Rahim akaning ko'zлari qayg'uli va mungli edi. U o'g'lidan ko'zini uzmashi. Erkin uchinchi marta sariyog'ga qo'lini cho'zganda Rahim aka sekin yo'talib qo'ydi. Erkin sakrab stuldan tushdi-da, ko'rpaning tagiga sho'ng'idi.

Rahim aka turib o'tirdi. U bir nuqtaga uzoq tiki-lib qoldi. Keyin ohista o'rnidan turdi. Qorong'ida tur-

tinib-surtinib shkafga yaqinlashdi, paypaslab ohib, bitta shisha oldi. Shisha tagida yuz grammcha araq bor edi. Rahim aka shoshmasdan shishaning og'zidan araqni ichdi. Chelakdagi suvdan krujkada olib uni ham ichdi. Yana karavotga borib o'tirdi. Bir mahal keskin bir harakat bilan o'rnidan turdi. Shartta chiroqni yoqdi. Sariyog'ni olib xontaxtaga qo'ydi.

— Turinglar, hammanglar turinglar! — dedi u baland ovozda va non olib burdaladi.

Bolalar hayron bo'lib boshlarini ko'tarishdi.

— Turinglar, olinglar, yenglar sariyog'dan.

Hammadan oldin Erkin irg'ib turdi. Uning quvonchi ichiga sig'masdi, sariyog'ga o'zini tashladi. Eng keyin Sayfi xontaxta yoniga keldi. U norozi bir ovozda adasiga gapirdi:

— Oyimlar-chi? Oyimlarga nimani olib borasiz, ada?

— Oyingga ertaga boshqa sotvolaman, pul bor, maosh tegadi. Yeyaver, o'g'lim.

Sayfi sariyog'ni paqqos tushirayotgan ikkala ukasiga birpas tikilib turdi, ukalariga dakki bergani adasining oldida haddi sig'madi. Oila boshining ra'yiga qaramaslik beodoblik-da.

Malohat bir chekkada ukalarini kuzatib turardi.

— Ha, qizim? — so'radi Rahim aka, — olmaysan-mi?

— Yegim kelmayapti,— dedi Malohat sipolik bilan.

Rahim aka ikki katta farzandi onasiga ilinib sariyog' yemayotganligini payqadi. Yuragi achishib ketdi.

NOTANISH AYOLNIKIDA MEHMONDA

Ertasiga ertalab To'lagan eski shahardagi tanish kitob magazini oldiga Sayfidan oldin yetib bordi. Nima uchundir o'rtog'i bugun hadeganda kelavermasdi. To'laganning toqati toq bo'lib endi uyiga qaytib ketmoqchi edi, nihoyat, qo'lida kichkina tugun, Sayfi yugorganicha kelib qoldi. Kela solib haloslaganicha tugunni To'laganga tutqazdi.

— Ushla, anavi gazeta sotadigan budkaning

orqasiga o'tib kiyimingni almashtirib chiq, — hovliqib gapirdi Sayfi.

— Kiyimingni almashtirib chiq?! — hayron bo'ldi To'lagan. — Qanaqa kiyim?

— Almashtirib chiqaver, keyin ko'rasan.

To'lagan hech narsaga tushunmadi.

— Almashtirib nima qilaman?!

— Almashtiraver, gap bor. — Sayfining ovozi shu qadar hukmdor chiqdimi, gapini qaytarib bo'lmadi.

Ammo To'lagan ko'chada yechinib kiyinishga ko'nmadi. To'g'ri-da, Sayfiga o'xshagan betsiz emas u.

— Budkaning orqasiga o't deyapman-ku. Men qarab turaman. Birortasi yaqinlashsa hushtak chalaman. Qimirla tezroq!

'To'lagan istar-istamas budkaning orqasiga o'tdi.

Sayfi atrofga alanglab soqchilik qilib turdi. Bir mahal budkaning orqasidan To'lagan mo'raladi. U yalang'och, bitta ishtonida, yig'lamsirab so'radi:

— Sayfi, shiming tor ekan, sig'mayapti! Nima qilay?

— Bir amallab kiy! O't-bo'ti sal yirtilib ketsa ham mayli!

To'lagan yana budkaning orqasiga yashirindi. Sayfi atrofga alanglab yana exitga qarab turdi. Oxiri chidolmay:

— Ey, bo'lsang-chi tezroq, baqaloq, namuncha imillaysan?! — dedi.

— Bo'ldim, — budkaning orqasidan churuk-churuk ko'ylak va shimda To'lagan chiqib keldi.

Sayfi uni ko'rib kulib yuborishdan arang o'zini ushlab qoldi.

— Sig'ibdi-kul..

— Sal yirtilsa ham mayli emish. Nimasi yirtiladi, shundoq ham dabdalasi chiqib yotibdi-ku.

Sayfi darrov jiddiy tortdi, sinchiklab o'rtog'inining boshidan oyog'igacha nazar tashladi. Ko'ngli joyiga tushdi.

— Tuzuk, endi sal odambahshara bo'libsan!

— Qo'ysang-chi, shunaqa churuv-churuv kiyimda yurgani odam uyaladi.

— Odam uyaladi?! O've, miya, po'rim kiyinib olif-

ta bo'lib yursang, kim senga pul beradi. Mana ko'rasan, endi ishimiz yurishib ketadi. — Sayfi o'zida yo'q xursand edi, — ust-boshimizni ko'rgan odamning yuragi achishib albatta yordam qiladi.

To'lagan angrayib qoldi, o'rtog'inining maqsadini endi anglagan edi u.

— Ja mug'ambirsan-da, Sayfi, — dedi. Keyin esiga tushib qolib xavfsiradi. — Shu yurish-turishimni bitta-yarimtasi ko'rib qolib buvimlarga yetkazsa, nima bo'ladi?

— Qo'rqma, hech kim ko'rmaydi, — parvoysi palak javob berdi Sayfi. — Endi sen «xit»ga qarab tur, men ham kiyimimni o'zgartirib chiqay.

Sayfi To'laganning qo'lidan tugunchani olib budkaning orqasiga o'tib ketdi. To'lagan ko'rinishidan uyalib, bir chekkada shumshayib turar, yon-atrofga xavotirona nazar tashlab qo'yardi. Poyloqchilik qiliishi kerakligini ham unutib qo'ygandi.

Shu payt qayoqdandir Gulmira o'zining sira ayrilmas va indamas dugonasi bilan paydo bo'lib qoldi, qo'lida kinoapparat. Ularni ko'rishi bilan To'lagan zo'r berib hushtak chala boshladidi. Ishqilib lop etib Sayfi chiqib qolmasin-dal

Gulmiraning To'laganga ko'zi tushdi-yu, qotib-gotib kuldi:

— Voy, o'lmasam, senga nima bo'ldi, To'lagan?!

— Menga nima qilipti, — sir boy bermadi To'lagan. — Hamma senga o'xshagan boymi?

— Ho, hali siz kambag'al bo'lib qoldingizmi? Kimsan professor Nig'matiyning o'g'lisan-ku.

To'lagan Gulmiraning gapiga e'tibor bermay hush-tak chalaverdi.

— Sen o'zing qaysi biriga yozilgansan? Ashulagami yo badiiy hushtak chalish to'garagigami?

— Nima edi?

— Hushtak chalishga juda usta bo'lib ketibsan! Bulbuligo'yoga o'xshaysan-a!

Budkaning orqasidan Sayfi chiqdi. Gulmiraga ko'zi tushib endi orqasiga qaytib bekinmoqchi edi, kechikdi. Gulmira uni ko'rib qolgandi.

— Voy, tavba, bunisining ham kiyimi dabdala, senlarga nima bo'ldi o'zi?

Sayfi darrov o'zini qo'lga oldi.

— O'zing nega bu yerda ikki kundan beri o'ralashib qolding? Bor, yo'lingdan qolma? — Sayfi hujumga o'tdi.

— Nima qilay, o'zlarining nuqul oyoq ostidan chiqsalaring! — bo'sh kelmadi Gulmira.

Sayfi uni jerkib tashlamoqchi edi, birdan Gulmiraning qo'lidagi kinoapparatga ko'zi tushib, gapi og'zida qoldi.

— Ey, nima bu, kinoapparatmi?

— Shunaqa shekilli, — beparvogina javob berdi Gulmira.

— O'zingnikimi? — havasdan ko'zlarini qinidan chiqib ketayozdi Sayfini.

— O'quvchilar saroyiniki. Menga berib qo'yishgan, yangi kino olyapman.

— Qanday kino?

— Chiqqanda ko'rasan.

— Berib tur, bitta ushlab ko'ray, — yalindi Sayfi.

— Vaqtim yo'q, shoshib turibman. Keyin, bunaqa narsalarga baribir sening fahming yetmaydi. Xayr, sizlarga!

Gulmira, uning ketidan indamas dugonasi mag'rur yurib ko'chaning narigi betiga o'tib ketishi.

— Ho, fahming yetmaydi emish, — Sayfini jahli chiqdi, — shoshmay tur hali, qo'limizdan nimalar kelishini yaqinda bilib qolansan!

Sayfi yana bir karra o'rtog'inining boshidan oyog'igacha razm soldi. To'laganning ko'rinishi unga ma'qul bo'ldi. Bugun albatta omadlari keladi. Sayfi yo'lga tikildi. U yuki bor qariyalarni qidirardi. Ha, ana, bitta yoshi o'tibroq qolgan ayol kelyapti, qo'lida savat. Sayfi To'laganni turtib ayolga ishora qildi. Ayol yaqinlashib qoldi. Uning sochlariiga oq oralagan, sipo va ozoda kiyingan, ko'zoynak taqib olgan, xullas ko'rinishi saxovatli, muloyim edi, har qalay To'lagan unga qo'rmasdan, cho'chimasdan yaqinlashdi.

— Salom, — dedi.

Ayol ko'zoynagini to'g'rilab To'laganga qaradi. Tanimadi. Bir oz ajablanib alik oldi.

— Ha, opovsi, biror gaping bormidi menda?

— Mayli desangiz, savatingizni uyingizgacha ko'tarib oborib beraman.

Ayol hayron bo'lgandek To'laganga g'alati nazar tashladi. Zarracha fursat jim qoldi. Keyin:

— Mayli-yu, lekin uyim juda uzoq-da, — dedi muloyimlik bilan.

To'lagan gap topolmay qoldi. Oraga Sayfi tushdi:

— Unga baribir, qayoqqa bo'lsa ham ketaveradi.

— Kech qolsang, uydagilaring xavotir olishar?

— Yo'q, uning xavotir oladigan odami yo'q.

Sho'rlik yetimcha, — yana To'laganning o'rniiga javob berdi Sayfi.

Endi ayol Sayfiga sinchiklab qaradi. Sal kulimsi-rab iliqlik bilan so'radi:

— Sen qayoqdan bilasan?

— Menmi? — Sayfi zig'ircha hayiqmay burro javob berdi, — hozirgina yig'lab menga dardini to'kib solayotgan edi. Yana o'zi biladi, borsa borar, bormasa bormas.

Sayfi teskari qarab hushtak chala boshladi.

— Boraveraman, — To'lagan ayolning qo'lidan savatni oldi, — xavotir olishmaydi.

— Unday bo'lsa mayli, — ayol yo'l boshladi

To'lagan uning orqasidan ergashdi. Sayfi bir hatlab o'rtog'iga yetib oldi, qulog'iga shivirladi:

— Uyi uzoqda ekan, albatta pul beradi. Ishqilib yig'lamisrab gapiresh esingdan chiqmasin, — Sayfi basharasini burishtirib qanday gapiresh kerakligini ko'rsatdi. — Dadamlar o'lib ketganlar, to'qqizta norasida ukam bor, bitta oyimlarning topganlari nimaga yetadi. Shunaqa degin, xo'pmi?

— Eplolarmikinman?

— E, artist bo'ladigan odam bunaqa narsalarni qiyvorishi kerak. Eplaysan, — dedi Sayfi, — seni shu yerda kutaman.

Shu payt ayol orqasiga qarab qoldi. Sayfi ovozini balandlatib, darrov gapni boshqa yoqqa burdi.

— O'ksima, oshna, bizning zamonda hech kim nochorlikda yashamaydi, mana ko'rasan, sening ham baxting ochilib ketadi. Xayr!

Sayfi orqada qoldi. Ko'zoynakli ayol bilan To'lagan yo'lda davom etdilar. Tramvayga tushib eski

Xadra, Shayxontohurdan o'tib , O'rdaga borishdi. Ayolning uyi shunday Anhor bo'yida, to'rt qavatli binoda ekan. Ular uchinchi qavatga ko'tarilishdi. To'lagan ostonada to'xtab, savatni yerga qo'ydi, nima deyishini bilmay ikkilanib turdi.

— Uyga kir, choy qilib beraman, — yumshoq, lekin so'zini ikkita qildirmaydigan ohangda gapirdi ayol.

— Men choy ichmayman, qornim to'q.

— Ichib keta qol. O'zingdan katta iltimos qilsa, xo'b deyish kerak-da, — iltijo qildi ayol, — shundan shunga kelib birpas o'tirmasdan ketsang xunuk bo'lar. Ha, picha dam olib borasan.

To'lagan noiloj qo'nishga majbur bo'ldi. Uyga kirdilar.

— Vannaga kir, qo'lingni yuv.

To'lagan vannaga kirib qo'lini yuvdi. Dastro'molchasini olib arta boshladni.

— Ana sochiq, orqangda — qoziqda.

— Dastro'molcham top-toza, buvim bugun ertalab bergen edilar. Hali bir marta ham burnimni artmadim.

— Buvim deysanmi? — ma'nodor qilib so'radi ayol. — Boya yetimchaman deyayotgan eding shekil-li?

To'lagan lom-mim deyolmay qizarib ketdi, mulzam bo'lib yerga qaradi.

— Mayli, o'tir, — ayol stolga dasturxon tuzadi. Elektr plitkaga choy qo'ydi. U To'laganni gapga solishga harakat qilardi.

— Buving juda qarib qolgan bo'lsalar kerak-a? Chatishga ham ko'zları o'tmay qolibdi, chog'i? — tusmollab so'radi, — kiyim-boshingni ahvolini ko'r.

To'lagan o'rtog'i o'rgatgandek tullaklik qilib o'zini bechora ko'rsatishga urinib ham ko'rmadi. Chunki bu yoqimtoy ayolga yolg'on ishlatib bo'lmasdi, juda alomat, ko'zingga qarab xuddi ichingdag'i butun siringni bilib olayotgandek edi. Yo'q, bu ayolga hiyla ishlatib bo'lmaydi.

— Ko'zları o'tadi. Kiyaman desam yangisi ham bor.

— Mening ham miyamga, ataylab churuv-churuv

kiyimda yuribdi, degan fikr keldi. To'g'ri topibmani mi?

— Ha, ataylabdan...

— Barakalla, mard bolalar rostgo'y bo'ladi, — ayol dahlizga yo'l oldi.

To'lagan sekin boshini ko'tardi, atrofga alanglab, xonani ko'zdan kechirdi. Birdan devorda osig'liq turgan rasmga ko'zi tushdi. Rasmida ayolning sal yoshroq payti, bir sinf bolaning o'rtasida o'tiribdi. Uning o'qituvchi ekanligini bilib To'lagan qo'rqib ketdi. Shoshib qolib, birdan o'rnidan turdi. Shu payt xonaga ayol kirib keldi.

— Ketsam maylimi? — yolborish ohangida so'radi To'lagan.

— To'xta, hali choy ichmading-ku, — kuldi ayol. — Qo'rqma, men seni ko'p ushlab qololmayman. Ammo ataylab senga choy qo'yganimdan keyin ichib ketmasang, xafa bo'laman.

— Vaqtim yo'q, o'rtog'im kutib qoladi.

— Nima, shunaqa zarur ishlaring bormi?

— Ha, — dedi yerdan bosh ko'tarmay To'lagan, — biz pul topishimiz kerak.

— Pul topishimiz kerak?

To'lagan bu ayoldan osonlikcha qutulolmasligini anglatdi, shuning uchun aldoqchilik qilmay to'g'risini ayta qoldi.

— Pul yig'ib kinoapparat sotib olmoqchimiz. Endi keta qolay. — To'lagan bu og'ir va noqulay suhbatga tezroq chek qo'yishga tirishdi.

— Hozir ketasan... Kinoapparatni nima qilasizlar?

— Kino suratga olmoqchimiz.

To'laganning o'zi ham hayron edi, bu ayoldan hech narsani yashirolmas, shuning uchun bor gapni ochiq aytaverardi.

— O, juda yaxshi ishga bel bog'labsizlar, — ayol chinakamiga maqtadi To'laganni, — san'atkor bo'lish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ammo maqsadlaringga yetishishning boshqa oson yo'li borku, nahotki miyalaringga kelmagan bo'lsa?

— Qanday yo'l ekan u? — qiziqishini yashirolmay so'radi To'lagan.

— O'zing bir o'ylab ko'r-chi.

To'lagan peshonasini tirishtirdi. Xuddi doskaning oldida javob berayotgan o'quvchidek yuzidan ter chiqib ketdi.

— To'garakni aytyapsizmi?

— Ha, barakalla, zehni o'tkir, topqir bola ekansan. O'quvchilar saroyiga borsanglar ham tekinga kinoaparbat berishadi, ham kino suratga olishni o'rgatishadi.

To'lagan ayolning maqtovidan taltayib ketdi, uyalib yerga qaradi.

— Kim biladi... Sayfi hech kimga bildirmasdan birdan dong chiqarmoqchi.

— Sayfi deganing boyagi o'rtog'ingmi, seni kuza-tib qolgan?

To'lagan «ha» degandek bosh silkidi.

— O'quvchilar saroyida bolalar ko'p, ularning orasida ko'zga ko'rinnmaymiz, o'zimiz bir oyda o'rGANADIGAN narsani u yerda bir yil o'rgatishadi, deydi.

— Obbo sizlar-ey, biz o'zimizcha dong taratmoq-chimiz degin, — ayol choyni qaytardi, bir piyola quyib To'laganga uzatdi. — Demak, manmanlikni yaxshi ko'rarkansanlar-da?

— Yo'q, yomon ko'ramiz manmanlikni... Sayfi-da, nuqul hovliqadi, hamma qatori to'garakka qatnagani sabri chidamaydi.

Ayol o'ziga ham choy quydi, bir ho'plab To'lagan-ga boqdi.

— O'rtog'ingni kamchiligini bilarkansan, ayt-maysanmi o'ziga?

— E, u meni gapimga kirmaydi.

To'lagan og'zi kuyganiga qaramay puf-puflab choyni shoshib ichdi, piyolani qaytarib berib o'rnidan turdi.

— Endi ketsam bo'ladimi?

— Namuncha shoshilasan?

— Buvimlarga peshinda qaytaman, deb kelgandim. Ayol devordagi soatga qaradi.

— Endi o'n bir bo'libdi-ku, yo uying uzoqmi?

— Uncha uzoq emas. Lolazor ko'chasida turaman.

— E, shunaqami? — Ayol ko'zlarida quvlik chaqnadi, tusmollab so'radi. — Lolazor ko'chasida mening

qarindoshim turadi. Hurriyat xola degan, tani-maysanmi?

— Yo'q, bizniki ancha ichkarilik, sakson ikkinchi uy, — To'lagan qanday qilib o'z adresini aytib qo'yanini ham sezmay qoldi.

— Mayli, agar buving kutib o'tirgan bo'lsalar, vaqtliroq borganing ma'qul, — dedi ayol.

To'lagan eshikka tomon yo'naldi.

— To'xta, — jilmaydi ayol, sumkasini ochib bir so'm chiqardi, — mana, ish haqing.

To'lagan oldiniga dong qotib qoldi, keyin o'ziga kelib duduqlandi:

— Yo'q, olmayman, sizdan olmayman.

— Uday bo'lsa yordaming uchun rahmat. Niyatlaringga yetinglar. Kino suratga olishni o'rganib film yaratsanglar meni tomoshaga taklif qilishni unutmang.

To'lagan nima uchundir qizarib yugurbanicha chiqib ketdi.

Ayol uning ketidan jilmayib qarab qoldi, keyin bir varaq qog'oz olib, «Lolazor ko'cha, sakson ikkinchi uy», deb yozib qo'ydi.

MUSHKULKUSHOD

O'rtog'idan ajrab ko'chada yolg'iz qolgan Sayfining toqati toq bo'ldi. Ketganiga bir soatcha bo'lganiga qaramay To'lagandan hamon darak yo'q edi. Kutgandan yomoni yo'q, degan gapning haqligiga u endi tushungan edi. Tikka turaverib oyog'ida oyoq qolmagani uchun ko'chaning narigi betidagi kichkina gulzorning egatiga cho'kdi. Xuddi shu payt uning ro'parasida tugun ko'targan bitta kampir paydo bo'ldi.

— Hoy, bolam, bo'yingga qoqay, mana shu tugunimni nariroqqacha ko'tarishib oborib bergen. Gardanim qotib qimirlatolmay qoldim, — dedi kampir, — baribir ham bekor o'tiribsan shekilli.

Sayfi dik etib o'rnidan turdi.

— Xo'p bo'ladi, xolajon. O'zi kasbim shu, hammolman, — dedi u quvnoq ovozda.

Kampir kemshik og'zini ko'rsatib ishshaydi:

— Voy, haziling ham bor bo'lsin, bolam. Yo gapim og'ir bottimi?

— Nega og'ir botar ekan, ishonavering, qaytanga suyundim.

Sayfi chaqqonlik bilan kampirning qo'lidan tog'orani olib, boshiga qo'ydi-da, pildillavolib ketdi. Kampir belini ushlab uning ketidan lapanglab ergashdi.

— Hoy, baraka topkur, sekinroq yur, aylanay, — javradi kampir. — Xuddi mening nabiramning o'zi ekansan, uni ham joni ichiga sig'may yugurib yuradi.

— Tezroq qimirlang-da, xolajon! Vaqt g'animat, degan mashoyixlar.

— Xudoyo tovba, xuddi nabiramning o'zi ekansan, — qaytardi kampir, Sayfining ketidan lo'killab borarkan, — gapirishlaring ham, qiliqlaring ham xuddi o'zi-ya. Voy bo'yingga tasadduq seni!

Kampir Sayfini bitta qarindoshnikiga mehmon-dorchilikka boshlab bordi. Qo'yarda-qo'y may ichkari-ga sudradi. Sayfi, bo'lar ish bo'ldi, deb kirishga rozi bo'ldi. Qorni ochroq, to'yg'azib olsa ziyon qilmaydi. Kirsa dang'illama hovli to'la odam, ayvonga ham, supaga ham, so'rige ham joy qilingan.

Uy egalari kampirni eng aziz mehmondek kutib olishdi. Kampir qarindoshlari bilan ko'rishib bo'ldida, Sayfi tomon ishora qilib gapirdi.

— Mana bu yigitcha juda ham serhimmat ekan. Hal Agar shu bo'lmanida Eski jo'vada qolib ketgan bo'lardim. Tog'aramni ko'tarib olib kelib berdi, baraka topkur.

— E, buvijon, sizga yaxshilik qilgan odamni boshimizga qo'yamiz, — deb chuvillashdi uy egalari, — qani yigitcha, yuqoriga chiqing, bizning aziz mehmonimiz bo'lasiz.

Tokning tagidagi so'rige erkaklar uchun joy qilingan ekan, Sayfini o'sha yerga taklif etishdi, izzatikrom bilan to'rga olishdi.

Oldiniga Sayfi begonalarning orasida yotsirab o'tirdi, sal o'tgach hamma o'zi bilan o'zi ovora bo'lib Sayfiga ortiqcha e'tibor bermay qo'ydi. Sayfiga xuddi shu kerak edi, u sekin ko'zining qirini dasturxong'a tashladi, unda ming xil noz-u ne'mat qalashib yotardi.

Sayfi ochko'z emas edi, suqlarga o'xshab o'zini ovqatga tashlamasdi. Lekin oliftagarchilik qilib qorni och bo'lsa ham ovqatdan nomiga cho'qilab o'tiradi-ganlar xilidan ham emasdi. Hurmat qilib oldiga ovqat qo'yishsa ortiqcha noz qilmay tinchitardi.

Oldin suyuq osh tortildi, serqatiq xo'rda mazali bo'lgan ekan, Sayfi paqqos tushirdi. Shu bilan qorni ancha qappayib qolgandi, ketidan kosada to'rttadan manti tarqatishdi. Uni ham bir amalladi. Bir oz turib ikki ovoradan deb laganda palov ulashganlarida Sayfi chidolmadi. Hatto yonida o'tirgan, ikkala lunjini shishirib ham xo'rdani, ham burdani ko'rmadim degandek tushirayotgan qorinboy odam ham, «buni qayqqa yeymiz», deyishga majbur bo'ldi.

Ammo mehmondorchilikning udumi shunaqa, yeya olasanmi, yo'qmi uch-to'rt xil ovqat tortilishi shart.

Sayfi palovdan ikki-uch luqma tatib ko'rdi, xolos, qorni do'mbiradek tiqilib, nafas olishi og'irlashib qoldi.

Ovqatdan qutilganlaridan keyin hovli to'la odam birdan jimb qoldi. Otin oyi nimalarnidir o'qib yuziga fotiha tortdi. Shundan keyin g'ala-g'ovur boshlandi.

Eng qizig'i ayvonda o'tirgan kampirlarning qiziq-chiligi bo'ldi. Sayfi kampirlarning hazillarini uncha mag'zini chaqmasa-da, maza qildi, hazillaridan emas, kulishlaridan zavq oldi. Hamma har xil kuladi, ularning kulishini eshitgan odam o'zi ham albatta kulib yuboradi.

Qornim to'ydi, hazil-mutoyiba, kampirlarning kulgisini eshitib maza qildim, endi ketsam bo'lar, uyoqda To'lagan kutib qolgandir deb o'yladi Sayfi. So'rida o'tirganlardan ruxsat so'rab o'rnidan turdi. Kampir bilan xayrashmay chiqib ketish odobdan bo'lmas edi, u sekin ayvonga yaqinlashdi. Sayfining turganini ko'rib kampirning o'zi pastga tushdi, eshikkacha kuzatib bordi. Ostonada Sayfining qo'ltig'iga qandaydir mato qistirdi.

- Nima bu? — ajablandi Sayfi.
- Indamasdan olaver, bir kiyimlik oq surp.
- E, nima qilaman bu lattangizni, kerak emas, — Sayfining kulgisi qistadi.

— Yonimdan berayotganim yo'q, dasturxonga hammamizga to'qqiz-to'qqiz tortilganda ustiga qo'yib berdi. Mushkulkushodniki tavarruk bo'ladi, yaxshi niyat qilib olaver, ilohim seni ham bizning yoshga yetkazsin.

— E, qo'ysangiz-chi, — chapanichasiga rad etdi Sayfi.

Kampirshoning birdan ovozi yumshadi, ko'zlarini mo'lillab, shafqat to'la ovozda yolbordi.

— Yo'q dema, bolam. Usti boshing ancha yupun ekan, oying ko'ylak tikib berar, surp chidamli bo'ladi. Ha qo'limni qaytarma, aylanay sendan.

Sayfi ko'ngli bo'shlikni bilmasdi, surpga qarab iljayib qo'ydi-da:

— Mayli, rahmat, — dedi. Qarasa kampiri tushmagur uyiga olib borib nabirasi bilan tanishtirib qo'yishdan ham toymaydigan. Shuning uchun surpni oldi-da gapni cho'zib o'tirmay juftakni rostlab qoldi.

U to'g'ri Eski shahar kitob magazini tomon yo'l oldi.

Borsa To'lagan yig'lamoqdan beri bo'lib uni kutib o'tirgan ekan.

— Qayoqlarda yuribsan shu paytgacha? Uyga ketolmay o'tiribman. Ber kiyimlarimni! — alamzadilik bilan do'q urdi To'lagan.

Sayfining dimog'i chog', qorni shishib, pishillab zo'rg'a nafas olardi. U To'laganning avzoyi buzuqligiga, gina-yu do'qiga mutlaqo e'tibor bermadi.

— To'xta, ovqatim sal hazm bo'lsin, keyin sen bilan gaplashaman, og'zimni ochishga holim yo'q.

— Nima?

— Bo'kib qolishimga sal qoldi.

— E, hazillaring jonga tegdi.

— Qanaqa hazil?! Mushkulkushoddan kelyapman, mana latta-putta ham berib yuborishdi, ohorlik emish, — Sayfi oq surpni To'laganga ko'rsatib qotib-qotib kuldii.

— Mushkulkushoding nimasi?

— Kim biladi?! Ishqilib bo'ktirib ziyofer qilishdi. Ammo kampirlarning kulishini eshitsang o'lib qolar-ding.

— Ha, senga kulish bo'lsa! Bo'tta seni kutaverib

xunobim chiqib ketgani bilan ishing yo‘q. Kiyimlarim qani?

— Qo‘rqma, kiyimlaringni hech kim yeb qo‘ygani yo‘q, — Sayfi poyabzal moylovchi yahudiy kishiga kiyimlarni qoldirib ketgandi. Olib o‘rtog‘iga berdi.

To‘lagan budkaning orqasiga o‘tib o‘z kiyimlarini kiyib chiqdi.

— Ha, boyagi ayol pul berdimi? — so‘radi Sayfi.

— E, sharmanda bo‘ldim. O‘qituvchi ekan. Shunaqa muloyim, shunaqa madaniyatli. Qilib yurgan ishimizdan o‘zim uyalib ketdim, — To‘lagan qo‘l siltadi, — hammasi jonga tegdi. Rostini aytsam, o‘zimning qilib yurgan ishlarimdan o‘zim jirkanib ketyapman.

— Sal ish yurishmasa, darrov chekinish ekan-da. Irodang bormi o‘zingni? — Sayfi jiddiyashdi.

— Irodam bor deb, buvimni aldab yuraveraymi?

— Yana shu gapni qaytaryapsanmi? Buni aldoq-chilik demaydi, biz hunar o‘rganmoqchimiz.

— Keragi yo‘q, bo‘ldi, ertadan boshlab bekorga ko‘chama-ko‘cha sang‘ishni yig‘ishtiraman, — dedi To‘lagan qat’iy.

Sayfi nimalarnidir o‘ylab o‘rtog‘iga birpas tikilib qoldi. Keyin ko‘zлari chaqnab To‘laganning yelkasiga bir tushirdi:

— Qoyilman senga! Ofarin! Ertadan tashkachilikni yig‘ishtiramiz. Buni qara, miyamga kelmaganini, axir pul topishning boshqa oson yo‘li bor ekan-ku.

— Yana qanaqa yo‘l? — hadiksirab so‘radi To‘lagan.

— Ja sodda yo‘ll! Futbol bo‘ladigan kunlari stadionga borib bo‘sh shisha yig‘amiz.

To‘lagan bu fikrdan hatto cho‘chib tushdi.

— E, jinnimisan o‘zing?! Bu sadaqa so‘rashdan battar-ku! Endi bir kamimiz shu — o‘zimizni o‘zimiz xor qilish edi. Bo‘ldi, meni o‘z holimga qo‘y, men ket-dim.

Sayfi To‘laganning yo‘lini to‘sdi.

— Qanaqasi o‘zing, hazilni tushunasamni? Hazillashdim.

— E, o‘lsin hazil shunaqa beo‘xshov bo‘lsa!

— Menga ham oson tutma, og‘ayni, axir, men ham

qiynalyapman-ku. Lekin senga o'xshab darrov o'yin-buzuqilik qilmayapman, chidayapman. Kel, bunday o'tir, birpas nafasimizni rostlaylik. Uf, voy qornim, hozir yorilib ketadi.

Ular yarmi siniq skameykaga o'tirdilar.

-- Bo'pti, voy qornim deb maqtanaverma, odamning ensasini qotirib, bildik, kampirlarning holvatarini yeb chiqibsiz.

Sayfi qiyqirib kuldi.

-- E, bor ekansan-ku, ammo yomon olding!

Qilgan hazili o'rtog'iga yoqqanidanmi, To'lagan ancha hovuridan tushib chehrasi yorishdi.

-- Yo'q, rost, og'ayni. Qilib yurgan ishimiz g'irt jinnilik. Tag'inam adam bilan onam kurortda. Agar shu yerda bo'lib, qilib yurgan ishimdan xabardor bo'lib qolishsa bormi, kallamni olishardi.

-- To'g'ri. Kimsan professor Nig'matiyning o'g'li hammollik qilib yurishi eshitgan qulqoqqa xunuk-da. Qo'yaver, oshna, bu kunlarning hammasi unut bo'lib ketadi. Bir kunmas bir kun film suratga olib o'zimizning mакtabda ko'rsatamiz. Bosh rolda To'lagan Nig'matov! Dovrug'ing butun mакtabga, butun shaharga yoyiladi.

Sayfi to'lib-toshib, komil ishonch bilan gapirardi. To'lagan ham shirin xayollar og'ushiga botdi.

-- Sayfi, qiz bola roliga kimni olasan?

-- Kimni bo'lardi, sen aytgan qizni-da. Bosh qahramon roliga chiqqanidan keyin seni ra'yingga qarab ish tutishga majbur bo'laman. Bosh qahramoni o'ynaydigan artistlar, odatda, erka bo'lishadi. Yo'q, men bu ayol bilan o'ynamayman, unisi undoq, bunisi bundoq, deb injiqlik qilishadi. Shuning uchun hozirdan o'zingga mosini tanlab qo'yaver.

To'lagan qip-qizarib, yerga boqdi.

-- Anuv...

-- Nima anuv! Ko'nglingga yoqadiganini aytaver qo'rmasdan!

-- Qizni roliga... Gulmirani taklif etsak bo'ladi-mi?

Sayfi o'rtog'ining Gulmiraga bo'lgan iliq munosabatini bilardi. Garchi Gulmirani ko'rishga ko'zi bo'lmasa-da, ustalik qilib qoldi.

— O'v, qanaqa odamsan o'zing, miyang bormi?! — tutaqib qichqirdi u. — Qiziq savollarni berasan-a! Gulmira o'ynashi aniq. Nima, undan boshqa mahallamizda kelishganroq, lab-dahanili qiz bormi?! Albatta, Gulmira o'ynaydi-da!

To'laganning labi ikki tarafga qarab tarvaqayladi, tabassumini yashirolmay o'rtog'iga qaradi.

— Ammo u har qanday rolni ham qoyil qiladi. Juda gapga chechan, pishiq qiz-a! Eh, qani endi tezroq kinoapparatni sotib olsak edi.

Kinoapparatni esga solib To'lagan o'zini ham, o'rtog'ini ham ta'bini xira qildi. Ikkala o'rtoq dami chiqib ketgan koptokdek bujmayib, jim bo'lib qolishdi.

— Mayli, endi men ketay, — bo'shashib gapirdi To'lagan, — bir yoqdan juda charchadim, ikkinchi yoqdan tufligim oyog'imni qisib dabdala qilib yubordi.

— Nima-nima? — o'ylanib qoldi Sayfi.

— Tufligim oyog'imni qisyapti, — dedi To'lagan basharasini burishtirib.

— Tufligim oyog'imni qisyapti? — jonlanib qaytardi Sayfi.

— Ha, buvim qo'yarda-qo'ymay, ashula o'rgangani borsang, yasanib bor, deb yangisini kiygazib yuborgan edilar.

Sayfi birdan o'rnidan sakrab turib ketdi:

— Zo'r!

— Nima zo'r? — To'lagan hayron bo'ldi.

— Ertaga bilasan. Ertaga ertalab soat o'nda to'ppa-to'g'ri... xo'sh... qayerga... ha. Qo'yliq chetroq. Qo'yliqqa yetib bor. Tramvay to'xtaydigan joyda uchrashish.

— Nima qilaman Qo'yliqda? — cho'chib tushdi To'lagan. — Kerakmas, yana tentirab yurishmi?

— Yo'q, jon o'rtoq, bu galcha borgin. Boshqa zo'rlamayman. Xo'pmi? Xo'p del — qistadi Sayfi.

— Ko'raman, — noiloj ko'nishga majbur bo'ldi To'lagan.

— Ko'raman emas, albatta bor. Bu gal qoyil qolasan o'ylab topgan narsamga.

Magazinning orqasida bolalarni kuzatib turgan

Gulmira qo'lidagi kinoapparat bilan indamas dugonasi yordamida ularni kinoga olardi. Sayfi To'laganning yelkasidan quchib uzoqlashdi. Gulmira ularning orqasidan ham kinoga oldi. So'ng dugonasiga qarab taajjub izhor qildi.

— Qo'yiliqda pishirib qo'yibdimi ularga?

Indamas dugonasi «kim biladi» degandek yelkasi ni qisdi.

DARDI BEDAVO

Rahim aka ishxonadan chiqishi bilan shoshilib tramvay bekatni tomon qarab ketdi. Tramvayga o'tirdi, ikki bekatdan keyin tushib katta gastronomga kirib chiqdi. Ko'p o'tmay anavi kuni Sayfi dehqon cholni kuzatib qo'yan kasalxonaning darvozasiga yetdi. Uning yuzlari sertashvish va g'amgin edi. Darvozadan o'tib hovli bo'ylab bir oz yurdi, ham yo'lak, ham kasallarni ko'rgani kelganlar bilan uchrashadigan uyning vazifasini o'tovchi xonaga kirdi. Kichkina tumbochka oldidagi stulda o'tirgan, yoshi o'tibroq qolgan hamshira bilan eski qadrondardek so'rashdi.

— Sizni kutib o'tirib-o'tirib, hozir kirib ketdilar,— dedi hamshira.

— Magazinda ushlanib qoldim, — dedi gunohkorona ovozda Rahim aka, keyin ayolga qarab yalingan-namo iljaydi.

Hamshira hovli ichkarisiga mo'ralab:

— Lekin hazir bo'ling, bosh vrachning o'zi shu yerda, — dedi. — Menga gap tekkizmay tez kirib chiqa qoling.

— Xo'p, aya, xo'p, — Rahim aka lip etib hamshiraning oldidan hovliga o'tdi.

Bir qavatli uzun korpusga yaqinlashdi-da, dera-zalardan birini chertdi. Qandaydir bemor ayolning basharasi darpardani surib mo'raladi, keyin «tushundim», degandek bosh siltadi. Darparda yopildi. Zum o'tmay yana darparda surilib, Muborak opa ko'rindi. U, «hozir chiqaman», degandek ishora qildi. Rahim aka orqasiga, hamshira o'tirgan xonaga qayt-

di. Ko'p o'tmay kasallar xalatida Muborak opa kirib keldi.

— Assalomu alaykum, keling, dadasi, — dedi u eriga.

— Keldim, tuzukmisan? — odat bo'lib ketgan jumlanı qaytarlı Rahim aka.

Ular uyning burchagiga borib qarama-qarshi o'tirdilar.

Bu nimqorong'i xonada Muborak opa yanada ozg'inroq va horg'inroq ko'rinaridi. Uning qonsiz yuziga ziyrak va allanechuk cho'chib, javdirab turgan katta, chiroyli ko'zlarigina hayot bag'ishlab turardi.

— Tuzuk, ancha ranging kirib qolibdi, hademay butunlay tuzalib ketasan, — o'z so'zlariga o'zi ham uncha ishonmay xotinining ko'nglini ko'tarishga harakat qildi Rahim aka.

Muborak opa ham bu gapni juda ko'p marotaba eshitgani uchunmi o'z navbatida eriga dalda berdi.

— Ha, xudo xohlasa tuzalib qolarman, — dedi u. Lekin serifoda, besaranjom, jonsarak ko'zları, «yo'q, mening kasalim tuzalmaydigan dardi bedavo», deyayotgandek mo'ltilar edi. Shu zahoti go'yo siri oshkor bo'lib qolishidan qo'rqqandek ko'zlarini yashirdi.

Rahim aka o'zining katta, yag'ir xaltasini titkilab tagida ozgina sariyog'li shisha banka, ikkita tuxum, to'rtta uy noni olib xotiniga berdi.

— Nima qilasiz ovora bo'lib, baraka topkur. Bu yerda yaxshi ovqat beradi, deb ming marta aytdim-ku sizga. Bolalarning rizqidan yulib hech narsa olib kelmang man juvonmargga. — Rasmana kuyinib gapirdi Muborak opa.

— G'alatisan-a! Bolalarim och qolib ketyapti, deb o'ylaysanmi! Shukr qil, kunda qozon qaynab turibdi. Senga doim aytaman-ku, ularni o'ylama deb! Joningni huzurini qilib, hech narsani o'ylamasdan yotaver, — po'pisa aralash gapirdi Rahim aka.

— Voy, o'ylamay bo'larkanmi? — Muborak opani yo'tal tutdi. — Xudo xayringizni bersin, menga narsa olib kelmang. Aytyapman-ku, beradigan narsasini ham yolchitib yeyolmayman, qolib ketadi shundoq.

— Shunaqa qilmagin-da, yaxshi-yaxshi yemasang,

tez tuzalmaysan! — endi astoydil jahli chiqdi Rahim akaning.

Birpas jim qolishdi.

— Maoshingizni oldingizmi?

— Yo'q, ertaga berarmish, — dedi Rahim aka, keyin shoshib qo'shib qo'ydi, — ertagacha yetadigan pulim bor.

Soxta tetiklik charchatdimi, Rahim aka yerga tiki-lib qoldi. Muborak opa javdirab eriga tikildi. Rahim akaning salqigan yuzi, keyingi kunlarda go'yo chuqurlashib ketgan ajinlari, sal bukchayib qolgan qaddi-qomati — hamma-hammasi bir-bir nazaridan o'tdi. «Ha, erkak boshi bilan uyni, bolalarни eplab o'tiribdi. Bunga ham oson emas», — dilidan o'tkazdi Muborak opa. Qanday qilib bo'lmasin erini yupatgisi, ko'nglini ko'targisi keldi.

— Shukr qilish kerak, baraka topkur. Turmush ancha yaxshi bo'lib qoldi. Mana buyoqda har yili narx-navoni tushirib turibdi. Urush tugaganidan beri ishqilib har yili narx tushib turibdi.

— Shukr qilmay, qo'limizdan boshqa nima kelardi, — ensasi qotib xotinining gapini ma'qulladi Rahim aka. Birpas xayol surgach, shunchaki qo'shib qo'ydi: — To'g'ri, urush tugaganiga ham mana besh yildan ortib qoldi. Narxni tushirib turibdi, bu ham to'g'ri. Nonga ham qornimiz to'yadigan bo'lib qoldi... Ammo oldin yaxshi yashaganlarning hozir ham pichog'i moy ustida, bizdaqa rabochiyлarning ahvoli esa hamon o'sha-o'sha — eski tos, eski hammom.

— Musulmonchilik asta-sekin, baraka topkur, narsingha ham birdan chiqib bo'lmaydi, — erini ham tergash, ham erkalash ohangida gapirdi Muborak opa, — meni aytdi dersiz, besh-olti yildan keyin bu qiyinchiliklarni ko'rmagandek bo'lib ketamiz. Eng asosiysi urushdan eson-omon qaytib kelganizingizga shukr qiling.

— Haliyam men nolivotganim yo'q. Tuzukroq kun ko'rishning yo'lini qidirish kerak deyman, xolos. Nima, yaxshiroq yashashni orzu qilish ham gunohmi?!

— Shunday deysiz-u, ammo zamon nozik, baraka

topkur, odam sal narsaga yomonotliq bo'lib qolishi mumkin.

Rahim akaning hayot haqida o'z fikri bor edi. Ammo falsafa so'qib xotinining boshini aylantirishni istamasdi. Umuman hech kimga aytmasdi yuragidagi gaplarni. Biroq hozir o'zini tutolmadi.

— Bitta narsaga hayronman, — xunobi oshib gapirdi Rahim aka, — axir to'g'risini aytsa ham odam darrov yomonotliq bo'lib qolishi kerakmi?

Muborak opa juda sezgir va xuddi ohudek sal narsadan hurkib ketadigan ayol edi, ovozini pasaytirib eriga tanbeh berdi:

— Bo'pti, qo'yung shu gaplarni, och qornim, tinch qulog'im... Mayli, ichishingizga ham qarshilik qilmayman, faqat qaltis gapirmang!

Rahim aka g'alcha xotiniga najot istab qaradi, fikrini qanday qilib tushuntirishni bilmay qiyndaldi.

— Hamma balo shunda — hurkib yashashimizda. To'g'ri gapni aytolmaganingdan keyin qanday qilib yomonni yaxshi qila olasan? — og'zidan chiqib ketgan bu so'zlarga Rahim akaning o'zi ham hayron qoldi.

Muborak opa birdan g'alati bo'lib eriga tikildi. Keyingi lahzada o'zini qo'lga oldi. Endi bu mavzuda hech narsa eshitgisi ham, hech narsa tushungisi ham kelmasdi.

— Kerak emas, baraka topkur, siz gapirmang. Gapisra boshqalar gapiraversin, ammo siz gapirmang, ehtiyot yaxshi! Og'zi bo'shlik qilib arzimagan narsaga qamalib ketganlarni ko'rmadingizmi?

— Men senga gapiraman deyapmanmi? — Rahim aka bemor xotinining ko'ngliga g'ulg'ula solib qo'yishni istamadi, o'zining dardi ham yetar, yana eridan ham xavotirda yursinmi, sho'rlik. Shu bois maynavozchilik qilib, jo'rttaga ko'zlarini olaytirdi, ovozini balandlatdi. — Mani shunchalik ahmoq, deb o'ylaysanmi?! Kimga kerak bo'lsa gapiraversin, menga zarur keliptimi?

Muborak opa ham sal ochilib xalatinining yoqasini ko'tardi-da, irim qilib ko'ksiga «tuf-tuf» deb qo'ydi.

— Shunaqa demaysizmi, baraka topkur, esim chiqib ketibdi-ya, vajohatingizni ko'rib!

Xotinining ancha tinchiganini ko'rgan Rahim aka hazilni ilib ketdi.

— E, agar istasam hammayoqni ostin-ustun qilib tashlayman. Nima meni yo'qotadigan narsam bormi yo mansab kur sim bormi, qo'r qaman? Tag'in ham qo'y. Rahim, o'zingni bos, deyman-da!

Muborak opani yana yo'tal tutdi. Bu gal u uzоq yo'taldi.

— Yosh boladan battarsan, — xotinini koyida Rahim aka, — shu paytgacha tomog'ingni o'rab yurishni bilmaysan. Yoqavayron bo'lib yurganing-dan keyin albatta shamollaysan, albatta yo'talasan-da. Axir namozshom bo'lди, kechki salqin tushib goldi.

Muborak opa erining anoyiligidan miyig'ida jilmaydi. Ammo juda ayanchli chiqdi jilmayishi. Koshki edi yo'talishi yoqavayron bo'lib yurishidan bo'lsa. Muborak opa ichidan qaynab chiqqan g'ussasini yutib yubordi.

— Hozir, dadasi, hozir, — u xalatining yoqasi bilan bo'ynini o'radi, — sizning kelganingizni ko'rib chopib chiqaveribman.

— Qayoqqa shoshilasan, nima, men ketib qolarmidim?!

— Voy, bolalar ingizni oldiga tezroq boring. Axir qozon-tovoq ham o'zingizga qolgan-ku.

— Nega endi?! Hammasini qizing qilyapti, meni o'choq boshiga yo'latmaydi ham. Biram qo'li shirinki, sen uning oldida ip esholmaysan, — sal oshirib maqtandi Rahim aka, — ha, sening yo'qligingni... kasalxonada ekanligingni bilintirmayapti.

— Ha, Malohatingiz pishiq-puxta chiqdi. Ilohim umri uzоq bo'lсин, sizlarni eplab o'tirsin.

Gap yana bo'linib goldi.

— Doktorlar nima deyapti? Qachon javob berisharkan? — so'radi Rahim aka sal ovozi qaltirab.

— Bu kasal o'lgur darrov tuzalmas ekan, yillab davolasharkan, — tushkun ovozda gapirdi Muborak opa.

Buni bilardi Rahim aka, doktorlar aytishgandi, ammo sir boy bermadi.

— Mayli, shoshilma, obdan tuzalib ketmagu-

ningcha sabr qil. Xudo xohlasa ko'rmagandek bo'lib ketasan.

— Sabr qilmay ilojim qancha, — xokisor jilmaydi Muborak opa, keyin chuqur xo'rsindi, — mayli edi qancha olib o'tirishsa ham... ishqilib tuzatishsa bo'lidiydi...

Muborak opani yana yo'tal tutdi.

— Xudo kasalni botmonlab berib, misqollab olar ekan... — yo'tal Muborak opadan ko'ra ham Rahim akani ko'proq ezvorayotgan edi.

Yaqin odamingni azob chekayotganini ko'rib yordam berolmaslikdan, qo'lingdan hech narsa kelmaslikdan yomoni yo'q ekan.

Muborak opa birdan yorildi, ezgu niyatini hazin ovozda izhor etdi.

— Ko'nglim har xil narsalarni qo'msaydi. Tog'-u toshlarga chiqib o'ynab kelgim keladi. O'zimizning dalaga borib, yalangoyoq bo'lvolib bog' ko'chalarda turpoq changitib yursam, adirning etagidagi ariqdan hovuchlab-hovuchlab suv ichsam, deyman.

— Tuzalib chiqqin, albatta oboramani qishlog'ingga. Bolalarni ham olib ketamiz. Mundoqroq bitta qo'y olib so'yamiz, bir hafta yayrab kelamiz.

Muborak opa bu orzu sira amalga oshmasligini sezardi, o'zgarib siniq ovozda gapirdi:

— Mayli, bora qoling endi, baraka topkur, bolalar xavotir olmasin. — Muborak opaning sag'alga tinkasi qurirdi.

— Nima... charchadingmi?

Muborak opa yo'q degandek bosh chayqadi. Rahim aka to'satdan portlab ketdi.

— Hammasiga men aybdor, urushga ketmaganimda, uchta norasida bolang bilan yolg'iz qolib qiynalmaganingda shu kasalga chalinmagan bo'larding?! — do'q va jahl bilan gapirdi Rahim aka. — Savodi, hunari yo'q ayolga osonmi ro'zg'or tebratish.

— Voy, nega endi siz aybdor bo'lar ekansiz?! — cho'chib tushdi Muborak opa. — Kasalni birovga to'nkash gunoh! Yaxshiyam siz bor ekansiz, bo'lmasa allaqachon...

— Ammo kenjang juda shirin bo'lgan, — darrov gapni boshqa yoqqa burdi Rahim aka, — olovni o'zil

— Ishqilib ichikmayaptimi?

— Qayoqda! Sen esiga ham kelmaysan. Unga to'pcolon qilish bo'lsa, — Rahim aka yolg'oni bilinib qolmasin uchun battar ko'pirdi, — anavi kuni tosh otib peshonamni g'urra qilishiga oz qoldi.

— Voy, nega sizga tosh otadi?!

Kichkina yolg'onne yashirish uchun odatda kattaroq yolg'on to'qishga to'g'ri keladi. Rahim aka ham aravani quruq olib qochdi.

— E, so'zini bermaydigan bo'lib qolgan. Tek o'tir desam... yo'q, aslida menga otmadi. Daraxtda chumchuq o'tirgan ekan, o'shangang otgan toshi sal qoldi menga tegishiga. Aytyapman-ku, juda sho'x bo'lган deb.

Gap haqiqatda sal suyuqlashib ketgan edi, buni Rahim akaning o'zi ham sezdi.

— Mayli, bora qolay endi, — u o'rnidan turdi.

Muborak opa erini kasalxonada darvozasigacha kuzatib chiqdi. Xayrlashishdan oldin sal xavotirli ovozda so'radi:

— Hoy, baraka topkur, maoshingizni berishmagan bo'lsa, sariyog'ni qaysi pulga oldingiz?

— Nima, men bitta maoshga qarab qolgan odamanmi? — kerildi Rahim aka. — Xudoga shukr, qo'limda guldek hunarim bor, ustaman. Otdix kuni bozorga tushdim. Bittasi uyiga olib ketdi. Bir kunda butun boshlik oshxonasini g'ishtini terib ko'tarib berdim. Ishonasanimi, bir kunda yigirma so'mni cho'ntagimga solib keldim. Nima, sen bolalarimning rizqidan yulib olib kelyapti, deb o'ylaganmiding. E, xom sut emgan odam!

Muborak opa ichki bir tuyg'u bilan bu gaplarning rostligini sezdi. Faxr bilan eriga qarab qo'ydi.

— Ishqilib qo'lingiz dard ko'rmasin.

— Bo'pti, xayrl — Rahim aka vazmin qadam tashlab yo'lga tushdi.

Muborak opa xuddi yelkasidan og'ir yuk bosib turgandek bir-bir qadam bosib ketayotgan erining orqasidan qarab qoldi. Birdan erini chaqirdi.

— Hay, baraka topkur, ko'y lagingizning yelkasi ancha suzilib qolibdi, yanagi gal kelganda ip bilan bir parcha surp ola kelsangiz tagidan toqi qo'yib beraman.

Rahim aka orqasiga o'girildi-da, xotinining haliyam ketmaganini ko'rib o'grayib o'dag'ayladi.

— He, nodon, qulog'ingga tanbur chertyapmanmi boyatdan beri, uyda hamma ishni qizing eplayapti deb! Sen hech narsani tashvishini qilmasdan yot dedim-kul — zamirida erkalash yotadigan do'q bilan gapirdi Rahim aka. — Ko'chada bir o'zing qaqqayib turmasdan borsang-chi joyingga!

Er amri vojib. Muborak opa bo'yning arqon solingandek kasalxona hovlisiga bir-bir odimlab kirib ketdi.

XILVAT KO'CHADA

Ertasiga Sayfi sahar turdi. Adasining ishga ketishini kutdi. Rahim aka odati bo'yicha o'g'liga qiliishi darkor bo'lgan ishlarni tayinladi: suv tashib xumni to'ldirish, magazindan non opkelib qo'yish.

— Xo'p, xo'p, — dedi parishonxotirlik bilan Sayfi, dadasi ketgach yugurib hujraga kirdi, birpas ivirsib nimalarnidir qidirdi. Nihoyat bitta taxta quticha topdi-da, qo'ltiqlab yo'lga tushdi.

Tramvay bekatida uni To'lagan kutib turgan edi. O'rtog'ini ko'ra solib savolga tutdi:

— Gapir, nima o'ylab topding?

— Hovliqma. Sabr qilsang g'o'rada holva bitur, deydilar, — sopolik qildi Sayfi.

— Bo'pti, oliftagarchilik qilmasdan ayt, qutini nega ko'tarib kelding?

Sayfi rejasini oshkor qilishga shoshilmas edi.

— Buyoqqa yur. Aytyapman-ku, birpas sabr qilsang, hammasini bilvolasan. Yur.

Sayfi yo'l boshladi. To'lagan uning ketidan ergashdi. Ikkala o'rtoq bir oz yurib kamqatnov, ikki chetiga daraxtlar ekilgan so'lim bog' ko'chaga burredilar. Quyosh tobi hali avjga minmagan. Qaysidir hovlida bedananing sayrashi eshitiladi.

Nihoyat, Sayfi bitta daraxtning tagida to'xtadi, atrofni sinchiklab ko'zdan kechirdi, tanlagan joyidan ko'ngli to'ldi shekilli, qutini yerga qo'ydi.

— Endi aytarsan, nimaga quti ko'tarib kelganining ni? — sabr kosasi to'lib so'radi To'lagan.

Sayfi indamasdan shiminining ikkala cho'ntagidan ikkita cho'tka chiqardi, keyin poyabzal moyi olib qutining ustiga qo'ydi.

— E, nahotki... — To'lagan miyasiga kelgan fikrni hatto ovoz chiqarib aytishga ham botinolmadi.

— Yigitcha, tufligingiz endi oyog'ingizni qismayotgan bo'lsa kerak, chunki bugun eskisini kiyib kelibsiz. Keling, moylab qo'yay, yana yap-yangidek bo'ladi-qoladi, — botinka moylovchilarning harakatlariga taqlid qilib cho'tkalarni bir-biriga urib gapirdi Sayfi.

To'lagan anqayib qoldi. Lekin o'rtog'inining jo'shib turgan g'ayrati havasini keltirdi.

— Qayoqdagi narsalarni o'ylab topasan-a!

— Qani, ishni boshladik bo'lmasa, — Sayfi qo'lidagi ikkala cho'tkani nog'oraga o'xshatib qutiga ura ketdi, — kep qoling, tuqli moylaymiz.

— Qo'ysang-chi, odam uyaladi, — dedi To'lagan.

— Ishdan ham odam uyaladimi?! Kapitalistik davlatlarda juda ko'p bolalar botinka moylab pul topishadi.

— Endi u kapitalistik davlatlarda-dal

— Nima qilipti, ba'zi narsalarni kapitalistlardan ham o'rganish mumkin. Tadbirkor bo'ladi ular.

— E... birorta tanish ko'rib qolib uydagilarga yetkazsa, meni tirik qo'yishmaydi. — To'lagan hatto qutiga yaqinlashishdan qo'rqardi.

Sayfi o'rtog'inining judayam yuvosh va halol bola ekanligini bilardi. Shuning uchun yaxshi ko'rardi uni.

— Xavotir olma, bekorga seni shunaqa olis joyga sudrab keldimmi?! Bu yerda bizni hech qanday tanish-panish uchratmaydi.

Xuddi shu payt tomdan tarasha tushgandek, orqalaridan Gulmiraning ovozi eshitildi.

— Salom, bolalar.

Sayfi bilan To'lagan tosh qotib qolishdi. Birinchi bo'lib Sayfi o'ziga keldi, ikkala cho'tkani cho'ntagiga sekin yashirdi-da, orqasiga o'girildi.

— Yaxshimisan, — dedi tili zo'rg'a kalimaga kelib.

To'lagan hatto salomlasha olmadi ham, og'zi lang

ochilganicha turaverdi. Gulmiraning bir qo'li orqasida, kinoapparatini yashirib olgan, yonida indamas dugonasi jilmayib voqeani kuzatardi.

— Nima qilib yuribsizlar buyoqlarda?

— Bizmi, biz... haligi... — Sayfi asta-sekin o'zini o'nglab ola boshladi. — Biz ammamiznikiga keluv-dik.

— Ammamlarnikiga deysanmi?

— Ha. Ammamniki mana shu hovli. — Sayfi orqasidagi hovliga ishora qildi, — haligi... shu desang, o'zлari bevalar, yolg'izlar. Biz, mana To'lagan bilan ammamga yordam bergani keldik. O'tinlarini yorib beramiz, suvlarini tashiyimiz, hoviliarini supuramiz... Shunaqami To'lagan?

To'lagan Sayfining topqirligiga qoyil qoldi, lekin o'rtog'inining gapini tasdiqlamadi, yerga qaraganicha turaverdi. Uning yolg'on gapga tobi yo'q edi, ayniqsa Gulmirani aldashni sira-sira istamasdi.

— Voy azamatlar-ey, bir kunda shunaqa odamshavanda, odobli bo'lib ketibsizlarki, hatto odamning sizlarga havasi kelyapti, — keyin Gulmira ataydan beparvoroq ohangda qo'shib qo'ydi. — To'lagan, men ertalab seni so'rab uyingga kirgandim. Bivinglar, hozirgina ashula to'garagiga ketdi deb aytdilar.

To'lagan lablarini qimirlatib bir narsa demoqchi bo'ldi, lekin gapirolmadi. Sayfi unga yordamga keldi.

— To'garakka ham boradi. Oldin menga ozgina yordamlashvorsin. Ammamning katta to'nkalari bor, o'shani arralashib yuboradi... — Ashula zarurmi yoki odamga mehribonlik qilish zarurmi?

Gulmira quv ko'zlarini qisib «obbo ustomon-ey», degandek Sayfiga tikildi. Keyin ko'zlarida bilinar-bilinmas kulgi uchqunlari chaqnab, labiga istehzoli tabassum balqdi.

— Albatta mehribonchilik zarur.

— Ana endi o'zingga kelding. Ashula qochmas, oldin birovning hojatini chiqarish kerak.

— Voy, mana bu nimadi? — Gulmira tuyqus qutiga ishora qildi.

Sayfi o'zini ko'rmayotganlikka olib atrofga alangladi.



— Qaysi?

— Mana bu? — qo'lini bigiz qilib qutiga sanchdi Gulmira.

Sayfi go'yo endi, birinchi marta ko'rayotgandek hayron bo'lib qutiga qaradi.

— Bumi?

— Ha, shul

— Quti shekilli.

— Qanaqa quti?

— Qanaqa bo'lardi, — xotirjam javob berdi Sayfi, — to'rt burchakli quti. Esingdan chiqdimi, to'rt burchak haqida geometriyadan o'tganmiz-ku.

— Bu yerda nima qilib turibdi to'rt burchakli quti, — «to'rt burchaklik» ka urg'u berib gapirdi Gulmira.

— Nima qilib turibdi deysanmi? O'tirgani olib chiqdik. Top-toza shim bilan tuproqqa o'tirmaydi-ku, odam, — beo'xshov kuldji Sayfi.

— Demak, sizlar bu yerga ko'maklashish uchun emas, dam olgani kelgan ekansizlar-da?

— Demak, bizlar bu yerga dam olgani kelganmiz,— tilburrolik qildi Sayfi, — qo'lingdan nima kelardi?!

— Endi goh-gohda, charchaganimizda chiqib o'tiramiz-da, — nihoyat gapga aralashdi To'lagan ham.

Gulmira yana ko'zlarini mug'ambirona qisib so'radi:

— To'xta, ammam qaysi hovlida turadi deding?

— Ammammi? Mana bu hovlida! — yana boyagi hovlini ko'rsatdi Sayfi.

Gulmira sharaqlab kulib yubordi. Sayfining jahli chiqib ketdi.

— Nimaga kulasan?

— Bundan chiqdiki, ikkalamiz qarindosh ekanmizda. Mening xolam ham xuddi shu hovlida turadi. — Gulmira kulganicha orqasiga burilib yo'lga tushdi. Indamas dugonasi soyadek ketidan ergashdi.

Sayfi bilan To'lagan birpas ularning orqasidan qarab turishdi.

— E, tavba, qayoqdan topib keldi bu bizni-a? — dedi To'lagan.

— Iskovich itdan battar-ku bu qiz, hid bilishda oldiga tushadigan odam yo‘q!

Sayfi odati bo‘yicha keskin harakat bilan cho‘ntagidan cho‘tkani olib qutining ustiga urdi.

— Qarindosh emish! E, sendaqa qarindosh orttir-gandan ko‘ra bu dunyodan tanho o‘tib ketgan yaxshil Kel, endi bir kamimiz shu qizzdan qo‘rqib o‘tirishmi?! Dangal ishlayveramiz. Qani, kepqoling tuqli moylata-man deganlar!

Sayfining shijoatini ko‘rib To‘lagan sal sarosima-ga tushib qoldi.

— To‘xta... o‘zing umringda hech botinka moyla-ganmisan? — deb ehtiyotkorlik bilan so‘radi u.

— Be... botinka moylash ham ish bo‘ptimi? Xavotirlanma, birpasda o‘rganib olamiz.

Shu payt ko‘chaning boshida bitta qotma o‘spirin paydo bo‘ldi. Egnida olachipor katak ko‘ylak, oyog‘ida poshnasi yo‘g‘on jigarrang tuqli, oq shiminining pochasi kengligidan ko‘cha supurib kelardi. Sayfi bilan To‘lagan o‘spirinning kiyimboshiga va o‘zini bozorga solishiga mahliyo bo‘lib, tomosha qilib turardilar. O‘spirin olifta yurish qilib bolalarga yaqinlashdi, keyin to‘xtadi. Har ikki tomon bir oz taajjub bilan bir-birini ko‘zdan kechi-rardi.

— Ha, zumrashalar, bu yerda nima qilib o‘tirib-sanlar? — takabburlik bilan so‘radi o‘spirin.

Sayfi o‘z hunarining ustasiga o‘xshab bidirladi.

— Biz tuqli moylaymiz, akajon. Qani, keling, bir-pasda tufligingizni shunday yaraqlatvoramizki, qarasangiz ko‘zingiz qamashib ketadi.

O‘spirin tilla tishini ko‘rsatib tirjaydi.

— Antiqa-kul! Qani ko‘raylik-chi, — u oyog‘ini qutiga qo‘ydi.

Sayfi «gup» etib o‘zini uning oyog‘i tagiga tash-ladi. Tizza tushib olib cho‘tka bilan oldin tuflining changini tozalay boshladi, keyin To‘laganga qaradi:

— Nega qaqqayib turibsan? Moy qutini och!

To‘lagan qutini olib ochdi. Sayfining yoniga cho‘kka tushib sekin shivirladi:

— Sayfi, buni qanday qilib surtasan, qotib yotib-di-yu?

— Antiqa-ku, — deb qaytardi To'lagan gapini eshitib qolgan o'spirin.

— Tufliga surib yaxshilab ishqalasang, o'zi erib ketaveradi. Ertalabki salqinda qotib qolgan-da.

To'lagan moy olib tufliga surdi:

— Ko'r, to'kilib ketyapti, — dedi yig'lamoqdan beri bo'lib.

— Antiqa-ku, — yana tirjaydi o'spirin.

Sayfi yonidan gugurt chiqarib yoqdi, qutichaning tagiga tutdi. Moyning chetlari eriy boshladi.

— Eriyapti, olib tufliga surtaver.

— Nima bilan surtaman? — so'radi To'lagan.

— Qanaqasan o'zing, panjang bilan surtaver. Namuncha bo'shashasan! — Sayfi jo'rttaga ovozini balandlatib davom etdi. — Xuddi birinchi marta moylayotgan odamga o'xshaysan-al Siz hayron bo'lmanq, akajon, bu o'zi shunaqaroq, no'noqroq. Hunarga endi o'rganyapti, shogirdim.

— E shogirdingdan o'rgilay. Shogird deganni uyda o'rgatib keladi-da, — kerildi o'spirin.

— Qoyil qilib bersak bo'ldimi? — bo'sh kelmadi Sayfi.

To'lagan panjası bilan moy olib tufliga surdi. Sayfi cho'qqayib o'tirib olib bor kuchi bilan tuflini moylashga tushib ketdi. Oyog'inining tagida imirsib, uning yumushini qilayotgan bolalarni ko'rib o'spirin-ning kattaligi tutib ketdi, kibr-havo bilan ping'illadi:

— Hoy, ishqilib noskiyimga hazir bo'llaring, tag'in moy tekkazib yuborib, rasvo qilmalaring!

Sayfi iljayib o'spirinning husnbuzar toshib ketgan mag'rur basharasiga qaradi.

— Qo'rwmang, mabodo ozgina tegib ketsa ham bilinmaydi, chunki noskiyingizning shundoq ham yag'iri chiqib ketgan ekan.

O'spirinning yuzidagi g'urur birpasda yo'qolib g'azab qopladi.

— Mahmadanagarchilik qilma, olqindi! Bilib qo'y, iflos qilsang, mendan sog' qolmaysan.

— Xo'p, aka, xo'p, gard yuqtirmaymiz.

Sayfi qunt bilan tuflini moylar, cho'tka bilan timsiz ishqalardi. Shu payt qayoqdandir tufliga bir tutam xira nur tushdi. Sayfi ajablanib boshini

ko'tardi, alangladi. Orqalaridagi devorda ikkita kalla ko'rindi — bular Gulmira bilan indamas dugonasi edi. Indamasning qo'lida alyumin lagan. Sayfining qaraganini ko'rib qolib, go'yo bolalar uni mutlaqo qiziqtirmayotgandek, darrov laganni childirma qilib chala boshladi. Sayfi qizlarni masxara qilib basharasini burishtirib qo'ydi, ko'rsa ko'rар, sadaqa so'rab tilamchilik qilayotgani yo'q-ku, mehnat qilib pul topyapti. Chinakam odam esa hech qanday mehnatdan hazar qilishi kerak emas!

Shunday fikr miyasidan kechgan Sayfi yana ishga sho'ng'idi. Indamas qo'lidi laganni bolalarga to'g'rila'b yorug' tushirdi. Keyin Gulmira sekin kinoapparatini olib, bo'layotgan voqeani suratga ola boshladi.

Sayfi qancha harakat qilmasin, cho'tkani ishqalayotganida bilmasdan noskiga tekkizib yubordi. Sekin tirsagi bilan To'laganni turtib noskiga ishora qildi. To'lagen ko'rib qo'rqiб ketdi, o'spirinning pochasidan tortib noskiysini bekitmoqchi bo'ldi.

— Hoy, nima qilyapsanlar, nega shimid dan tortasanlar? Antiqa-ku! — dedi o'spirin.

— Tortayotganim yo'q, to'g'rila'b qo'yayapman, — deb yaldoqlandi To'lagen.

Sayfi engashib gavdasi bilan tuflini bekitdi. O'spirin bir narsani payqagandek xavotirlandi.

— Qani bunday turlaring, bir ko'ray-chi!

O'spirin bolalarni itarib yubordi, shiminи ko'tarib oyog'iga qaradi. Qora moyga belangan noskisini ko'rib joni chiqib ketdi:

— Nima qilib qo'ydilaring, zumrashalar! Endi mendan sog' qolmayсанлар!

Sayfi bilan To'lagen sapchib turib o'zlarini chetga oldilar. Sayfi, unga o'grayib tikildi.

— Sekinroq do'q ur! Nima, o'zingni mahallangda chiravossanmi? Zo'r bo'lsang yur, Eskijo'vega borib tashlashamiz!

— Nima-nima, men senga chiraniш qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman! — tutaqib ketgan o'spirin Sayfiga tashlandi.

Sayfi tiraqaylab qochdi. O'spirin uning ketidan quvdi. Sayfi o'n besh qadamcha yugurib bordi,

keyin birdan chap berib epchil burildi-yu, orqasiga qarab qochdi. Chetda yolg'iz turgan To'laganning oldidan «viz» etib uchib o'tdi. To'lagan poylab turib Sayfini quvib kelayotgan o'spirinning oyog'i tagiga qutini itarib yubordi. O'spirin qutiga qoqilib umbaloq oshib tushdi. U yerda yotganicha ojizona ingrab To'laganga qaradi. To'lagan ham bo'sh kelmadni.

— Yaxshilikcha tufligingni moylab qo'yganimizning haqini to'la, bo'lmasa dabdalangni chiqarib tashlaymiz.

— Haqi kerak bo'lsa hozir o'n hissa qilib olasan, — o'spirin alamdan basharasini burishtirib o'rnidan turdi.

To'lagan ham shataloq otib qochib qoldi. O'spirin lo'killab uning ketidan yugurdi.

Hamma voqeani suratga olib turgan Gulmira apparatni bir zumga qo'yib, «tuzuk-ku bizning bolalar», degandek indamas dugonasiga qarab qo'ydi.

Oradan ancha vaqt o'tdi. Gulmira bolalarga nima bo'ldi deb xavotirlana boshlagan edi, ko'chaning boshida qaytib kelayotgan sinfdoshlariga ko'zi tushib o'zini panaga oldi. Sayfi bilan To'lagan haliyam nafaslarini rostlab ololmay og'ir hansirardilar.

— Shundan shu yoqqa bitta quti deb qaytib kelib o'tiribmiz-al — deb norozilik bildirdi To'lagan.

Sayfi yerda yotgan qutini olib qo'ltig'iga urdi.

— Kerak bo'lib qoladi hali, — dedi, — nima, biz hamma narsani ko'chaga sochib ketaveradigan boyvachchamizmi?!

Gulmira devor ortidan turib qichqirdi.

— O'v Sayfi, senga nima bo'ldi, oyog'ingni zo'rg'a sudrab bosyapsan. Yo it quvdimi?

Sayfi qayoqdan tovush kelganini bilmay dovdirab atrofga alangladi. Keyin devordan mo'ralab turgan Gulmirani ko'rdi.

— Nima? — jerkib so'radi u.

— Ammang seni yo'qlayaptilar, hovlini supurib berarmishsan, — jilmaydi Gulmira.

Sayfi qo'llarini musht qilib devor tagiga yaqinlashdi, alamzada ohangda o'dag'ayladi.

— Menga qara, hoy shallaqi, juda jonga tegding!

Agar yana... Agar yana jig‘imga tegadigan bo‘lsang, o‘zingdan ko‘r. Qiz bola deb ayab o‘tirmayman.

Gulmira vahima bilan uning so‘zini bo‘ldi.

— Ana boyagi o‘spirin kelyapti! Qoch!!

Sayfi bilan To‘lagan orqa-o‘nglariga qaramay kuchlarining boricha yugurib ketdilar. Gulmira bilan indamas dugonasi ularning orqasidan haho-haho kulib qoldilar.

YARIM BANKA SARIYOG‘

Dim bo‘lgani uchun odamni lohas qiladigan havo edi. Yugurish uyoqda tursin shu issiqda yarim soat yursa har qanday pahlavonning ham surobi to‘g‘ri bo‘lib qolardi. O‘spirin esa bugun Sayfi bilan To‘laganni yomon lo‘killatdi.

Kun peshindan og‘ganda ular horib-tolib To‘lagan-larnikiga qaytib kelishdi. Xolposhsha xola ochiq chehra bilan ularni kutib oldi. Ayvondagi xontaxta yoniga qalin ko‘rpacha to‘shab, bolalarni o‘tirishga taklif etdi, biqinlariga bolish qo‘yib berdi. Xushomadning sababi ashulachi bo‘lishga jazm qilgan nabirasining ko‘nglini olish edi. Nabiram tomog‘ini qirib ashula aytishni mashq qilib kelyapti deb o‘ylardi anoyi kampir sho‘rlik.

Xolposhsha xola ikki piyola qatiq olib chiqib bolalarning oldiga qo‘ydi.

— Olinglar, shuni ichib olinglar, chanqoqni bosa-di, issiq kunda qatiqning oldiga tushadigan narsa yo‘q. Qornilaring ham ochgandir. Men kartoshka bilan tuxum qovurib beraman. Sizlar qatiqni ermak qilib turinglar, ovqatim birpasda bo‘ladi.

— E, qatig‘ingizni nima qilamiz, — ijirg‘anib gapirdi To‘lagan, — undan ko‘ra, qishda yeymiz deb qulupnaydan solgan qiyomingizdan ozgina olib chiqing.

— Voy, xo‘p, qo‘zichog‘im, sizlar qiyom so‘raysizlaru men yo‘q deymanmi, qiyom ekanu sizdan jo-nimni ham ayamayman. Faqat, — kampirning ovozi-da tashvish va xavotir ohanglari paydo bo‘ldi, — faqat ovozlaringga ta’sir qilmasmikin deb cho‘chiyapman, shirinlik g‘ippa bo‘g‘ib qo‘ysa nima qilasizlar?

— E, bizning ovozdan sira xavotir olmang, xola-jon, — deb chapanichasiga kerildi Sayfi, — nima yesak ham jaranglab chiqaveradi.

— Unday bo'lsa mayli, qo'zichoqlarim. Xonandalar juda o'zlarini ehtiyyot qilib yurishlarini eshitganman-da, shuning uchun...

— E, ularning hammasi nozik oyim, biz chiniqqanmiz, — gapga yakun yasadidi To'lagan.

Xolposhsha xola uyga kirib ketdi. Ko'p o'tmay bitta likobda qulupnay qiyom, boshqa likobda sariyog' olib chiqib bolalarning oldiga, xontaxtaga qo'ydi.

— Qovurdoq tayyor bo'lguncha non bilan shuni yeb turinglar, — deb o'choq boshiga yo'naldi, borib ovqatga unnay ketti.

Sayfi likobchadagi sariyog'ni ko'rib birdan o'zgarib qoldi. G'amgin ko'zlarini sariyog'ga tikib xayolga botdi. Oldiniga To'lagan o'rtog'iga e'tibor bermadi. Buvisi olib chiqqan qiyomdan bir shimirdida, Sayfiga uzatdi.

— Ushla!

Ammo qo'li muallaq qoldi. Sayfi hamon sariyog'ga tikilib o'tirardi.

— O've, nega merovga o'xshab bir nuqtaga tikilib olding, ushla qiyomni, — dedi To'lagan.

Sayfining qiyomga o'chligini bilardi To'lagan, ammo bu gal u odattdagidek o'zini qiyomga tashlamadi, likobni olib nomiga bir shimirdi, yana sariyog'ga mo'lillab tikildi.

— To'lagan sariyog' turgan likobchani o'rtog'inining oldiga surib qo'ydi.

— Olaver, sariyog' yeging kelyaptimi?

Sayfi yemayman degandek bosh chayqadi. To'lagan ajablanib ishshaydi.

— Tikilishing juda boshqacha-yu, ko'zing bilan teshib yuboray deyapsan, ol desa, bosh chayqaysan?

Sayfi sariyog'dan ko'zini uzib o'rtog'iga qaradi.

— Menga ber shu sariyog'ingni.

— Olaver. Xohlasang hammasini ye!

— Opketgani ber.

— Opketgani? — hayron bo'ldi To'lagan, — mayli, opketa qol, bizda ko'p.

Sayfi ikkilanib Xolposhsha xola tomonga qarab qo'ydi.

— Qo'rqma, buvim indamaydilar. Aytyapman-ku, bizda sariyog' achib yotibdi, — o'rtog'iga dalda berdi To'lagan.

— Shisha bankang bormi? — Sayfi hovliqib qoldi.

— Bo'lsa kerak, hozir qarayman, — To'lagan uyg'a kirib shisha banka olib chiqdi.

Sayfi shoshib sariyog'ni shisha bankaga bo'shatdi. Keyin uni ikki qo'llab mahkam bag'riga bosganicha o'rnidan turdi.

— Xo'p, endi men ketdim, xayr, — u eshik tomon jadal yurib ketdi.

— Shoshma borarsan, nima bo'ldi o'zi? — To'lagan hech narsaga tushunmay uning orqasidan qarab qoldi.

Sayfining ketayotganini ko'rib Xolposhsha xola o'choq boshidan turib ovoz berdi:

— Hoy, Sayfi, o'tirmaysanmi? Axir ataydan ovqat qilyapman, yeb ketgin.

Lekin Sayfi allaqachon ko'zdan g'oyib bo'lgan edi.

U To'laganlarnikidan chiqib to'ppa-to'g'ri onasi ning oldiga ketdi. Kasalxonaning darvozasi ochiq bo'lsa ham, Sayfi kirmadi. U devor yoqalab kasalxonani aylanib o'tdi, orqasida pastakkina paxsa devor bo'lguvchi edi, o'shandan oshib tushdi-da, kimsasiz, xarob va hazin bog'da paydo bo'ldi. Ahyon-ahyonda skameykalar qo'yilgan, ularning atrofida papiros qoldiqlari. Aftidan, bu xilvatgoh bemorlar yig'ilib pinhona chekadigan joy edi.

Sayfi kasallar yotadigan binoga yaqinlashgan sari papiros qoldiqlari kamayib borardi. Binoning atrofi esa chinnidek fop-toza. Sayfi ehtiyyotkorlik bilan borib tanish derazani asta taqillatdi. Bitta ayol mo'raladi. Keyin ayol xonaning narigi chetida yotgan Muborak opaning tepasiga bordi:

— Muborakxon, katta o'g'lingiz keldi...

Muborak opaning chehrasi yorishib ketdi, u o'rnidan turishga talpindi. Ayol uni yelkasidan asta bosib yotqizmoqchi bo'ldi.

— Urinmang, aylanay, doktorlarning aytganini qilmasangiz bo'lmaydi, qimirlamay yot dedimi, yotish

kerak, aylanay. O'g'lingiz shu yerga kira qolar.

Muborak opa cho'chib bosh chayqadi.

— Yo'q, ooppsi, mening chiqqanim ma'qul, — u qiynalib o'rnidan turdi. — Tavba, odamzod ham qiziq-da, xuddi kelishini sezgandek judayam ko'rgim kelib, yuragim jizillab turgan edi.

Ayol Muborak opani qo'ltiqlab eshikkacha bordi.

— Bo'ldi, rahmat, ooppsi, buyog'iga o'zim sekin borarman, ha, siz qolavering, — birov yetaklab chiqayotganini o'g'li ko'rishini istamadi u.

Muborak opa oldin eri bilan uchrashgan kichkina-gina xonaga ohista yurib kirib keldi. Ikkala qo'li bilan shisha bankani changallab o'tirgan Sayfi irg'ib turib onasiga tashlandi.

— Assalomu alaykum, oyi, tuzuk bo'lib qoldingiz-mi?

— Vaalaykum assalom, bolam, — Muborak opa o'g'lining yelkasiga qo'lini qo'ydi: — Chiq, o'g'lim, chiq bu yerdan, ochiq havoga chiq.

Ona-bola ostona hatlab hovliga chiqishlari bilan Sayfi shisha bankani onasiga tutqizdi. Muborak opa javdirab, sarosimada o'g'liga qaradi:

— Qayerdan olding, Sayfijon?

— Qo'rwmang, To'lagan berib yubordi... Mendan salom deb qo'ygin dedi, ularda sariyog' achib yotibdi.

— Rahmat, baraka topsin... — Muborak opaning ko'ngli joyiga tushdi, — uyga obora qolmabsan-da, bolam, ukalaring bilan yerdinglar. Meniki bor, kechagina adang olib kelgan edilar.

— Ukalarim ham yeb turishibdi. Meni-ku, To'laganlarnikida burnimdan chiqdi, bu ortgani. Yeyavering o'zingiz. Doktorlar aytgan-ku, ishqilib sariyog'ni ko'p-ko'p yeyaversangiz, tez tuzalib keta-siz.

— Yeyapman, bolam, yeyapman, — shunchaki o'g'lini yupatish uchun gapirdi Muborak opa, keyin o'ychan ko'zlarini yerga tikib, o'g'lidan ko'ra ham ko'proq o'ziga gapirdi: — Tuzalmaydigan balo bo'lsachi, bu qurib ketgur dard. Mayli, bolam, peshonada borini ko'ramiz. Ishqilib senlar sog'-salomat ulg'ayib o'z yo'linglarni topib ketsalaring bo'ldi. Tezroq o'z egaringni o'zlarining eplaydigan bo'lvol salaring edi...

Ona-bola skameykalardan biriga o'tirishdi.

— Qalay, adanglar, ukalaring yaxshi o'tirishibdi-mi? Malohat eplab ovqat qilib berolyaptimi?

— Malohatingiz balo, hatto lag'mon qilishlarni ham o'rganib oldi.

— Erkinni xafa qilmayapsizlarmi? — Muborak opa allaqanday hayajon va mehr bilan kenjasini tilga oldi.

— Uningizni xafa qilib bo'larmidi, shunaqa kuchi-
li bo'lib ketganki! Anavi kun qulochkashlab kuragim-
ga bir tushirdi, haliyam kiftimni qimirlatolmayap-
man, — jo'rtaga kulib gapirdi Sayfi.

«Tavba, ba'zi qiliqlari, gaplari xuddi adasining
o'zi», — dilidan o'tkazdi Muborak opa.

Unga o'g'lining hazili yoqdi, o'z navbatida tetik
ko'rinishga harakat qildi:

— Haddidan oshayotgan bo'lsa, borganimda o'zim
adovini berib qo'yaman.

Shu yerga kelganda bundan oshirib yuborishsa
dadilliklari, xushchaqchaqliklari yasamaga, soxtaga
o'xshab qolishini sezgandek ona-bola birdan jimb
qoldilar.

Sayfi onasidan ko'zini uzmas edi. Muborak opa
juda o'zgarib ketgan — yana ozgan, ko'zları kirtayib,
shundoq ham rangsiz yuzi somondek sarg'ayib ketgan
edi. U tez-tez va qisqa-qisqa yo'talar, holsiz qo'llari
bilan peshonasida paydo bo'lgan terni artib-artib
turardi. Yo'q, onasining sochlari, qoshlari oldin bun-
chalik timqora emas edi, saxovat yog'ilib turgan tiniq
va beg'ubor ko'zları ham bu qadar ma'yus va umidsiz
emas edi! Ular endi g'alati g'iltillab turardi. Muborak
opaning pokiza qalbi go'yo butun borlig'ida aks etib,
ajib bir chirog' kashf etgan edi. Taqdirga tan berib
sokin o'tirgan go'daklardek begunoh onasi,
darhaqiqat, Sayfiga juda chiroyli bo'lib ko'riniq
ketdi. Chiroyli va himoyasiz! Qizig'i shundaki, bu
chiroy Sayfining dilida sevinchdan ko'ra ham ko'proq
tushunib bo'lmaydigan, allaqanday xavotir, ayanch
va achinish hissi uyg'otdi.

— Oyi, men rejissyor bo'lmoqchiman... Ko'rasiz,
juda boy bo'lib ketamiz. O'shanda sizga sariyog'ni
chelaklab olib kelib beraman.

Muborak opa qalqib ketdi. Anchagacha gapirolmadı. Odati bo'yicha kallasini o'g'lidan teskari burib, faqat ko'z qirini unga tashladi.

— Orzuga ayb yo'q, bolam. Iloyim murod-u maqsadingga yetgin.

— Oyi, nega nuqul men bilan teskari qarab gaplashasiz?

Onaizor o'g'li o'ksimasin uchun qo'lini yelkasiga qo'yib mehr bilan ko'ziga boqdi. Keyin dangal, birinchi marta to'g'risini aytdi.

— Bu qurib ketgur kasal nafasdan ham o'tib yuqishi mumkin ekan, — Muborak opa holsiz yo'taldi. — Kamroq kelgin sho't o'lgurga. Bola narsa...

— E, menga hech qanday kasal yuqmaydi, — oyisiga surkaldi Sayfi.

Muborak opani yana yo'tal tutdi. Uning tinkasi qurib, charchagani yaqqol sezilib turardi.

— Oyi, mayli, endi kirib dam oling, men keta-man. — Onasini ko'p urintirgisi kelmadı.

— Ketasanmi... mayli, bolam, bora qol.

Sayfi ketishga otlanib o'rnidan turmoqchi edi, Muborak opa uni bilagidan mahkam ushlab tortdi. Sayfi sarosimada qaytib o'tirdi. Muborak opa mehr to'la nazar bilan o'g'liga tikildi. Onasi hech qachon Sayfiga bunaqa javdirab qaramagan edi. Keyin Muborak opa siniq ovozda aræng shivirladi:

— Adangga ayt, ukalaringni olib kelsinlar. Hammasi kelishsin. Sen ham. Iloji bo'lsa ertadan qolmay olib kelsinlar. Xo'pmi, o'g'lim?

— Aytaman, albatta kelamiz, — ataydan quvnoq ovozda gapirdi Sayfi. — Xayr, oyijon.

— Xayr, bolam! Xayr. Ishqilib adangga tayinlash esingdan chiqmasin! Ertadan qolmasdan kelinglar! — zorlanib qaytardi Muborak opa.

Sayfining eti jimirlashib ketdi. Hech qachon onasining ovozi bu qadar ser hayajon va sertashvish bo'lмаган edi. Ammo u bir zumda o'zini qo'lga oldi, yig'loqilik qilsa onasining ko'ngli battar cho'kadi.

— Nega endi esimdan chiqar ekan, — Sayfi atay burro gapirdi, ildam qadam tashlab darvoza tomon yo'l oldi, — albatta kelamiz!

Onaizor to jigarbandi ko'zdan g'oyib bo'lguncha orqasidan termilib turdi. Keyin lablari holsiz shivirladi:

— Illoym umring uzoq bo'lsin, ukalaringga bosh bo'lib yurgin.

BULUTLI KUNLAR

Toshkent vokzali. Yuk ko'targan odamlar shoshib uyoqdan-buyoqqa yugurib yurishibdi. Platskartli vagonning eshigi tagida qo'lida bir shoda teshikkulcha Sayfi turibdi. Uning og'zi qulog'ida, atrofga alanglaydi.

Rahim aka yo'lovchilarning biletlarini tekshirib vagonga chiqarayotgan provodnikka yaqinlashdi, qo'l olib so'rashdi. Keyin iymanib iltimos qildi:

— Birodar, o'g'limni birinchi marta yolg'iz o'zini uzoq yo'lga yuborishim, bola yosh, o'zingiz ko'z-qulqoq bo'lib turasiz. Asakada tushirib qo'ysangiz bo'ldi.

— Xo'p, aka, xo'p, — dedi mo'ylovdor temir yo'lchi xodim, — xavotir olmang.

Shundan so'ng Rahim aka Sayfiga yaqinlashib takror-takror uqtirdi:

— Tushundingmi, xolangga tayinla, «oyim og'irlashib qolibdilar, tez yetib borarmishsiz», degin.

— Tushundim, namuncha qaytaraverasiz. — Sayfining hayajoni ichiga sig'masdi. U adasidan tezroq qutulib poyezdga tushish, maza qilib «kataysa» qilib ketish ilinjida edi.

Ishqilib, poyezddan tushganidan keyin uyog'ini topib bora olasanmi? Juda kichkinalingda olib borgan edim, yo'l esingda qolganmi? — yana so'radi Rahim aka.

— Qo'rqmang, topib borsam bo'ldimi? Adresi bor-ku. «Qizil O'zbekiston» ko'chasi.

— Ana shunaqasan-dal — o'g'lini koyib berdi Rahim aka. — Hozir ba'zi ko'chalar birlashib nomi o'zgarib ketyapti. To'g'risini ayt, yo'l esingdami?

— Esimda deyapman-kul — Sayfi ortiq chidolmadidi. — Poyezd hozir yurib ketadi!

— Xo‘p bo‘lmasa, chiqa qol, yotib ketadigan joyni egallab olgin.

Sayfi o‘zini vagonga otdi-da, yo‘l-yo‘lakay qichqirdi:

— E, kim yotardi deysiz, yo‘lni tomosha qilib ketaman, — u vagon ichiga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Zum o‘tmay derazalarning birida uning tirjayib turgan basharasi paydo bo‘ldi.

— O‘yinga berilib ketma, borgin-u orqangga qayt, uzog‘i bilan ikki kun muhlat! — so‘nggi nasihatni berdi Rahim aka.

Sayfi shov-shuvda hech narsa eshitmadi, tirjayib turaverdi.

— Eshitdingmi?! — xunob bo‘lib qaytardi Rahim aka.

Sayfi adasining so‘zini yana eshitmadi, qo‘li bilan «bo‘pti, ketavering» ishorasini qildi. Kattalarga ham hayronsan, bitta gapni o‘n marta takrorlamasalar ko‘ngillari joyiga tushmaydi.

Poyezd cho‘zib-cho‘zib xunuk chinqirdi, pishillab arang o‘rnidan siljidi. Rahim aka cho‘ntagini kavlab nosqovog‘ini oldi, kaftiga ozgina to‘kib, og‘ziga otdi. Uzoqlashib ketayotgan poyezdning ortidan birpas qarab turdi-da, shoshmasdan shahar tomon yurib ketdi.

* * *

Oradan ikki kun o‘tdi. Shodligi ichiga sig‘may Sayfi uyiga qaytardi. Axir u quruq emas, sovg‘a-salom bilan qaytyapti. Yelkasida og‘zigacha to‘ldirilgan hurjun. Hurjunning tepasidan po‘sti artilmagan jo‘xori so‘talari ko‘rinib turibdi. Sayfi tezroq uyiga yetib adasini, ukalarini xursand qilishga oshiqadi. Xurjunning og‘irligidan arang ko‘tarib, burni yerga tegay-tegay deb boradi. Lekin u og‘irlikni go‘yo sez-mayotgandek, uyiga yaqinlashgan sari qadamini tezlashtiradi. Qovunni, olmani ukalari yeydi. Ammo jo‘xorini oyisiga oborib beradi. Oyisi suvda pishirilgan jo‘xorini juda yaxshi ko‘radi.

Mana, u o‘zining qadron ko‘chasiga burildi. Uzoqda, uyining eshigi tagida to‘n kiyib turgan

uchta-to'rtta odamga ko'zi tushdi-yu, qadami sekin-lashdi. Mudhish, qora bir fikr miyasiga yashindek urildi. U to'satdan dillarni tilka-pora qiluvchi ovozda: «Oyil» deb qichqirib yubordi. Yosh qalb qa'ridan otilib chiqqan bu fig'on butun ko'chani larzaga soldi.

Shu zahoti so'nggi marta kasalxonada bo'lgani, onasi ertaga hammanglar kelngilar, deb tayinlagani miyasiga bigizdek sanchildi. Bejiz emas ekan onasing o'shanda zoriqqani, sezgan ekan boyaqish...

Havo ochiq bo'lib ochiq, bulut bo'lib bulut emas. Osmen ham, atrof ham kulrang.

...Tobut ko'tarib ketayotganlarning o'rtasida allaqanday yoqimsiz jimlik hukmron. Hech kim bir-biri bilan so'zlashmaydi, faqat odamlarning harsil-lashi va zarang yerdan chiqayotgan oyoq tovushlari eshitiladi. Bu ayanchli jimlikda goh-gohda baland bo'yli, basharasi chakak-chakak odamning do'rillagan ovozi buzadi:

— Ehtiyyot bo'linglar, shoshilmanglar.

Korchalon hech tinim bilmaydi. U tobut atrofida aylanib, tajribasiz yosh-yalanglarga nasihat qiladi.

— Hoy, hoy, to'xta, akasi, to'xta, bo'y-bo'y bilan, teng-tengi bilan ko'tarlaring. Ha, tobut lopillab ketmasin.

Tobutkashlar itoatkorlik bilan unga bo'ysunadilar, xuddi korchalon aytganidek, bo'y-bo'ylariga qarab tobutning ikki yog'idan ko'taradilar.

Ular choyxona oldidan o'ta boshladilar. Chorpojada o'tirgan bir to'da choyxo'rlar ildam turib tobutga yaqinlashishdi. Korchalon baland va sovuq ovozda buyruq qildi:

— Yo'lovchilarga beringlar, ha, yo'lovchilarga beringlar.

Yo'lovchilar tobutni ko'tarib o'n-o'n besh qadamcha yurdilar. Keyin bittadan, oldinma-ketin orqalari-ga qaytishdi.

Ko'chaning boshida «Moskvich» mashinasi ko'rindi. Rulda o'tirgan odam tobutga yaqinlashmasdan mashinasini devorga tirab chetga oldi. Mashinadan ildam tushdi-da, kelayotganlarga peshvoz chiqdi. Uning egnida yaxshi kostyum-shim, bo'ynida galstuk. U ham tobutni besh-olti qadam

ko'tarishib bordi. So'ng orqaga, mashinasiga qaytdi. Mashina ichida o'tirgan kampir «joyi jannatda bo'lzin», deya pichirlab yuziga fotiha tortdi. Mashina asta joyidan siljidi.

Tobutkashlar orasida turtinib-surtinib ketayotgan To'laganni korchalon jerkib berdi.

— Qo'chsang-chi, huv bola, nega oyog' ostida o'ralashasan. Chetga chiq!

To'lagan bu badjahl odamning so'zini ikkita qilishga qo'rqi, qadamini sekinlatib guruhdan ancha orqada qoldi.

Tobut ko'tarib ketayotganlardan o'n qadamcha orqada esa ushoqqina, lekin olifta kiyingan odam bilan beso'naqay barzangi alohida borishardi. To'lagan ularga tenglashib yonma-yon ketaverdi. G'alati odamlar ekan. Marhumning ularga hech qanday aloqasi bo'lmasa kerak, o'zлari bilan o'zлari ovora edilar. Bir oz turib esa ularning hatto kayflari chog'dek tuyuldi To'laganga. Ayniqsa, jikkakdan kelgani o'ta beparvo edi.

Barzangi gavdasiga yarashmagan harakatlar qilib uning ko'nglini ovlash payida. Jikkak esa olifta harakatlar bilan allanarsalarni uqtiradi, barzangi yuz-ko'zida jirkanch itoatkorlik bilan uning so'zлarini ma'qullaydi. Barzangi shu paytda go'yo bo'yining balandligidan norozi bo'lgandek qiynalib, engashib boradi, oliftaga nechog'lik teng bo'lishga urinadi, goh-gohda yig'lamsiraganga o'xshab ayanchli irshayib qo'yadi. Birdan u uch-to'rt qadam oldinda, bo'sh yotgan konserva bankasini ko'rib qoldi. Ildam ol dinga o'tib oyog'ining cheti bilan bankani turtib ariqqa tushirib yubordi. Olifta barzangining xushomadidan mamnun bo'lib, bir oz kerilganicha yo'lda davom etdi.

To'lagan taajjub va qiynoqda edi. Kim bo'ldi bu o'ta loqayd va beparvo kimsalar? Marhumga dahllari bo'lmasa, shu xonadon musibatiga hamdard bo'lishmasa, nega keladilar dafn marosimiga? Undan ko'ra kelma!

To'lagan bu kimsalarning yonida yurishni o'ziga ep ko'rmadi, qadamini tezlashtirib yana katta guruhga yetib oldi.

Ikki uchiga paranji yopilgan tobut olomonning yelkasida lopillab borardi. Terlab ketgan korchalon vaqtı-vaqtı bilan yoshlarga aql o'rgatib qo'yadi, uning koyishlari hech kimni xafa qilmaydi, aksincha, dalda beradi. Tobut ko'tarish hamon talash, bu yumushdan hech kim o'zini olib qochmaydi, chunki tobutkashlik o'zbek uchun savob hisoblanadi.

Eng oldinda adasi bilan yonma-yon ketayotgan Sayfining boshi tinimsiz g'uvillardি. U nima bo'layotganini aniq sezmas, karaxt bir holda borardi. Faqat manzilga yetib, qabriston darbozasiga ko'zi tushganda birdan seskanib o'ziga keldi. Marhumaga janaza uyda o'qilgani uchun to'g'ri qabristonga yo'l oldilar.

Go'r istonga qadam qo'yishlari bilan osmonni bir-dan qora bulut qoplab, atrof asta-sekin qorong'ilasha boshladi. Haqiqatda ham qorong'i tushdimi yoki unga shunday tuyuldimi — buni Sayfi ajratolmadi.

Mozorning ichiga kirganda tobut ko'tarib ketayotganlar to'xtadi. Go'r qayerdan qazilgan, qay tomonga yurish kerak — toki aniqlagunlaricha bir-ikki lahza o'tdi. Ko'chada kelayotganlarida ancha joyga cho'zilgan odamlar safi, xuddi qiyshiq doira hosil qildi. Oldinda borayotganlarga orqadagilar qo'shib ketdi.

Shu asnoda Sayfining ko'zi to'satdan To'laganga tushib qoldi. To'g'rirog'i, ular bir-birini bir paytda ko'rdi. Ammo ular bir-birlariga lom-mim demadilar. Sayfi: «Iye, sen ham kelgan ekansan-da, rahmat, do'stim», demadi. «Bandalik ekan, bardam bo'l, og'ayni, men sen bilanman», deb To'lagen aytmadı. Faqat bir-birovini ko'rdi-yu, ikkovining ko'zidan, xuddi kelishib qo'ygandek, tirqirab yosh chiqib ketdi. Nega shunday bo'ldi — ikkovi ham bilolmadi.

Og'ir kezlarda ko'rsatilgan sadoqatdan kishi larzaga kelishi, hayajonini jilovlay olmay ko'ngli buzilib ketishini bolapaqirlar qayoqdan bilishsin?!

Sadoqatdan kuchliroq hissiyot yo'qligini anglash uchun inson uzoq, juda uzoq umr ko'rishi kerak. Sayfi bilan To'lagen esa endi yashashni boshlayotgan edilar.

Onasining jasadi laxadga qo'yilayotgan payt yosh Sayfining xotirasiga abadiyan muhrlanib qoldi.

KUTILMAGAN MEHMON

Eshikdan notanish ayolning kirib kelayotganini ko'rgan Xolposhsha xola sirayam hayron bo'lindi. Ochiq chehra bilan mehmonning qarshisiga peshvoz chiqdi, xuddi eski qadrdonlardek quchoqlashib ko'rishi.

— Voy, tasadduq, eson-omonmisiz? O'ynab-kulib yuribsizmi? Voy aylanay sizdan, keling tasadduq, keling. Qani, qani ayvonga.

Bunday iliq mulozamatdan sal noqulay ahvolga tushgan mehmon tortinib ayvonga chiqdi.

— To'laganlarning uyi shumi, ishqilib? — xijolatini yashirolmay so'radi ayol.

— Shu, aylanay, shu. Eshikdan kirib kelishingiz bilanoq sezdim To'laganning muallimlaridan ekanligingizni! Ha, opovsi, biz ham chakki emasmiz, shunaqa ziyrak kampirlardanmiz! — Xolposhsha xola qilgan hazilidanmi yoki topag'onligidanmi sharaqlab kuldi, — devor bo'lmasa bemalol ko'chani ko'raveramiz.

— O'qituvchi ekanligimni topdingiz-u, ammo... To'laganga dars bermayman. Pensiyaga chiqqanman.

— Voy, shunaqa yosh narsa-yal — odamlarning ko'nglini ko'tarishga usta edi shirin so'z Xolposhsha xola, — borgan bo'lsangiz endi qirqlarga borgandirsiz, aylanay, pensiyani gapirmang!

Ayol kampirning iltifotini tushunib jilmayib qo'ydi. Xolposhsha xola bir zumda ayvondagi xontaxta atrofiga atlas ko'rpachalar solib joy qildi, das turxon yozib noz-u ne'matlarga to'ldirib tashladi.

— Ammo, opovsi, qaynanangiz suygan ayol ekan-siz. Qovoq somsaga ko'nglim ketib deng, bir tandir yopib qo'ygandim. Hozir uzaman.

— Rahmat, qovoq somsani men ham yaxshi ko'raman.

Ayol dabdurustdan muddaoga o'tolmay gapni aylantirar, ehtiyotkorlik bilan ravon yo'lga olib chiqadigan so'qmoqlar qidirardi.

— Opog'oyi, To'laganning ota-onasi...

— Kavkazga ketishgan, dam olgani. Hoy, men sizga aytasam, aylanay, odamning puli ko'paysa shu-

naqa bosar-tusarini bilmay qolarkan. O'sha yurtda tog' bor emish. Kislovodsk degan joyda. He, musulmonlar, tog' o'zimizda qurib ketganmi? Hamma tog' o'zimizda-ku, ana, Shohimardonga boringlar, Burchmulla, Chimyonga chiqinglar. Yo'q, albatta falon pul sarflab tupkaning tagiga borish kerak... Pullaring shunaqa oshib-toshib ketgan bo'lsa mahalla-ko'yni yig'ib xudoyi qilinglar, savob bo'ladi. Nima dedingiz, opovsi?

— Endi, balki sog'liqlari joyida emasdir, davołangani...

— Be... sog'liqlari binoyidek, — yana mehmonning so'zini bo'ldi kampir, — kelinimning sal yuragi siqadi. O'zi qo'rqaqroq. Yo'q, mayli, men qarshi emasman, borsa boraversin. Faqat farosati kamroqligiga achinaman-da, tog' kerak bo'lsa o'zimizda...

— Endi opog'oyi, uyoqning havosi boshqachada, innaykeyin sanatoriylari zo'r. Bizda siz aytgandek tog'lar ko'p-u qarovsiz-da, dam oladigan joylar qurilmagan. — Mehmon gapning jilovini muddaoga burdi. — Bu deyman, opog'oyi, nabirangiz ko'rinxaydi?

— O'rtog'inikiga ketuvdi. Yoz, o'qishi yo'q, ta'til bo'lgani uchun, uyda zerikib o'tirmasin, deb qayoqqa xohlasa yuboraveraman.

— Sayfilarnikigami?

— Ha, qadrdon-ku, ikkalovi. Doim o'sha bilan birga.

— Bu Sayfi tushmaguringiz sal shaytonroq, o'yin-qaroqmi deymanda-a, xolajon? — tusmollab so'radi mehmon.

— Sayfimi? — kampir jiddiy tortdi, — sal o'yin-qaroqligi bo'lsa bordir-ku, ammo tilla bola. Yuragi toza, aylanay, yuragi toza. Bir aybi — hech tinib-tinchimaydi. Xuddi g'ayrati ichiga sig'magandek osmonga sapchigani-sapchigan. Mening To'laganim uning teskarisi — tepsa tebranmas. Bu boqibeg'am, u olov, hayronman bular qanday qilib til topishishgan?

— O'zi shunaqalarning do'stligi mahkam bo'ladi. O'zida yetishmagan xususiyatini o'rtog'idan topadi,

— Mehmon maqsadga yaqinlashishga qanchalik

harakat qilmasin, kampir ezmalik qilib gapni chalg'itib yuborardi. — Opog'oyi, To'lagan haliyam... har kuni to'garakka qatnayaptimi?

— Qatnayapti, aylanay, hech kanda qilmaydi. Shu odatini yaxshi ko'raman nabiramni, juda tartib-intizomli, — kerildi kampir. — O'zi umr bo'yи orzu qilib yurar edim, aylanay, qani endi bizning avloddan ham birorta xonanda chiqsa deb. Uni qarang, xuddi ko'nglimdagini topgandek To'laganim...

— Ko'nglingizdagini topsa juda yaxshi bo'lardiya, — endi mehmon kampirning so'zini bo'ldi, — gap shundaki...

— Nima demoqchi bo'lganingizni tushundim, opovsi, men juda unaqa alifni kaltak deya olmaydigan kampirlardan emasman. Bilaman, ashulachi bo'lish uchun qunt kerak, ko'p ter to'kish kerak. Hammasini tushunaman. Mayli, borsin, qiynalib mashq qilsin, ishqilib ashulachi bo'lib chiqsa bas. To'laganning ovozini hech eshitganmisiz, nafasi issiq, shirali. Xuddi To'ychi hofiznikiga o'xshab ketadi. Man, aylanay, san'atga mukkasidan tushganlardanman. To'ychi hofizning birinchi plastinkasi chiqqanida tilla bilakuzugimga almashtirib olganman. — Kampir qiyqirib kuldi. — Ammo oyim rahmatli bilib qolib rosa savalaganlar. To'lagan menga tortdi, san'atga havasli chiqdi.

Ayol qiynalib ketganidan xo'rsinib yuragini bo'shatdi, endi gapni aylantirib o'tirmasdan shartta muddaoga o'tishga qaror qildi.

— Opog'oyi, gapim sizga yoqmasa ham aytaman, chunki aytmasam bo'lmaydi.

— Aytavering, opovsi, bemalol aytavering, nima gap ekan? — faqat endigina kampirning ovozida xavotir ohangi paydo bo'ldi.

— Gap shundaki... — mehmon tutilib qoldi.

— Gapiravereng, opovsi, cho'zganingiz sari odamning yuragi hapriqib ketyapti, — ayolning og'ziga mahtal bo'lib tikildi kampir.

— Yo'q, unaqa shum xabar emas, — ayol bir lahza sukut qildi, keyin atay loqayd ovozda xotirjam davom etdi: — Nabirangiz Sayfiga qo'shilib... Yo'q, yo'q, siz cho'chimang, ular o'g'irlik ham qilishmagan, bezori-

lik ham qilishmagan, bor-yo'g'i kinoapparat sotib olish uchun pul yig'moqchi bo'lishgan.

— Pul yig'ishsa yig'ishar, opovsi, buning nimasi yomon? — sal gina qildi kampir.

— Yo'q, yomon emas. Ammo qanday yo'l bilan pul ishlashmoqchi bo'lishgan, gap shunda.

— Nima qilishibdi?

— E, o'ziga yetguncha usta bular ham, — jilmaydi ayol, kampir vahima qilib yubormasin uchun. — Eng avval ust-boshlarini o'zgartib churuk-churuk kiyinib olishgan, keyin bozorga tushib odamlarning yuklarini ko'tarishga yordam berishgan, choychaqa ishslash maqsadida.

Xolposhsha xola ayolning bundan keyingi so'zlarini eshitmadni, u sevikli nabirasining churuk-churuk kiyinib bozorda hammaning yukini tashib yurganini ko'z o'ngiga keltirdi. U anchayin vahimachi, shal-laqiroq kampir edi. O'rnidan irg'ib turdi-yu, butun hovlini boshiga ko'tarib uvvos ko'tardi.

— Voydod, musulmonlar! Bu qanday ko'rgilik! — U ikkala qo'lini tizzasiga uring qichqirdi. — Kimsan Abdukarimbek boyning yakka-yu yagona, erka qizi Xolposhshani nabirasi bozorga tushib hammollik qilib yurgan emish! Voy, men qanday chidayman bu nomusga!

— Voy, o'zingizni bosing, xolajon, o'zingizni bosing, — ayol kampirning ikkala yelkasidan quchib o'tqizdi, — unaqa dodvoy soladigan narsa ro'y bermadni, xolajon.

— Voy, sharmanda, voy, behayol — kampir panjalari bilan betini timdaladi. — Qilib yurgan ishini bitta-yarimta ko'rgan bo'lsa nima degan odam bo'lamiz. Kimsan, professorning onasi Xolposhshaxonning nabirasi...

— Voy, xolajon, odam degan unaqa yengil bo'lmaydi-da, — tanbeh aralash koyib gapirdi ayol, — kim aytadi sizni ko'pni ko'rgan kampir deb?

— Axir shumtakalarning qilig'ini o'zingiz gapirib berdingiz-ku, shundan keyin ham pinagimni buzmay o'tiraymi?! Shoshmay tur hali, qo'limga tushasan-ku, sen bolal! Yetti qavat po'stingni shilib, ichiga somon tiqmasam men ham yurgan ekanman, — jig'ibiyroni

chiqqan Xolposhsha xola ikkala qo'lini musht qilib bir-biriga urdi.

— Ayol uning bu qiling'idan kulib yubordi. Haqiqatan ham Xolposhsha xola juda qiziqqon edi.

— Lekin xolajon, na Sayfi, na nabirangiz qancha odamga yukni ko'tarishga yordam bergen bo'lsalar ham birovdan bir tiyin olishmagan.

— A?.. — kampir birdan jahldan tushdi, ovozida g'urur paydo bo'ldi. — Olmaydi! Nazari past emas nabiramning, ha, tagi ko'rganda, aylanay, tagi ko'rgan. Buvasi Abdukarimbek boyvachcha yetti mahallaga...

— Opog'oyi, bolalarning niyati aslida yomon bo'limgan. San'atga qiziqishgan ekan, kinochi bo'lishmoqchi ekan, bu juda yaxshi, ammo...

— Shuni aytaman-da, opovsi, niyatlar buzuq emas, mayli, san'atga qiziqsin, kinoartist bo'ladimi, xonanda bo'ladimi — bosh ustiga. Ammo bolasi tushmagur, ayni ota-onasi yo'q paytida yetimchalarga o'xshab ko'chalarda har kimlarning yukini tashib, xoru zor bo'lib yurganiga chiday olmayapman-dai — kampir endi ko'ziga yosh oldi. — Ha, senga pul kerak ekan, mendan so'ramaysanmi? Xah bolapaqir-a! Mana shu ayvondagi namatgina o'lgurni shunday ko'tarsaku, o'ziga valasapit oberaman deb yig'ib yurgan pulim bor, olardi qo'yardi. Voy, men qanday chidayman bu sharmandalikka!

Xolposhsha xola yana o'zining diydiyosini boshla-di, u bilan gaplashish juda qiyin, bir gapga tushsa, to'xtatib bo'lmas edi.

Ayol arang uni so'zini bo'ldi.

— Meni juda xijolatga qo'ydingiz-ku, xolajon. Sizni xafa qilib qo'yishimni bilganimda kelmas edim.

— Voy, aylanay, sizdan nega xafa bo'lar ekan-man?! Birovning bolasiga shunchalik joningiz achib kelibsiz, oltin odam ekansiz! Dardning oldini olgan yaxshi. Ming rahmat sizga. Hali kelsin, zumrasha-ning adovini berib qo'yaman, — kampir yeng uchi bilan ko'zini artdi.

— Bolalarning bitta aybi bor, opog'oyi, biz shuning oldini olishimiz kerak, — nihoyat gapning po'skallasini aytishga qaror qildi ayol, — u ham bo'lsa ularning yolg'on gapirgani, sizni aldashgani.

— Ha-ya, ashulachi bo'laman deb har kuni meni oldimga poxol tashlab chiqib ketar ekan-da! — kampirning yana zardasi qaynadi.

— Biz ana shundan ehtiyot bo'lishimiz kerak, yolg'ondan!

— Aytyapmanku, shu bugunoq savalab, yo'q, savalashga kuchim yetmaydi, shuning uchun otasi bilan onasini kelishini kutaman, besh kun qoldi, bir amallab chidayman. Ana o'shalarga chaqib rosa savalataman.

Ayol mehr va achinish bilan kampirning ko'ziga boqdi.

— Savalash bilan ish bitmas, opog'oyi. Bola bir narsaga astoydil kirishsa shaxtini qaytarib qo'yish yaramaydi. Uning murg'ak orzu-umidlariga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak.

Bu gap kampirga ta'sir qilib o'ylanib qoldi. Keyin hamsuhbatiga savolchan boqdi.

— Bo'lmasa nima qilgin deysiz, opovsi?

— Shunday qilish kerakki, To'lagan qilgan aybiga o'zi iqror bo'lsin, ayniqsa, bizni aldagani gunoh ekanligini o'zi tushunib yetsin.

— Ha, o'zi tushunib tavbasiga tayansa, ikkinchi qaytarmaydi. Bizlar ming koyiylik, o'zi tushunmasa, foydasi yo'q, — mehmonning gapini tasdiqladi Xolposhsha xola.

— Ana endi o'zingizga keldingiz, — suyunib ketdi ayol, — shuni payida bo'lishimiz kerak. Kaltak zolimning quroli.

— Voy, esim qursin, gap bilan bo'lib somsani butunlay unutib yuboribman-ku. — Xolposhsha xola hovuridan tushib, ancha o'ziga kelib qolgan edi. — Birpas o'tirib turasiz, aylanay, hozir somsani uzib kelaman.

— Men endi bora qolay, opog'oyi, shunday ham ancha o'tirib qoldim, — turishga shaylandi mehmon.

— Voy, tayyor somsani tashlab ketasizmi, aylanay, — rosmana o'pkalanib gapirdi kampir, — somsadan tatib ko'rмагунигизча, sizга рұксат ю'қ.

Ayol qarasa kampir rosmana xafa bo'ladigan, birpas o'tirishga rozi bo'ldi.

Xolposhsha xola issiqliqna somsadan uzib keldi.

Ayol maqtab-maqtab somsadan ikkita yedi, mehmon-do'st Xolposhsha xola bu maqtovlardan o'zida yo'q xursand edi.

Shu payt eshikda To'lagan paydo bo'ldi. U ayvonda o'tirgan ayolni oldiniga tanimadi, keyin bu o'sha — To'lagan uyiga savatini oborib bergan o'qituvchi ekanini bilib, ura orqasiga qochdi. Yaxshiyam uni kelganini hech kim ko'rmadi.

Ayol yana yarim soatcha chaqchaqlashib o'tirganidan keyin ketishga ijozat so'radi.

— Voy, borarsiz, opovsi, bir kelib qolibsiz, otamlashib o'tiramiz. Ha, juda gaplashadigan juvon ekan-siz, aylanay, ancha g'uborim ko'tarildi.

— Boshqa kelarman yana, o'tirib gaplashadigan bo'lib... — ayol o'rnidan turdi, — endi opog'oyi, menga Sayfining turadigan joyini aytasiz. Uning ham ota-onasini ogohlantirib qo'ymasak, gunoh bo'lar.

— Sayfini deysizmi? — birdan Xolposhsha xola bezovtalanib qoldi, — qo'ying opovsi, ularnikiga bor-may qo'ya qoling, men o'zim xabar qilaman.

Ayol taajjubini yashirmay kampirga qaradi.

— Ha, opovsi, o'zim borib yotig'i bilan adasiga tushuntiraman. Boyaqishning onasi ikki hafta burun olamdan o'tdi, — dedi kampir qayg'u to'la ovozda.

Ayol dastlab bu kutilmagan gapdan dovdirab qoldi, u qanday qilib:

— Voy, xudo rahmat qilsin, — deb yuborganini ham sezmadni, — mayli, unday bo'lsa o'zingiz bor-ganingiz ma'kul.

Ayol ketgandan keyin chamasi bir soatlar o'tgach To'lagan kirib keldi. Xolposhsha xola nabirasiga bir-dan hujum qilmadi. Mayli, oldin ovqatni yeb olsin, keyin gapiरarman, degan o'yga bordi, ammo haya-jonini yashira olmadi. Nabirasini kutib olar ekan, keragidan ortiqcha takalluf bilan engashib, qo'li ko'ksida ta'zim qildi, kinoya to'la ovozda:

— Keling, hofiz? — dedi.

Hurmati oliy bejiz emas, ayol chaqqani aniq, deb o'yladi To'lagan, ayvonga chiqdi, stulga o'tirib chuqur xo'rsindi.

Xolposhsha xolaga nabirasi juda ruhi tushgan, kayfi buzuq ko'rindi. Shuning uchun, ichi pishib

ketayotgan bo'lsa ham tilini tiydi. Ovqatini berib, ko'rpa qavigani o'tirdi, ha, bir oz sabr kerak.

To'lagan ovqatni nomiga bir-ikki olgan bo'ldi-yu, surib qo'ydi. U yerga tikilgancha xayol surardi.

— Ha, nima bo'ldi? — so'radi Xolposhsha xola qilayotgan ishidan bosh ko'tarmay, — ishtahangni mazasi yo'q?

— Hech narsa... charchabman shekilli.

— Kun bo'yi mehnat qilgandan keyin charchaydi-da odam, — piching qildi Xolposhsha xola.

— Qanday mehnat? — cho'chib tushdi To'lagan.

Xolposhsha xola sir boy bermaslikka harakat qildi.

— A, endi ertalabdan kechgacha bo'kirib ashula aytish osonmi? Charchaydi-da odam.

To'lagan allaqayeri zirqirab og'rigandek yuzini burishtirdi. Oraga yoqimsiz jimlik cho'kdi. Anchagacha nabira ham, kampir ham o'z achchiq xayollariga g'arq bo'lib o'tirdilar. Nihoyat To'lagan boshini ko'tardi:

— Buvi... men sizga anchadan beri bir narsani aytmoqchi edim.

Xolposhsha xola seskanib ketdi. Lekin o'zini ushladi.

— Nima ekan? — beparvo bo'lishga tirishib so'radi.

— Men hech qanday ashula to'garagiga qatnayot-ganim yo'q, — To'laganning ovozi zo'rg'a eshitildi, — sizni aldab yuribman.

Shundan keyin u bor gapni oqizmay-tomizmay buvisiga so'zlab berdi.

Xolposhsha xolaning ko'ngli buzilib ketdi. Nabirasining rostgo'yligi ta'sir etib, ho'ngrab yig'lab yubordi. Birovning qistovisiz o'zi aytgani uni larzaga solgandi. To'laganga shu tobda buvisi juda g'arib, majolsiz, himoyasizdek tuyuldi. Buvisining shu ahvolga tushishiga o'zini aybdor, deb hisobladi. O'zidan jirkandi, g'azablandi.

— Buvi, xafa bo'lman, ikkinchi sizni aldamay-man.

— Xafa bo'layotganim yo'q, — dedi Xolposhsha xola sal o'ziga kelib, — bizning urug'-aymog'imizda yolg'on gapirgan odam bo'lman edi. Shundan

qo'rquvdim, haytovur, dog' tushirmading avlodimizga, yashirmay o'zing aytding.

To'lagan shu bilan gap tugadi, deb o'yagan edi, ammo buvisi yana davom etdi:

— Hayronman, sen og'ir karvon bo'lsang, Sayfini joni ichiga sig'maydi, olov! Qanday qilib ikkoving topishgansanlar?!

— Aybni unga ag'darmoqchimisiz? — To'lagan qasam ichgandek davom etdi. — Meni zo'rlagani yo'q. O'z xohishim bilan bordim.

Nabirasining sotqinlik qilmagani, mardligi, do'stiga sadoqati kampirga yoqdi.

— Voy, To'laganjon, nega endi aybni unga ag'dararkanman? Shunchaki aytdim-da. — Xolposhsha xola ko'yunib boshini sarak-sarak qildi. — Bechoraning yetimcha bo'lib qolganiga sirayam chidolmayapman-dal Ha, aytgandek, bugun fotihalikka borib kelay.

— Fotihalikka?

— Ha, eskilarning shunaqa rasm-rusmlari bo'ladi, sen tushunmaysan. Harholda qadrdon do'sting, bormasam uyat bo'ladi. Ha, shu bugunoq borib kelaman.

Xolposhsha xola bir zumda otlandi. Nabirasiga hovliga ko'loblab suv sepib qo'yishni tayinladi-da, Sayfilarnikiga qarab yo'lga tushdi.

JAZO

Muborak opaning vafotidan keyin Sayfilarning hovlisi huvillab qoldi. Faqat bugun, xotinining yigrimasidan keyingina Rahim akaning qo'li ishga keldi. Qaramasang hovlining borgan sari fayzi qochaveradi, undan tashqari yoz ham oxirlab qoldi, hademay bolalar maktabga borishadi.

Rahim aka ertalab turib hujraning tomiga chiqdi. Eski, chirib ketgan qalin qora qog'oz — ruberoidni yangisiga almashtirdi. Sayfi uyda yo'qligi uchun ukasi To'lqin adasiga qarashayotgan edi. U pastda qolib adasiga kerak narsalarni uzatib turardi. Malohat o'choq boshida ovora, yonida jajjigina kur-sichada Erkin uzum yeb o'tirardi. Quvnoq va beg'am Erkin boshqalardan keskin ajralib turardi.

Ish ayni qizigan paytida eshik taqillab qoldi. Malohat borib eshikni ochdi. Qarshisida tugun ko'targan Xolposhsha xolani ko'rdi.

— Assalomu alaykum, — dedi haqiqiy uy egasidek iliq kutib oldi mehmonni.

— Voy, ona qizimdan aylanay, — kampir eski-larning irimi bo'yicha yig'lab, ko'ziga yosh olib ko'rishdi, — onaginang rahmatlikning yo'qligini bildirmay o'tirsang, aylanay sendan. Chidaymiz-da, bandasining qo'lidan nima ham kelardi. O'lim haq deydirlar.

— Kiring uyga, xolajon, — Malohat kattalarga xos mustaqillik bilan kampirni uyga taklif qildi.

Xolposhsha xola gaplari pishiq, tiyrak va ayni paytda xushmuomala bu qizning ra'yiga qarab darrov yig'isini to'xtatdi, itoatkorlik bilan uning ketidan ergashib ayvonga yaqinlashdi. Yugurib kelgan Erkin bilan quchoqlashib ko'rishdi.

— Adal — Rahim akani chaqirdi Malohat.

Aslida otasi kampirni ko'rishi bilan ishini tashlab, shoshilganicha pastga tusha boshlagan edi. Hammalari ayvondagi xontaxta atrofiga cho'kdilar. Xolposhsha xola:

— Yaxshi o'tiribsizlarmi, aylanay, ko'nikib qoldinglarmi ishqilib?

— Ko'nikmay ilojimiz qancha, — muloyimlik bilan javob qildi Rahim aka, — o'zingizlar tinchmisizlar?

— Hay ishqilib yaratganning o'zi sabr bersin. Bolalarning baxtiga endi o'zingiz omon bo'ling. Bu dunyoga hamma ham mehmon, ammo yosh ketdi rahmatlik.

— Ha, shunaqa, hamma ham omonat ekan bu dunyoga, — bosh silkib kampirning gapini ma'qulladi Rahim aka.

— Lokigin o'ksish kerak emas, peshonasida shu yozilgan ekanmi, chidaysiz. Ollohning amri.

Rahim aka kampirning gapini tasdiqlagandek yana bosh silkidi.

Malohat choy qo'ygani o'rnidan turdi. U katta uyning eshigiga yaqinlashib sekin imlab adasini chaqirdi. Rahim aka qizi imlaganini kampirga bilin-

tirmadi, yoqinqiramay o'rnidan turdi, qizining orqasidan mehmonxonaga kirdi.

— Nima deysan? — noroziroq ohangda so'radi.

Malohat sandiqdan chinnidek ko'yak olib adasiga uzatdi.

— Ko'ylagingizni almashtirib oling, ada.

— O'zim ham shu niyatda edim, — o'zini oqlagan bo'ldi Rahim aka.

Malohat birpasda choy damlab keldi, dasturxonni bezadi. Hammalari o'tirib choy ichishdi. Xolposhsha xola nimchasingin cho'ntagidan shirinlik olib Erkin-ga berdi.

— Nimadi bu? — so'radi Erkin.

— Obaki dandon.

— Obaki dandon deganingiz nimasi? — bu so'zni Erkin birinchi eshitishi edi.

— Erka bolamdan aylanay, obaki dandon deganini sen qayoqdan bilasan. Bizlarni paytimizda kanpit degan narsalar bo'lmasdi, obaki dandon yerdik, shin-ni, qiyom yerdik. Og'zingga solib shimaver, maza qilasan.

Erkin obaki dandonni og'ziga soldi.

— Shirin ekan, — dedi.

Saldan keyin Xolposhsha xola qayerga va nimaga kelganini unutib yuborib, juda ochilib ketdi.

— Ammo Malohatingiz ko'p dono qiz bo'lipti-da, aylanay. Hovli-joyni tutib o'tirishini qarang, ham-mayoq saranjom-sarishta, idish-tovoqlari chinnidek. Menga qarang, — Rahim akaga yuzlandi kampir, — rozi bo'lsangiz shu qizingizni o'zim kelin qilardim To'laganimga.

— Qani katta bo'laversin-chi, — loqaydgina javob qildi Rahim aka.

Kampirning ezmaligini ko'tarardi Rahim aka, ammo tomning ishi qolib ketayotgani chakki bo'lyapti, dam olish kunidan foydalanib qolmasa, ertaga yana ishga chiqishi kerak.

— Menga qolsa bolalarni vaqtli uylantirmagan ma'qul, o'zi pul topadigan bo'lib, oyoqqa turgandan keyingina.

«O'zi pul topadigan» degan so'zni eshitgandan keyingina Xolposhsha xolaning nima maqsadda kel-

gani esiga tushdi. Yotig'i bilan o'qituvchi ayoldan eshitgan gaplarini Rahim akaga so'zlab berdi. Bolalarning gunchini iloji boricha yumshatib ko'rsatishga harakat qildi, natijasi esa teskari bo'lib chiqdi.

«Kampir ataydan bolalarning yonini olyapti, asli-da ular bundan ham battar ishlarni qilishgan», deb o'yaldi Rahim aka. U o'ylanib qoldi va kutilmaganda kampirga yuragini ochdi.

— Odamlar meni haqimda nima deb o'ylashlarini bilmayman-u, ammo yomon odam emasman, xolajon, to'g'ri, bitta aybim bor — goh-goh ichib turaman. Buni ham urushda yarador bo'lib gospitalga tushganimda o'rgandim og'riqni bosish uchun ichdim. Qolaversa u yerda odamlarning musibatini ko'p ko'rishga to'g'ri keldi... Lekin umrim bino bo'lib birovning bir tiyin haqiga ko'z olaytirmaganman. Men bir rabochiy odamman. Mana shu qo'llarim kuchi bilan halol pul topaman, halol pulga oila boqaman.

— Voy, harom topilgan narsa baribir yuqmaydi, mulla aka, — nimadir deyish uchun gapirdi Xolposhsha xola.

— Ha, halol pulga ro'zg'or tebratib, halol pulga oila boqdim. Shundoq ekan, sha'nimga dog' tushirisha yo'l qo'ymayman. Adabini berib qo'yaman u shum-takanil!

— Lekin, umringizdan baraka topkur, bolani xafa qilmang, Sayfiga o'xshagan oltin bolani topish qiyin, — shundan keyin Xolposhsha xola Sayfini maqtashga tushib ketdi.

Malohat ukasi To'lqinni chetga chaqirib qo'liga pul berdi.

— Bor, nonga chiqib kel.

— Non uyda ko'p-ku, — chap berishga urindi To'lqin.

— Bo'lka non bo'lmaydi, qo'lda yopgan uy non olib kel, ham xolamning oldilariga qo'yamiz, ham tugunlariga solishimiz kerak. Sudralib yurmasdan g'ir etib chiqib kelgin, — tayinladi Malohat.

To'lqin pulni olib to'ng'illadi:

— Qachon qarasa menga ish buyurasan, Sayfi

bo'lsa nuqul qayoqlardadir maza qilib o'ynab yuradi!

— Bo'pti, gapni cho'zmasdan tez borib kel, —
bururdi Malohat.

Xolposhsha xola yana ancha o'tirdi. Bir turmoqchi
bo'lgan edi, Malohat qo'ymadi, go'ja boshladim, ichib
ketasiz, deb turib oldi.

Ovqatlanib bo'lganlaridan keyingina kampirga
ruxsat tegdi. U ketganidan keyin Rahim akaning
avzoyi o'zgarib, qovoq-tumshug'i osildi.

— Sayfi qani? — deb so'radi u Malohatdan.

Adasining ovozi allaqanday g'ayritabiiy, mudhish
va xunuk edi, buni Malohat darrov sezdi.

— Hozir kelib qoladi, kartoshka olib kelgani
bozorga ketgandi, — dedi Malohat.

— Kelishi bilan meni chaqir, — Rahim aka uyga
kirib ketdi.

Ko'p o'tmay bir xalta kartoshka ko'tarib Sayfi
kirib keldi. Xaltani ayvonning raxiga qo'yib singlisi-
ga o'dag'ayladi.

— O'v, ovqating pishdimi, qorin piyoznинг po'sti
bo'lib ketdi.

— Qozonda! O'zing suzib yeya qol.

— Suzib kel, — kerildi Sayfi, ming qilsa ham aka
edi-da u. — Meni aytishimni kutmasdan o'zing bilib
qilishni o'rgan.

— O'zing suzib olsang bir narsa bo'lib qolasanmi,
ko'ryapsan-ku, men kir yuvyapman.

— Sen nega o'zingdan kattaga gap qaytarasan,
tag'in kaltak yeb qolmagin! — po'pisa qildi Sayfi.

— Ishqilib o'zing kaltak yeb qolmasang bo'ldi.

— Nima?! — endi rosmana jahli chiqdi Sayfining.

Singlim urmoqchi deb o'ylagandi u.

— Adam seni kutib o'tiribdilar, — ogohlantirdi
Malohat g'alati ovozda, — jahllari yomon.

Sayfi birdan o'zgardi, chunki Malohat hazillash-
mayotgan edi.

— Adamlarga nima yomonlik qilibman? — so'radi
u xavotirlanib.

— O'zing bilarsan, — dedi Malohat va xuddi
gunoh ish qilayotgandek boshini egib uyga kirib
ketdi, adasiga Sayfi kelganini aytdi. Nima qilsin,
boshqa iloji yo'q edi-da.

— Hozir chiqaman, — dedi adasi.

Qizi chiqib ketgandan keyin Rahim aka eski shkafni ochdi. Bir talay kiyim-kechaklar orasida alo-hida qoziqqa osib qo'yilgan, ko'kragini besh-oltita orden-medallar bezab turgan harbiy gimnastyorka va shim ajralib turardi. Rahim aka gimnastyorkasiga bir zum tikilib qoldi, keyin ehtiyotkorlik bilan shimidan qalin harbiy kamarni sug'urdi. Qo'lida kamar ayvonga chiqdi. Hovlida turgan Sayfiga yaqinlashdi.

— Nima?.. Nima?.. — adasining avzoini ko'rgan Sayfi sarosimada bir-ikki qadam orqasiga tisarildi.

Rahim aka indamadi. Bir hatlab qochmoqchi bo'lgan o'g'lining qo'lidan mahkam ushladi. Sayfi jonholatda tipirchilab o'zini har tarafga urdi, lekin adasining qo'lidan chiqib ketolmadi.

— Nima?.. Nima qildim men sizga, qo'yvoring... — beto'xtov bijirlardi u.

Xunuk voqeani sezgan Malohat ikkala ukasini chaqirib katta uyga boshlab kirdi.

— O'zim ruxsat bermagunimcha qimirlamay shu yerda o'tiringlar. Beso'roq hovliga chiqsalaring kunningni ko'rasanlar mendan, — deb tayinladi.

Yugurib hovliga chiqdi.

Rahim aka indamasdan Sayfining gardanidan ushlab egdi, boshini ikki sonining orasiga olib qisdi, o'g'lining shiminibir tortib yechdi-da, keyin shoshmasdan, bir me'yorda kamar bilan savalay boshladni.

Sayfi bor kuchi bilan qichqirardi.

— Urmang, men sizga nima qildim, qo'yvoring!!! Voy, og'riyapti!

Rahim akaning hissiz yuzi toshdek qotib qolgan, u hamon bir me'yorda o'g'lini savalashda davom etardi.

Malohat tipirchilab qoldi, shoshib uyga kirdi, tashqariga otildi, keyin borib adasining atrofida girdikapalak bo'ldi, ammo qanday bahona to'qib akasini qutqarishni o'ylab topolmasdi.

— Bo'ldi... voy... voy... bo'ldi, boshqa qilmayman!!! — hamon uvvos ko'tarardi Sayfi, — nimaga urasiz?!

Malohat dangal kamar tegib ketadigan darajada adasiga yaqinlashdi. Rahim aka noiloj kaltaklashdan to'xtab, qiziga qaradi.

— Nima deysan?

— Uch kundan beri o'tin yormaydi, ayting o'tin yorib bersin, hozir yorib bersin, bo'lmasa yana galga soladi, — dedi Malohat, — kechqurunga ovqatga o'tinim yo'q.

Rahim aka birpas qiziga tikilib jim qoldi, maqsadini tushundi, keyin o'g'lini iskanjadan bo'shatdi. Sayfi qutulgan zamoni sapchib o'zini chetga oldi, uning ko'zlarida yoshdan asar ham yo'q, qo'rqqanidan baqirgani aniqlandi. Kaltak irodasini sindirolmagan Sayfi xo'mrayib adasiga qaradi, tishlarining orasidan chiqarib o'pkaladi:

— Nimaga urasiz? Aytishga tilingiz yo'qmi, bilmaysiz-da, og'rig'ini!

— Hozir hujradan hamma o'tinni opchiqib yor, bitta ham qolmasin, — Rahim aka kamarini yelkasi-ga tashlab bir-bir qadam tashlaganicha uyga kirib ketdi.

Shkafni ochib kamarni shimiga o'tkazdi. Dastro'molchasini olib yuzini, bo'ynini artdi. Tashqaridan gurs-gurs etgan tovush eshitildi. Sayfi o'tin yorishni boshlagan edi.

Rahim aka sovuq choy ichish niyatida choynakni olayotgan edi, tokchada turgan xotini Muborak opaning suratiga ko'zi tushdi. Muborak opa unga allaqanday g'alati nazar bilan, alamli o'kinch bilan qarab turgandek tuyuldi. Rahim aka suratga qaramaslikka harakat qilib piyolaga choy quyib ichdi. Surat ramkasini burib chetga — to'rga qaratib qo'ydi. Gurs-gurs etgan tovush yana qaytarildi. Asta-sekin bu tovush uni o'z holiga qo'y may qiyinay boshladidi. Bu bir me'yordagi gursillash o'g'lini savalaganda chiqqan tovushga hamohang bo'lib uning miyasida, quloqlari ostida jaranglardi. U deraza pardasini surib hovliga qaradi, o'tin yorayotgan o'g'lini birpas kuza-tib turdi.

Birdan u keskin o'girilib orqasiga qaradi. Sezgisi uni aldamayapti — Muborak opaning surati yana unga qarab turardi. Qanday?! Axir, hozirgina teskari o'girib qo'ygan edi-ku! Onayizorning arvohi chirqiladimi, ranjidimi?! Rahim aka miyasini g'ovlatib yuborgan chalkash fikrlardan qutulish uchun boshini

qattiq silkitdi. Sal o'ziga keldi. Yana suratga boqdi. Ha, bir zumga unga shunday tuyulgan ekan, surat teskari burilgan. Xayriyat-ey, unga shunday tuyulip-ti. Rahim aka yengil tortib xo'rsindi, holsizlanib eski divanga o'tirib qoldi. Nohaq urdimi? Yuragida keyin-gi paytda zardobdek yig'ilib qolgan qayg'uning, musibatning alamini o'g'lidan oldimi?! Axir aybi nimada o'g'lining?! O'g'irlilik, bezorilik qilmapti-kul Hammollik qilibdi. Buning bir tomoni yaxshi-ku. O'g'li yuk tashishdan jirkanmabdi. Hamma ham bu ishni o'ziga ep ko'ravermaydil Bolapaqir tezroq rejisyor bo'lmoqchi ekan. Tanlagan kasbini-chi... nahot-ki, nohaq xafa qilgan bo'lsa!

Rahim aka yuragi siqilib chuqur xo'rsindi. Tashqaridan hamon o'sha tovush bir me'yorda takrорlanardi: gurs... gurs... gurs... Rahim aka panjasib bilan sekin chakkasini qisdi. Chakki qildi, qizishib chakki qildi. Kechir meni... Muborak, o'g'lingni chakki xafa qildim, kechir.

Rahim aka shkafni ochib araq qidirdi. Topolmadi. Bir otim nos olib og'ziga tashladi.

Sayfi hamon o'tin yorardi. Uning ko'y lagi terlab ko'kragiga yopishib ketgan, qulog'inining orqasidan ter tomchilardi. Ko'zlaridan esa yum-yum yosh oqar, yig'layverib basharasi shilta-shalabbo, qovoqlari shishib ketgandi. Kaltak unga endi — o'zi yolg'iz qolganida ta'sir qilgan edi, aybi nima? Adolatsizlikdan xo'rligi kelib unsiz yig'lar, alamini o'tindan olib gurs-gurs bolta urardi.

Akasining oldiga o'zini quvnoq ko'rsatishga harakat qilib Malohat keldi. Uning qo'lida olma bor edi.

— Ma, — dedi u olmani akasiga uzatib, javob olmagach, qo'shib qo'ydi: — Xolposhsha xola olib keldilar.

— Tur jo'na!

— Yemasang yema. Maza qilib o'zim yeymen. — Malohat olmani kars-kurs tishlab yeya boshladi.

— Kimni mayna qilmoqchisan? — o'shqirib berdi Sayfi.

— Nima, endi seni dastingdan olma ham yeb bo'lmaydimi?

Sayfi qaddini rostlab boltani yerga uloqtirdi, peshonasidan terini sidirish bahonasida qizarib ketgan ko'zlarini yengi bilan artdi. Yig'laganini singlisi ko'rishini istamasdi.

— Xolposhsha xola To'lagan bilan qilib yurgan ishlaringni hammasini siridan-mirigacha adamga gapirib berdilar.

— Qanaqa ishlarni?

— Voy-bo', namuncha o'zingni go'llikka solasan?!

Sayfining nafasi ichiga tushib ketdi. Keyin bo'shashib so'radi:

— Xolposhsha xola qayoqdan bilibdi?

— Unisini o'zlaridan so'ra.

— O've, To'lagan xamir! Landovurlik qilib og'zidan gullab qo'ygan, — Sayfining so'kinib yuborishiga sal qoldi.

Malohat atay akasining jig'iga tegardi. Eng yomoni odamning alami ichida cho'kib qolishi, undan ko'ra baqirib ichini bo'shatgani ma'qul, shunda jahl bilan birga alami ham tashqariga chiqib keta-di.

— Ammo adam bopladilar, allaqachon adabingni berib qo'yishlari kerak edi.

— Sen kattalarning ishiga aralashma! — do'q urdi Sayfi, biroz o'tib yerga qarab po'ng'illadi.

— Xaltada, kartoshkaning tagida qog'ozga o'ralgan nosvoy bor, adamlarga olib kirib ber.

— Nosvoyga pul bermagan edilar-ku, — mahmadanagarchilik qildi Malohat.

— Seni ishing bo'lmasin, deyapman! — dedi Sayfi, sal yumshab qo'shib qo'ydi, — yarim kilo kartoshka kamroq oldim. Bilasan-ku, adam nosvoysiz turolmay-dilar.

— Mayli, yaxshi qilbsan. Zora nosvoy bahona, araq ichishni tashlab yuborsalar, — endi Malohat ham yumshadi, — ovqatingni suzib beraymi?

— Sho'tga opkel, — buyruq berdi Sayfi.

U juda charchagan edi, o'tin yorgan to'nkaga o'tirib dam olmoqchi bo'ldi, lekin endi cho'nqaygan edi hamki kaltak yegan joyi zirillab og'rib shu zahoti irg'ib o'rnidan turdi. Malohat o'zini tutolmay xaxolab kulib yubordi:

— Ha, o'tirolmaydigan bo'lib qoldingmi?!

— Nima kulasan?! — o'shqirdi Sayfi, ammo keyin-
gi lahzada qilig'i o'ziga ham ta'sir qildi shekilli,
singlisiga qo'shilishib kulib yubordi.

Malohat ham, Sayfi ham anchadan beri bunaqa
miriqib kulishmagan edi. Derazadan tikilib turgan
Rahim aka bolalarining kulayotganini ko'rib ko'ngli
ancha taskin topdi.

JAZO KETIDAN JAZO

Malohat odati ho'yicha barvaqt uyg'ondi.
Avvalambor adasiga nonushta tayyorladi. Ukalari
To'lqin bilan Erkinni uyg'otmadni, bekorga oyoq osti-
da o'ralashib xalaqit berishadi. Sayfini bezovta qi-
lishdan qo'rqardi, ha, o'zi xohlaganda turgani
ma'qul, bo'lmasa dakki yeb qolishi mumkin.

Malohat adasining choyini ichirib ishga kuzatdi.

Rahim aka eshik tagida to'xtadi, qiziga qarab
nasihat qildi.

— Oziq-ovqatga doim ko'z-qulog bo'lib turgin,
qizim. Guruching yo moshing tugayotgan bo'lsa keti
uzilib qolishini kutmasdan menga bir-ikki kun oldin
aytgin.

— Donni bir-ikki oycha yetadigan qilib g'amlab
qo'yasiz-ku, ada, — dedi Malohat, lekin ovozi, «ada,
bekorga tashvish tortyapsiz, buni o'zim ham bi-
lamon», deyayotganga o'xshab chiqardi.

— Don bo'lmasa sabzi-piyoz bor, xo'sh kundalik
ro'zg'orga darker... — Rahim aka pishiq-puxta va
mustaqil qizining oldida ortiqcha ehtiyyotkorlik qila-
yotganidan sal xijolat chekdi, — xo'b, bugun kechga
nima ovqat qilmoqchisan?

— Nima qilay? — Malohat chuchmallikni bilmas-
di, shart gapirardi, kimga o'xshadi bu qizi — Rahim
akaning o'zi ham bilmarsi. Buvisiga tortgan bo'lishi
kerak, buvisi shunaqa shaddod ayol edi.

— Nimang bor?

— Hamma narsam bor, ko'nglingiz tusagan ovqat-
ni aytavering.

— Ukalaringga oldidan ham o't, — dedi Rahim

aka, — agar hammasiga ma'qul tushsa mastava qilarsan.

— Ukalarim qanday ovqat bo'lsa ham yeb ketaverishadi, injiqlikni bilishmaydi, — dedi Malohat, lekin fikrining davomini aytolmadi.

— Aytaver, gaping og'zingda qolmasin, — dalda berdi qiziga Rahim aka.

— Sayfingiz nuqlu osmondan keladi. Hali qovurdoq so'raydi, hali chuchvara, hali kabob. Ayniqsa palovni yaxshi ko'radi.

— Ha, talabi katta uning, uncha-muncha ovqatni nazari ilmaydi.

— Bilmaydiki bozorda bir kilo go'sht falon pul, — adasining yonini oldi Malohat.

— Qo'yaver, qizim, yaqinda otpuskaga chiqaman, bitta og'aynimning tanishi yangi uy qurmoxchi emish, usta qidirayotgan ekan. Meni aytsa, kelsin gaplashamiz deb. Uyini o'zim qurib beraman, qarabsanki katta pul ishlab olamiz. Kunda qovurdoq, kuno-ra kabob qilib Sayfi demaganlarning burnidan chiqaramiz. Bugun, mayli palov damlay qol.

— Ada, uy qurib berishni pudratga olasizmi yo kunbaymi?

Rahim aka angrayib qiziga boqdi, bunaqa gaplarni qayerdan biladi u?! Demak, onasi bilan gaplashganida hammasini eshitib, qulog'iga quyib olgan ekan-da.

— Nimaydi, qizim?

— Pudratga bo'lsa, yoningizga akamni ham olvoling, harna yordami tegadi. Innaykeyin bahona bilan hunar ham o'rganadi. Mehnat qilsa faqat o'ziga foyda.

Rahim aka qizini hali yosh bola deb yurardi, kapkatta bo'lib qolibdi-ku! Ha, ro'zg'or tashvishi bo'yniga tushib hamma narsaga aqli yetadigan bo'libdi. Birdan Rahim aka qiziga achinib ketdi, shu yoshidan boshiga shuncha tashvish tushgani uni ixtirobga soldi. Ammo qizining ko'nglini ko'taradigan birorta iliq so'z topolmadi, indamay chiqib ketdi.

Malohat birpas uning ketidan qarab qoldi, yuragi jizillab achishdi, onasining vafotidan keyin adasi birdan keskin qarib ketdi, qaddi ham bukilib abgor bo'lib qoldi.

Biroq u tushkunlikka beriladigan qizlardan emasdi, hovliga qaytib yana o'z ishi bilan mashg'ul bo'ldi.

Oftob yarim terak bo'yи ko'tarilganda ayvonda yotgan Sayfi ko'zini ishqab o'rnidan turdi. Uyqusi o'chishini kutib birpas qaqqayib turdi, keyin hovlida ivirsib yurgan singlisini hushtak chalib chaqirdi.

— O've, choy tayyorla!

— Choy tayyor, oldin yuvinib ol.

Sayfi bir-bir odimlab xumga yaqinlashdi, yog'log'ida suv olib nomiga yuvindi, erinib artindi, ayvondagi xontaxta yoniga borib gup etib o'zini ko'rpachaga tashladi.

— Olib kel choyingni! Anavilarni ham uyg'ot, ulbul yeb olishsin, — dedi ukalari tomon ishora qilib.

Malohat bir choynak choy, ikkita uy noni olib kelib xontaxta ustiga qo'ydi.

— Nonga qo'shib yeydigan hech narsang yo'qmi? — har ehtimolga qarshi so'radi Sayfi.

— Issiq kunda yog'lik qazi og'irlik qiladi, tuxum palag'da bo'lib qolishi mumkin, asalga qaymoq qo'shib yesang sassiq kekirdak qiladi. Shuning uchun bexavotirgina nonni, choyni uraver.

Sayfi singlisining hazilidan miyig'ida kulib qo'ydi. Sekin o'rnidan turib ishkom tagiga bordi, yaxshi pishgan bir bosh uzum uzdi, suvda chayib non bilan tushirdi.

Nonushta qilib bo'ldi-da, hujra tomon yo'naldi.

— Yana robotingni yasaysanmi? — jahli chiqib so'radi Malohat, — uyga ham hech foydang tegadimi?

— Seni deb harakat qilyapman, miya. Bitqazsam hamma yumushingni o'zi qilib beraveradi.

Sayfi hujraga kirib ketdi.

Malohat allanarsalar deb norozi vaysadi, ammo ovoz chiqargani qo'rqli. Alamin supurgidan olib qulochkashlab hovli supura boshladi. Hovlining yarmichasi qolganda ko'cha eshik taqilladi. Malohat qaddini rostladi.

— Kiravering, eshik ochiq, — deb qichqirdi.

Eshik qiya ochilib ostonada To'lagan paydo bo'ldi. U bosh qimirlatib Malohat bilan so'rashdi, keyin muloyimlik bilan:

— Sayfi uydami? — deb so'radi.

- Keling, yaxshimisiz. Ha, uyda. Kiring.
- Chaqirvoraqol.
- O'zingiz kiravering. Men chaqirganim bilan baribir chiqmaydi.
- Qani o'zi?
- Ertalabdan beri hujraga kirib olib bir balolar yasayapti, robotmi-ey, shunaqa, — Malohat jilmayib qo'shib qo'ydi, — murvatini bossa hamma yumushni qilib berarmish. Hatto uy vazifasini ham tayyolarmish.
- He, uning «mish-mish»larini ko'p eshitganimiz. — To'lagan ham jilmayib hujra tomon yo'l oldi. Hujraga kirib borganda dastlab taqir-tuqurlarning orasida o'rtoq'ini ko'rmadi.
- O'v, namuncha qorong'i bu hujra, hech kim bormi?
- O'taver, birpas tursang ko'zing qorong'ilikka o'rganib qoladi, — qayoqdandir Sayfining ovozi keldi.
- Nima qilyapsan?
- Hech narsa, — birdan To'laganning shundoqqina burnining tagida paydo bo'ldi u, — kel, yaxshimisan?
- Ular hovliga, yoruqqa chiqishdi.
- Robot yasayotgan emishsanmi?
- Robot yasamayapman, buzyapman, — qo'l siltadi Sayfi, — aytgan buyrug'imning yarimisini bajaradigan robot menga nimaga kerak?
- Yarmini bajarsa zo'r-ku! — To'lagan garchi o'rtoq'i olib qochayotganini sezsa ham o'zini go'llikka soldi.
- E, chalakam-chatti ishni yomon ko'raman, — bu gapga chek qo'ydi Sayfi va «xo'sh, o'zing nimaga kelding?» degandek o'rtoq'iga qaradi.
- Gulmira ikkalamizni uyiga chaqiryapti, tez yetib borarmishmiz, — bunga nima deysan degandek tirjaydi To'lagan.
- Sayfi ensasi qotib basharasini burushtirdi.
- Nima ishi bor ekan bizda?
- Bilmadim. Hozir yetib kelinglar deb tayinlabdi.
- E, yo'qolsin! Kim bo'libdiki u bizga buyruq beradigan?! — Sayfi tutaqib ketdi.

— Men ham oldiniga ko'nmadim, lekin mana bu maktubchani olgandan keyin... — To'lagan o'rtog'iga kichkina buklog'lik qog'oz uzatdi.

Sayfi qog'ozni ochib o'qidi: «Agar sirlaring fosh bo'lib, butun matabning oldida sharmandai sharmisor bo'lishni istamasalaring, shu maktubchani olishlarining bilan zing'illagancha biznikiga yetib kel-laring. Gulmira».

Sayfi baqrayib qoldi, keyin bo'shashib To'laganga qaradi.

— Yana nimani boshlayapti bu qaqajon?! Uyda adabimizni yeganimiz yetmagandek, endi matabda sharmanda bo'lish qoluvdi.

— Bormasak bo'lmaydi, — xo'rsindi To'lagan, — o'zi shundoq ham buvimlarning yuzlariga qarolmay yuribman. Buvinilar judayam yomon ezilyaptilar, ahvollarini ko'rib yuraklarim achishib ketadi. Agar yana matab qo'shilsa buvim tob berolmaydilar.

— Hechqisi yo'q, meni ham adam rosa do'pposladiilar.

— Senga maza, kaltak yeb qutulib olding. Qani endi meni ham buvim savalasalar edi, o'zları ham xumordan chiqardilar, men ham aybim uchun jazo tortib sal yengillashardim. Urolmaydilar, kuch-lariyam yo'q, ko'ngillari ham bo'sh, — To'lagan o'ylab turib qo'shib qo'ydi: — Odam ayb qilgandan keyin jazolashsa yaxshi ekan, jazosini tortmaguncha gunohkordek yuraverar ekansan.

— Bo'lmasa, mushkulingni oson qilish uchun o'zim yaxshilab po'stagingni qoqib qo'ya qolay, — kului Sayfi.

— Senga maynavozchilik bo'lsa, — o'ksidi To'lagan, — erta o'tib indinga adam bilan oyim ke-lishadi. Ular eshitishsa, ana o'shanda ko'rasan tomoshani. Buyoqda endi Gulmira butun maktabga nog'ora qilib chalmoqchi. Nima bo'lyapti o'zi?

— Nima bo'lardi, rasvo bo'lyapti, — dedi Sayfi qo'llarini musht qilib, — bekorga bu qiz ketimizdan poylab yurmagan!

— Ketdikmi? — bo'shashib so'radi To'lagan o'limga mahkum qilingan mahbusdek.

— Hozir, men uydgilarga bir narsa deb ketay,

keyingi paytda adam har qadamimni tekshiradigan bo'lib qolganlar.

— Ey, Malohat, — singlisini chaqirdi u.

Hovli supurib yurgan Malohat boshini ko'tardi.

— Nima deysan?

— Men mактабга borib kelaman.

— Maktabda nima qilasan kanikulda?

— Unisi bilan ishing bo'lmasin, — kattalik qildi Sayfi, ammo chiqib ketish oldidan maqtandi, — yaqinda o'qish boshlanadi, borib darsliklarni olish kerak. Bilasan men boqi beg'amlardan emasman, hamma ishni o'z vaqtida qilishga o'rganganman.

Ikkala o'rtoq ko'chaga chiqib ketishdi.

— O'zing aldamasang turolmaydigan bo'lib qolib-san, — pisanda qildi To'lagan.

— Nega endi aldar ekanman, qaytayotganda maktabga ham kirib chiqamiz, — dedi Sayfi. — Kutubxonada yangi darsliklar sotishayotgan emish.

Bu xabarni To'lagan qo'shnisi Zokirdan ham eshitgandi.

— Ha, mayli, kiramiz.

Gulmira bolalarni ochiq chehra bilan kutib oldi. U o'zi doim xushhol yurardi. Uyda qari buvisi va buvasi bor ekan. Chol-u kampirga: «Birga o'qiydigan o'rtoqlarim», deb bolalarni tanishtirdi. Indamas dugonasi ham shu yerda ekan, bolalar bilan muloyim salomlashdi. To'lagan bilan Sayfi uning ovozini birinchi marta eshitishlari edi. Sayfining: «Iye, tiling bor ekan-u men seni soqov deb o'ylardim», deb yuborishiga sal qoldi.

Gulmira bolalarni mehmonxonaga taklif qilib stolga dasturxon bezadi.

— Bizlarga hech narsa kerak emas, — sovuqqonlik bilan gapirdi Sayfi, — nega chaqirganiningni ayt, biz ketishimiz kerak.

— Bir piyoladan choy ichlaring.

— Ichmaymiz! — qoshlarini chimirdi Sayfi.

— Voy-bo', namuncha chimirilasan dimog'dor boshliqlarga o'xshab?!

Hamma, hatto To'lagan ham kulib yubordi.

— Men unaqa emasman. U sen, nuqul kekkayib yuradigan, — Sayfi stol qoshiga o'tirishga majbur bo'ldi.

Bir piyoladan choy ichdilar, Gulmira qushtili pishirgan ekan, tatib ko'rdilar. Shundan keyingina Gulmira asosiy maqsadga o'tdi. Dugonasi yordamida to'rdagi devorga oq choyshab tutdi, derazalarning pardalarini yopdi.

— Endi kino ko'rasizlar, — deb e'lon qildi.

Sayfi bilan To'laganning qilib yurgan hamma ishlari — bozorda birovlarning yukini tashib yurishgani, Qo'yliqda beso'naqay o'spirinning tufligini moylashgani, urushib qolib tiraqaylab qochishgani — hamma-hammasi birma-bir ko'z o'nglaridan o'taverdi.

Sayfi ham, To'lagan ham garchi xona issiq bo'lmasa-da, qora terga botib ketishdi. Ikkovi ham xuddi ignaning ustida o'tirgandek tipirchilashardi. Qani endi tezroq film tugay qolsa-yu, juftakni rostlasalar, ammo aksiga yurib kino achchiq ichakdek cho'zilib ketdi. Yoki bolalarga shunday tuyuldi.

Yo'q, nihoyat, tugadi.

Sayfi bilan To'lagan boshlarini ko'tarib atrofga qarashga ham jur'at etolmay qimirlamasdan o'tiraverishdi.

— Qalay? — quvnoq ovozda so'radi Gulmira.

— Nima, qalay? — o'zini bilmaganga soldi Sayfi.

— Yaxshi chiqibdimi, axir bizlarni ham bu birinchi mustaqil filmimiz. O'rgamchikka olganmiz, — dedi Gulmira.

— Boqsa odam bo'lasanlar, — tan berdi Sayfi.

— Voqeasi puxta-da. Aynilsa, bosh qahramonlar obrazi zo'r, — hazillashdi Gulmira.

Sayfi o'lganining kunitan tishining oqini ko'rsatdi. Unga qo'shilishib To'lagan ham tirjaydi. Lekin ikkalovining ham irshayishi anchayin tentakona chiqdi. Ularning ahvolini ko'rib Gulmira kulib yubordi.

— Ustimizdan kulishga bizni uyingga chaqirding-mi? — alamzada ohangda so'radi Sayfi. — Shungami?

— Yo'q, buning uchun emas, — jiddiy tortdi Gulmira.

— Maktabda ko'rsatmoqchimisan? — dedi To'lagan qo'rqa-pisa.

— Nahotki bizlarni shunaqa sotqin deb o'ylasalarling, — endi Gulmira xafa bo'ldi.

Bolalarga sal «jon» kirdi.

— Nega chaqirding bo'lmasa?

— Aytyapman-ku, filmimiz qanday chiqqanligi haqida sizlarning fikringizni bilmogchi edik.

— Faqat shungami? — o'ziga ishonmay so'radi Sayfi.

— Faqat shunga, — dedi Gulmira.

— Demak, uydagilarimizga ham ko'rsatmay-san? — topqirlik qildi Sayfi.

— Uydagilaringga ko'rsatib nima qilaman, ularning shundoq ham hamma narsadan xabarları bor. — Sayfining so'zini bo'ldi Gulmira. — Ammo maktabdagilarning hali hech narsadan xabarları yo'q. Ularni bilasanlar-u ayniqsa bizning sinfimizdagi bolalar kulishni yaxshi ko'radi, — jo'rttaga bolalarni qo'rqtidi Gulmira.

Sayfi ichidan qaynab chiqayotgan nafrat va g'azabini bir amallab yutdi-da, zaharli kinoya qildi:

— Tabriklaymiz, antiqa film yaratibsizlar! Shubha yo'qki, kelajakda sizlardan nafaqat ajoyib san'atkolar, balki juda mohir va nozik josuslar ham yetishib chiqadi.

Bu gap Gulmiraning izzat-nafsiga tegib ketdi, ammo nima deb javob berishni bilmay qoldi. O'ylab qarasa, darhaqiqat, qilib yurgan ishi sal-pal ayg'oq-chining hunariga o'xshab ketarkan.

— Nima, biz senlarning siringni bitta-yarimtaga aytibmizmi, kinoya qilasan? Tajriba uchun oldik. Avvalgilarini rahbarimiz qo'l ostida suratga olgan edik, buni o'z kuchimiz bilan oldik. Ha, o'z kuchimizni sinab ko'rmoqchi bo'ldik.

— Shu xolosmi?

— Shu xolos! Lekin... — Gulmira ma'nodor jilmaydi.

Sayfi uning nimaga shama qilayotganini tushindi.

— Bo'ldi, bizni nega chaqirganining bildim, — dedi u, — maqsading bizlarning burnimizdan ip o'tkazib sudrab yurish... G'iring desak maktabdagilarga kinoni ko'rsataman, deb cho'chitasan. Yo'q degin-chi?

Gulmira xaxolab kulib yubordi.

— Buni lekin to'g'ri topding. Xuddi chizgan

chizig‘imdan chiqib ko‘rlaring-chi, maktab nima ekan, butun shaharga kulgi qilamiz.

To‘lagan gapga aralashmas, Gulmiraning indamas dugonasiga o‘xshab uyalib o‘tirib, o‘rtadagi gapni tinglardi.

— O‘v, agar... — hammani kuldirish uchun ikkala qo‘lini musht qilib devorni savaladi Sayfi, — agar o‘g‘il bola bo‘lganiningda bormidi, havonchada tuyib talqon qilardim-da, To‘laganga berardim, u chaynmay yutib yuborardi. Ha, sochingni tolosi ham qolmasdi bu dunyoda, kulingni ko‘kka sovurardim!!

Sayfining yarmi hazil, yarmi chin qilig‘idan hamma qotib-qotib kului.

— Alam qilsa, burningni tishla, — dedi Gulmira.

— Lekin chuchvarani xom sanabsan, — bo‘sh kel-madi Sayfi, — seni nog‘orangga o‘ynaydigan lan-dovurlar biz emas.

— Ko‘ramiz, — dedi Gulmira.

— Ko‘ramiz, — o‘jarlik bilan qaytardi Sayfi. — Ketdik, To‘lagan!

Sayfi shaxdam qadam bosib eshik tomon yo‘naldi. To‘lagan uning ketidan ergashar ekan, yer tagidan Gulmiraga ma‘yus qarab qo‘ydi.

— Mayli, xayr bo‘lmasa sizlarga, — dedi.

Qizlar ham xayrlashishdi.

— Ishqilib xafa bo‘lmay ketinglar, To‘lagan, — iliq gapirdi Gulmira.

Bu oddiy gapdan To‘lagan nima uchundir juda quvonib ketdi.

— Nega xafa bo‘lar ekanmiz, kichkina bola emas-miz-ku, — dedi sipolik bilan, — mard odam tanqidni tushunadi.

— Tanqidni ham, hazilni ham. Xo‘b, yaxshi bo-ringlar, — Gulmira ertaklardagi malikalardek, ammo me‘yordan o‘tib ketmaydigan iltifot bilan ta‘zim qilib bolalarni kuzatib qoldi.

TO‘NKA

Xolposhsha xola ertaga To‘laganning adasi bilan onasi dam olishdan qaytishlari haqida telegramma oldi.

Kelinining kelishiga uy-joyni guldek qilib qo'ymoqchi edi kampir. Shuning uchun sahar turdi. To'laganni ham vaqtli uyg'otdi. Keyingi paytlarda nabirasi bilan sal sovuqroq gaplashib yurardi, bugun ginani unutishga qaror qildi.

— Hoy, To'lagan, hovlini bugun bir tozalaylik.

— Hovli shundoq ham chinnidek-ku, — uyqusirab g'ingshidi To'lagan.

Kampir sulh taklif qilgan edi. To'lagan o'zi sezmay ishning pachavasini chiqardi, uning g'ingshigani Xolposhsha xolaga og'ir botdi, darrov to'nini teskari kiydi.

— Ha, endi, shaltoqqa botib o'tirishgan ekan, demasinlar deb tozalab olaylik devdim-da. Mayli, sen o'zingni urintirmay qo'ya qol, — loqayd gapirdi kampir, — o'zim eplarman. Iltimos qilgan edim, hali zamon Gulmira ham kelib qolar qarashvorgani.

— Aytavering, buvi, qanday yumushingiz bo'lsa o'zim qilib beraman. Uyqusirab tushunmay qolibman,— xatosini tuzatishga harakat qildi To'lagan.

— Voy, sen ko'chadan ortib uy ishiga qayisharmiding, — To'laganning buvisini laqillatib hammollik qilib yurganiga shama qildi Xolposhsha xola.

— Haliyam ginangiz tarqalmadimi, buvi? Keling, endi unuting! — sidqidildan zorlandi To'lagan.

Kampir darrov erib ketdi.

— O'zim ham gapirmay deyman-u qilgan ishlaring esimga tushib qolsa alamdan tilimni tiyolmayman.

— Bilasizmi, buvi, men ham qilmishimni o'ylayverib juda ezilib ketdim, yaxshisi bunday qilamiz. Ertaga adamgilar kelishsa, bor gapni ochiq ayting. Mayli, xohlaganlaricha savalashsin, chidayman. Shunda men ham qiyonoqdan qutulaman, sizning ham ko'nglingiz joyiga tushadi.

— Juda odamni yerga urib yubordingiz-ku, to'-ram, — xafa bo'lganini yashirmay gapirdi Xolposhsha xola, — Abdukarimboyning avlodidan chaqimchi chiqmagan, zinhor-bazinhor chiqmaydi ham!

To'lagan quvonib ketib jilmaydi.

— Ammo zo'rsiz-da, buvi! Aytmasligingizni o'zim ham sezuvdim.

Xolposhsha xola taltayib ketdi.

— Qonimiz asilda, to'ram, qonimiz asil! Buvam rahmatli iymoni but, adolatli odam bo'lgan ekanlar. O'sha paytda Xudoyorxon poshsho och-yalang'och xalqni qonini so'rib, har xil soliqlar bilan tinkasini quritib yuborgani uchun qo'zg'alon ko'tarilgan ekan. Shunda buvam boylardan bo'lsalar ham avomga qo'shilib xonga qarshi bosh ko'taribdilar.

Daryo-daryo qon to'kilib isyon bostirilibdi. Xon buvamni asir olib «qo'zg'alonning rahnamolari kim» deb so'roqqa tutibdi. Buvam javob bermabdi. Darg'azab bo'lgan xon buvamning hiqildog'iga qilich tirab «aytmasang kallangdan judo bo'lasan» debdi. Sotqinlikdan o'limni afzal ko'rghan buvam o'shanda ham miq etmagan ekanlar. Shunday odamning nabi-rasi chaqimchilik qilishi mumkin, degan bema'ni fikr qanday qilib miyangizga keldi, to'ram?

— Uzr bizdan o'tibdi, — dedi To'lagan ham mullavachchalardek qo'lini ko'ksiga qo'yib.

Shundan keyin gina-kudurat butunlay unutilib avvalgi iliq munosabat tiklandi.

— Hammayoqni chinnidek qilib qo'yib, onangni bir xursand qilaylik-a! Nima deding?

Xolposhsha xola yeng shimarib tokchalardagi choynak-piyolalarни artishga tushib ketdi.

— Lekin... mana ko'rasiz... ularga bor gapni o'zim aytaman, — dedi To'lagan.

— Mana bu mardning ishi bo'ladi. O'zing aytsang, gunohiñg'dan o'tishadi, — Xolposhsha xola mehr bilan nabirasiga boqdi.

Endi To'lagan ham taltayib ketdi.

— Buvi, sizga bitta narsani aytaymi?

— Ayta qol.

— Sizning san'atni yaxshi ko'rishingizni bilaman. Shuning uchun birinchi sentabrdan o'quvchilar saroyiga borib, dutorchilar to'garagiga yozilmoqchiman...

— Tag'inmi!

— Yo'q, cho'chimang. Bu gal o'zingizni olib borib, dutor chalishni o'rgatuvchi domlamiz bilan tanishtirib qo'yaman. Mana ko'rasiz, yaxshilab o'rganvolib, eski-eski mashqlarni chalib beraman.

— Qo'lingdan kelarmikin, dutorga uquving bormikin?

— E, nima deyapsiz, sayratvoraman, hammasi xohishga bog'liq, astoydil kirishaman. Eshitganlar sel bo'p ketmasa hisob emas.

— Niyatingga yet, bolam.

To'lagan Sayfiga o'xshab hovliqdi.

— Men ham qo'limdan ish kelishini ko'rsatib qo'yay.

— Bo'pti, shovvoz, o'rganish sizdan, quling o'rgilsin dutor olib berish bizdan, — chapanichasiga qo'lini ko'ksiga qo'yib ahd qildi Xolposhsha xola, — bir oylik pensiyamni butunlay sizga bag'ishlayman.

— Xo'p, men nima ish qilay, buvi? — To'laganning kayfiyati juda chog' bo'lib ketdi, hozir u har qanday yumushga tayyor edi.

— Ishning og'iri sening bo'yningga, — dedi Xolposhsha xola.

Hovlining o'rtasida nok o'sardi. Shu bahor birdan kasallanib yarmi quriy boshladi. Qurigan daraxtning xosiyati bo'lmaydi, deb To'laganning adasi odam opkelib nokning tagidan kestirdi, shoxlarini chopib maydalab, obdan qurisin uchun hovli etagiga taxlab qo'yan edi. Endi kuz kelyapti, hademay yog'ingarchilik boshlanishi mumkin. Xolposhsha xola shu o'tinlarni opkirib oshxonaga taxlashni buyurdi nabirasiga.

Butun boshli daraxtdan chiqqan o'tinni tashib qo'yish bitta odamga oson emas, ham zeriktirib, ham charchatib qo'yadi. Shuning uchun To'lagan qo'rqa-pisa buvisidan so'radi:

— Buvi, Sayfini chaqirib kelsam maylimi, ikki-kishilashib birpasda o'tiningizni taxlab qo'yardik.

— Sayfini deysanmi? — Xolposhsha xola birpas ikkilanib turdi, — kelarmikan?

— Keladi, u hech kimdan yordamini ayamaydi, — sevinib ketdi To'lagan, — hashardan kim qochardi?

— Chaqirsang chaqira qol, bilaman, Sayfisiz yasholmaysan.

— Rahmat, buvil!

To'lagan yugurganicha ko'chaga chiqib ketdi. Ko'p o'tmay Sayfini boshlab keldi. Kelishsa, Gulmira

hovlini supurib yuribdi. To'lagan suyunib ketdi, Sayfi hayron bo'ldi.

— Ha, nega angrayib qolding, ko'rishishni ham bilmaysanlar, — beg'araz jilmaydi Gulmira.

Yaxshimisan, — deydi Sayfi o'ziga kelib.

To'lagan muloyim salomlashdi.

— E, keling Sayfi hofiz, eson-omon yuribsizmi? Juda ko'rinxay ketdingiz? — xushchaqchaqlik bilan qarshi oldi Sayfini Xolposhsha xola.

— Yuribman, — dedi Sayfi, — o'zingiz qalaysiz, xolajon?

— Yaxshiman, — dedi kampir, — ajab qilbsan-da kelib. O'rtog'ingga bir yordamlashib yuborasan.

— Ishdan bizni qochirolmaysiz, — katta ketdilar Sayfivoy.

— Anavi o'tinni oshxonaga tashib qo'ysanglar bo'ldi. Men ham bo'sh turmayman, peshinga quling o'rgilsin qilib choyxona palov damlab beraman.

— Voy, xolajon, — gapga aralashdi Gulmira, — o'tinni bog'cha bolalar ham tashib qo'yishi mumkin. Devdek-devdek yigitlarga shu ishni buyurasizmi?!

— Nima qilishsin deysan, bo'lmasa?

— Qirqilgan nokning to'nkasi hovlining o'rtasida ko'zga tushgan tikondek bo'lib turibdi. Shuni kavlab olib tashlashsin.

— To'nka kavlash oson ekan-da, senga? — o'qrayib Gulmiraga qaradi Sayfi.

— Voy, qizim, to'nka kavlash hali bularga og'irlik qiladi.

— E, bizning bolalarni unaqa kamshitmang, xolajon. Pahlavon-ku, bular. Peshinga qolmay kavlab olishadi. Nima dedinglar, shovvozlar? — Gulmira sinfdoshlariga ma'nodor qarab qo'ydi. — Bo'la qolingga:

Gulmiraga yo'q, deb bo'larmidi, qo'lida sharmandali dalil—film bor. Sayfi alamidan tishlarining orasidan chiqarib nimalardir deb pichirladi. To'lagan ham o'lganining kunidan hujradan ketmon, bel, bolta olib chiqdi.

Ish boshlandi. Ikkala o'rtoq goh ketmon, goh bel bilan to'nnaning atrofini o'ya boshladilar. Yer zarang

edi, har ketmon urganda toshga tekkandek taraqlab tovush chiqardi.

Oradan yarim soat o'tar-o'tmas Sayfi ham, To'lagan ham qora terga tushib ketdilar. Shu payt choynak ko'tarib Gulmira keldi.

— Mana, ko'k choy damladim, tomoqlaringiz ham qaqrab ketgandir, ichvolaqolinglar.

Sayfi Gulmirani quvib bermoqchi edi, lekin sharoit ko'tarmasdi, shuning uchun g'azabdan tishlarini g'ijirlatib qo'ya qoldi.

— Bir narsa dedingmi, Sayfi ha... rahmat deyapsanmi? Arzimaydi! — Gulmira choyni qaytarib ikkita piyolaga quydi.

— Rahmat derdim... bizlardan nariroq yursang, — past ovozda to'ng'illadi Sayfi.

— Bizning sinfdagi bolalarning qandayligi esing-dan chiqmadimi, ishqilib? — beparvo ohangda so'radi Gulmira.

— Nimaga shama qilyapsan? — Sayfi yovqarash qildi qizga.

— Hech narsaga, sinfimizdag'i bolalar tekin tomosha bo'lsa judayam kulishni... e, uzr, ish qilishni yaxshi ko'rishlarini eslatib qo'yemoqchiydim, xolos. — Gulmira bilinar-bilinmas jilmayib bolalardan uzoqlashdi.

— E, kino olmay qo'ling sinsin, — deb to'ng'illadi ichida Sayfi. Piyoladagi choyni isig'ligicha ho'pladi, og'zi kuyib bir oyoqlab sakray boshladi. To'lagan o'zini tutolmay kulib yubordi.

Gulmira ham yayrab kuld'i. Keyin ayvonda ko'rpaning jildini yangilayotgan Xolposhsha xolaning yoniga borib paxta qoplashga yordam berdi. Keyin kampir oshning guruchini soldi.

Peshinga yaqin bolalar to'nkaning atrofini hovuzdek qilib kavlashdi. Har qayoqdan tarvaqaylab ketgan ildizlarni bolta bilan chopib to'nkani yakkalab qo'yishdi. Lekin hali eng asosiysi — o'q ildiz qolgan edi.

Xolposhsha xola ularning atrofida girdikapalak bo'lib, dam-badam kelib hol-ahvol so'rар, charchagan bo'lsanglar dam olinglar deb qistar, qorninglar ochdimi, deb so'rayverardi.

— E, xolajon, juda ko'nglingiz bo'sh ekan-ku. Bularning hozir charchoq nimaligini bilmaydigan, ayni kuchga to'lgan payti.

— Shundoq bo'lsa ham ozgina dam olvolishsin. To'nka qazib yuriptimi bular. Oshim ham tayyor bo'lib qoldi, damlab qo'ydim. Ha, bo'ldi qilaqolinglar.

Bolalar haqiqatda ham juda holdan toygan edilar, dam olish haqidagi taklif ularga moydek yoqib tushdi, o'zлari qazib chiqargan tuproqqa biri yonboshladi, biri chalqancha tushib yotdi. Shu payt talablarga binoan bo'lgandek yengil shabada turdi. Shunaqa huzur qildilarki, asti qo'yaverasiz.

— To'lagan, bitta narsa desam xafa bo'lmasan-mi? — shivirlab so'radi Sayfi.

Chalqancha tushib yotgan To'lagan hatto javob berishga ham erindi.

— Dam olsang-chi... — dedi u eshitilar-eshitilmas.

— Xafa bo'lmasang aytaman.

To'lagan pinagini buzmasdan ko'zlarini yunganicha yotaverdi.

— Gapiraveraymi? — Sayfi o'zinikini qo'ymasdi.

— O'zing bilasan.

— Ammo... g'irt jinni ekansan!

— Nima?! — birdan o'ziga kelib tirsagiga yonboshladi To'lagan.

— G'irt jinni ekansan, deyman.

— Nega endi?

— Jinni bo'lmasang kino olishni o'rgansak, bosh rolni Gulmiraga beramiz, dermiding. Bundan zolim, bundan bag'ritosh qiz yo'q-ku sinfimizda!

— Juda unchalik emas, odamgarchiligi ham bor, — e'tiroz bildirdi To'lagan. — Adam bilan oyim ketishibdiki, yo'qliklarini bildirmay har kuni chiqib buvimga qarashib yuradi. Bizni ham sotmadi, bo'lmasa allaqachon yo buvimlarga, yo senikidagi-larga qilib yurgan ishlarimizni yetkazgan bo'lardi. Mana ko'rasan, maktabda ham hech kimga aytmaydi. Faqat bizni cho'chityapti, gapiga kirdirish uchun. O'zing aytganingdek burnimizga ip taqib olmoqchi.

Sayfi tentaklarga qaragandek o'rtog'iga achinib nazar tashladi.

— Hayronman, nimasini yaxshi ko'rasan shu bijildoqni? Boshqasi qurib qolganmi?

— Kim senga yaxshi ko'raman deyapti! — qip-qizarib ketdi To'lagan.

— Qadimgilar muhabbatning ko'zi ko'r bo'ladi, deb bejiz aytishmas ekan. Bo'lmasa shunga ishqing tusharmidi?! Yaxshiyam shu battol qizdan bir ko'cha narida turaman, senga o'xshab devor-darmiyon qo'shni bo'lsam, bilmadim qanday chidardim? — Umrida birinchi marta nolib gapirdi Sayfi...

— Uy ishlarini nuqul o'shandan ko'chirasan-ku,— To'lagan o'rtog'i Gulmirani yomonlashini istamasdi.

— Bu odati yaxshi, qizg'anchiq emas, — sal yumshadi Sayfi, — faqat mana shu kanikulda ko'p jig'imga tegdi-da. Tavba, deb gapiray-u, ovozini eshitsam yuragim zirillaydigan bo'lib qolibdi.

Xuddi Sayfining gapini tasdiqlagandek Gulmiraning ovozi eshitildi.

— Hoy yalqovlar, bu nima yotish?!

Ikkala bola qanday qilib o'rinalaridan irg'ib turib ketganlarini bilmay qolishdi.

— Qani, darrov yuz-ko'llaringni yuvinglar-da, ayvonga chiqinglar! Ovqat tayyor! — buyurdi Gulmira.

— Xo'b bo'ladi, — barobar javob berdi bolalar.

Palovni o'zi aytgandek qoyil qilibdi Xolposhsha xola. Ammo Gulmira ham achiq-chuchukni boplabdi. Hammalari o'tirib ishtaha bilan bir lagan palovni tushirishdi. Oshdan keyin ko'k choyni maydalab o'tirib birpas qiziqchilik qilishdi. Kulgiga kelganda Sayfining oldiga tushadigan odam yo'q, sal narsaga sharaqlab kuladi, kulgisi shunaqa alomat, shunaqa yuqumliki, eshitganlar qo'shilishib kulib yuborishadi.

Ha, gap sotish bo'lsa Sayfi juda eshilib ketadi. Hozir ham ko'rpachaga uzala tushib, biqinida paryos-tiq, Xolposhsha xola bilan biri olib, biri qo'yib hangomalashib o'tirishardi. Gulmira qarasa, gapning tagi ko'rinxmaydigan. Shuning uchun «qani endi tura qolinqilar», degandek yo'talib qo'ydi.

Bolalar turishga majbur bo'lishdi. Yo'q, majbur bo'lganlari yo'q, Sayfi Xolposhsha xolani avrab,

gapga solib o'tiraverishi mumkin edi. Masala boshqa yoqda edi. Bolalar ishga qiziqib ketgan: to'nkani oxirigacha qazib olmasalar ko'ngillari joyiga tushmasdi. To'g'ri-da, qo'llaridan ish kelishini ko'rsatib qo'yishsin! Qolaversa Gulmiraning oldida ham yuzlari yerga qarab qolishini istamas edilar.

Kechga yaqin to'nkani, nihoyat, qazib bo'ldilar. O'rni katta chuqur bo'lib qolgan edi, tuproq tortib tekislاب yubordilar. Suyunib ketgan Xolposhsha xola, «umrlaringdan baraka topinglar» — deb bolalarni rosa duo qildi. Hatto Gulmira ham tan berdi bolalarga, hayratini yashirolmay:

— Qoyilman, ikkaloving to'rtta mardikorning ishini qildilar! — dedi.

Hammadan ham ko'ra Gulmiraning shu gapi To'laganga yoqib tushdi. To'lagen uyoqda tursin, hatto Sayfi ham bu gapdan suyunib ketdi. Ko'kragini qalqon qilib gerdaydi.

— E, bitta-ikkita to'nka nima degan narsa ekan bizlarga! Tag'in ham sen nazarga ilmaysan-da bizlarni. Ammo xato qilasan, qo'limizdan nimalar kelishini bir kunmas-bir kun ko'rsatib qo'yamiz! O'shanda hayratdan yoqangni ushlamasang Sayfi otimni boshqa qo'yaman.

— Nega endi senlarni nazarga ilmas ekanman, — dedi Gulmira, — nazarga ilmasam kinoga olarmidim. Axir, filmimning qahramonlarisiz-ku!

YANA YANGI ORZU

To'lagen vaqtli turib yo'l hozirligini ko'rdi. Kiyimlarini yaxshilab dazmolladi, tirnoqlarini oldi, sochini ho'llab taradi, keyin haq deb soatiga tikilib o'tirdi.

Xolposhsha xola ham sandig'ini ochib kishilikka kiyadigan sarpolarini oldi. Ha, bugun qancha yasansa arziydi — axir o'g'li bilan kelinini kutib olishga chiqadi. Shunday qilib u ham erta burundan tayyor bo'lib oldi. Ammo vaqt esa hali erta — poyezdning kelishiga uch soat bor edi.

Vaqtni qanday qilib o'tkazishni bilmay o'tirgan

edilar, birdan eshikdan Sayfi kirib kelib qoldi. Uni ko'rib Xolposhsha xola ham, To'lagan ham sevinib ketishdi.

Sayfining ko'zlar olazarak, g'ayrati ichiga sig'masdi. U shoshib Xolposhsha xola bilan so'rashdi, o'rtog'inining qo'lting'idan sudrab chetga, hovliga tortdi.

— Bir minut buyoqqa kel, senda gapim bor.

To'lagan itoatkorona qadam bosib o'rtog'i bilan hovlining o'rtasiga tushdi. Sayfi juda katta bir sirni aytadigandek, To'laganning ko'ziga qaradi.

— Eh, ishlar zo'r, — dedi u.

— Nima bo'ldi?

— Endi bo'ladi, — Sayfi qo'llarini bir-biriga ishqalab kerildi.

— Bo'pti, gapir, namuncha cho'zding.

— Gap shuki, endi kinoni yig'ishtiramiz. Ha, kino bilan Gulmira shug'ullanaversin. Men boshqa narsa o'ylab topdim.

— Yana-ya?! — To'lagan rasmana qo'rqib ketib o'zini chetga oldi.

Sayfining ko'zlar chaqnab hovliqdi.

— Eshitsang, og'zing lang ochilib qoladi.

— Kerak emas, mening bo'ladiganim bo'ldi.

— Menga qara, bu gal juda boshqacha narsa o'ylab keldim. Juda antiqal — Sayfi qo'li bilan diriyorlarga o'xshab har xil harakatlar qildi.

Bu harakatlar qanday ma'noni bildirishini tushunolmagan To'lagan angrayib turaverdi.

— Ha, eshitsang ag'darilib tushasan. Aytaymi, qo'shilasanmi?

— Kerak emas, qo'shilmayman, — To'lagan yuragidagi qiziqish alangasini zo'rg'a bosdi, yolborib gapirdi, — shunchalik sharmanda bo'lganimiz yetar, og'ayni, kel, buyog'iga tinch yuraylik.

— Yaxshilab o'ylab ko'r, tag'in keyin nega qo'shilmagan ekanman, deb achinib yurma. Keyingi pushaymon, o'zingga dushman.

— Achinmayman, — halitdan achinib gapirdi To'lagan.

— Shunaqami, mayli, o'zing bilasan, — Sayfi ketishga otlandi. — Lekin haliyam vaqt bor. Yana bir

karra o'ylab ko'r, eshicingga yetgunimcha to'xtati-shing mumkin.

— Nima, darrov ketmoqchimisan?

— Ha, vaqt tig'iz. Aytgandek, mana buni senga Gulmira berib yubordi, — Sayfi qo'lting'iga g'istirib olgan kitobdan uchtasini To'laganga uzatdi, — maktabga borsa, darsliklar berayotgan ekan. Sen bilan menga ham olibdi. Sen aytgandek, odamgarchiligi bor...

— Rahmat, — dedi To'lagan.

— Rahmatni o'ziga aytarsan. Xo'p bo'lmasa...

— Rostdan ketyapsanmi? Birpas o'tir.

— Yo'q, o'tirmayman, sog' bo'l, oshna, — Sayfi odati bo'yicha shoshib yo'lga tushdi, eshikka yetib orqasiga o'girildi, — o've, bolapaqir, imkoniyatdan foydalanib qol, oxirgi marta so'rayman: qo'shilasan-mi, yo'qmi?

To'lagan indolmadi.

— Nima deding?! — xurujni kuchaytirdi Sayfi.

— Odamni ko'p qiynama! Yo'q dedim-kul — xunobi oshib javob qildi To'lagan. — Yo'q!

— Mayli, menga baribir, o'zingga yomon qilyapsan.

Sayfi chiqib ketdi. To'lagan bo'shashib, joyida qimir etmay turaverdi. Hovlining o'rtasida qaqqayib turgan nabirasini Xolposhsha xolaning ovozi o'ziga keltirdi.

— Hoy, To'lagan, senga bir balo bo'lipti, shunchalik ham g'o'daygan bo'lasanmi?! Uyingga kelgan odamni o'tirgin, deyishni ham bilmaysan-a!

— Aytdim, ko'nmasa nima qilay?

Shu payt ko'cha tomondagi devor tepasida Sayfining boshi ko'rindi. U hushtak chalib To'lagan-ni chaqirdi.

— Hoy, keyin achinib yurma tag'in! — deb qaytardi.

— Bo'pti, ayt, nima? — taslim bo'ldi To'lagan.

— Qo'shilsang aytaman.

— Oldin ayt, keyin o'ylab ko'raman.

Sayfi imlab o'rtog'ini yoniga chaqirdi.

To'lagan oyog'ini sudrab bosib devorga yaqinlashdi. Sayfi ot mingandek devorga o'tirib oldi.

— Qo'ymading, qo'ymading-da. Italiyalik mash-hur skripkachi Paganinini bilasan-al Ko'rinishi alvastiga o'xshagan bo'lsa ham skripka chalishda uning oldiga tushadigan odam bo'lмаган. Butun dunyo uning mahorati va ustaligiga tan bergen.

— So'zboshini juda cho'zvording-ku, — kesatdi To'lagan.

— Xo'p, qisqa qilaman. Ertadan o'quvchilar saroyiga borib musiqa to'garagiga yozilamiz-da, g'ijjak chalishni o'rganamiz. Kinnochilar bachkana, betayin odam bo'lishadi. Biz nafis san'atga o'zimizni uramiz. G'ijjakda g'amgin kuylarni shunaqa ezib chaladigan bo'laylikki eshitganlar ho'ng-ho'ng yig'lab yuborishsin, — Sayfining ko'zlari yonib so'radi, — bunga nima deding: Zo'r-all!

— E... Mendan g'ijjakchi chiqmaydi, — hafsalasi pir bo'lib qo'l siltadi To'lagan.

— Iye, sendan chiqsin-dal — ko'pirib, oshiqib gapirdi Sayfi, sakrab yerga tushib og'aynisiga yaqinlashdi, — sen hech qulog'ingni ko'rganmisan?

— Qulog'ingni deysanmi?

— Ha, qulog'ingni hech ko'rganmisan?

To'lagan hayron bo'ldi:

— Qulog'imga nima qilibdi?

— Ey nodon odam! Bu qulog emas — xazina-ku! Ha-da, bunaqa shal pangquloq g'ijjakchi uchun xazina!

— Yana masxara qilyapsanmi odamni?! Kim shal-pangquloq!

— Bunaqa kelishgan, bunaqa bejirim qulog g'ijjakchi uchun xazina-ku, — darrov xatosini to'g'rildi Sayfi.

— Bor-ey... g'ijjakka qulogni nima dahli bor?! — ensasi qotdi To'laganning.

— Judayam bor-da, og'ayni! Yaxshi qulog bitta eshitgan kuyni darrov esida olib qoladi. Kuyni eslab qolish esa musiqachi uchun eng zarur narsa! Mana meni quloglarim ham qulokmi?! Nima eshitsam uyoq-dan kirib, buyoqdan chiqib ketaveradi.

To'lagan juda qiynalib ketgan edi. Tinib-tinchimas Sayfi nuqlar har xil xomxayollarni topib keladi, lekin shunday gapiradiki, laqqa tushmasdan iloji yo'q, ha,

qanday qilib avrab qo'yganini bilmay qoladi odam.
Shuning uchun ehtiyot bo'lish kerak.

— Kel, qo'y, boshni qotirma.

— Seni hech kim zo'rlayotgani yo'q, og'aynigarchilik degandek oldingdan bir o'tib qo'yay dedimda, — parvoyifalak bir kayfiyatda gapirdi Sayfi, — vaqtlar o'tib konsertimga taklif qilib kelganimda bir og'iz aytmabsan, deb ginalab yurmagin deyapman-dal Omon bo'l, og'ayni, omon bo'l! Shu ham bir hunarli bo'lib qolsin devdim. Istamasang yuraver kovushingni sudrab, ko'cha changitib.

Sayfi allaqanday kuyni hushtakda chalib olifta rafstor bilan yana eshik tomon ketdi. Mana, u eshikdan chiqib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uning orqasidan qarab turgan To'laganning ichida bir narsa uzilib tushgandek bo'ldi, o'rtog'ining ketidan ko'chaga otildi. Qarasa, hali Sayfi uncha oislab ketmagan ekan.

— O've, menga qara, — chaqirdi uni To'lagan.

Sayfi to'xtab orqasiga o'girildi.

— Nima deysan?

To'lagan unga yaqinlashdi.

— Taklifingga jon-jon deb qo'shilardim-u... ammo buvimplarga va'da berib qo'yuvdim-da.

— Qanday va'da?

— O'shanda ashulachi bo'laman, deb aldaganimning evaziga dutor chalishni o'rganishga ahd qildim. Dutorni o'rganib, buvimga chalib berib o'tirmoqchiman. Eski ashula, kuylar buvimnig jon-u dillari.

— Agar va'da berib qo'ygan bo'lsang, maylit Unda hammasi joyida! — Sayfi endi o'rtog'idan sirayam xafa emasligini ko'rsatish uchun jilmayib qo'ydi. — Xayr, og'ayni.

— Kelib tur, shunaqa, — dedi To'lagan.

— Ko'raman. Kanikul ham tugab qoldi, endi o'qishga tayyorlanish kerak.

Ular hayrlashib, ikkalovi ikki yoqqa ketdi. To'lagan endi uyining eshigiga yetganini biladi, Sayfi orqasidan baqirib qoldi.

— To'xta! — u yugurib To'laganning oldiga keldi. — E, miyamiz qursin ikkalamizning ham! Sen dutorni, men g'ijjakni chalishni o'rgansak, demak, ikkalamiz musiqa to'garagiga boramiz. Shundaymi?

To'lagan o'rtog'ining so'zini bo'lishga jur'at etmay boshi bilan «ha»ning ishorasini qildi.

— Shundoq bo'lgandan keyin sinfimizdan yana uch-to'rtta bolani o'sha to'garakka a'zo qildiramiz. Nuqlul partani chertib chalib o'tiradigan Chori to'polonchi doira chalishni o'rgansin. Anavi yumshoq supurgi bor-u — Sobir, u sivizg'aga yozilsin. Oti ham mos tushar ekan — Sobir sivizg'al Demak, g'ijjakchi bor, dutorchi bor, childirmachi, sivizg'achi ham bor. Endi bitta changchi kerak. Mayli, seni iltimosingga binoan, chang chalishga Gulmira kira qolsin. Ansamblimizda bitta qiz bola bo'lsa ziyon qilmaydi, qaytanga ansamblni bezaydi.

— Qanday ansambl?

— O'zbek xalq cholq'u ansambli. Aytyapman-ku, o'quvchilar saroyida epaqalik chalishni o'rganib olganimizdan keyin o'zimiz mакtabda ansambl tashkil etamiz. Har xil joylarga borib konsertlar berib yuramiz. Mana ko'rasan, uch-to'rt yil deganda butun respublikada dong'imiz ketadi. Konsertimizga odamlar bilet topolmay qolishadi. Ana obro', ana shon-shuhrat!

— Bolalar rozi bo'lisharmikin to'garakka yozilgani? Ayniqsa, Gulmirani bilasan-ku, o'zining aytganidan qolmaydigan qaysar qiz, bizni nazarga ilarmikin?

— Uyog'ini ansamblning badiiy rahbariga qo'yib ber.

— Badiiy rahbar?

— Ha-da, uyog'ini o'zim qoyil qilaman. Gulmirang tugul avliyoying bo'lsa ham ko'ndiraman! San'atdan yuz o'girgan vahshiylarni hali ko'rmaganman.

Sayfining butun borlig'idan vulqondek otilib turgan g'ayrat To'laganni hayratga soldi. U anqayib o'rtog'ining og'ziga tikilib turardi.

— Lalayma, oshna! O'zingni qo'lga ol, bizni yuzlab saylgoхlar, istirohat bog'lari, dala shiyponlari, hashamatli tomosha zallari kutyapti! — Sayfi baland-parvoz ovozda xitob qildi. — Qani, karnay va surnaylar, nog'ora va childirmalar baralla yangrang, avjga mining! Biz ulug' orzu sari yo'lga chiqyapmiz!

— O‘v, juda avjingiz baland-ku mashshoqlarning piri bir parda pastga tushing, — jilmayib kesatdi To‘lagan.

— Bilasiz-ku bizni, chala-yarim ishga tobimiz yo‘q. Nimagaki qo‘l ursak shavq-u zavq bilan qilamiz, — o‘rtog‘iga qo‘silib jilmaydi Sayfi, — bo‘pti, ko‘rishguncha xayr.

* * *

Quyosh hali chiqmagan, ufq endi oqara boshlagan payt. Butun borliqda osoyishtalik, sokinlik hukmron. Shahar shirin uyquda. Ko‘hna Toshkentning Eski shahridagi kamqatnov, egri-bugri ko‘chalari bo‘ylab Sayfi yugurgancha ketyapti. U g‘ayrati jo‘sib, hapriqib, oshib-toshib olg‘a oshiqadi. Uning chehrasi yorug‘, ko‘zlarida umid va ishonch porlaydi. Mana, u keng va ravon ko‘chaga burildi.

Uzoqda, To‘laganlarning uyi ortida tog‘ bilan tutashib ketgan qip-qizil ufq ko‘rindi. Sayfi qadami ni tezlashtirdi.

Kichkina odam katta umidlari sari yeldek uchib borardi.

BO'SH KELMA, ALIQULOV!

YASHASIN KOMISSIYA!

Ertalab turib balkonga chiqsam, osmon tip-tiniq, bittayam bulut yo'q, g'ir-g'ir shabada, kun iliq. Havoni hidlasang xuddi bahorning isi kelayotgandek. Mayli, tezroq bahor kelsin, qish jonga tegdi. Bu yil o'zi qish qishga ham o'xshamadi. Besh-olti marta ho'l qor yog'di, keyin nuqul yomg'ir, aytarli sovuq ham bo'ljadi. Men bunaqa qishni yomon ko'raman. Pag'a-pag'a qor yog'ib, sovuq bo'lsa, maza qilib chana, konki uchsang, ana u qish! Shilp-shilp yomg'irli qish kimga kerak. Qish shunaqa lanj kelsa odam bahorni ayniqla oshiqib kutar ekan. Bugun yigirma oltinchili fevral bo'lsa, demak, qishning keti uzilay deb qolib-di. Yana uch kundan keyin bahor.

— Hoy, namuncha imirsilaysan, ertalabdan meni jovratmay bo'la qolsang-chi tezroq! — ichkaridan oyimning ovozlari eshitilib xayolimni bo'ldi.

— Hozir, — deb oyimni tinchitishga harakat qildim.

Lekin bari bir uyga kirishga shoshilmadim.

— Kallai saharlab turib balkonda nima qilyapsan?! — yana oyimlarning ovozlari eshitidi.

Men kitoblarda yoziladigandek, «Musaffo havodan to'yib-to'yib shimiryapman», dedim, lekin faqat o'zim eshitadigan qilib aytdim. Gapim o'zimga ta'sir qilib iljayib qo'ydim.

— Tezroq qimirla, bo'lmasa maktabingga kech qolasan. Buyoqda hali ukangni bog'chaga tashlab o'tishing kerak, — oyimning ovozlari borgan sari serzarda va balandroq chiqardi. Ovozlari mayli-yu, ammo maktabni esga solib ta'bimni xira qilganlari chatoq bo'ldi.

Bugun birinchi soat algebra. Uyga berilgan

masalani ishlamaganman. O'qituvchimiz tekshirib qolsa ikki olishim turgan gap.

Men yana bir-ikki marta to'yib-to'yib «musaffo havodan shimirdim-da», uyga kirdim. Oyim ukamni kiyintirib bo'lgan ekanlar. Apil-tapil yuvinib, kiyindim-u papkamni olib yo'lga tushmoqchi edim, oyim yo'limni to'sdilar:

— Nonushta qilmasdan qayoqqa borasan? Nahotki, shuniyam senga aytish kerak. Nahotki, o'tirib nonushta qilish o'zingni miyangga kelmasa!

Oyimning asablari sal chatoqroq, arzimagan narsaga ham xunoblari oshib tutaqib ketadilar. To'g'rilikcha aytsa bo'ladigan narsani ham gohida baqirib gapiradilar. Yana eng qizig'i shundaki, o'zlarini tutolmasliklariga men aybdor emishman. Sen meni shu ko'yga solding, hamma narsani senga o'n marta qaytarish kerak, bitta aytganda qilmaysan, deydilar.

Balki gaplari to'g'ridir, hamma narsani ham bitta aytganlarida qilmasman. Ammo ataydan shunday qilmayman-ku. Mana, misol uchun, ovqatni olaylik. Nima uchundir ertalab hech narsa yegim kelmaydi, har doim shunday. Oyimni esa ishtaham bor-yo'qligi bilan ishlari yo'q, ovqatni tiqishtiraveradilar. O'tim og'riyapti, bo'tim og'riyapti, deb bahona to'qib ko'raman, bo'lmaydi, oyimning qistovi bilan biron burda non chaynab, bir piyola choy ichishga to'g'ri keladi.

Bugun ham noiloj stol tomon sudraldim. Dasturxonagi narsalarni ko'rib qutim o'chib ketdi. Tavba, saharlab shuncha narsani bitta odam qanday yeydi?!

— Yeydiganimni o'rab mакtabga olib keta qolay, oyi, kech qolyapman, — nonushtadan bosh tortishga urinib ko'rdim.

— O'tir! — buyurdilar oyim, — bilaman seni, mакtabga oborgan narsang hamma vaqt qaytib kela-di. O'tirib, ko'zimni oldida yeb ol!

Men o'tirishga majbur bo'ldim. Bir burda non tishlab, uzoq chaynab o'tirdim. Hech yutvorolmayman. Yutib nima qilaman, oyim jag'im qimirlab tur-ganini ko'rsalar bo'ldi-da. Ammo shakar choyni maza

qilib ichdim. Keyin juda to'yib ketgan odamdek qor-nimni silab, o'rnimdan turdim.

— Oyi, men ketdim.

— Ul-bul yedingmi? — ishga otlanayotgan oyim narigi uydan turib so'radilar.

— Ha, qornim shishib ketdi!

— Maktabdan kelganingda kechagi ovqatni isitib yegin. Qozonda turipti, — tayinladilar oyim, — och yurma.

— Qo'rqmang, och qolib ketmayman, — dedim, — bo'lningmi, So?

— Ukang allaqachon tayyor bo'lgan! — oyim Solining o'rniqa javob berdilar.

Oyimga ukamning boqchasi teskari edi, agar olib borib qo'yadigan bo'lalar ishga kechga qolishlari mumkin. Menga esa juda qulay, boqcha shunday mak-tabimning yo'lida, tashlab o'tib ketaveraman. Shuning uchun Solini doim men boqchasiga eltib qo'yaman, kechqurun ham o'zim olib kelaman. Oyim sakkizlarda qaytadilar, o'zlarining aytishlaricha, ayniqsa kechga tomon ishlari ko'payib ketar ekan.

Menga ukamni boqchaga tashlab o'tishning sira og'irligi yo'q, qaytanga bajon-u dil qilaman shu yumushni. Nega deganda ukamni yaxshi ko'raman, erkalab «So» deb chaqiraman. Ko'pchilik o'rtoqlarim ukalari bilan chiqisholmaydilar, janjallashadilar. Men «So» bilan juda inoqman. Chunki o'zi juda alomat-da. Odamga qarab nuqul mo'ltirab turadi. Shunaqa be-zor, shunaqa barraki, gohida o'zimdan-o'zim bechora-ga rahmim kelib ketadi.

— Oyi, bizlar ketdik, — papkamni yelkamga osib ukamga ko'z qisdim, — Yur o'v, So!

Ichkari uydan shoshilib oyim chiqdilar.

— Ukangni qo'lidan ushlab ol. Tag'in o'zing bilan o'zing ovora bo'lib ukang buyoqda qolib ketmasin. Bilaman odatingni, ko'chaga chiqsang, har qayoqqa aynqayganing anqaygan!

Oyimning bu gaplari menga yod bo'lib ketgan, chunki har kuni qaytarardilar.

— Xo'p, anqaymayman, — o'ylab o'tirmay bepar-vogina javob berdim, bu gap ham kuniga qayta-rilaverib yod bo'lib ketgan menga.

Ukamning qo'lidan ushlab yo'lga tushdim. Biz besh-oltita to'rt qavatli uylarning orasidan o'tib bolalar boqchasiga yetib bordik.

Har gal ukamni boqchada qoldirib ketayotganimda nima uchundir yuragim jizillab achishadi. Yo'q, Soli ba'zi erkatoy tantiqlarga o'xshab, ketimdan ergashib, xarxasha qilmaydi qolmayman deb, dod-voy ko'tarmaydi. Faqat to darvozadan chiqib ketmaguncha orqamdan tikilib turadi.

Qani endi iloji bo'lsa Solini boqchaga hech ham olib bormas edim, o'zim bilan uyda o'tiraverardi. Shuning uchun ta'tilga chiqqan paytlarida hali uni, hali buni bahona qilib Solini boqchadan olib qolaman.

Innaykeyin doim ukamni boqchadan vaqtliroq olib ketishga harakat qilaman. Buning sababi bor, o'tgan yili juda xunuk voqeа bo'lgandi.

Kuz edi, bizning maktabimiz terma jamoasi qo'shni maktab futbolchilari bilan tuman birinchiliga o'ynaydigan bo'lib qoldi. Match belgilangani bo'yicha soat o'n sakkizda emas, raqib jamoasi vaqtida yetib kelmagani uchun, yarim soat kechikib boshlandi.

Maktabimizning sport maydoni ishqibozzlarga to'lib ketdi. Ammo zo'r o'yin bo'ldi. Shu desangiz o'yinga qiziqib ketib qorong'i tushganini ham sezmabman, ukamni boqchadan olish ham mutlaqo yodimdan ko'tarilib ketibdi.

Bir mahal, o'yin tugagandan keyin, Solini olishim kerakligi esimga tushib qolib ura boqchaga qarab yugurib qoldimul Umrimda hech qachon bunaqa tez yugurmagandirman o'zim ham.

Halloslagancha yetib borsam hamma bolalar allaqachon ketib bo'lismagan uchun boqchaning hovlisi huvillab yetibdi. Faqat o'rtasidagi shiyponchada yolg'iz Soli o'tiribdi. Murabbiysining ham ishi chiqib qolganmi, Solini qorovulga qoldirib ketibdi. Qorovul hovlida ivirsib yurar, ukam bo'lsa, boyta aytganimdek shiyponchada yolg'iz o'zi bujmayvolib o'tiribdi.

Solini ko'rib rahmim kelganidan yig'lab yuboray dedim. Boyaqishning ko'zлari qo'rquv va xavotirdan katta-katta bo'lib ketgan, qimir etgani jur'at etmay xuddi sovuqda qolgan odamdek g'ujanak bo'lib

o'tiribdi. Oldiniga u meni ko'rmadi, lekin ko'rishi bilan ho'ngrab yig'lab yubordi.

Men uni mehribonlik bilan yelkasidan quchib ko'chaga boshlab chiqdim, yupatishga harakat qilib kulib gapirdim.

— Nega yig'laysan, jinnivoy. Bir marta shunaqa bo'lib qoldi, futbolga berilib ketib boqcha esimdan chiqibdi.

— Qo'rqedim, — dedi Soli yig'idan entikib.

— Nimadan qo'rqasan, hovlida barzangidek qorovul yuribdi-ku! Soli yo'q degandek bosh chayqadi.

— Hech kim meni olib ketmaydi bitta o'zim qolib ketaman deb qo'rqedim.

— Nega endi bitta o'zing qolib ketar ekansan, jinnivoy. Menga ishonmaysanmi doim olib ketaman-ku.

Soli darrov javob bermadi, ancha joygacha jim bordi. Keyin kutilmaganda xuddi kattalardek jiddiy ovozda dedi:

— Adamlarga o'xshab oyim ham, sen ham tashlab ketasizlar deb qo'rqedim.

Mening etim jimirlashib ketdi. Lekin sir boy bermadim, tetik va xushhol ko'rinishga urinib iljaydim.

— Ko'ngling to'q bo'lsin, jinnivoy, oyim ham, men ham seni hech qachon tashlab ketmaymiz. Hech qachon, — keyin qo'shib qo'ydim. — Agar uyog'ini surishtirsang, adam ham tashlab ketmaganlar!

Soli indamadi, chunki sezardim, u ham adamni bizni tashlab ketganlariga unchalik ishonmasdi. Menku hech ham ishonmayman bunga, nimaga deganda adamlar yaxshilar. Faqat oyim nuqlu: «Adang bizlarni tashlab ketdi», deb qulog'imizga quyganlari quygan. Aslida unday emas, oyim jahllari chiqqanda alamdan shunday deydilar.

Lekin o'shanda Soliga bu gaplarni aytib o'tirmadim. Har xil hazil-mazaxlar bilan ko'nglini ko'tardim.

Shu-shu Solini boqchadan doim vaqtida oladigan bo'ldim. Gohida hammadan oldin kelib kechki ovqatini yeb bo'lishini kutib turaman va birinchi bo'lib uyga olib ketaman.

Solini boqchasiga kirgazib yubordim-da, o'zim yo'lga tushdim. Darvozaga yetganda orqaga qaradim, xuddi bilganimdek, Soli derazadan menga tikilib tur-gan ekan, men qo'l silkib u bilan xayrashdim.

Boqchadan mакtabga to'g'ri yo'l bor, ikkita to'qqiz qavatli uyning o'rtasidan kesib chiqadi. Ammo qisqa yo'lдан yurmey, katta ko'chadan ket-dim. Kech qolsam qolarmen, zo'r qilsa o'qituvchimiz darsga qo'ymas. Qo'ymasa yana yaxshi, «2» dan qutulib qolaman.

Kun, boy aytganimdek, iliq. G'ir-g'ir shabada. Shunaqa paytlarda dalaga chiqib ketsang. Birorta ekinzorga borib chaylada yonboshlab yotsang! Ana uning gashtiga nima yetsin?!

Shoshmasdan, oyog'imni sudrab bosib ketayotsam muyulishda ko'chaning buzilgan joyiga asfalt yotqizishayotgan ekan. To'xtab tomosha qildim. Asfalt yotqizayotgan ishchilarga havasim keldi. Shularga maza, mакtabga borib boshlarini qotirishmaydi, har-xil sonlarning mahrajlarini, kublarini qidirishmaydi. Agar, haydovchisi xo'p desa, mashinasiga minib kechgacha asfalt yotqizardim.

— O'v, merov yurmaysanmi, mакtabdan kechga qolasan-ku — degan ovoz xayolimni bo'lib yubordi. Qarasam Shoqayum.

Juda mahmadona, qizlardan battar sergap bola. Tili burro, serg'ayrat. O'zini dono qilib ko'rsatishga harakat qiladi, uncha-munchani mensimaydi. Bu ko'pchilik a'lochilarga tekkan kasal. Shoqayum ayniqsa mening jig'imga tegishni yaxshi ko'radi. Nega desangiz, birinichidan, o'qishimning mazasi yo'q, yo kallam yaxshi ishlamaydi, yo yalqovman. Ikkinchidan, men o'chakishishni yomon ko'raman. Shoqayum qanchalik haddidan oshmasin ko'taraveraman.

— Nega og'zingni oolib anqayib turibsan, bola-paqir? — dedi u.

Boya aytdim-ku, nuqlu kattalarga o'xshab gapiradi, juda mahmadona. Ammo yurish-turishi, kiyinishi saranjom-sarishta, biror yeriga gard yuqtirmaydi. O'z ishiga pishiq-puxta bola. Faqat pakana, jimit-dakkina.

— O'v, anqov, senga gapiryapman, lab-lunjingni

yig‘ishtirib ol, pashsha kirib ketadi. Shoqayum shunaqa, indamasa juda haddidan oshib ketadi. Men undan qutulish uchun:

— Yo‘lingdan qolma, — dedim iljayib, — tag‘in meni deb darsdan kech qolib o‘tirma!

— Sendan ham ma’nil gap chiqar ekan-u, bo‘ta-loq. Senga qo‘shilsam kech qolishim aniq. — Shoqayum jadallaganicha jo‘nab qoldi.

Men sal yengil tortdim. Dangasaroq bo‘lganim uchunmi mактабда meni bir Bo‘taloq, bir Tayloq deb chaqirishardi. Ayniqsa Shoqayum biror marta ismimni aytib chaqirmagan, doim laqab to‘qiydi. Lekin men na Shoqayumdan, na boshqa bolalardan sira xafa bo‘lmayman. Chunki Tayloq yoki Bo‘taloq degan laqablar o‘zimga yoqardi. Nima, Tayloq yoki Bo‘taloq bo‘lsam yomonmi? Ikkovi ham men sevadigan jonivorlar. Ayniqsa tuyaga havasim keladi. Eshitishimga qaraganda tuyalar qirq kechayu qirq kunduz suv ichmasdan taqir sahroda yo‘l yura olar ekan. Yemishi cho‘l yantog‘i. Shunaqa chidamli bo‘lsam yomonmi? Innaykeyin tuyalar juda mo‘min-qobil, og‘irkarvon bo‘ladilar. Jirttakilik, jahl nimaligini bilmaydilar. Hovliqmaydilar, shoshmaydilar, jonsarak bo‘lib harsillab yugurmaydilar. Doim bir me‘yorda tutadilar o‘zlarini. Rasmana yuvosh va sahiy ular. Hatto bo‘rsildoq lablari, kelishmagan gav-dalari, ikkala o‘rkachlari ham yoqadi menga. Balki o‘zimning ko‘rinishim ham sal tuyanikiga o‘xshab ketar, men ham beso‘naqayroqman, sinfda eng naynovi o‘zimman.

Xullas, Bo‘taloq deb chaqirishsa xafa bo‘lishning o‘rniga quvonaman.

Shoqayum ketganidan keyin men ham yo‘lga otlandim. Ha, endi bormasam bo‘lmasdi. Shoqayum meni ko‘rdi, odatini bilaman—chaqimchi. Kech qolsam, o‘qituvchimizga ko‘chada meni ko‘rganini, atay kech qoldi deb chaqadi.

Shoshmasdan yo‘lga tushdim. Odatim shunaqa, tez yurishni yomon ko‘raman, tuyalar singari hech hovliqmayman.

Maktabga kirib borishim bilan qo‘ng‘iroq chalindi.

Sinfimiz eshigining tagida turgan Ra'no meni ko'rib shovqin ko'tardi.

— Ey, namuncha imirsilaysan, Bo'taloql Tezroq yursang-chi.

— Kelyapman-ku, nima endi, sinfga yugurib kirishim kerakmi? — dedim erinib.

— Bor, joyingga o'tir tezroq!

— Senga nima? — so'radi iljayib.

— Birinchidan, bugun men navbatchiman. Ikkinchidan, darsga komissiya kirarmish.

— Nima, komissiya deysanmi? Rostdanmi? — komissiyaning daragini eshitib suyunib ketdim.

— Namuncha suyunmasang? — hayron bo'ldi Ra'no.

To'g'ri-da, hayron bo'ladi-da, sho'rlik. Suyunib ketganimning sababini u qayoqdan bilsin. Yelkamdan tog' ag'darilib tushgandek yengil tortib, joyimga borib o'tirdim.

— Hm, nega irshayasan? — so'radi yonimda o'tiradigan Nodira.

— O'zim, — dedim battar irshayib.

Nodiraning ensasi qotdi:

— Qachon qarasa, kuydirgan kallaga o'xshab irshaygani-irshaygan!

Mayli, nima desa deyaversin! Ammo komissiya kiradigan bo'lgani juda soz bo'libdi. O'qituvchimizning odatini bilaman, darsga komissiya kirib o'tirsa, a'luchi, yaxshichilarni doskaga chaqiradi, menga o'xshagan «ikki» chilardan o'la qolsa ham so'ramaydi. O'rtachidan so'rasa so'raydiki, lekin mendaqalardan so'ramaydi. Demak, bugun «ikki»dan qutulib qolaman! Yashasin komissiya!

BARI BIR «IKKI»

Komissiya kirganida o'qituvchilarimiz sal boshqacharoq bo'lib qolishadi. O'quvchilarga baqirishmaydi, siltab tashlashmaydi, xullas, juda madaniyatli bo'lib ketishadi. Eng asosiysi, o'chakishib «ikki» qo'yishmaydi.

Bugun ham shunday bo'ldi. O'qituvchimiz bolalar bilan muloyim gaplashdi, ikkita yaxshichi va bitta

a'lochini doskaga chiqardi. Lekin hech qaysisiga «besh» qo'ymedi, o'zini juda talabchan ko'rsatish uchunmi ikkitasiga «to'rt», bittasiga «uch» baho qo'ydi.

Bolalar ham komissiya borida ortiqcha to'polon qilmay odob saqlashadi.

Men darsda bexavotir, bermalol o'tirdim. O'qituvchim menden so'ramasligini bilardim. Xuddi o'ylaganimdek bo'ldi, uy vazifasini bajarmay kelganimni sezgan bo'lsa ham meni chaqirmadi. Natijada naqd «ikki»dan qutulib qoldim. Qani endi komissiya kunora kelib tursa, menga o'xshaganlarning joni kirardi.

Bexavotir o'tirsang dars ham tez o'tib ketar ekan, hademay qo'ng'iroq chalindi. Komissiya a'zolari va o'qituvchimiz sopolik bilan sinfimizni tark etishdi. Shu zahoti Ra'no hammamizni sinfdan quvib chiqardi. Qizlarning orasida eng shaddodi o'zi shu Ra'no. Lekin ming urishgani bilan hech kim undan xafa bo'lmaydi. Chunki dilidagini ochiq aytaveradi, ikkiyuzlamachilikni bilmaydi.

Kerilishni Nodiraga chiqargan. Ammo to'g'ri, o'zi juda chiroyli, kerilsa arziydigan husni bor. Bo'yi balandlikda sinfimizda menden keyin ikkinchi o'rinda turadi. Shuning uchun men bilan eng oxirgi partada o'tiradi. Nima uchundir sinfimizdagi qizlar bolalar dan naynovroq, durkunroq.

Ra'no ham, Nodira ham a'lochi. Ra'no meni koyishni, urishishni yaxshi ko'rsa, Nodira mayna qilishning payida. Mayli, deyman. Koyishsa ham, mayna qilishsa ham indamayman. Pisand ham qilmayman, jahlim ham chiqmaydi. Gaplari bu qulog'imdan kirib, u qulog'imdan chiqib ketaveradi.

Kitob-daftarlarimni yig'ishtirib, papkamga solgunimcha boshqa bolalar allaqachon sinfdan chiqib ketishibdi.

Ra'no tepamga bostirib keldi-yu, yoqamdan tortib o'rnimdan turg'azdi.

— Namuncha lalayasan, Bo'taloq. Tur tezroq, men sinfni tozalashim kerak.

— Tozalayver, men qo'lingdan ushlayapmanmi?

Ra'no orqamdan itarib sinfdan chiqarib yubordi. Koridorga chiqib endi ikki qadam qo'yganimni bila-

man, birov bo'ynimga osilib, bo'g'ma ilondek tomog'imni qisa boshladi. Darrov bildim, bu Shoqayum. Qizlar kelayotgan yoki qarab turishgan bo'lsa, shunaqa maqtanchoqlik qilib, zo'ravon ekani-ni ko'rsatmoqchi bo'ladi. U rosa kuchanib bo'ynimni qayirardi. Mayli, maqtangisi kelayotgan bo'lsa maqtanib olsin, deb chidash berib turaverdim. Nima qilaman u bilan olishib, koshki kuchi bo'lsa ekan, puf desam, umbaloq oshib tushadi. Indamaganimga bo'ynimdan bir-ikki siltab yerga ag'darmoqchi bo'ldi. Voy, chiranchig'-ey. Men yana chidash berib turaverdim. Oxiri charchadimi, bo'ynimni qo'yib yubordi. Men qaddimni rostlab deraza raxiga suyandim.

Shoqayum kuch ko'rsatib maqtanolmagani uchun-mi endi og'ziga zo'r berdi.

— Hoy, bolapaqir, sillang qurib, derazaga osilib qolding?! Tag'in boshing aylanib yiqilib tushma!

— Ha, bo'ynimni yomon qisding! — dedim jo'rttaga.

— Aytmaysanmi og'riyapti deb, qo'yib yuborrdim. — Hamma eshitsin uchun ataydan baland ovozda gapirdi Shoqayum. — Yomon soddasan-da, Bo'taloq, ammamning buzog'isan!

Kulib yubordim. Kulmay deyman, lekin o'zimni to'xtatolmayman. Judayam qiziq gaplar topadi-da Shoqayum! Ammamning buzog'i emish! Shoqayumning hazillarini ko'tarishimning yana bir sababi bor — ko'pincha uy vazifalarini o'shandan ko'chirib olaman.

Qarasam Shoqayum tag'in bo'ynimga yopishib xiralik qiladigan, shuning uchun go'yo qornim og'riyotgandek changallagancha sekin hovliga qochib qoldim.

Hovliga chiqsam to's-to'polon. Birovlar quvlash-machoq o'ynashyapti, birovlar gurpanglashyapti, qizlar ham qiy-chuvlashib har xil o'yinlar bilan ovora. G'ala-g'ovurga tobim yo'qroq. Makkabning orqa hovlisiga qarab yurdim. O'sha yer yaxshi, doim tinch bo'ladi. Borsam rostdan ham shovqin-suron yo'q, ikkita bola lanka tepyapti, uchtami-to'rtta o'ninchi sinflar bekitib sigaret chekishyapti. Men

chetroqqa chiqdim-da, anqayganimcha ularning sigaret chekishlarini tomosha qildim. Anavi jingalak sochligini taniyman, bir marta qo'limga pul berib sigaretga yuborganda olib kelib bergandim. U menga qarab ko'zini qisib qo'ydi. Men unga javoban jilmaydim.

Tanaffus juda tez o'tib ketadi-da. Ko'z ochib-yummasdan qo'ng'iroq chalindi. Lanka o'ynayotgan bolalar qo'ng'iroqni eshitishlari bilan sinflariga yugurib ketdilar. Lekin o'ninch sinflar shoshilishmasdi. Sigaret qoldiqlarini yerga tashlab, oyoqlari bilan ezg'ilashdi. Faqat shundan keyingina yalqovlanib yo'lga tushishdi. Qarasam, bitta o'zim qolibman, men ham oyog'imni sudrab bosib maktab binosi tomon ketdim. Hayronman, darsdan chiqib uyga ketayotganimda oyoqlarim o'zidan-o'zi yugurib ketaveradi, darsga borayotganda esa har bittasiga bir puddan tosh bog'lab qo'ygandek og'irlashib qoladi.

Hozir ona tili, sinf rahbarimiz Nasiba opaning darsi edi. Borsam allaqachon dars boshlangan ekan. Dangal eshikni ochib kiraverdim. Bilaman, baribir Nasiba opa meni qo'yadi, chunki men «qiyin» o'quvchilardanman. Nasiba opa meni tarbiyalashga, qoloqlikdan tortib chiqarishga astoydil kirishgan. Buni hamma biladi.

— Nega darsga kech qolasan, Alikulov? — so'radi Nasiba opa. Indamay turaverdim.

— Sendan so'rayapman, Alikulov? — qaytardi Nasiba opa.

Uning bitta odatini yaxshi ko'raman, hech qachon odam bilan jerkib gaplashmaydi. Ming bez bo'lib turaversang ham, qo'rslik qilsang ham jahl qilmaydi. Kuyinib gapiradi, lekin jerkimaydi.

— Gapisasanmi?

Men yana indamadim. Nima deyman? Sigareta chekkanlarni tomosha qildim, deymanmi? Albatta biron yolg'on to'qishim mumkin edi. Ammo Nasiba opamga yolg'on ishlatgim kelmasdi.

— Bo'pti, o'tir! — dedilar Nasiba opa.

Men joyimga borib o'tirdim.

Nasiba opa tezgina yo'qlama qildilar.

— Xo'sh, yangi mavzuni boshlashdan oldin o'tgan

darsni qaytaramiz, — deb sinfga ko'z yugurtirdilar Nasiba opa.

Papkamdan narsa qidirayotgan bo'lib ko'zimni yashirdim. Xavfning vaqtliroq oldini olgan yaxshi-dal

— Oldingi darsda qaysi mavzuni o'tgan edik?

— Gapning uyushiq bo'laklari!! — qichqirdi butun sinf.

Men ham qatordan qolib ketmaslik uchun xuddi javob berayotgandek og'zimni ochib yumdim. Ovozim chiqqan-chiqmaganini kim bilib o'tiribdi?!

— Gapning uyushiq bo'laklari deb nimaga aytamiz, kim javob beradi?!

Men ikki bukilvolib hamon papkamni titkilardim. Umrimda javob berishga qo'l ko'tarmaganman! Agar, misol uchun, doskani artishga latta ho'llab kelish bo'lsa birinchi ko'taraman. Qaramayotgan bo'lsam ham sezib turibman, besh-oltita bola qo'l ko'tardi. Bilaman, ularning ichida albatta Shoqayum ham bor. U nuqul qo'lini ko'taradi, shunday baland ko'taradi-ki, hatto o'zi ham turib ketay deydi.

— Xo'sh, yana kim? — Nasiba opa oxirgi partalarga yaqinlasha boshladilar.

Yana bir-ikkita bola qo'l ko'tardi. Nasiba opa bizning partaga yaqinlashib:

— Ha, boshqalar bilmaydimi? — deb so'radilar.

— Nega endi bilmas ekanmiz? — labini burib gapirdi Nodira go'yo «shu ham savol bo'ldi-yu», degandek ohangda, keyin qo'lini ko'tarib beparvolik bilan qo'shib qo'ydi. — So'rayvering.

— Yaxshi, yana kim? — Nasiba opa tepamga kelib to'xtadilar.

Shunaqa, mendan so'ramasalar haqlari ketadi. Har darsda so'raydilar. Men o'tirgan joyimda sekinsakin cho'kaverdim. Nazarimda borgan sari yerga kirib ketayotgan edim.

— Aliqulov! — menga murojaat qildilar Nasiba opa.

Men arang o'rnimdan turdim.

— Balki sen aytib berarsan gapning uyushiq bo'laklari nima ekanligini?

Go'rni aytamanmi. Lekin bilmayman, deb ochiq tan olishga yuragim betlamadi. Peshonamni

tirishtirib xuddi o'ylayotgan odamdek shiftga tikildim. Eh, shunaqa daqiqalarning qanchalik azob ekanini bilsangiz edi. Tepangda o'qituvchi turibdi, butun sinfning ko'zi senda, yuzing lovillab yonadi.

Allaqancha vaqt o'tib ketgandan keyin:

— Xo'sh, turaveramizmi shunday qilib? — deb so'radilar Nasiba opa, — gungga o'xshab, soqov bo'lib?

Nima deyishimni bilmay burnimni tortib qo'ydim.

— Bilasanmi, yo'qmi, Alikulov? — Nasiba opa hamon xotirjam edi.

Nasiba opaga ham hayronman, odamni qiy nab nima qiladilar. Ko'rib turibdilar-ku bilmasligimni. Bilsam javob bermasmidim, o'zimni zo'rlab «yo'q» degandek bosh chayqashga majbur bo'ldim.

— Uf, Alikulov, Alikulov! — Nasiba opa chuqur xo'rsindilar. Shunday chuqur xo'rsindilarki, go'yo azob chekayotgan men emas-u u kishi!

Nasiba opa xomush tortib, bir-bir qadam bosgan laricha mendan uzoqlasha boshladilar. Shu bilan qutuldim deb o'ylab, asta joyimga cho'kdram.

— Hech kim senga o'tirishga ruxsat bergani yo'q hali! — dedilar Nasiba opa menga o'girilib boqmas dan.

Men yana o'rnimdan turdim. Gunohkordek boshimni egib hukm kutdim. Nasiba opa stollari yoni ga qaytdilar.

— Kim Alikulovga gapning uyushiq bo'laklari nimaligini tushuntirib beradi?

— Men, men! — degan ovozlar eshitildi qulog'imga.

— Qani, Shoqayum, sen tur-chi?

Shoqayum dik etib o'rnidan turdi. Endi og'zini ochgan edi, Nasiba opa to'xtatdilar.

— Alikulov, qunt bilan tinglab tur, keyin qay tarasan.

Men ko'zlarimni chaqchaytirib Shoqayumga tikildim.

— Bir xil so'roqqa javob bo'lib, gapning bir bo'laklari bog'lanib kelgan bo'laklar gapning uyushiq bo'laklari deb ataladi. Gapning uyushiq bo'laklari to'ldiruvchi, aniqlovchi yoki hol bilan birga kelib,

yoyiq bo'la oladi, — bidirlab javob berdi Shoqayum,— misol: paxtachilikda xalqimiz o'z uquvini, tajribasini, ustaligini butun dunyoga ko'rsatgan. Bu jumladan «uquvini», «tajribasini», «ustaligini» so'zlari gapning uyushiq bo'laklaridir.

— To'g'ri. Qani, Alikulov endi sen ayt-chi, gapning uyushiq bo'laklari deb nimaga aytarkanmiz? — dedilar Nasiba opa.

Shoqayumga qaradim.

— Ey, boshqatdan qaytar, faqat bidirlamasdan sal sekinroq gapir!

Butun sinf gur etib kulib yubordi.

— Nimaga kulasanlar? — hayron bo'ldim men. — Nima, bu tez aytishga berilgan mashqmi, «bo'lib bo'lak, bo'lib bo'lak» deb bidirlaydi?!

Nasiba opa qalam bilan stolni taqillatib, bolalarni tartibga chaqirdilar.

— Mayli, Shoqosimov, shoshmasdan yana bir marta qaytar, — dedilar.

Ammo Shoqayum shoshmasdan gapira olarmidi, yana bulbuligo'yoga o'xshab sayrab ketdi.

— Bir xil so'roqqa javob bo'lib, gapning bir bo'lagiga bog'lanib kelgan bo'laklar gapning uyushiq bo'laklari deb ataladi!

Jumlani qarang. Shunaqayam mujmal, betamiz bo'ladimi? Balki kattalar bu jumлага tushunishar, lekin men uchun bu jumla topishmoqning o'zginasi. To'g'ri-da! Nima emish? Bir xil so'roqqa javob bo'lib, bitta bo'lakka bog'lanib kelgan qanaqadir bo'lak uyushiq gap bo'larmish. Bo'lak, bo'lak — hammayoq bo'lak! Bitta jumlada bir necha marta bo'lak degan so'z ishlataladi. Tag'in bu ona tili darsligi emish! Keyin-chi, keyin. Gapning uyushiq bo'laklari to'ldiruvchi yoki hol bilan birga kelib, yoyiq bo'la olarmish. Yoyig'i nimasi?! Qaysi «olim» yozgan ekan bu qoidani. Yozganiga o'zi tushunarmikin?

— Xo'p, seni kutyapmiz, Alikulov! — xitob qildilar Nasiba opa.

Men indamasdan turaverdim. Qoidaning ma'nosi ni tushunmasam ham to'tiqushga o'xshab qaytarishim mumkin edi, lekin shunaqa narsalarni yomon ko'raman! Shuning uchun indamasdan turaverdim.

— Bo'pti, o'tir, — dedilar Nasiba opa.

Boshqa o'qituvchilar albatta izza qilgan bo'lishardi, bo'yingni qara, mendan oshib ketibsan, lekin miyang ishlamaydi deb. Lekin Nasiba opa sira ham bo'yimni kalaka qilmaydilar. Faqat achinib ko'zimga tikilib qo'yadilar.

Joyimga o'tirdim. Nasiba opa yo'qlamaga baho qo'yib, e'lon qildilar.

— Shoqosimov — besh! Alikulov — ikki!

Men xafa bo'lmadim, chunki bu qonuniy, halol «2» edi. Qiziq, agar boshqa fanlardan shunaqa «halol» «2» olsam, sal-pal alam qiladi, lekin Nasiba opa «2» qo'ysalar sira xafa bo'lmayman. Chunki ba'zi o'qituvchilarga o'xshab jahl ustida yoki qasplashib ikki qo'yaydilar. Hozirgiga o'xshab hech balo bilmasam qo'yadilar.

— Alikulov, nima qilamiz endi? Axir bunaqada uchinchi choraging ham «2» bo'ladi. Unda sinfda qolishing ham hech gap emas. To'g'rirog'i, qolishing aniq, — Nasiba opa kuyunib so'zladilar. — Gapisang-chi, nima qilamiz endi, Alikulov?

Koshki men nima qilish kerakligini bilsam. Bez bo'lib o'tiraverdim.

Nasiba opa yana chuqur xo'rsindilar.

— Bo'pti, ertaga maktabga oying kelsinlar.

— Oyim kunduzi ishda bo'ladilar, — deb to'ng'illadim.

— Unda ishdan chiqib kelsinlar, olti yarimda, men ham kelaman. Albatta kelsinlar, kutaman.

— Xo'p, — dedim.

Yomon ko'rganim maktabga ota-onalarni sudrab yurish. Ammo bu gal ham Nasiba opadan xafa bo'lmadim. Nimaga desangiz a'lochilarga ham, yomonchilarga ham birdek qaraydilar, sevikli yoki yomon ko'rgan o'quvchilari yo'q. Balki shuning uchundir, balki boshqa sababi bordir, o'zim ham aniq bilmayman. Ishqilib Nasiba opadan sira xafa bo'lmayman.

URA, TEMIR-TERSAK YIG'AMIZ!

Ashula darsini yomon ko'radigan o'quvchi bo'lmasa kerak. Rost-da, •2• olaman deb xavotirda o'tirmaysan. Sendan talab qilinadigan bordan-bir narsa ovozingni baralla qo'yib ashula aytish. Innaykeyin, bizda ashula darsi sal maynavozchilik bilan o'tadi, hech kim jiddiy qaramaydi ashulaga. Buning ustiga o'qituvchimiz Nosir akaning o'zi ham bir oz qiziqchiroq. U kishi avval yetakchi murabbiy edi. Keyin pastki sinflarga rasmdan dars berib yurdi. Endi bizda ashula o'qituvchisi.

Nosir aka hammamizning ham ismimizning orqasiga «hofiz» degan so'zni qo'shib chaqiradi. Misol uchun Ali yoki Vali demaydi-da: «Bir parda pastroq tushing, Valihofiz» yoki «Sal joningizni achiting, Alihofiz, ovozingiz chiqmayapti», deydi.

Butun sinf «gurr» etib kulamiz. Shunaqa hazilkashroq o'qituvchilarni yaxshi ko'raman. Goh-gohda hazil qilib turganga nima yetsin, bo'lmasa odam juda diqqinafas bo'lib ketadir! Osonmi qirq besh minut faqat aqlii gaplar yoki nasihat eshitish!

Boshqalarni bilmadim-u, ammo ashula darsida men juda yayrayman. Xuddi o'zimni semirib ketayotgandek his qilaman. Bitta kitobda «San'at kishiga ma'naviy ozuqa bag'ishlaydi» degan gaplarni o'qigan edim. To'g'ri yozishgan ekan. Shuning uchun ashula darsida o'zimni ayamayman.

*Biz baxtiyor yoshlarmiz, o'qiymiz a'lo.
Armonimiz sira yo'q, dillarda surur.
Shu baxtli yoshlilik uchun rahnamolarga
Chin yurakdan aytamiz ming·ming tashakkur!*

Shu payt Nodira biqinimga yomon turtib qoldi-ku!
— Ha, nega turtasan?! — so'radim ashula aytish-dan to'xtab.

— Sal sekinroq shang'illa, qulqoni kar qilasan yo a'lochilikdan tushib qolishdan qo'rqyapsanmi?

Yo'q, Nodira bu gal kesatayotgani yo'q. Men chindan ham a'lochiman. Ashuladan baholarim yalang •5•.

— Ashula aytganga yarasha baralla aytish kerakda, o'tiradimi senga o'xshab ming'illab, — dedim Nodiraga.

Pastki sinflarda Nodira hamma bilan barobar aytardi. Hozir nomiga og'zini qimirlatib, suzilib o'tiradi. Kim qo'yibdi u kishiga shu paytdan taman-nolik qilishni.

— Ovozing sal shiraliroq bo'lsa ham mayli edi, xuddi mototsiklning tarillashiga o'xshaydi, — dedi Nodira.

— Hali senga mototsikl bo'lib qoldimmi? — dedim. — Endi mendan ko'rasan!

Ehtimol ko'rinishimdan lapashangga o'xsharman, balki rosti bilan ham yalqovdirman, ammo ovoz masalasiga kelganda xudo bergen. Ko'kragimni qalqondek oldinga chiqarib, ovozimning boricha «rah-namolarga ming-ming tashakkur», deb bir kuchangan edim, Nodira uyoqda tursin hatto Nosir aka ham cho'chib tushdilar.

— Hoy, hoy, Bo'taloqhofiz, sekinroq, akasi, sekinroq, qo'shni sinflarda dars ketyapti-yal

Qilib'imdan Nodira qotib-qotib kuldil. Uni kuldira olganimdan taltayib ketdim.

— To'g'risini ayt, reaktiv samolyotning guvillashi kuchlimi yo mening ovozim kuchlimi?

— E, reaktiv samolyot sening oldingda ip esholmaydi, — kulgidan o'zini to'xtatolmay javob berdi Nodira.

Shu payt eshik ochilib sinfga ilmiy mudir mo'raladi. Men baqirganimga keldilar, deb qo'rqiб ketdim. U Nosir akani yoniga chaqirib bir narsalar deb pichirladi.

— O'zingiz ayta qoling, — dedi Nosir aka.

Ilmiy mudir sinfga kirib e'lon qildi:

— Darsdan keyin hech kim ketib qolmasin. Umummaktab majlisi bo'ladi, ko'p emas, o'n minut.

Menimcha, oxirgi darsning tugashiga chalingan qo'ng'iroqning ovozidan yoqimliroq sado bo'lmasa kerak bu dunyoda, ammo bugun xol tushirishdi. Endi uyga chopmoqchi edik, hammamizni mакtabning tomosha zaliga boshlab borishdi.

Majlisni direktorning o'zi o'tkazdi. Ertadan bosh-

lab o'n kun davomida temir-teksak yig'ish dekadasi o'tkazilarmish. Direktorimizning ovozi juda tantanali edi.

— Aziz o'quvchilar, eng ko'p temir-tersak terib o'rnak ko'rsatgan sinflar maktab ma'muriyati hamda shaxsan direktor tomonidan alohida taqdirlanadi. Men o'ylaymanki, maktabimizning hamma o'quvchilari yoppasiga ertadan temir-tersak yig'ishga astoydil kirishadilar. Men aminmanki, bu musobaqada bizning maktab tumanda, qolaversa, shahar miqyosida birinchi o'rnlardan birini egallaydi. Hamma temir-tersak yig'ishga!

Quloqlarni kar qiladigan darajada qarsaklar yangradi. Kimsidir «ura» deb yuborgan edi, hamma bolalar unga qo'shilishib ketdi. Kim qattiqroq baqirishga o'ynagandek, bolalar rosa ovozga zo'r berdilar.

Aslida direktorimiz o'zini qiyab majlis o'tkazmasa ham bo'lardi. Ertadan bolalar temir-tersak yig'ishsin, deb o'qituvchilarga aytib qo'ysa kifoya edi. Shundoq ham butun maktabni temir-tersakka to'lg'azib yuborardik. Nimaga desangiz, bu ishdan hech kim bosh tortmaydi, hamma jon-jon deb terib keladi. Qiyinchilik joyi yo'q-da: bosh qotirib masalalarni yechmaysan, uzundan-uzoq she'rlarni yodlamaysan. Ko'chama-ko'cha sayr qilib yurib temir-tersak yig'asan. Bunga nima yetsin?!

Shunday qilib maktabning yana bir kuni o'tdi. Endi ertagacha yallo! To'g'ri, uyda ham arzimagan yumushlar bor, lekin ular darsda o'tirishga qaraganda o'rischasiga aytsam chepuxa?

Nimagaligini bilmadim-u, lekin mening maktabdan qaytayotganda kayfim doim chog' bo'ladi. O'zimni qushdek yengil his etaman. Qo'yib berishsa varanglatib ashula qilib ketardim, ammo atrofdagi lardan andisha qilaman-da. Shuning uchun hushtaka zo'r beraman.

Bugun ham hushtakni sayratib ketayotgandim birov qo'limdagi papkamga bir tushirib qoldi. Shunaqa qattiq tushirdiki, papkam bilan birga qo'lim ham uzilib tushay dedi. O'girilib qarasam, Shoqayum. Juda shayton-da, tirmizak!

— Bunaqa toshbaqa yurishda qachon uyingga

yetsasan, Bo'taloq! — dedi u kamsitish ohangida.

Sal ensam qotgani uchun Shoqayumga javob bermay papkamni yerdan olib yo'limga ketaverdim. To'g'ri-da, shunaqa ham sovuq hazil qiladimi?!

Shoqayum shatillab oldinga o'tib ketdi. Nariroqqa borib to'xtadi.

— Ertaga vaqtliroq kel, algebradan uy ishini berib turaman, ko'chirib olasan, — dedi u.

Ko'pincha yalintirib-yalintirib beradi daftarini, hozir nega o'zi taklif qilyapti, tushunolmadim. Har galay xo'p degandek bosh irg'ab qo'ydim.

— He, ishyoqmas, bunaqa gaplar bo'lsa jonning kiradi-a, — dedi Shoqayum kulib va yugurganicha ketdi.

U o'zi shunaqa, g'ayrati ichiga sig'mayotgandek, nuqul yugurgani-yugurgan.

Yo'lda magazinga kirib non oldim. Uyga borib eng avval kechagi ovqatni gazga qo'ydim. Keyin yechinib uy kiyimlarini kiydim. Ovqatni isitib kelib stolga qo'ydim-da, televizorning murvatini buradim.

Avstraliyaning hayvonot dunyosi haqida film bo'layotgan ekan, tomosha qilib o'tirib ovqat yedim.

Siz meni ertalabdan-kechgacha televizor ko'radian bolalardan ekan, deb o'layotgandirsiz. Sirayam unaqa emasman. Televizordan faqat sport ko'rsatuvlari, qiziqroq kino bo'lsa ko'raman. Ha, innaykeyin, «Vaqt» programmasini ham eshitaman Moskvadan. Toshkentning ko'rsatuvlarini-ku, hech ham ko'rgim kelmaydi. Chunki hammasi quruq gap yoki nasihat. Bu nima degan gap-a?! Uyda oying nasihat qiladi, maktabga borsang o'qituvchilar, televizor qo'ysang, artistlar nasihatni boshlaydi. Bor-ey, deb badiiy kitob o'qisang, u yerda ham nasihat! Biror joyda halovat yo'q. To'xtang... yolg'on aytdim. Mana, Nasiba opa o'qituvchi bo'lsalar ham nasihat qilmaydilar.

Bir marta sinfimizda shu haqda gap ochilib ketdiyu, hamma bolalar nasihat jonimizga tegdi, deb to'polon ko'tarishdi. Shunda Nasiba opa juda qiziq gap aytdilar.

— To'g'ri, pand-nasihat bilan birovni tarbiyalash qiyin, — dedilar. — Odatda noshud o'qituvchilar

o'zini nasihatga uradi, chunki tarbiyaning boshqa nozik vositalarini bilmaydi ular.

Nasiba opaning bu gaplari menga juda yoqib tushdi. Shuning uchun gaplarini yodlab oldim. Gohida oyim yoki o'qituvchilar izza qilib nasihat boshlashsa pinagimni buzmasdan, bez bo'lib turaveraman. Ichimda esa Nasiba opaning so'zlarini qaytaraman. Shunda hech qanaqa gap ta'sir qilmaydi.

Men yana bir marta qoyil qolganman Nasiba opaga. Yangi kelgan kezлari bitta voqeа bo'lган. Biz butun sinfimiz bilan til biriktirib darslaridan kinoga qochdik. Yo'q, ataydan qilmadik bu bemazagarchilikni. Sababi, Nasiba opaning darsi oxirgi edi, ustiga ustak yangi filmni juda zo'r deb maqtashgandi.

O'shanda hamma bolalar qochdi-yu, bitta Shoqayum qoldi.

Ertasiga qiyomat-qoyim bo'lishini bilib maktabga bordik. Lekin hech kim ortiqcha qo'rmasdi, chunki bitta o'zing darsdan qochselang yomon, butun sinfga nima qila olishardi, hammani birdan mактабдан quvib yuborishmaydi-ku. Qo'rqishdan ko'ra ko'proq qiziqib kutdik oladigan jazoyimizni.

Biroq kitoblarda yoziladigandek qilib aytsak, «voqealar rivoji biz kutgandek bo'lib chiqmadi». Eshitishimizga qaraganda Nasiba opa bo'lган voqeadan maktab ma'muriyatini xabardor qilibdi, ammo qattiq tashkiliy choralar ko'rmoqchi bo'lган direktordan: «Bu masalaning muhokamasini mening o'zimga qo'yib bering», deb iltimos qilibdi. Uzoq tortishuv va mojarodan keyin direktor yosh o'qituvching ra'yiga qarashga rozi bo'libdi.

Ertasigayoq bu gaplardan butun sinf voqif bo'ldi. Biz Nasiba opa bilan uchrashishni, uning aybdorlarga qanday dashnom berishini sabrsizlik va qiziqish bilan kutardik.

Nasiba opa darsdan qochganimiz uni yomon ranjitganini yashirmay, qovog'ini solib kirib keldi sinfga. Ammo baqirib-chaqirmadi, zaharini sochmadi, piching, kinoya bilan birortamizni uzib olishga harakat qilmadi. Birinchi bergen savoli: «Yaxshi film ekanmi?» bo'ldi. Birortamizdan sado chiqmadi. U savolni qaytardi. Oramizda eng mard qiz Ra'no edi.

«Ha, yaxshi film ekan», deb dangal javob berdi u. Nasiba opa pinagini buzmadi, Ra'nodan filmning mazmunini gapirib berishni iltimos qildi.

Mendaqa odamga film nima haqdaligini gapirib berishdan qiyinroq narsa yo'q. Bo'lalarga aytib berishim mumkin, lekin o'qituvchiga emas. Nega deganda o'qituvchiga filmning mazmuni bilan birga g'oyasini, oldiga qo'ygan maqsadini ham aytish kerak. Men bo'lsam qiziqroq kitob o'qisam yoki kino ko'rsam hech qachon iskovichga o'xshab g'oyasi qanday, maqsadi nima — titkilab o'tirmayman.

Ammo Ra'no gapni yomon olib qochdi, eng zo'r san'atshunosdan qolishmay filmni tahlil qilib berdi. Biroq ba'zilar uning fikriga qo'shilmadi. O'rtada bahs boshlanib ketdi. Nasiba opa qo'yib berdi, kim qanday fikrda bo'lsa bemalol gapiraverdi. Suhbat ayni qizigan paytda Nasiba opa gapni shartta kesdi:

— Muhokamaning davomi chorshanba kuni bo'ladi. Darsdan keyin bir soatga qolamiz. O'shanda kecha qolib ketgan mavzuni ham o'tamiz, muhokamani ham davom ettiramiz. Chunki besabab darsni qoldirishga hech kimning haqqi yo'q.

Nasiba opa mug'ambirlik qilmadi, maqsadini ochiq gapirdi. Shu tufayli ko'zimizga ogil va saxiy bo'lib ko'rinish ketdi. Hamma rozi bo'ldi darsdan keyin qolishga. Kinoga qochib o'tilmay qolgan mavzuni qaytarishga.

— Ey, jim bo'linglar! — dedi Shoqayum g'alati ovozda.

Sinf birdan suv quygandek jim bo'lib qoldi. Shoqayumning quti o'chib o'rnidan turdi. Nasiba opaga munofiqona tikilib so'radi.

— Nima, hech qanday chora ko'rmaysizmi? Butun sinf darsingizdan qochib ketsa ham indamaysizmi? Xuddi hech narsa bo'limgandek filmning muhokamasini o'tkazasizmi?

Nasiba opa hayron bo'lib Shoqayumga qaradi. Keyin odati bo'yicha bosiqlik bilan javob berdi.

— Ta'nang noo'rin... bolalarning darsimdan qochgani yuzimga shapaloq tortgandek bo'ldi. Lekin ular shu ishni ataydan, o'chakishib qilmagan, deb

o'yladim va bugun shunga iqror bo'ldim. Albatta chora ko'rish kerak, ammo men ishni qasdlashishdan boshlamoqchi emasman. Shuning uchun bir galchalik kechirdim. Ammo oldindan aytib qo'yay, agar yana shunaqa voqeа qaytarilsa unda kechirmayman, unda o'zlaridan ko'rishadi. Endi film muhokamasiga kel-sak, — Nasiba opa bir oz sukut saqladi, — gap shunda-ki, o'zingga ma'lum, men til-adabiyot o'qituvchisi-man. Xo'sh... har qanday filmning asosida adabiyot yotadi. Shunday ekan, bolalarning adabiy asarni muhokama qilishi faqat foyda. Ha, modomiki dasrdan ochib film ko'rgan ekansizlar, vaqtinglar zoye ket-masin, shundan ham biror naf topish kerak, degan maqsadda bahs uyushtirdim. Qolib ketgan darsni esa hammaning roziliги bilan bugun o'tkazamiz. Birovni jazolashdan oson narsa yo'q. Adolatli va oqilona ish tutishga har kim ham qodir emas... Javob qoniqarlimi?

Shoqayum battar oqarib ketdi. Chimirilib, zaharli piching qildi.

— O'zingizni saxiy ko'rsatib bolalarga yoqmoq-chimisiz?

Shunda Nasiba opaga yana bir marta qoyil qoldim. Uning o'rnida boshqa o'qituvchi bo'lganda portlab ketgan bo'lardi. Nasiba opa o'zini tutdi, xotirjam gapirdi.

— Gapingda jon bor, rostdan ham bolalar bilan o'rtamizda yaxshi munosabat bo'lishini istayman. Menimcha, hech qanday o'qituvchi o'quvchilarning o'ziga nisbatan yomon munosabatda bo'lishini xohla-masa kerak. Farqi shuki, birov buni bekitadi, birov oshkor ayta oladi. So'ngra, ba'zilar yaxshi munosa-batga halol erishadi, ba'zilar chuchmallik, mug'ambirlik, tilyog'lamachilik, soxta saxiylik bilan erishmoqchi bo'ladi.

— Siz-chi? — Shoqayum haddidan osha boshladи.

Siylaganni sigir bilmas deb shuni aytsalar kerak-da.

— Sen nima deb o'ylaysan? — savolni savol bilan qarshi oldi Nasiba opa.

Shoqayum o'ng'aysiz ahvolga tushdi, keyin chekinishga qaror qildi.

— Siz... siz... ayyor odamga o'xshamaysiz.

— Rahmat, — dedi sidqidildan Nasiba opa, — endi senga kelaylik. Hech kimga jazo berilmadi, men ham kinoga qochsam bo'larkan deb o'ylayapsan ichingda. To'g'rimi?

Shoqayum «miq» etolmadi, beo'xshov iljayib, yerga tikildi.

— Maqsading darsdan qochmaganing uchun maqtov eshitish edi. Jilla qursa o'rtoqlaring jazolanishini tomosha qilmoqchi eding. To'g'rimi?

Shoqayum xuddi birov ichidagi gapni topgandek qizarib ketdi.

— Nega endi? Jazolamasangiz jazolamang, menga nima?

— Albatta, intizomni buzmaganing maqtovga sazovor. Qolaversa meni, fanimni hurmat qilib darsdan qochmaganing menga yoqdi. Ammo o'rtoqlaringga nisbatan... — Nasiba opa kerakli so'z topolmay tutilib goldi.

— Nima qilibman o'rtoqlarimga nisbatan? — jahldan bo'zarib ketdi Shoqayum.

— Yo'q, sen meni to'g'ri tushun, hamma bilan birga kinoga ketmaganing o'rtoqlaringga nisbatan xoinlik yoki sotqinlik, demoqchimasman. Faqat bir yoqadan bosh chiqargan yaxshi, demoqchiman.

Biz butun sinf jim bo'lib qoldik. O'qituvchining og'zidan shunday gap chiqishini hech kim kutmagan edi. Bir yoqadan bosh chiqarish, kerak degan fikr albatta yangi emas, anchayin siyqasi chiqqan. Ammo bolalar buzg'unchilik qilganda ham birga bo'lgan ma'qul, degan gap bizni hayratga solgan edi.

Xullas, Nasiba opaning kamtarligiga va soddaligiga doim tan beraman.

Meni ko'rganlar hech qachon o'ylamasa kerak, birovning xatti-harakatiga baho berish qo'lidan keldi deb. Maqtanyapti deb o'ylamang-u aslida ko'p narsalarga aqlim yetadi. Bir aybim yalqovroqman, bo'lmasa-ku man-man degan a'lochi bilan barobar tashlashardim.

Shunday ekan, birorta bola yomon o'qisa, po'stakkalla ekan deb darrov qo'lingizni yuvib qo'ltig'ingizga urmang. «Ikki»chi bolalarning ichida ham miyasi balodek ishlaydiganlari bor.

•NAMUNCHA LALAYASAN, OTANGGA O'XSHAB!•

Kechga yaqin ukamni bog'chadan olib keldim. Oyim ishdan kelishlariga uyni supurib-sidirdim, polni yuvdim. Ozodalikni yaxshi ko'rishga kelganda oyimning oldilariga tushadigani topilmasa kerak. Uy iflos, narsalar yig'ishtirilmay sochilib yotgan bo'lsa darrov jahllari chiqib ketadi. Bugun esa jahllari chiqmagani ma'qul, chunki mактабга borib Nasiba opaga uchrashishlarini aytishim kerak. Shuning uchun bugun uyni, ayniqsa qirtishlab tozalab, chinnidek qildim.

Aksiga olib oyim ishdan sal xomushroq qaytdilar. O'zi keyingi paytlarda oyimning ochilib-sochilib yurganlarini kam ko'raman. Ko'pincha tund bo'lib yuradilar. Ish pachava, deb o'yladim, negaki oyim bir narsadan xafa bo'lib kelsalar ko'pincha alamlarini mendan olib, bo'lar-bo'lmasga urishaveradilar. Mayli, ko'ngillarini bo'shatib olsinlar, deb indamayman, chidayman.

Uchchalamiz ovqatlangani o'tirdik. Tomog'imdan hech narsa o'tmasdi. Aytay desam, oyimning avzoylaridan qo'rqaman, aytmay desam, ichimda sira gap saqlolmayman, nimadir yuragimni tirnayotganga o'xshaydi. Urish eshitsam eshita qolay, qutulib ola-man, dedim-u dangal yorildim.

— Oyi, ertaga olti yarimda maktabga borarmis-siz, — ovozim xirillab zo'rg'a chiqdi. — Nasiba opa aytdilar.

— Nima?! — oyimning ranglari o'zgardi, — yana ikki oldingmi? A?!

Men boshimni xam qilgancha yerga tikildim.

— O'v, sen qachon odam bo'lasan, lapashang! Qachongancha seni dastingdan gap eshitaman, — xuddi o'ylaganimdek oyimning jahllari chiqib ketdi. — Kap-katta odam o'qituvchining oldida qizarib, izza bo'lib o'tirish jonimga tegdi. Nega sira joning ni achitmaysan? Sendan so'rayapman, bez bo'lib o'tirmasdan javob ber! Nega sira dars tayyorla-maysan?!

— Tayyorlayman, — dedim ming'illab.

— Go'rni tayyorlaysanmi?! Tayyorlasang har kuni shunaqa «2» olib kelarmiding?

— Har kuni olmayman. Bu haftada birinchi olishim, — yana ping'illab qo'ydim.

— Bu haftada birinchi olishim?! Axir, bugun dushanba-ku. Hali haftaning oxirigacha qalashtirib tashlarsan «2»larni?

Tilimni tishlab qoldim. O'lay agar, bugun dushanbaligi sira esimda yo'q.

— Bilaman seni, dars tayyorlashning o'rniga kunbo'yi koptok tepasan! Agar yana koptok tega-ningni ko'rsam, urib oyog'ingni sindiraman. Shuni bilib qo'y, bola, agar sinfda qoladigan bo'lsang seni sog' qo'y mayman. Shuning uchun o'lasanmi, qolasanmi, nima qilsang ham «2»laringdan qutul! Eshit-yapsanmi?

Eshitmay kar ekanman-da. Oyim baqirib gapishtalarini nahotki o'zлari bilmasalar. Men tugul uyning to'rttala qavatiga eshitiladi. Bir marta ko'rganman, oyim ketimdan baqirib qolganlarida hammasi eshikni ochib quloq solgan.

«Eshityapman» degandek bosh silkib qo'ydim.

— Bugungisini nimadan olding?

— Uyushiq, yo'g'-e, yoyiq...

— Nima?! Qattiqroq gapisang-chi, nega ovozing chiqmaydi, nimalar deb g'uldirayapsan?

— Gapning uyushiq bo'laklaridan.

— U nima deganining?

— Ona tilidan-da!

— Nima, ona tili o'qituvching senga o'chakishib qolganmi, nuqul «2» qo'ygani-qo'ygan.

— Nasiba opa o'chakishmaydilar, Nasiba opa yaxshilar. U Muqaddas opa edi o'chakishib qolgan. Sal narsaga... daftar esdan chiqib qolsa ham, darsda bilmasdan gaplashib o'tirsam ham darrov «2» qo'yib tashlayverardilar, — dedim.

Oldingi o'qituvchim Muqaddas opa haqiqatda adolatsiz edi. Sal narsaga «2» qo'yardi. Bir marta, hatto qattiqroq kulganimga ham «2» olganman. Shu insofdanmi?

Muqaddas opa o'qituvchi bo'la turib muomalani bilmasdi, men bilan xuddi dushmanidek nuqul jerkib

gaplashardi. Menden nafratlanishi shundoqqina ko'zidan bilinib turardi. «Dangasa, bitta sen butun sinfni orqaga tortyapsan, o'zlashtirishni pasaytiryapsan», deb takrorlagani takrorlagan edi. O'zim ham sezib yurardim, dard-u fikri menden qutulish edi. Axiri meni boshqa sinfga o'tkazib yuborib tinchidi. Tag'in u mакtabda eng tajribali, eng obro'li, eng yaxshi o'qituvchi hisoblanadi. Qoloq o'quvchilarni o'zidan soqit qilib, faqat a'lochilarni o'qitib obro' orttirish oson-da!

Oyim esa hamon meni koyirdilar.

— Ayb o'zingda, o'lardek dangasasan, lalaygansan. O'z ishingga pishiq-puxta emassan. Gaping og'zingdan tushib ketadi, bilgan narsangni ham eplab gapirolmaysan, — oyim birdan tutaqib ketdilar, — namuncha lalayasan otangga o'xshab!!

E, tavba, adamning nima aloqasi bor bu gaplarga, deb o'yladim. Lekin yerdan ko'zimni uzmay, indamasdan o'tiraverdim. Odатим shunaqa — kattalarga gap qaytarib, baravar olishishni yomon ko'raman. Indamasdan yengaman. Ayniqsa, oyimga gap qaytarib bo'lmaydi, battar lovillab ketadilar.

Oyim ilgarilari men bilan juda muloyim, shirin gaplashardilar. Lekin adam bilan ajrashganlaridan keyin sag'al narsaga tutaqib ketadigan, baqirib gaplashadigan bo'lib qolganlar.

Ota-onasi ajrashgan bo'lsa bolalarga qiyinligini bilishmaydilarmi? Ular nega ajrashib ketishdi, bilmayman, lekin shunday qilishganlaridan nuqul o'ksib yuraman. Nima qilarkin bir-birining mayda-chuyda kamchiliklaridan ko'z yumib birga yashashsa.

Turib-turib oyimning: «Namuncha lalayasan otangga o'xshab» degan gaplari menga ta'sir qildi. Kattalarga ham hayronsan, gohida g'alati gaplar qilishadi. Mакtabda o'qituvchilarimiz: «Biz ota-bobolarimizdan o'rnak olishimiz, ularning izidan bori-shimiz kerak», deb qulog-miyamizni yeyishadi. Oyim bo'lsa nega otangga o'xshaysan, deb ta'na qiladilar. Xo'sh, kimning aytganini qilish kerak.

Menimcha, harholda o'qituvchilarimiz haq. Biz otalarimizga o'xshashimiz kerak. Shundoq ekan, lalayganmilar, yo'qmilar, baribir men adamga o'xshashni istayman.

OBRO' SHUNCHALIK BO'LADI-DA!

Ertasiga butun sinf darsdan keyin qolib majlis o'tqazdik. Kun tartibida temir-tersak yig'ish masalasini muhokama qilish. Tabiiyki, shovqin-suron avjiga mindi.

Shovqinni Shoqayum bosdi. Majlis uning joni, birorta yig'in uning ishtirokisiz o'tmaydi. Majlis boshlanishi bilan hech kim saylamasa ham raislikni qo'liga olvoladi. Mana hozir ham partaning ustiga chiqib qichqirdi:

— Bolalar, bolalar! Birpas jim bo'linglar!

Shoqayum jiddiy va sezilar-sezilmas oliftagarchilik bilan va'zzonlikni boshladi.

— Bolalar, modomiki har galdagidek sinfimiz maktab bo'yicha birinchilikni egallashini istar ekanmiz, oldindan reja tuzib olishimiz va shu rejaga binoan ish tutishimiz kerak. Maqsadga erishishning oson yo'li bor. Bunday qilsak, yolg'iz otning changi chiqsa ham dong'i chiqmaydi deganlaridek, biz ham shu naqlga amal qilib...

— Nima endi, butun sinf podaga o'xshab birga yurib temir-tersak yig'amizmi? Shuni aytmoq-chimisan? — kesatdi Nodira.

— Qo'rqma, sen podada yurmaysan. Tog' qoya-sidagi ohudek bizning ishimizni yuqoridan kuzatib turasan, — Shoqayum juda hozirjavob, og'zingdan chiqmasdan yoqangga yopishtiradiganlardan edi, — davom etaman. Nodirabonus to'g'ri qayd qilganlaridek, to'dalashib yursak ish yurishmaydi. Shuning uchun guruhlarga bo'linamiz. Kim qaysi guruhda ishlashini esa hozir aniqlab olamiz.

Sinfda yana shovqin-suron ko'tarildi.

Hamma gap mening ustimda edi.

Bolalarning o'rtasida shunchalik talash bo'lib ketaman, deb sira xayolimga keltirmagan edim. Hammalari: «Men Bo'taloq bilan ishlayman», deb menga yopishib olishdi. Ichimda suyungan bo'lsam ham tashimda sir boy bermadim.

Nega hamma men bilan bir guruhda ishlashga orzumandaligining sababi bor edi. Temir-tersak yig'ishda mening oldimga tushadigani yo'q edi.

Kuchimni ayamay rosa ishlayman — buni hamma bolalar biladi.

Shovqin-suronni yana Shoqayum bosdi.

— Bir daqiqa diqqati! Sabr qilsang, g'o'rada halvo bitur, deydi qadimgilar.

Sinf tinchlandi, Shoqayum davom etdi:

— To'polon ko'tarib bechora Bo'taloqning boshini aylantirib yubordik. Kelinglar, baqirib-chaqirmsadan xotirjam gaplashib olaylik. Bo'taloq kim bilan bo'lmasin, bari bir, o'zimizning sinfimiz uchun ishlaydi. To'g'rimi?

— To'g'ri, to'g'ri! — degan ovozlar yangradi.

— To'g'ri bo'lsa, menga quloq solinglar. Hozir bu masalani ham xamirdan qil sug'urgandek oson hal qilamiz.

Shoqayum o'zi aytganidek, birpasda butun sinfni besh guruhga bo'lib chiqdi, har qaysi guruhga uchtadan qiz, uchtadan o'g'il bola to'g'ri keldi. Lekin oxirida uchta qiz, ikkita o'g'il bola — Shoqayum va men qoldik.

— Na chora, biz rozimiz, — kerildi Shoqayum mening ham nomimdan gapirib, — gap sinfimiz sha'ni haqida ketar ekan, Bo'taloq ikkalamiz uchta o'g'il bolaning ishini qilishga tayyormiz. Nima deding, Bo'taloq?

Men nima ham derdim, Shoqayumning gapini ma'qullashdan boshqa ilojim yo'q edi.

Qanday qilib Shoqayum bilan bir guruhga tushib qoldim, men ham, boshqalar ham hayron edi.

Ishni, ya'ni temir-tersak yig'ishni shu bugundan boshlashga qaror qildik. Faqat oldin uyga borib, ovqat yeb, kiyimlarni almashtirib keladigan bo'ldik. Yarim soatdan keyin yana maktabda uchrashishga kelishdik.

Biz Shoqayum bilan birga ketdik. Uyiga yetganimda menga ko'rsatmalar berdi.

— Endi bunday, Bo'taloq! Uyingga g'ir etib borib kelasan. Unaqa lapanglab yurish yo'q. Ovqatingni tez yeysan. Yeysan-u orqangga qaytasan. Tag'in men seni xunob bo'lib kechgacha kutib o'tirmay. Uqdingmi, akasi?

Kulib yuborishdan arang o'zimni bosib:

— Xo‘p, aka, — dedim.

— Bo‘pti, bor, senga o‘n besh minut muhlat. Qaytayotganingda meni chaqirib o‘tasan. Kutib o‘tiraman. Yetadimi o‘n besh minut?

— Yetar, — dedim o‘zimni kulgidan to‘xtatolmay.

Men uyga jo‘nadim. Shoshilish kerak edi, bo‘lmasa Shoqayumdan baloga qolaman. Uyga borib apil-tapil kiyimlarimni o‘zgartirdim. Choy qo‘yib o‘tirmadim, yarimta kulcha oldim-da, o‘rtasidan qirqib ichiga sariyog‘ surdim, ozgina shakar ham sepdim. O‘shani kavshab orqamga qaytdim.

Shoqayumlar uyining tagiga kelib hushtak chaldim. To‘rtinchi marta chalganimda ikkinchi qavatning balkonida Shoqayum paydo bo‘ldi. Og‘zidagi ovqatni chaynab gapirdi:

— Besh minut kech qolding-ku, Bo‘taloq. Ishning boshlanishi shunaqa bo‘lsa uyog‘i nima bo‘ladi, akasi?

Hayron bo‘ldim, nahotki kech qolgan bo‘lsam, ammo tortishib o‘tirmadim.

— E, kim soatga qarab o‘tiribdi, — dedim, — ketdikmi?

Shoqayum javob berishdan oldin og‘zidagi ovqatni obdan chaynab yutdi, keyin xuddi meni yupatayotgandek, «hozir, akasi», dedi. U go‘yo bir narsani qidirayotgandek, osmonga birpas angrayib qarab turdi-da, keyin shoshmasdan uyiga kirib ketdi.

Men ariq bo‘yiga cho‘kib, uyga berilgan ashulani xirgoyi qila boshladim. Ashulani bir marta aytdim, ikki marta... besh marta ham aytdimki, Shoqayumdan hamon darak yo‘q edi. «Shu baxtli yoshlik uchun... ming-ming tashakkur» deyaverib jag‘im og‘rib ketdi. Bitta narsani hadeb qaytaraver-sang so‘zlar ham ma’nisini yo‘qotib, qandaydir mavhum tovushga aylanib ketarkan.

Nazarimda bir soatcha vaqt o‘tgandek bo‘ldi. Endi chiqib chaqirib tushmoqchi edim, yo‘q, haytovur eshikda Shoqayumning o‘zi paydo bo‘ldi.

— O! — dedi u atrofga suq bilan boqib, — kunning zo‘rligini qara, Bo‘taloq! Ammo bahor yaxshi fasl-da!

— Namuncha qolib ketding?! — ashula aytaverib tomog‘im xirillab qolgan ekan, ovozim zo‘rg‘a chiqdi.

— Bahorning barcha dov-daraxtlar endi uyg'ona-yotgan shunaqa erta davri, ayniqsa, zo'r bo'ladi, — dedi u mening savolimga mutlaqo e'tibor bermay.

— O'zing o'lgudek shoshqaloqsan-u, lekin ovqatga qolganda bir soat yeyarkansan!

— Ovqatnimi? G'o'rsan-da, bolakay, xomsan. Ovqatni Pavlov domlaning aytishlaricha, shoshmasdan, yaxshilab chaynab, «oh, oh, shirinligini», deb yeyish kerak, shunda yaxshi hazm bo'ladi. Bu bir. Ikkinchidan, nonning sal suvi qochib qolgan ekan, buvim magazindan yangisini opkelishlarini kutishga to'g'ri keldi. Va nihoyat, kun tartibi degan narsa bor. Uni buzib bo'lmaydi. Ovqatdan keyin besh-o'n minut yotib mizg'ib olvolish kerak. Yo meniki to'g'rimi? — hiringlab kului Shoqayum.

To'g'ri, Shoqayum hech qachon kun tartibini buzmasdi. Umuman tartibni yaxshi ko'radigan, intizomli bola edi. Men o'lsam ham unga o'xholmayman. Ayniqsa, tiliga qoyil qolaman. Shunday gaplarni topib gapiradiki, eshitib hayron qolasan kishi. Xuddi kitoblarda yozilgandek. Innaykeyin sal hazilkashroq.

— Bo'pti, Bo'taloqvoy, yurakni tor qilmang, birikki daqiqa ushlanib qolgan bo'lsak, buyoqdan hissasini chiqarib yuboramiz. Mehnat maydonida chunonam javlon uraylikki...

Shunday dedi-yu, shitob bilan yurib ketdi. Men qolib ketmaslik uchun ketidan yugurdim.

Maktabga borsak, hamma allaqachon temir-tersak yig'ishga tarqab ketibdi, faqat bizning guruhdagi qizlar qolib, Shoqayum bilan meni kutib o'tirishgan ekan. Borishimiz bilan:

— Namuncha kech qolib ketdilaring?! Lafzlaring borni o'zi? — deb talab berishdi.

Shoqayum iljayib shovqinni bosdi.

— Ortiqcha savollar berilmasa-da, nima keragi bor ortiqcha savollarni?! Axir, ko'rmayapsanlarmi, men kim bilan keldim. Bo'taloq bilan! Axir bu beg'am qachon biror joyga kech qolmay borgan?!-- askiyachilarga o'xshab qiyqirib kului Shoqayum, — shu paytga ham yetib kelganimizga suyunsanglar-chi.

Shoqayumning ustaligidan angrayib qoldim.

Darrov aybni menga ag'dardi-qo'ydi. O'zimga kelib endi to'g'risini aytmoqchi edim, Shoqayum shartta og'zimga urdi.

— Hechqisi yo'q. Yo'lida kelishib oldik, Bo'taloq ishda o'zini ko'rsatib, aybini yuvib yuboradi. Nima deding, Bo'taloq.

— Qanday aybimni? — ajablandim.

— Ishda o'zimizni ko'rsatamizmi, deyapman?

— Ha! Ko'rsatamiz, harakat qilamiz.

— Bo'pti-dal Gap shu haqda! — xitob qildi Shoqayum.

Men tortishib o'tirmadim, nega deganda shunday ham hammadan kech qolgan edik, endi ezmalik qilmasdan ishni boshlash kerak. Lekin Shoqayum yana gapni cho'zdi.

— Endi bunday, azizlar, ish unumli bo'lishi uchun bamaslahat bitta reja tuzib olsak. — Yana o'zining kitobiy tilida oliftagarchilik qildi Shoqayum, — menda shunday taklif bor. Qizlar shirin muomalaga usta bo'lishadi. Shuning uchun xonadonlarga kirib temir-tersak undirib chiqish qizlardan, mакtabga tashib ketishni Bo'taloq bilan men bo'ynimizga olamiz.

— Xonadonlardan nima chiqardi? Pachoq chelak bilan yo'qolgan mis choynakning qopqog'iga o'xshash narsalar chiqadi. Bunaqada boshqalar bir kunda yig'adiganini biz bir oyda yig'amiz, — dedi Ra'no. — Ko'chalarni aylanish kerak!

— Gapingni qara-yu! Endi bir kamimiz ko'chama-ko'cha yurib axlat titkilashmidi? — dedi Nodira.

— Voy, oppog' oyim-ey, nima qilipti, qo'lingning xinasi ketib qolarmidi?! Ko'chalarda qurilishlardan ortgan qancha-qancha chiqindilar yotibdi. Innaykeyin, odamlar uylarida ortiqcha qaqrir-ququrni saqlamaydi. Ishdan chiqdimi, ko'chaga uloqtirishadi, — bijillab ketdi Ra'no.

— To'xtanglar, to'xtanglar, — gapga yana Shoqayum suqildi. — Ayollar aralashgan ish mojarosiz bitmaydi, deb to'g'ri aytisharkan.

— Ho, erkak kishi gap boshladilar-u, — qizlar qiyqirib kulishdi.

— Gapga sarflangan shu vaqt ichida temir-ter-

sak yig'ib qo'ygan bo'lardik, — dedi yuvosh Matluba.

U juda og'ir, sipo qizlardan edi. Kam gapirardi, lekin gapirib qolsa o'qi albatta, nishonga tegardi.

Hamma birdan jim bo'lib qoldi. Birdan Ra'no kulib yubordi.

— Ketdik, nima qilib qaqqayib turibsizlar?

Ra'no ko'p kulardi. Kulishi o'ziga yarashardi. Tag'in bilmadim-u, menimcha uning hamma qiliqlari ham o'ziga yarashardi.

Nihoyat, yo'lga tushdik. Oldiniga ishimiz yurishmadi. Hamma umumiy hovlilar saranjom-sarishta, ko'chalar chinnidek. Qizlar ikkita xonadonga kirib quruq qaytib chiqishdi. Bittasi hech narsa bermabdi, ikkinchisida umuman hech kim yo'q ekan.

Keyin to'qqiz qavatli uyni tanladik. Biz Shoqayum bilan pastda kutib turadigan bo'ldik, qizlar birinchi podyezdga kirib ketishdi. Turibmiz, turibmiz qizlardan darak yo'q. Bir mahal qaytib chiqishdi. Uchovi ham gapirolmaydi, xaxo-xaxo kuladi. Hayron bo'ldik.

— Nimaga kulasanlar? — so'radi Shoqayum.

Qizlar battar kulishdi.

— Eslaring joyidami o'zi, namuncha hiringslaysanlar?! — po'pisa qildi Shoqayum.

Ra'no hamon kulgidan o'zini to'xtatolmay cho'ntagidan qiyshayib ketgan kichkinagina choy qoshiqcha chiqardi:

— Mana, butun boshli uydan topib chiqqan matohimiz!

Choy qoshiqchani ko'rib biz ham kulib yubordik.

— Devdek bitta erkak kishi berdi, — dedi Ra'no chiyillab.

Hammamiz qotib-qotib kulardik. Endi to'xtaymiz deganda, ko'zimiz qing'ir-qiyshi qoshiqchaga tushadi-yu, yana battar kulamiz.

— Endi buni kim ko'tarib ketadi? — dedi maynavozchilikni yaxshi ko'radigan Ra'no.

— Bunaqa zil-zambil narsani Bo'taloqdan boshqa kim ko'tara olardi, — dedi Matluba.

Yana qiyqiriq bo'lib ketdi.

— Ey, bas qillaring, naq bo'lmasa ichagim uzilib ketadi, — dedi Nodira yig'i aralash.

Biz qancha qilmaylik o'zimizni bosib ololmasdik.

— Hoy qahramonlar, nima balo, olamning temir-tersagini yig'ib qo'ydilaringmi, juda kulishlaring boshqacha?!

Biz birdan kulgidan to'xtab ovoz kelgan tarafga o'girildik, qarasak, sinfdoshlarimiz Turg'un bilan Anvar ketishyapti. Qo'llarida qiyshayib ketgan tramvay relsi, ikki uchidan ikkalovi ko'tarib olgan. Bizga gap otgan Turg'un «ko'rdilaringmi topgan narsamizni toshi yarim tonna keladi», degandek tumshug'ini ko'tarib, kekkayib olgan.

— Nima, biz ham ko'rsatsakmikin ularga yiqqan temir-tersagimizni, — dedi Ra'no.

Yana kulib yubordik, lekin darrov to'xtadik. Kulgi, albatta, yaxshi narsa-yu, lekin ishslash ham kerak-da.

Birdan miyamga bir fikr kelib qoldi. Bizdan bir mahalla narida katta qurilish ketyapti. O'sha yerga borsak, albatta chiqindilar, har xil temir-tersaklar topish mumkin. Fikrimni bolalarga aytdim.

— Yashavor, Bo'taloq! — dedi Shoqayum, — buni yaxshi o'ylab topding. Hamma isrof garchilik qurilishlarda bo'ladi-da! Ketdik!

Biz qurilishga bordik. Shoqayumning gapga chechanligi shunda qo'l keldi. Darrov surishtirib prorabni topdi. Bijirlab nimaga kelganimizni aytди. Bunaqa narsalarga epchil edi u.

— Juda yaxshi qilibsizlar kelib, — dedi prorab, qurilishning chekkasiga boshlab borib yerda yotgan bir uyum temir-tersak ko'rsatdi. — Hammasi sizlarga, olib ketaveringlar!

Qarasak, bir dunyo narsa! Egri-bugri armaturalar, bo'lak-bo'lak simlar, pachag'i chiqqan beton qoradigan idish, yana qandaydir temir-tersaklar.

— Voy-bo', bularni bir haftada ham tashib ulgurolmaymiz, — dedi Nodira.

— Maktab yaqin bo'lsa ham mayli edi, — uning fikrini quvvatladi Ra'no.

— G'am yemalaring, hozir ilojini topamiz, — dedi Shoqayum va prorabning ketidan yugurdi.

Qaytib kelganida men unga yana bir marta qoyil goldim. Birgina men emas, qizlarning ham og'zi

ochilib qoldi... Shoqayum prorab bilan gaplashib bitta yuk mashina — samosval undirib kelibdi!

Shoqayum shundoqqina ro'paramizga mashinani tirattirib qo'yib, xushchaqchaq ovozda:

— Qani, Bo'taloq, ko'rsat kuchingni, — dedi, — endi so'z senga!

Shunday dedi-yu, o'zi yana ko'zdan g'oyib bo'ldi. To'g'ri, endi men kuchimni ko'rsatishim kerak, deb qo'ydim ichimda. Yeng shimarib mashinaga temirtersak ortishga tushib ketdim. Qizlar yordam berib turishdi.

Ishga juda berilib ketgan ekanman, qancha vaqt o'tganini ham sezmay qolibman.

Bir mahal, ish tugay deb qolganda Shoqayum paydo bo'ldi, qo'lida ikkita shisha.

— Nuql senlarning g'amlaringni yeb yuramanda, — dedi u, — qani, bir ho'plamdan pepsi-kola ichib ollaring, cho'llagandirsanlar.

Yomon ustomon-da Shoqayum, boshqa paytda bir tiyining ustida ming qaqshaydigan qizg'anchiq hozir birdan saxovat ko'rsatib, suv ko'tarib kelibdi. Kim bilmas ekan uning hiylasini, bizni ishlatib qo'yib o'zi chetga chiqib turganining evaziga olib kelgan. Paytida laganbardorlik qilishni ham biladi.

Ammo judayam chanqagan edik, shuning uchun Shoqayum ko'zimizga avliyodek ko'rinish ketdi.

Pepsi-kolani talashib ichdik. Bo'sh shishani qaytarayotsam Shoqayum basharamga qarab hazil aralash kesatdi.

— Iye, ha, azamat, qora terga tushib ketibsiz-ku! Seni shunchalik po'kalak deb sira o'ylamagan edim.

— Terlamasinmiyam? Bechora butun mashinani deyarli o'zi to'ldirdi, — yonimni oldi Ra'no.

Shoqayum darrov gapni boshqa yoqqa burdi, jilmayib meni yupatdi.

— Hechqisi yo'q. Mehnat yigit kishini chiniqtiradi.

— Sening o'zing ham ozgina chiniqsang ziyon qilmasdi. Axir, sen ham o'g'il bolasan shekilli, — luqma tashladi Nodira.

— Qani, shovvozlar, endi ishga, yana bitta xuruj qilsanglar tugaydi, — dedi Shoqayum xuddi Nodiraning qochirig'ini eshitmagandek.

— O'zing-chi?! — bo'sh kelmadi Nodira.

— Men ham ishlayman. Sen nima deb o'ylaganding. Shuncha ishlab endi qochamanmi? Faqat g'irr etib borib mana bu bo'sh shishalarni topshirib kelay, suvini ichib o'zini uloqtirib tashlayverishmi? Puling kuymagan-dal!

Shunday dedi-yu, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Biz yana ishga tushdik. Chamasi yigirma daqiqadan keyin temir-tersak ham tugadi, mashina ham to'lib-toshib ketdi.

Men qaddimni rostlab yengil nafas oldim. Charchoqdan keyin dam olishdan gashtliroq narsa bo'lmasa kerak. Endi picha dam olgani yerga cho'kkanimni bilaman, yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi Shoqayum paydo bo'ldi.

— Endi bunday, — deb halovatimni buzdi u. — Sizlar birpas dam olinglar-da, keyin orqaga qaytaveringlar. Bu yerlar uzoq, makkab atrofidagi hovlilarga boringlar. Men mashinada temir-tersakni maktabga oborib tashlayman. O'sha atrofdan o'zim sizlarni topib olaman.

Shoqayum yengil sakrab kabinaga, shoferning yoniga chiqib o'tirdi. Hali nima bo'layotganiga tushunib yetmasimizdan mashina vizillaganicha uchib ketdi. To'rtovlon anqayganimizcha qolaverdik.

Keyin sudralishib orqamizga qaytdik. Maktabga yetay deb qolganimizda qarshimizdan bitta kampir chiqdi.

— Hoy, aylanaylar, temir-tersak yig'ib yuribsizlarmi? — deb so'radi u.

— Ha, buvijon, temir-tersak yig'ib yuribmiz, — javob qildi Ra'no.

— Voy, aylanay sizlardan, toleyimni qaranglar, oyog'imning ostidan chiqib qoldilaringiz. Sizlarni istab maktablariningga ketayotuvdim. Bir hujra temirtersagim bor, olib ketmaysizlarmi?

— E, yuring, xolajon, — suyunib ketdik, — jonjon deb olib ketamiz.

Uyi yaqin ekan, tezgina yetdik. Kampir kalitni olib chiqqani uyiga kirib ketdi.

Shu asnoda xuddi osmondan tushgandek yana Shoqayum paydo bo'ldi.

— Qayoqda qolib ketdilaring, yarim soatdan beri maktabda senlarni kutib o'tiribman, — dedi u hovliqib. — Qayoqqa yo'qoldi bular, deb xavotir olib qidirib yuribman senlarni.

— E, biz xazina topdik, — dedi Ra'no.

— Qanaqa xazina?

— Qanaqaligini hali o'zimiz ham ko'rganimiz yo'q, — dedi Matluba, — hozir bitta olivhimmat va saxovatli kampir o'sha xazinaning kalitini olib chiqadi.

Matluba shundoq deyishi bilan uyning eshididan inqillab-sinqillab boyagi kampir chiqib keldi.

— Kutib qolmadinglarmi, aylanaylar. Mana, kalitni olib chiqdim.

— Antiqa-ku, xuddi ertakning o'zil — ajablandi Shoqayum va hammamizning oldimizga tushib hovliga yo'l boshladи. Katta hovlining etagida qator garajlar qurilgan ekan. Kampir eng chekkadagisiga yaqinlashdi.

— Mana shu hujra bizniki, aylanaylar, mana shunisini ochaveringlar.

Shoqayum kalitni olib garajni ochdi. Biz garajning ichini ko'rib hangu mang bo'lib qoldik. Garaj to'la qaqrir-quqrur.

— Voy-bo'y, qancha temir-tersak! — sevinib ketdi Ra'no.

Kampir Ra'noning gapini boshqacha tushundi.

— Ha, ancha qiyinalasizlar, aylanaylar. Nima qilasizlar, o'rtoqlaringizni ham chaqirib, ko'plashib olib ketasizmi?!

— Yo'q, yo'q, — hammamiz cho'chib tushdik, — o'zimiz eplashtiramiz.

— E, buvijon, siz nima deb o'ylayapsiz, bularning suyagi mehnatda qotgan. Bitta mana bu barzangining o'zi o'nta odamning ishini qiladi, — meni ko'rsatib gapirdi Shoqayum.

Kampir menga qaradi.

— A... o'zlariyam norg'uldekkina, kelishgan yigit ekanlar. Ilohim umrlaridan baraka topsinlar.

— Endi menga kelsangiz, buvijon, do'ppim yerga tushib ketsa mardikorga pul berib oldiradigan odamman. Ammo na chora, temir-tersak davlatning

topshirig'i ekan, qilamiz-da, — hazillashdi Shoqayum.

Bilasiz, Shoqayum gapdon. Aksiga yurib kampir ham rosa ezmalikni yaxshi ko'rarkan. Qarab tursam, ularning gapi hali-veri tugamaydiganga o'xshaydi...

— Ey Shoqayum, ishni boshlayveraylikmi? — deb so'radim.

— Hozir, hozir, — dedi Shoqayum. — Endi bunday, Bo'taloq, sen qizlar bilan ashqal-dashqallarni tashib ketaver. Men shu yerda qorovullik qilib turaman, tag'in boshqa sinfnинг o'quvchilari ko'rib qolib, hammasidan ayrilib o'tirmaylik. Ha, o'zim turmasam, senlarni avrab ketishadi. Bor-yo'g'i uch marta qatnasalaring hech vaqo qolmaydi. Qani, bo'pti, bir chekkadan boshlayveringlar.

— Qorovullikni qanday o'zingga ep ko'rasan, — dedi Nodira.

Shoqayum bu gal ham uning kinoyasini qulog'i ostidan o'tkazib yuborib kampirga yuzlandi.

— Shunday qilib desangiz, buvijon...

Biz ishni boshladik. Shoqayum aytganidek, uchinchi marta emas, yettinchi marta qatnaganimizda eng so'nggi narsalarni oldik. Men ikki oyog'i yo'q, similari ilma-teshik karavotni orqalab oldim. Ra'noga almisoqdan qolgan, tagi g'alvirga o'xshab ketgan jomashov tegdi. Matluba ikki qulog'i, jo'mragi yo'q samovar topdi. Nodira zanglab ketgan ko'zani oldi. Hech narsa qolmadi deb o'ylagandik. Shoqayum kirib bitta pachoq jomashov topib chiqdi. Kampir bilan quyuq xayrashib yo'l boshladi.

— Qani, ketdik, azamatlar!

Yo'lga tushdik.

Ketyapman-u har qadam bosganimda orqamdag'i sim karavot lopillab gavdamni chayqatib yuboryapti. Yo'lning yarmiga yetmasdan charchab qoldim. «To'xtanglar, bir oz dam olvolaylik», deyishga uyalaman.

Nodira ko'zani yelkasiga qo'yib olgan shekilli, Shoqayum piching qildi.

— Ho, Nodiraxonimning ketishlarini! Go'yo bu kishi hamma qatori temir-tersak yig'ib yurgan o'quvchi emaslar-u, yelkalariga ko'za qo'ndirib buloq

boshiga ketayotgan ertaklardagi malika — tog' go'zalilar!

Hamma kulib yubordi. Ammo mening kulishga ham madorim qolmagan edi. Tishimni tishimga qo'yib ketaverdim. Bir ozdan keyin oyoqlarim chalkasha boshladi, yana ozgina yursam yiqilib tushishim aniq edi. Shu payt Ra'no odamgarchilik qilib qoldi.

— Ey, to'xtanglar, birpas dam olaylik. Bo'taloq bechora adoyi-tamom bo'lganga o'xshaydi, qaranglar gandiraklashini.

— E, buyog'i ikki qadam qoldi-ku, — dedi Shoqayum.

— Hozir yiqilib tushadi, — do'q urdi Ra'no.

Men oliftagarchilik qilib o'tirmay taqqa to'xtadim. To'xtashga to'xtadim-u karavotni yerga qo'yolmayman. Yo'q, ko'plashib karavotni yerga olib qo'yishdi.

Hansirab, nafasimni rostlab ololmasdim.

— Iye, iye, bu nimasi paravozga o'xshab pishillash? Quruq savlat ekanlar-ku, Bo'taloqvoy! — dedi Shoqayum.

Meni og'iz ochib Shoqayumga e'tiroz bildirishga ham madorim qolmagan edi. Ammo odamni kamshitishni yaxshi ko'radi, mahmadona.

— E, sen bu qilgan ishning choragini qilsang, allaqachon oyog'ingni uzatib cho'zilib qolarding, — dedi Ra'no.

Birpas dam olib yana yo'lga tushdik. Lekin bu gal karavotni bitta o'zim ko'tarishimga ruxsat berishmadi. Shoqayumning maslahati bilan hammalari qo'llaridagi narsalarini karavotning ustiga tashlashdi. Keyin to'rtta odam to'rt uchidan olib ko'tarib ketdik.

Maktabga yetishimizga o'ttiz qadamcha qolganda Shoqayum bizni tashlab yugurganicha ketdi. Biz maktab eshigiga yetay deganimizda u to'qqizinchida o'qiydigan bitta bola bilan qarshimizda paydo bo'ldi. Mashinaga ortgan temir-tersagimizni maktabnikiga, hatto sinfimiznikiga ham qo'shmay, alohida to'kib qo'ygan ekan, karavotni ham o'sha yerga tashladik.

To'qqizinchini sinf o'quvchisi hammamiz yiqqan

temir-tersagimizning yoniga turg'azib suratimizni oldi.

Men u nega bizning suratimizni olganini keyin bildim. Ertasiga mакtabga kирsam, zalda bolalar to'planib turishibdi. Meni ko'rib: «Ana, g'olibning o'zлari kelyaptilar», dedi kimdir. Bolalar duv etib o'girilib menga qarashdi. Beixtiyor ularning oldiga bordim. Devorga «Jangovar varaqqa» ilingan ekan. Qarasam, bizning kechagi rasmimiz ham osig'liq. Eng oldinda burnini qanqaytirganicha Shoqayum turibdi. Uning orqasida uchala qiz, uchalasi ham tirjayib olgan. Eng orqada men ham sag'al-pag'al ko'rinish turibman. Chap qulog'im bilan chap jag'im Nodiraning orqasida ko'rinnay qolgan bo'lsa ham yomon tushmabman. Yozuvini o'qib ko'rsam, biz kecha mакtab bo'yicha eng ko'p temir-tersak yig'ibmiz. Bu albatta Shoqayumning ishi deb o'ylab qo'ydim. Zap epchil bola-da Shoqayum, bunday ish-larning piri u, ammo boplabdi.

Qarasam atrofimdagи bolalar, birov sidqidildan, birov kalaka qilib bizni maqtay boshlashdi. Bittasi bo'lsa jo'rttaga keragidan ortiqcha kuchanib: «Obro' bo'lsa shunchalik bo'ladi-da», dedi... Men maqtov eshitib o'rganmagan odamman, sekin juftakni rostlab goldim.

Ha-da, menga kim qo'yibdi shon-shuhratni?!

«BO'TALOQ, SENI BITTA KISHI CHAQIRYAPTI»

Katta tanaffus payti edi. Bilasizlar, chug'ur-chug'urni yomon ko'raman. Yana mакtabning orqasiga o'tdim. Uch-to'rtta o'ninchи sinf o'quvchilari gap sotib turishgan ekan, o'shalarga yaqinlashdim. Men ularning gaplarini eshitishni yaxshi ko'raman. Boshqa bolalar paydo bo'lib qolsa: «Bor, bor, ishing-ni qil», deb quvib yuborishadi. Lekin meni haydashmasdi. Chunki mayda-chuyda ish buyurishsa og'rinasdan darrov qilib berardim.

O'ninchи sinflar mashhur futbolchilar haqida gaplashayotgan ekanlar. Kim qanday o'yinchi, kimning odati qanday, qaysi futbolchi eng ustasi-yu,

qaysinisining qanday kamchiligi bor, e, bundan qiziq narsa bormi o'zi dunyoda! Bunaqa gaplarni uxlamasdan tun-u kun eshitishga tayyorman. Suhbat ayni qizigan paytida kimdir orqamdan gapning beliga tepdi.

— Hov, Bo'taloq, qidirmagan joyim qolmadi-ku seni, qayoqda yuribsan?!

O'girilib qarasam, yana Shoqayum.

— Nima deysan? — yoqinqiramay so'radim.

— Bor, seni bitta kishi chaqiryapti, — dedi u. Shunday qiziq gapni tashlab ketish alam qildi.

— Qayerda?

— Eshik oldida.

Bormasdan ilojim yo'q edi. «Kim ekan meni chaqirayotgan?» deb hayron bo'lmadim. Chunki kim keliши mumkinligini bilardim, maktab eshigi tomon yurdim. Borsam, adamlar turibdilar, seskanib ketdim. Shunaqa paytda o'zi g'alati bo'ladi, ham suyunib ketasan, ham nima uchundir iching shuvillab, hayajonga tushasan. Ko'rgan zahoting shunday bo'ladi, keyin o'zingni bosib olasan.

Men qadamimni tezlashtirib, adamlarga yaqinlashdim.

— Assalomu alaykum, — dedim. Nima uchundir ko'zimni yerdan uzolmasdim.

— Vaalaykum assalom, — qo'l uzatdilar adamlar, ovozlari qandaydir siniq, bo'g'iq edi.

Men hamon yerdan ko'zimni uzolmasdim. Bo'lmasa o'zimning adamlar, begona emaslar. To'g'ri, uydan chiqib ketganlariga bir yilcha bo'ldi. Shu vaqt ichida besh-olti marta mакtabga kelib meni ko'rib ketdilar. Biz adam bilan juda inoq edik, men bilan xuddi o'z o'rtoqlaridek gaplashardilar. Lekin keyin, ketib qolganlaridan keyin uchrashar ekanmiz, nima uchundir sal tortinadiganroq bo'lib qoldim. O'zlarini judayam yaxshi ko'raman, bo'yinlariga osilvolgim keladi-yu, ammo tortinaman.

— Ishlaring yaxshimi, o'g'lim?

— Hm, — deyman.

Mana, ovozlari ham boshqacha bo'lib qolibdi. Sezib turibman, qiynalib, hayajonlanib gapiryaptilar. Lekin sezayotganimni adamga ko'rsatgim kel-

maydi, shuning uchun ko'zimni yashirib yerga tiki-laman.

Adam sira ham jahldor emaslar. Xuddi Soliga o'xshab ko'zlarini pirpiratib odamga mehr bilan boqib turaveradilar. Hozir ham menga qarab mo'ltilab turibdilar.

— O'qishlaring-chi, o'qishlaring qalay?!

Men indamayman. Nima ham deyman?! Yaxshi, deb yolg'on to'qiymi? Adamni sirayam aldamayman. Shuning uchun jim turaveraman.

— Men ham uncha yaxshi o'qimaganman, — dey-dilar adam meni yupatmoqchi bo'lib, keyin shoshib qo'shib qo'ydilar, — lekin harakat qilish kerak yaxshi o'qishga.

— Hm, — deyman yana.

Endi nima deyishlarini bilaman, Solini so'raydilar.

— Ukang qalay, yaxshi yuriptimi?

— Hm... yaxshi.

Shu payt qo'ng'iroq chalinib qoldi.

— Yana nechta darsing bor?

— Ikkita.

— Bo'lmasa men ham bir aylanib kelaman. Dars tugagach seni hov anavi daraxtning tagida kutib turaman, — adam ko'chaning boshidagi daraxtni ko'rsatdilar.

Men xo'p degandek bosh silkitib matabimga kirib ketdim. Adamning nimaga kelganlarini bilaman. Oyning har to'rtinchi va o'n to'qqizinchi sanasida maosh oladilar, demak, kecha maosh olganchalar. Boshqa paytda kelmasdilar, necha marta meni ko'rgani kelgan bo'lsalar doim maoshdan keyin kelardilar.

Darsdan chiqib kelishilgan joyga bordim. Adam sigaret chekib, bitta qo'llarida buklog'liq gazeta ushlaganlaricha meni kutib turgan ekanlar.

— Qani yur, o'g'lim, bir aylanib kelamiz, — dedi-lar adam.

Biz yo'lga tushdik. Har ga'lgidex eng avval O'rdadagi Anhor yoqasidagi oshxonaga bordik.

Shundoq suvning bo'yidagi stollardan biriga o'tirdik. Daraxtlarda kurtaklar bo'rtib turibdi, ba'zi novdalar barg yozgan. Nafas olsang, allaqanday totli

hid keladi. Osmonda oftob charaqlaydi. Xullas, ayni navbahor! Axir, uch kundan keyin sakkizinchı mart edi-da.

Anhordagi oshxonada ba'zilar o'z-o'ziga xizmat qilishadi. Adamlar o'tiratur dedilar-da, meni yolg'iz qoldirib oshpaz tomon ketdilar. Qarasam, hali palov, hali somsa, hali kabob tashib kelyaptilar. Birpasda stolni noz-u ne'matlarga to'ldirib tashladilar.

— Ada, shuncha ovqatni qanday qilib yezman?

— Erkak odamga nima bo'ladi bu ovqat, o'g'lim? Axir maktabdan ochiqib chiqding. Bir chekkadan olaverasan.

Men kabobdan boshladim. Adam o'zlariga bir shisha pivo olib keldilar. O'shani oz-ozdan ichib, ovqat yeyishimni kuzatib o'tirdilar. Og'izlaridan sigaret arimaydi, ketma-ket chekadilar. Birini tashlab, ikkinchisini tutadilar. Goh-gohda pivodan shimirib qo'yadilar.

— Ada, oling o'zingiz ham ovqatdan, — dedim.

— Bemalol yeyaver, o'g'lim, bemalol yeyaver. Men boyta ovqatlanib olgan edim.

Shundan keyin tortinmasin dedilarmi, menga qaramay qo'ydilar. Pivolari tugab qolgan edi, yana bir shisha opkeldilar. Mayli, ichaversinlar. Adamlardan ko'nglim to'q edi, uyga ichib kelsalar iljayib turaverardilar. To'polon-janjalni bilmasdilar. Oyim esa: «Sizga kim qo'yibdi ichishni, oldin o'zingizni eplasangiz-chi, lalaygan!» deb koyiganlari koyigan edi. Yo'q, adamlar kunda ichib keladigan piyanistalardan emasdilar. Boya aytdim-ku oyda-yilda bir, faqat bayramlarda yoki to'y-bazmlarga borsalar ichardilar.

Kabobni tushirib bo'lib palovga o'tdim. Birdan adam so'rab qoldilar.

— O'g'lim, oying bilan yaxshimisan, urishmaydimi?!

«Ha, urishib turadilar», deb yuborishimga sal qoldi. Vaqtida tilimni tishladim. Agar hozir oyimlarni yomonlasam adamlar hech qachon uyga qaytib kelmasliklari mumkin.

— Urishgani vaqtvari ham yo'q. Kunduzi ishdalar, kechqurun kelib ovqat pishiradilar, kir yuvadilar,

dazmol qiladilar... Solini-ku erkalayverib tantiq qilib yuborganlar.

Adamlar xuddi xato qilib qo'ygan odamdek shoshib qoldilar.

— Mabodo urishsa ham chidashlaring kerak. Chunki ona bo'lgandan keyin gapiradi, koyiydi. Senlarning foydangni ko'zlab shunday qiladi.

Men «to'g'ri» degandek bosh silkib qo'ydim. Bu ham yetmagandek, «oyimlar juda yaxshilar», dedim.

Adam indamadilar. Anchadan keyin, «onang bo'lganidan keyin gapiga kirishing kerak», dedilar. Lekin o'zlarini zo'r lab, sal ensalari qotib gapirganlarini sezdim. Adamning odatlari yaxshi, umrlarida birovning orqasidan yomonlamaydilar. Oyimlarni aslo kamsitmoqchi emasman-u, lekin biror narsadan qisilib ketsalar, ayolliklariga borib adamni orqalardan ipirisqi gaplar qilib yomonlaydilar.

Palovning yarmisiga bormasdan to'yib qoldim.

— Ada, qolganini yemasam maylimi, juda qornim shishib ketdi.

— Mayli, — dedilar adam.

Somsadan ham arang bittasini yedim.

Papkamni ochdim-da, qalin daftar oldim. O'rtasidan shartta ikki betini yirtdim. Stolda qolgan ikkita somsani olib o'shangga o'ray boshladim.

— Qo'yaver, qolsa qolib ketar, o'g'lim, — dedilar adam.

— Soliga oboraman, bu uning haqi, — dedim, — bittasi oyimga.

Adam birdan o'zgarib ketdilar. Oldilaridagi pivotdan stakanni to'ldirib shimirdilar-da, ketma-ket sigaret tortdilar.

— Ularga... boshqa olamiz, o'g'lim, — dedilar ovozlari sal qaltirab. Ha, ovozlari juda g'alati, xuddi yig'lamsiraganga o'xshab chiqdi.

— Nima qilamiz boshqa olib, tayyori turibdi-ku,— dedim Shoqayumga o'xshab tilbiyronlik bilan.

Adamlar turib, bir choynak ko'k choy olib keldilar.

— Choy ichib olmasang, ovqat chanqatadi.

Yomon ko'rganim quruq choy ichish. Lekin adamlarning ko'ngillari uchun bir piyola ichdim.

Keyin qornimni ushlab adamlarga qaradim.

— Rosa ovqat yedim-da, ada, qornim yorilib ketay deyapti, choy sig'maydi, — dedim.

Juda opqochvorsam adamlar kulib qo'yadilar. Menga esa shuning o'zi kifoya. Hech qanday gapping keragi yo'q. Shahdimdan tushaman-qo'yaman. Hozir ham adam kulib qo'ydilar, men, «qornim yorilib ketay deyapti», deb qo'pol gap qilganimni sezdim.

— Ketdik bo'lmasa, — adamlar turib ko'cha tomon yurdilar.

Men o'rog'liq somsani papkamga tiqdim-u adamlarning ketlaridan yo'rg'aladim. Trolleybusga o'tirib «Bolalar dunyosi» magaziniga bordik. Adamlarga maza, trolleybusda xohlaganlaricha bepul kataysa qilib yuraveradilar. To'g'ri-da, o'zлari trolleybus haydovchisi bo'la turib, tag'in pul ham to'lasinlarmi?!

Magazinning eshigiga yetay deb qolganimizda adam men tomon o'girildilar.

— Senga bitta kostyum-shim olamiz. Egningdagini ancha ohori to'kilib qolibdi.

Menga bu gap juda ma'qul tushdi. Chunki anchadan beri yangi kostyum-shim orzu qilib yurgandim. Magazinga kirsaq odam tirband, mol ham vij-vij. Xilma-xil kostyumlar osilib turibdi.

— Tanla! — dedilar adamlar.

Men dovdirab qoldim. Misol uchun, ikkita kostyum ko'rsatib, qaysi birini olasan deyishsa tanlash mumkin, lekin shuncha kostyuming ichidan bitasini qanday tanlaysan?! Indamasdan turaverdim.

— Ha, tanlamaysanmi? — so'radilar adam.

Men yelkamni qisdim. Keyin sekin to'ng'illadim.

— Menga baribir.

Adam sotuvchiga yuzlandilar.

— Singlim, bizga bitta kostyum tanlab bering. Ha, ha, shu bolaga.

— Bajon-u dil, — dedi sotuvchi qiz va shartta bitta kostyumi olib menga tutqazdi, — qani o'lchab ko'r-chi! Bugun oldik, Yaponiyaniki. Tikilishi ham yaxshi, materiali ham chidamli.

— Kiyib ko'r-chi, — dedilar adamlar ham.

Birinchi qarashdayoq kostyum menga yoqmagan edi: juda allambalo, olachipor. Oliftalar kiysa yarashadi, men boshimga uramanmi? Yasanib yurgani uyalaman.

O'zimni zo'r lab kostyumi kiydim-u darrov yecha boshladim.

— To'xta, to'xta, ko'raylik-chi, — dedi sotuvchi.
Men to'xtadim.

— Judayam yarashdi, xuddi o'ziga o'lchab tikkandeck.

— Ha, zo'r kostyum ekan, — adam sotuvchining gapini ma'qulladilar.

Men kostyumi yechdim.

— Nima deysan, yoqdimi?

Men indamadim. Sotuvchi bilan adam maqtab turishgandan keyin yomon degani uyaldim.

— Gapir, o'g'lim, olaveramizmi?

Men boshimni egganimcha yerdan ko'zimni uzmay turaverdim.

— Yoqmadni shekilli, — kuldilar adam sotuvchiga qarab, — mayli, yana boshqasini ko'rib boqaylik-chi.

— Bemalol ko'raveringlar. Ha, o'zi tanlay qolsin, — sotuvchi ayol ancha xushmuomala ekan, — lekin bunaqasi kam bo'ladi.

Biz bo'limni aylana boshladik. Men bitta kostyuming oldida to'xtadim. Indamasdan adamlarga ko'rsatdim.

— Shuni olasanmi? — hayron bo'lib so'radilar adam. Men «ha» degandek bosh silkidim.

— Bundan boyagining o'lsa o'ligi ortiq-ku, o'g'lim. Bu juda odmi, judayam yupqa-yu.

— Mayli, qalinida odam isib ketadi.

— Axir narxidan ham bilinib turibdi jo'n matodan tikilgani, — adam pulidan qochmayotganliklarini menga anglatmoqchi bo'ldilar. — Olganga yarasha durustrog'idan olgin-da. Arzonning sho'rvasi tati-maydi, degan gap bor!

Men indamay boshimni egib yana yerga tikildim.

— Mayli, o'zingga yoqsa olib beraveraman. Yaxshirog'ini tanlagin demoqchiydim-da. Menga baribir, eng asosiysi senga yoqsa bo'ldi.

— Yoqadi, — dedim ping'illab.

— Xo'p, o'g'lim.

Adamlar kostyuming haqini to'ladilar. Sotuvchi qog'ozga chiroysi qilib o'rab berdi. Ko'nglimga yoqqan kostyum olganimdan og'zim qulog'imda edi.

— Ada, Soliga ham biror narsa olaylik, — dedim.

— Albatta olamiz. Niyat o'zi shundoq edi.

Soliga tufli oldik. Eng chiroysi, eng qimmatbahosini tanladik. Unga chiroysi kiyim yarashadi, chunki o'zi chiroysi, jajji bola.

Biz magazindan chiqib yayov ketdik. Yo'lida adamlar o'zlaridan o'zlar: «Men ham qimmatbaho, olachipor kiyimlarni yoqtirmayman, qancha oddiy bo'lsa, shuncha yaxshi», deb qoldilar. Suyunib ketdim. Menga tortibsan demoqchilar-da.

O'rdagacha yayov keldik. Endi xayrlashish kerak edi. To'xtadik. Birdan etim uvishib, ichimda bir narsa uzilib tushayotgandek bo'ldi.

— Mayli endi, bora qol. Ukangga qarab yur, — dedilar adamlar.

Men bosh silkib rozilik bildirdim. Biz yana birpas turdik, adamlar cho'ntaklaridan sigaret olib tutatdilar. Menga bilintirmaslikka harakat qilib xo'rsinib qo'ydilar. Keyin:

— Xo'p bo'lmasa, — dedilar o'zlarini xushhol va tetik ko'rsatishga urinib.

— Yana qachon kelasiz, ada? — so'radim.

— Kelaman, o'g'lim. Agar biror narsa kerak bo'lsa hozir ham aytaver, — adamlarning ovozlari bo'g'ilib zo'rg'a chiqdi.

— Yo'q, hech narsa kerak emas, — dedim. Menga rostdan ham hech narsa kerak emas edi, o'zlar bo'lsalar bo'ldi. Kattalarga ham hayronsan, nahotki shuni ham tushunishmasa?!

— Xayr bo'lmasa, yana kelaman, — dedilar adam. — Qachonligini aniq aytolmayman-u, lekin albatta kelaman.

Keyin bir-bir qadam bosib mendan uzoqlashdilar. Men ko'chaning narigi betiga o'tib o'zimni katta daraxtning panasiga oldim. Adam to ko'zdan g'oyib bo'limgunlaricha orqalaridan qarab qoldim.

Adam meni ko'rgani kelganlarida suyunaman. Lekin xayrlashayotganlarida ichim alg'ov-dalg'ov

bo'lib ketadi, shunda kelmasalar ham mayli deb o'ylab qo'yaman. Chunki adamni uydan ketib qolganlariga endi ko'nika boshlaganimda kelib yana boshqatdan yaramni yangilab ketadilar.

YANA •IKKI•

Odamda hafsalal bo'lmasa qiyin bo'lar ekan. Tavba, uyda dars tayyorlagani sira o'zimni majbur etolmayman. Yo'q, unchalik erinchoq emasman, xayolparastman. Gohida o'zimni zo'r lab dars qilishga o'tiraman, oldimga kitob-daftarlarimni ochib qo'yaman, uch-to'rt satr o'qiymen ham, ammo shundan nariga o'tolmayman, o'zimdan-o'zim xayolga berilib ketaman.

Ayniqsa, oyimlar bilan adamlar nega chiqisha olishmadi, nega ajrashib ketishdi, deb ko'p bosh qotiraman. Tagiga yetolmay ta'bim xiralashadi. Axir binoyidek inoq edilar-ku. Men bilan Solini yer-ko'kka ishonishmasdi, tepamizda parvona bo'lib jonlarini fido qilishga tayyor edilar. O'shanda sirayam miyanga kelmagan ekan, bir kun kelib adam bilan oyimning ajrashib ketishlari. To'g'ri, ba'zan oralarida g'idi-bidi bo'lib turardi. Bir marta oyimni: «Boshqalarga o'xshab mashina olib bering yoki chet el sayohatiga olib boring demayman, juda bo'lmasa hamma qatori kiyintirib qo'ying, mehmon-pehmonga boradigan bo'lsam kiyishga tuzukroq ko'ylagim yo'q», deganlarini eshitib qoldim. Adam juda yuvosh odamlar, «nima qilay, maoshimning hammasini qo'lingga olib kelib beraman-ku», dedilar.

— E, maoshingiz qursin, ovqatga yetmaydi.

— Bo'lmasa o'g'rilik qilaymi, bizni ishda senga o'xshab choychaqa ishlashning iloji yo'q.

— Birinchidan, siz menga choychaqani pesh qilmang, ikkinchidan, agar oilani o'zingiz eplaganingizda menga zarur kelgani yo'q edi ishlab! — shang'illab javob qildilar oyim.

Adam indamadilar. Bitta gapdan qolmasalar oyimga bas kelib bo'lmasligini bilibmi, ishqilib, indamay boshqa xonaga chiqib ketdilar.

Lekin bunaqa janjallarning oqibati ajralishga olib kelishini xayolimga ham keltirmasdim. Bir kuni esa adam ishdan uyga qaytib kelmadilar. Biz Soli bilan adamni yarim kechagacha kutdik. Nega adam kelmayaptilar, deb oyimdan qayta-qayta so'radik. Hadeb jonlariga tegaverganimiz uchunmi oyim: «Adanglar qochib ketdi, endi uyga kelmaydi», deb qichiqirib berdilar. Biz hayron bo'lqidik nega endi kelmas ekanlar deb. «Erkak kishi udli-shudli bo'lmasa oilani eplay olmaydi. Ha, oila boqish oson emas. Shuning uchun, tashvishdan qutulish uchun adang qochdi. Endi bitta o'zi bilganini qilib yuraveradi», dedilar oyim.

Adamlar haqidagi bunaqa so'zlar menga yoqmadi, chunki men adamni bilaman, qochqoq emaslar, faqat janjal-to'polonga toblari yo'q, ayol odam bilan jiqilashib o'tirishni o'zlariga ep ko'rmaydilar. Men bilan Solini esa o'laqolsalar tashlab ketmaydilar. Ikkalamizga ham xuddi o'rtoqdek edilar, har xil o'yinlar o'ynardik, gurpanglashardik. Lekin urish uyoqda tursin, hatto baqirmsasdilar ham. Ish buyuradigan bo'lsalar ham xuddi iltimos qilgandek yumshoq gapirardilar. Bizga ham, oyimga ham. Kim biladi, balki oyimga jahldor, olako'z er kerakdir. Lekin biz Soli bilan adamni juda yaxshi ko'ramiz va hech qanaqa odamga adamni almashtirmaymiz. Biz oyimni ham yaxshi ko'ramiz, uni ham hech kimga almashtirmaymiz. Faqat, ikkalovlari yana topishib ketishsa bo'ldi bizga. Boshqa hech narsa kerak emas!

Kullas, dars tayyorlashga o'tirdim deguncha mana shunaqa achchiq fikrlar boshimni g'uvillatib yuboradi. Ularni haydash uchun boshqa narsalarni o'ylashga harakat qilaman. Futbol haqida «Paxtakor» komandasasi yoki yangi ko'rgan filmlarimni o'ylab ketaman. Bir ko'nglim artist bo'lib, butun dunyoga dong taratsammikin degan orzuga boraman. Keyin beso'naqay gavdam esimga tushib fikrimdan qaytaman. Rost-da, tuyaga o'xshagan «istarasi issiq va bejirim» odamdan qanaqasiga mashhur artist yetishib chiqsin?

Bu shirin xayollarni ham haydab, nihoyat dars qilishga jazm qilaman. Lekin xayol suraverib miyamni

charchatib yuborgan bo'lamanmi, kitobga ko'zim tushishi bilan uyqu bosadi.

Mana shunaqa irodasiz, hafsalasiz odamman. Xayolparastligim ham shundan. Shoqayumning tili bilan aytsam dars tayyorlashga ishtiyoq yo'q menda.

Gapning qisqasi, bugun yana mакtabga uy vazifasini tayyorlamay keldim. Birinchi soat ona tili edi. Birov bo'ynimdan arqon bog'lab sudragandek zo'rg'a kirdim sinfimizga. Endi partamning oldiga yetganimda qo'ng'iroq jiringladi. Qiziq, aslida qo'ng'iroqning tovushi bir xil, ammo darsga kirayotganda xavotirli va xunuk jaranglaydi, dars tugaganda esa undan quvnoq va yoqimli tovush yo'q.

Men holdan toygan madorsiz odamdek «shilq» etib joyimga cho'kdim. Ammo yuragim joyidan chiqib ketay deb gursillab uryapti. «Iye, «2»dan shunchalik qo'rqsanmi, qo'rqsang, demak ongli ekansan-da», dersiz. Yo'q, men unaqa qo'rroq bola emasman. Boshqa darslarda, agar uy vazifasini qilib kelmagan bo'lsam, bemalol o'tiraveraman. Mabodo «ikki» olsam pisand ham qilmayman. Uyog'ini surishtirsangiz, boshqa fanlardan «2» ni umuman kam olaman. Darsda o'qituvchi tushuntirayotganda eshitganim yetadi, ertasiga o'shani gapirib berib arang «3» ga ilinib yuraman. Ortig'iga harakat ham qilmayman. Tarix o'qituvchimiz, «xotirang durust, aybing — dars tayyorlamaysan», deydilar. Balki rostdan ham sal-pal xotiram bordir, nega desangiz, oliy ligada o'ynaydigan futbolchilarning hammasining ismi familiyasini va tug'ilgan yilini yod bilaman.

Boshqa narsaga chalg'imay qunt bilan tinglab o'tirsam, hamma fanlarni ham tushunaman, keyin gapirib berishim mumkin. Faqat boyta aytganimdek, uyda o'tirib mashqlarni ko'chirishga sira tobim yo'q. Innaykeyin, to'g'risini aytsam, ona tiliga yo'qroqman, shuning uchun mashqlarni ishslashni ham bilmayman. Bilmaganimdan keyin bekorga ovora bo'lgandan nima foyda?!

Lekin baribir ona tilidan «2» olishni xohlamayman. Boshqa fandan qo'shaloqlab olsam ham mayli, faqat ona tilidan emas. Nega desangiz, Nasiba opani xafa qilgim kelmaydi. Aniq bilaman, «2» olsam men-

dan ham ko'proq Nasiba opa kuyunib ketadilar-da.

Anavi kuni oyim maktabga borganlarida Nasiba opa bilan o'tirib bir soatcha suhbatlashibdi. Nasiba opa bor gapni yashirmasdan oyimga aytibdi. «O'zi vijdonli, oqko'ngil bola, aybi o'qishga havasi yo'q, harakat qilsa binoyidek o'qib ketadi», debdilar. Oyim rosa koyidilar. «Harakat qilsang o'lasanmi, bezbet, bitta meni desam muallimingni ham rosa qiy-narkansan. Bechora yoshgina ekan, seni odam qila-man, deb adoi tamom bo'libdi», dedilar. Men qiyin o'quvchilardan emishman, meni qanday qilib tuzatish yo'llarini qidirib Nasiba opa bir marta — institutda dars bergen sevimli domlalari bor ekan — o'shangan ham uchrab, konsultatsiya olib kelibdilar.

— O'qituvching shuncha kuyib-pishganda sen ham joningni sal achitsang bir narsa bo'lib qolasanmi! — dedilar oyim.

Shuncha gap eshitganimga qaramay yana dars tayyorlamay borganimdan keyin yuragim taka-puka bo'ladi-da.

Eshikda Nasiba opa paydo bo'ldi. Butun sinf baravar oyoqqa turdi. Salomlashdik. O'tirdik. Nasiba opa navbatchidan kim yo'qligini so'radi. Hamma bor edi.

— Aliqulov! — chaqirdi Nasiba opa.

Yuragim shuv etib ketib, o'rnimdan turdim. Nuqul ahvol shu — birinchi mendan so'raydi! Ammo buyog'ini qanday tushunish kerak: Nasiba opa mendan keyin Shoqayumni, Nodirani, Ra'noni va Matlubani chaqirdi. Hammamizni turg'azib qo'ydi. Keyin tantanavor ovozda e'lon qildi:

— Bolalar, mana shu beshta sinfdoshingiz fidokorona mehnat qilib hammadan ko'p temir-tersak yig'ishdi, natijada maktab bo'yicha birinchilikni olishdi! Men sizlarning nomingizdan va sinf rahbari sifatida o'zimning nomimdan ularga minnatdorchilik izhor etaman, chin qalbdan tabriklayman!

Butun sinf qarsak chalib bizlarni olqishladi.

Shoqayum demaganlar shu daqiqalarda o'n kilocha semirdi. U burnini qaqqaytirib butun sinfga kibor bilan qarardi. Men esa boshimni ko'tarib atrofga boqqani uyalardim.

Shovqin-suron avjga mindi.

— Qoyil, azamatlar!
— Bularni taqdirlash kerak!
— To'g'ri, yorliqlar berilsin.
— Ha, mukofot berilsin, — degan ovozlar yangradi.

Nasiba opa qo'llarini ko'tarib shovqinni bosdi.

— Jim! Hammasi bo'ladi! Hali darsdan keyin umummaqtab majlisida hammasi bo'ladi. Direktorning o'zi tabriklaydi, — dedi Nasiba opa, — hozir esa o'tiringlar. Endi darsni boshlaymiz.

Biz o'tirdik. Nasiba opa menga murojaat qildi.

— Aliqulov, shu beshta bola ichida sening ham borliging meni ayniqsa quvontirdi! Demak, mehnatga bo'yning yor berarkan, demak, yalqov emas ekansan.

— E, hammadan ko'p shu ishladi. Agar Bo'taloq bo'lmasa birinchilikni ololmasdik, — dedi Ra'no.

— Ishni uyushtirishni ham bilish kerak-da, — tilbiyronlik qildi Shoqayum.

— Umuman, hammangiz ham zo'rsiz! Barakalal — Nasiba opa shartta gapni o'zgartirdi. — Xo'sh... uyga nechanchi mashq berilgan edi?

— 184!! — xor bo'lib javob berishdi bolalar.

— Yaxshi. Bo'lmasa hamma daftarini ochib, partaga qo'yisin. Men tekshirib chiqaman.

Nasiba opa bir chekkadan bolalarning daftarini ko'zdan kechira boshladi. Mana bizning qatorga o'tdi. Qattiqroq nafas olgani qo'rqib bukchayib oldim. O'qituvchimiz yaqinlashgani sari yuragim qattiqroq urardi. Daftaramni ochib qo'yanman, oppoq sahifa.

— Yaxshi, juda yaxshi. Faqat juda unaqa mayda yozma. Yirikroq yoz. — Shoqayumga gapirdi Nasiba opa, — aslida dastxating chiroyli, ozoda tutasan dastarni.

Men boshimni ko'tarmasdan yuragimni hovuchlab o'tirardim. Xavf borgan sari ustimga bostirib kelardi.

— Ehtiyyot bo'lib yozish kerak, qayoqqa shoshasan. Qara, to'rtta satrda beshta dog', — kimgadir tanbeh berdi Nasiba opa.

Nihoyat, u bizning yonimizga keldi. Nodiraning daftarini tekshirdi, maqtadi, keyin menikiga qaradi.

— Aliqulov, uy ishing qani?

Men yerga kirib ketay deb bukchayib oldim.

— Aliqulov, nega uy ishini qilmay kelding?
Sendan so'rayapman?! Qachongacha davom etadi bu?!
Yo ataydan meni mensimasligingni ko'rsatish uchun
tayyoramay kelasanmi?

Men hech qachon bunchalik izza bo'l magandim.
Bahona to'qishga ham holim yo'q edi.

— Temir-tersak yig'ish bilan ovora bo'l gan,
kimdir luqma tashladi mening yonimni olmoqchi
bo'lib.

— Sendan so'ramayapman! — shart kesdi Nasiba
opa.

Meni judayam xijolat chekayotganimni sezdimi,
ensasi qotib gapni ortiq cho'zmadi.

— Bo'pti, kundaligingni ber, — dedi sovuqqina.

Men papkamni titkilab kundaligimni oldim. Oxirgi
betni ochdim-da, ushlab turaverdim.

— Opkel, — kundaligimga qo'l uzatdi.

— Qo'y may qo'ya qoling, Nasiba opa, — dedim
yolvorib.

Men yalinishni yomon ko'rardim. «1» qo'yadilar-
mi, «2» mi indamasdan turaverdim. Nasiba opa oda-
timni bilardi, shuning uchun hayron bo'lib menga
qaradi.

— Nega qo'ymas ekanman?

Kundaligimning oxirgi betini Nasiba opaga
ko'rsatdim. Unda uchta «5» baho bor edi. Ammo
maqsadim boshqa edi, butun sinfning oldida aytish
qiyin bo'ldi.

— «8» Mart bayrami oldidan oyimlarni bir suyun-
tirmoqchi edim, — deb ping'illadim.

Beshlarni ko'rib Nasiba opa ishonmagandek
so'radi.

— Aliqulov, nimadan olding bu beshlarni?

— Nimadan bo'lardi, ashuladan, fizkulturadan va
mehnat darsidan.

Bolalar chuvillashib o'rtaga tushishdi.

— Qo'y mang, Nasiba opa, bir marta qo'y may
qo'yaqoling.

— Hammasi besh bo'lsa, xol tushmasin.

— Axir hozirgina o'zingizdan maqtov eshitdi,
yana ta'bini xira qilasizmi?

— Bir marta gunehidan keching! — hatto
Shoqayum ham yonimni oldi.

— Jim! — Nasiba opa sinfni tinchitdi, keyin bir oz
o'ylanib qoldi, men uning og'zini poylardim.

— Bilib qo'y, Aliqulov, bunaqada choragingga «2»
chiqadi. Unda sinfda qolishing turgan gap, — dedi
Nasiba opa.

Men yolvorib, ko'zlariga boqdim.

— Qo'ymay qo'ya qoling. Nasiba opa. Keyingi gal
tayyorlab kelaman.

Shu yerda Nasiba opaga yana bir marta qoyil
qoldim. Gap «2» ni qo'yish-qo'ymasliklarida emas,
nima desam ekan, gap shart qo'ymasdan, yaxshilik
qilishni bilishda. Nasiba opa indamadi:

«Bundan buyon har doim uy ishini tayyorlab ke-
lishga so'z berasan, shu shart bilan qo'ymayman»
yoki «bilib qo'y, men seni «2» dan saqlab qolyapman,
shunga qarab ish tutasan» ga o'xhash gaplar qilma-
di. Churq etmadi. Faqat uzoq o'ylanib turdi-da:

— Bo'pti, onangga bayram sovg'asi qilmoqchi
ekansan kundalicingga bu galchalik qo'ymayman,
lekin o'zimning daftarchamga qo'yaman, — dedi.

Men bilan birga butun sinf quvonib ketdi.

Ammo Nasiba opa qoyil qildi. Yaxshilikni shunaqa
mardona qilish kerak-da. Minnat bilan yoki shart
qo'yib qilingan yaxshilik yaxshilikmi?

Hozir esimda yo'q, lekin bitta kitobda o'qigandim.
Biror narsaning ilinjida qilingan yaxshilikning
poradan farqi bo'lmas ekan.

BAYRAMDA KO'Z YOSHI

Menga qolsa kunda ziyofat, kunora to'y, haftada
bir bayram bo'lib tursa. Faqat, bu boqibeg'am o'yin-
kulgini juda ham yaxshi ko'rар ekan, deb o'ylamang.
Men unaqa ulfatlarni qizitadigan, bir gapirib o'n
kuladigan xushchaqchaq odamlardan emasman.
Menga ko'proq odamlar o'ynab-kulgani yoqadi, o'zim
bir chekkada o'tirvolib ularning shodiyonasini kuza-
tishni yaxshi ko'raman.

Bayramlarning shunisi zo'rki, hamma xursand,

odamlar begin kunlaridagi ro'zg'or tashvishidan, bema'ni tortishuvlardan, arzimagan narsalarning ketidan jonsarak bo'lib yugurib-yelishlardan xoli bo'lishadi. Hamma inoq, hamma totuv. Totuvlikka esa nima yetsin.

Men shu paytgacha shunday — bayram faqat shod-u xurramlikdan iborat deb o'ylardim. Ammo bu gal birinchi marta fikrim o'zgardi. Aksincha, aynan bayram kunlari ba'zi odamlarning yuraklaridagi g'am-alam, dard yallig'lanib turishini, sag'alga zirqirab og'rib ketishini bilmagan ekanman.

Nega shunday xulosaga kelding deb so'rarsiz balki? Keling, bo'lgan voqeani bir boshdan gapirib beray, xulosani o'zingiz chiqarib olarsiz.

Xotin-qizlarning bayrami bir kun oldin, 7-mart-dayoq boshlanib ketdi. Sinfimizdagi o'g'il bolalar pul yig'ib yigirma bitta sovg'a oldik. Hammasi kichik-kichik sovg'alar, baholi qudrat deyishadi-ku. Avvalo sinfimizdagi qizlarni, keyin sind rahbarimiz Nasiba opani va yana bizga dars beradigan uchta muallimani tabrikladik, sovg'alar tutqazdik.

7-mart kuni ertalabdan maktabimizda tantanavor, shodiyona kayfiyat hukm surardi. Qizlarning hammasi yuvinib-taranib, yasanib kelishgan. Bolalar ham o'ta sipo, o'ta xushmuomala. Birorta bola qo'pollik qilib birorta qizni xafa qilmadi.

Lekin menga eng yoqadigani shunaqa bayram oldi kunlarida darslarning unchalik tayini bo'lmaydi. O'qituvchilar qattiq so'ramaydi, «ikki»ni ham qo'ymaslikka harakat qilishadi.

Bugun ham shunday bo'ldi, ustiga-ustak oxirgi soat mehnat darsi edi, o'qituvchimiz uyda quti yasab kelarsizlar, deb javob berib yubordi.

Uyga qaytayotib kitob magaziniga kirdim. O'nbes so'mga gulning rasmi chizilgan otkritka sotib oldim. Uyga bordim-da, otkritkaga chiroqli qilib tabriknoma yozdim: «Oyijon! Sizni Xalqaro xotin-qizlar bayrami — 8-Mart bilan chin yurakdan tabriklaymiz. Sizga sihat-salomatlik, uzoq umr, baxt-saodat tilaymiz. O'g'llaringiz Soli va Sanjar». Shunchalik laqabimga o'rganib ketibmanki, Sanjarning o'rniga Bo'taloq deb yozvorishimga sal qoldi.

Otkritkani yaqqol ko'rinaradigan joyga — stolning ustiga qo'yib qo'ydim.

Birdan yengil tortib ketdim. Buyog'i ikki kun maza! O'qituvchilar uyga vazifa berishmadi. Bugun erta hech narsani o'yamasdan yallo qilib yurish mumkin. Programmani olib televizorda qanday ko'rsatuvlar borligini ko'zdan kechirdim. Yomon emas, tomosha qilsa arziyadigan bir-ikkita ko'rsatuvlar bor ekan. Xokkey, estrada konserti, miniatyuralar teatrining spektakli. Lekin hammasi kechqurun. Hozir allaqanday suhbat bor ekan. Suhbatini ekib qo'yсин.

Bu qanaqa xodimlar o'zi-a, bayramda va bayram-oldi kunlarida suhbat rejalashtirishadi. Nahotki shunaqa ko'rsatuvlarini birov ko'radi deb o'ylasalar. Men o'zimni kallavaram deb o'ylasam, mendan battarlar ham bor ekan. Yo'q, rost, odamga turib-turib nasha qilar ekan, axir qaysi miya bilan bayram kunga suhbat rejalashtirish mumkin?!

Ovgatlandim. Keyin pastga tushib pochta qutisidan bugungi gazetalarni olib chiqdim. Ko'p gazeta olmaymiz. Oyim xotin-qizlar jurnali «Saodat»ga yozilganlar. Soliga «G'uncha» keladi, men esa «Gulxan» sotib olib o'qiyman.

Xolodilnikdan bir shisha limonad oldim. Keyin divanga cho'zilib gazetxonlikni boshladim. Goh-goha limonaddan xo'plab qo'yaman. Qiyofamni bir ko'z oldingizga keltiring-al Yonboshimda yostiq, qo'limda gazeta, yonimda limonad — xuddi shahzoda deysiz!

Shunday qilib desangiz, podsholardek huzur qilib o'tirib sal mudrab qolibman. Bir mahal ko'chadan shovqin-suron, g'ala-g'ovur eshitilib, halovatimni buzdi. Erinib o'rnimdan turdim-da, balkonga chiqdim. Pastga qaradim. Podyezdimizning oldi mashinaga to'lib ketibdi: to'rtta «Jiguli», ikkita «Moskvich», bitta «Volga». Qiy-chuv. Bizning tepamizda, to'rtinchi qavatda artistlar yashashadi, o'shalarnikiga mehmonlar kelgandir bayramni nishonlagani. Hali vaqtli-ku, namuncha shu paytdan kelib olishmasa, deb o'yladim. Soatga qarasam, oltiga yaqinlashib qolibdi. Ura bog'chaga yugurdim. Ha, shoshilmasam oyim kelib qolishlari mumkin.

Solini olib zudlik bilan orqamga qaytdim. Podyezddan tepaga ko'tarilayotsam hamma xonadonda qiy-chuv, qah-qaha. Mehmonlar faqat artistlarnikiga kelishibdi, deb o'ylab yanglishibman, ikkinchi qavatdagi doktorlarnikiga ham kelgan ekan. O'zim ham hayron bo'lvdim, bitta odamnikiga shuncha mashina keladimi, deb.

Solini endi yechintirib uy kiyimlarini kiygazgan edim, eshikdan oyim kirib keldilar, ammo indamasdan ichkari uyg'a kirib ketdilar. Ko'rinishlaridan xafaroq ekanliklarini darrov payqadim. Nima uchundir keyingi paytlarda oyim bayramlarni yoqtirmaydigan bo'lib qolganlar. Men ukamni turtdim.

— Bor, Soli, mana buni oyimlarga opkirib ber. Bayram bilan tabriklaymiz sizni degin, — stol ustidagi otkritkani unga tutqazdim.

— Siz o'rgatmasangiz ham bilaman. Bog'chamizza aytishdi, — dedi Soli, — ertaga ertalab tabriklash kerak-da. Hali 8-Mart kelmadi-ku!

Ukamning mushtdek boshi bilan mahmadana-garchilik qilganiga o'laymi?!

— O'zingdan katta odam gapirganda aql o'rgatmasdan «xo'p bo'ladi» deb qilavergin, xumkalla. Bor tez!

— Unda ertalab ham tabriklaymizmi?

— Ertalab ham tabriklaysan, hech narsa qilmaydi!

— Bir marta tabriklash kerak-da, — Soli o'ziga yetguncha o'jar edi.

Ukamning g'alchaligi shu paytda yuragimga sig'madi. Jahlim chiqib ketdi.

— Yaxshilikcha borasanmi yo... — ko'zlarimni olaytirib, musht ko'rsatdim.

Soli pinagini buzmadi.

— Baribir urolmaysiz, uyda oyim borlar-ku!

— Unda bog'chadan olib kelayotganimda abjag'ingni chiqaraman.

Soli qovog'ini solib yerga tikildi. O'jarligi tutsa shunaqa bez bo'lib turaveradi. Kallasini kessangiz ham o'z bilganidan qaytmaydi. Kimga o'xshagan chiqdi bu, bilmayman.

Men boshqacha yo'l tutishga majbur bo'ldim.

Engashib ukamning yelkasidan quchdim, qulog‘iga sekin gapirdim.

— Menga qara, So, nazarimda oyim ishdan xafa bo‘lib qaytdilar. Judayam xafalar. Agar tabriklab chiqsang, suyunadilar. Oyim suyunib yursalar yaxshimi yo qovoqlarini solib, xafa bo‘lib yurganlari yaxshimi? Axir bugun bayram, hamma shod yurishi kerak.

Soli yana birpas turdi, keyin gaplarimning mag‘zini chaqdimi, otkritkani olib ichkari uyga kirib ketdi. Birpas turib oyim ikkalovlari chiqishdi. Men og‘zaki ham tabrikladim.

— Rahmat, otkritka uchun ham rahmat, — dedilar oyim menga, lekin hamon xomush edilar, — pichoq bilan piyoz olib kel.

Men aytgan narsalarini olib keldim. Oyim ovqatga unnab ketdilar. Uyda pashsha uchsa eshitilardi. Oyim indamasdan o‘z ishlarini qilardilar. Avzolarini ko‘rib men ham jim o‘tirardim. Soli parvoysi palak, rasm chizish bilan ovora edi. Oyimning ta’blari xiraligini u qayoqdan bilsin.

Yomon ko‘rganim shunaqa indamasdan gum bo‘lib o‘tirish. Odamning yuragi siqilib ketadi. Yonimizdagи, tepamizdagи qo‘snilarnikida esa o‘yinkulgi avjiga chiqa boshladi. Hali ashula aytishadi, hali dupur-dupur qilib raqsga tushishadi.

Oyim oshxonaga chiqib ketdilar. Men qog‘oz, qalam, chizg‘ich oldim-da, o‘tirib futbol jadvali tuza boshladim. Jadval tuzish juda dahmazali, lekin qiziq ish, o‘sim bilan o‘sim ovora bo‘lib qorong‘i tushib qolganini ham sezmabman. Turib chiroqni yoqdim.

— Qorong‘i tushib qoldi ham demaysan, So!

Soli indamadi.

— Mukka tushib olib, nimalarning rasmini chizyapsan? — so‘radim.

— Tipratikonning, — dedi.

Solining odati yaxshi. Bir rasm chizishga tushib ketsa, boshini ko‘tarmay, birovga og‘irligi tushmay o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib o‘tiraveradi.

Oshxonaga chiqdim, qarasam, qozon biqillab qaynab yotibdi, oyim yo‘qlar, gazni pasaytirib qaytib kirdim. Yana o‘tirib qaysi o‘yin qanday tugashi ust-

da bosh qotirdim. Allaqancha vaqt dan keyin «Paxtakor»ning mavsum davomida o'tkazadigan o'yinlarining hammasining hisobini taxminiy yozib chiqdim. O'yindan keyin solishtirib ko'raman, qanchalik to'g'ri topganimni. Natijalarini solishtirish qiziq bo'ladi.

Nihoyat, bu ham jonimga tegdi. Men yana oshxonaga chiqdim. Oyim haliyam yo'qlar, qozon esa bir me'yorda qaynab yotardi. Hayron bo'ldim. Oyimni qidirib ichkari uyga kirdim. Kirsam, chiroq o'chiq. Oyim bir burchakka tiqilib o'tiribdilar. Qulog'imga piqillab yig'layotganlari eshitildi. O'zimni yo'qotib qo'ydim. Oyimning yig'laganlarini juda kam ko'rghan edim-da. Lekin o'zimni eshitmaganga soldim.

— Oyi, ovqatingiz qattiq qaynab ketyapti, — dedim tetik bir ovozda.

Oyim birdan javob qaytarmadilar. Keyin xuddi malol kelgandek zo'rg'a:

— Pasaytirib qo'ya qol, — dedilar.

Chiqib ketdim. Menga ro'yxush bermaganlaridan zig'ircha ham xafa bo'lmadim, yuragimni boshqa narsa g'ash qildi. Katta uyga kirib televizorni qo'ydim.

— Hozir televizorda zo'r multfilm bo'ladi, So, kulaverib ichaging uziladi, tag'in chiqib ketib quruq qolib o'tirma, — dedim.

Ha, oyimning yig'layotganlarini ko'rmagani ma'qul. Bilaman uni, qo'rqib ketadi-da, oyimga qo'shilishib yig'laydi. Yig'laganda ham uyni boshiga ko'tarib, dodlab yig'laydi.

Yana oshxonaga chiqdim. Zum o'tmay qaytdim. Tavba, sira bir joyda qo'nim topolmayman. Shoqayumga o'xshab tipir-tipir bo'lib qoldim.

Oyimlarning oldilariga kirsam, boyagidan battar ho'ngrab yig'layaptilar.

— Oyi, Solini qorni ochgan mish, ovqat so'rayapti. Suzamizmi?

Oyim javob bermadilar. Birpas kutdim. Tepadan ashula sadolari kelardi:

Handalak bo'ylikkinam, yor.

Sen unda zor, men bunda zo...o...r!

— Choy qo'yib bera tur, ovqat hali pishmadi, — dedilar nihoyat oyim.

Men borib choy qo'ydim. Eshik tagiga qaytib qulqoq solsam, oyim hamon yig'layaptilar. O'ksib-o'ksib qalqib yig'layaptilar. Mening ham ko'nglim buzilib ketdi. Kim xafa qildi ekan oyimni?! Ishxonadagilarmikin? Agar kim ekanligini aniq bil-sam, dabdalasini chiqarardim. Lekin sababi boshqa bo'lishi kerak.

Hozir sababini surishtirib o'tirmay nimadir qilish kerak edi. Aksiga yurib shunaqa paytlarda sira miyam ishlamay qoladi. Qanday qilib oyimning jahllarini chiqarsam ekan deyman, biror bahona topolmayman. Alamlarini mendan olsalar qayg'ularini unutarmidilar?! Yana oshxonaga bordim. Birpas ikkilanib turdim. Keyin bir qarorga keldim. Bilaman, boplab adabimni beradilar, lekin boshqa iloji yo'q edi, dangal bitta piyolani oldim-da, kuchimning boricha yerga urdim. Piyola chil-chil sindi. Bir narsaning singanini eshitsalar oyim o'sha zahoti yugurib chiqguvchi edilar. Ajabo, bu gal chiqmadilar. O'zim borishga qaror qildim. Bor irodamni yig'ib, yuragimni ho-vuchlab oyim o'tirgan xonaga kirdim.

— Oyi, piyolani sindirib qo'ydim, — dedim.

Esimda, bir marta lagan sindirganimda oyim rosa do'pposlagan edilar. Bilaman, hozir ham xumordan chiqquncha savalaydilar. Menga shu kerak edi. Mayli, chidayman, og'risa ham chidayman. Mayli, qancha xohlasalar ursinlar, ishqilib menga chalg'ib yuraklari bo'shatib olsalar bo'ldi.

Ammo bu qanaqasi? Nahotki, oyim gapimni eshit-magan bo'lsalar?! Miq etmasdan o'tiribdilar.

— Oyi, anavi siz yaxshi ko'radigan paxtagulli piyolangizni sindirib qo'ydim, — balandroq ovozda qaytardim.

Oyim yana birpas jim turdilar. Keyin xuddi bir narsani sezgandek, menga g'alati qarab qo'ydilar, turib asta yelkamdan quchdilar-da, past ovozda yupatib gapirdilar:

— Mayli, sinsa sinar, kelgan balo-qazo o'shang ursin.

Oyim shiddat bilan vannaxonaga yo'l oldilar.

Beixtiyor orqalaridan bordim. Qarasam yuzlarini yuvyaptilar. Sal ko'nglim joyiga tushib, sekin katta uyga qaytdim, nomiga bo'lsa ham televizorga tikilib o'tirdim.

Birpas turib xonaga oyim kirdilar. Endi yig'lamayaptilar, ammo ko'zлari shishib ketgan, qip-qizil. Oyim g'alati iljayib yana men bilan Solining yelkasidan quchdilar. Achchiq fikrlarni haydayotgandek, boshlarini bir siltab, odatlari bo'yicha qattiq gapirdilar.

— Kelinglar, biz ham bayram qilamiz. Boshqalardan nimamiz kam ekan bizlarning? Biz ham o'shalardaqa baxtlimiz. Juda ham baxtlimiz.

Bayramni eshitib Soli qiyqirib sakray boshladi. Oyim har xil narsalar olib kelgan ekanlar, dasturxon bezashga kirishib ketdilar.

Shundan keyingina butunlay ko'nglim joyiga tushdi. Divanga yonboshlab buyruq qildim:

— So! Televizorning ovozini balandroq qilib qo'y!

Bo'lgan voqeа mana shu. Kitobiy ibora ishlatib aytadigan bo'lsam qissadan hissani o'zingiz chiqarib olavering.

SHOQAYUMNING ISYONI

Endi maktabga yetay deb qolganimda orgamdan kimdir bir urib qo'limdagи papkamni yerga tushirdi. Qaramasdan ham bildim, bu Shoqayumning qilig'i. Maktabdan qaytayotganda odamning ko'ngli chog' bo'ladi, har qanday hazilni ham ko'taradi. Ertalab esa bunaqa sovuq hazil sira yarashmas ekan. Men Shoqayum tarafga o'girilib boqmadim ham, indamadan papkamni oldim-da, yo'limga ketaverdim.

— Ha, Bo'taloq, uyquga to'ymadingmi, yo'lda ham mudrab ketyapsan?! — Shoqayumning kulgisi eshitildi.

Unga javob qaytargani ham og'rindim. Shoqayum yana xiralik qildi:

— Bo'taloq, to'g'risini ayt, nega Ra'no qachon qarasa seni yoningni olgani-olgan?

— Betamiz bo'lma! — dedim men.

Shoqayum qiyqirib kuldī.

— Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur, deydilar!

Shoqayum shunaqa, kattani kesib kichkina qilib qo‘yganga o‘xshaydi, maqollarga usta, askiyachilarga o‘xshab qiyqirib kulishni ham qoyil qiladi, menga yo‘l bo‘lsin unga teng kelishgal Meni hayron qoldiradigan joyi sho‘ttaki, Shoqayumning boshqalar bilan unchilik ishi yo‘q, faqat menga osilib olgan. Hech kun bermaydi.

Yaxshiyam mактабга yetib qoldig-u, Shoqayum kalaka qilishdan to‘xtadi. Maktabga kirishdan oldin u papkasidan bir parcha duxoba olib tuflisini yaraqlatib artdi. Uning tuflisi doim yaraqlab turardi, egniga ham gard yuqtirmasdi, doim saranjom-sarishta yurardi.

Birinchi dars ona tili bo‘ldi. Kecha yalinib-yolvorib Nodiradan uy vazifasini ko‘chirib olgandim, shuning uchun ko‘nglim to‘q edi. Ammo qoidani so‘rab qolsalar ahvolim voy.

Nasiba opa odati bo‘yicha eng avval uy vazifasini tekshira boshhladi. Men misol uchun daftarlarni tekshirmsandan bolalarning aftiga qarab kim bajargan, kim bajarmaganligini aytib bera olaman. Chunki o‘zimdan qiyos qilaman, bajargan kunim gerdayib o‘tiraman. Kutilmaganda Nodira biqinimga turtib pichirladi:

— Namuncha g‘ozga o‘xshab kekkaysan, sal odamga o‘xshab o‘tir.

Men Nodira nimaga shama qilayotganini tushunib iljaydim. Rostdan ham xuddi uy vazifasini o‘zim qoyil qilib ishlagandek burnimni qanqaytirib o‘tirgandim. Nodirani kuldirish uchun battar ko‘kragimni g‘oz qildim. Nodira qiling‘imni ko‘rib chidolmadi, bukchayvolib qiqir-qiqir kuldī.

Nasiba opa Shoqayumning oldida to‘xtadi.

— Uy vazifang qani, Shoqayum? — deb so‘radi.

— Kecha uyni mehmonlar bosishgan edi, vaqtim bo‘lmadi, — dedi Shoqayum beparvolik bilan.

— Chakki bo‘libdi, axir sen eng intizomli o‘quvchilardan eding-ku. Senga o‘xshagan a‘lochilar boshqalarga o‘rnak bo‘lishi kerak. Sen bo‘lsang...

— Endi bir galchalik shunaqa bo'lib qoldi, — hech narsani pisand qilmagandek tetik ovozda gapirdi Shoqayum. O'qituvchi bilan emas, xuddi o'rtog'i bilan gaplashayotgandek tutardi u o'zini.

— Afsus, — dedi Nasiba opa rostakamiga ran-jib, — kundalicingni ber.

Shoqayum buni kutmagan ekanmi, hayron bo'lib qoldi.

— Kundaligimni nima qilasiz? — deb so'radi.

— Bilasan-ku, nima qilishimni, baho qo'yaman.

— Ikkimi? — Shoqayumning ko'zлari ukkinikiga o'xshab dum-dumaloq bo'lib ketdi. Jahli chiqsa juda xunuk bo'lib ketar ekan.

— Bo'lmasa «besh» qo'yadilar deb o'yladingmi?

Shoqayum birdan jirillab ketdi.

— Nima endi, bir martagina, umrimda bir martagina uy vazifasini qilmay kelsam darrov «2» qo'yishmi?! — do'q urdi u.

Butun sinf jim bo'lib o'rtadagi tortishuvni kuzata boshladи. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida sodir bo'ladigan tortishuvlardan qiziqroq narsa yo'q edi bizlar uchun.

— To'g'risini aytsam kundalicingga dog'tushirishni men ham istamas edim. Ammo nachora, agar uy ishini bajarmaganing uchun bugun senga +2, qo'ymasam, ertaga yana boshqa o'quvchiga qo'ymasligim kerak, indinga yana boshqasiga. Unda nima bo'ladi?

— Men boshqa emasman-ku, men doim tayyorlab kelaman-ku, men...

— Nima, men, davom et!

— Men... men... — tutilib qoldi Shoqayum, a'lochiman deyolmadi.

— Nima, sening boshqalardan ortiq joying bormi? O'qituvchi uchun hamma teng, hamma barobar, — xotirjam gapirdi Nasiba opa, — ber kundalicingni.

— Kundaligim uyda qolgan, — deb to'ng'lladi Shoqayum.

— Senga nima bo'ldi, Shoqayum? — Nasiba opa ning ovozi jiddiyashdi. — Seni tanib bo'lmayapti.

Shoqayum bu gal indolmay qoldi. Ammo kundaligini bermadi, yerga tikilgancha o'tiraverdi.

— Seni kutyapman, Shoqayum. Axir, bitta o'zing-ni emas, butun sinfning vaqtini olyapsan, — Nasiba opa hamon asabga erk bermay o'zini ushlab turdi.

— E, faqat og'izda maqtanasizlar, hammaga teng qarash kerak deb, aslida-chi... aslida teskarisini qilasizlar, — zarda qildi Shoqayum.

— Tushunmadim, — dedi Nasiba opa sal taajjub bilan.

— Anavi kuni Tayloqning kundaligiga «ikki» qo'yamadingiz-ku! — chiyilladi alamzadalik bilan Shoqayum.

Nasiba opa birdan javob berolmadi. Jichcha fursat o'ylanib qoldi, keyin butun sinfga murojaat qilayot-gandek baland ovozda dedi:

— Shu gaping menga yoqmadi... Seni oljanob bola deb o'ylardim... Yanglishmasam Aliqulovga «ikki» qo'y mang deb iltimos qilganlar orasida sen ham bor eding. Lekin haqiqatning ko'ziga tik boqadigan bo'lsak, — Nasiba opa shoshmasdan, dona-dona qilib gapirardi, — sen haqsan. O'sha kuni Aliqulovning kundaligiga «2» qo'y may men xato qildim.

Shoqayum jim bo'lib qoldi. Anchadan keyin to'ng'illadi.

— Boya o'zingiz aytganingizdek, kundaligimga dog' tushmasin devdim-da.

— Shunchalik qo'rroqmisani?

Shoqayum xuddi eng qattiq haqorat eshitgandek, o'grayib Nasiba opaga qaradi.

— Nega endi qo'rroq bo'larkanman?!

— O'ziga zeb bergen odamlarning butun umri sha'nimga dog' tushib qolmasin, deb qaltiroqda o'tadi. Seni o'shanaqa odamlar toifasidan bo'lishingni aslo istamas edim. Xatosini mard odam bo'yniga oladi.

Shoqayum shartta papkasini ochdi-da, partaning ustiga kundaligini paq etib tashladi.

— Nimadan qo'rqaman, mana, menga desa o'nta «2» qo'y maysizmi?

Nasiba opa xo'rsindi.

— Eh, Shoqayum, o'qituchi uchun «2» o'rniga «5» qo'yish ming marotaba yoqimli ekanligini bilsang edi.

— E, bilmayman, bilishni istamayman ham, — alamzadalik bilan kuchandi Shoqayum.

Nasiba opa boshqalarning ham uy vaziflarini tek-shirib chiqdi-da, yangi mavzuni boshladi. Shu bilan o'rtadagi tortishuv tugadi, deb o'yadik. Ammo yanglishgan ekanmiz. Shoqayum o'lgudek ginachi, o'chakishadigan bola ekan. Ataylab dars bo'yи to'polon qilib o'tirdi. Avvalambor doskadan sinf ishini ko'chirishni istamadi, ruchkam uyda qolibdi, deb bahona qildi. Nasiba opa o'zinikini bergan edi, olmadi. «Men o'zimnikiga o'rganganman, boshqa ruchkadan yozolmayman, xatim xunuk bo'lib keta-di», deb qaysarlik qildi.

Hamma sinf ishini ko'chirish bilan ovora, u bo'lsa g'imir-g'imir qiladi, hali yonidagi shergini gapga soladi, hali orqasiga o'girilib bolalarni kuldirmoqchi bo'ladi, hali oldidagi partada o'tirgan qizning sochidan tortqilaydi.

Lekin sho'xlik, maynavozchilik ham evi bilan bo'lishi kerak ekan. Axir mashqning sharti og'ir, bosh qotirmasang kerak so'z topish, to'g'ri jumla tuzish qiyin.

Ra'noni bilasiz, shaddod qizlardan. Birinchi bo'lib o'sha tanbeh berdi Shoqayumga.

— O'v, tinch o'tir, xalaqit beryapsan!

— Senga nima qilyapman, qaqajon, o'tirib mashqingni ko'chiravermaysanmi? — o'shqirdi Shoqayum.

Butun sinf chuvillab Ra'noning yoniga tushdi.

— To'g'ri-da, jim o'tir!

— «Ikki» olganing alam qilsa, garmdori chayna.

— Lekin bizga xalaqit berma.

Nasiba opa xuddi shuni — bolalarning o'zi unga dakki berishini kutgan ekanmi, savol nazari bilan Shoqayumga qaradi.

U birdan sakrab o'rnidan turib ketdi.

— Bo'pti, bo'pti, namuncha bozor qilib yubormasalaring? Kim bilmas ekan senlarni, o'qituvchiga yaxshi ko'rinish uchun odamni talab majruh qilib qo'yishdan ham toymaysanlar.

— Gaping rost bo'lsa yo tinch o'tir, yoki sinfdan chiqib ket, — dedi Ra'no qat'iyat bilan.

U Shoqayumning aybnomasiga mutlaqo e'tibor bermadi. Shoqayum sezdiki, bu qiz bilan aytishib

o'tirganning foydasi yo'q. Innaykeyin ko'pchilikka qarshi chiqib bo'lmaydi.

— Xo'p, xo'p bo'ladi, — artistlarga o'xshab ikki bukilib ta'zim qildi Shoqayum, — olima qizga xalaqit bermayman.

U yolg'ondakam tirjayib joyiga o'tirdi. Yuzidan esa alamzadaligi, yuragida kek qolgan shundoqqina bilinib turardi. U yana jinnilik qilishga bir-ikki urinib ko'rди. Ammo hech kim e'tibor bermadi. Shundan keyin birdan shashtidan tushib jimb qoldi. Dars tugaguncha qoshlarini chimirib «miq» etmay o'tirdi.

Oxirgi dars ham tugab maktabdan chiqayotsam eshik tagida meni Shoqayum kutib turgan ekan.

— Birpas to'xta, Bo'taloq, gap bor, — dedi u.

Juda qornim ochib ketgandi, shuning uchun tezroq uyg'a bormoqchi edim. Lekin ko'nishga majbur bo'ldim, axir bechora bugun «2» olgan, ko'ngliga qaray qolay, dedim. Shoqayum menga o'xshab «2» olib o'rganmagan-da, juda ko'ngli cho'kib ketgan ko'rindi.

— Nima deysan? — deb so'radim.

— Hozir, jichcha sabr qill

Eshikning tagida birpas qaqqayib turdik, nimani kutyapti, o'zim ham bilmayman. Nihoyat, bolalar tar-qab ketishdi.

— Yur, — dedi Shoqayum.

U meni maktabning orqasiga boshlab o'tdi. Atrofga olazarak bo'lib qaradi. Hech kim yo'qligiga qanoat hosil qilgach, papkasini ochib yelim bilan bir varaq qog'oz oldi.

— Ushla, Bo'taloq, sening bo'ying novcharoq, shuni devorga yopishtirib qo'y.

— Nimadi bu? — hayron bo'ldim.

— Ishing bo'lmasin, yopishtiraver. Ertaga bolalar ko'rib bir kulishsin.

U qo'limga yelim bilan qog'ozni tutqazdi. Qog'ozga qarasam rasm chizilgan. Haqiqatda kulgili rasm, sochlari alvasti, ko'zları ola-kula ayol. Lekin tagidagi yozuvini ko'rib birdan seskanib ketdim. «Bu Nasiba opa» deb qo'yilgan edi rasmning tagiga.

— Qo'y, og'ayni, jinnilik qilma.

— Ha, qo'rqdingmi?! E, savlatingdan o'rgildim seni. Shu gavdangga chumchuqning yuragichalik yurak bor ekan-da.

— Gap unda emas.

— E, o'zingni oqlama. Yopishtirasanmi, yo'qmi, shuni ayt menga!

— Yopishtirmayman, — savol tikka qo'yilgan edi, tikka javob berdim.

— He, nomard! Bor-ey, ichburuq! Bo'pti, tuyog'ingni shiqillat bu yerdan, o'zim yopishtiraman.

— Nima keragi bor shuni, Shoqayum? — iliq gapirdim. — Bir marta «2» olganingga shunchalik-mi? Ertaga tayyorlab tuzatasan qo'yasan. Nasiba opa hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaydi.

— Menga aql o'rgatyapsanmi? E, avval o'zingni eplasang-chi, valakisalang! O'zing-ku yopishtirishga qo'rqeding, endi meni ham yo'lidan urmoqchimisan. Shunaqa qilib qo'rqaqligingni yashirmoqchisan-da. Tur, yo'qol!

Rasm yopishtirishni nimasi mardlik, nimasi qo'rqaqlik — men yaxshi tushunmadim.

— Qo'y, yopishtirma, — dedim yana.

— Yopishtiraman! — o'shqirdi Shoqayum.

Aytganini qilib devorga qog'ozni yopishtirdi. Devordagi Nasiba opaning rasmini ko'rib ichim achishib ketdi. To'g'ri, menga hammadan ko'p «2» qo'yadilar, lekin bu «2»larni qilmishimga yarasha olardim. Shoqayum ham halol oldi. Shunday ekan, Nasiba opadek o'qituvchini haqorat qilish insofdan emas. Miyamdan shu fikrlar kechayotgan bo'lsa ham o'zim juda xotirjam edim. Rasmni ko'chirib oldim-da, shoshmasdan burda-burda qilib yirtdim.

Shoqayum avvaliga qotib qoldi. Keyin ko'zlar olayib, kosasidan chiqib ketay dedi.

— Iye, nima qilib qo'yding, eshakmiya! Hali menga qarshi chiqdingmi? Adoi tamom bo'lking-ku unda!! — u papkasini yerga qo'ydi. — Abjag'ing chiqidil! Shunday do'pposlaymanki, bir umrga shol bo'lib qolasan. Burning bilan yer qazittiraman, tuproq yalattiraman!!! Oyoqlarimni o'pib kechirim so'raysan, ko'ppak!

Men uning po'pisalaridan cho'chimadim. •Nima

qilasan bekorga chiraniб», degandek ko'ziga boqib turaverdim.

Birdan u menga otildi, yuz-ko'zim aralash tasira-tusur tushirib ketdi. Qo'lim bilan yuzimni to'sdim.

— Qo'ysang-chi, ey! — dedim.

U to'xtamadi.

— Qo'ysang-chi, — dedim yana boshimni qo'llarim bilan bekitib. U to'xtamadi. Uni to'xtatish kerak edi, chunki mushti kichkinagina bo'lsa ham toshdek, tekkan joyini zirqiratib og'ritardi. Jag'iga bir tushirgan edim, yerga chalpak bo'lib yiqildi. Ancha paytgacha qimir etmadi. Men o'lib qolgan bo'lsa-ya, deb qo'rqiб ketdim, qaltiroq va gunohkrona ovozda asta yolvordim:

— Qo'ysang-chi, devdim-u, og'ayni. Qo'ya qolsang nima qilardi? Meni maqsadim yaxshilik edi. Ko'zing-ni och.

Shoqayum sekin ko'zini ochdi. Keyin qo'li bilan yuz-ko'zini, burnini ushlab ko'rdi. Burni qonaganini ko'rib sevindim. Shoqayum esa achindi, yuzidan biliindi, juda achindi. Ammo burni qonagan bo'lganida ko'rardingiz tomoshani, butun shaharni boshiga ko'tarib dod-voy qilardi. Shunaqa qilganini bir marotaba ko'rgan edim-da.

Shoqayum turib o'tirdi. Doim chaqnab turadigan ko'zlarini hozir birdan baliqnikiga o'xshab jonsiz, sovuq bo'lib qolgandi. U ko'zlarini suzib menga qaradi, o'lim to'shagida yotgan odamdek majolsiz ovozda gapirdi:

— Yaxshi, juda yaxshi! O'zingga o'zing qilding, Bo'taloq! O'zingni boshingni o'zing yeydigan bo'lding. Direktorga aytib mакtabdan haydattiraman. Shu bugunoq, hoziroq borib direktorga aytaman. Direktor nima, melisaga xabar qilib qamatiraman. Umringni qamoqda chirittiraman. Ha, hammasini aytaman.

Hayron bo'ldim.

— Nimani aytasan?!

Shoqayum qora qilmishini eslab birpas dovdirab goldi.

— Hammasini! — dedi qichqirib, keyin sakrab o'rnidan turdi, kiyim-boshini qoqib yana chiyilladi,

— «ikki»chi, po'stak kalla, endi daftarimni

ko'chirishga berib bo'pman. Bir marta so'rab ko'rgin-chi, yana! E, ko'chirmakash!

Men indamadim. To'g'ri-da, o'chakishib nima qilaman.

Shoqayum alamzada ovozda chinqirdi:

— Endi berib bo'pman!

Ko'nglim joyiga tushdi, haytovur soppa-sog' ekan, suzilib o'tirishini ko'rib hushidan ketib qoldimi yoki ichidan biror tomiri uzilib ketdimi deb cho'chigan edim.

— Bermasang bermassan, — dedim beparvo ohangda, — sendan boshqa a'luchi qurib ketganmi? Birorta saxiyrog'i topilib qolar!

Shoqayum yana bir narsa deb meni haqorat qilmochchi bo'lди, lekin gap topolmay:

— Shoshmay tur, qo'lga tushasan hali, — deb musht ko'rsatdi, — qilmishingga ming-ming pushaymon bo'lasan, lakalov!

Men umrimda chiranchiqlik qilmaganman, shuning uchun iljayib qo'ya qoldim. Ammo gapni topadi, lakalovi nimasi?

Yo'limiz bir bo'lsa ham ikkalamiz ikki yoqqa qarab ketdik.

•NAFOSAT AHLLARI• MEHMONIMIZ

Zing'illab bir hafta o'tib ketdi. Shanba kuni maktabga borsam hammaning og'zida duv-duv gap: maktabimizga yozuvchilar, shoirlar kelisharmish, uchrashuv bo'larmish. Juda zo'r, kelishsin. Yo'q, yozuvchilarни ko'raman, deb o'lib qolayotganim yo'q, ularga zormanda emasman. Lekin shunaqa marosimlar bo'lib turgani yaxshi. Harholda o'qishdan chalg'iysan-da. Bo'lmasa, kunda bir paytda borib, bir paytda qaytaverib zerikib ketadi odam. O'zi eng yomoni bir tarzda o'tadigan bir xil kunlar.

Ikkinchi dars endi boshlangan edi. Sinf eshigi ochilib, ilmiy mudir sinfga kallasini suqdi. O'qituvchimiz Akbar akani imlab chaqirdi. Butun sinfning ko'zi ilmiy mudirda edi.

— Qani, chalg'imasdani masalani ishlayveringlar,— dedi Akbar aka, keyin ilmiy mudirga yaqinlashdi.

Ular shivirlab nimalarnidir gaplashishdi. Keyin Akbar aka o'zlarining joylariga qaytdilar.

— Stol tashish uchun ikki kishi kerak ekan. Kim boradi?

Qiy-chuv bo'lib ketdi. Butun sinf qo'lini ko'tardi, ba'zilar o'rnidan turib ketgan, kim-kimdan qattiqroq baqirish o'ynagandek:

— Men boraman, men boraman! — deb uvvos ko'tarishdi.

Akbar aka arang sinfni tinchitdi:

— Jim! Qizlar kerak emas, faqat ikkita o'g'il bola bo'lsa kifoya.

Yana qiy-chuv ko'tarildi.

Men boshqalarga o'xshab qo'limni ham ko'tarmadim, baqirmadim ham. Shoshmasdan o'rnimdan turdim-da, bitta-bitta bosib eshik tomon yuraverdim. To'g'ri-da, yuk tashishda mendan o'tadigani yo'q, innaykeyin, o'zim ham o'rganib qolganman, og'ir jismoniy ish bo'lsa nuqul meni ro'para qilishadi.

— Bo'pti, bittasiga Bo'taloq, ikkinchisiga... ikkinchisiga Rustam bora qolsin, — dedi Akbar aka.

Har yer-har yerda norozi ovozlar eshitildi:

— Topib olganlaring Bo'taloq!

— Maza-maza Bo'taloqqa maza! Masala yechishdan qutuldi.

— Rost-da, yuk tashishga kelganda uning oldiga tushadigan bormi?! — kimdir yonimni oldi.

Chiqib ketayotib iljayib bolalarga qarab qo'ydim.

— Ho, anavini suyunishini, — dedi Nodira.

Lekin to'g'ri aytdi, o'zimda yo'q xursand edim. Miyani achitib masala yechish qayoqda-yu, yallo qilib yuk tashish qayoqda!

Boshqa sinflardan ham chaqirishgan ekan, hammasi bo'lib o'ntacha bola to'plandi. Maktabda bor hamma stulni zalga yig'dik. Ko'pi omborga taxlab qo'yilgan ekan, lekin u ham yetmadi, o'qituvchilar xonasidan, botanika, jug'rofiya xonalaridan — xuldas, hamma joydan yig'ib kelib zalni to'ldirdik.

Keyin sahnani bezatdik. To'rtta stolni birlashtirib ustiga qizil mato yopdik. Stolning yonida o'ntacha stul — bu keladigan shoirlar va maktab rahbarlariga! Keyin so'zga chiquvchilar uchun min-

bar tayyorladik. Minbar shundoqqina sahnaning yonida, parda orqasida chang bosib yotgan ekan. To'rt kishi sudrab chiqdik, changlarini artib, chin-nidek qilib qo'yidik.

Ammo gulni olib chiqishda yomon qiyaldik. Aslida bu gul bo'lib gul emas, daraxt bo'lib daraxt emas; bo'yi mendek keladi, shoxlari har qayoqqa tar-vaqaylab ketgan, tagidagi tuvagi tandirdek. Bitta odam o'lsa ham ko'tarolmaydi. Ikkita odam ko'tarsa har qayoqqa og'ib, ag'darilib tushay deydi. Ikkitadan ortiq odam ko'taraman desa qo'l ushlashga joy qol-maydi. Shunaqa dahmaza narsa. Tag'in zalning nari-gi burchagidan ko'tarib kelish kerak. Yo'q, oxiri uni ham amalladik. O'ninchi sinfda o'qiydigan bola bor, juda abjir, o'zi sportchi. Men bilan o'sha ikkalamiz ko'tardik. Men abjir emasman, qaytanga teskarisi — beso'naqay, qovushmagansan deydi hamma. Ammo narsa ko'tarishga kelganda ancha durustman, qo'pol-ligim ham bilinmay ketdi.

Ikkinci dars tugab uchinchisiga ham qo'ng'iroq chalindi. Maza, bu darsdan ham qutulib qoldim, chunki hali ishni tugatmagan edik. Endi zalni bezash, sahnaning tepasiga alvon osishimiz kerak edi. Narvon lozim bo'lib qoldi. Men narvonni olib kelish uchun yana omborga yugurdim. Yonimga bitta bola qo'shib berishayotgan edi, «kerak emas, o'zim olib kelaman», dedim. To'g'ri-da, bitta narvonga ham iksi kishi ovora bo'ladimi. Lekin chakki qilibman. Omborga borib narvonni ko'tarib boqsam zil-zambil ekan. Biroq nachora, endi bir amallab yolg'iz o'zim oborishim kerak.

Inqillab-sinqillab narvonni ko'tarib ketayotuvdim, koridorda qarshimdan ilmiy mudir chiqib qoldi, u to'rtta bolani boshlab ketayotgan edi. To'rtovi ham ozoda kiyangan, oq ko'ylak, qora shimda. Ularning orasida Shoqayum ham bor. U menga: «E, sho'ring qursin, tashkachi», degandek achinib va kamsitgan-namo nazar tashladi. Anavi kungi mojarodan keyin Shoqayum men bilan gaplashmay qo'ygan. Men kek saqlashni yomon ko'ruman, ertasigayoq salom berdim, ammo u alik olmadi. Shundan keyin yalimanmi deb men ham salomlashmay qo'ydim.

— Yordamlashib yuboraylikmi? — ilmiy mudir ko'nglimni ko'tarish uchun so'radi.

— Rahmat, buyog'i ikki qadam qoldi, — dedim.

— Yasha, polvon! Mehnat odamni chiniqtiradi, — dedi u.

O'zicha meni maqtamoqchi bo'ldi. Quruqlanadiganlarni yomon ko'raman-u, lekin mayli, indamadim. Ilmiy mudir bolalarni o'z xonasiga olib kirib ketdi. Bilaman, repetitsiya qilishadi, nutq yozishadi-da, to'rttovi ham hali so'zga chiqadi. Keladigan shoirlarni tabriklashadi. Ilmiy mudir ularga qanday qilib qiroatiga olib o'qishni o'rgatadi, oddiy gapirib bo'lmaydi, albatta artistona va balandparvoz chiqishi kerak nutqlar.

Sahnaning tepasiga alvonni ham osib bo'ldik, unga: «Xush kelibsiz, aziz mehmonlar», degan shior yozilgandi. Zalni ham bezab, mehmonlar kelishiga hamma narsani taxt qilib qo'ydik. Bunday qarasam, ancha ish qilib qo'yibmiz, tag'in binoyidek chiroyli chiqibdi. Ko'nglim ko'tarildi, harholda mening ham hissam qo'shilgan edi-da!

Oxirida direktor ishlagan bolalarning hammasini yig'ib rahmat aytdi. Shundan keyin hammamiz sinf-sinfimizga tarqaldik. Lekin men darsga kirmadim, qarasam dars tugashiga o'n minut qolibdi, to'rtinchis soatga kirarman.

Direktorning ko'zini shamg'alat qilib sekin ko'chaga qochdim. Maktabning orqasiga o'tsam, biz bilan ishlagan o'ninchisinfidan ikkita bola ham darsga kirishmapti. Men sekin ularga yaqinlashdim.

— Ha, Bo'taloq, nega darsga kirmading? — so'radi bittasi.

Men iljaydim.

— Bo'taloq darsda nima qiladi, bu o'zi shundoq ham hamma narsani biladi, — hazillashdi ikkinchisi.

Men kulib yubordim. Boya men bilan gultuvak ko'tarishgani sigaretini ketma-ket tortdi-yu, qoldig'ini menga uzatdi.

— Chekasanmi?

Men yana iljayib, «yo'q» degandek bosh chayqadim.

— Nega chekmaysan? Mard bolalar chekadi buni. Yo sen hali ona suti og'zidan ketmagan go'dakmisan?

Meni gij-gijlatish uchun jo'rttaga gapivardi u.
Men mahmadonagarchilik qilmay iljayib tura-verdim.

Qo'lini qaytarganimdan u xafa bo'lindi, aksincha,
ma'qulladi.

— Ha, durust, kallang ishlarkan, Bo'taloq. Bu
narsaga o'rganmagan ma'qul. Bir o'rganganingdan
keyin umr bo'yi tashlolmay, bizga o'xshab kashanda
bo'lib qolasan, — maqtandi u.

Bilaman, hech qanaqa kashanda emas ular, faqat
oliftagarchilikka chekishadi. Ichlariga sira yutish-
maydi, hamma tutunni burunlaridan chiqarishadi.

Men bilan gultuvak ko'targan yana so'zamollik
qildi.

— Bo'taloq, sen basketbol o'ynashing kerak.
Bo'yingni qara, terakka o'xshaysan! Sendan zo'r bas-
ketbolchi chiqishi mumkin, hali yana o'sasan!

— Agar qabul qilishsa jon-jon deb yozillardim, —
suyunib ketganimni yashirmadim.

U o'zi matabning basketbol terma komandasida
o'ynar, eng mohir va epehil o'yinchilardan edi.

— Mayli, murabbiyimizga seni ko'rsataman, agar
mashqlarda astoydil harakat qilib, nimaga qodir
ekanligingni ko'rsata olsang komandaga qabul qilishi
mumkin.

— Harakat qilaman, — uyalinqirab yerga boqdim,
chunki katta gapirishni yomon ko'rardim.

Shu payt qo'ng'iroq jiringlab qolib gapimiz
bo'lindi.

Darsdan keyin butun matab zalga yig'ildi.
Shoirlar hali kelmagan, sahnada hech kim yo'q edi.
Zal xuddi uyasi buzilgan aridek g'uvillaydi.

Sinfda eng oxirgi partada o'tirib o'rganib qolgan
emasmanmi, qayerga borsam ham o'zimdan o'zim
oxirgi qatorni tanlayman.

Birdan, «kelishyapti, kelishyapti», degan shov-
shuv ko'tarildi. Bolalar ham qiziq-da, sal narsagayam
hovliqaverishadi. Kelishayotgan bo'lsa yaxshi, hozir
sahnaga chiqishadi, ko'rarsizlar!

Aytganimdek bo'ldi. Eng avval sahnaga direk-
torimiz, uning ketidan uchta mehmon, keyin yana
uch-to'rtta o'qituvchilar ko'tarilishdi. Ularning ora-

sida Nasiba opa ham bor edi. Xullas, sahnaga qo'ygan stullarimiz hammasi to'ldi. Biz qarsakni ayamay ularni kutib oldik.

Direktor o'rnidan turib zalda shovqin tinishini kutdi. Biz jim bo'ldik. Direktor aziz mehmonlarni bizga tanishtirdi. Ularning ikkitasi shoir, bittasi yozuvchi ekan. Uchovi ham bolalarga yozisharkan.

Men ikkala shoirni ham tanirdim. Yo'q, o'zlarini ko'rmanman-u, ammo she'rlarini o'qiganman. Yozuvchining ham ismi tanishroq, lekin qanday asarini o'qiganim aniq esimda yo'q.

Ba'zida qiziqroq kitob o'qib qolsang, yozuvchilarni juda boshqacha odam bo'lishsa kerak, deb o'ylaysan. Aslida ular ham o'zimiz qatori odam ekan.

Mehmonlarning eng keksasi taniqli bolalar shoiri edi. Qari bo'lsa ham xuddi yosh bolaga o'xshaydi, savlat degan narsa zig'ircha yo'q, ko'zlarini pirpiratib jilmayib o'tiribdi. Ikkinci shoir — yosh yigit edi. Oralarida eng uyatchangi shu ekan. Qizarib-bo'zarib ketgan, yerdan boshini ko'tarmaydi. Bizning nimamizdan uyaladi, hayronman. O'rta yoshlarga kirgani yozuvchi ekan. Bunisi ancha sipo, og'ir edi. Lekin uchalasi ham juda oddiy kiyinishgan, ko'rinishlaridan juda kamtarin va yuvosh odamlarga o'xshashadi. Qaytanga ularning oldida o'qituvchilar olifta kiyinishgan, savlat to'kib o'tirishardi.

Direktordan keyin tabrik uchun so'z 9-sinf o'quvchisi Komila Turobovaga berildi. U shahdam qadam tashlab minbarga chiqdi. Sahnada o'tirgan shoirlarga qarab gapira boshladi.

— Aziz va muhtaram mehmonlar, biz — baxtiyor va quvnoq yosh avlod — sizni, nafosat ahli bo'l mish sevikli adib va shoirlarni, butun maktab... — Komila tutilib bir zumga jim bo'lib qoldi.

Sahnadagilar ham, zaldagilar ham noqulay ahvolga tushib, tezroq Komilaning gapirishini kutardi. U esa qotib qolganicha baqrayib turaverdi. Yaxshi yod olmabdi. Birov tayyor matn yozib bergandan keyin suv qilib ichvormaydimi? Matnni birov yozib berganni qayoqdan bilasan, deysizmi? Hamma biladi, lekin o'zini bilmaganga solib o'tiraveradi. Bultur

Muqaddas opa ham Ra'noga yozib bergen edilar. Unda bitta kinorejissyor kelgandi. Lekin Ra'no qoyil qiluvdi.

Komila esa... mashhur mehmonlarning salobati bosib, sal o'zini yo'qotib qo'ydimi, jim turaverdi. Shu payt sahnada o'tirgan o'qituvchilardan bittasi sekin yo'taldi. Komila unga qaradi, o'qituvchining labini qimirlashidan nima demoqchi bo'lganini payqadi, darrrov o'zini o'nglab oldi. Gapini boshidan boshladi-yu, uyog'ini sharillatib ketdi.

Komiladan so'ng shoirlarga gal berishdi. Avval keksa shoir she'r o'qidi. O'zi hazilkashroq, qiziqchiroq ekan. She'rlari ham kulgili. Maza qilib eshitdik.

Yosh shoir ham she'r o'qidi. Uning ham she'rlari yomon emas-u, lekin ba'zan tushunish qiyin bo'lgan so'zlar uchrab qolarkan. Lekin ma'nisi yaxshi, odamga ta'sir qildi. Keksa shoirning she'rlariga o'xshab qofiyasi zo'r bo'lmasa ham o'ziga xos shirasi bor ekan.

Oxirida yozuvchiga so'z berildi. U boshidan o'tgan bir voqeani gapirib berdi va gapini nasihatga oborib taqadi.

Yozuvchidan keyin yana she'rxonlik boshlanib ketdi. Endi gal bolalarga berilgan edi. Birinchi bo'lib Shoqayum sahnaga chiqdi. U shu yerda, sahnada o'tirgan keksa shoirning she'rlarini o'qidi. Ammo bopladi. Biror yerida qittak ham tutilgani yo'q, ovozidan zal jaranglaydi. Qiroatini ham o'rniga qo'ydi. Ha, bunaqa narsalarni qiyvoradi Shoqayum. Men, misol uchun, to'rtta odamning oldiga chiqib biror narsa ijro qilib berolmayman. Shuning uchunmi Shoqayum ko'zimga juda zo'r qobiliyat sohibi bo'lib ko'rinish ketdi.

O'qib bo'lishi bilan zalda gulduros qarsaklar yangradi. Hatto shoirlarga ham hech kim bunchalik chalmagan edi. Men ham kuchimning boricha chaldim.

Ming qilsa ham Shoqayum bizning sinfdan edi-da! Uning obro'si sinfimizning obro'si.

Shoqayum sahnadan tushib men tomon kela boshladi. Hamma stullar band, bo'sh joy yo'q edi. Chapak esa hamon tinmasdi. Ayniqsa, men zo'r berardim. Kutilmaganda Shoqayum mening yonimda to'xtadi.

— Joy bormi, Bo'taloq? — deb so'radi ginasini unutib.

Sakrab turib joyimni unga bo'shatib berdim.

— O'tira qoll!

— O'zing-chi?

— O'tiraver, men turib turaman.

Shoqayum o'tirdi. Uning ikki yuzi qip-qizarib ketgan, qattiq hayajonlangan ekan, haliyam o'zini bosib ololmagan edi.

— Ammo qoyil qilding, — dedim sidqidildan.

— Bilasan-ku bizlarni, — yarmi hazil, yarmi chin kerildi Shoqayum, — qo'yib berishsa yana to'rttasini qatorlashtirib o'qib tashlardim.

U olib qochayotgani yo'q edi. Bir marta ona tili darsida yarim soat bitta poemani yoddan aytib bergan.

Yaxshiyam eng chetdan joy olgan ekanman. Shoqayumning yonida tik turaverdim.

Ikkinchchi bola she'r o'qiyotganida Shoqayum men tarafga sal burnini burgan bo'ldi.

— Bo'taloql!

Darrov engashib unga qulog'imni tutdim.

— Juda cho'llab ketdim, sen ham bir savob ish qilib limonad olib chiqmaysanmi?

— Xo'p, — dedim, endi joyimdan qo'zg'almoqchi edim. Shoqayum yengimdan ushlab to'xtatdi-da, qo'limga pul qistirdi.

— Haqini ol, yo juda boyvachcha bo'lib ketganiman?

Biz bir-birimizga qarab kulib yubordik.

ADAM QACHON KELADILAR?

Ba'zilar meni yalqov deb o'ylashlari mumkin. Shunday o'ylashga haqlari bor, chunki men uy vazifalarini yaxshi tayyorlamayman, goh-gohda «to'rtbesh» olib qolmasam boshqa paytlarda baholarim nuqul «uch». Shuning uchun yalqovsan, deb basharamga aytishsa ham xafa bo'lmayman. Sezgan bo'lsangiz kerak, men o'zim umuman xafagarchilikni, o'chakishishni yoqtirmayman.

Shunday qilib desangiz, hamma meni yalqov deb o'laydi. Lekin ishoning, aslida men u qadar yalqov emasman, vijdonom bor. Nasiba opani hurmat qilganim uchunoq, ayniqsa, oyimlarning yuzlarini yerga qaratmaslik uchunoq yaxshi o'qigim keladi. Ammo nima qilay, uy vazifasini tayyorlashga o'tirishim bilan oldin aytganimdek yo xayol har yoqqa olib qochadi, yo albatta biror kutilmagan hodisa ro'y berib ishning beliga tepadi.

Mana, kecha bo'lgan voqeа. Shanbada Soli bog'chasiga bormaydi, uyda yolg'iz o'zi qoladi. Shuning uchun oyim tayinlaganlaridek, mакtabдан chiqdim-u hech narsaga alahsimasdan uyga yugurdim.

Oyimning shanba, yakshanba kunlari, ayniqsa, ishlari ko'p bo'ladi. Nega desangiz oyimning ko'pchilik mijozlari shanba, yakshanbada bo'sh bo'lishadi. Bekorga hamma mijozlarim kazo-kazolar deb maqtanmaydilar oyim. Rostdan ham mijozlari mashhur aktrisalar, amaldorlarning xotinlari yoki o'zлari kiyim tikadigan atelyelar, katta magazinlarning direktorlari... Oyimlarning ishxonalarida obro'lari zo'r, eng mohir ustalardan birilar. Ayollar sochini turmaklash bo'yicha o'tkaziladigan musobaqa-tanlovlarda doim mukofot oladilar. Sartaroshxonaga borganimda ko'rganman rasmlarini — hurmat taxtasiga ilib qo'yishgan. Ha, oyim ishni qoyil qiladilar.

Yo'ldan do'konga kirib issiq non oldim. Uyga borsam Soli balkonda kubiklardan nimadir yasab o'tiridi.

— O'v, quruvchi, yig'ishtir kubiklaringni, ovqat yeymiz.

Soli meni ko'rib suyunib ketdi.

— Kel, birga o'ynaymiz.

— Qochsang-chi, sen bilan o'ynab o'tirishga vaqt bor ekanmi, darsim boshimdan oshib yotibdi-ku.

Men oyim ertalab pishirib ketgan ovqatni gazga qo'yib isittim. Soli bilan o'tirib ovqatlandik. Keyin chontagimdan maktabimiz bufetidan sotib olgan shokolad-konfet chiqarib ukamga uzatdim.

— Rahmat, — Soli jilmayib konfetni oldi.

Bilaman, shokolad-konfetni juda yaxshi ko'radi.
Qarasam o'rtaidan bo'lib yarmini bermoqchi.

— O'zing yeyaver, — dedim, — men mакtabda haqimni yeb kelgandim.

Soli quvonib ketganini yashirmay konfetni butunligicha og'ziga tiqdi. Ko'z ochib yumgunimcha chaynab yutib yubordi. Qani endi ovqatni ham qistat-tirmay shunaqa tez yesal! Oyimni xunob qilib baqir-tirmaguncha yemaydi.

— Menga qara, So, — men bitta yangi rasm daf-tarimni va rangli qalamlarimni olib ukamga tutqaz-dim. — Mana bularni olgin-da, balkonga chiqib rasm chizib o'tir. Men dars tayyorlayman, xalaqit berma.

Soli rasm daftar va qalamlarni olib balkonga chiqib ketdi. Men o'z xonamga kirib dars tayyorlash-ga o'tirdim. Qachongacha yuzim shuvit bo'lib yuradi. Butun sinfga yalqov emasligimni, miyam ishlashligi-ni bir ko'rsatib qo'yay. Eng asosiysi — Nasiba opa-ning meni odam qilishga sarf qilgan butun xatti-harakatini oyoqosti qilish uyat! Ha, yaxshi munosabatning qadriga yetish kerak.

Men ona tili kitobimni olib ochdim. Uyga berilgan mashqning shartini ikki marta o'qib chiqdim, albatta, hech baloga tushunmadim. Keyin ikkala qo'lim bilan boshimni changallab, fikrimni bir joyga to'plab uchinchi marta o'qiy boshladim.

Shu payt uyga Soli kirib kelganini payqadim, boshimni ko'tarmay po'pisa qildim.

— Xalaqit bermagin dedim-ku, senga!

Soli indamadi. Indamagani meni darrov hovurdan tushirdi.

— Gapira qol, nima bo'ldi? — deb so'radim muloyimlashib.

Erkalaganim Soliga teskari ta'sir qildi, uning lablari pirpirab uchdi, ko'zлari g'ilt-g'ilt o'ynab:

— Adam qachon keladilar? — dedi.

Ukamning tomdan tarasha tushgandek bergen bu savolidan yuragim «jiz» etib achishib, ukamga rah-mim kelib ketdi. Koshki edi adam qachon kelishlari menga ma'lum bo'lsa. Lekin ukamga «bilmayman» deb javob berolmayman-ku. Nima deyishni o'ylab bir-pas jim qoldim.

— Yaqinda kelib qoladilar... Hozir adamning juda ishlari ko'p. Nimaydi?

— Yolg'on, — dedi Soli, — ishlari qancha ko'p bo'lsa ham kechqurun bo'shaydilar-ku. Nega kechqurun uyga kelmaydilar?

Voy zumrasha-yeys, men uni hali go'dak deb yursam aqli binoiydek ko'p narsalarga yetadigan bo'lib qolibdi.

O'rnimdan turib peshonasiga og'ritmasdan bir chertdim.

— Eh, po'stkalla. Trolleybus haydaydiganlar yarim kechagacha ishlaydi. Innaykeyin trolleybuslarni qo'yadigan park uzoq, qanday qilib uyga keldilar. Shuning uchun ishxonada tunab qoladilar.

Soli gapiga ishonsammikin yoki yo'qmi degandek menga uzoq tikilib qoldi, keyin ishondi shekilli, boshqa muammoni ko'ndalang qildi menga.

— Nega bo'lmasa dam olish kunlari kelmaydilar?

Yomg'irdan qutulib qorga tutildim.

— Dam olish kunlarimi?! — nihoyatda beparvo bo'lishga harakat qildim. — Nima, dam olish kuni trolleybuslar yurmaydimi? Qaytangga odam ko'proq bo'ladi, qani, undan ko'ra yur, chizgan rasmingni ko'rsat.

Gapni boshqa yoqqa burib chalg'itmasam Soli odamni mot qilib qo'yishi hech gap emas. Balkonga chiqib rasm daftarni ochdim. Bitta ham rasm chizmabdi.

— Qani solgan surating?

Soli javob bermadi. Deraza raxiga yaqinlashib balkondan pastga engashdi.

— Haliyam ketishmabdi, — dedi.

— Ha, kimni ko'rib qolding? — deb men ham pastga qaradim.

Hovlida ukamning o'rtog'i qo'shnimiz Azizjon velosiped uchishni o'rganyapti ekan, yonida dadasi.

— Azizga dadasi velosiped olib beribdi, boyatdan beri maza qilib kataysa qilvotti, — dedi Soli ham xo'rligi kelib, ham havas bilan.

«E, gap buyoqda ekan-u», deb qo'ydim ichimda. Boyadan beri o'shalarni kuzatib turgan ekan. Yosh bola-da, o'rtog'ining velosipediga ko'zi o'ynabdi. Adamni qo'msagani ham shundan. U yosh bola ekan-u,

to‘g‘risini aytganda velosiped ko‘rsam mening ham havasim keladi. Qanday qilib ukamni o‘ksitmaslikni, ko‘nglini ko‘tarishni o‘ylay boshladim. Qani endi yonimda pulim bo‘lsa shartta borib unga ham velosiped olib bersam. Lekin bu xomxayol edi, tezroq biror narsa o‘ylab topish kerak.

— Buyoqqa yur, — vaqtдан yutish uchun men uni uyga boshlab kirdim. — Dangasa bo‘lib o‘smasdan ish qilishni o‘rgangin. Qani ol, anavi o‘yinchoqlaringni hammasini yig‘ishtirib qo‘y.

— Qayoqqa qo‘yaman? — co‘radi Soli.

— Hov anavi karton yashikka sol, — dedim.

Soli sochilib yotgan o‘yinchoqlarini yig‘ishtira boshladi. Men mehmonxonaga chiqdim, yolg‘iz qolib ko‘ngli cho‘kkan ukamni qanday qilib ovuntirsam ekan, deb o‘ylay boshladim. Miyamga har xil fikrlar kelar, lekin bittasi ham o‘zimga yoqmasdi.

Qancha urinmay, aqlimi qancha peshlamay boshimga biror arzirli fikr kelmadi. O‘scha paytda o‘zimdan ham ko‘nglim qolib ketdi: «Kalla deb qovoqni ko‘tarib yurgan ekanman», deb qo‘ydim o‘zimga-o‘zim. Xuddi shu lahzada miyamga zo‘r fikr keldi. Lekin dabdurustdan uni amalga oshirishga qo‘rqdim. To‘g‘ri qilyapmanmi, yo‘qmi, oldin puxta o‘ylab ko‘rishim kerak. Ha, yaxshilab o‘ylab ko‘rmasam bo‘lmaydi.

•Eng avval o‘zingni qo‘lga ol, ha, hovliqmasdan bamaylixotir fikr yurit, — dedim o‘zimga o‘zim, — birov ketingdan quvlayotgani yo‘q». Men shunday qildim. Obdan o‘ylab ko‘rdim va dangal qaror qabul qildim. Lekin rejamni amalga oshirishdan avval Solini pishitishim kerak. Ha, tayyorgarlik ko‘rmasdan bu qaltis qadamni bosib bo‘lmaydi.

Ukamning oldiga kirdim. Cho‘kka tushib olib o‘yinchoqlarini yig‘ishtirayotgan ekan. Ko‘rinishi juda xomush.

Yoniga tiz cho‘kib o‘yinchoqlarni yig‘ishtirishga yordamlashdim. Ish orasida sekin tayyorgarlikni boshladim.

— So, dunyoda eng yomon narsa nima?

Soli, albatta, mening bu savolimga javob berolmadidi. Men soddarоq qilib gapirishga urindim.

— Kattalarni aldash yomon-a?
— Ha, kattalarni aldash yomon, kichkinalarni
ham aldash yomon!
— O, yashavor! Aldash umuman yomon. Ayniqsa,
kattalarni aldash sirayam mumkin emas.

Soli mendan hech qachon bunaqa dono, nasihat-o-
muz gaplarni eshitmagani uchunmi, ajablanib
ko'zimga boqdi.

— Endi oshna, sir saqlash degan gap ham bor.
Irodasi zo'r... xo'p... haqiqiy odamlar sir saqlay
oladi, og'zi bo'shlar saqlolmaydi.

Soli bu gal hech narsaga tushunmagani basharasi-
dan shundoqqina bilinib turardi. Poyintar-soyintar
gaplarimga qanday tushunsin, bechora?!

Kichkina bolalarga biror narsani tushuntirib
berish juda qiyinligini o'shanda angladim. O'qituv-
chilarimizga balli-yey, qadrlariga yetmas ekanmiz!

— Xullas, sir saqlash ham fazilat. Sir saqlash
yolg'onga — kattalarni aldashga kirmaydi.

Mening bu aqli gaplarim Solini zeriktira boshladi.
Soli uyoqda tursin o'zimning ham ko'nglim ozib
ketdi. Falsafani qisqa qilib maqsadga ko'chdim.

— Bo'pti, kiyin! Hozir seni bir joyga olib boraman.
Ammo oyimga aytmaysan. Sir saqlaysan, sir saqlash
esa fazilat, yolg'onga kirmaydi. Tushundingmi?

— Qayoqqa olib borasiz? Kinogami? — toychoqday
dikir-dikir sakray boshiadi Soli.

— To'xta! Oldin gapni eshit. Oyimga aytmaysan.
Sir saqlaysan. Sir saqlash esa aldashga kirmaydi, —
o'zim ham yomon ezma bo'lib ketdim. Nima qilay,
ukam gapimga e'tibor bermay tezroq ko'chaga
qochishning payida edi.

— Qaysi kinoga boramiz? — yana gaplarimni mut-
laqo e'tiborsiz qoldirib sakrashda davom etdi Soli.

— Oldin ayt, — ovozimni balandlatdim, — sir
saqlaysanmi? Hech kimga churq etib og'iz
ochmaysanmi?

— Ochmayman, — jilmaydi Soli.

Voy, tentag-ey, men jon achitib o'rgatyapman-u,
tirjayishiga balo bormi? Yo'q, unga ishonib bo'lmay-
di. Lekin endi orqaga qaytib bo'lmas edi. Aytilgan
so'z otilgan o'q deydilar. Endi baribir borish kerak.

Meni bilasiz, olifta kiyinishni yomon ko'raman, ammo ukamni rosa yasantirdim. Unga o'zi kiyim yarashadi, do'mboqqina-da, menga o'xshagan tuyasi-fat emas. Yana bir marta qaytaraman — sinfdosh-larim laqabimni bilib «Bo'taloq» qo'yishgan.

Kiyinib bo'ldik-da, ertaklarda aytilishicha hayyo-hayt deb yo'lga tushdik.

Biz Navoiy ko'chasidagi «Markaziy telegraf» bekatiga bordik. Bu yerdan uch-to'rt xil trolleybus qatnaydi, bizga esa «8» trolleybus kerak edi. Bitta trolleybus kelib o'tib ketdi, ikkinchisi o'tib ketdi, biz bekatda turaverdik.

— Nega chiqmaysiz, aka, tiqilinch emas-ku, — deb so'radi Soli.

— Bular bizga kerak emas, — dedim, — sabr qilib turaver, keyin xursand bo'lasan!

Men kelayotgan trolleybusning eng oldin hay-dovchisiga qarardim. Shu marshrut bo'ylab adam trolleybus haydaydilar, ha, men adamni kutayotgan edim.

Soli kutaverish joniga tegib toqatsizlana boshladi, shunda ochig'ini aytishga to'g'ri keldi.

— Yana birpas chidagin, hozir adam kelib qoladilar.

Solida hech uyat degan narsa yo'q-da, butun ko'chani boshiga ko'tarib:

— Ura, adam keladilar, adamni ko'raman! — deb qichqira boshladi.

Yo'lovchilar hayron bo'lib bizga qarashardi. Xijolatdan yerga kirib ketay dedim... Agar shunaqa baqiradigan bo'lsang, hozir uyga qaytib ketasan, deb arang tinchitdim ukamni. Keyin yuzimga jiddiy tus berib nasihat qildim.

— Menga qara, So, agar adam ahvollaring qalay, deb so'rasalar, yaxshi degin, xo'pmi? Albatta kulib javob bergin.

— Nega kulay? — deb so'radi Soli.

— Xafaxon bo'lib yurganingni ko'rsalar adam ezi-ladilar, quvnoq bo'lsang adam xursand bo'ladilar. Adamni xursand bo'lib yurishlarini xohlaysanmi?

— Ha, xohlayman.

— Xohlasang, o'zingni quvnoq tutgin, — deb uqtirdim.

— Qanday qilib? — Solining ko'zidan hech narsaga tushunmayotgani bilinib turardi.

Juda g'alcha-da, ukam. Shunaqa narsalarni so'raydiki, odam nima deb javob berishini bilmay qoladi.

— Men qayoqdan bilay? G'ingshimagin, gina qil-magin, nolimagine, «qachon kelasiz?» deb boshlarini qotirmagin — o'shanda quvnoq bo'lasan. Nima desalar tirjayib javob bergin.

— Bo'pti, — dedi Soli, — endi tushundim.

Ammo vaqt o'taverdi, adamdan esa darak yo'q edi. Soli g'ingshishni boshladi. Hali suv ichaman deydi, hali hojatxonaga boraman deydi. Men, mayli, qayta qolaylik endi, yanagi safar adamni ko'rarmiz, degan o'yga bordim. Yana bitta trolleybusni kutaman, kelmasalar ketaman.

Omadli bolaman-da, xuddi o'sha oxirgi trolleybusni adam haydab keldilar. Biz trolleybusning oldingi eshididan yugurib chiqdik. Soli adamga o'zini otdi, bo'yinlaridan quchoqlab chirmashib oldi. Adam bizni ko'rib sal dovdirab qoldilar.

— Nima qilib yuribsanlar? — deb so'radilar.

— O'zimiz, — dedim noaniq qilib, ataydan ko'rishga kelganimizni aytmadim.

— Sen qalaysan, So?

— Yaxshi! — Soli xuddi o'rgatganimdek xush-chaqchaq ovozda javob berdi va shu zahoti tirjaydi.

— Qoyil! Sen-chi? — adam menga qaradilar.

— Joyida, — beparvo ko'rinishga harakat qildim. Solining suyunishini ko'rib ko'nglim buzilib ketdi, lekin yashirdim.

Adam biz bilan uzoq gaplashib turolmaydilar, ishdalar, shuning uchun:

— Vaqtlar ing bo'lsa trolleybusning oxirgi bekati-ga oborib aylantirib kelaman, — dedilar.

— Haydayvering, vaqtimiz ko'p, — deb Soli ikkalamizning nomimizdan javob berdim, atay shu niyatda kelganimizni aytmadim.

— Ishqilib, uyda bilishadimi, onangdan so'rab chiqqanmisanlar?

Men javob bermadim. Adam so'ramasdan chiqqanımızni tushundilar. Lekin shu paytda bizni quvib yuborishni yoki koyib, xushchaqchaq kayfiyatimizni buzgilar kelmadimi — indamadilar.

Biz hammamiz haydovchining tor bo'lmasiga kirdik. Adam yonlariga kichkina yog'och kursi qo'yib berdilar. Soli o'tirdi. Men uning orqasida tik turib ketdim.

Adam lekin trolleybusni juda zo'r haydaydilar. Zum o'tmay Amir Temur xiyoboni bekatiga yetdik. Adam tushib to'rtta muzqaymoq, ikki shisha pepsi-kola olib chiqdilar.

Solini taftayib o'tirishini ko'rsangiz — bir qo'lida muzqaymoq, ikkinchisida pepsi-kola. Muzqaymoq yeydi-da, keyin pepsi-koladan ho'plab qo'yadi. Allanimalar deb bijirlaydi, adamni bir sekund ham o'z hollariga qo'ymay, gapga soladi.

Qiziq. Nima uchun darsda o'tirganingda vaqt qotib qolgandek bir joyda turaveradi. Bunday paytlarda esa «g'ir» etib o'tib ketadi. Ko'z ochib-yumguncha yana «Markaziy telegraf» bekatiga qaytib kelibmiz. Endi xayrlashish kerak edi. Axir, adam xizmatdalar, hadeb yonlarida o'tiraverish noqulay.

— Mayli, ada, biz qoldik endi, uyga borishimiz kerak.

Adam menga g'alati qarab qo'ydilar, keyin yelkamga qoqib gapirdilar:

— O'g'lim, kelgанинглар жуда яхши бо'лди, sog'ingan edim. Ammo ikkinchi o'zboshimchalik qilmanglar, albatta oyingdan ruxsat olib kelinglar.

— Bugun kelganimizni ham aytaman, oyimlarni aldamaymiz, — dedim men, — ishda bo'lganlari uchun kelaverdik. Ertalab javob olib qolish esimga kelmabdi.

Og'zimdan bu so'zlarning qanday chiqib ketganini o'zim ham bilmay qoldim. Ammo Solini yig'lamoqdan beri bo'lganini, shuning uchun kelganimizni aytmadim.

— Ha, yasha, mana bu mard odamning gapi bo'ldi, — mammuniyat bilan jilmayib qo'ydilar adam, — kelganlaringni albatta ayt.

Adam bizni kuzatib yergacha tushdilar. Oldin mening qo'limni qisib xayrlashdilar.

— Onangga ko'maklash, ukangga qarab yur.
Og'zimni ochib gapiray desam, tomog'imga bir
narsa tiqilib turgandek edi.

Men, xo'p, degandek bosh silkidim.

Keyin adam Soliga o'girildilar.

— Xo'p, o'g'lim, to' polon qilmasdan yurgin.

Kutilmaganda Solining tantiqligi tutib, ovozining boricha ho'ngrab yig'lay boshladi, «ketmayman» deb adamga yopishib oldi. Birinchi marta bog'chaga olib ketishayotganida shunaqa jinnilik qilgan edi. Adam dovdirab qoldilar. Adam o'zi shunaqalar, hech qachon bizni urmaganlar ham, baqirmaganlar ham. Baqirishni umuman bilmasalar kerak. Soliga ham qat-tiq gapirolmadilar, yosh boladek ko'zlarini g'iltilla-tib: «Iye, bu qanaqasi bo'ldi, o'g'lim, qo'y, yig'lama», deb turaverdilar.

Men Solini yelkasidan mahkam quchoqlab adamlarga, «ketavering, o'zim ovutib olaman», dedim.

Shu paytda adamga rahmim kelib ketdi, ko'rinish-lari shu qadar ayanchli ediki. Adam zo'rg'a chiqdilar trolleybusga. Ko'p o'tmay trolleybus joyidan siljidi.

Soli adamga ergashib, hamon ovozining boricha baqirardi.

— Ada, men ham siz bilan boraman, meni ham olib keting!

— O'v jinni, nima, bormaysanmi?

Oldiniga Soli meni gapimga e'tibor bermadi, baqi-raverdi. Men yana qaytardim.

— Sendan so'rayapman, borasanmi, yo'qmi?

Soli tushunmagandek menga angraydi.

— Qayoqqa? — yig'i aralash so'radi.

— Oldin ovozingni o'chir, keyin aytaman.

Soli yig'idan to'xtadi, ammo piqillashda davom etardi.

— Ayt, qayoqqa boramiz?

— Endi oyimlarning ishxonalariga boramiz, — dedim. Bu qarorga ham oldindan o'ylamasdan, o'sha lahzada kelgan edim. Lekin ancha topqir ekanman, deb ichimda suyunib qo'ydim.

Soli ham o'ziga yetguncha mug'ambir,

yig'lamasang olib boraman deb shart qo'yishimni bilib darrov ko'z yoshini artdi.

— Boraman, — dedi iljayib.

— Bu boshqa masala.

Oyimlarning ishxonalari uzoq emas, O'rdada edi.

Sartaroshxonaga kirib borganimizni ko'rib oyim oldiniga biror narsa ro'y berdimi, deb qo'rqib ketdilari.

— Ha, tinchlikmi, nega keldinglar?!

— Solingiz zerikkan edi, olib keldim, — dedim xotirjamlik bilan, — bugun bog'chasi yo'q, uyda zerikdi.

Shundan keyin oyim sal o'zlarini bosib oldilar. Faqatgina oyim emas, birga ishlaydigan dugonalar ham bizni juda yaxshi kutib olishdi. Hali unisi, hali bunisi hol-ahvol so'raydi. «Juda shirin bolalar ekan», deb maqtashadi. Xullas, hammaning «diqqat markazi»da edik.

Sartaroshxonada odam ko'p, ustalardan tashqari mijozlar ham bor edi. Ular ham bizga qaraydi. Men qanday qililib tezroq qochishning payiga tushdim.

— Oyi, biz birrovga kirdik, ketishimiz kerak, hali darsimni qilganim yo'q, — dedim.

Oyim kursida o'tirgan ayloning boshiga bir nimalar surtdilar-da, «endi birpas qimirlamay o'tiring, men hozir kelaman», dedilar. Keyin bizni eshikkacha kuzatib chiqdilar.

— Ovqat olib beraymi yoki muzqaymoq yeysizlar-mi? — deb so'radilar.

— Qorin to'q, — dedim men, — kechagi moshkichirini isitib yeb kelyapmiz.

— Muzqaymoq, muzqaymoql — shovqin ko'tardi Soli. U shunaqa, bir kunda o'n kilo muzqaymoq bo'lsa ham yeyaveradi.

Sir oshkor bo'lib qolmaslik uchun men, hozirgina muzqaymoq yeding-ku, deb Solining yuziga sololmadim.

Oyim biz bilan muyulishgacha borib muzqaymog' olib berdilar. Men o'zimni muzqaymog'imni oyimga uzatdim.

— O'zingiz yeya qoling, oyi. Yegim kelmayapti.

Oyim hayron bo'lildilar, chunki men hech qachon muzqaymoqdan qaytmagan bolaman.



— Men hozirgina yegan edim, — dedim. Soliga oyimni aldamasligimni ko'rsatishim kerak edi-da. Axir mendan o'rnak oladi-da.

— Puling yo'q edi-ku. Qayerdan olding?

Men darrov javob berolmadim. Gapiray deyman, hech jur'at qilolmayman. Ammo gapirishim kerak. Hozir issig'ida aytmasam, keyin qiyin bo'ladi.

— Adamlar olib berdilar, — dedim.

Shunday dedim-u birdan yelkamdan tog' ag'darilish tushgandek yengil tortdim. Mayli, endi koyiydi larmi, uradilarmi, hammasiga chidayman.

Oyimlarning jahllari chiqsa oqarib ketadilar. Ammo ko'chadaligimiz uchunmi, biz esa serqatnov joyda turgan edik, o'zlarini bosib so'radilar:

— Nega bording? Kim ruxsat berdi?

Men indamasdan yerga qaradim. Nima deyman?

— Sendan so'rayapman? — ovozlarini balandlatdilar oyimlar, — nega o'zboshimchalik qilding?

— Solingiz... adam qanilar, deb so'rayvergan edi... majbur bo'ldim. O'zimni ham ko'rgim keluvdi. — Hamma aybni ukamga ag'dargim kelmadi.

Oyim birdan jim bo'lib qoldilar.

— Shuning uchun to'g'ri oldingizga keldik.

— Nima deyapsan o'zing? Adamni oldiga bordik deding-ku, hozir,

— Ha, adamning oldilariga bordik. Borganligimizni aytish uchun, yolg'onchi bo'lmaslik uchun, to'g'ri oldingizga keldik.

Oyimning odatlarini bilaman, sal narsaga tutaqib ketadilar. Lekin bu gal bunday bo'lmadi. Anchagacha jim bo'lib qoldilar. Keyin birdan yumshoq tortib, iliq va muloyim gapirdilar.

— Hamma ayb bizlarda... bizlar deb... jabrini senlar tortyapsizlar. Senlarga qiyin. Qani endi o'sha landovur adang...

Men oyimlarning og'izlaridan adamlar haqida yomon so'z chiqib, ketishidan qo'rqib shartta so'zlarini bo'ldim.

— Adam, oyingdan ruxsat olmasdan, ikkinchi kel manglar, deb urishdilar. Oyingni gaplariga kiringlar deb tayinladilar!

Oyim endi ma'yus tortib jim bo'lib qoldilar.

Aytyapman-ku, oyim bir daqiqaning o'zida o'n marta o'zgarishlari mumkin, jahllari ham tez chiqadi, mehrlari ham darrov jo'shib ketadi.

— To'g'ri aytibdi — oyim xo'rsinib qo'shib qo'ydirlar, — balki mendan ham o'tgandir... bilaman, tilim o'lqur yomon.

— Yo'q! Siz ham yaxshisiz, — dedim sidqidildan.

Oyim birdan bo'ynimdan quchib meni bag'rilariga boshdilar, boshimni siladilar.

— Senlarni shu ko'yga solib qo'ygan ekanmizki, biz ikkalamiz yomonmiz, adang ham, men ham, — dedilar oyim, — ammo endi yetar. Chek qo'yish kerak bunga. Xafa bo'lma, o'g'lim, hammasi yaxshi bo'lib ketadi.

Men boshimni ko'tarib, shu gapingiz rostmi, degandek oyimning ko'ziga boqdim. Quvonchim ichimga sig'masdi. Chunki oyimlarni bilaman, aytganlarini qilmay qo'ymaydilar.

Biroq to'ydan oldin nog'ora chalib, sevinchdan osmonga sakramadim. Nega desangiz kattalarning ishiga tushunish qiyin, bir qarasangiz apoq-chapoq, oralaridan qil o'tmaydi, bir qarasangiz hech narsadan hech narsa yo'q teskari bo'lib qolishadi. Shuning uchun sabr qilish kerak.

Harholda oyim umidvor qilib qo'ydilar-ku. Shuning o'zi ham katta gap. Bilaman adamning jilovi oyimning qo'lida. Chaqirsalar adam yugurib keldilar.

Biz Soli bilan uyga jo'nadik. Tavba, birorta ish qilganim yo'q-ku, uyga kelsam shunaqa charchabman, oyoqlarim shalvirab, boshim zirqirayapti. Oyimlarning tillari bilan aystsam, «asablarim qaqqashab og'rirdi».

Qani endi qo'limdan kelsa shu bugunoq adam bilan oyimni yarashtirib qo'yardim. Shunda Soli ham birovlarning adasiga havasi kelmay yayrab yashardi. Mening ham balki asablarim qaqqashmasdi, oyimni ham.

Zo'rg'a sudralib o'z xonamga kirdim. Qarasam, stolimda ona tili kitobim ochiq turibdi. Kitobni olib papkamga tiqdim. Uy ishim yana qilinmay qolib ketdi. Mana shunaqa.

O'zingiz ayting, shu ahvolda qanday qilib dars tayyorlab bo'ladi axir?! Yana meni yalqov deyishadi. Sababini chuqur o'rganmasdan turib birovni ishyoqmas yoki dangasa deb haqoratlash kerak emas. Yo noto'g'rimi?

KIM BO'LMOQCHISAN, ALIQULOV?

Bahor yaxshi-yu, lekin odamni juda o'yinqaroq qilib yuboradi. Tashqarida oftob charaqlab, g'ir-g'ir shabada esib tursa, derazadan mo'ralasang atrof ko'm-ko'k, butoqlarda qushlar chirillab sakrayotgan bo'lsa, shunday paytda qanday qilib uyda dimiqib o'tirib, dars tayyorlaysan?!

Maktabga ham oyog'im tortmay zo'rg'a bordim. Qani endi shunday kunda birorta stadionga borib kunbo'yi futbol o'ynasang. Sinfda o'tirib dars tinglashni eslasam yuragim bezillaydi. Buyoqda ona tilim yana xurjun, uyga berilgan mashqni qilmadim, qoidani ham yodlamadim. Negaligini o'zingiz bilasiz.

O'zi sezgan narsam bo'lmasdan qolmaydi, Nasiba ona yana «2» qo'ndirdi. Lekin judayam jahli chiqib ketdi.

— Nega uy ishini qilmasdan kelding?

Men indamadim. Nima deyman, Soli yig'lagani uchun adamlarning oldilariga olib borgan edim, deymanmi?

— Senga hech gap ta'sir qiladimi-a, Alikulov? — dedi Nasiba opa kuyunib.

Men hech qachon Nasiba opani bu ahvolda ko'rma-gan edim. Do'q urib gapirdi. Hayron bo'lib qoldim.

— Bo'pti, darsdan keyin menga uchrab ket, — dedi.

Beshinchchi soat fizkultura edi. Rosa futbol o'ynadik. O'yin bilan bo'lib Nasiba opaga uchrashim kerakligi butunlay esimdan chiqib ketibdi, sal qoldi uyga jo'nab qolishimga. Yaxshiyam Shoqayum esga soldi. Biz futbol o'ynaganda u doim hakamlik qilardi. O'yindan keyin:

— Qayoqqa ketyapsan, Bo'taloq. Nasiba opaga

uchrashishing kerak-ku, — dedi u, keyin piching aralash qo'shib qo'ydi, — do'stona suhbat bo'ladi.

Yarashib ketgan bo'lsak ham ginasini butunlay unutmabdi Shoqayum. «Sen Nasiba opaning yonini olganding, endi bugun o'zingni adabingni beradi», demoqchi edi u, ha, hali ham ozgina bor alami.

Men Shoqayumning gapiga uchib Nasiba opani yomonlamadim. Ha, odam vaqtida tilini tiygani ma'qul, og'izga erk bersang nimalarni vaysab tashlamaysan.

Vodoprovodning tagiga borib yuz-qo'limni yuvdim. Keyin basharamni qurishini kutib oftobda birpas turdim. Mana endi borish mumkin. Qarasam, hamma bolalar uy-uylariga tarqalishyapti. Ularga havasim keldi, bir ko'nglim o'shalarga qo'shilib ketvoray ham dedim. Kim biladi, agar Nasiba opadan boshqa o'qituvchi bo'lganida balki shunday qilarmidim.

Bir-bir qadam bosib mактабга qaytib kirdim. Yuqori sinflar oltinchi soatga kirib ketishgan, yo'laklar bo'm-bo'sh edi. O'qituvchilar xonasiga yetib to'xtadim. Keyin eshikni qiya ochib, ichkariga mo'raladim. Xonada Nasiba opa va yana bitta o'qituvchi o'tirishgan ekan. Nasiba opa meni ko'rib nimagadir suyunib ketgandek bo'ldi, o'rnidan turib:

— Yur, o'zimizning sinfga bora qolaylik. Xoliroq, bu yerda o'qituvchilar kirib-chiqaverib xalaqit berishadi, — dedi.

Menga ham o'zimizning sinf ma'qul edi. Hamma o'qituvchilarning o'rtasida qizarib o'tirish oson deysizmi?

O'zimizning sinfga bordik, bo'sh ekan. Nasiba opa sinfni o'chayotgandek odimlab, uyoqdan-buyoqqa yura boshladilar. Men o'rtada qaqqayib turaverdim.

— O'tir, nima qilib turibsan.

O'zimining partamga borib o'tirdim.

Nasiba opa kelib yonimdagи partaga cho'kdi. Gap boshlashga shoshilmasdi. Men ham qovog'imni solib, indarnay o'tiraverdim.

— Qorning ochdir, ko'p ushlab qolmayman, — dedi Nasiba opa uning gapini shundan boshlashini sira kutmagandim.

— Qornim to'q, boyta katta tanaffus vaqtida issiq ovqat yeb oluvdim... oshxonadan, — to'g'risini aytib qo'ya qoldim.

Zum o'tmay achindim, to'g'risini aytmasam bo'larkan, tezroq qo'yib yuborarmidi. Lekin, bilasiz, Nasiba opaga sira yolg'on ishlatolmasdim.

— Menga ayt-chi, Aliqulov, o'qishni bitirib kim bo'lmoqchisan?

Bu haqda sira o'ylab ko'rмаган еканман, нима дейшимни бilmay qoldim.

— Axir, birorta sevadigan kasbing bordir?

Yana xayolga botdim. Har xil fikrlar keldi kallam-ga.

— Bor-u, lekin hozir unaqa kasb yo'q-da, — dedim.

Endi Nasiba opa hayron bo'ldi.

— Qanday kasb ekan u?!

Men yerdan ko'zimni uzmay so'radim.

— Aytaveraymi, kulmaysizmi?

— Nega endi kular ekanman, — jiddiy gapirdi Nasiba opa, — menimcha kasbning yaxshi-yomoni yo'q. Mutaxassislarning yaxshi-yomoni bo'ladi, kasbning emas.

— Agar... agar qo'yib berishsa, hammol bo'lardim.

Nasiba opa kulmadi, birov boshiga gurzi bilan tushirgandek, birpas karaxt bo'lib qoldi. Men uni tili qaytadan kalimaga kelishini kutib o'tirmay, maqsadimni uyalibroq tushintirdim.

— Ha, bozorga borib tashkachilik qillardim. Hammaning yukini har qayoqqa oborib berardim. Menga shunaqa miyani ishlatmaydigan, bosh qotir-maydigan hunar kerak. Lekin hozir hammollar yo'q bo'lib ketgan-da. Hammayoq taksi.

Nasiba opa nihoyat aql-hushini yig'ib oldi.

— Taksi hayda bo'lmasa, shoferlik ham yaxshi hunar, — dedi u, — yanglishmasam, adang trolleybus haydaydilar-a? Shunday deganding shekilli?

Men «ha» deb bosh siltadim.

— Juda yaxshi, shofer bo'lsang otangning izidan borib, ota kasbini egallaysan.

Men indamadim. Hozir Nasiba opa: «Ammo qaysi

kasbni egallamoqchi bo'lsang ham, shofermi yo boshqa hunarmi, baribir o'qish kerak, yaxshi o'qish kerak», deydi. O'qituvchilarning o'gitlari yod bo'lib ketgan menga. Ammo Nasiba opa men o'ylagancha ish tutmadi. Kutilmaganda:

— Shoferlik kursiga kira qolmaysanmi, bo'lmasa? — degan taklif kiritdi.

Men hovliqib qoldim.

— Qani endi olishsa edi. Hali yoshsan deyishadi da.

— Bo'lmasa sabr qil, yoshing yetganda kirasan.

— Boshqa ilojim ham yo'q, — dedim bo'shashib, keyin yuragimdagini to'kib soldim, — o'zi maqsadim boshqa edi. Hammollik xomxayol. Bilaman, hozir hammollar yo'q. Omborlarda bor-u, lekin omborda ishlashni o'zimga ep ko'rmayman. Niyatim bir amallab sakkizni bitirib olib, mактабдан ketish. Mashinalarni tuzatishni o'rgatadigan hunar-texnika bilim yurtiga kirmoqchiman. Bora-bora boy ayt ganingizdek, odamlarga o'xshab, trolleybus haydashga o'tib ketaman.

— Juda yaxshi, hunar-texnika bilim yurtiga kiram man desang kim senga xalaqit beradi, — dedi Nasiba opa, keyin tashvishli ovozda davom etdi, — lekin shu ketishing bo'lsa sakkiz tugul, bu yil yettini bitirishing ham amrimahol. Boshqa fanlardan bir amallab «3» olarsan-u, lekin ona tilidan ahvoling chatoq.

Men o'tirgan joyimda ikki bukchayib ketdim.

— Mana, uchinchi chorak tugashiga bir hafta qoldi. Ona tilidan to'rtta «2», uchta «3» ing bor. Chorak bahoying nima bo'lishini o'zing ham bilayotgandirsan.

Nasiba opa, ba'zi o'qituvchilarga o'xshab gap boshlashdan oldin, kel bugun sen bilan ochiqchasiga, samimiy gaplashib olaylik, demadi. Buni u amalda ko'rsatdi. Haqiqatda juda ochiqchasiga gaplashardi men bilan. Do'q urmas, po'pisa qilmasdi, ayyorlik yoki lagabardorlikni-ku mutlaqo bilmassi, chinakamiga ochiq gaplashardi. Meni xafa qilib qo'yish dan qo'rqmay to'g'risini aytardi. Men shunaqa dangal va halol gapni yaxshi ko'raman. O'qituvchi ustalik qilib laqillatmoqchi bo'lsa yoki jazolayman, deb

qo'rqitsa tomirim tortishadi, qaytanga o'jarligim tutib ichimda, «osmon qo'lingda bo'lsa tashlavor», deb o'tiraveraman.

Faqat kaltabin o'qituvchilar bolalarni anoyi deb o'ylab avrash yoki qo'rqtish yo'li bilan bo'ysundirib, tarbiya bermoqchi bo'ladilar. Chuchvarani xom sanabdi o'shanaqa o'qituvchilar. Bolalar baloni biladi. Osmondan keladigan yoki o'ziga haddan tashqari ishonib ketgan o'qituvchilarni bolalar tan olmaydilar. Ming ko'pirib toshsin bir tiyin. Bolaga hurmat bilan qarasa, o'z tengqurlaridek hisoblab, samimiyl munosabatda bo'lsagina yuragiga yo'l topadi.

Nasiba opa shunaqa edi, u dono va oqil o'qituvchi va ayni paytda yosh bolaga o'xhash beg'ubor ham edi. O'laqolsa «aldagani bola yaxshi» degan bema'ni maqolga amal qilmasdi. Chunki bir kuni o'zi aytdi, ahmoqona maqol bu dedi. Bu dunyoda eng dahshatli narsa bolani aldash, dedi. Chunki bola kattalarga ishonadi, najot istab sanoqsiz savollar bilan murojaat etadi, shunday ekan yo'l boshida qayoqqa yurishni bilmay turgan yosh insonni aldash jinoyat, dedi.

Ana o'shanda, birinchi marta o'z his-tuyg'ularini jilovlay ololmay asabiy bir tusda kuchanib, qichqirib gapirdi. Ikkinci marta bugun darsda ko'rdim, jahli chiqib o'zini ushlab turolmaganini.

— Uchinchi chorakda «2» olsang, sinfda qolding degan gap. Chunki eng asosiy, hal qiluvchi chorak — shu uchinchi hisoblanadi. O'zing bilasan, oldingi chorakdag'i baholaring ham «2». Uchinchi bilan to'rtinchi chorakda «3» olsang, yilligingga bir amallab «3» chiqararman, deb o'ylovdim. Endi qo'limdan hech narsa kelmaydi. Chunki choragingga «2» chiqarishim aniq. Bordi-yu, to'rtinchi chorakda «3» olsang ham yilliging «2» bo'ladi. Unda seni sinfda qoldirishinga to'g'ri keladi. Eshityapsanmi?

Eshitmay garangmanmi? Bilib turibman. Nasiba opaning maqsadi meni suhbatga jalb qilish, gaplari menga qanday ta'sir qilayotganini bilish. Boya, kim bo'lishim haqida so'zlashganimizda, men juda ochilib ketgan edim. Gapni o'qishga burishlari bilan soqov bo'lib oldim. Ataydan emas, nima deyishimni bilmaganimdan.

— Eshityapsanmi? — qaytardi Nasiba opa.
— Eshityapman, — dedim shivirlab, o'zimning ovozimni o'zim zo'rg'a eshitdim.
— Inon, sinfda qolishingni men sira istamayman, — qasam ichayotgandek qizishib gapirdi Nasiba opa, — chunki... sen aslida yomon bola emassan. Taltayib ketmagan-u birovdan yaxshililingni aymaysan, urishqoq emassan. Qalbi toza, beozor, rahmdil odamsan. Sendan kelajakda haqiqiy, olijanob odam yetishib chiqishi mumkin. Miyang ham ishlaydi, ha, agar o'zing xohlasang miyang juda yaxshi ishlaydi. Faqat aybing — o'zingni qiynaging kelmaydi. O'tirib bir ishni oxiriga yetkazishga o'zingni majburlay olmaysan, rasmiy tilda aystsak irodang bo'sh. O'zingni yalqovlikka solib yurish yoqadi.

To'g'ri gapirardi Nasiba opa, hammasi to'g'ri. Maqtovi ham, tanqidi ham o'rinli. Kelajakda olijanob bo'lib yetishib chiqamanmi, yo'qmi bilmayman-u, lekin beozor va rahmdilligim aniq. Ha, miyam ham ishlaydi. O'zimni qiynagim kelmasligi, biror ishni oxiriga yetkazishga o'zimni majburlay olmasligim, irodam bo'shligini topganlariga esa qoyil qoldim.

Odamning qanaqaligini ajratishga usta ekan Nasiba opa. Men hamon miq etmay o'tirardim. Lekin ko'rinishimdan Nasiba opa gaplari menga qattiq ta'sir qilganini sezdimi yoki bo'lmasa, meni ortiq qiynagisi kelmadimi, ishqilib gapni yana boshqa yoqqa burdi.

— Uyingda ahvollar qalay?

Yelkamni qisdim:

— Joyida shekilli.

— Adang... haliyam qaytib kelganlari yo'qmi?

«Yo'q» degandek bosh chayqadim.

— Oyingning boshida shunday ham tashvish ko'p, juda bo'lmasa sen yaxshi o'qishing kerak edi-da, — Nasiba opa rosmana achinib gapirdi.

Qoshlarimni chimirdim, chunki mavzu yana o'zgarayotgan edi. Nasiba opa avzoyimdan payqadi o'qish haqida gaplashishga tobim yo'qligini.

— Aliqulov, bu pand-nasihat emas, senga ochig'ini aytyapman. Oying bilan bir necha marta suhbatlashdim, yuraklari ancha tor bo'lib qolibdi. Or-

tiqcha gap ko'tarolmaydilar. Birdan-bir suyanchiqlari sen, ming qilsa ham to'ng'ichlarisan. Hozircha uyda otang o'rniqa erkaksan. Sening ahvoling esa... Agar sinfda qoladigan bo'lsang onangga juda qattiq zarba bo'ladi.

Yana anchagacha ikkalamiz ham jim qoldik. Balki Nasiba opa bir narsa deyishimni kutayotgandir, men bo'lsam nima deyishimni bilmasdum. Tishimni tishimga qo'yib o'tirardim. Gaplariga tushundim, bo'ldi-da, odamni ezavergandan nima foyda. Birdan-bir niyatim tezroq shu xijolatpazlikdan qutulib ko'chaga otish edi.

— Hozir ketasan, — dedi Nasiba opa xuddi fikrimni ko'zimdan o'qib olgandek, — lekin senga yana bitta narsani aytib qo'ymoqchiman. Aytmoqchi emasdum, lekin modomiki gap ochilib ketgan ekan, aytaman. Qolaversa, sendan bekitadigan sirim yo'q.

Nasiba opa o'rnidan turib derazaga yaqinlashdi. Derazadan ko'chaga tikilgancha allaqanday xomush, siniq ovozda gapirdi:

— Kecha maktab pedsoveti bo'ldi, uchinchi chorak yakuniga bag'ishlangan. Har bir o'qituvchi o'z sinfi haqida hisobot berdi.

Bu gaplarning menga aloqasi bo'lmasa ham yuragimga g'ulg'ula tushdi. Qandaydir tushunib bo'lmaydigan xavotir bilan Nasiba opaning davom etishini kutdim.

— Bizning sinf, to'g'rirog'i, men birinchi o'rinni oldim... o'zlashtirishning pastligi bo'yicha...

Nasiba opa jim bo'lib qoldi. Mendan yuqdimi, ancha vaqtgacha miq etmay turaverdi.

— Ayb o'zimda. Ayb faqat o'zimda, — o'ziga-o'zi gapirdi Nasiba opa, — yosh o'qituvchiman, hali tajribam kam. Agar maktabdan quvib yuborishsa ham to'g'ri qilishadi.

Birdan Shoqayumning gapi esimga tushdi. Kecha o'qituvchilar majlisidan keyin Shoqayum ko'chada Nasiba opani uchratib qolibdi. Nasiba opa rosa yig'lagan ekanmi, ko'zlari qizarib, shishib ketgan ekan.

O'qituvchilar Nasiba opani o'rtaga turg'azib qo'yib izza qilishayotganini ko'z oldimga keltirdim.

Unga ich-ichimdan achindim. Birdan o'zimning ko'zimga o'zim jirkanch ko'rini ketdim.

Nasiba opa kelib to'g'rimga o'tirdi.

Yo'q, u meni urishmadi. «Sening dastingdan shunday bo'ldi, sinfni orqaga tortib o'zlashtirishni pasaytirayotgan sen», deb koyishini kutgandim, yo'q, indamadi. «Odam bo'lasanmi, yo'qmi?» deb dag'dag'a ham ko'tarmadi. Faqat xuddi sirdosh o'rtog'iga yuragidagi dard-u hasratini to'kib solgan-dek, «shunaqa gaplar», dedi. Bardosh berolmay ko'zimni olib qochdim. Yerga tikelganimcha bir oz o'tirdim. Keyin boshimni ko'tarib yana Nasiba opaga qaradim. Shu tobda o'qituvchiga tuzalaman, deb va'da bergim, juda ko'p iliq gaplar aytib, ko'nglini ko'targim keldi. Ammo shunaqa narsalarga yo'qman — quruq va'dabozlikka, qancha o'zimni zo'rلامай tilim aylanmaydi.

— Ketsam maylimi? — so'radim.

Nasiba opa ko'zlarimga mehribonlik bilan boqib turib, «mayli» degandek bosh silkidi.

Xuddi yelkamdan tog' bosib turgandek zo'rg'a turdim.

— Xayr, — dedim xirillagan ovozda.

— Xayr, — dedi Nasiba opa ham tushkun kayfiyatda.

Qadamimni sudrab bosib sinfdan chiqdim. Uyga ketar ekanman qo'llarimni musht qilib so'kinardim. To'g'risini aytsam, men chiranchiqlarni yomon ko'raman, kamdan-kam so'kinaman, bugun esa tilimga erk berdim — uyga yetguncha jag'im tinmadi.

Men o'zimni o'zim so'kardim.

ASTOYDIL YIG'LASANG...

Tavba, aqlli gaplar, pand-nasihat eshitsam, nuqul teskarisini qilgim keladi. Bo'lmasa o'jar odam emasman, lekin man etishlar, taqiqlashlarga duch kelsam, yana qaytaraman, nuqul teskarisini qilgim keladi-da.

Nega shunchalik yomon ko'raman nasihatni — o'zim ham bilmayman, donishmandlik qiladigan, gapni obqochadigan bolalarni ko'rsam tomirim tor-

tishadi. Nega bu haqda gapiryapsan deb hayron bo'layotgandirsiz. Sababi bor. Masala shundaki, mening ham miyamga uch-to'rtta hikmatli gaplar keldi, o'shalar bilan sizni tanishtirmoqchiman, faqat aql o'rgatishni boshlamoqchi deb o'ylamang. Men bu hikmatlarni to'qib chiqarmadim. Nasiba opa bilan suhbatlashib maktabdan qaytayotganimda paydo bo'ldi bu hikmatlar. Mana ular: ba'zida jahlning ham foydasi tegishi mumkin ekan odamga — amalga oshirishga jur'at etolmay yurgan ishingni bajarishga kuch berarkan. Jahl chiqqanda qo'rquv qochib mardroq bo'larkansan, boshqacharoq qilib aytsam, irodani mustahkamlashga yordam berarkan. Bular sinovdan o'tkazilgan gaplar.

Nega endi jahl haqida shunchalar ko'p gapirib qolding dersiz. Men landovurni deb Nasiba opa qanchalar pand yebdilar, izza bo'libdilar, azob chekibidilar — jahlim chiqqani xuddi shundan edi.

Men hamma narsaga chidashim mumkin, qancha kalaka qilishmasin, xo'rslashmasin, mensishmasin chidayman. Ammo meni deb birov jazo tortsa bunga chidab bo'lmas ekan, o'zimni qo'yishga joy topolmay qoldim.

O'sha kuni uyga qaytar ekanman juda ko'p narsalar ustida bosh qotirdim. Nasiba opaning gaplari miyamni parmalayotgandek sira tinchlik bermasdi. Nima qilsam ham uning oldida gunohimni yuvishim kerak. Nasiba opaga o'xshagan to'g'ri so'z va adolatli odam uchun qanday qilib bo'lmasin o'zimni dars tayyorlashga majburlashim kerak. Ha, endi darsga astoydil yopishaman. Astoydil yig'lasa so'qir ko'zdan yosh chiqar, degan gap bor. Men ham o'zimni aymayman. Oladigan «ikki»larim Nasiba opaga gap tekkazar ekan, endi o'lsam ham yomon baho olmayman, deb ichimda ont ichdim. Hech kim zo'rlagani yo'q, o'z ixtiyorimcha ahd qildim. Uni albatta amalga oshiraman.

Shu gaplarni pichirlab uyga kirib keldim. Qarasam, hamon tinchlana olmayapman, o'zidan-o'zi jahlim chiqib ketyapti. «Landovursan, hafsalasizsan, bir ishni oxiriga yetkazolmayman», derdi ichimda qandaydir ovoz. «Yo'q, landovur emasman, boshlagan

ishimni oxiriga yetkazaman, mana ko'rasan», qat'i-yat bilan e'tiroz bildirardi boshqa ovoz.

O'z xonamga kirdim-u ovqat ham yemay, dars tayyorlashga o'tirdim.

Ona tili kitobimni ochib uyga berilgan mashqni topdim. Mashqqa o'grayib tikildim. Shu topda nafaqat mashqni, butun boshli kitobni g'ajib yeb tashlashga tayyor edim. Qanday og'ir mashq bo'lmasin, ishlayman, qanday qiyin qoida bo'lmasin, yod olaman! Suv qilib ichib yuboraman. Ha, judayam jahlim chiqib ketgan edi.

Baland ovozda, xuddi birov bilan urishayotgandek mashqning shartini uch-to'rt marta o'qib chiqdim. Bunday o'zimga e'tibor bersam, yana o'sha eski kasalim qo'zg'abdi. Shang'llab mashqni o'qiyapman-ku, xayolim boshqa yodqa.

Nega shunaqa parishonxotirman? Yo'q, aslida men har xil xayollarga borib, arzimagan narsaga ham ich-ichidan kyunib yuradigan bolalardan emasman. Agar «ikki» baho olib qolsam ham o'sha zahoti unutaman, ta'sirchan bolalarga o'xshab xafa bo'lib, achinib yurmayman.

Ammo dars tayyorlashga o'tirishim bilan, o'zingiz bilasiz, xayolim shamolda uchgan kuz xazonidek har yoqqa to'zg'ib ketadi. Mana hozir ham lop etib yana adam esimga tushdi. Ishdan kelib Solini tizzalarida o'ynatib o'tirganlarini ko'z o'ngimga keltirdim. Keyin menga, «qani, kundaligingni ber-chi», deydi-lar. Men qo'rqa-pisa kundaligimni adamlarga tutqizaman. Adam kundalikni olib varaqlaydilar, «2», «3» larni ko'rib ranjigandek boshlarini sarak-sarak qiladilar. Ammo ovoz chiqarib urishmaydilar, chunki ovoz chiqarib urishsalar darrov oyim jo'r bo'ladilar. Oyim esa adamga o'xshagan yuvosh emaslar, koyishni bir boshlasalar yetti mahalla eshitadi. Shuning uchun adam past ovozda, lekin o'grayib meni «tarbiyalaydilar».

— Yaxshiroq o'qisang bo'lmaydimi, og'ayni?

Men yerga tikilib indamay turaveraman.

— Odam degan sal jonini achitib harakat qilishi kerak-da. O'yinga berilgandan nima foyda.

Men gap qaytarmayman, battarroq bukchayib ola-

man. Adam ko'ngillari bo'sh, rahmdil odamlar, darrov menga yuraklari achiydi, ovozlarini yanada pasaytirib meni ovutadilar.

— Mayli, buyog'iga sal pishiqroq bo'l, dars tayyorlashdan qochmasang tuzalib ketasan. Lekin ko'p kuyma, mening ham o'qishimning mazasi yo'qroq edi, — adam shoshib qo'shib qo'ydilar, — lekin sen menga o'xshashing kerak emas, mendan yaxshiroq o'qishing kerak. Tushundingmi?

Men minnatdorchilik bilan adamning ko'zlariga boqaman, «ha, tushundim», degandek bosh irg'ayman.

Keyin adam, Soli, men o'yinchoq qubbachalardan turli-tuman imoratlar quramiz. Adam menga o'xshab har xil o'yinlarni yaxshi ko'radilar, gohilari tongotar qilishga tayyor edilar. Faqat oyim urishib yotishga majbur qiladilar.

Oyim ba'zida, ayniqsa, bayram kunlari ko'z yoshi qilib oladilar. Ammo adam borliklarida sira yig'lamasdilar. To'g'ri, adam bilan gohida jiqillashib olishardi, lekin yig'lamasdilar, baqirib-chaqirib ichlarini bo'shatardilar. Adam ketib qolganlaridan keyin bo'lsa ochilib-sochilib, xursand bo'lib yurganlarini sira ko'rmadim, doim xomush, xafaqonlar. Gohida ich-ichimdan achinib ketaman oyimga. Shunaqa ekan urishib nima qilishadi, yarashib qo'yaqolishmaydimi? Unda hammaga ham maza bo'lardi, oyimga ham, Soliga ham, menga ham.

Oldinlari ham adam bir-ikki marta uydan ketib qolgandilar, lekin uzoq yo'q bo'lib ketmasdilar, uchto'rt kun deganda qaytib kelardilar. Bu gal nima uchundir qaytishlari cho'zilib ketdi. Baribir adam uyga qaytadilar. Soli bilan meni tashlab ketishlariga ishonmayman. Oyim ro'yxush bersalar, darrov qaytib keladilar.

Men irg'ib o'rnimdan turdim, bo'lmag'ur xayol-larni haydar es-hushimni yig'ib olishim kerak, aks holda hech qachon na dars tayyorlay olaman, na bir tayinli ish qila olaman. Qaysidir kitobda o'qigan maslahatni qilib oltmishgacha sanadim. Yordam berdi, ancha o'zimga keldim.

O'tirib yana kitobga yopishdim. O'qiyotgan har

bir jumlamning mag'zini chaqishga harakat qildim. Asta-sekin fikrimni to'plab olib, butun borlig'im bilan uy vazifasini qilishga sho'ng'ib ketdim.

Shu o'tirganimcha kechqurunga qadar boshimni ko'tarmadim. Uyga berilgan mashqni besh marta ko'chirib yozdim. Bitta xato bo'lsa ham yangi daftar olib boshqatdan ko'chiraman. Yangi daftar tutgandan keyin xato bo'lmagani ma'qul-da.

Bir mahal qaddimni rostlab, bunday soatga qarasam, yettidan oshib ketibdi. Sakrab o'rnimdan turdim-u bog'chaga yugurdim. Yaxshiyam vaqtida esimga keldi, agar yana bir soatcha o'tirsam tag'in Solining bitta o'zi qolib ketardi. Buyoqda oyimlar-ning ham ishdan qaytadigan paytlari bo'lib qolibdi, uyni supurib, polni ho'l latta bilan artib chiqishni unutibman-ku. Mayli, dars tayyorladim desam bir marta gunohimdan kecharlar.

Dars tayyorlaganimni bilsalar gunohimdan kechish uyoqda tursin, sevinib ketib maqtaydilar.

Halloslaganimcha bog'chaga yetib bordim. Panjaradan qarasam hovlidagi skameykada murabbiya opa o'tiribdi, atrofida o'n-o'n beshtacha bola, ichida Soli ham bor.

Sir boy bermaslik uchun bog'chaga shoshilmashdan kirib bordim. Odob bilan murabbiya opa bilan so'rashdim. Soli haqida surishtirdim, ovqatni hammasini yeydimi, vaqtida yotib uxlaydimi, bolalar bilan urishmaydimi? Javoblar qoniqarli edi, men tashakkur bildirib murabbiya opa bilan xayr-lashdim. Shunaqa surishtirib turgan yaxshi, bo'lmasa otasi yo'q, yetimcha deb unchalik e'tibor bermasliklari mumkin. Yo'q, bilaman, bog'chada hamma bolalarga teng qarashadi, bu boy, bu kambag'al, bu arzanda, bu tashlandiq, deb ajratishmaydi, lekin baribir g'amxo'rlik qilib qo'ysang ziyon qilmaydi.

Ko'chaga chiqishimiz bilan Solining boshiga hazil-lashib bir chertdim. Biror jiddiyroq gap aytmoqchi bo'lsam oldin shunaqa chertib qo'yishimni bilardi ukam.

— Nima? — deb menga qaradi.

— Xafa bo'lma, So, — dedim ishshayib, — hamma

narsa yodimdan ko'tarilib ketibdi. Dars tayyorlashga odatlanmaganman-da.

Soli maqsadimga tushunmadi.

— Shuning uchun sal kech qoldim, — dedim.

Soli endi gapning tagiga yetdi.

— Sanjar, ertaga bog'chadan uxlamasimdan olib ket, ovqat yeb bo'lishim bilan, — dedi yolvorib, u ichida mening aybdorligimni tushungan, evaziga ertagi kundan yutmoqchi edi.

Kichkina bolalar shunchalik mug'ambir bo'lishlarini bilmagan ekanman. Balki bu mug'ambirlilik emasdir, sezgirlikdir, ziyraklikdir.

— Uxlashni shunaqa yomon ko'rasanmi? — deb so'radim.

— Ha, yomon ko'raman, — dedi lablarini cho'chchaytirib Soli, — hech qachon uxlamayman, ko'zimni yumib yotaman.

Men uning peshonasiga og'ritmasdan yana bir chertdim.

— Seni o'rningda bo'lganimda jon-jon deb bog'chaga qatnardim. Qiladigan ishing ovqat yeyish, o'ynash, uplash. Maza-kul Maktabda esa miyangni achitib dars tinglaysan, masala yechasan, diktant yozasan. Shuncha azob tortganing yetmagandek, yana «ikki» qo'ndirishadi.

— Baribir mакtab yaxshil — dedi Soli ishonch bilan.

— Sen qayoqdan bilasan, xuddi maktabga borgan odamdek gapirasani?

— Bog'chada kun bo'yи bo'lasan, maktabda atigi yarim kungina, — donolik qildi Soli.

Men kulib yubordim, topgan gapini-chi, zumrashaning.

— Bo'pti, almashamiz. Sen maktabga borasan, men bog'chaga, maza qilib ovqat yeb, qornimni silab yotaman.

Soli birpas o'ylanib qoldi.

— Sen bizning bog'chadagi karavotga sig'maysanda, — dedi nihoyat.

— Gaping rost bo'lsa tezroq yur. O'zingni eplab yurolmaysan-ku, tag'in mакtabni havas qilasan!

— Kim yurolmas ekan, o'zing nuqlul atak-chechak qilib yurasan, — bo'sh kelmadi Soli.

— Nima, kim atak-chechak qilib yuradi, — ko'zlarimni olaytirdim.

Soli hazilimni tushunib qiyqirib kuldi.

— Sen! — dedi va shataloq otib qochib qoldi.

— Hali shunaqami! — men uning ketidan quvib ketdim.

Uygacha quvlashmachoq o'ynab bordik. Baribir Soliga yetolmadim. Suyunsin deb ataydan shunday qildim.

Uyga kirib borganimizdan keyin maqtab qo'ydim.

— Judayam epchil bo'lib ketibsan-ku.

Uyga kirayotganimizda Soli meni yana bir marta hayron qoldirdi.

— Sen aldoqchi ekansan, — dedi.

— Nega endi? — birov ustimdan sovuq suv quyib yuborgandek seskanib ketdim.

— Nuqlul aytasan-ku adam ishdalar, yaqinda keladilar deb.

Mening nafasim ichimga tushib ketdi.

— Adam oyim bilan po'm bo'lishgan, shuning uchun adam ketib qolganlar, — dedi Soli.

Endi mendan sovuq ter chiqib ketdi.

— To'g'ri, arazlashib qolishgan. Lekin sud orqali ajralishmagan. Shundoq bo'lgandan keyin adam yaqinda qaytib keladilar. Aldayotganim yo'q, gapimga ishonaver.

Soli ko'zimga sinchiklab tikildi. Gapimga ishondi shekilli, indamasdan uyga kirib ketdi.

Men uning ketidan uyga kirganimda telefon jiringlab qoldi. Odat bo'yicha birinchi bo'lib Soli yugurdi telefonga. Trubkani ko'tarib gaplashdi. Keyin menga qaradi.

— Seni, o'rtog'ing chaqiryapti.

Men trubkani olib qulog'imga tutdim.

— Eshitaman. Ha, menman. Nima? — men Shoqayumning ovozini darrov tanidim, radiodagi diktatorlarga o'xshab burro-burro gapirdi.

— Yozgi ta'tilga rejalaring qanday, Bo'taloq? — deb so'radi u.

— Kim biladi, — dedim. Rost-da, reja nima qiladi menda.

— Mobodo Amerika-pamerikaga sayohatga boradigan niyating yo'qmi? — deb hazillashdi Shoqayum.

Men sharaqlab kulib yubordim.

— Kulma, gap bor, — dedi Shoqayum tergash ohangida, — adamlar bizning mакtabга ikkita turistik putyovka to'g'rilabdilar, Bolgariyaga. Borasanmi?

— Nima?! — men taxta bo'lib qoldim.

— Hozir viz etib menga uchrab ket, telefonda gapiradigan gap emas bu, — dedi Shoqayum va hali javob berib uglugrmasimdan trubkani ilib qo'ydi.

Qo'limda trubka, nima bo'layotganiga tushunmay anchagacha baqrayib turdim. Bolgariya emish? Bolgariyada pishirib qo'yibdimi menga? Innaykeyin hammani qo'yib meni Bolgariyaga jo'natishar ekan-da, shuncha a'lochilar turganda menga yo'l bo'lsin? Nima bo'lsa ham Shoqayumga uchrab kelishga qaror qildim.

— So, birpas o'zing o'tirib tur, men o'rtoғ'imnikiga borib kelaman, — deb Shoqayumlarnikiga yugurdim.

Borsam, Shoqayum ko'chada meni kutib turibdi, qo'lida bir shoda kalit.

— Buyoqqa yur, — u meni to'qqiz qavatli binolar bilan o'ralgan hovlining etagi tomon boshladi, — gap bunday akasi, o'tirgan bo'yra, yurgan daryo deydilar. Shuning uchun sayohatni sevmaydigan odam topilmasa kerak. Ko'rgan qoladi-da, nima deding?

Men bosh irg'ab uning gapini ma'qulladim. Hovlining etagida qator garajlar bor edi, Shoqayum qo'lidagi kalit bilan ularning bittasini ochdi, yapanagi «Volga» avtomashinasi yaltirab turardi.

— Adamlar katta ishda ishlaydilar. Boya aytganimdek, bir amallab mакtabimizga ikkita putyovka to'g'irlab beribdilar. Putyovkalarning bittasi ziyolining, ikkinchisi albatta ishchining bolasiga berilishi kerak. Sharti shunaqa. O'sha ikkinchi putyovka seniki bo'ladi. Chillada, ayni jaziramada Bolgariyaga jo'naymiz. Qora dengizda maza qilib cho'milib kelamiz.

— Chillang qachon?

— Ha, nodon-ey, chilla, akasi 25-iyunda kirdi, 5-avgustda chiqadi. Demak, iyulda boramiz.

Men e'tiroz bildirmoqchi edim. Shoqayum og'iz ochdirgani qo'ymadni.

— Bilaman, a'lochilarni yuborishadi, menga kim qo'yibdi deb aytasan. Adam yo'lini qiladilar. Faqat a'lochilarni yuborish yanglish, boshqalarning ko'ngli cho'kadi, shuning uchun rag'batlantirish ma'nosida mundoqroq o'qiydigan o'quvchilarni ham yuborishni sinab ko'rish kerak degan fikrni o'rtaga tashlamoq-chilar. Adamlarni bilmaysan, bunaqa ishlarni qoyillatadilar. Nasiba opani ham ishga solamiz, sening nomzodingni qo'llab-quvvatlavorsin. Senga munosabati yaxshi-ku.

Men yana og'iz juftlagan edim Shoqayum imkon bermadi so'z boshlashimga.

— Pulidan xavotirlarma, seniki tekin. Men ozgina to'layman, — Shoqayum mashinasining ichini ochib monometr oldi, g'ildiraklarning bosimini o'lechadi, — hammasi joyida, faqat orqa g'ildirak sal qo'yib yuboribdi, ozgina urib qo'yamiz. Ertalab adam bozorga o'tib kelmoqchiydilar, ballonlarning damini tekshirib qo'y devdilar.

U nasos olib orqa g'ildirakka yaqinlashdi. Men ildam borib nasosni uning qo'lidan oldim-da, ballonga dam bera boshladim. Bunaqa ishlardan qochmayman. Balki Bolgariya yo'lidir, shunga chaqirganlar deb o'yladim.

— Yo'q, sen faqat Bolgariya quruq gap deb o'ylama. Men bir ishning ketiga tushsam oxiriga yetkazmay qo'yamayman. Bilasan-ku tashkiliy masalalar mening jonim.

Bu gapi rost edi. Tashkiliy masalalarni qoyil qilar-di.

— Nega meni tanladi deb hayron bo'layot-gandirsan. Chunki sen saxiy, butun odamsan, Bo'taloq. Jirttakilik, hasad nimaligini bilmaysan. Suyansa bo'ladigan butun odamsan. Odam bitta o'zi begonalarning orasida zerikadi. Ikki kishi bo'lsak yaxshi-da, bir-birimizga yordam berib yuramiz.

— Ha, agar boradigan bo'lsak qancha yuqing bo'lsa ko'tarishga yordamlashvoraman.

Shoqayum monometr bilan men dam urgan ballonni o'lchab ko'rdi.

— Iye, polvon, keragidan ko'proq urvoribsan-ku, — u meni maqtadi, keyin ogohlantirayotgandek gapirdi, — lekin baribir, o'qishni yaxshilashing kerak. O'zim yordam beraman. Ikki-uch marta birga o'tirsak natiasi ko'rindi-qoladi.

— Rahmat, o'zim ham kirishdim...

— Albatta, o'zing kirishmasang bo'lar ekanmi, boshqalar ming harakat qilsin, agar o'zing jon achitmasang bir tiyin. Xo'p, akasi, ertagacha.

Shoqayum garajni qulflab men bilan xayrlashdi.

Men uyga qaytib keldim. Xonamga kirib yana dars tayyorlashga o'tirdim. Endi qoidani yod ola boshladim. Ko'p o'tmay oyim keldilar. Soli bilan chug'ullashib nimalarnidir gaplashishdi. Men oldilariqa chiqmadim. Chiqsam, gapga alahsib ketaman, keyin qayta o'tirishga o'zimni zo'rlolmayman.

Bilmadim, oradan qancha vaqt o'tdi, bir mahal xonamning eshigi ochilib ostonada oyim paydo bo'ldilar.

— Hoy, Sanjar, senga nima bo'ldi?

— Hech narsa, — dedim.

— Ovqatlanmaysanmi?

— Boya ovqatlanganman, — yolg'on to'qidim, — xalaqit bermang, uyga juda ko'p vazifa berishgan.

Oyim menga birpas hayron bo'lib tikilib turdilar, keyin indamasdan sekin chiqib ketdilar.

Men qoidani qaytarishda davom etdim.

... Qovoqlarim og'irlashib, ko'zim yumilib ketay-ketay deganda, eshikda yana oyim paydo bo'ldilar.

— Darsing ham bor bo'lsin, o'g'lim. Yotmaysanmi? Axir yarim kecha bo'lib ketdi-ku. Onayizor shunaqa ekanda, yomonchimi, a'lochimi baribir bolasiga yuragi achirkan.

— Yo'q, yotmayman, dars tayyorlayman.

— Dars ham evi bilan-da, bolam.

Bilib turibman, dars tayyorlayotganimni ko'rib oyim bir tarafdan suyunyaptilar, ikkinchi tarafdan bosh ko'tarmay o'tirganimga rahmlari kelyapti.

— Endi kechasi-yu kunduzi uxlamay dars tayyorlayman.

— Namuncha? — shashtimdan qaytarib qo'yish-dan cho'chibmi ehtiyotkorlik bilan so'radi oyim.

— Shunaqa, — dedim qaysarlik bilan, keyin tushkun ovozda qo'shib qo'ydim, — mening dastimdan Nasiba opani maktabdan quvib yuborishlariga oz qolibdi.

— Nima? Shunday yaxshi o'qituvchini-ya! — bir-dan tutaqib ketdilar oyim, — bekor aytishibdi. Yo'l qo'ymaymiz! O'zi yaxshi odamlarga hech qayerda kun yo'q. Seni odam qilaman, deb adoyi tamom bo'ldi-ku, u bechora. Yaxshilikka yomonlikmi? Yo'l qo'ymayman!

— Men ham shuning uchun dars tayyorlayapman-dal

— Unday bo'lsa tayyorlasang ham tayyorla, tay-yorlamasang ham tayyorla. O'zim mактабингга borib shovqin ko'taraman. Adolat degan narsa bormi o'zi? Bitta o'qituvchi bo'lsa shunchalik bo'ladi! Har hafta uchrashamiz, nega menga aytmadи unga zulm o'tkazishayotganini?! — Oyimning shunchalik Nasiba opamni yaxshi ko'rishlarini bilmas ekanman.

— Hech kim zulm o'tkazayotgani yo'q, — oyimni sal tinchitmasam juda guvillab yonib ketyaptilar, — men yaxshi o'qimaganidан keyin... o'zgarish bo'limgandan keyin gapirishadi, qani qiyin bolani tuzata olganing deb so'rashadi. Nasiba opaning o'rnida boshqa o'qituvchi bo'lsa, undan ham talab qiliшadi.

— Shunday deysan-u, lekin baribir... yoshligini nazarda tutish kerak. Axir jon-jahdi bilan tirishyapti seni odam qilgani. Men guvoh!

Oyim birdan to'xtab o'ylanib qoldilar.

— Mayli, o'g'lim, yaxshilab tayyorlan. Nasiba opanq uchunoq harakat qil...

— Xavotir olmang, yaxshilab o'qiyapman.

— Ha, yaxshilab o'qi. Sen bir amallab yaxshi baho olgin, ana innaykeyin ular bilan men o'zim gaplashib qo'yaman!

Oyim xuddi hozir gaplashishga ketayotgandek, shitob bilan yurib xonamdan chiqib ketdilar. Men miyamga kelgan fikrdan kulib qo'ydim. Agar o'sha pedsovetda oyim bo'lganlarida bormi, Nasiba opani

koyigan o'qituvchilarni boplab dodini berardilar. Ha, bunga ishonavering.

BO'SH KELMA, ALIQULOV!

Ertasiga ertalab umrimda birinchi marta barvaqt uyg'onib ketdim. Soatga qarasam olti yarim. Yana qoidalarni qaytardim. Ikkala qoidani ham suv qilib ichib yubordim, desam bo'ladi.

Ichim pishib ketayotgani uchun hali erta bo'lishiga qaramay maktabga qochib qolmoqchi edim, nonushta qilmasdan ketmaysan, deb oyim ushlab goldilar.

O'tirishga majbur bo'ldim.

— Ataydan issiq ovqat qildim, yeb borasan, — dedilar oyim.

Issiq ovqat qilgan bo'lsalar mendan ham ertaroq turgan ekanlar-da! Bu bejiz emas, dars tayyorlaganimni ko'rdilarda.

Biz uch kishi oyim, men, Soli indamay o'tirib ovqatlandik. Nima uchundir, xuddi imtihonga ketayotgandek ichim taka-puka edi. Qandaydir tahlikali, xavotirli vaziyat hukmron edi uyda. Men ortiq chidolmay o'rnimdan turdim.

— Oyi, Solini bugun o'zingiz...

— Ha, boraver, o'g'lim, ukangni o'zim tashlab o'taman, — oyim meni eshikkacha kuzatib chiqdilar, titroq ovozda omad tiladilar, — ishqilib ishing o'ngidan kelsin.

— «Besh» olgin! — luqma tashladi Soli ham.

Men ko'nglim buzilib, yugurgancha pastga tushib ketdim. Oyim bilan Soli o'rtaga tushib yelkamdag'i mas'uliyatni yanada og'irlashtirishgan edi. Ha, endi bularning yuzini yerga qaratib bo'lmaydi.

Maktabga hammadan oldin yetib boribman, sinfimizga kirsam hech kim yo'q. Koridorga qaytib chiqdim. Dimiqib nima qilaman, tashqarida havo toza, kun iliq, yengil shabada odamning bahr-dilini ochadi degan fikrda hovliga yo'l oldim. Kirayotganimda eshik tagida bitta bola turgan edi, chiqsam haliyam turibdi. O'zi jimitdek-u, kallasi katta.

Birpas atrofga angrayib turdim. Zerikdim. Keyin o'zimni nima bilandir chalg'itish uchun bolakayni gapga soldim.

— Namuncha vaqtli kelib olding? — deb so'radim.

— O'zing-chi? — savolni savol bilan qarshi oldi u.

Gaplari pishiqqina ekan.

— Menmi?! Men maktabsiz turolmayman. Ertalab quyosh chiqmasdan kelib, kechqurun quyosh botmaguncha ketmayman. Kechasi bilan yana maktabni sog'inib chiqaman. Shuning uchun uyqudan ko'zimni ochishim bilan maktabga yuguraman, — hazilashdim.

Lekin bolakay hazilni tushunmadi.

— Meni uyim uzoq. Tramvayga tushib kelish kerak. Shuning uchun adam zavodlariga ketayotgalarida tashlab o'tadilar, — dedi u.

Shu bilan gap bo'linib qoldi. Men yana atrofga alanglay boshladim.

— Markang bormi? — birdan so'rab qoldi bolakay.

U Shoqayumga o'xshab burro-burro gapirardi.

— Markani nima qilasan?

— Markang bo'lsa ko'rsat, almashtiramiz.

— Yo'q-da, — dedim, — nima, marka yig'asanmi?

Bolakay «ha» deb bosh silkidi.

— Marka yig'ishga behuda vaqt sarflagandan ko'ra, ko'proq dars tayyorlasang bo'lmaydimi? — harholda men undan kattaroq edim-da, o'z ko'nglimda nasihat qilgan bo'ldim.

— O'zing a'lochimisan? — savolni savol bilan qarshi olishni yaxshi ko'rар ekan bolakay tushmagur.

Cho'chib tushdim.

— Yo'q, nimaga so'rayapsan?

— Aql o'rgatvotganingga a'lochi bo'lsang kerak, debman.

Kulib qo'ydim. Balo ekan zumrasha.

— O'zing-chi, o'zingning o'qishing qanaqa? — so'radim.

— Seni nima ishing bor! — dedi bolakay beparvo ohangda.

Rostdan ham nima zarur menga bola bechoraga tegajog'lik qilib. Nima, u arparmni xom o'rdimi. Lekin tilim o'zimga bo'ysunmadi.

— Hozir bir chertib peshonangni g'urra qilib
qo'yaymi?!

Bolakay orqasiga chekindi.

— Nima qildim senga?

U qovog'ini solib, qoshlarini chimirganicha menga tikilib turardi. Zo'ravonlikning, chiranchiqlikning nima keragi bor. Teskari qaradim. Shu zahoti bolakayni butunlay unutib, boshqa narsalarni o'ylay boshladim. Bir mahal orqamga o'girilib qarasam, bechora haliyam qotirib qo'ygandek turibdi. Rahmim kelib ketdi.

— Ha, aytgandek, — shu payt birdan anavi kuni ruchka sotib olganimda sotuvchi qaytimiga marka bergani esimga tushib qoldi. — Bitta markam bor. Ko'rsataymi?

Bolakay ishonqiramagandek, xavotirlanib ko'zimga boqdi.

Papkamni ochib tarix kitobining ichiga bekitib qo'yan markani oldim.

— Mana ko'r, — unga futbolning rasmi solingan markani uzatdim.

— Juda zo'r marka ekan! — dedi bolakay markaga yeb qo'ygudek tikilib.

Keyin shoshib papkasini ochdi-da, katta albom olib menga uzatdi.

— Xohlaganingni... xohlaganingizni tanlang, almashamiz.

Albom olib bir chekkadan varaqlab chiqdim. Ammo rosa marka yiqqan ekan, bir-biridan chiroyli. Jimitdek bo'la turib shunchalik qunt bilan marka yiqqaniga qoyil qoldim. Albomni tomosha qilib bo'lib egasiga qaytardim.

— Bittasi ham yoqmadimi? — ajablanib so'radi u.

— Nega endi, hammasi yaxshi! — dedim, — lekin menga marka kerak emas.

Bolakay yuzida achinish alomati paydo bo'ldi... U ko'zi qiymay markamni qaytardi:

— Lekin juda zo'r marka ekan.

Markani olmadim.

— O'zingga opqolaver, aytdim-ku, menga marka kerak emas deb.

Bola hovliqib, ko'zlar sevinchdan chaqnab ketdi.

— Rostdan beryapsizmi? Tekindan-tekinga-ya?!

«Namuncha bitta markaga shunchalik hovliq-masang», degandek unga kulimsirab qarab qo'ydim. Bolakay buni sezdimi hovridan tushdi.

— Rahmat, — dedi u sal iymanib.

Indamadim. Faqat eski tanishlardek ko'z qisib qo'ydim. U, og'zi qulog'ida, men bergen markadan hamon ko'zini uzmay maktab binosiga yo'l oldi.

Kutganda vaqt sekin o'tadi, deb to'g'ri aytishar ekan. Juda xunobim oshib ketgan edi, yaxshiyam boshqa bolalar kelib qolib, o'shalar bilan ovundim.

Nihoyat, qo'ng'iroq jiringladi. Birinchi dars ona tili edi. Men hech qachon shunaqa hayajonlanmagan edim. Uy ishini qilib kelmaganimda boshqa gap edi, tayyorlanib kelganda ham odam shunchalik hovliqishini, sira bilmagandim.

Mana, Nasiba opa sinfga kirdi. Salomlashdik. Yo'qlama qildi. Keyin uy ishlarini tekshirdi. Mening oldimda bir oz to'xtab qoldi.

— Yangi daftар tutdingmi?

— Ha, — dedim.

— Durust, harakat qilsang chiroyli yozarkansan, — dedi Nasiba opa.

Men uy ishini bir necha marta ko'chirganimni unga aytmadim.

Nasiba opa mendan uzoqlashib boshqalarning dafтарларини ham tekshirib chiqdi. Mana, nihoyat, men hayajonlanib kutgan daqiqa keldi. Nasiba opa sinfga qarab:

— Endi o'tgan darsni qaytaramiz, kim javob bera-di? — deb so'radi.

Yettitami, sakkizta o'quvchi qo'l ko'tardi. Nasiba opa sinfda o'tirganlarning hammasini bir-bir ko'zdan kechirib chiqar ekan:

— Yana kim?! — deb so'radi, — Shoqayum, ko'ryapman, qo'lingni ko'taryapsan. O'rningdan turish shart emas! Xo'sh, boshqalar-chi?

Yana uchta bola qo'l ko'tardi. Nasiba opa hamon sinchkov nazar bilan sinfni ko'zdan kechirardi. Men qo'l ko'tarib o'rganmaganim uchunmi, hech qo'limni ko'tarishga jur'at etolmayman. Ko'tarishim kerakligini, ko'tarishim shartligini bilaman, ammo ko'tarolmayman. Nihoyat, bir amallab zil-zambilga o'xshab

ketgan qo'limni arang ko'tardim. Nasiba opa qo'l ko'targanimni yo ko'rmadi, yo ko'rsa ham e'tibor bermadi.

— Sal balandroq ko'tardim qo'limni.

Nasiba opa bu gal ko'rди, lekin yana e'tibor berma-di. Men yana balandroq ko'tardim qo'limni.

— Ha, nima deysan, Aliqulov? — beparvo ohang-da so'radi Nasiba opa.

— Men... men... — tavba, yuragim shunday urib ketdiki, eplab gapimni gapirolmayman!

Nasiba opa javob berishdan qutulib qolish uchun eshikka chiqib kelgani ruxsat so'rayapti, deb o'yaldi shekilli:

— Bo'pti, chiqib kel. Lekin tez qayt, yangi mavzu-ni boshlayman, — dedi.

— Yo'q... men... haligi... javob bermoqchiydim.

Birdan butun sinf jim bo'lib qoldi. Nasiba opa ham taajjubdan ko'zlarini katta-katta ohib menga tikildi.

— Javob beraman deysanmi?

— Ha, — dedim entikib.

Nasiba opa bir lahzaga jim bo'lib qoldi, keyin:

— Bo'pti, eshitamiz, — dedi beparvo bo'lishga tirishib.

Bilib turibman, hovliqayotganimni, hayajonlana-yotganimni sezib, atay o'zini beparvolikka soldi.

Javob bera boshladim. Birinchi jumlanı aytishim bilan hamma narsa butunlay yodimdan ko'tarilib, tilim tanglayimga yopishganicha qotib qolsa bo'ladi-mi?!

Nasiba opa yo'qlamani varaqlab o'tirib, to'xtab qolganimni payqamagandek, xotirjam menga muro-jaat qildi.

— Bo'pti, boshla bo'lmasa. Lekin avtomatga o'xshab bidillab ketma. Shoshmasdan, dona-dona qilib gapirmsang, nima deyayotganining anglab olishim qiyin bo'ladi.

Nasiba opa o'rnidan turib nima uchundir deraza-ga yaqinlashdi. Men bilan mutlaqo ishi yo'q — xuddi birovni qidirayotgandek tashqariga olazarak bo'lib qaray boshladi.

Sal jahlim chiqdi, shuncha qiynalib, ne-ne azob-uqubatlar bilan dars tayyorlab kelsam-u, eshitgisi ham kelmay derazadan ko'chaga anqayyapti. Jah-

menga kuch bag'ishlagandek bo'ldi, javob bera boshladim. Odatda har bir o'quvchi bitta qoidani gapirardi. Men ikkala qoidani ham sharillatib aytib berdim. Misol aytayotganimda tasodifan ko'zim Nasiba opaga tushib qoldi.

Shunda uning nega deraza yoniga borganiga tushundim. U derazaning yonida qimirlashga, qat-tiqroq nafas olishga jur'at etolmay hamon tashqariga tikilib turardi. Go'yo qimirlasa yoki qarab tursa men so'zimdan adashib, chalkashib ketadigandek.

Butun sinf ham suv quygandek jim edi.

Ikkala qoidaga ikkita misol keltirdim. Oxirgi misolni aytib ulgurmasimdan Nasiba opa xuddi men qil ko'prikan o'tayotgandek, yuragini hovuchlab turgan ekanmi:

— Bo'ldi, Aliqulov, o'tirl — deb bo'g'ilib qichqirdi.

Cho'chib tushib joyimga o'tirdim.

— Bahoying «besh», — xuddi oyimga o'xshab yana qichqirib gapirdi Nasiba opa. — Rosmana «besh»!

Baqirib yuborganining sababini keyin angladim. Yaxshi javobimdan mendan ham ko'proq Nasiba opa suyunib ketibdi chog'i, ko'zida bir tomchi yosh ko'rdir. Ba'zilar sezmadni ham. Chunki Nasiba opa epchilik bilan ko'z yoshini artib oldi. Mening ichim alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi.

Sinfda g'ala-g'ovur ko'tarildi. Bolalar meni tabriklashar, maqtashardi. To'g'ri, ba'zilar esa faqat shovqin ko'tarish uchunoq jo'rttaga ovozga zo'r berib g'o'ng'illashardi. Bolalarga bahona bo'lsa bas, to'polonni qoyil qilishadi. Ishqilib dars bo'lmasa bo'lgani.

Nasiba opa bir amallab sinfni tinchitdi. Keyin menga qarab jiddiy gapirdi. Lekin qanchalik jiddiy bo'lishga tirishmasin, ko'zlarida bir olam mehr bor edi.

— Aliqulov, agar yana bitta «besh» olsang, unda choragingga «uch» chiqarish mumkin. Demak, uchin-chi choraging joyida. Keyin to'rtinchi chorakka harakat qilasan, unda ham choragingga «uch» yoki «to'rt» chiqsa marra seniki, sinfdan sinfga o'tishing aniq bo'ladi.

Mening sevinchdan boshim g'ovlar, Nasiba opa-

ning gaplariga unchalik tushunmasdim. Baribir to'g'ri degandek bosh silkib gaplarini ma'qulladim.

Nasiba opa esa meni va o'zini ham g'alaba bilan tabriklagandek kuyib-pishib gapirardi.

— Bugungi javobingga qaraganda esa, Aliqulov, sen bemalol yaxshi o'qishing mumkin. Mana, bo'larkan-ku harakat qilsang! Shundoq bo'lgandan keyin buyog'iga bo'sh kelma, Aliqulov!

Nasiba opa to'g'ri aytdi, bo'larkan-ku, harakat qilsam. Hamma narsa odamning o'ziga bog'liq ekan. Shu paytda Nasiba opa ko'zimga yana ham yaxshi ko'rinish ketdi, haqiqatda juda zo'r o'qituvchi-da. Meniki Shoqayumning ta'biricha lakalov valakisalangni odam qiloldimi, demak, zo'r o'qituvchi va ajoyib inson! Mehribon tarbiyachi! Bu aniq!

To'g'risini aytsam men «besh» baho olganimdan ham ko'ra, Nasiba opani xursand qilganimdan, hali borib oyimni ham xursand qilishimdan mamnun edim.

O'ylab ko'rsam ayb o'zimda — judayam hafsalasiz odam ekanman. Ha, yalqov emas, hafsalasiz ekanman. Mana, astoydil harakat qilgandim, binoyidek javob berdim. Demak, Nasiba opa aytganlaridek hammasi harakatga, quntga bog'liq ekan.

O'zimcha shunday xulosaga keldim.

* * *

Darslar tugab uyga qaytyapman-ku, quvonchim ichimga sig'maydi, miyamda esa har xil o'ylar shodon sakraydi. Adam qaytib kelsalar bundan ham yaxshi o'qiymen, deb va'da beraman. Nafaqat o'zim, Soli mакtabга kirganida uning ham yaxshi o'qishiga ko'maklashaman, deyman.

O'zim bilan o'zim ovora bo'lib o'n qadamcha nari-dagi Shoqayumni ham ko'rmabman. U odati bo'yicha pildillavolib ketardi. Men qadamimni tezlashtirib unga yetib oldim. Birpas o'ziga sezdirmasdan qora-m-qora ketaverdim.

Muyulishga yetganda u birdan orqasiga o'girildi, papkasi bilan papkamni bir urib yerga tushirdi.

Indamasdan papkamni oldim-da, ketidan ketaverdim, meni ham sho'xligim tutib ketdi, unga yetib oldim-da bir urib papkasini yerga tushirdim.

Shoqayum hayronlikdan anqayib qoldi.

— Ko'zlarimga ishonmayapman, Bo'taloq, sendan ham sho'xlik chiqyaptimi?

— Nazarimda sendan qarzim juda ko'payib ketgan, yuztadan bittasini qaytarib qo'yay, — iljaydim.

— Durust, durust, sho'xliging binoyidek yarashyapti o'zingga, — ko'nglimni ko'tarmoqchidek yupatib gapirdi Shoqayum. — Bitta «besh» olganingga papkamni urib tushirding. Bordi-yu yana olib qolsang o'zimni urib ag'dararsan?!

Qiyqirib kului Shoqayum.

— E, senga tegib bo'ladi, olamni boshingga ko'tarib dod-voy solarsan! — Unga qo'shilishib men ham qiyqirib kuldim.

— Bu gaping to'g'ri, menga tegib bo'lmaydi, — birdan jiddiy tortdi Shoqayum, — oq suyaklardanman men!

Basharasiga jiddiy tus berishga usta edi u, shu bilan o'zini darrov boshqalardan yuqori qo'yardi.

— Ha.

— Mendaqalarining senga tegishga yo'l bo'lsin, sen o'zingga gard ham yuqtirmaysan! — dedim.

Gapim Shoqayumga ma'qul bo'ldi shekilli: ko'nglimni ko'tarmoqchi bo'lib:

— Tuyadan nega bo'yning qiyshiq deb so'rasalar «qayerim to'g'ri» degan ekan. Sen ham bukchayib yursang, tuyaga o'xshab bukur bo'lib qolasan. Shuning uchun qaddingni g'oz tutib yur, endi qancha kekkaysang yarashadi, bugun «besh» olding.

Gapi menga yoqib tushdi, «xo'p» degandek bosh silkib qo'ydym.

— Ammo akasi, ketishing yaxshi, — dedi u nasi-hatomuz ohangda, — shu ketishing bo'lsa chet elga borishing ham osonlashadi, shunday ekan buyog'iga bo'sh kelma, Aliqulov.

U Nasiba opaning gapini qaytargan edi.

— Ha, og'ayni, endi bo'sh kelish yo'q, — dedim men sal kerilib.

Biz Shoqayum ikkalamiz yo'lga tushdik. U odati bo'yicha jadallaganicha oldinda, men esa lapanglab orqaroqda borardim.

Men o'zimni hech qachon bunchalik yengil his etmagan edim.

BIR QULTUM BULOQ SUVI

XILVATDA TO'QNASHUV

Ularning orasidagi masofa o'ttiz qadamcha. Oldindagisi hech narsadan xabari yo'q hushtak chalib, papkasini qo'lida o'ynatgancha ketyapti. Ikkinchisi undan ko'zini uzmay izma-iz ta'qib etib borardi.

«Yo'q, bu serqatnov va gavjum ko'chada unga yaqinlashib bo'lmaydi. Xilvatroq joy topish kerak», — dilidan o'tkazdi Rixsivoy.

Shu payt xuddi Rixsivoyning istagini qondirmoqchi bo'lgandek, Sanjar parkka burildi.

Erta kuz bo'lishiga qaramay bir hafta qattiq sovuq turib, ba'zi daraxtlarni ancha yalang'ochlab qo'ygan. Xiyobonlarni xazon qoplagan, yozgi kafelar bo'mbo'sh, xullas, istirohat bog'i huvillab yotardi. Bitta skameykada ko'zognagini burniga qo'ndirib nafaqa-xo'r qariya gazeta o'qib o'tiribdi, boshqa skameykada o'rta yashar juvon nimadir to'qiyapti, u har zamonda oldidagi kolyaskani oyog'i bilan tebratib qo'yadi. Ulardan bo'lak kimsa yo'q bog'da.

Rixsivoy qadamini tezlashtirdi — bunday qulay joy va vaziyatni qo'ldan chiqarib bo'lmaydi.

Katta chinor daraxti tagida Rixsivoy Sanjarga yetib oldi. U bir hatlab Sanjarning oldiga o'tdi-da, yo'lini to'sdi.

— To'xta!

Sanjar sinfdoshining shijoatini ko'rib hayron bo'ldi. Yo'q, sirayam cho'chimadi, faqat hayron bo'ldi.

— Nima deysan? — beparvo ohangda so'radi.

— Urihsasanmi? — Rixsivoy papkasini yerga tashlab, qo'llarini musht qildi.

— Nega endi?.. — battar taajjublandi Sanjar. — Nega endi sen bilan urishishim kerak ekan?

Sanjar baland bo'yli, keng yag'rinli, baquvvat va kelishgan bola edi. Uning oldida Rixsivoy pachaqqina: bo'yni ingichka, yelkalari tor, o'zi nimjon. Lekin ko'zlarida o'jarlik chaqnardi.

— Nega odamning ustidan kulasan? — do'q urdi Rixsivoy.

— Kimning ustidan kulibman?

— Mening ustimdan kulding.

— Qachon? — so'radi Sanjar.

— Boya, katta tanaffus paytida.

Sanjar yelkasini qisdi.

— Esimda yo'q.

— Kim qanday ovqatni yaxshi ko'rishini gapirishayotgan edik. Men xolvaytar dedim.

Sanjarning esiga tushdi va u yana kulib yubordi.

— E, hal! Xolvaytar! O'zing kulgili gap qildingda, — dedi u, — innaykeyin bitta men emas, hamma kuldii-ku.

— Hamma bilan ishing bo'lmasin, sen nega kulding? — o'dag'ayladi Rixsivoy.

Yo'q, rost, qiziq ekan-ku, bu yangi kelgan bola, ikki oycha bo'lib qoldi o'qish boshlanganiga, shu paytgacha e'tibor bermagan ekan-da unga. O'zi qiltiriq bir narsa-ku, do'q urishini-chi?! Sanjarning boks bo'yicha o'z vaznida shahar championi ekanligi dan xabari yo'q shekilli.

— Nega kulding? — o'zinikini qo'yemasdi Rixsivoy.

— Odamning kulgisi qistagandan keyin kuladi da, — jilmaydi Sanjar, sport bilan shug'ullanishning shunisi yaxshi-da, asablaring mahkam bo'ladi, sag'alga lov etib yonib ketmaysan.

— Kulging qistaydigan bo'lsa solishamiz!

Sanjar yana pinagini buzmadi, bu ham sport bilan shug'ullanishning oqibati, mard, olajanob va irodali bo'ladi sportchilar, bo'lmasa bitta ursa uchirvoradi Rixsivoyna o'xshaganlarni.

— Sen juda chiranchiq ekansan-ku, — yana jilmaydi Sanjar.

Bu gap alam qildi Rixsivoyna. To'g'ri gap shunaqa achchiq bo'ladi-da.

— Agar yana mening ustimdan kuladigan bo'lsang... — buyog'iga nima deyishini bilmay qoldi. Bordi-yu, «dabdalangni chiqaraman, adabingni berib qo'yaman», desa yana chiranchiqlik qilgan bo'lar edi.

— Bo'pti, xafa bo'lma, kim bilib o'tiribdi seni bunchalik ekaningni, — hamsuhbatini ovutishga harakat qilib yon bosdi Sanjar.

— Qanchalik ekanimni? — bo'sh kelmadi Rixsivoy.

Bu xurujdan Sanjar yana sal dovdirab qoldi.

— Ha... endi... shunchalik gap ko'tara olmasligingni-da!

Qiziq, Sanjarning sira jahli chiqmasdi. Agar Rixsivoydan boshqa bola unga shunaqa do'q qilgani-da kunini ko'rardi. Ammo Rixsivoydan jahli chiqmadidi. Chunki g'alati bola ekan, qiltiriqqina, nimjongina bo'la turib o'zidan o'n marta kuchliroqqa tashlanishi— xuddi shu dovyurakligi, o'z qadr-qimmati uchun kurashishi Sanjarga yoqdi.

Gap bo'linib qolgandi. Sanjar kechirim so'ragandek bo'ldi, ayni paytda: «Gap ko'tarolmas ekansan», deb pand ham berdi. Bu — hazilni tushunmas ekansan degani-da. Shuning uchun Rixsivoy uning kechirimidan to'la qoniqish hosil qilmadi. Qaytanga ko'ngli battar g'ash bo'ldi. Sanjar u haqda chiranchiq, hazil tushunmaydigan bola ekan, degan fikrga kelgani aniq. Buni qosh qo'yaman deb ko'z chiqarish deydilar. Sanjar esa yomon bola emas ekan. Bosiq, mard, xushe'l ekan. Shunday odamda o'zi haqida yomon fikr qoldirishni Rixsivoy sira-sira istamasdi.

U yerda yotgan papkasini oldi-da, indamasdan yo'lga tushdi. Sanjar uning ortidan ergashdi.

Ular yonma-yon ketishdi. Sanjar o'rtadagi kichkinaginasov uqchilikni allaqachon unutgan, oyoq ostidagi xazonlarni tepib, hushtagini chalib borardi. Xushchaqchaq, shaldir-shuldir bola ekan, deb o'ylab qo'ydi Rixsivoy.

— Qayerda turasan? — birdan so'rab qoldi Sanjar.

— «Turon» mehmonxonasining orqasida, — dedi Rixsivoy.

— Iye, qo'shni ekanmiz-ku. Nечаничи уйда?

— Yangi tushgan uyda.

— Ha, bizdan uch uy nari ekan. Oldin qaysi maktabda o'qirding?

— Eski shaharda. Bultur uyimizni buzishgandan keyin bu yerga ko'chib keldik.

Sanjar faqat odob yuzasidan, jim ketavermaslik uchun hamrohini gapga solayotgan edi va buni yashirishga harakat ham qilmasdi.

Ikki yog'i daraxtzor uzun xiyobon tugab yana sershovqin ko'cha boshlandi.

Gazeta kioskasining yonida muzqaymoq sotilayotgan ekan.

— Birpas to'xtab tur, — dedi Sanjar.

«Nega endi to'xtab turishim kerak ekan, ketavermaydimi», deb ajablandi Rixsivoy. Lekin har ehti molga qarshi to'xtadi. Sanjar ikkita muzqaymoq ko'tarib keldi, bittasini Rixsivoyga uzatdi.

— Ushla!

— Kerak emas, — yerga qarab tumshug'ini osiltirdi Rixsivoy.

— Ushlasang-chi, muzqaymoqdan ham qaytadimi odam?!

— O'zing yeyaver, kerak bo'lsa o'zim sotib olaman, pulim bor, — dedi Rixsivoy.

— Birov senga puling yo'q deyaptimi? Bergandan keyin olaversang-chi. Axir ichingda jon-jon deb turibsan-ku, — iljaydi Sanjar.

Rixsivoy muzqaymoqni endi olmoqchi edi keyingi gapdan keyin ikkilanib qoldi.

— Bo'pti, qarz bo'lib qolishdan qo'rqsang, keyingi gal sen olib berarsan, — Sanjar sharaqlab kuldi-da, o'jar o'rtog'ining qo'liga muzqaymoqni tutqazdi.

Rixsivoy muzqaymoqni hali yarimlaganicha ham yo'q edi, Sanjar o'zinikini yeb bo'lди. U lablarini cho'chchatytirib yolvordi:

— Ozgina qoldir.

— Ma, — Rixsivoy muzqaymog'ini unga uzatdi. Sanjar yana sharaqlab kuldi.

— Yeyaver, hazillashyapman.

Sanjar borgan sari ko'proq yoqardi Rixsivoyga, haqiqatda juda hazilkash, quvnoq bola ekan.

Ular muyulishga yetganda Rixsivoy to'xtadi. Xayrlashishdan oldin Sanjarga ikki og'iz iliq gap aytgisi, qilgan qo'polligini yumshatgisi keldi.

— Mana, tanishib ham oldik.

— Sening tanishishing qiziq ekan, — kuldi Sanjar.

Rixsivoy xijolat chekib yerga qaradi.

Sanjar unga tanbeh bermoqchi emas edi, shuning uchun gapni hazilga yo'ydi:

— Ammo baxtli bola ekanman, tole kulib boqdi menga, yo'qsa hozir oyim bechora jasadimning tepasida sochlarini yoyib, faryod chekib o'tirgan bo'larmidilar, agar boya chinorning tagida urib o'ldirib qo'yganingda!

Rixsivoy yuzlari lovillab yonganini o'zi ham sezdi, ammo sir boy bermaslikka harakat qilib, o'lganining kunidan tishining oqini ko'rsatdi.

— Mening ham toleyim bor ekan, — o'z ko'nglida Rixsivoy ham hazillashmoqchi bo'ldi, — yaxshi ham boks bo'yicha shahar championi rahm qildi, yo'qsa hozir o'sha chinorning tagida emaklab yurib, har qayoqqa sochilib ketgan o'ttiz ikkita tishimni terib yurgan bo'larmidim?

— E, bor ekansan-ku, oshna! — Sanjar o'rtog'ining yelkasiga qulochkashlab tushirdi. — Gap degan bunday bo'pti-da! Xo'p, ertagacha.

Rixsivoy Sanjarning turtkisidan qalqib ketib, ag'darilishiga sal qolgan bo'lsa ham hazili sinfdoshiga yoqqanidan xursand edi.

U uyiga qaytar ekan, miyasidan Sanjar chiqmasdi. Ha, unga qoyil qoldi. Zo'r bola ekan. Tanti va dovyurak, hazilkash va quvnoq! Qani endi Rixsivoy ham o'shangan o'xshagan bo'la olsa. Yo'q, Rixsivoy unga o'xshagan bo'lomaydi. Chunki gap ko'tarolmaydi, ko'p o'ylaydi, boshqalarga o'xhab hozir gapirib, hozir unutib ketolmaydi. Bosgan qadamini o'lchaydi, har bir qilmishini taroziga solib tortadi, yaxshi qildimmi yo yomon qildimmi, deb mulohaza yuritadi. Nega shunaqa, a? Nega har narsalarni o'ylayveradi, nega o'zining yuragini o'zi siqadi? Nega boshqalarga o'xhab beparvo bo'lomaydi?

Rixsivoyning yuragida paydo bo'lgan xursandchilik asta-sekin so'nib, o'rnini g'ashlik qopladi.

Rost-da, hech narsadan hech narsa yo'q, Sanjarni o'ziga bino qo'ygan, odamlarni kalaka qiladigan, shuhratparast bolaga chiqarib o'tiribdi.

Birdan Rixsivoyning yuragida g'alati shubha o'rлади.

Nega endi Sanjar o'zidan kuchsiz Rixsivoy bilan mushtlashishdan bosh tortdi? Nahotki Rixsivoydan cho'chigan va shu bois gapni hazilga yo'ygan bo'lса? Aslida Sanjar tilyog'lamachilik qilmasdan mushtlashgani ma'qul edi, ora ochiq bo'lardi-qo'yardi. Rixsivoy chiranchiq degan nom orttirdim deb izza bo'lmas, yuragiga g'ash tushmasdi. Yo gavdasi borligiga qaramay Sanjar sal qo'rqoqroqmikin... Tag'in kim biladi, balki Rixsivoy yanglishayotgandir.

Harholda shoshilish kerak emas, odamlarga baho berishda aslo shoshilish kerak emas.

SHARIFJON AKAGA SHARAFLAR

Futbol o'ynagani kuzga yetadigan payt bo'lmasa kerak. Yozda issiq, birpasda qora terga botib, harsilab qoladi odam. Bahor ham yaxshi-yu, ammo ilik uzildi palla emasmi, ko'p o'ynasang tinkang quriydi. Bahorda futboldan ham ko'ra tabiat o'ziga ko'proq chorlaydi. Qir-adirlarga lola sayliga chiqqing, ko'mko'k maysalarda dumalab yotib yayraging keladi. Qishda-ku futbol esga ham tushmaydi. Chana, konki uchasan, qorbo'ron o'ynaysan...

Ha, to'p surish borasida kuzdan qulayroq fasl yo'q.

Futbolga qiziqmaydigan bolalar kam bo'ladi. Ayniqsa, «Paxtakor»ning jonkuyari bo'lмаган birorta bola topilmasa kerak Toshkentda. Rixsivoy ham futbolning ashaddiy ishqibozlaridan. Bordi-yu «Paxtakor» yutqazib qo'ysa shunday alam qiladiki, go'yo eng sevgan narsasini yo'qotib qo'ygandek kuyib-pishadi. «Paxtakor» ochkolarni, Rixsivoy esa tinchini yo'qotadi, keyingi o'yingacha o'ziga kelolmay xunob bo'lib yuradi. Xullas, ashaddiy ishqiboz degan nomni Rixsivoy yuz foiz oqlardi.

Maktab stadioni gavjum. Bugungi futbol o'yinini ko'rishga juda ko'p tomoshabin yig'ilgan. Buning ajablanadigan joyi yo'q. 7-«a» bilan 7-«b» ning o'yini qiziqarli o'tishi hammaga ma'lumi! Odamning ko'p yig'ilishiga yana bitta sabab bor, 7-«b» darvozasini bugun Sharifjon aka qo'riqlaydi. Ha, ha, raqib komandaning roziligi bilan darvozada 7-«b» ning sinf rahbari, tarix o'qituvchisi Sharifjon aka turadigan bo'ldi. Evaziga 7-«a» ning komandasini maktabning eng zo'r darvozaboni, 9-sinf o'quvchisi Chori chayirni o'zlariga olishdi. Bu haqdagi e'lon uch kundan beri maktab koridorida osig'liq turardi. Shunday bo'lgandan keyin odam yig'iladi-da!

O'yinga bir hafta burun tayyorgarlik ko'rish boshlandi. O'z jamoasining sharafini himoya qilishni istovchilar juda ko'p edi. Ammo ma'lumki, butun sinf o'ynolmaydi, faqat o'n bittagina nomzodni tanlab olish kerak. Bu og'ir va mas'uliyatli ish sinf rahbari Sharifjon aka va jamoa sardori Sanjarning zimmasiga yuklatilgan edi.

Komandanining to'rtinchchi sinfdan beri o'ynab kela-yotgan asosiy tarkibi mavjud, gap faqat zahiradagi o'yinchilar ustida borardi.

O'ynashni xohlagan bolalarning ro'yxatiga Rixsivoy ham o'z familiyasini yozdirib qo'ydi. Yangi kelganligi tufayli uning qanday o'ynashini bolalar hali bilmasdi, shuning uchunmi hech kim uning ismi-sharifiga e'tibor bermadi. Faqat Sharifjon aka shunchaki nomiga: «Nechanchi nomerda o'ynarding?» deb so'rab qo'ydi. «O'ng qanot hujumchisi», dedi Rixsivoy, o'qituvchisi eshittdimi, eshitmadimi bilmadi.

Lekin bugun, o'yin boshlanishidan oldin Sanjar «tayyor bo'lib tur, o'yinchi almashtirsak, maydonga biringchi sen tushasan», deb qoldi. Bu qarorga u Rixsivoy bilan kechagi bo'lgan to'qnashuvdan keyin kelgan edi. Anchagina qaysar, o'z qadrini biladigan bola ekan, bundaylardan yaxshi sportchilar chiqadi, oxirigacha jon-jahdi bilan kurashadi ular, deb o'yladi Sanjar.

... O'yin 7-«a» jamoasining shiddatli hujumi bilan boshlandi. Sharifjon aka uch-to'rtta juda qiyin to'pni ushlab qoldi, yo'qsa allaqachon hisob 3:0 yo 4:0 bo'lib

ketardi raqib foydasiga. Ha, rosa ham olqishga sazovor bo'ldi Sharifjon aka.

Bir marta Chori chayir ham hunarini ko'rsatdi. Sanjar zARB bilan tepgan to'p zambarak o'qidek darvozaning tepe burchagiga qarab uchdi. Sanjar ham, boshqa bolalar ham gol bo'ldi, deb sevinchdan qo'llarini ko'tarib sakrashganini bilishadi. Chori chayir aql bovar qilmaydigan bir epchillik bilan to'pga o'zini otib ilib qoldi. Maymundan battar sakrong'ich ekan qurmagur!

Bo'ldi qarsak, bo'ldi qarsak! Hatto raqib jamoalarning ishqibozlari ham Chori chayirning mahoratiga tan berib qarsak chalib yuborishdi.

O'yin borgan sari keskin tus ola boshladi. Lekin 7-**a** ning ustunligi sezilib turardi. Ularning mahorati ham, tezligi ham 7-**b** dan yuqoriroq edi. Ming qilsa ham ularda uchta professional bor edi-da. Uchalasi ham «Paxtakor» jamoasi qoshidagi bolalar maxsus futbol seksiyasiga qatnardi. Shuning uchun — o'zlariga ishonganlari uchun raqib darvozasini Sharifjon aka qo'riqlashiga rozi bo'lishgandi.

7-**a** hujum ustiga hujum uyushtiraverdi va nihoyat raqiblar himoyachilarni dovdiratib qo'yib, hisobni ochishdi. To'jni birinchi bo'lim tugashiga ikki minut qolganida markaziy hujumchi kiritdi. Ikki minut qolganda-ya! Shunisi alam qiladi-da! Ammo o'zi ham yomon zo'r kuch bilan tepgan ekan, to'p Sharifjon akaning qo'liga tegib darvoza to'riga tushdi.

Jamoalar 1:0 hisobida tanaffusga chiqishdi.

Ham darvozabonlik, ham murabbiy vazifasini o'tayotgan Sharifjon aka bolalarni darvoza ortiga boshlab o'tdi.

— O'tirib, dam olinglar, — dedi.

Horib toliqqaN, terga botgan bolalarning ba'zilari chordana qurib o'tirishdi, ba'zilari chalqanchasiga yerga yotishdi. Bolalar sal nafaslarini rostlagandan keyin:

— Qoyil, yaxshi o'ynadinglar! — dedi Sharifjon aka. — Buni u shunchaki bolalarning ko'nglini ko'tarish uchun emas, sidqidildan aytdi. — Lekin ikki og'iz gapim bor, ikkinchi bo'limda qanday o'ynash haqida...

Yerda uzala tushib yotgan yarim himoyachi turib o'tirmoqchi bo'lib joyidan qo'zg'algan edi, Sharifjon aka qo'yadi.

— Yo'q, yo'q, yotaver! Boshqalar ham pinagini buzmasin. Ha, faqat eshitsanglar bo'ldi. Gap bunday. Birinchi bo'limda nega raqibning qo'li baland keldi? Buning siri bitta, ular o'yinning boshidan oxirigacha hammasi kurashga safarbar bo'ldi. Fikrimni hozir ravshanroq tushuntirib beraman. Deylik, hujumga o'tsa hammasi birdan o'tadi, himoya qilish kerak bo'lsa hammasi birdan himoya qiladi. Ularning har bir o'yinchisi himoyada ham, hujumda ham birdek yaxshi o'ynayapti. Biz-chi? Hujumga o'tsak himoyachilar o'z joylarida qolib o'yinni kuzatib turishadi, hujumchilarga yordam bermaydi. Yoki teskarisi, raqib bostirib kelganda faqat himoyachilar ter to'kadi, hujumchilar esa orqaga qaytishga erinib, anqayib turishadi. Shuning uchun raqibimiz hujumda ham, himoyada ham bizga nisbatan son jihatidan ko'proq bo'lib qolyapti.

Sharifjon aka tin oldi. Bolalar gaplarining mag'zini chaqsin, o'ziga singdirsinlar uchun ataydan shunday qildi.

— Biz, — davom etdi Sharifjon aka, — raqibni o'z quroli bilan urishimiz kerak. To'pni egallab turgan bitta o'yinchiga uchtalab-to'rttalab yopishinglar, shunda u gangib qolib yo to'pni oldirib qo'yadi, yo sheringiga noto'g'ri oshiradi... Va oxirgi gap. Har bir o'yinchchi «ochilish»ni bilishi zarur, ya'ni to'pni sheringiga uzatdimi, shu zahoti o'yinchisi bo'lмаган bo'sh joyga yugurishi kerak, toki unga to'pni qaytarib oshirish mumkin bo'lsin. Ha, «ochilish»ni bilish eng katta ustalik! Shu, boshqa gapim yo'q!

Sharifjon aka yonboshlab yotdi-da, hushtakda zo'r kuy boshladi. Hushtakni zo'r chalar ekan, bulbuli go'yodan ham o'tkazib yubordi.

— Qani hamma! Ha, qo'shilinglar! — buyurdi u.

Hamma bolalar bilar-bilmas jo'r bo'lishdi, biri tog'dan kelsa, biri bog'dan keladi. Xullas, shunaqa alomat «kuy» yangradiki, eshitayotganlar ham, ijrochilar ham qotib-qotib kulishdi.

Butun sinf Sharifjon akani yaxshi ko'rishi bejiz emas edi. Bolalarning ko'ngliga yo'l topishni bilardi u. Mana hozir ham birpasda hammani kuldirdi. O'qituvchi degan shunaqa bo'lsa-da! Uddaburo, serg'ayrat, tanti! Ba'zi keksa o'qituvchilarga o'xshab uzoqdan-uzoq nasihatlar bilan ensani qotirmaydi. Shuning uchun mактабга shu yil ishga kelganiga qaramay butun sinf Sharifjon aka bilan apoq-chapoq bo'lib ketgan.

Faqat Rixsivey o'zini tortib yurardi. U umuman odamlar bilan tez til topishib, qovushib ketolmasdi. Odam bilan obdan sinashta bo'lib, keyin yaqinlashardi, shunaqa odamoviroq, tortinchoqroq edi. Innaykeyin birinchi uchrashgandayaoq Rixsivoyga o'zini juda yaqin qilib ko'rsatishga urinadigan, «ajoyib xususiyatlarini» shoshib namoyish qiladigan odamlar unchalik yoqmasdi. Uddaburo, ishbilarmon korchalonlardan sal cho'chirdi.

Ikkinci taym yana 7-a ning shiddatli hujumi bilan boshlandi. Aftidan, ular ham tanaffusni bekorga o'tkazmagan, o'z murabbiylaridan kerakli ko'rsatmalar olishgan edilar. Rost-da, 1:0 omonat hisob, shuning uchun muvaffaqiyatni mustahkamlab olish darkor.

Ammo endi 7-b ham bo'sh kelmadi, ular har bir to'p uchun jon-jahdlari bilan kurashishdi. Sharifjon akaning aytganlariga amal qilib maydonning har bir burchagida ko'pchilikni tashkil qilib o'ynashdi. Bu esa, tabiiyki, juda ko'p kuch sarflashga olib keldi. Natijada ikkinchi taymnинг yarmisiga borib bir-ikki-ta o'yinchi ancha charchab qoldi.

To'p maydondan tashqariga chiqib ketganidan foydalanib Sanjar yugurbanicha darvozada turgan Sharifjon akaning oldiga bordi.

— Sharifjon aka, Turg'un juda harsillab qoldi, almashtirsak qanday bo'larkin?

— Juda to'g'ri fikr. Kimni qo'ymoqchisan?

— Rixsivoyni, mashqlar paytida unga e'tibor bermagan ekanmiz. O'yinini bir ko'ring, tirishqoq bolaga o'xshaydi.

To'p o'yinga tushirilgan edi, Sanjar javobni kutmasdan orqasiga yugurdi. Maydonning chetida zahi-

radagi o'yinchilar bilan birga matchni tomosha qilib o'tirgan Rixsivoya qarab qichqirdi:

— Rixsivoy, tayyorlan, hozir maydonga tushasan.

Kutilmaganda aytilgan bu gapdan Rixsivoy sal hovliqib qoldi. Hayajonlanishga sabab bor edi. O'z sinfi uchun o'ynash sevintirgan bo'lsa, mas'uliyati cho'chitdi.

Ko'p o'tmay Sanjar hakamning oldiga borib o'yinchini almashtirishga ijozat so'radi, hakam rozi bo'ldi.

O'yindan chiqib ketgan Turg'unning o'rniiga Rixsivoy maydonga tushdi, o'ng qanot hujumchisining joyini egalladi. Dastlab unga hech kim to'p uzatmadi. Axir u yangi, sinalmagan o'yinchi, bordi-yu to'pni oldirib qo'ysa-chi?! Qandayligini hech kim bilmaydi.

Raqib himoyachisi yanglishib qolib to'pni Rixsivoy tomonga tepib yubormaganida, kim biladi, oyog'iga to'p tegishini tag'in qancha kutardi. Oldiniga Rixsivoy yarim himoyachini aldab o'tdi, keyin tezlikni oshirib himoyachiga yaqinlashdi, chiroqli fint qilib uni ham aldab o'tdi, endi oldinda raqib o'yinchilaridan hech kim yo'q, iloji boricha tezroq jarima maydonchasiga kirib borish kerak. Qulog'iga sheriklarining: «Oshir, oshirsang-chi», degan qichqiriqlari eshitilar, ammo ko'zi hech kimni ko'rmas, kuchining boricha oldinga yugurardi.

Mana, u darvozaga yaqinlashib qoldi, ammo darvoza to'ppa-to'g'risida emas, chetroqda — o'ng tarafida edi. O'ylab o'tirmasdan to'pni darvoza tomon tepdi, to'p darvozaning chap to'sini yonidan o'tib ketdi.

Shu zahoti uning yoniga Sanjar bilan yana bitta hujumchi yugurib kelib, kojib berishdi:

— Qanaqasan o'zing?! Nega oshirmaysan, axir men shundoqqina darvozaning to'ppa-to'g'risida turuvdim-ku! — qichqirdi Sanjar.

— O'v, miyal Burchakdan turib darvozaga to'p kiritib bo'larkanmi?! Odam degan bunday oshirib o'ynaydi-da. Bitta o'zingni qo'lingdan nima kelardil! — do'q urdi boshqa hujumchi.

— Sen unaqa qilma, oshirib o'yna, — sal yumshadi Sanjar.

Mayli degandek bosh silkidi Rixsivoy. Keyin qo'shib qo'ydi:

— O'zlarинг ham oshirib turinglar-da!

Norozilik bildirishgan bo'lishsa-da, Rixsivoyning uyuşhtirgan hujumi Sanjarda ham, boshqa o'yinchilarda ham yaxshi taassurot qoldirdi.

Raqib ham o'ziga tegishli xulosa chiqardi, bu boladan ehtiyyot bo'lish kerak, ancha chaqqon, usta o'yinchi ekan, ayniqsa tez yugurar ekan.

Endi Sanjar oyog'iga to'p tegishi bilan darrov Rixsivoyna uzatdi. Rixsivoy yana osonlikcha yarim himoyachini aldab o'tdi. Shu payt, «menga qo'yib ber», degan ovoz eshitildi. Bu raqib markaziy himoyachisining ovozi edi. Baland bo'yli, baquvvat o'yinchi edi u, ustiga ustak juda mug'ambir edi.

U Rixsivoyning ustiga quyundek bostirib bordi, yelkasi bilan chunonam turtdiki, Rixsivoy chirpirak bo'lib yerga uchib tushdi. Aldashga usta o'yinchilarga qarshi shunaqa qo'pollik qilmasang, atrofingda pildirab aylanib, dog'da qoldirib ketadi. Bu bir. Ikkinchidan, yangi tushgan o'yinchini shunaqa qo'rqtib qo'yish kerak. Yuragini oldirib qo'ysa ikkinchi o'ylashib yaqinlashadi darvozaga. Shunday o'ylardi himoyachi! Ha, ancha pixini yorgan o'yinchi edi raqibning markaziy himoyachisi!

Hakamning hushtagi churillab, jarima to'pi belgilandti. Lekin xavfli emas edi. Jarima maydonchasidan o'n metrcha uzoq, bunday masofadan darvozani nishonga olish qiyin. Qayerda yiqitishni ham bilardi markaziy himoyachi. O'n bir metrli jarima zarbi berilishi xavfi bor joyda o'la qolsa bunday qo'pollik qilmasdi.

To'p tepilib, o'yin yana davom etib ketdi. Rixsivoy arang o'rnidan turdi. Chap tizzasi zirqirab og'riddi, qarasa shilinib qontalashib yotibdi. Lekin u oyog'i og'riyotganini bilintirmaslikka harakat qildi.

Sheriklaridan kimdir to'p oshirgan edi, yetib borolmadi, oqsab qoldi. Ikkinci marta Sanjar to'pni shunday oyog'ining tagiga tashlab berdi. O'shani ham epiolmadi, oldirib qo'ydi. Rixsivoyna juda alam qildi, bor kuch bilan yugurolmayotgani, oqsoqlanib qolgani alam qildi. Qani endi kuchi yetsa, uni mayib qilgan

himoyachidan boplab qasdini olardi-ya! Ammo undan boshqacha yo'l bilan qasd olishi, gol urib alamidan chiqishi kerak.

Bir mahal Rixsivoning oldida Sanjar paydo bo'ldi.

— Boshqasi chiqsinmi o'rningga, almashasan-mi? — so'radi shoshib.

— Birpas o'ynay.

— Yugurolmayapsan-ku! Cho'loqlanib qanday o'ynaysan?

— O'ynayman! — dedi Rixsivoy, — mana ko'rasan, o'ynayman. Ozgina qo'yib ber.

Sanjar indamasdan to'p ketidan yugurib ketdi.

Rixsivoy, o'zini ko'rsatishi kerak, bo'lmasa o'rniqa boshqa o'yinchini qo'yishadi. To'g'ri qilishadi, Rixsivoydan qanday foyda? Axir vaqt tugab boryapti, hisob esa 1:0, raqib foydasiga.

Rixsivoning cho'loqlanib qolganini ko'rib sheriklari unga to'p uzatishmay qo'yishdi. Oradan besh minutcha o'tgandan keyin Rixsivoyning tizzasida og'riq sal bosilgandek bo'ldi.

U bir-ikki marta sheriklariga, «buyoqqa oshir, men bu yerdaman, buyoqqa, oshir», deb qichqirdi. Ammo unga to'p tegmadi.

Rixsivoyni qorovullab ketidan izma-iz yurgan raqib himoyachisi ham endi unga ortiqcha e'tibor bermay qo'ydi. Ammo chekingani yaxshi bo'ldi. Xuddi shu payt sherigi unga to'p uzatdi. Rixsivoy to'p bilan olg'a intildi.

Oldin raqibning bitta o'yinchisini aldab o'tdi, keyin ikkinchisini. Maydon markazidan oshib raqib tomonga o'tdi. Shu payt unga qarab yana o'sha markaziy himoyachi pishqirib kela boshladni. Uni ko'rib Rixsivoning ancha bosilib qolgan tizasi birdan zirqirab og'riy boshlagandek bo'ldi, ammo tishintishiga qo'ydi, bor irodasini yig'ib yugurishda davom etdi. U ham himoyachiga qarab tikka boraverdi, ko'rinishidan o'zini unga urib ag'darmoqchidek edi. Buni himoyachi tushundi, ko'ramiz kim kimni ag'dararkin, degandek kuchining boricha o'zini Rixsivoyna otdi. Shu damda ustalik qilib qoldi Rixsivoy, eng so'nggi daqiqada epchillik bilan chap

berdi, himoyachi yonidan o'tib ketdi. Ana shunda Rixsivoy darvoza tomon o'qdek uchdi.

Ajabo, uning qarshisida yana bitta himoyachi paydo bo'lib, yo'lini to'sdi, o'zini to'xtatolmay unga urilib ketdi. Biroq yiqilar ekan, Rixsivoy to'pni himoyachining ustidan o'z sherigiga oshirishga ulgurdi. Sherigi shunaqa zarb bilan to'pni darvozaga tepdiki, hatto ustasifarang, chaqqonlikda maymunni qochiradigan Chori chayir ham nochor qoldi. To'p darvozada edil Buni Rixsivoy yotgan joyida ko'rdi. To'p urgan sherigi Sanjar ekanini ham endi bildi. Barcha o'yinchilar Sanjarga tashlanib, yerga dumalatib ustiga o'zlarini otishdi.

Rixsivoy turishga shaylangan edi, tizzasi bu gal chidab bo'lmas darajada zirqirab ketdi. Endi qadam bosolmasligini aniq sezdi, bitta tizzasida emaklab maydondan chiqdi. O'rniga maydonga himoyachi tushdi.

O'yin tugashiga atigi uch minut qolgandi, raqib o'yinchilari butun komandasi bilan hujumga tashlandi. Jon-jahdi bilan Sharifjon akaning darvozasini to'pga tutdi. Shoshilganda hato ko'p qilinadi, tepilayotgan to'plar nishonga aniq tegmas yo darvoza ustidan, yo yonidan o'tardi. Ba'zilari to'ppa-to'g'ri Sharifjon akaning qo'liga borib tushardi.

Bunday vaziyatda tabiiyki 7-♦b♦ butun jamoasi bilan himoyaga o'tib oldi.

Nihoyat hakamning orziqib kutilgan hushtagi chalindi, match tugadi. 7-♦b♦ futbolchilari quvonchdan osmonga sakrab, bir-birlarini quchoqlab tabriklay ketdilar. O'zingdan kuchli raqib bilan durang o'ynash sharafli-dal Sanjar bilan Sharifjon akani bolalar o'rabi olishgan, bir-biriga gal bermay chuvillashardi. Axir Sanjar ham, Sharifjon aka ham bugungi o'yining qahramoni edilar-da!

Rixsivoy, bolalarning orasidan turtinib-surtinib o'tib, arang Sanjarga yaqinlashdi, yelkasiga urib tabrikлади.

— Qoyilman, zo'r gol urding!

Sanjar rahmat degandek bosh silkidi. Keyin:

— Ko'rasan, endigi gal yutamiz! — deb qo'shib qo'ydi. Uni yana ishqibozlar o'rabi oldi.

— Qani, bolalar, dushgal — dedi Sharifjon aka.

Futbolchilar sport zalining dushxonasiga yugurishdi. Rixsivoy oqsoqlanib ulardan qolib ketdi.

U qiyinalib, bitta-bitta qadam bosib ketayotgan edi, orqasidan:

— Bizning qidirmagan joyimiz qolmadi-yu, bu buyoqda yallo qilib yuribdi! — degan ovoz eshitildi.

Rixsivoy o'girilib qarasa, yetakchi tarbiyachi Habiba bilan sinfdoshi Dilnoza. Nega endi bular meni qidirishar ekan, deb hayron bo'ldi.

— Bir minutga o'tir, — dedi Habiba.

— Nega endi?! — battar hayron bo'ldi Rixsivoy.

— O'tir, keyin bilasan.

— Jarohatingni tozalab, bog'lab qo'yaman, — dedi Dilnoza.

— E, bor, ishingni qil! — jerkib berdi Rixsivoy. Oliftagarchiligin-chi, tizzangni ham emas, jarohatingni emish!

— Qiz bola bilan ham shunaqa dag'al gaplashadimi odam, — astoydil xafa bo'ldi Habiba, — senga yaxshilik qilmoqchi-ku, bul!

— Mayli, baribir yarasini bog'lab qo'yaman, — dedi Dilnoza, — chunki men o'z vazifamni bajaryapman. Meni butun sinf saylagan hamshira qilib.

— E, ishingni qil. Men saylabmanmi seni? Ancha yumshab e'tiroz bildirdi Rixsivoy. Kerak emas, bog'lama. Og'riyotgan bo'lsa ham mayli endi, sal shilindi.

— Zo'rg'a yuryapsan-ku, — kului Habiba, — bo'pti, o'tir, tozalab, bog'lab qo'ymasa infeksiya tushishi mumkin.

Buni Habiba qat'iy qilib aytди, do'q urmadi, yalin-madi ham, ammo shunday gapirdiki, bo'ysunmaslikning iloji yo'q edi.

Rixsivoy yerga cho'kdi. Qani endi yarasini bog'lab og'rinqi qoldirsa — ichida jon-jon deb turibdi. Tixirlik qilishining boisi, arzimagan narsaga ham shunchalikmi, deyishlaridan andisha qilayotgan edi.

Dilnoza aptechkasini ochdi. Ichida har xil doridarmon. Ammo balo ekan, haqiqiy hamshiralardan qolishmaydi. Birpasda jarohatni spirit bilan tozalab yod surdi, doka bilan mahkam qilib bog'lab qo'ydi.

Rixsivoyning joni kirdi. Iymanib, zo'rg'a «rahmat», dedi.

— Arzimaydi, — dedi Dilnoza loqaydlik bilan.

Bu bilan u yana bir marta faqat o'z vazifasini ado etayotganligini anglatdi.

— Tuzuksan-ku, Rixsivoy. Ozgina o'ynagan bo'lsang ham o'zingni ko'rsatding, — dedi Habiba, — kiritilgan to'pda sening yuz foiz hissang bor.

Rixsivoy indamadi. «Yo'g'-e», deb yolg'ondakam sipolik ham qilmadi yoki «rostdanmi», deb ochiq suyunib ham ketmadi. Faqat Habiba haq gapni aytgani uchun ich-ichidan sevinib qo'ydi.

Yangi maktabga kelganidan beri Rixsivoy Habiba bilan ikki-uch martagina uchrashdi. Har uchrashganida bu qizga qoyil qolar va u borgan sari Rixsivoyna ko'proq yoqardi. Bo'lmasa unaqa ortiqcha gap ham gapirmaydi. Ko'rinishidan ham aytarli chiroyli emas, lekin yoqimtoy. Yoqimtoy bo'lib unaqa haddan tashqari shakarguftor, haddan tashqari sermulozamat va chuchmal emas. Qaytanga sal erkaktabiatroq. Ha, yigitlarga o'xshagan mard qizlardan, to'g'riso'z, dangalchi, odamshavanda.

— Bo'pti, men ketdim, — yerga qarab to'ng'illadi Rixsivoy. Rost-da. Ikkita qizning oldida bitta o'zi ko'p o'ralashib nima qiladi.

— Uch kungacha cho'milish mumkin emas, — ta'kidladi Dilnoza xuddi shifokorlardek salmoq bilan.

— Birov senga cho'milaman deyaptimi? O'zi bir oyda bir marta yuzimni yuvaman-u, — ishshaydi Rixsivoy.

Habiba bilan Dilnoza kulib yuborishdi.

— Unda sen ancha ibratli ekansan, — hazilni ilib ketdi Dilnoza, — chunki bizning sinfdagi ba'zi bolalar yuzlarini yilda bir yuvishadi.

Endi Rixsivoy ham kulib yubordi. Iljayganicha kiyimini almashtirgani sportzal tomon ketdi. Eshikda yuvinib-taranib zaldan chiqib kelayotgan Sanjarga duch keldi. U kaftini oshib Rixsivoyna tutdi.

— Qo'lingni tashla, oshna, boyta zo'r oshirib berding to'pni.

Rixsivoy o'rtog'ining kaftiga sharaqlatib urdi.

— Sen ham golni boplading!

Ular har ikkovi o'z yo'lida davom etdi.

Rixsivoy sport formasini yechib o'z kiyimini kiyar ekan, miyasidan g'alati fikr kechdi: qiziq, nega Sanjar shu gapini boyaga hammaning oldida aytmadidi. Esiga kelmadimi yo ataydan indamadimi? Agar bolalarning oldida aytsha sha'niga bo'layotgan maqtovlarning bir qismi Rixsivoymga tegardi. Balki shuning uchun aytmagandir. Nahotki Sanjar shunaqa shuhratparast bo'lsa. Rixsivoyning yana o'zidan jahli chiqdi, odati yomon, qildan qiyiq qidiraveradi. Sanjar-ku, «qo'lingni tashla», deb tabrikldi, shundoq ekan, har xil narsalarni o'layvermasdan indamay ketavermaydimi?

Rixsivoy papkasini ko'tarib uyiga jo'nadi. Maktabdan chiqishi bilan Dilnozaga duch keldi. Hozirgina yarasini bog'lab qo'ygan odam endi Rixsivoyni xuddi ko'rmayotgandek, notanish kim-sadek yonidan beparvo o'tib ketaverdi. Namuncha kerilmasa bu qiz, go'yo ming-minglab bemorlarni davolagan mashhur shifokordek tutadi-ya o'zini, sal popugini pasaytirib qo'yish kerak.

— O'v alloma! — chapanichasiga gap otdi Rixsivoy, — ertaga aljabrdan keyin kimyomi?

Dilnoza to'xtadi, qoshlarini chimirib Rixsivoymga qaradi.

— Nima?

— Voy sodda odam-ey, shunga ham tishing o'tmaydimi? Biz yoshligimizda, ya'ni maktabda tahsil ko'rib yurgan paytlarimizda, algebra, ximiya degan gaplar bo'lmasdi, uning o'rniغا aljabr, kimyo, xo'p... jo'g'rofiya derdik.

— Ajab bo'pti! — Rixsivoyning so'zini bo'ldi Dilnoza, — shiqo', shiqo' av anya shiqo', milib shyouq iragnis ruraz!

Endi Rixsivoyning og'zi ochilib qoldi.

— Qaytar, nima deding?

— O'zi bittagina edil — bijirlab javob qildi Dilnoza va yana burnini qaqqaytirib yo'lida davom etdi.

— Topgan gapini-chi, shiqo'-shiqo' emish, — Rixsivoymga nasha qilib piq etib kulib yubordi, — bu ham qiziqchi ekan-u!

Bir ozdan keyin Dilnozaning jumbog'ini yechdi: teskari gapirgan: o'qish, o'qish va yana o'qish demoq-chi.

«BEMOR» ANQABOYEV

Katta tanaffus payti edi. Oti katta tanaffus bo'lgani bilan birorta qiziq o'yin boshlab, endi avjiga chiqqaniningda albatta qo'ng'iroq bo'lib qoladi. Doim shunaqa — hech vaqt yetishmaydi.

Rixsivoy tanaffuslarda ko'pincha basketbol may-donchasiga yugurardi. U ketma-ket sakrab, to'p tash-lanadigan savatchaga qo'lini tekkizishga urinardi. Ammo savatcha juda balandda, unga yetishga yo'l bo'lsin?! Ammo Rixsivoy irg'ishlagani-irg'ishlagan edi. Savatchaning o'ziga emas, hatto tagidagi to'rga qo'li yetganida ham rosa xursand bo'ladi. Bir marta o'ninchi sinf o'quvchilari basketbol o'ynashayotgani-da ularga murabbiyning aytgan gapini eshitib qolgan edi. «Kimda-kim yaxshi basketbolchi bo'lishni istasa, shu mashqni ko'p qaytarishi kerak. Keyin bu mashq bo'yni ham o'stiradi», degan edi o'shanda murabbiy.

Rixsivoy baland bo'yli bo'lishni juda-juda orzu qilardi. Kuchli va baland bo'yli bo'lsa, hech kimga kichkinalar va nimjonlarni ranjitishga yo'l qo'ymas edi.

U basketbol savatchasining tagiga kelib endi sakrashga shaylangandi, yana tizzasiga og'riq kirdi, bir oyoqda hakkalab «voy-voy» deb qoldi.

— Ha, haliyam oyog'ing og'riyaptimi?

Qayoqdan yonida Habiba paydo bo'lib qoldi, Rixsivoy tushunolmadi. Ko'tarib turgan xasta oyog'ini asta yerga qo'ydi.

— Yo'q, ancha tuzalib qoldi.

— Menga qara, uch kun o'tdi, agar haliyam og'riyotgan bo'lsa doktorga ko'rsatish kerak, tag'in suyak-puyaging jarohatlangan bo'lmasin. Bu bilan hazillashib bo'lmaydi.

— Suyagim singan bo'lsa oyoq bosa olarmidim? Bemalol yuribman.

— Yo'q, sen unaqa beparvo bo'lma. Oldini olish

kerak. Sal-pal og'riyotgan bo'lsa ham, ochig'ini aytaver, doktorga ko'rsatamiz.

— E, qo'ysangiz-chi, — Rixsivoy qanday qilib Habibadan qutulishni bilmay turgan edi, baxtiga qo'ng'iroq jiringlab qoldi. — Mayli, agar og'risa aytarman.

U mакtab tomon yo'naldi.

— To'xta, — dedi Habiba, — ko'rинib turibdi, oyog'ingni bosolmayapsan. Bunaqasi ketmaydi. Buyoqqa yur.

— Qayoqqa?

— Yuraver!

— Axir darsga qo'ng'iroq chalindi-ku.

— Hechqisi yo'q, — xotirjam gapirdi Habiba, — doktor spravka beradi.

— Mayli, — to'ng'illadi Rixsivoy tabassumini yashirishga harakat qilib. Qaysi ahmoq darsga kirmaslik imkoniyati tug'ilsa foydalanib qolmaydi! Doktorga uchrasa, uchrar. Hamma o'rtoqlari darsda miyalarini achitib, masala yechib o'tirsalar, bu yallo qilib yuradi!

Doktorning xonasi zoologiya xonasining yonida edi. Eshik tagiga qo'yilgan stillarda atigi ikkitagina bola navbat kutib o'tirgan ekan.

— Qo'ng'iroqni eshitmadinglarmi? — so'radi Habiba ulardan.

Bolalardan bittasi o'rnidan turib issig'ida jo'nab qoldi. Ikkinchisi ixrab o'tiraverdi. U hatto boshini ko'tarib kelganlarga qaramadi ham.

— Voy jonim, uf... voy jonim, qaysi qilgan ayblarim uchun boshimga shunchalar jazo tushdiykin? Axir bir begunoh go'dak bo'lsam, nega shuncha jabr? Uh, ih, voy, voy-ey! — ohangiga olib ixrardi bola.

— Nima qildi? — so'radi Habiba.

— Voy-ey, yosh jonimga shunchalar azob berasanmi, e, beshafqat xudo?! — Habibaning so'rog'iga mutlaqo e'tibor bermay davom etdi bola. — O'lar bo'lsam o'lib bo'ldim-ku. Voy-ey, uh-ey, ih-ey! Voy yonib ketyapman, voy kuyib ketyapman!

— Isitmang balandga o'xshaydi-ku, — dedi Habiba.

Bola ingrashdan taqqa to'xtab Habibaga qaradi.

— Nima?

— Alahsirayotganingga aytaman, — jilmaydi Habiba, — isitmasi baland bo'lsa odam shunaqa alahsiraydi.

— Birov o'lay desa, siz kulay deysiz-a? — Habibadan xafa bo'lganini yashirmay yuzini ters burdi u.

— Qayering og'riyapti o'zi?

— Voy so'ramang, a'zoyi badanim qaqshab og'riyapti! — Uvvos ko'tardi bola. — Agar zig'ircha insofingiz bo'lsa gapga tutib qiynamang meni.

— Yanglishmasam 9 «a» dan sen-a? Familiyang nima edi?

Bola javob bermadi.

Shu payt doktorning xonasidan panjasini bog'lagan qizaloq chiqdi.

— Kir! — dedi Habiba ixrab o'tirgan bolaga.

Bola arang o'rnidan turdi, turdi-yu, xuddi ichida bir narsa uzilib ketgandek chinqirganicha yana joyiga ag'darildi. Rixsivoy xaxolab kulib yuborishdan zo'rg'a o'zini ushlab qoldi. Chunki yolg'ondan qilayotgani shundoqqina bilinib turardi. Judayam quv, usta bola ekan, artistlikni ham qoyil qilarkan.

— Sen birpas o'tirib tur, — dedi Rixsivoya Habiba.

Bolani qo'ltig'idan olib turishga yordam berdi, suyab doktorning xonasiga boshlab kirdi.

Shifokorlardan ko'ra oshpazlarga ko'proq o'xshaydigan semiz Ruxsora Shokirovna ularni ochiq chehra bilan kutib oldi.

— E, kelngilar, kelngilar, ko'rinnmaysan, Anqaboyev? Eski qadronim qayerda qolib ketdi, deb endi xavotir ola boshlagan edim, — keyin u Habibaga yuzlandi. — Bu bilan juda qadronmiz, Habibaxon. Meni juda yaxshi ko'radi, har xafta yo'qlab kirib turadi oldimga. O'tiringlar, o'tiringlar.

Habiba bilan Anqaboyev o'tirishdi.

— Men ham tanish bo'lsanglar kerak deb o'ylagandim, — dedi Habiba.

— Tanish ham gapmi, aytyapman-ku, bu bilan qadronmiz deb! Qancha bo'lgan tanishganimizga,

Anqaboyev, yanglishmasam to'qqiz yil-a? Birinchi sinfdan beri qatnaysan-kul!

Anqaboyev javob bermadi, yerga qaraganicha ixrab o'tiraverdi.

— Anqaboyev bemor emas, shifokor, tibbiyot ilmini suv qilib ichvorgan, har qanday professorni bir cho'qishda qochiradi. Kasalning turlari haqida men bilan bermalol bahslasha oladi. Hatto yutib chiqishi mumkin.

Anqaboyev fig'oni chiqib ixradi va shu tariqa Ruxsora Shokirovnaning gapiga chek qo'ydi.

— Xo'sh, og'ayni, eshitaman seni, — muddaoga o'tishga majbur bo'ldi shifokor — ammo ko'rining menga yoqmayapti, nima balo, sindroming yana qo'zg'ab qoldimi?

— Yo'q, — dedi Anqaboyev, — simptomlari sindromga o'xshamayapti.

— Demak...

— Yo'q, nevralgiya ham emas.

— Qiziq, — yuziga jiddiy tus berdi Ruxsora Shokirovna, — unda yana yangi kasalga chalinibsanda?

— Nafasingizni issiqroq qiling, Ruxsora Shokirovna, nima, xudoning bandasi bitta manmi, hamma kasalni manga yopishtiraveradi? — o'ksigan bo'ldi Anqaboyev.

— Men seni faqat sog' ko'rishni istayman, Anqaboyev, — dedi uzrli ohangda Ruxsora Shokirovna, — bekorga kelmagandirsan, biror narsa bezovta qilayotgandir!

— Aytgani ham qo'rqtyapman, — yig'lamsirab gapirdi Anqaboyev.

— Baribir aytishga to'g'ri keladi. Doktorga aytmasang, kimga aytasan, — dedi Ruxsora Shokirovna, — harholda juda unchalik xavfli kasalga chalinmagandirsan, deb umid qilaman.

— Kasalning xavfsizi bo'larkanmi? — zo'rg'a gapirardi Anqaboyev, — vaqtida oldi olinmasa hamma kasal ham xavfli.

— Albatta, o'tib ketsa hamma kasal ham yomon, — xijolat bo'lganini yashirolmadi Ruxsora Shokirovna.

Habiba anqayib ularning gapini tinglardi. Faqat mutaxassislargina, hamkasblargina shunday so'zlashishi mumkin edi.

— O'zing nimadan shubha qilyapsan?

— Gepatitmikin degan xavotirdaman, — dedi Anqaboyev.

— Yo'q, og'ayni, — jiddiy e'tiroz bildirdi Ruxsora Shokirovna, — unaqasi ketmaydi. Men baribir senga poliklinikaga yo'llanma bermayman. Analizlar topshiryapman, deb yana uch kun yo'q bo'lib ketasan. Yo'q, yo'q, xomtama bo'lma.

— Mening ishim sizni ogohlantirib qo'yish. Ha, gumanimni aytdim. Vrach bo'la turib gapimga qulq solmasangiz, yana o'zingiz bilasiz.

Ruxsora Shokirovna ko'zlarini chaqchaytirib Habibaga qarab qo'ydi. Xafa bo'lib yoki achchiqlanib emas, aksincha, «ko'rdingmi, qanday balo bu bola», degandek hayratlanib.

— Bilasan-da, sariq kasalni aniqlash uchun analizlar topshirish kerak, shuning uchun gepatit deyapsan. Yo'q, Anqaboyev, bu gal hunaring o'tmaydi. Shuncha paytdan beri meni laqillatib spravka undirib yurganining yetar. Endi aldashga yo'l qo'ymayman.

— Demak, bemor o'lib ketaversin, — birdan Anqaboyev asabiyashib qichqirdi. — Qasam ichganmisiz? Esizgina Gippokrat hozirgi vrachlarga!

— Ammo qoyilman senga, Anqaboyev. Qabulimga har kirganingda biror xususiyating bilan, biror ga-ping bilan meni qoyil qilib ketasan! — Buni Ruxsora Shokirovna chin yurakdan aytdi, — qancha qo'rslik qilsang ham menga yoqasan! Quvlik qilayotganiningni bilib tursam ham senga qattiq gapirolmayman, nega shunday-a, Anqaboyev? Qanday siring bor seni, odamni o'zingga rom qilib oladigan?

Anqaboyev yana fig'on chekdi, qorniga sanchiq kirgandek ikki bukilib qoldi, fig'on aralash bir nima dedi.

— Nima deding? — eshitmadi uni Ruxsora Shokirovna.

Anqaboyev yana shivirladi.

— Qattiqroq gapir, hech narsa eshitmayapman?

Anqaboyev yanayam pastroq ovozda shivirladi.

— Qattiqroq gapirsang-chi!

Bu gal Anqaboyev alamzada bir ohangda qichqirib yubordi:

— Juda bo'lmasa birorta dori bering, og'riq holi jonomga qo'y mayapti! Jigarim shishib ketgan shekili.

— Dori yo'q, — xotirjam gapirdi Ruxsora Shokirovna, — sen doriga ortiqcha mehr qo'yma. Dorini ehtiyot bo'lib, faqat zarur paytdagina ichish kerak. Zarur bo'lмаган paytda dori faqat ziyon.

— To'g'ri aytasiz, menga endi dori kerak emas, chunki kasalni o'tkazib yuborganman. Meni faqat operatsiya stoli qutqarib qolishi mumkin.

Ruxsora Shokirovna Anqaboyevning tomirini ushlab ko'rni, yurak urishini eshitdi. Og'zini ochib tiliga qaradi, ko'zining qovoqlarini ochib sarig' qidirdi.

— Birov havas qilsa arziyidigan darajada sog'san, Anqaboyev, — dedi u, — sendan iltimos, Anqaboyev, o'z talantingni, qobiliyattingni xor qilma, haliyam bo'lsa maslahatimga qulq sol, sirk matabiga kirib masxarabozlikka o'qi. Sendan zo'r masxaraboz chiqadi. Men o'zim direktorning oldiga kirib boplab xarakteristika yozdirib chiqaman.

— Bittagina doringizni ayadingizmi? — «og'riq» dan Anqaboyevning basharasi tirishib ketgan edi.

— Bo'pti, qabulimda bo'ldi deb spravka beraman, lekin o'sha spravkaga, «ammo o'zi soppa-sog'», deb yozaman.

— Unaqa spravkani yozda, o'zim so'raganimda berarsiz oromgohga borishim uchun. Hozir qabulda bo'ldi desangiz kifoya, — bo'sh kelmadni Anqaboyev.

Ruxsora Shokirovna spravkani yozib Anqaboyevga uzatdi.

— Ushla. Ammo bu oxirgisi.

— Rahmat, — Anqaboyev o'rnidan turib chiqib keta boshladi, — ishqilib hozirgi doktorlarga ikkinchi ishim tushmasin. Bu ko'rgulikdan o'zing asra!

— Lekin sirkka borish haqidagi mening taklifim ustida jiddiy o'ylab ko'r, Anqaboyev! — sidqidildan gapirdi Ruxsora Shokirovna.

— Navbat kutib o'tirgan bolani aytib yubor, —

iltimos qildi Habiba, cho'ntagidan yondaftarchasini olib «Anqaboyev — talant» deb yozib qo'ydi.

Anqaboyev xonadan chiqib eshikni mahkam yopdi. Haliyam «og'riq» qolmagandek ayanchli chimirilib yer tagidan atrofga alangladi. Hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, qaddini rostladi. Keyin stulda o'tirgan Rixsivoy tomon qayrilib boqmay ham:

— Kirarkansan, — dedi.

Jo'rttaga qovoq solib ko'cha tomon yurib ketdi. Unga sinchiklab tikilgan odam «og'riq azobi»ni tortayotgan quv ko'zlarida kulgi uchqunlari borligini ko'rish mumkin edi.

Rixsivoy shoshmasdan o'rnidan turib doktorning xonasiga kirdi. Arzimagan yara deb azza-bazza shifokorga kelgani o'ziga kulgili tuyuldi.

Ruxsora Shokirovna Rixsivoyning yarasini shunchalik sinchiklab tekshirdiki, bola bechora, «og'ir yarador bo'libman shekilli», deb qo'rqiб ketdi. Qaytanga bekitmasdan buvisiga aytса bo'larkan, birpasda tuzatib qo'yardi. Buvisining topib olgan doriisi — otqulоq. Rixsivoyning qayeri shilinsa yo yara chiqsa otqulоq qo'yib tuzatadi. Bu vrach esa qip-qizil vahima ekan.

— Eting uzilibdi, gazak oldirib yuboribsан. Infeksiya tushishi mumkin. Mana buni surasan, mana bu dorini ichasan, kunora mening oldimga kelasan, dokangni yangilab bog'lab turaman.

— Rahmat, — dedi Rixsivoy o'tirgan joyidan siljimay, u chiqib ketishga shoshilmasdi. Rost-da, darsda nima qiladi.

Uning pinagini buzmasdan o'tirganini ko'rib:

— Bo'pti, senga ruxsat, — dedi Ruxsora Shokirovna.

Rixsivoy yana bir marta «rahmat» deb o'rnidan turdi-da, xonadan chiqdi. U sira shoshilmasdan, qadamini bosaymi, bosmaymi deb zo'rg'a qo'yardi. Katta zaldan o'tar ekan, xuddi birinchi marta ko'rayotgandek devoriy gazetadagi shiorlarni uzoq tomosha qildi. Nihoyat, sudrala-sudrala sinfiga yetib bordi. Eshikni qiya ochib ichkariga boshini suqdi.

— Mumkinmi?

— Shu paytgacha qayoqda yuribsан? — Sharifjon

aka soatiga qaradi va jahli chiqdi. — Yo‘q, mumkin emas, dars boshlanganiga yigirma minut bo‘libdi.

— Men anuvnaqa... — g‘o‘ldilladi Rixsivoy.

— Ortiqcha gapning foydasi yo‘q, mumkin emas.

— Men...

— U doktorda edi, — yonginasida Habibaning ovozi eshitildi, uni men o‘zim boshlab borgan edim.

Sharifjon aka Habibaga iliq nazar tashladi, birdan yumshab:

— Modomiki siz guvoh ekansiz, gap bo‘lishi mumkin emas, kira qolsin, — dedi.

— Qo‘lida spravkasi ham bor, — nima uchundir qo‘sib qo‘ydi Habiba.

— Spravkaning hojati yo‘q, — dedi Sharifjon aka o‘ta muloyimlik bilan.

— Tashakkur, — dedi Habiba oddiygina qilib.

Rixsivoy sinfga kirib o‘z joyiga o‘tirdi. Dars davom etdi. Sharifjon aka bolalarni zeriktirmas, ba‘zi o‘qituvchilarga o‘xshab odamni uxlatib qo‘yadigan his-ehtirossiz, bir ohangda gapirmsasdi. Obrazga kirgan aktyordek qizishib, zavq-u shavq bilan so‘zlardi. Gohida hazil qilib hammani kuldirardi. Bolalar biror qiziq gap chiqarmikin degandek, uning og‘zini poylab o‘tirishardi. Sinfni kuldirish esa juda oson, sag‘al narsaga «gurr» etib kulgi ko‘tarilaveradi.

Sharifjon akaning yana bitta yaxshi odati bor edi, hech qachon mavzuni tanaffusgacha taqab cho‘zmasdi. Dars tugashiga besh-olti daqiqa qolganda hikoyasini tugallar, uy ishi berar, keyin undan-bundan so‘zlashib o‘tirardi.

Bugun ham shunday qildi. Tanaffusga ozgina qolganda yunon sarkardalari haqida batafsil gapirib bo‘ldi, uyda o‘tgan mavzuni o‘qib kelishni tayinladi, hatto kimlardan so‘rashini ham aytdi, chala joyini to‘ldiradiganlar esa «besh» oladi, dedi.

Dars tugashiga uch minut qoldi.

— Endi, — dedi Sharifjon aka, — obuna masalasi ga o‘tsak. Yanglishmasam, gazeta-jurnallarga yozilish bo‘yicha bizning sinf muktab bo‘yicha birinchi o‘rinni olishga ahd qilgan edi. Ham hammadan oldin, ham yuz foiz yozilib birinchi o‘rinni olmoqchi edik. Shundaymi?

— Shunday, shunday, — butun sinf javob berdi.
— Bo'limasa, ijozatinglar bilan, obunaning borishi haqida sinfkom Xo'mirzayeva Sanobar hisobot bersa. Sanobar o'rnidan turdi.

— Xo'p, ikki kun davomida... uchta o'quvchidan boshqa hamma yozilib bo'ldi. Ular ham bugun pul olib kelishga va'da berishgandi. Egamova Mashhura!

Egamova Mashhura o'rnidan turib Sanobarga pul olib borib berdi.

— Yaxshi. Sodiqov Ahad.

Sodiqov Ahad o'rnidan turib xuddi majlisda nutq so'zlayotgan odamdek, baland ovozda e'lon qildi:

— Adam bugun maosh olar ekanlar. Agar bugun maosh olsalar va ichib kelmasalar ertaga opkeb bera-man.

Sinf «gurr» etib kulib yubordi.

Sanobar kattalardek sovuqqonlik bilan:

— Bo'pti, o'tir, — dedi. — Karimov Rixsivoy.

Rixsivoy o'rnidan turdi. Lekin nima deb javob berishni bilmasdi. Buvimlardan so'ragani og'rindim deyolmaydi-ku. Hamma uning og'zini poylab tin saqlardi.

— Ha, olib keldingmi pul? — so'radi Sharifjon aka.

Rixsivoy hamon indamasdi.

— Pul olib keldingmi, deb so'rayapman? — qay-tardi Sharifjon aka.

«So'rab nima qiladi, olib kelgan bo'lganimda berardim», dilidan o'tkazdi Rixsivoy.

— Gapirl — ovozini balandlatdi sal xunobi oshgan Sharifjon aka. — Opkeldingmi?

Rixsivoy «yo'q» degandek bosh chayqadi.

— Nega olib kelmading?

Rixsivoy indamadi.

— Nahotki ota-onang arzimagan uch so'mni sendan ayasa?

Rixsivoyning birdan jahli chiqib, bo'zarib ketdi. O'qituvchiga o'qrayib:

— Nima, yozilish majburiyimi? — dedi qo'rslik bilan.

— Ha, endi... — tutilib qoldi Sharifjon aka. — Barcha sinflar yuz foiz yozilganda bizdan bitta odam

chetda qolsa, sinfimiz sha'niga dog' tushmaydimi? Qolaversa, biz seni bevosita o'quvchilarga bag'ishlangan gazetaga obuna qilmoqchimiz. Uni hamma maktab bolalari o'qishi shart.

— O'qish shart bo'lsa kutubxonadan olib o'qiyman. Lekin yozilish majburiy bo'lmasligi kerak, — o'jarlik bilan qaytardi Rixsivoy.

— Agar ota-onang sen uchun uch so'm pul topolmasa... — yana boshladi Sharifjon aka.

— Ota-onamni o'rtaga tiqmang! — deb o'shqirdi Rixsivoy.

— Nega o'zingdan kattaga baqirasan?! — Sharifjon aka ham ovozini balandlatdi.

Qo'ng'iroq chalinib butun sinf diqqat bilan kuzatayotgan tortishuvning beliga tepdi.

— Bo'pti, sen bilan keyin gaplashamiz! — dedi Sharifjon aka.

U shiddat bilan yurib sinfdan chiqib ketdi. Sanobar uning ortidan yugurdi. O'qituvchilar xonasi oldida unga yetib oldi.

— Sharifjon Qobilovich, bir og'iz gapim bor edi sizda, — dedi.

— Nima deysan?

— Rixsivoy... Rixsivoy Karimovning ota-onasi yo'q, — dedi yutinib, — u yetimcha.

— Qanday? — dovdirab qoldi Sharifjon aka, — nega endi... yetim?

— Qari buvisi bilan birga turar ekan, — Sanobarning ovozi qaltirab chiqdi.

Sharifjon aka Sanobarga tikilib bir zum o'ylanib qoldi, keyin halovatini yo'qotgan odamdek, jonhalak bir kayfiyatda ham ta'na, ham gina bilan gapirdi.

— Shunday ekan, nega oldinroq aytmading!

— O'zim kecha aniqladim buni, — Sanobar ko'zlarini gunohkorona pirpiratdi, — bilasiz-ku, u bizga yaqinda keldi, yangi o'quvchi.

Sharifjon aka battar asabiylashdi.

— O'z vaqtida xabardor qilib turish kerak-da. Bundan keyin ehtiyyot bo'lgin!

— Nimadan ehtiyyot bo'lay?!

— Nimadan deysanmi? — Sharifjon aka gap topolmadi, — shunaqa narsalardan-da, e, bo'pti, boraver!

BORIGA BARAKA

Mastura xola alomat kampir. Aslida hamma kam-pirlar ham alomat bo'ladi. Lekin Mastura xola alo-matlarning alomati.

Ko'p gapirishi, ezmaligi mayli — bu ko'pchilik kampirlarga tekkan kasal, ammo maqtanchoqlik qiliishi Rixsivoyning kulgisini qistatardi. Yo'q, Mastura xola aravani quruq olib qochadigan lofchilardan emas, undoqdirmal-mundoqdirmal deb kekkaymaydi, yolg'on-yashiqlarni to'qib odamlarni avramaydi, laqil-latmaydi. Qizig'i shundaki Mastura xola birinchi navbatda o'zini aldaydigan maqtanchoqlardan. Ha, maqtanib o'zini-o'zi ovuntirib yuradi.

Vaholanki hayoti juda og'ir va mashaqqatli kech-di. U boshiga tushgan kulfatlarni dushmaniga ham ravo ko'rmaydi. Tag'inam bardoshli ekan. Ko'nikdi, chidadi, eng asosiysi zorlanmadni.

Mastura bolalar uyida tarbiya topdi, ota-onai mehri nimaligini bilmadi. O'ninchisinfni bitirishi bilan o'zi bilan birga bolalar uyida tarbiyalangan bitta yigitga turmushga chiqdi.

Eri bilan atigi olti oygina birga yashadi. Urush boshlandi-yu, turmush o'rtog'i frontga jo'nadi, yosh kelin qornida besh oylik bolasi bilan chirqillab qolaverdi.

U hali hech qayerga ishga kirib ulgurmagan, binobarin biror hunar egallamagan edi. Yaxshiyam maktabdosh dugonasi o'rtaga tushib uni egar-jabduq fabrikasiga ishga joylashtirib qo'ydi. Lekin uzoq ishlomadi, darrov otpuskaga chiqdi. Ko'zi yorigandan keyin chaqaloqni yasliga joylashtirguncha uyda o'tirdi. Qahatchilik yillari emasmi, ishlagaganlar ning kun ko'rishi qiyin edi.

Mastura bir amallab sakkiz oylik o'g'ilchasini yasliga joylashtirdi-yu, yana ishga qaytdi... Yillar o'tdi, ham otalik, ham onalik qilib o'g'lini voyaga yetkazdi. Dam olish nima, otpuska nima bilmay surunkasiga ishladi. Faqatgina o'g'li institutni tugallab, zavodda injenerlik qila boshlagandan keyingina onasini ishdan bo'shatib oldi.

To'g'ri, bu davr ichida unga yomon niyat bilan ko'z

olaytirganlar, ayni paytda yaxshi umidda og'iz solganlar ham bo'ldi. Biroq Mastura eriga vafodor qoldi. U pok muhabbatiga xiyonat qilgisi kelmadı. Eriga o'xshagan odamni uchratolmadi. Nega deganda eri tillo odam edi. Kasbi qassoblik bo'lishiga qaramay devqomat yigitlardan emas edi. Ingichka va novcha, yumshoq va kamsuqum edi. Biror marta qattiq gapirib xotinining ko'nglini yaralamagandi. Urushga keta-yotib gapirgan gapi bir umrga Masturaning diliga jo bo'lib qolgandi. «Mabodo qaytib kelmasam, meni deb yosh umringni xazon qilma. Ko'nglingga yaqin odam uchratsang, hayot qur. Faqat bitta iltimos, tug'ilajak farzandimizning ismini, o'g'ilmi-qizmi, Yodgor qo'yma, Quvonch deb ata. U hamisha senga bizning muhabbatimizni eslatib quvonch bag'ishlab yursin». Qaytmasligini sezganmi, shu gaplarni aytar ekan, ovozi qaltirab chiqdi. Ana shunaqa ko'ngli bo'sh, saxiy odam edi u. Shunday yumshoq va ko'ngilchan odamdan qahramon chiqadi, deb hech kim o'ylamagan edi. Chiqdil! U qahramonlarcha halok bo'ldi. Qahramon bo'lish uchun mardlik kerak deyishadi. Mardlik ham kerakdir, lekin eng avval vijdon, nomus kerak ekan. Eri vijdonli edi. Kishi kuchli va jasur bo'lishi mumkin, lekin vijdoni bo'lmasa o'z kuchiniadolat yo'liga sarflay olmaydi. Adolat yo'lida ko'rsatilgan jasoratgina qahramonlikka kiradi.

Mastura umrini o'g'liga bag'ishladi, o'g'lining quvonchlari, o'g'lining tashvishlari bilan yashadi. Shodon damlarga nisbatan qiyinchilikda o'tgan kunlar ko'proq bo'ldi. Ular ham orqada qoldi. Quvonchi balog'atga yetib uyylanadigan bo'ldi. Ammo ajoyib yigit chiqdi Quvonch, ismi jismiga monand edi, qiziq-chi va xushchaqchaq, to'g'riso'z va ochiqko'ngil...

«Boywachchalardan xudo asrasin, dimog'dor va takabbur bo'ladilar», deb o'ziga o'xshagan oddiygina bir qizni tanladi. Mahallaga osh berib baholi qudrat to'y qildilar.

Mastura opa uchun, yosh kelin-kuyov uchun baxtiyor onlar boshlandi. Biroq uzoqqa cho'zilmadi bu onlar. Yana Mastura opaning sho'rlik boshiga taqdirning beshafqat tayog'i tushdi. Bu safar tayoq zarbi oldingi hamma zarbalarga nisbatan kuchliroq,

ayanchliroq bo'ldi. Bir kunda Mastura opa ham o'g'lidan, ham kelinidan judo bo'ldi. Va bir kunda kampirga aylandi. O'g'lining ham umri otasinikiga o'xshab qisqa ekan.

Mashinaga bo'lgan ishqibozlik yedi o'g'lining boshini. Yosh bolaligidan mashina desa o'zini tomdan tashlardi. Ishga kirishi bilan mashina oldi. Xotinini ham tinch qo'ymadni, har shanba mashinaga o'tqazib toqqa olib chiqib o'ynatib kelardi. Rahmatli kelin ham alomat edi, erkakcha shim kiyvolib eri qayoqqa sudrasa ketaverardi. Xullas, er-u xotin xil tushishgan edi. Taqdirlari ham xil tushgan ekan... Bir kunda... Mastura xola qo'lida bir yashar-u ikki oylik nabirasi bilan oh urib qolaverdi. Mastura xola gohida taqdir deganiga xayron qolardi, bu qanday adolatsizlikki yovuz ajal qariyalar qolib, yoshlarning umriga changal soladi. Jigargo'shalarining qazosidan keyin onaizor: «Men baxti qaroni olaqolsang bo'lmasmidi», deb falakka ko'p nolalar qildi, uzoq vaqt majruh bo'lib yotdi. Yo'q, yana o'zini o'ngladi. To'g'ri, bu gal azob bilan, arang o'ngladi o'zini. Nabirasi Rixsivoyni oyoqqa turg'azish ma'suliysi uning yuragiga qo'r berdi. Nariroqqa borib taqdirga tan berdi, boshiga tushgan kulfat vaqt o'tgan sari zaiflashib xiralashdi. Keyinchalik esa o'g'lining o'rniga o'g'il qolgani uchun xudoga shukr qildi. Bandasi shunaqa ekan, hamma narsaga, har qanday jabrga ko'nikib ketaverar ekan.

Ha, Mastura xola noshukrchilik qilmadi, nabirasi ni go'dakligidan o'rab-chirmab o'zi katta qilyapti. Hademay kap-katta yigit bo'lib qoladi Rixsivoy ham.

Mana shunaqa ajoyib kampir edi Mastura xola, boshiga shuncha kulfat tushganiga qaramay tiz cho'kib abgor bo'lmasdi, ruhi tushmadi, irodasi sinmadi, yashashga o'zida kuch topdi. Eng qizig'i shundaki, nolish, o'ksish o'rniga o'zini boy ko'rsatmoqchi bo'lib maqtanadi.

Rixsivoy maktabdan qaytsa uyga mehmon kelibdi. Mastura xola ayvonda Zumrad opa bilan chaq-chaqlashib o'tirardi. Buvisi shunaqa, mehmon kelsa ertalabdan kechgacha gaplashib o'tiraverishi mumkin.

Xuddi shu Zumrad opaga boshidan o'tganlarini juda ko'p marta gapirib bergan edi Mastura xola. Boshqa hech kimga og'iz ochmasdi, faqat shu ayolga hasratini aytardi. Buning boisi bor — Zumrad opa har gal kampirning so'zini qunt va sabr-toqat bilan tinglar, soxta gaplar bilan kampirga dalda bermasdi. Faqat ko'zlarida hamdardlik bilan Mastura xolaga tikilib o'tirardi. Kampir gapirib-gapirib yuragini bo'shatib olardi.

— Keldingmi, qoqindiq? — deb kutib oldi u nabirrasini.

Mastura xolaning odati shunaqa — eshikdan kim kirib kelsa, kattami, kichikmi albatta o'rnidan turib qarshi oladi: — Qutulib keldingmi o'qishlaringdan?

— Assalomu alaykum, — dedi Rixsivoy ham mehmonga, ham buvisiga aloqador qilib.

— Yaxshimisan, — dedi Zumrad opa, u juda kelihsungan, chiroyli ayol edi.

— Vaalaykum assalom, mullo bo'ling, — suyunib ketdi Mastura xola nabirasining odobli bo'lib qolganidan. Chunki u nabirasiga: «Kuniga yuz marta ko'chaga chiqsang ham, qaytganda har gal salom ber, innaykeyin ko'chada o'zingdan kattani ko'rsang ham tanisang-tanimasang salom ber», deb o'rgatardi. Rixsivoy esa bir kunda bir marta salomlashish kerak degan fikrda edi.

— Ovqatingni suzib beraymi?

— Qorin to'q, — dedi Rixsivoy.

— Voy, maktabdan kelgan odam qayoqdan qorning to'q bo'larkan?

— Bufetga kirib somsa yedim.

— Somsa issiq ovqatning o'rnini bosmaydi, — dedi kampir, — o'tir, qanddek xolvaytar qilganman, issiq choy bilan yeb ol.

— Yemayman dedim-ku, buvi, — o'z xonasiga yo'l oldi Rixsivoy, — qornim ochsa hali yerman.

— Mana shu-da buniki, — mehmonga yuzlandi Mastura xola, — ertalabdan kechgacha ovqat pishirish bilan vaqtim o'tadi. Nonushtaga quymoq qil, peshinga issiq ovqat, kechqurunga issiq ovqat, koshki qadriga yetib yolchitib yesa. Doim mana shunaqa injiqlik qiladi.

♦ Boshladilar maqtanishni», dilidan o'tkazdi Rixsivoy kostyumini yechar ekan.

— Hozirgi bolalarning hammasi shunaqa, yalinib ovqat yediramiz, — dedi Zumrad opa.

— Shuni aystsangiz-chil Bo'lmasa o'zidan so'rayman-a, hoy, ko'ngling tusagan ovqatni ayt, qilib beray deb. Istaganini qilib beraman, baribir yemaydi. To'qlikka sho'xlik deb shuni aytishsa kerak-da, axir ne kunlar tushmadi boshimizga. Hukumat zaborniy kartochkaga uch yuz gramm non berardi. To'rt yil urush go'sht nima, sariyog' nima bilmaganmiz. Bular ko'rman-dan u azoblarni.

— Ha, og'ir yillar bo'lgan, nimasini aytasiz!

— Bir hisobdan qiyinchilik ko'rgan ham yaxshi ekan deb qo'ydim. Odam bolasi tayyorga ayyor bo'lib o'ssa hech narsaning qadriga yetmas ekan, — dedi kampir.

— O'zimizda ham ayb bor, xolajon, biz ko'rgan qiyinchiliklarni bular ko'rmasin deb farzandlari-mizni taltaytiramiz.

— Ha, barakalla, o'zimiz taltaytiramiz. Mana mening Rixsivoym ham shunaqa, hidlab yeydi, tanlab kiyadi. Mayli deyman, mening davrimda yayrab qolsin deyman.

Mehmon kampirning gaplarini tasdiqlab bosh irg'ab o'tirardi.

— Voy, nega hech narsa yemaysiz, Zumradxon, olishib o'tiring, gap bilan bo'lib choy quyib berish ham esimga kelmabdi. Bering piyolangizni.

— Choyim bor, xola.

— Yo'q, bering,sovub qoldi, yangilab beraman, — chehrasi ochilib ketgandi Mastura xolaning, — men shunaqaman, bir gapga tushsam to'xtatib bo'lmaydi. Oling mana bu magizdan, Samarqandniki.

— Olyapman, olyapman.

— Hozirgi odamlarga ham hayrongsan, — jilmayib davom etdi Mastura xola, — topib olishgani konfet, pechenye, pirojniy. Men og'zimga olmayman shunaqalarini, o'zimizning magiz, yong'oq, turshakdan qo'ymasin, ming dardga davo. Ha o'zimizning pistabodomda, jiyda-turshakda xosiyat ko'p, hozirgilar qadriga yetmaydi. Oling, aylanay. Mana bu shaftoli-qoqidan oling.

— Rahmat, xolajon, olyapman.

— Siz oldin oling, aylanay, keyin rahmat aytasiz. Xandon pistam ham, bodomim ham hor edi, kechagina tamom bo'ldi.

Shu payt ichkari uydan Rixsivoy chiqib qoldi, buvisiga qarab, «yana maqtanvossizmi», degandek qarab qo'ydi. Mastura xola bir lahza jim bo'ldi, nabi-rasi tranzistorli priyomnikni olib o'z xonasiga kirib ketishi bilan yana davom etdi.

— Nabiram bechorani hech o'z holiga qo'ymayman. Ko'ngliga urib qolmasin, deb har kuni har xil ovqat pishiraman. Xudoga shukr, zamon yaxshi, to'qchilik. Hali manti, hali norin, hali xasip solaman, palovni-ku kun ora qilaman. Ha aylanay, go'shtni bozordan, qo'lida so'yilganidan olib kelib yeydigan kunlarimiz ham bo'ladi.

— Ha, ha, — bosh silkitdi Zumrad opa o'zini ishonayotgan ko'rsatmoqchi bo'lib.

Kampir anchayin ziyrak edi. Zumrad opaga qarab sal oshirvorganini payqadi va bu gapga chek qo'ydi.

Mastura xola mana shunaqa toqat bilan so'zlarini tinglab o'tirishi uchun Zumrad opani juda yaxshi ko'rardi. Qo'li ochiq, dili toza ayol edi u. Agar shu xotin bo'limganda kim biladi, holi ne kechardi Mastura xolaning.

Zumrad opa bilan tanishganiga o'n yilcha bo'ldi. Hali-hali esida, bir kun, kelini bilan o'g'lining qazosidan ikki oy keyin, uyg'a yoshgina bir juvon kirib keldi. Uni ko'rishi bilanoq juda odobli va kamsuqum ayol ekan, deb qo'ygan edi Mastura xola. Mehmonni odati bo'yicha iliq kutib oldi. Zumrad opa gapni ko'p cho'zib o'tirmay maqsadini lo'ndagina qilib aytib qo'ya qoldi. Yaqinda turmush qurban, qo'lida olti oylik chaqalog'i bor, eri zavodda ishlaydi, o'zi kasalxonada hamshirlik qiladi, bolaga qaraydigan odam yo'q. Ishni tashlab uyda o'tiray desa, bitta erining topgani ro'zg'orga yetmaydi. Yasliga beray desa qizalog'i juda nozikni-hol, tez-tez kasalga chalinib turadi. Shuning uchun boqchaga horadigan bo'lguncha qarab turadigan odam qidirib yuribdi. Orqavarotdan surishtirsa Mastura xolani aytishibdi. Shunga kelgan ekan.

Daf'atan, mehmonning gaplari Mastura xolaga

erish tuyuldi. Nima, endi shu yo'l bilan pul topadimi? Undan ko'ra biror korxonaga, osonroq ishga kirib ishlaydi, odamlar orasida bo'ladi, davlatga ham foydasi tegadi. Lekin Zumrad arqonni uzun tashladi. Yana o'zingizga qarang, men hozir javobini bering, deb tiqilinch qilayotganim yo'q, bafurja o'ylab ko'rarsiz, yana kelaman deb chiqib ketdi. Vaqt o'tishi bilan Mastura xola hovuridan tushib ancha sovudi, mantiq bilan fikr yuritdi. Xo'sh, Zumradning taklifining nimasi yomon? Baribir Rixsivoyni ham boqib o'tiridi-ku, u ham boqcha yoshiga yetmaguncha ishga kirolmaydi. Bitta bolani boqdi nima-yu ikkitasini boqdi nima, keyin bola boqib pul topishning nimasi nomus ekan? Qaytanga eng faxrli ish — bola tarbiyalab o'stirish, qolaversa, juvonning ham hojatini chiqaradi, biram ochiq ko'ngil, gaplashadigan yoqimtoy ayol ekan, yo'q deb xafa qilgandan nima foyda.

Zumrad keyingi gal kelganida Mastura xola rozilik bildirdi.

— Mayli, sazangiz o'lmasin. Mening ham chaqaloq nabiram bor, ikkalovini qo'shib boqib o'tirarman. O'zim endi oldingi ishimga qaytmoqchi bo'lib yuruvdim. Kelnim bundan bir yil burun: «Oyi, qarib qoldingiz, uyda o'tiring, endi biz ishlaymiz», deb fabrikadan bo'shatib olgandi. Eh... kelinimni siz bilmaysiz, opovsi, o'g'limdan ham mehribon edi. Biz qaynona-kelin emas, tug'ishgan ona-bola edik. Men erdan yosh beva qolganman, u yetimlikda o'sgan. Qismatimiz bir-biriga o'xshab ketganidanmi, ishqilib juda inoq edik... Yaxshi qildingiz, opovsi, o'ylab ko'rdim, davlat yaxshigina nafaqa beradi. Yetadi nabiram ikkalovimizga. Bitta-yu bitta ko'zimning oq-u qorasi — ham o'g'limdan, ham qizimdan yodgorlik nabiram bor. Yasliga bermay o'zim boqaman. Hayotimni shu bolaga tikkanman. Ko'zim ochiqligida shu bolani voyaga yetkazib, bitta boshini ikkita qilib qo'ysam bu dunyodan armonsiz o'taman, — yana gapga tushib ketganini sezib Mastura xola yakun yasadi, — opkelavering qizalog'ingizni, nabiram bilan o'ynab katta bo'ladi.

Zumrad opa haqini kelishib olmoqchi edi, Mastura xola og'iz ochirmadi.

— Berganingizni berarsiz, men savobga ham boqib beraveraman. Ha, undan tashvish tortmang, opovsi. Ertadanoq opkelavering qizalog‘ingizni.

Mastura xola Soraxonni uch yoshga to‘lgunicha boqib berdi. Oxirgi kuni Zumrad opa bir quchoq sovg‘a-salom bilan kirib keldi. Kampirga ko‘pdanko‘p rahmatlar aytdi. Mastura xola Zumrad opaga, qizalog‘i Soraxonga juda o‘rganilb qolgandi.

— Biz tug‘ishgandek qadrdon bo‘lib ketdik, opovsi, siz qizimdek, Soraxon nabiramdek bo‘lib qoldinglar. Ha, yo‘q bo‘lib ketmang, bordi-keldi qilib turaylik, — dedi Mastura xola ko‘ziga yosh olib.

— Voy, albatta, xola. Sizni tinch qo‘ymayman, har hafta qatnab joningizga tegaman. Soraxon endi sizning nabirangiz, men bir o‘zim uni eplolmayman, nima bo‘lsa oldingizga yuguraveraman, — dedi Zumrad opa, — kiyim-boshi bor, o‘zingiz tikib berib turasiz. Fabrikada ishlagan ekansiz. Mashina tikishni bilarsiz?

— Voy, binoyidek chevarman. Ammo o‘zimning tikuv mashinam yo‘q.

— Olamiz! O‘zingizga, nabirangizga, menga mayda-chuyda narsalarni tikib berib o‘tirasiz. Agar xohlasangiz, qo‘lingiz bo‘s sh paytlarda qo‘ni-qo‘shning ham ul-bulini tikib berarsiz. Harna, to‘rt so‘mbesh so‘m choychaqa tushib turadi, — kului Zumrad opa.

— Koshkiydi mashinam bo‘lsa, bekordan xudo bezor deydilar, siz aytgandek, ro‘zg‘orga ham foydasi tegib turardi. Ammo qimmat-da qurib ketgur, bizda unaqa pul qayoqda.

— E, birlagalashib olamiz, keyin uzarsiz.

Shunday qilishdi. Mastura xola ikki oylik nafaqasini berdi, qolganini Zumrad opa qo‘shdi qarzga va quling o‘rgulsin oyoq mashina sotib olishdi. Shundan keyin Mastura xolaning ishi ancha yurishib ketdi. Chevarlik judayam kuniga yaradi, qo‘ni-qo‘shni, tanish-bilishlarining narsalarini tikib, besholti so‘m ishlaydi, hech kim tikishga narsa berma-ganda xudoning o‘zi Zumrad opani yetkazadi (juda xosiyatli ayol-da). Tiktirgani bir quchoq narsa: ko‘rpaga avra-astar, yostiqqa jild, derazaga parda

ko'tarib kelib qoladi. Buyoqda nafaqa ham xuddi bil-ganday, ilik uzildi paytida yetib keladi, ishqilib amal-taqal qilsa bo'ladi.

— To'g'ri, Rixsivoy katta bo'lgan sari xarajatlar ham osha bordi, hali tufli, hali palto, — buyumlar-ning razmeri kattalashgan sari narxi ham oshaver-rarkan.

Mastura xola xolvaytarni tez-tez qilardi, ming qilsa ham chiqimi kam. Ustiga ustak nabirasiga har hafta tanga berib turadi, xo'rozqand olib yer, limonad ichar deb. O'zi beradi, Rixsivoy bola bo'lib buvisidan sira pul so'ramagan, ahvolni tushunsa kerak-da.

Xullas, Mastura xola hayotidan rozi edi, xudoga shukr, och-yalang'och yashamaydi, qora qozonlari kunda qaynab turadi. Ammo umridan baraka topkur Zumradxonning ovi yurishdi. Yaxshi odamlarga o'zi shunaqa omad kulib boqadi. Shu o'n yil ichida Zumradxon o'qib katta do'xtir bo'lib yetishdi. Eri ham ko'tarilib katta amaldor bo'ldi. Hozir yeganlari oldida, yemaganlari ortida. Ammo dimoq-firoqdan tariqcha yo'q, oldin qanday bo'lishgan bo'lsa hozir ham shunday. Go'yo er vazir, Zumradxon katta do'xtir emasdek. Mayli, o'zidan ko'payishsin! Davlatlari bundan ham ziyoda bo'lsin, bunaqa odamlar boy bo'lsa arziydi.

E, tavba! Shunday boy bo'la turib Zumrad opa maqtanmaydi-yu, zo'rg'a amal-taqal qilib kun ko'rayotgan Mastura xola ko'pirgani-ko'pirgan, xuddi odina-chorshanba qo'y so'yadigan odamdek. Mastura xola buni o'zi ham sezadi, ammo tilini tiyolmaydi. Kim biladi, balki Zumradxon bilan o'rtalarida tafovut bo'lmasligini istaganidan, tenglik yo'qolishidan qo'rqqanidan shunday qilarmikin? Xullas, Mastura xolaning o'zi ham nega maqtanishining tagiga yetolmasdi.

— Aylanay, narsalaringizni tikib taxt qilib qo'ydim, — dedi Mastura xola.

— Voy, rostdanmi?

— Bo'lmasam-chi. Birovga va'da bersam qanday bo'lmasin aytgan paytimga tikib bitkazib qo'yaman. Bo'lmasa uyqum kelmaydi.

— Bilaman sizni, shu vaqtgacha biror marta

so'zingizning ustidan chiqmagan paytingiz bo'lma-gan, — deb tan oldi Zumradxon.

— Odamlar aytishadi, inson bolasi halol, or-nomusli bo'lishi kerak deb. Bu hammasi to'g'ri, ammo lekin insonda eng avval lafz bo'lishi kerak. Lafzi yo'q odamdan hech qachon mard chiqmaydi, unda na vijdon, na imon bo'ladi. Ha, beburd odamdan rasvosi yo'ql — Mastura xola yana ezmalik qila bosh-ladi. — Hech e'tibor berganmisiz, ikkiyuzlamachida, qo'rqaqda, tovlamachida lafz bo'lmaydi.

Ichkari xonadan Rixsivoy chiqib gapning beliga tepdi.

— Buvi, chizg'ichimni ko'rmadingizmi?

— Nega ko'rmas ekanman, qoqindiq, turuvdi joyi-da, shkafingni ustida.

Rixsivoy buvisiga g'alati qarab qo'ydi-da, yana o'z xonasiga kirib ketdi.

«Chizg'ich yo'liga, — xayolidan o'tkazdi kam-pir, — tag'in boshladingizmi gap sotishni, bas qiling demoqchi!»

— Voy, aylanay Zumradxon, nega hech narsa yemaysiz. Mana bu xolvaytardan tatib ko'ring, tansiq ovqat, xolvaytarni juda yaxshi ko'raman. Shuning uchun onda-sonda qilib turaman. Oling, tatib ko'ring, — gapning mavzuini burdi Mastura xola.

Zumrad opa xolvaytardan bir qoshiq yedi.

— Haqiqatda zo'r bo'libdi. Ammo qo'lingiz juda shirin-da Mastura xola, — deb kampirni maqtadi.

Pastdan mashinaning signali eshitildi.

— Meni chaqirishayotgan bo'lsa kerak, — shoshib ketishga shaylandi Zumrad opa, — tushlikda borib kela qolay, deb kuyovingizdan mashina so'ragan edim. Sal ushlanib qolsam ham darrov jahllari chiqadi, ming qilsa ham davlatning mashinasi-dal.

— Mayli, aylanay, mayli, ishqilib gap tegmasin, — yupatgandek gapirdi Mastura xola, — hozir opchiqib beraman narsalariningizni, aylanay.

U ichkari uyga kirib yumshoq matoga o'ralgan bir dasta yostiq jildi olib chiqdi.

— Mana, aylanay, tikilishini ko'rib boqasizmi? Har bir chocini ikki martadan mashinada yugur-tirdim.

— Ishni pishiq qilishingizni bilaman, — sumkasi-ni kavlab pul axtara boshladi Zumrad opa.

— Xudoga shukr, shu paytgacha kimga nima tikib bergen bo'lsam, birortasi norozi bo'lman. Mendan ketguncha, egasiga yetguncha, deb qo'l uchida ish qiladiganlarni juda yomon ko'raman, nimaiki buyurma tushsa xuddi o'zimga qilayotgandek sidqidildan, mehr bilan tikaman. Odamlarning pulini rozi qilib olish kerak. Qilgan ishing yoqmay qarg'asa, bergen puli yuqmaydi, surib ketadi.

— Yetadimi shu? — Zumrad opa Mastura xolaga pul berdi.

Mastura xola pulni qanchaligini sanab ham ko'rnedi:

— Voy gиргиттoney, siz bilan meni oramda qanday hisob-kitob bo'lishi mumkin, bermasangiz ham xafa bo'lmayman, himmat qilib berasiz-u men kam-ko'p deb injiqlik qilamanmi. Ilohim umringizdan baraka toping, martabangiz bundan ham ulug' bo'lsin. Menga bergen biringiz o'n bo'lib qaytsin. Kep turing shunaqa.

— Oyning oxirida yana o'tarman, — dedi.

Mastura xola qo'lini ko'ksiga qo'yib bosh egdi.

— Sadag'angiz ketay, opovsil Yaxshi odamlarning xizmatiga doim hozirman. Qachon kelsangiz eshigim ochiq siz uchun.

Zumrad opa ketishi bilan ichkari uydan iljayib Rixsivoy chiqdi. Xaxolab kulib yuborishdan arang o'zini tutib turgani basharasidan shundoqqina bilinib turardi. Uni ko'rib Mastura xola ham beixtiyor jilmaydi.

— Ha, mulla bola, juda dimog'ingiz chog'?

— Yeydiganingiz xolvaytar-u maqtanishingiz olamni buzadi-ya! — dedi Rixsivoy, — nima emish qo'lda so'yilgan bozor go'shti, kunora xasip, norin, manti...

Rixsivoy uyog'ini aytolmay kulib yubordi.

— Obbo zumrasha-ey, eshitib o'tirganmiding?! — Mastura xola ham nabirasiga qo'shilishib kului.

Unga judayam ta'sir qilgan edi nevarasining gapi. Kulgi borgan sari avjiga chiqaverdi. Bundan ruhlanib Rixsivoy battar qilardi.

— Kuniga uch mahal issiq ovqat emish! — u qiyqirib, tizzasiga urib kuldji.

— Uff... bo'ldi, bas qil charchab ketdim, — deb ko'z yoshini artdi Mastura xola, keyin birdan jiddiy tortdi, — nega kulasan, to'g'risini olib qaraganda ham biz yaxshi yashaymiz-da. Shuni bir bilib qo'y, boriga baraka qilgan odam sira xor bo'lmaydi. Eng boy — boriga shukr qilgan odam. Ming boy bo'lsin, agar yemasa, ichmasa, kiymasa, faqat yig'sa, qachon qarasang yo'qman deb nolisa, undan qashshoq odam yo'q.

— Odamning o'ziga bog'liq ekan-da boy-kambag'al bo'lish. Boyman desa boy bo'lib qolaverar ekan-da, — gapni hazilga yo'ymoqchi bo'ldi Rixsivoy.

— Ha, barakalla, odamning o'ziga bog'liq, — dedi Mastura xola qizishib, — sandiqlab tillosi, yuzlab qo'yи bo'lgan boyvachchalarni ko'rghanman, yemayichmay, tuzukroq kiyinmay qashshoqdan battar yashab o'tishgan. San bilan manga mazza, namatning tagiga tashlab qo'ygan bir so'mimiz yo'qli, qachon o'shani o'n so'm qilar kinman deb kuyib-pishsak. Topganimizni yeymiz, istaganimizni kiyamiz, o'ynaymiz, kulamiz. Yallo!

— Yana opqochyapsizmi, buvi?!

— Opqochish hammaning qo'lidan kelavermaydi, buni ham eplagan qiladi, — kerildi Mastura xola.

— Ha, sizning oldingizga tushadigani yo'q, — deganini biladi Rixsivoy, birdan buvisi ikki bukchaydi, ko'zi alang-jalang bo'lib nabirasiga qaradi.

— Nima bo'ldi, buvi? — qo'rqiб ketdi Rixsivoy.

— Hech narsa, — o'zini beparvo ko'rsatishga urindi kampir, — gohida oshqozonimga bir narsa qadalgandek bo'ladi. Botmaydigan narsa yeb qo'ygandirman. Hozir o'tib ketadi.

— Do'xtirga ko'rsatish kerak, buvi, axir bu birinchi marta emas-ku, — darhaqiqat keyingi paytda Mastura xolaning oshqozoni tez-tez sanchib qolardi.

— Be... do'xtirlaringga ishonmayman, — hazilashishga harakat qildi kampir, — o'zimning dorim bor, bir qultum buloq suvi bo'lsa ko'rmagandek bo'lib ketaman.

«Bir qultum buloq suvi» — bu gapni Rixsivoy

buvisidan takror-takror eshitgan va deyarli yodlab olgan edi. Voqea bunday bo'lgan ekan.

Mastura xola yoshligida bir guruh tengdoshlari bilan Chimyon tog'lariga sayilga chiqadi. O'yin-kulgi, hazil-mutoyiba qilib rosa yayraydilar. Qo'yni Rixsivoyning buvasi Masturaning eri so'yadi (o'shanda buvasi ham yosh yigit bo'lgan). Qaytish oldidan, nomozshom tushganda birdan Masturaning qorni og'rib qoladi. Shunda Rixsivoyning buvasi, yosh kuyov: «Seni o'zim tuzataman, shu atrofda buloq bor, suvi shifobaxsh va muqaddas deb eshitganman. Hozir topib kelaman», deydi va bitta mesh olganicha tog' oralab buloqni qidirib ketadi. Qorong'ida buloqni top-guncha ancha sarson bo'ladi, nihoyat uch soatlardan keyin meshni to'ldirib keladi. Buloq suvi haqiqatda shifobaxsh ekanmi yoki shunga ishonganidanmi Mastura suvdan ichib, yarim soatga qolmay hech narsa ko'rмагандек bo'lib ketadi.

Shu-shu Mastura eng zo'r dori buloq suvi degan qarorga keladi.

— Buvijon, xo'p desangiz toqqa borib o'sha buloq suvidan olib kelib qo'yaman. Sal tobingiz qochsa ichib tuzalib ketaverasiz, — Rixsivoy safarga rosmana bel bog'ladi.

— Yo'q, bolam, rahmat, — ham suyunib, ham qo'rqib ketdi Mastura xola, — hali yoshsan, tog' olis yo'l, seni ishonib yuborolmayman. Xavotir olib battar betob bo'lib qolaman. Sal kattaroq bo'lsang, birga borib o'ynab kelamiz.

— Nega ishonmaysiz, axir men...

— Yo'q, yo'q, bolam. Zinhor-bazinhor ruxsat bermayman, — kampir o'zini zo'rlab jilmaydi, — bo xudo, shugina ekan-ku, mana qo'yordi qo'ydi.

— Kasal sizga o'yinchoq ekan-da, darrov tutib, darrov qo'yvoradigan. Baribir do'xtirga qaratma-guningizcha qo'ymayman, — dedi Rixsivoy. — Topdim, Zumrad opadan iltimos qilaman, ularning gaplarini qaytarolmaysiz.

— Voy, nima deyapsan, bolapaqir, men zuvalasi pishiq kampirlardanman. Seni boshingni ikkita qilib qo'ymasdan turib hech qanday kasalga so'z bermayman. Bilib qo'y shuni! — kampir o'zini tetik ko'rsatishga urinib zo'rma-zo'raki jilmaydi.

Sinchiklab qaragan odam uning nuri to'kilib qolgan ko'zlarida horg'inlik va g'ussa ko'rishi mumkin edi. Buning uchun unga sinchiklab, juda sinchiklab qarash kerak edi, chunki mushtipar kampir iloji boricha dardini yashirishga harakat qilardi.

TOQQA SAYOHAT

Sharifjon aka yana sharaf quchdi. Oldin uning ajoyib odam, zo'r o'qituvchilagini bitta 7-♦b♦ bilsa, endi butun maktabga tarqaldi. U o'z sinfini dam olish kuni Chimyon tog'iga sayohatga olib chiqadigan bo'ldi. Bu ham mayli-ya, allaqaysi avtoxo'jalikka borib chet elliq sayyoohlarni olib yuradigan yumshoq va qulay avtobus gaplashib kelgani hammani qoyil qoldirdi.

Yig'ilish mактабда, ertalab soat oltiga tayin etildi. Ajablanarlisi shundaki, butun sinf tayinlangan paytdan o'n minut ilgari jamuljam bo'ldi. Hatto to'qqizga arang yetib keladigan, darsga nuqul kech qoladigan dangasalar ham hozir-u nozir edilar.

Faqat «Baqaloq» laqabli Shodiyev oltiga uch minut qolganda uzoqda paydo bo'ldi. U qopdek keladigan katta safar xalta orqalab olgan, burni yerga tegay deb arang qadam bosib kelardi. O'rtoqlariga yaqinlashdi-da, orqasidagi safar xaltasini yechib «gurs» etkazib yerga qo'ydi, dastro'molchasi ni chiqarib yuz-ko'zini artdi.

- Nimadi bu, Baqaloq? — so'radi Sanjar.
- Bir kunlik ovqatim, — dedi Baqaloq.
- «Gurr» kulgi ko'tarildi.
- Nima bo'ladi bu senga? — tegajoqlikni davom ettirdi Sanjar. — Bitta o'tirganda tinchitib qo'yasan-ku!

— Nima qilay, hozirgi ota-onalar xasis bo'lib ketishgan. Toqqa ketyapman desam to'rttagina tovuq, atigi yetmishta tuxum, besh kilogina yaxna go'sht, yigirma six kabob, o'ttizta somsa, qirqtagina non berishdi. Rosa jahlim chiqdi, rost-da, nega qizg'anchiqlik qilishadi, axir bular tishimning kovagida yo'q bo'lib ketadi-ku, — Baqaloq o'ziga yetguncha qiziqchi edi.

— Eh, bechora, ochdan tirishadigan bo'psan-da bugun? — kului Sanjar.

— Senlar bor-ku, juda och qolib ketsam rahmlaring kelib ovqatingdan berarsanlar.

Roppa-rosa oltida yap-yangi, bo'yoqlari yaltirab turgan avtobus keldi. Haydovchi avtobusning orqa va oldi eshigini lang ochdi. Butun sinf avtobus tomon yugurmoqchi bo'lganda Habiba to'xtatdi.

— Bolalar, bir minut, oldindan aytib qo'yay, avtobusni iflos qilmanglar. Pista chaqish, konfet qog'oz'i tashlash, shovqin ko'tarish, to'polon qilish yo'q. Haydovchi bilan shunday kelishilgan.

— Nafas olish mumkinmi? — bolalardan kimdir piching qildi.

— Mumkin, — qochiriqdan xafa bo'lindi Habiba.

— Ashula aytish-chil!

— Ashula aytish mumkingina emas, shart! — dedi Habiba.

— Unda iltimos bor, — gapga aralashdi Sanjar, keyin Sharifjon akaga qaradi, — bugun mutlaq erkinlik e'lon qilinsa. Kim qanday istasa shunday dam olsin, istagan ashulasini aytsin.

— Mayli-yu, lekin repertuar o'quvchilar qo'shiqlaridan tuzilgan bo'lishi kerak, — dedi Sharifjon aka.

Qiy-chuv ko'tarildi:

— Xalq ashulalari-chi?

— Klassik kuylar-chi? Merosni o'rghanish kerakk-u!

— Maqom va katta ashulalar-chi?

— Oramizda yakkaxon xonandalar, hofizlar bo'lsa-chi?

— Jaz va estrada muxlislari nima qiladi?

— Jim, jim, jim! — Arang to'xtatdi shovqin-suronni Sharifjon aka. — Har qanday erkinlikning ham chegarasi bo'ladi. Aks holda beboshlik, tartibsizzlik, parokandalik avj oladi. Shunday ekan, betamizlikka yo'l qo'ymagan ma'qul.

— Menda taklif bor, — dedi Habiba, — mayli, kimning qanday ashula aytgisi kelsa aytaversin, faqat sharti shuki, axloq doirasidan chetga chiqish yo'q.

Yana shovqin ko'tarildi.

— Mana bu to‘g‘ri taklif!
— Har kim xohlagan ashulasini aytaversin!
— Yana bitta sharti bor, bu asosiy shart, har qanday ashulaning ham ijrosi yaxshi bo‘lsin! — dedi Baqaloq.

— To‘g‘ri, hamma narsaga chidash mumkin, lekin yaxshi ashulani buzib aytishiga chidab bo‘lmaydi,— dedi Sanjar.

— Jim, jim, jim! — Yana so‘z oldi Sharifjon aka.— Majlis tugadi. Betamiz ashula aytimmasin va ijrosi yaxshi bo‘lsin, degan qaror qabul qilindi. Gap tamom. Ha, aytmoqchi, bir daqqa. Ashulani shaharda aytish yo‘q. Avtobus shahardan tashqariga chiqishi bilan o‘zim ruxsat beraman. Ana innaykeyin olaverasizlar! Kelishdikmi?

— Kelishdik! — xor bo‘lib javob qildi bolalar.
— Unda jo‘nadik. Qani avtobusga!
Zum o‘tmay avtobusning ichi to‘ldi.
— Hamma shu yerdami? — so‘radi Habiba.
— Shu yerda, — butun avtobus birvarakayiga javob berdi.

— Bo‘lmasa, oq yo‘l, — Habiba haydovchining oldidagi o‘rindiqqa cho‘kdi, — ketdik.

Avtobus joyidan siljidi. Bu hammaga ma’lum narsa — dam olishga yoki sayohatga ketayotganda odamning ruhi ko‘tarinki, kayfi chog‘, hazilga moyil bo‘ladi. Sag‘al narsaga «gurr» kulgi ko‘tarilaveradi. Bu gal ham shunday bo‘ldi. Ayniqsa avtobus shaharni tark etgandan keyin sho‘xlik avjiga chiqdi. Qo‘sinq boshlandi va bir-biriga ulanib ketaverdi. Oldin quvnoq va o‘ynoqi, keyin g‘amgin va lirik ashulalar, keyin yana shodon va hazil ashulalar...

Rixsivoy ashulaga aralashmas edi. Unga tomosha bo‘lsa bas. U eng orqadagi qatorda derazadan atrofni tomosha qilib ketardi. Bu joyning yana shunisi yaxshi ediki, hamma bolalar oldinga tiqilib ikkitadan o‘tirib olishgan. Rixsivoyning esa yoni bo‘sh, bitta o‘rindiga bitta o‘zi maza qilib borardi.

Avtobus Qibrayga yetganda Rixsivoyning o‘rindig‘i tagida bir narsa qimirlagandek bo‘ldi, keyin kimdir oyog‘ini turtdi. Rixsivoy hayron bo‘ldi, orqada hech kim yo‘q turtadigan, chunki eng oxirgi

qatorda o'tiribdi. U endi engashib qaramoqchi edi, o'rindiqning tagidan inqillab-sinqillab Anqaboyev chiqib keldi. Ha, o'sha maktab shifoxonasida ko'rgani Anqaboyev. To'qqizinchi sinf o'quvchisi, katta talant sohibi — Anqaboyev.

— Og'zingni berkit, akasi, pashsha kirib ketadi! — u Rixsivoyni sal surib yonidan joy oldi.

Haqiqatda ham Rixsivoyning og'zi lang ochilib qolgan edi. Arang es-hushini yig'ib yutindi:

— Qanday qilib bu yerda paydo bo'lib qolding?

Anqaboyev javob berishga shoshilmadi, burnini sal qanqaytirib Rixsivoyga mensimayroq nazar tashladi.

— Tabiatga bo'lgan muhabbat odamni ne ko'ylarga solmaydi deysan, akasi, biz esa tabiatni sevamiz, — oliftagarchilik qildi u, — sevish ham gapmi, tabiat desa o'zimni tomdan tashlashga tayyorman.

— Sharifjon aka ko'rib qolsa nima qilasan, tushirib yuboradi-kul!

— Endi go'rda tushirib yuboradimi, akasi, yarim yo'lga yetib qoldik, mas'uliyatdan qo'rqadi, — bamaylixotir javob berdi Anqaboyev, — shaharning ichida ko'rsa boshqa gap edi.

Ular birpas jim ketishdi, ammo Rixsivoy hech tinchlana olmas edi:

— Yo'q, rost, ayta qol, qachon o'tirib olding.

— Endi tushirib yuborish uyoqda tursin, agar yo'lida turganimni ko'rib qolsa o'tqazib olishi kerak. Nega deganda boyta aytganimdek, mas'uliyatdan qo'rqadi, nega deganda har biringga, shu jumladan, endi menga ham boshi bilan javob beradi. Nega deganda...

— Men sendan tushirib yuboradimi-yo'qmi, deb so'ramayapman. Qanday qilib avtobusda paydo bo'lib qolding, deyapman?!

Anqaboyev pinagini ham buzmasdan davom etdi:

— Nega deganda, endi men ham shu jamoa a'zosiman, akasi. Bizda esa, akasi, jamoatchilik ruhi juda qattiq rivojlangan — hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun.

— O'v, gapdon, men sendan qanday qilib avtobusga chiqib olding, deb so'rayapman, — xunobi oshib qaytardi Rixsivoy.

— Majlisbozlik eng yomon maraz, — iljaydi Anqaboyev, — uzundan-uzoq cho'ziladigan majlislar faqat ziyon keltiradi...

— Men sendan...

— Sizlar qanday qo'shiq aytish haqida majlis qilayotganlaringda, — Rixsivoyning so'zini bo'ldi Anqaboyev, — men lip etib avtobusga chiqib oldim. Mana senga, akasi, majlisbozlik maraz ekanligiga yana bir dalil. Senlar gap bilan ovorasanlar, men esa ishimni bitirib oldim.

Endi Rixsivoyning ko'ngli joyiga tushgan edi. Ammo juda g'alati bola ekan Anqaboyev. Basharasi kulgili: yuzi uzun, og'zi katta, burni savol alomati-ning teskarisi — burun emas, ilmoq deysiz, quv ko'zları suzuk, ikkala qulog'i orqasiga emas, yoniga o'sgan, yelpig'ichga o'xshaydi. Peshonasiga xuddi «ishyoqmas va yalqov» deb yozib qo'ygandek.

Avtobusning ichida ashula avjida, hamma o'zi bilan o'zi ovora, hech kim orqasiga o'girilib boqmas, binobarin Anqaboyevni ko'rmasdi ham.

Tabiiyki, Anqaboyevning dimog'i chog' edi, u cho'ntagidan sigareta oldi. Rixsivoyning esi chiqib ketdi:

— Avtobusda chekmoqchimisan? Sharifjon aka ko'rib qolsa o'ldiradi-yu!

— Nima qilay, akasi, xumor qildi. Kashanda xumor qilganda chekmasa o'ladi. Shundoq bo'lgandan keyin, baribir o'ladigan bo'lganimdan keyin, chekib o'lganim ma'qul emasmi?

— Haydovchidan ham baloga qolasan, axir o't tushib ketishi mumkin! — Rixsivoy birovga tanbeh beradigan, birovni tartibga chaqirib aql o'rgatadigan mahmadona bolalarni juda yomon ko'rardi. Hozir o'zi sezmagani holda o'shanaqa bolalarga aylanib qolgandi, boshqa iloj yo'q edi-da!

— Darvoqe, — peshonasini tirishtirib fikr daryosiga g'arq bo'ldi Anqaboyev, har xil qiyofalarga kirishga usta edi u, — avtobus yonib ketsa toqqa qanday qilib yetib olamiz?!

U qo'lidagi sigaretani g'ijimlab derazadan tashqariga uloqtirdi, Rixsivoy uning bu qilig'idan suyunib ketdi.

— Qoyilman, o'jar emas ekansan.

— Yo'q, o'jarlik yaxshi xislat, — donolik qildi Anqaboyev,— men o'jarman, ammo g'alcha emasman.

Rixsivoy tortishib o'tirmadi, Anqaboyev gapiga kirib sigaretini uloqtirib tashladimi, unga shuning o'zi kifoya edi.

Anqaboyev o'rindiqning suyanchig'iga yastanib cho'zildi. Sigaret tamakisini ezg'ilagan panjasini hid-ladi. Ko'zlarini yumib, bilinar-bilinmas jilmaydi. Butun basharasidan lazzat va rohat yog'ilib turgandek edi... Faqat uchiga chiqqan bangilargina shunaqa kayf qilishi mumkin. Qilik'i o'ziga yarashardi uning. Andak fursat o'tgach yotgan joyida ko'zini ochmay to'ng'illadi.

— G'o'ra!

Rixsivoy hech narsaga tushunmadi.

— Senga gapiryapman, g'o'ra.

— Men g'o'ra emasman. Mening otim Rixsivoy.

— Oting bilan nima ishim bor, kim bo'lsang ham tipirchilamay o'tir, kayfni buzyapsan!

Anqaboyev tushmagur balodek hazilkash ekan! Rixsivoy uning qulog'iga engashib asta shivirladi:

— Mulla aka, mabodo yostiq darkor emasmi? Istanasangiz bir dumalab yostiqqa aylanamiz qo'yamiz.

Anqaboyev Rixsivoymdan bunaqa hazil kutmagan ekanmi, ajablanib bitta ko'zini ochdi, Rixsivoyning yuzidagi o'ta jiddiylikni ko'rib kulimsiradi, «durust-san-ku», degandek kaftini tutdi. Rixsivoy uning kaftiga shapati tushirdi. Bu ikkovining bir-biriga tan bergenlik alomati edi.

G'azalkentdan o'tganlaridan keyin yo'l tog' bag'irlab keta boshladi. Bolalar endi ancha toliqish-gan, ashulalar ham pasaya borib, keti uzilay-uzilay deb qolgandi.

Shu payt birdan jaranglagan ovoz yangradi.

*Bog' aro qo'ysam qadam,
Gul g'uncha qolmay xandadur.*

Bu ovoz nafaqat jarangdor, ayni paytda yoqimtoy va shirali edi. Manman degan hofizlar bunchalik qotirib aytolmasdi. Hamma birdan ashula eshitilgan

tomonga — orqaga qaradi. Ashula aytayotgan esa... Anqaboyev edi. U esa butun maktabga mashhur edi. Qiy-chuv, kulgi, ajablanish sadolari — barchasi qo'shilib ketdi.

- Iye, Anqaboyev-ku!
- Osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi?!
- Ammo katta ashulani qoyil qilar ekan!
- Yashavor, azamat!

Sharifjon aka sapchib o'rnidan turdi.

— Jim! Jim deyapman! — U ildam yurib Anqaboyevga yaqinlashdi, — bu nima qiliq, Anqaboyev?

— Ashula. O'zingiz klassik ashulalarni ham aytishga ruxsat berdingiz-ku, — bamaylixotir javob berdi Anqaboyev, — faqat yaxshi ijro etilishi va betamiz bo'lmasligi kerak.

— Men sendan buni so'ramayapman! Men sendan qanday qilib... nega beso'roq bizning avtobusda paydo bo'lib qolding deb so'rayapman!!!

Anqaboyev Sharifjon akaning po'pisasini pisand ham qilmadi, kulgiliroq javob qidirib boshini qashiy boshladi. Shu payt Rixsivoy o'rnidan turib:

— Uni men taklif qiluvdim, qo'shnimiz. Yonmayon domda turamiz, — dedi.

— Kim ruxsat berdi taklif qilishga?! — endi Rixsivoyga do'q urdi Sharifjon aka, — nega meni ogohlantirib qo'ymading?

— Endi aytmoqchi edim. Men... innaykeyin... tog' bitta bizniki emas, yeb qo'ymas, bizga ham yetar deb o'ylovdim, — dedi Rixsivoy.

— Bu beboshlik! — o'shqirib berdi Sharifjon aka, — hozir shu yerda to'xtaymiz-da, Anqaboyevni shaharga qaytayotgan mashinalardan biriga o'tqazib yuboramiz!

Birdan hamma guvillab Anqaboyevning yonini oldi.

— Bora qolsin, Sharifjon aka.

— Begona emas-ku, o'zimizning maktabdan-ku!

Butun makkab nima uchundir Anqaboyevni yaxshi ko'rardi.

— Gap bu yerda begonalikda emas, gap o'zboshimchalikda. O'zboshimchalik esa jazolanishi kerak. Qolaversa, javobgarligi bor! — bo'sh kelmadi Sharifjon aka.

— Mayli, javobgarligini men bo'ynimga olaman,— gapga aralashdi Habiba. — Gunohidan kecha qolning.

Sharifjon aka jim bo'lib qoldi. U o'ylardi. Butun avtobus sukul saqlab uning javobini kutardi. Vaziyat qaltis edi. Bosh yetakchi tarbiyachiga yo'q deb bo'lmaydi, aks holda butun sinfning oldida obro'yi to'kilib ketadi. Lekin intizombuzar o'zboshimchani jazolash ham kerak edi.

— Mayli, ketaversin, lekin shaharga qaytsak, bu masalani alohida muhokama etamiz, — dedi alamzadalik bilan Sharifjon aka.

Bu qarorni avtobus ahli qarsaklar bilan kutib oldi.

Quyosh endi ko'tarila boshlaganda avtobus manzilga yetib keldi. Ko'plarning Chimyonga birinchi chiqishlari edi. Bolalar avtobusdan tushishlari bilan tog' manzarasiga mahliyo bo'lib anqayib qoldilar. Manzara esa haqiqatda go'zal va maftunkor, sehrgar va mo'jizakor edi.

O'tlar qovjirab, sariq va to'q jigar rang kashf etgan. Shu boisdan butun borliqqa sap-sariq gilam to'shab qo'yilgandek. Qoyalar orasida, onda-sonda yakkam-dukkam daraxtlar o'sgan, ularning qirmiz rang barglari, xuddi yoz bo'yi yonib endi cho'g'ga aylanayotgandek, asta-sekin so'nayotgandek ma'yus edilar.

Bolalar o'zлari bilan olib kelgan narsalarini bir yerga joylashtirishni ham unutib, sehrlanib qolgan-dek, atrofga suqlanib boqardilar.

— Bolalar, tog'ni tomosha qilishga ulguramiz, hali oldinda butun boshli kun bor, — baland ovozda gapirdi Sharifjon aka. — Hozir hamma — kim nima olib kelgan bo'lsa, olib, mening ketimdan yuradi. Ha, hamrna! Ketdik, Inog'omova, bu gap senga ham tegishli.

Sharifjon aka asfalt yo'lni tark etib tog' etagi bo'ylab ketgan so'qmoqdan yuqoriga ko'tarildi. Yuz metrcha balandlikda besh-oltita daraxt o'sgan joy bor edi, ular o'sha yerda to'xtashdi.

— Endi hamma o'z yukini mana shu yerga to'play-di, — daraxt tagini ko'rsatdi Sharifjon aka, — eng

oldin o'tirib nonushta qilib olamiz. Boshqa masalalarni, ya'ni dam olishni qanday uyushtirishni keyin maslahatlashamiz.

Darrov ikkita navbatchi saylandi. Ular gazetalar-dan yerga uzun qilib dasturxon yozishdi. Hamma top-gan-tutganini o'rtaga ag'dardi. Dasturxon juda to'kin edi, kolbasa, yaxna go'sht, tuxum, tovuq, pishloq, shishalarda qatiq, sut, qaymoq, limonad, kulcha va patir nonlar, pechenyelar, turli konfetlar, somsalar, ho'l mevalar, ko'kat — hamma narsa bor edi. Bu noz-ne'matlarni ko'rib Rixsivoy buvisi selo-fan xaltaga solib bergan to'rtta qatlamani o'rtaga qo'yishga uyaldi. Lekin qo'shilmasdan boshqa iloji yo'q edi, u eng chekkaga o'tirdi, odati o'zi shunaqa, doim eng chekkada yoki eng oxirida o'tirardi, darrov hammaga qo'shilishib ketolmasdi.

Sanjar esa doim hammaning diqqat markazida bo'lishni yaxshi ko'rар va eplardi. Hozir ham u das-turxon atrofida o'tirgan bolalarning o'rtasidan joy oldi.

— Og'aynilar, — dedi u, garchi baland ovozda gapirmagan bo'lsa ham hamma jim bo'ldi, obro'si bor edi uning, — bekorga dasturxonni to'ldirdik. Axir bitta Baqaloqning olib kelgan narsasi butun sinfga yetadi-ku!

Birdan hamma Baqaloqni qidirib qoldi. U daraxt tagidan o'z safarxaltachasini olib, zo'rg'a sudrab das-turxonga yaqinlashdi. O'rtaga kelib to'xtadi. Dastro'molchasi bilan terini artdi.

— To'g'ri aytasan, — dedi Sanjarga qarab xirilla-gan ovozda, keyin xaltachasining og'zini yecha bosh-ladi.

Hamma qiziqish bilan uni kuzatib turardi. Baqaloq nihoyat xaltaning og'zini yechdi, qo'lini ichiga tiqdi — anchagina kavlashtirdi, keyin suvda pish-gan bitta kartoshka bilan bitta tuzlangan bodring chiqarib o'rtaga qo'ydi.

— Vrachlarning maslahatiga binoan haftada bir kun ovqat yemayman, ozish uchun. Bugun xuddi o'shanaqa ochlik e'lon qilgan kunim. Omiy xalq tushunsin uchun oddiy tilda gapirsam, bugun ro'za tutaman. — U xaltaning og'zini bog'lay boshladi.

— O'v, qizg'anchiq, bunaqasi ketmaydi, ag'dar xaltani, — dedi Sanjar, — sen yemasang o'zimiz tushiramiz, yo olib kelganlaringni qaytarib olib ketmoqchimisan?

— Shunaqami, unda o'zing ag'daraqol. — Baqaloq xaltani qoldirib dasturxon yoniga o'tirdi.

— Bo'pti, — Sanjar o'rnidan turib xaltaga yaqinlashdi, og'zini yerga qildi-da, tagidan ko'tarib ag'dardi.

Xaltani ichidan gazetaga o'ralgan o'n beshtacha bir xil kattalikdagi narsa tushdi. Sanjar bittasini ochdi, qarasa g'isht, ikkinchisini ochsa g'isht, qolganlarida ham g'isht, hammasida g'isht!

Bir-ikkitalar kuldi, qolganlar hayron bo'ldi — qiziqchilik qilaman deb shahardan shuncha g'ishtni ko'tarib kelish tentaklik-ku!

— Sen bizni emas, o'zingni laqillatibsan, — beo'xshovroq kuldi Sanjar izza bo'lganini yashirishga harakat qilib.

— Men hech kimni laqillatmoqchi emasman. G'ishtlarni ataydan olib keldim, orqalab toqqa chiqib-tushaman, ozish uchun. Bu ham vrach maslahatiga ko'ra.

— E, kallavaram! Ko'taraman desang tog'ning o'zida tosh tiqilib yotibdi-ku. Shahardan olib kelish shartmidi, — yana Baqaloqni kulgi qilmoqchi bo'ldi Sanjar.

— Tosh bo'lmaydi, chunki g'adir-budir, belga botadi. G'isht esa silliq, taxlab orqalab ketavera-man, — iljaydi Baqaloq.

U Sanjar ustidan g'alaba qozongan edi. Bir-ikkitalar hatto qarsak chalib yubordi.

— Baribir foydasi yo'q, — qo'l siltadi yengilgani ni tan olgisi kelmay Sanjar, — sening shu ochofatling bo'lsa sira ham ozolmaysan.

Birdan Rixsivoyning esiga Anqaboyev tushib qoldi. Qayerda qoldiykin. Qarasa daraxtlarning orqasida berkinib o'tirgan ekan. Oldiga bordi.

— Yurmaysanmi? — dedi Rixsivoy.

— E, men kun bo'yi hech narsa yemasdan ham yurolaman, menga tomosha bo'lsa bo'ldi... Narsa ko'tarib yurishni yomon ko'raman.

— Yur, menda qatlama bor, buvim qotirvoradilar qatlamanı, og'zingda erib ketadi, birga yeymiz — dedi Rixsivoy Anqaboyevning o'zi bilan hech narsa olib kelmaganini bilib.

— Ammo judayam xirapashsha ekansan, — yalintirishni, soxta manziratni yomon ko'radigan Anqaboyev erinib o'rnidan turdi, — havoni qara, nafas olib to'yamsan. Sen bo'lsang ovqatdan gapirasan.

Ular dasturxonga yaqinlashib bir chekkadan joy olishdi. Hamma yig'ilgan edi.

— Boshlasak bo'laveradimi? — so'radi Sanjar.

— Bo'ladi, — dedi Sharifjon aka, bitta olma olib qars etkazib tishladi, — sizlarga yaxshi ishtaha!

Birakayiga o'ttizta qo'l dasturxon tomon cho'zildi.

— Faqat shoshilish yo'q, tiqilib qolsalaring hech kim javobgar bo'lmaydi, — dedi Sanjar.

— Menmonga kelgan tannoz otinchalardek suzilib o'tirish ham yo'q, — dedi Baqaloq va ovqatni ura ketdi.

— O'v, o'v, mechkay, ro'za tutmoqchi eding-ku bugun! — qichqirdi unga Sanjar.

Baqaloq og'zi to'la ovqat bo'lgani uchun javob berolmadi, faqat qo'li bilan «xalaqit berma»ning ishorasini qildi.

Baqaloqning orqa-o'ngiga qaramay ovqatni paqqos tushirishi boshqalarning ham ishtahasini ochib yubordi.

Nonushta uzoqqa cho'zilmadi, hamma ham tezroq ovqatdan qutulib qoyalarga chiqishga, yugurib-yelishga, maysazorda do'mbaloq oshib o'ynashga oshiqardi.

Bolalar endi o'rinlaridan turayotganlarida Baqaloq yana hunar ko'rsatdi. O'tirgan joyida paqqa o'zini orqaga tashlab chalqanchasiga yotib oldi, «voy, voy, jonio, qutqaringlar, yordam beringlar», deb fig'on cheka boshladi. Bolalar: «Nima bo'lди, nima?» deganlaricha uni o'rab olishdi. Qattiq azob chekayotgandek basharasini burishtirib, ixrab yotgan odam birdan tarvaqaylab iljaydi.

— Bo'kib qoldim, — dedi qiyshanglab.

Bolalar: «Bo'kib qolgan bo'lsang, ovqating hazm

bo'ladi», deb uni yerda rosa uyoqdan-buyoqqa dumalatishdi. Voqeani tomosha qilib turgan Anqaboyev ensasi qotib labini burdi.

— Judayam past saviyal Qiziqchilikda me'yor eng asosiysi, me'yordan sal oshdingmi bachkanalikka aylanadi, — dedi.

Rixsivoy Anqaboyevga ajablanib boqdi, g'alati bola edi u, bir qarasang ishyoqmas dangasaga o'xshaydi, bir qarasang donishmandning o'zginasi.

Nonushtadan keyin Sharifjon aka yana kichkina majlis o'tkazdi. Yolg'iz hech kim hech qayoqqa ketmaydi. Juft-juft yoki uch-to'rttadan bo'lib yurish, uzoqqa ketib qolish yo'q. Tog' cho'qqisini zabit etmoqchi bo'lganlar bir guruh bo'lib Sharifjon aka boshchiligidagi chiqishadi. Pastda qoladiganlar Habibaning nazorati ostida bo'ladi. Kim qayerda bo'lmasin, roppa-rosa uch soatdan keyin shu yerda — shtabda uchrashish. Bitta navbatchi shu yerda yulkarni qorovullab qoladi. Navbatchilar har bir soatda almashib turadilar.

Majlis tugashi bilan bolalar har yoqqa to'zg'ib keta boshladi.

— Hoy, Baqaloq, qayoqqa ketyapsan? — yana hazil qildi Sanjar. — Hozirgina Sharifjon akam nima dedilar, yolg'iz yurish mumkin emas. Buyoqqa kel, ikkalamiz qo'l ushlashib yuramiz.

♦Gurr» kulgi ko'tarildi, hatto Anqaboyev ham miyig'ida iljaydi.

— Boqsa odam bo'ladi bu bola, — deb qo'ydi.

Besh-oltita qizlar har xil gul, giyohlar tergani tog' yonbag'ri bo'ylab «o'tlab» ketishdi. Yana o'n nafarcha bola futbol o'ynagani Sanjar boshliq sayxonroq joy qidirishga tushishdi. Qolganlar Sharifjon aka rahbarligida cho'qqiga yo'l olishdi, ancha past edi u, ammo nomi cho'qqi edi.

Rixsivoy futbolchilarga qo'shilmoqchi bo'lib ketayotgan edi, Anqaboyev uni yo'ldan urdi.

— O'v kurtak!

— Menga gapiryapsanmi? — so'radi Rixsivoy.

— Toqqa chiqqan odam ham futbol o'ynaydimi?

— Nima qilibdi?

— Dam olgani chiqdingmi, tabiat qo'yniga singib

ketishing kerak, — olifta gaplarga usta edi Anqaboyev, — zarrachalarga aylangin-da, musaffo havoga, zilol suvgaga, zabardast qoyalarga, o't-o'lan-larga, daraxtlarga, toshlarga singib ket!

— Ey, qayoqdan bilasan bunaqa... adabiy tilda gapirishni? — hayratini yashirolmay so'radi Rixsivoy.

Anqaboyev uning savoliga javob berishni loyiq topmadi.

— Buyoqqa yur! — dedi-da, — chapdag'i egri-bugri tepalik tomon yo'l boshladı.

Rixsivoy beixtiyor uning ortidan ergashdi. Ular dovon oshib keng sayhonga chiqishdi, ko'z o'nglarida ajoyib bir manzara namoyon bo'ldi. To'g'rida ulug'vor qoyalar qovoq solgandek savlat to'kib turardi, pastda, arang ko'z ilg'ar joyda ingichkagina soy. Suvi oqyaptimi, yo'qmi, ajratish qiyin, xuddi rasmi chizib qo'yilganga o'xshaydi. Chapda va o'ngda yana qoyalar. ikkalasidan bo'lak atrofda tirik jon ko'rinnaydi. Eng ajablanarlisi, mutlaqo jimlik edi. Odamni o'z qa'riga yutib yuborgudek mudhish, sehrli jimlik edi bu. Ikkala bola turgan joyida qotib qoldi, yurak urishlari bir-biriga eshitilardi. Bu sirli va biroz dahshatli jimlikdan Rixsivoyning eti jimirlashib ketdi. U panoh qidirgandek og'aynisiga boqdi.

— Mana buni sivilizatsiyaning qadami bulg'aman-gan sof tabiat desa bo'ladi, — Anqaboyev yerga cho'zildi. — Shovqin-suronga sira tobim yo'q.

Uning o'ta xotirjamligi Rixsivoyna dalda bo'ldi, xotirjam tortib Anqaboyevning yoniga cho'kdi.

Ular birpas jim o'tirishdi. Kutilmaganda Anqaboyev yotgan joyida dumbaloq oshib ag'darildi, keyin yana ag'darildi, keyin yana, oxiri qo'l-oyoqlarini yoyib chalqanchasi, uzala tushib yotdi.

— Maz-za!

Rixsivoyning ham sho'xligi tutib ketib chirpirak bo'lib dumaladi, xumordan chiqquncha rosa dumaladi, charchab, harsillab qolganidan keyin Anqaboyevga o'xshab, qo'l va oyoqlarini yoyganicha chalqancha yotib oldi.

— Men yulduzman, — dedi Rixsivoy osmonga tikilib yotganicha, — men besh qirrali yulduzman,

ikkita qo'lim, ikkita oyog'im to'rttami, boshim besh-tami, demak, besh qirra. Men besh qirrali yulduzman.

U yulduzga o'xshash niyatida qo'l-oyoqlarini yanada kengroq kerdi. Shu topda uning nima uchundir judayam yulduzga aylanib qolgisi kelardi. Jonsiz, tanasiz bir mavjudotga aylanib qolsa-yu osmon-u falakda, cheksiz koinotda yengil parvoz etsa!

— O'v, barra o't! — dedi yotgan joyida Anqaboyev.

Rixsivoy osmon-u falakdan yerga qaytib tushdi.

— Menga gapiryapsanmi?

— Senga bo'lmay kimga bo'lardi. Bu yerda boshqa odam bormi sendan bo'lak?

Rixsivoy iljaydi. Ammo laqab qo'yishga juda usta ekan, «kurtak», «g'o'ra», «barra o't»... Xullas, hali mening oldimda sen yosh bolasan demoqchi. Mayli.

— Nima deysan?

— Grammatikani yaxshi ko'rasanmi?

Rixsivoya savol yoqmadi, yoqmadi ham gapmi, ensasini qotirdi. Shunday ruhi yengil bo'lib yotgan paytda qaysi ahmoq o'qishdan gapiradi.

— Bilmayman, — qisqagina javob berib qo'yaqoldi Rixsivoy.

— Men ham yomon ko'raman grammatikani, — dedi Anqaboyev.

Rixsivoy indamadi, bu mavzuda gaplashishni istamayotganini bildirish uchunoq indamadi. Buni Anqaboyev ham sezdi.

Bir oz jim qoldilar.

— O'v sapchal — Anqaboyevning tili qichishardi.

Rixsivoy javob berish o'rniga kulib yubordi.

— Ammo gapni olar ekansan.

— Aytaymi, nimaga yomon ko'raman grammatikani? — o'zinikini qo'ymasdi Anqaboyev.

— E, qo'ysang-chi grammatikangni! — basharasi ni burishtirdi Rixsivoy.

Yana anchagina jim yotishdi. Yana Anqaboyevning tili qichishdi.

— O'v dovuchcha!

Rixsivoy bu gal oldingidan ham qattiqroq kului. Qayqdandan topadi bunaqa laqablarni-a?

— Yana grammatikami?

— Yo'q, savol bor, — dedi Anqaboyev.

— So‘ral

— Qovunning pishib yetishmaganini, xomini, bolachasini sapcha deyishadi-a? Tarvuzning bolachasini nima deyishadi?

Rixsivoy o‘ylab-o‘ylab topolmadidi, keyin «bilmadim» degandek, yelkasini qisdi.

— Xo‘s, bo‘lmasa boshqa savol. O‘rikning xomini dovuchcha deyishadi-a? Shaftolining, olmaning, gilosning, olchaning, olxo‘rining xomini nima deyishadi?

Rixsivoy astoydil bosh qotirdi, lekin javob topolmadidi.

— Bilmadim...

— Bu ham, akasi, grammatikaga, qolaversa, tilshunoslikka kiradi.

— Balki keksa odamlardan so‘rasang bilishar, — taxmin qildi Rixsivoy, mavzu uni sal qiziqtira boshlagan edi.

— Barakalla, so‘rasa bilishadi. Balki ba’zilarining, misol uchun, gilos bilan olchaning xomini umuman nomi yo‘qdir. Nega deganda sapcha bilan dovuchcha mevaning yesa bo‘ladigan alohida bir turi. Ammo xom gilos yoki xom olchani sirayam yeb bo‘lmaydi, shunga ko‘ra nomi ham yo‘qdir.

— Balki...

— A, bu bilan kim shug‘ullanishi kerak? Olimlar! — O‘zi savol berib o‘zi javob qildi Anqaboyev, — olimlar esa...

— Tiqilib yotibdi...

— Kechirasiz, mullavachcha, bizda Hoshimov degan bitta alomat o‘qituvchi bor, o‘shaning aytishicha, ular olim emas, ular fan nomzodi bakalavr, magistr, dotsent, professor va shunga o‘xhash balo-battarlar. Ular faqat unvon egalari. Ammo bevosita fan bilan shug‘ullanadigan fidoyi olimlar deyarli yo‘q. Nokning pishmaganini nima deydi — buni aniqlab beradigan olim yo‘q, vas-salom!

— Olimlarning boshqa qiladigan ishi yo‘q ekan-da, xom sholg‘om yoki baqlajonning nomini topishdan bo‘lak? — Rixsivoy mot qildimmi degandek Anqaboyevga g‘olibona nazar tashladi.

O'z navbatida Anqaboyev Rixsivoya, «shu qadar onging pastmi», degandek achinib qarab qo'ydi.

— Bunaqada ilmiy munozara albatta inqirozga uchraydi.

— Qanaqada?

— Sen soxta olimlarga o'xsharkansan, o'rtaga hal qilinmagan muammo tashlansa, o'shaning ich-ichiga kirib hal qilish yo'llarini qidirish o'rniqa darrov rad javob berishga, munozaradan o'zini olib qochishga harakat qiladi ular.

— E, bo'ldi-da, — qo'l siltadi Rixsivoy, — aqlli gaplar shundoq ham jonga tekkan, men toqqa dam olgani chiqqanman.

— Mana shu ham biliming yo'qligini ko'rsatadi.

— Nima «mana shu?» — tushunmadi Rixsivoy.

— Munozaradan qochishing! Qaytaraman, munozaradan senga o'xshagan bilimi ozlar qochadi.

— Hamma sendaqa donishmand...

— Chunki munozara kimning nimaga qodirligini oshkor qilib qo'yadi. Endi chaqdingmi gapning mag'zini?

— Gaping danakmidiki mag'zini chaqaman, — hazillashishga urindi Rixsivoy.

— Hah, sho'rim, — alamli iljaydi Anqaboyev, — hali kelib-kelib men senga dardimni aytib o'tiribmani?!

Rixsivoy o'zining no'noqligidan noqulay ahvolga tushdi. Anqaboyevning ko'z o'ngida o'z obro'sini tiklab olish uchun u ham qiyin so'zlar, olifta gaplarni bilishni, bilimi borligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldi. Shu boisdan aytmoqchi bo'lgan jumlasini oldin ichida puxta o'ylab oldi, keyin gapirdi.

— O, mutafakkir hazrati oliylari! O'zları toqqa yayragani, tabiatdan bahra olgani chiqqanmilar yo'uzundan-uzoq ilmiy munozaralar bilan boshni qotirganimi?

Anqaboyev: «Senda ham zabon bor ekan-u», degandek suyunib, jonlanib ketdi. Yotgan joyidan irg'ib turdi-da, chordana qurib o'tirdi.

— Mana siz, mullavachcha, hozir «bahra» degan so'z ishlatdingiz? Endi aytin-chi «bahra» so'zidagi «h» yumshoqmi qattiqmi? Yoki siz to'porilarning tili bilan aytsak, dumlimi, dumsizmi?

Rixsivoy o'ylanib qoldi.

— Bilmaysiz. Aniq bilmaysiz, faqat taxmin qilasiz. Chunki qayerda yumshoq, qayerda qattiq «h» yozilishini o'rgatadigan qoidaning o'zi yo'q. Talaffuzga qarab deyishadi. Vaholanki, «bahra» so'zidagi «h»ni juda yumshoq ham, juda qattiq ham aytib bo'lmaydi. Chunki u o'rtacha «x». Xo'sh, o'rtacha «x»ni qanday yozish kerak?!

Endi Rixsivoy ham irg'ib o'rnidan turib ketdi.

— Mana bu gapingga qo'shilaman! Jonga tekkan-di dumli «h» bilan dumsiz «x». Hamma bolalar shunda xato qilishadi. Ba'zi paytlarda «h» yoki «x» yoziladimi, o'qituvchilarning o'zi ham ikkilanib qolishardi. Bir-birlari bilan tortishib ketishganini o'zim ko'rganman!

— Qizishmang, mullavachcha, qizishmang! — bu mavzu haqida Anqaboyev baqirib-chaqirib, uzuqu-yuluq gapirishni istamayotgani yaqqol sezildi. U batafsil, isbotli gap qilmoqchi edi. — Hammaga ma'lum, o'quvchilarining to'qson foiz o'zlashtirmovchiligi shu ikkita harfning dastidan edi. Maktabda bolalarni chirqiratadigan, kirish imtihonlarida abituriyentlarni beshafqat ag'daradigan, o'qituvchilarни bir-biri bilan jiqqamusht bo'lib olishtradicani ham shu qurib ketgur «x» bilan «h» edi.

Rixsivoyning juda hurmati oshib ketdi Anqaboyevga, sizlab yuborishiga sal qoldi.

— Siz... senga nima zarur kuyinib? Nima, shundan boshqa tashvishing yo'qmi?

— Men butun maktabga dong'i ketgan yalqovman. Ishyoqmasman. Nega shunaqaman? Negaligini keyin aytaman! — savolga chap berdi Anqaboyev va «tilshunoslik» bobidagi bilimini izhor etishda davom etdi.

— Mana, xudoga shukr, yana qaytib lotin alifbosiga o'tdik. Mashmashadan qutildik. Dumli, dum-siz «x»larning o'rniqa bitta harf qoldi. Xo'sh, osmon uzilib yerga tushdimi?

Rixsivoy nima deb javob berishni bilmay burnini tortib qo'ydi.

— Sendan so'rayapman, nima, osmon uzilib yerga tushdimi?

— Yo'q, qaytanga sen aytgandek ortiqcha bosh og'rig'idan qutuldik, — jilmaydi Rixsivoy, — dumli, dumsiz degan betamiz gaplar yo'q bo'ldi.

— Shunaqamil — Anqaboyev endi Rixsivoyni chalg'itishga urindi, — unda akasi, sizga yana qiyin bo'ladimi deyman-dal

— Nega endi?

— Nega desangiz, odatdagidek biror so'zda «x» tovushi uchrab qoladi, xo'sh, uning belgisi, dum bo'lmasa yumshoq talaffuz etish kerakmi yoki qattiqmi, qanday ajratasiz?

Rixsivoy yelka qisdi.

— Qaydam.

— He bolapaqir-a, buni nimasi qiyin, faqat ozgina farosat kerak, ha, sal miyangni ishlatsang bo'ldi. Misol uchun «xo'roz» yoki «poraxo'r» so'zlaridagi «x» tovushini sira yumshoq aytib bo'lmaydi. To'g'rimi, shunaqami?

— Shunaqa shekilli, — Rixsivoy ikkala so'zni ichida aytib ko'rib javob berdi.

— Shekilli emas, aniq. Yoki «hiylagar», «hurriyat» so'zlaridagi «h»ni tomoqni qirib, qattiq aytib bo'lmaydi, — Anqaboyev borgan sari «ochilardi», — endi olaylik anonim so'zlarni, bularning ham yo'li oson. Deylik, «men ham boraman» jumlasidagi «ham»ni albatta yumshoq qilib aytasan. «Bechora boshini xam qildi» deganda «xam» qattiq talaffuz etiladi. Shunday ekan, dumli «h»ni o'ylab chiqarish g'irt bema'nilik edil!

— Xo'b senga nima, namuncha kuyib-pishmasang, — bu gaplar Rixsivoyni zeriktira boshlagandi, — o'tgan ishga salovot.

— Yo'q akasi, bugun kechagi xatolarimizni taftish etmasak, ularni bo'ynimizga olib tuzatmasak, ertaga undanda og'irroq xatolarga yo'l qo'yamiz.

— Uf, bo'ldi yig'ishtir, jonga tegdi aqli gapla-ring, o'qituvchilardan ham o'tib tushar ekansan!

— Bor ekansan-ku! — Anqaboyev qiyqirganicha osmonga sakradi, keyin shataloq otib yugura ketdi.

Rixsivoy unga jo'r bo'lib qichqirdi, boshqa tomon-ga yugurdi. Ular xuddi arqonni uzib qochgan buzoq-dek katta doira ichida irg'ishlab bir-biriga yaqin-

lashar; bir-birini turtib ag'darar, yana bir-birini quvib ketardi. Chetdan qaragan odam, «jinni bo'lib qolibdi bular», deyishi turgan gap edi.

Ular rosa miriqib, to'yguncha sho'xlik qilishdi, oxiri horib-tolib yonma-yon yerga cho'zilishdi.

— Bilasanmi men kimga o'xshayman hozir? — dedi yerda mukkasi bilan yotgan Anqaboyev, — kun bo'yi yugurib charchagan, endi tilini osiltirib, harsillab yotgan tozi itga o'xshayman.

Anqaboyevning o'xshatishi Rixsivoyma juda yoqib tushdi.

— Sen tozi it bo'lsang, men... laycha itman, — Rixsivoy tilini osiltirib harsillab nafas ola boshladi.

Bolalarning qiliqlari o'zlariga ma'qul bo'lib xaxolab kulishdi.

Rixsivoyning taxminicha uch soat o'tib qolgan, endi orqaga, bolalarning oldiga qaytish kerak edi.

Shunday qilishdi, qaytishdi. Borishsa endi atigi ikki soat o'tgan, hali yarim bolalar yo'q ekan. Cho'qqini zabit etishga chiqqan bolalar qaytishibdi. Har kim terib tushgan har xil toshlari, giyohlarini og'aynisiga ko'rsatib: «Meniki eng zo'ri», deb maqtardi. Futbolchilar charchabdilar chog'i tarqab ketishibdi. Baqaloq esa hamon qora terga botib g'isht to'la qopini orqalab tepalikka chiqar, pastga tushardi.

Rixsivoyni ko'rib Sanobar unga yaqinlashdi.

— Seni bir minutga mumkinmi?

— Nima deysan? — sovuqqonlik bilan so'radi Rixsivoy.

— Gapim bor.

— Gapir, gaping bo'lsa.

— Yur, chetga chiqaylik.

— Nima? — Rixsivoy juda hayron bo'ldi, o'g'il bolalar urishmoqchi bo'lsa shunday deyishi mumkin, bu qiz bola-ku.

— Chetga chiqaylik. Gapim faqat ikkalamizga tegishli, — qaytardi Sanobar.

— Bemalol gaplashaveringlar, yaxshi qiz, — Anqaboyev oyog'ini sudrab bosib ulardan uzoqlashdi.

Rixsivoy, «xo'sh, nima deysan?» qabilida o'qrayib tikildi Sanobarga. Rost-da gapi bo'lsa shartta gapi-

ravermaydimi, nima qiladi chetga tortib, xuddi katta sirni aytadigandek. Yomon ko'rgani shunaqa rasmiyatchilik.

— Gap shundaki... seni deb boy... Sharifjon aka bilan Habiba opa jiqillashib qolishdi.

Rixsivoy hech narsaga tushunmadi.

— Nega endi meni deb jiqillashishar ekan?

— O'zing nima deb o'ylaysan?

— E, miyani achitmasdan ochiq gapirsang-chi, nima gunoh qilibman?!

— Qo'rslik qilmasang aytaman.

— Uf... — toqatsizlandi Rixsivoy, — yomon ko'rganim donishmandlarning ma'naviy axloq haqida nasihatini eshitish. Kel, qo'y, ertaga maktabda gapplashaylik, men dam olgani chiqqanman.

— Iltimos, birpas sabr qil, men senga hech qanday nasihat qilmoqchi emasman, o'rtada bo'lgan gapni aytib beraman, o'zing xulosa chiqaraver, — dedi Sanobar xotirjamlik bilan.

— Hozir aytib berishing shartmi?

— Harholda bugun eshitganing ma'qul. Bugun eshitib, bugun xulosa chiqarganing ma'qul.

— Kimga ma'qul, sengami?

— Hammagal — Sanobar sira qizishmas edi, — vaqtingni ko'p olmayman, lo'nda qilib aytaman.

— Bo'pti, gapir, kirish qismingni o'zi shuncha cho'zildi-yu, tag'in ko'p vaqtingni olmayman deysan...

— Sharifjon aka sening Anqaboyev masalasidagi bugungi qilmishingdan norozi. — Sanobar diktant darsidagidek dona-dona qilib gapirardi. — Habiba opa esa seni yoqlayaptilar. Ammo Sharifjon aka Habiba opani bopladir. Siz yonini olib, mening qat'iyat ko'rsatishimga xalaqit berdingiz, obro'yimga putur yetkazdingiz, o'qituvchi bitta so'zli bo'lishi kerak, dedi. Habiba opa bo'lsa Anqaboyevni ola kelganimizning hech qanday aybi yo'q, aks holda, yo'lda qoldirib ketganimizda Anqaboyevning ham, Rixsivoyning ham yuragini jarochatlab qo'ygan bo'lardik, butun sinfning dilini xira qilib bugungi sayohatni yaxshi o'tkaza olmasdik, deb aytdi.

— To'g'ri aytibdi, rost-da...

— Men hali tugallaganim yo‘q, — Sanobar ko‘rsat-kich barmog‘ini bigiz qilib Rixsivoyni to‘xtatdi. — Sharifjon aka men Anqaboyevning sayohatga chiqishi-ga aslida qarshi emasman, lekin u avval borishga ijozat so‘rashi, modomiki, ruxsat so‘ramagan ekan, uni taklif qilgan Rixsivoy o‘zboshimchaligi uchun kechirim so‘rashi kerak edi. Ular esa jazosiz qolishdi, butun sinf oldida men nima degan odam bo‘ldim, dedi.

Sanobar gapirar ekan, garchi betaraf bo‘lishga urinsa-da, Sharifjon akani yoqlayotgani ovozidan sezilib turardi.

— Habiba opa nima dedi?

— Nima derdi: «Butun sinf oldida oljanob odam ekan degan nom orttirdingiz, axir Anqaboyev begona emas-ku, o‘zimizning maktabimiz o‘quvchisi, — dedi. — Rixsivoydan kechrim so‘rashni talab qilish esa o‘chakishishga o‘xshab ketyapti», dedi.

— Qoyil qilibdi, — suyunib ketdi Rixsivoy, — kap-katta odam yosh bola bilan o‘chakishib nima qiladi. Anqaboyev jinoyat qilibdimi, kechirim so‘raydi yoki men so‘rayman. Agar bilsang Anqaboyev biz bilan chiqqani uchun minnatdor bo‘lishimiz kerak. Chunki u zo‘r faylasuf, olimlarning olimi.

Sanobar Rixsivoy hazillashyapti deb o‘ylab kuldi.

— Yalqovlik fanlari faylasufimi? — keyin yana jiddiy tortdi. — Menga qara, Rixsivoy, sendan iltimos, agar Sharifjon akani zig‘ircha hurmat qilsang, agar Sharifjon aka bilan Habiba opa seni deb achchiqlashib qolishlarini istamasang, borib kechirim so‘ra.

— Chuchvarani xom sanabsan, — surbetlarcha tir-jaydi Rixsivoy, — bunaqasi ketmaydi.

— Men seni bunchalik kekkaygan bola deb o‘ylamagandim. Odobli, odamgarchiligi bor deb yurardim.

— Sening oldingda o‘zimni oqlamoqchi emasman-u, lekin bilib qo‘y, odamgarchiligidim borligi uchun kechirim so‘ramoqchi emasman.

— Tushunmadim.

— Tushuntirishga urinib ko‘raman, — dedi Rixsivoy, — agar kechirim so‘rasam Habiba opaga jabr qilgan, uni nohaq hisoblab mag‘lubiyatga uchratgan bo‘laman.

— Seningcha Sharifjon aka...

— Ha, menimcha Sharifjon aka nohaq!

Sanobar Rixsivoy o'la qolsa kechirim so'ramasligini tushundi.

Balki Sanobar aralashmaganida Rixsivoy rostdanam Sharifjon akadan kechirim so'rар. O'zidan chiqishi kerak edi bu fikr, birov zo'rласа o'jarligi tutib teskarisini qilardi.

— O'rtalarida nizo chiqmasin devdim-da — oxirgi marta urinib ko'rdi Sanobar, — ularning tortishuvi maktab direktorigacha yetib borishi mumkin. Undan ko'ra bir og'iz kechirim so'rab qo'ya qolish mumkin-ku!

— Mumkin emas, — dedi Rixsivoy. «Vijdonimni sotib o'rganmaganman», demoqchi edi u, ammo balandparvoz gap bo'lib ketishidan qo'rqib tilini tiydi.

— O'qituvchilarni bir-biriga gij-gijlab tomosha qilishni yaxshi ko'radiganlar ham bo'lar ekan-da? — piching qildi Sanobar.

— Ba'zilarga o'xshab hammaning ko'nglini ovlab, umrini murosasozlikda o'tkazgandan ko'ra, bir tarafning yonini olgan afzal.

Sanobar shartta o'girilib Rixsivoydan uzoqlashdi.

Peshinda ovqat yedilar. Ovqatdan keyin yana uch soat bo'sh vaqt e'lon qilindi. Qarabsizki, hash-pash deguncha kech kirib, ketadigan vaqt ham bo'lib qoldi. O'zi shunaqa, dam olish kuni o'tib ketganini bilmay qoladi odam.

Qaytayotganlarida avtobusning ichi ancha tinch bo'ldi. Ashula aytishlar, qiziqchilik qilib hammani kuldirishlar yo'q edi. Hamma charchab allanechuk xomush bo'lib qolgandi.

Shaharga yetay deb qolganlaridagina birdan modadan gap ochilib ketdi. Qizlar xorijiy g'arbda hozir qanday matolar modaga kirgani, mashhur aktrisalar sochlari qanday turmaklayotganlari ustida munozara ochishdi. Bolalar esa qaysi firmanın jinsi shimplari yaxshiroqligi to'g'risida bahs yuritishdi. Rixsivoy bu borada mutlaqo savodsiz ekanini angladi. U ertalabki voqeani esladı. Tongda o'rtoqlarini ko'rib arang tanigan edi. Shu qadar olachipor, shu qadar boy kiyingan edi ular.

Baqaloq shimini almashtirishni taklif qildi Sanjarga.

— Be, egningdagi shim bo'ptimi, qopning o'zi-ku, menikiga yaqin ham yo'lamaydi, — haqiqatda Sanjarning shimi juda allambalo edi. — Menikini dunyoda eng mashhur firma tikkani.

— Meniki ham zo'r, importniy, matosi to'qimdan ham qalin.

— E, mingta importniy o'taversin Shtatlarning firmasi oldidan, — dedi Sanjar. — Sen Rixsivoy bilan almash. Uniki ham zo'r firma: AQSH — Ajoyib Qo'l bola Shim.

Yengil kulgi ko'tarildi. Rixsivoyning shimi haqiqatda ham qo'l bola, buvisi tikib bergen, anchayin ko'rimsiz edi. Sanjar uni qo'lda tikilganini ajratolganiga hayron qoldi Rixsivoy, hazilga hazil bilan javob berdi.

— Ichlarindagi eng vatanparvari o'zim ekanman, chunki hammangni ust-boshlarining har qayerniki, menda esa hammasi o'zimizniki, qadrdon elimiz O'zbekistonnniki.

Bu gap mo'ljalga aniq tegdi. O'rtoqlarining deyarli hammasining kiyimi chet elnniki edi. Shundan keyin birdan gap bo'linib to shaharga yetgunlaricha hech kim churq etib og'iz ochmadi.

Avtobus maktabga kelib to'xtadi. Bolalar bir-birlari bilan hayrashib har qayoqqa tarqashdi. Uyga yolg'iz qaytar ekan Rixsivoyning ko'ngli yana sal g'ashlandi. U sababini axtara boshladidi. Topolmadi. Nahotki o'rtoqlarining kiyimiga havasi kelgan bo'lsa? Kim biladi, lekin yuragida bitta orzu paydo bo'ldi. Endi buvisi pul bersa yemaydi, ichmaydi — yig'adi. Yig'ib-yig'ib bitta importniy jinsi shim sotib oladi. Sanjarnikiga o'xshaganiga yig'olmas-ku, lekin sal mundog'rog'ini olishga qurbi yetar.

Rixsivoy uyiga yetib zinadan ko'tarilayotganida miyasiga lop etib g'alati fikr keldi. Ammo juda aqli odam o'quvchilarga maktab formasini o'ylab chiqargan ekan, formadan zo'r narsa bormi — hamma bir xil, hamma teng. Mening ust-boshim zo'r, deb kerilishga yoki kiyimim yupun deb o'ksinishga asos yo'q.

YURAKKA YAQIN XOTIRALAR

Rixsivoy uylarining yo'lagi oldida «Jiguli» turganini uzoqdan ko'rди. Qo'shnisining mashinasи Ammo g'alati qo'shnisi bor. Kunora mashinasini to'ldirib bozor qilib keladi. Keyin o'n minutcha bagajning qopqog'ini ochib qo'yib, olib kelgan narsalarini butun uyga ko'z-ko'z qiladi. Buning yo'li bor, oila boshi Kozim aka kelib to'xtashi bilan signal beradi. Mashinadan tushib bagajnikni ochadi. «O'v, tushlaring!» deb to'rtinchи qavatda turadigan bolalrini chaqiradi. Bolalari tushishga shoshilishmaydi. Kozim aka qo'lida mashinaning kalitini o'ynab uyoqdan-buyoqqa yuradi. Oziq-ovqat, ho'l mevaga liq to'la bagajnik ochiq. «Bo'la qolinglar!» deb qistab qo'yadi. Xullas, butun uy voqeadan xahardor bo'lganidan keyingina uy bekasi ikkita bolasini yetaklab pastga tushadi. Hammalari qo'llariga siqqanicha narsa ko'taradi. Ammo Kozim aka oziq-ovqat ko'tarib yurishni o'ziga ep ko'rmaydimi, pastda qoladi, bir oz turib yolg'iz o'zi viqor bilan tepaga ko'tariladi. U qaysidir vazirlikda zavxozmi, shunaqa. Lavozimi kichkina-yu, ammo ishlaydigan joyining nomi ulug', shuning uchun dimog'i baland.

Birinchi qavatdagи magazinchilar — ularning aksi. Magazinchining uyga biror narsa ko'tarib kelganini birov ko'rmagan. Mish-mishlarga qaraganda qorong'i tushganda, hamma uxlaganda olib kelisharmish. Bo'lmasa ularning ham mashinasи bor — «Volga». Tez-tez ziyofat berib turadi, ammo u ham imida-jimida — qo'shnilarga ovoza qilmasdan o'tkazib olishga harakat qiladi.

Shu ikkitasidan bo'lak qolgan hamma qo'shnilarni Rixsivoy yaxshi ko'rardi. Bular bilan ham ishi yo'g'-u, ammo yoqtirmasligi aniq edi. Bittasi manman bo'lsa, ikkinchisi pismiq. Manmanligi o'ziga-yu, lekin birovni mensimasligi ortiqcha edi.

Rixsivoy podyezdga yaqinlashdi. Qo'shnisi kekka-yib qo'lidi mashina kalitini o'ynab turardi, mashinasining bagajnigi har doimgidek ochiq, ichi liq to'la qovun-tarvuz. Po'kalak (Rixsivoy bilan buvisi

kekkaygan amalparast Kozim akaga o'zlaricha shunday laqab qo'yib olishgan edi) zo'rg'a bosh silkib Rixsivoyning salomiga alik oldi. Ikkita kichkina bolasi va xotini bittadan qovun ko'tarib inqillab-sin-qillab podyezdiga kirib ketishdi. Rixsivoy yerga qaranicha yonlaridan lip etib o'tib ketdi.

Mastura xola odatdagidek nabirasini ochiq chehra bilan kutib oldi. Rixsivoy apil-tapil kiyimini o'zgartirdi, shoshib ovqatini yedi-da, dars tayyorlashga o'tirdi. Kampir nabirasining ta'bi xiraroq ekanini payqadi.

— Ha, domlajon, darsingiz juda ko'pmi deyman, kelmasdan kitobga yopishyapsiz?

Mastura xola nabirasi maktabga borgan birinchi kunidanoq «domlajon» deb chaqiradigan bo'lgandi. O'zi chalasavod bo'lgani uchunmi nabirasining o'qimishli bo'lib yetishishini orzu qilar, shu bois hurmatlab «domlajon» derdi.

— Kechqurun televizorda futbol bor, — qisqagina javob berdi Rixsivoy.

— E, shunaqami. Unda tezroq qutulib olganingiz ma'qul darslaringizdan, — Mastura xola nabirasining yuragini ochmaganini sezdi, lekin jig'iga tekkisi kelmadni. Mayli, maktabida yomonroq baho olgandir, tayyorlanib borib tuzatib kelar.

Rixsivoy tarixdan uyga berilgan mavzuni bir marta o'qib chiqди, ikki marta o'qib chiqди, miyasiga hech vaqo kirmadi. Chunki ko'zi harfda bo'lgani bilan fikri boshqa yoqda edi. Po'kalakning yonidan indamasdan o'tib ketib yaxshi qildimi? Balki yordam berib yuborish kerakmidi? Baribir ham tepaga chiqib ketayotuvdi-ku, bitta tarvuzini ko'tarib olib chiqib bersa, biror yeri kamayib qolarmidi? Bolalari yosh, tashib chiqishlari qiyin. Yordamlashib yuborsa bo'lardi... Zarur kelgani yo'q dimog'dor odamlarga yordam berib. Innaykeyin Po'kalak kabilar bu bola qovunga suqi kirganidan, menga ham berarmikin degan niyatda yordam qilyapti deb o'ylashi mumkin. Agar hamma qatori odam bo'lganida shishinmasdan, «yordam berib yubor», deb iltimos qilardi. Qilmadi. Shishinib turaverdi. O'zidan ko'rsin.

Rixsivoy yana mavzuni o'qiy boshladi, yana fikri parishon. U kitobni yopib «sharaq» etkazib stolga urdi-da, o'rnidan irg'ib turdi. Yana o'zidan jahli chiqdi. Nega shunaqa-a? Nega hamma narsani o'ylayveradi. U buvisining oldiga chiqdi.

— Hay, hay, nima qildi, domlajon, avzoyingiz buzuq? — hazillashishga urindi Mastura xola.

— Maktabdan kelayotsam, pastda Po'kalak turgan ekan, — dedi Rixsivoy va tutilib qoldi.

Mastura xola: «Xo'sh, nima qilibdi turgan bo'lsa», degandek nabirasiga savolchan nazar tashladi.

— Bir mashina qovun-tarvuz opkelibdi. Xotini bilan ikkita bolasi o'lib-tirilib tashishyapti, o'zi esa qo'l qovushtirib turibdi.

— Po'kalakni bilasan-ku, narsa ko'tarsa obro'si to'kilib qoladi, — yupatish ohangida dedi kampir.

— Men ham indamasdan o'tib ketaverdim, — deb yuragini bo'shatdi Rixsivoy, — yordam bermadim.

— Hm... — dedi Mastura xola, — qarashvorsang bo'lardi, bolalari kichkina, qiynalishadi.

— Axir, o'zi qaqqayib turibdi-ku!

— Voy, sen ham o'shangan o'xshagan g'o'daygan bo'lmoqchimisan? — yumshoq gapirdi Mastura xola, — uzoq qarindoshdan yaqin qo'shni yaxshi deyishadi. Yaxshi-yomon kuningda shu qo'shning kunningga yaraydi. Hali g'o'rsan, qo'shnichilikning qadriga yetmaysan.

— E, bular qanaqa qo'shni, siz kunora zinani yuvasiz, ular haftada bir marta yuvishni ham o'zlariga ep ko'rishmaydi. Shu odamgarchilikdanmi?! Nima, bizlar ularning xizmatkorimizmi yo mala-yimizmi?

— Qo'yaver, men bekorchi xo'jaman, ermakka yuvaman. Uning mayda bolalari bor, ishlaydi, qo'li tegmaydi-da.

— Xo'p, bo'lmasa o'tgan hafta Po'kalakning qilgan ishiga nima deysiz? Ikkalamiz qo'limizda yuk, bozordan qaytayotganimizda shundoqqina oldimizdan o'tib ketdi mashinasida. Olib ketay demadi-ku. Axir uyga kelayotgan ekan. Kelib ko'rdingiz o'zingiz ham, mashinasi eshikning tagida turgan ekan.

Mastura xola ko'zoynagini yechib nabirasiga qaradi.

— Yomon bilan o'chakishsang, o'zing ham yomon bo'lib ketganiningni bilmay qolasan. Yomonga yaxshilik qilib tanbeh berish kerak, ha, yaxshilik qilib ko'zini ochish kerak.

— Nega endi? Bu yomonga yon bosish-ku, — tutaqib ketdi Rixsivoy. — Yomon bilan kurashish kerak!

Oldinlari Mastura xola nabirasining qichqirganini sira eshitmagan edi. Keyingi paytda shunaqa qiliq chiqargan. Bu birinchisi emas — ucht-to'rt marta ovozini balandlatdi. Asabi buzilgamikin yoki rasta bo'layotgan paytimikin. Yosh bolalar o'spirinlikka aylanayotgan paytida shunaqa aynishadi, gap ko'tarolmaydigan bo'lib qoladi, deyishadi-ku.

— Mayli, bo'lar ish bo'ldi, endi shunga ham kuyib o'tirasamni, — nabirasini ovutdi Mastura xola, — bir marta yordam bermagan bilan odam yomon bo'lib qolmaydi. Balki to'g'ri qilgandirsan. Sal ko'zi ochilsin.

Rixsivoy shartta o'girilib o'z xonasiga kirib ketdi. Stulga o'tirib ikki qo'li bilan boshini changalladi. Axir nega buvisi boplاب ta'zirini bermadi. Koyib-koyib tashlamaydimi... «Eshigi eshigiga to'g'ri qo'shnisidan yordamini ayagan odam odammi?!» deb sharmanda qilmaydimi. Boplاب so'kmaydimi, urmaydimi?! Buvisi esa hech qachon qattiq gapirmaydi, doim Rixsivoyna yon bosadi. Mana hozir ham buvisi haq, lekin Rixsivoyna dilini og'ritgisi kelmay, «bo'lar ish bo'pti» bilan tugatdi tortishuvni.

Miyasiga birdan kelgan fikrdan Rixsivoy hayron goldi. Qiziq, buvisining yumshoq ko'ngilligi unga uncha yoqmasdi, yuragi qattiqko'llikni, shafqatsizlikni qo'msardi. Qani endi onasi bo'lsa-da, jerkib, baqirib o'z aytganini qildirsa yoki adasi kamar bilan Rixsivoyni tutvolib do'pposlasa... Shunaqa narsani ham qo'msaydimi odam, ajablandi Rixsivoy. Buvisi uni o'z holiga tashlab qo'ygan, Rixsivoyna degani degan, aytgani aytgan. Unda buyog'i nima bo'ladi? Shuning uchun ham shafqatsiz va temir irodali bir murabbiyni qo'msardi Rixsivoy. Tergaydigan, qiyinchilikka o'rgatadigan odamni qo'msardi. Buvisining erkalatishlari esa yaxshilikka olib bormaydi. Chunki Rixsivoy ipak-oyim emas, mard va chapdast, irodasi

kuchli va uddaburro odam bo'lishni orzu qilardi. O'zining tarbiyasi o'ziga qolib ketishidan cho'chirdi. Unga panoh va suyanchiq, ustoz va murabbiy kerak edi.

Eshik qo'ng'irog'i jiringlab Rixsivoyning fikrini bo'ldi. Buvisi ichkari uyda gumbillatib mashinasida nimadir tikib o'tirgan edi, qo'ng'iroqni eshitmadni.

Rixsivoy borib eshikni ochdi, ostonada turgan Habibani ko'rib angrayib qoldi.

— Maylimi kirsam? — so'radi Habiba, — uyinglarda hech kim bormi?

— Kiring, buvim borlar.

— Juda soz, — Habibaning dimog'i chog' edi, yo'q, u Sharifjon aka singari yolg'ondakam o'zini xushchaqchaq ko'rsatishga urinmasdi, tabiatan shunaqa, doim bardam va tetik, hushchaqchaq va xushmuomala edi, — nega keldi deb hayron bo'layot-gandirsan? Buvning bilan gaplashmoqchiman.

— O'ting ichkariga, buvim gaplashishni yaxshi ko'radilar, — Rixsivoy yetakchi tarbiyachisini juda iliq kutib oldi.

— Demak, xil tushgan ekanmiz, — jilmaydi Habiba.

— Buvi, buyoqqa qarang.

Zum o'tmay dahlizda kampir paydo bo'ldi.

— Voy keling, opovsi, esonmisiz-omonmisiz. — Mastura xola bilan Habiba birinchi bor uchrashayotgan bo'lishlariga qaramay qadrdonlardek quchoq ochib ko'rishishdi. Faqat ochiq ko'ngil, xushtabiat odamlargina bir-biri bilan shunaqa samimiyl, qizg'in salomlashishi mumkin. Mastura xola Habibani mehmonxonaga taklif etdi, xol-ahvol so'rab stolga dasturxon yozdi.

Rixsivoy ildam borib gazga choy qo'ydi. U uyda kam ish qilar, qanday yumush bo'lsa buvisidan ortmasdi, lekin bugun juda chaqqon bo'lib qoldi. Choy qaynashi bilan damlab, mehmonxonaga olib kirdi. Buvisi quvonib ketdi:

— Voy, dastyor bolamdan aylanay, buvimplarni urintirmay debsan-da, ilohim umring uzun bo'lsin, — kuldi kampir, keyin Habibaga yuzlandi, — hammagayam bunaqa mehmondo'stlik qilavermaydi ukangiz, ha, sizni hurmat qilar ekan.

— Juda qiziqsiz-a, buvil — Rixsivoy uyalib xonani tark etdi. Buvisining shu odati yomon-da, sag'al narsaga hammaning oldida maqtayveradi.

Rixsivoy o'z xonasiga kirib yana tarixni o'qiy boshladi. Ammo tag'in xayol uni har qayoqqa tortqilab qochardi. Habiba nega keldi. To'g'ri, u o'z o'quvchilarining hayoti bilan yaqindan tanish bo'lishi kerak, lekin hamma bolalarning uyiga boraversa umri mehmonda o'tadi-ku, maktabda ozmuncha o'quvchimi? Yoki faqat «qiyin», «qoloq», o'quvchilarnikiga borarmikin? Bundan chiqdi Rixsivoy ham o'shanaqa bolalardan ekan-da. Yo'g'-e, o'qishi yomon emas, goh-gohda «uch» olib qolmasa, boshqa paytda doim baholari «to'rt», «besh». Hatto «to'rt»ga nisbatan «besh»i ko'p. Faqat yangi maktabga kelib goh-gohda «uch» ham oladigan bo'lib qoldi. O'zining oldingi maktabida-ku «to'rt»ni ham kam olardi. Ha, tushunarli, yangi o'quvchi bo'lgani uchun oilasi bilan yaqindan tanishishga kelgan Habiba.

Eh, eski mahallasi, eski maktabi zo'r edi-da! Mahallasi ham, uyi ham, o'rtoqlari ham, qo'shnilar ham ajoyib edi. Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, deganlaridek Rixsivoy ham eski uyda yashaganida na o'rtoqlarining, na qo'shnilarining qadriga yetgan ekan. Hozir eslasa yuragi orziqib tushadi.

Eski shaharning qoq o'rtaсидаги о'ша төр ко'чалар, кatta-kichik hovlili bir qavatli uylar. O'rtoqlari, qo'shnilar hammasi har xil edi, ba'zilari bilan unchalik chiqisholmasdi, lekin baribir hozir qaysi birini eslamasin eng qadrdon, eng yaqin odami yodiga tushgandek yuragi jizillab ketadi. Harholda Po'kalakka o'xshagan kekkaygani yo'q edi. Hammasi sodda, to'pori odamlar edi. Mana endi eski mahallalari buzilib, hamma har qayoqqa ko'chib ketgandan keyingina avvalgi qo'shnilar qarindoshdan ham yaqin bo'lib ketganini tushundi.

Rostdan ham ko'cha-ko'yda eski qo'shnilar yoki og'aynilari bilan uchrashib qolsa tug'ishganini ko'rgandek quvonib ketadi.

Qizig'i shundaki, biror nuqsoni bor qo'shnilarini hozir eslasa o'sha kamchiliklari fazilatdek tuyulardi Rixsivoyna. Mahallada kim qandayligi hammaga ayon

edi. Ko‘p qavatli beton uylarda esa hamma o‘z kata-lagiga bekinib olgan, bir-biri bilan kam ko‘rishadi, bиринчи пodyezd bilan oxirgi podyezddagilar bir-biri-ni tanimasligi ham mumkin.

Rixsivoy kitobni yopdi, yo‘q, bunaqada ish yu-rishmaydi, o‘qisang xayol qochib ketaveradi. Algebrani qilish kerak. Ana unda xayol qochmaydi, fikr-u zikringni bir yerga to‘plab masalani ishlashga to‘g‘ri keladi.

Rixsivoy algebrani uncha yoqtirmas edi, masalalarni yechishga miyasi yaxshi ishlamasdi. Ming azob bilan uchta maslani yechdi, soatga qarasa futbol boshlanishiga o‘ttiz besh minut qolibdi. Habiba esa haliyam ketmagan edi. Namuncha bularning gaplari cho‘zilib ketdi, ikki soatdan oshdi kelganiga, deb o‘ylab qo‘ydi Rixsivoy.

Qaychi olish bahonasida mehmonxonaga kirdi. Qarasa, buvisi rosa gapni olib qochyapti:

— Ha, opovsi, noshukr bandalar bo‘ladi, turgan turmushidan noligani noligan, men ham bittasini bilaman, hech narsa yoqmaydi. Hoy, musulmon, ko‘p haddingdan oshaverma, noshukurchilik ko‘r qiladi, deydigan odam yo‘q. To‘g‘ri-da, xudoga ming qatla shukr zamon to‘qchilik, to‘kinchilik. Magazinga kir-sang undan tortib guruchgacha, shakardan tortib sariyog‘gacha hamma narsa qalashib yotibdi. Urush paytida bir kilo un anqoning urug‘i edi. Shakar, sariyog‘-ku odamning esiga ham kelmasdi. Qachon nonni to‘yib yeydigan kun kelarkin deb orzu qilardik. Ha, eng katta orzu shu edi. Odamlar og‘ir kunlarni unutib qo‘yishdi, injiq bo‘lib ketishyapti. Katta dong chiqar to‘ylarga zeb berishadi. Isrofgarchilikni, uvol nimaligini bilmay qo‘yishdi. Nonko‘rlik bu.

Rixsivoy gapga xalaqt bermaslik uchun, garchi kerak bo‘lmasada, qaychini olib sekin chiqib ketdi.

Habiba uzoq o‘tirdi. Futbol boshlandi. O‘z xonasida futbol ko‘rib o‘tirgan Rixsivoy Habiba ketadigan bo‘lsa tomoshaning beliga tepadi, xayrlashishga chalg‘ib o‘yinning eng qiziq joyini o‘tkazib yuborishim mumkin deb qo‘rqdi. Ammo Rixsivoy futbolni boshidan oxirigacha bemalol o‘tirib ko‘rdi. Habiba ketishni o‘ylamasdi.

«Nima balo, yotib qolmoqchimi biznikida», degan xayol kechdi boshidan.

Xuddi shu asno mehmonxonadan Habiba chiqib qoldi. Ular Mastura xola bilan quyuq xayrlashishdi. Ketganidan keyin buvisi: «Odam bilan juda gaplashadigan, ko'nglida kiri yo'q, ochiq qiz ekan», deb rosa maqtadi.

— Yarim kun nimalarni gaplashdilaring? — qiziqdi Rixsivoy.

— Voy, hech narsa qolmadi bizdan, domlajon. Seni chaqaloqligingdan tortib, adang-u, onang-u, ham-malarini gapirib berdim.

Rixsivoy yerga, buvisining oldiga cho'kdi. Buvisi yerda, ko'rpachada o'tirishni yaxshi ko'rardi, shuning uchun mehmonxonada stol-stul yo'q, xontaxta qo'yilgan, atrofiga qalin ko'rpachalar to'shalgan edi. Buvisi Rixsivoyga uning ota-onasi, chaqaloqligi haqidada juda ko'p marta hikoya qilib bergen edi. Har gal Rixsivoy bu hikoyalarni berilib, butun borlig'i bilan tinglar, bo'lib o'tgan voqealarning yangi-yangi qirralarini ochgisi, buvisi unutib qo'ygan hodisalarini batafsilroq, to'laroq eshitgisi kelardi.

Hikoyalarni esa haqiqatdan qiziq va ta'sirchan edi.

— Nimalarni gapirdingiz, oyimlarni ertalab turib mahallada fizkultura bilan shug'ullanganlarini ham aytib berdingizmi?

— Aytyapman-ku, hech narsa qolmadi deb. Sen bilmaydigan narsalarni ham gapirib berdim.

— Men bilmaydigan?! Mendan bekitganlaringiz, menga aytib bermaganlaringiz ham bormi hali?!

— Bo'lmasa-chi. Ba'zi narsalar yodimdan ko'tarilib ketgan ekan, endi esimga tushyapti.

— Jon buvi, aytib bering, — yolvordi Rixsivoy, — evaziga algebradan olgan «uch»imni ertaga «besh»ga to'g'rilib kelaman.

— Unday bo'lsa mayli, tishimni kavagida asrab yurgan bitta voqeabor, o'shani aytib bera qolay.

Doim shunday derdi Mastura xola, shunday derdiyu, baribir Rixsivoy ko'p marta eshitgan voqeani qaytarardi. Ammo har gal boshqacharoq qilib, yangi tafsilotlardan qo'shib-chatib so'zlab berardi.

Mastura xola piyoladagi sovub qolgan choydan

bitta ho'plab tomog'ini ho'lladi. Rixsivoy qiziq voqeani eshitishga shaylanib chordana qurib o'tirdi.

— Shu desang, sening onangdan o'tadigan dovdir, sening adangdan o'tadigan maynavoz yo'q edi bu dunyoda, — Mastura xola iljayib nabirasiga qaradi.

Rixsivoy ham og'zi qulog'iga yetgudek bo'lib, zavq bilan jilmaydi.

— Ha, ikkalovi ham g'irt jinni edi.

Bu gal kampir bilan nabira oldingidan ham ko'proq jilmayishdi. Chunki Mastura xola «jinni» so'zini kamsitib emas, maqtash va erkalash ma'nosi-da ishlatayotgani sezilib turardi.

— Sening tug'ilgan kuning bo'lishi kerak edi... Bir yoshga to'layotganding. Bu kunni kutaverib er-u xotinning sochi oqarib ketdi, desam lof bo'lmaydi. Seni katta bo'lishingni oylab emas, kunlab, soatlab kutishardi. Ikkalovi kun-u tun atrofingda gирgitton. Haftada bir marta bo'yingni o'lchashadi, tarozuda tortishadi, bittasi ikkita oyog'ingdan, bittasi ikkita qo'lingdan ushlab piskulto'ra qildirishadi, kunda ikki mahal cho'miltirishadi. Xullas, sen ularga bola emas, o'yinchoq eding.

Mastura xola nafas rostlab oldi, kelinining kam-chilagini aytishdan oldin doim bir to'xtab olardi. — Ha, onangni topib olgani kitob edi. Kitob o'qib ovqat qilardi, kitob o'qib kiyim tikardi, kitobga qarab bola boqardi. Hammasiga ko'nardim-u, lekin kitobdan o'rganib bola boqishiga chidolmasdim. Mayli, kitobda aytganidek kiyim tik, ovqatingni pishir-u, ammo bolani mayib qilib qo'yishlaringga yo'l qo'ymayman, deb g'avg'o ko'tardim. Yo'q, kitobda yozilganiga qarshi emasdim, tez-tez yuvib-tarab, vaqtida ovqa-tingni berib, vaqtida uxlatish kerak deganlari juda to'g'ri. Ammo yaxshi nasihatining ichida bitta ahmoqchilik ham bor ekan. Davlat qurib qo'ygan hovuz bo'lar ekan.

— Basseyн, — dedi Rixsivoy.

— Ha, o'sha hovuzning chuqurligi odam bo'yi kelarkan. Bir oylik, ikki oylik, olti oylik chaqaloqlarni oborib o'sha hovuzga tashlasharkan. Bola suvning tagida bir-ikki daqiqa qolib ketar ekan. Nima zarur desangiz, ha-de, bola yoshligida suvg'a

o'rgansa, katta bo'lganda hammani dog'da qoldiradigan suzuvchi chiqarmish. Bir kuni seni ham o'sha hovuzga oborib cho'miltirmoqchi bo'lishdi. Jonholatda senga yopishib mahkam bag'rimga bosdim. «O'laman sattor, cho'ktiradigan bo'lsalaring mana meni cho'ktirlaring, ammo nabiramni senlarga berib bo'pman», deb dod-voy ko'tardim. Ha, quloq solishmas ekan-al Er-u xotin atrofimda parvona bo'lib, «qo'rwmang, oyi, mayli, hovuzga obormaymiz, o'zingizni bosing»ga tushib qolishdi. Men ham darrov yumshay qoldim, ko'nglim bo'sh-dal. «Sal kattaroq bo'lsin, suzishni o'rganish qochmas. Mana, eshigimizning tagida ariq oqadi, mahallaning bolalari kunbo'yi itbaliqdek suzishgani-suzishgan, sayozgina, tizzadan keladi, o'shalarga qo'shilib o'rganib olar suzishni», dedim. Gapimni eshitib endi er-u xotinning tepe sochi tikka bo'lib ketdi. Ariq suvi iflos, loyqa, kasalning ini-ku, deb uvvos ko'tarishdi. «Hoy, hoy, to'xtanglar, bo'lmasa o'zim Hadradagi pantanga oboramani. Qachon o'tmay bolalar ichida cho'milib yurishadi. Senlarning hovuzingdan o'lsa o'ligi ortiq, uni ham davlat qur-gan», dedim. Mot bo'lganidan ikkovi kulib yubordi. Shunaqa qilib shashtidan qaytarmasam ikkita jinni bir bo'lib seni hovuzda cho'ktirib yuborishlari ham hech gap emas edi.

Rixsivoy butun vujudini quloq qilib tinglardi yurakka yaqin xotiralarni.

Mastura xola choydan ho'plab tomog'ini xo'lladi.

— Bir kun qarasam adang yana boshqa hunar chiqaribdi. Tavba degisi keladi odamning. Arqon olib, sen unda sakkiz oylik bolasan, ikkala qo'ltig'ingdan o'tkazib bog'labdi, arqonni ko'tarib seni yurishga o'rgatyapti. «Hoy, qo'y, bolam, vaqt-soati kelganda o'zi yurib ketadi, go'dak barra bo'ladi, qiynama, o't-bo'ti lat yeb qolmasin», desam quloq solmaydi. Itning bolasiga o'xshatib bo'yningga arqon solib sudrayapti. Hali shunaqami deb o'qlovni olib bir quvib qoluvdim, tiraqaylaganicha devordan tashlab qochdi. Ko'chaga chiqvolib ovozining boricha, «oyi, boshqa qilmayman, urmang, jon oyijon, boshqa qilmayman, urmang», deb butun mahallani boshiga ko'tarib baqiryapti.

Maynavozchilikni yaxshi ko'rardi. Oila qurgan kappkatta yigit bo'lsa ham qiziqchiligin qo'ymasdi.

Mastura xola qiqir-qiqir kului.

-- Ha, maynavozchilik joni edi, katta bo'lib quyuladimi desam battar qilardi. Bir kun er-u xotin yangi gap topib kelishdi, ha-de, sog'liqqa eng foyda narsa ertalab turib yugurish emish, endi har kuni ertalab er-u xotin yuguramiz, deyishdi. Katalakdek hovlining qayerida yugurasizlar desam, ko'chada yuguramiz deyishdi. Hoy, qo'shnilar nima deydi, sharmanda qilmalaring odamni dedim. «Havotir olmang, oyi, yo'li bor», dedi adang. Ertasiga er-xotin sahar turib yugurgani ketishdi. Onang ham erkakcha shim kiyib olgan, pahmoq nimcha. Kunduzi onang bilan otang ishga ketishgandan keyin hali u qo'shnim chiqadi, hali bu qo'shnim chiqadi, «hoy, Masturabonu, tinchlikmi o'zi?» deb so'rashadi. Ha, nima gap, desam: «Voy, tong saharda ko'chada o'g'lingizni ko'rdik, qo'lini musht qilib, rangida rang yo'q, keliningizning orqasidan quvib ketyapti, sanmisan arning gapiga kirmaydigan, hozir tutvolib go'shtingni qiyima-qiyima qilaman, deb?! Kelin sho'rlik, boshqa qilmayman, bu galchalik kechiring degancha jonholatda oyog'ini to'rt qilib qochyapti. Voy o'g'lingizni aytin, mahalla-ko'yning oldida uyatku shu qilig'i innaykeyin, zamon nozik, ul-bul qilib qo'ymasin tag'in birovning bolasini». Adang, yugurishning yo'li bor deb shuni aytgan ekan.

Mastura xola yana qiqir-qiqir kului, zavqlanib, miriqib kului.

— Ha, yomon maynavoz edi adang, osh-non bermasang ham jinnilik qilish bo'lsa bo'ldi edi unga, — kampir namlangan ko'zini artdi. — Hay, qarilik qursin, boshqa narsalarga chalg'ib gapimdan adashib ketibman-ku. Axir tug'ilgan kuningdag'i voqeani aytib bermoqchiydim-kul Ha, eshit. Tikilib tursang ko'kat o'smas, poylaganda vaqt o'tmas deganlaridek, poylay, poylay oxiri bir yoshga to'lgan kuningga ham yetishishdi. Adang ishxonasidagi o'rtoqlarini chaqirib ziyofat beradigan bo'ldi. Tayyorgarchilikni bir hafta burun boshladik. Buzilmaydigan narsalarni, qazi, pista-bodom kabi-

larni adang shoshib qolmay, deb oldinroq olib kelib qo'ygandi. Ishqilib har kuni xizmatidan qaytayotganida bozorga kirib ul-bul ko'tarib kelardi. Katta mehmon kutganda quyuq-suyuq bo'lishi shart. Suyug'iga sho'rva-po'rva qilib o'tirmasdan chuchvara qiladigan bo'ldik. Quyug'iga kabob. Adang go'shtni bir kun ilgari ziralab, sirkalab, taxt qilib qo'ydi.

Ertasiga, yakshanba kuni, sahar turib men tandirga o't yoqib, nonga unnab ketdim. Chuchvarani onang qiladigan bo'ldi. Adang kabobni bo'yniga oldi.

Peshinda oxirgi patirimni tandirdan endi uzib bo'lishimni bilaman, eshikdan mehmonlar kirib keldi. Yangichasiga qilib qo'yarda-qo'ymay meni ham mehmonxonaga boshlab kirishdi, to'rga o'tkazib qo'yishdi, tizzamda sen. Oldin qoidasi bo'yicha bir piyoladan choy ichishdi, keyin shishalarni ochishdi. Ichkilik qorinni tatalab yuboradi deyishadi, dasturxonda yuz xil noz-u ne'mat bo'lsa ham, adang onangga chuchvarani olib kelishni buyurdi. Onang chuchvarani suzib kelgani chiqib ketganda, «bizzi xozyayka zo'r pazanda», deb rosa maqtadi. Onang ketma-ket uchta sopol laganda chuchvara tortdi. Oling, oling qilib chuchvaraga qo'l uzatildi. Chuchvarani kim yeb ko'rmasin miq etmaydi, o'rtaga noqulay jimlik cho'kdi. Nima balo, sho'r bo'lib qolibdimikin, deb yeb ko'rsam ta'mi juda g'alati. Yana bir yeb ko'rdim, nima gapligiga tushunmadim. Birdan ko'zim lagandagi bitta ochlib yotgan chuchvaraga tushdi, qarasam qiymasida guruch. Kelnim tushmagur karam do'lмага o'xshatib chuchvaraning qiymasiga ham guruch qo'shvoribdi. Buni mendan oldin adang sezibdi ekan, sir boy bermay jiddiy gapirdi:

— Bizzi xonim yangi retsept bo'yicha chuchvara qilganlar. Italiyada chiqqan pazandalik kitobida chuchvaranining qiymasini yangicha — guruch qo'shib tayyorlash haqida yozilgan ekan. Shunga qarab pishirganlar, — xotinining aybini yuvishga harakat qildi adang.

Mehmonlar «E, shunaqami, durust-durust», degandek bosh silkishdi.

— Voy, bu birinchisi emas, qo'li dard ko'rmasin,

uch-to'rt marta pishirib berdi bizga, maza qilyap-miz, — men ham kelinimni yonini oldim.

Mehmonlar yana bosh chayqab gapimni ma'qul-lashdi.

— Ammo sog'liqqa judayam foyda emish, — fay-lasuflardek qoshlarini chimirib donolik qildi onang.

— Ha, zo'r bo'libdi, — deyishdi mehmonlar va shundan keyin chuchvarani paqqos tushira ketishdi.

... Ziyofat tugab, mehmonlar tarqadi. Bunday qarasam er-u xotin oshxonada qotib-qotib kulishyapti. Seni ko'tarib men ham kirdim. Meni ko'rib battar kulgilari qistab ketdi.

— Italiyadan o'rganilgan yangi retsept emish! — masxara qildi onang adangni.

— Sog'liqqa foyda deganingizga o'laymi! — qiyqirib kuldim men ham.

— Mana ko'rasizlar, bundan buyoq hammasi chuchvaranining qiymasiga guruch qo'shib qiladi, — dedi onang.

Rosa miriqib kulishdik. Umrizmida bunaqa yayrab kulmagandik. Onang yetimcha edi, bolalar uyida tarbiya topgandi. Hukumatning bo'tqasini yeb katta bo'lgan, chuchvara qilishni qayoqdan bilsin, — o'ksib gapini tugalladi Mastura xola.

Rixsivoy buvisining hikoyasini to'lqinlanib, lazzat bilan eshitardi. Va har gal buvisini tinglar ekan, go'yo bir dumalab murg'ak go'dakka aylanib qolgan-dek, dovdir onasining, qiziqchi adasining mehribon-chiligi va erkalatishlarini to'yib-to'yib sipqorgandek bo'lardi. Shu yo'sin yetimcha boyaqish ota-onamehriga bo'lgan tashnaligini oz-moz qondirar edi.

Biroq aldanar edi bolapaqir, zero, hikoya tuga-ganidan keyin tashnaligi yanada kuchayardi. Nega deganda, sahroda suvsirab yurgan odam buloqni eslasa battar cho'llaydi.

MOJARO

Uchinchi dars tarix edi. Bolalar Sharifjon akaning darsini yaxshi ko'rishlarining yana bitta sababi shunda ediki, u sira ikki qo'ymas edi, hech kimga, hech qachon. Chunki tayyorlanib kelmagan boladan

so'ramasdi. Faqat qo'l ko'targanlarni chaqirar yoki anchadan beri baho olmaganlarga, «yanagi galga albatta o'qib kel, sendan so'rayman», deb oldindan ogohlantirardi. Shuning uchun tarixni o'qimay, bemalol yuraverish mumkin edi. Bir oyda bitta tay-yorlanib kelib javob berib qo'ysang bo'ldi, qolgan payt yallo, so'rab qolsa nima bo'ladi, deb xavotirlanish yo'q...

Mavzu katta bo'lgani uchun Sharifjon aka bugun hech kimdan so'ramadi uy ishini. U juda shoshilardi. «Yo'q, bitta bugun emas, har doim shunaqa, — dildan o'tkazdi Rixsivoy. — Shoshilgani shoshilgan, ko'ngli notinch, o'ziga ishonmaydigan odamlargina shunaqa jonhalak bo'lishadi. To'xta, — dedi o'ziga-o'zi Rixsivoy, — nega shu Sharifjon akaga yopishib olding, nega hamma bolalarga yoqadigan odam senga yoqmaydi, nima, arpangni xom o'rdimi? Axir birinchi kunlari senga ham ancha ma'qul bo'lgandi-ku, g'ayratchan, hazilkash, saxiy, ayniqsa o'qituvchi bo'la turib futbol o'ynashni yaxshi ko'rishiiga bolalar besh ketishgan edi».

To'g'ri, quvnoqligi sal soxtaroqdek tuyuladi va vaqt o'tgan sari qandaydir zerikarli, odmi odamga aylana borardi. Ha, Sharifjon aka borgan sari siyqasi chiqib, xashaki bir odamligi ko'zga tashlana boshladи. G'ayratchanlik o'rnini besaranjomlik, xushchaqchaqlik o'rnini yasama tabassum, chuchmallik egallagan edi.

Rixsivoyning nazarida Sharifjon akaning asosiy maqsadi bolalarga puxta bilim berish emas, yaxshi ko'rinish edi. Shuning uchun bolalarga laganbardorlik qilardi, birinchi navbatda o'z manfaatini, o'z sha'niga maqtov eshitishni o'ylardi.

Shunaqa odamlar bo'ladi, birinchi ko'ringanining-dayoq butun fazilat va xislatlarini, butun g'ayrat va ustaligini birato'la namoyon qiladi, nimaga qodir bo'lsa hammasini birinchi uchrashuvdayoq to'kib soladi. Keyin lovullab turgan gulxan sekin-sekin cho'g'ga, undan kulga aylana borgandek so'nib, at-rofdagilarni mutlaqo qiziqtirmay qo'yadi. Pirovardida hamma qatori injiqqina va asabiygina shaxs ekanligi aniqlanadi. Shuning uchun birinchi

ko'rgandayoq jon-jahdi bilan yaxshi taassurot qoldirishga urinadigan kishilar aslida puch yong'oqdan farqi yo'q. Yaxshi fazilatning yaxshiligi shundaki, u darrov ko'zga tashlanmaydi, keyin-keyin ochiladi.

Rixsivoya eng alam qiladigani sezgirligi edi, boshqa bolalarga o'xshab Sharifjon akaning nuqsonlarini ko'rmay yaxshi hisoblab yurolmasdi. Odamlarning qabihliklarini titkilashtirmay beg'amroq, olijanobroq bo'lgan ma'qul-kul Nega ko'zi bunchalik o'tkir!

Chekka-chechkada shivir-shivir boshlandi — nima uchundir dars juda cho'zilib ketgandek tuyuldi bolalarga. Buni Sharifjon akaning o'zi ham payqadi, na iloj — mavzu zerikarli edi. Tezroq tugatish uchun u battar shoshildi, labi-labiga tegmay gapira ketdi. Nihoyat o'zining ham, bolalarning ham joniga tekkan mavzu tugadi. Sharifjon aka ko'tarinki ruhda e'lon qildi:

— Erta o'tib indinga butun sinf teatrga boramiz! — Sharifjon aka gapi bolalarga qanday ta'sir qilganini bilish uchun sinfni ko'zdan kechirdi.

Ammo u kutgan natija bo'lmadi, na sevinch, na qiziqish ko'rdi bolalarning yuzida. Shuning uchun ancha tushkun ovozda ilova qildi.

— Ertaga hamma pul olib kelsin.

Bu gap Rixsivoya yoqmadi. Yo'q, gap pulda emas. Garchi buvisidan pul so'rash uning uchun qiyin bo'lsa ham, gap bunda emasdi. Gap shundaki, Sharifjon akaning «butun sinf» degani yoqmadi Rixsivoya. «Butun sinf» degani majburiy degani-da! Rixsivoy esa o'z xohishi bilan erkin ish tutishni yaxshi ko'rardi, majburiylik paydo bo'lishi bilan o'zi sezmag'an holda ichida unga qarshi bir his — o'chakishishmi, o'jarlikmi tug'ilardi. Balki ko'pchilikda shundaydir, ammo Rixsivoyda ayniqsa kuchli edi bu his.

— Men bormayman, — Rixsivoy qanday qilib og'zidan shu gap chiqib ketganini bilmay qoldi.

— Nega?

Rixsivoy javob bermadi.

— Nega bormaysan? — savolini qaytardi Sharifjon aka.

— Teatrni yomon ko'raman, — o'jarligi tuta bosh-laganini sezdi Rixsivoy.

— Balki yaxshi spektakldir, ko'rmasdan turib nega unaqa deysan, — yumshoq gapirdi Sharifjon aka.

Qo'ng'iroq jiringladi. Lekin butun sinf joyidan qo'zg'almadni, o'rtadagi tortishuv nima bilan tugashini kutdi.

— Bo'ynimdan bog'lab oborishsa men uchun eng yaxshi spektaklning ham bir tiyinlik qizig'i qolmaydi.

— Hech kim seni zo'rlab sudrayotgani yo'q, — o'zining yasama iljayishini qildi Sharifjon aka, — bormasang, o'zingga qiyin, go'zallikni zo'rlab sevdirib bo'lmaydi! Go'zallikka odamning o'zida tashnalik, ehtiyoj, intilish bo'lishi kerak. Bo'ynidan bog'langan it, ovga yaramaydi, deyishadi.

Sinf «gurr» etib kului.

Rixsivoarning zig'irtak ham jahli chiqmadi, qaytanga hammaga qo'shilib kului.

O'rtadagi mojaroning yengilgina tugaganidan Sharifjon akaning ham dimog'i chog'landi. Sinfdan chiqa turib:

— Bo'pti, teatr ixtiyor! Ammo gazeta bilan jurnalga obuna qilib qo'ydik, — dedi.

— Pul to'lamadim-ku, — dedi Rixsivoy.

— O'rningga men to'lab yubordim.

Rixsivoy qaltirab ketdi.

— Nega?!

— Nima, nega?

— Nega mening o'rningga pul to'laysiz?!

— Sinfimiz yuz foiz obuna bo'lsin, deb shunday qildim. Hamma sinflar yuz foiz yozilganda, bitta bizning...

— Menga sizning sadaqangiz kerak emas!

— Nega baqirasan, nega o'zingdan kattaga baqirasan, beta'lim?! — Sharifjon aka ham g'azabdan ko'karib ketdi.

— Baqiraman! Agar obunadan o'chirib tashlamasangiz... — Rixsivoy so'z topolmay qoldi.

— Xo'sh, agar o'chirib tashlamasam nima qilasani? — o'quvchisining po'pisasi Sharifjon akaning izzat-nafsiga tegdi. — Gapir, nima qilarding?

Rixsivoy dabdurustdan javob topolmadi. Jahl chiqqanda aql qochadi deyishadi. Rixsivoning esa yomon jahli chiqqan edi. Rost-da, Sharifjon akaning: «Sening uchun pul to'lavordim», degani butun sinfning oldida kamsitgani emasmi?! «Sen kambag'al yetimchasan, gazetaga obuna bo'lishga ham pul topolmaysan», degani emasmi?! Bunga qanday chidab bo'ladi?! Rixsivoning butun vujudi qaltirardi.

Sharifjon akaning olijanoblik qilgani yaxshi albat-ta. Lekin yaxshilik ketidan minnat qilib yuvib yubordi. Minnat bilan qilingan yaxshilik yomonlikka aylanib ketadi-ku! Nahotki o'qituvchi bo'laturib shuni tushunmasa?!

Yaxshilik hech qachon bir narsaning ilinjida yoki ikki hissa bo'lib qaytishini ko'zlab qilinmasligi kerak. Yaxshilik xolisanillo qilinadi. Ana o'shandagina u haqiqiy yaxshilik bo'ladi.

Sharifjon aka esa butun sinf oldida o'zini olijanob ko'rsatmoqchi bo'lib ishni rasvo qildi. Indamay qo'yaqolganida Rixsivoy uni minnatdorchilik bilan eslab yurardi.

Ha, ko'z-ko'z qilinadigan yaxshilik haqoratdan battar. Xayolidan shu fikrlar kechgan Rixsivoy,

— boyvachchaligingizni borib uyda... qiling! — dedi.

— Nima deding?! — endi Sharifjon aka tutaqib ketdi. — Sen kim bilan gaplashyapsan, tirrancha?! Men seni, men seni masalangni o'qituvchilar va maktab ma'muriyati majlisiga qo'yaman, mакtabdan haydattiraman, sendaqa bezorilarga, o'zboshimchalarga, gazandalarga o'rın yo'q maktabda!

— Og'zingizga qarab gapiring. Kim gazanda?! — o'zining gapi o'ziga yoqmadi Rixsivoyning. Nima qiladi gapni cho'zib. Alamini oldi, Sharifjon akaning ta'zirini berib xumordan chiqdi, bo'ldi-da!

Odatda katta janjallar arzimagan narsadan chiqadi, deyishadi. Shu gap to'g'ri ekan. Sharifjon aka bilan Rixsivoyning o'rtasidagi nizo ham kichkina tortishuvdan alanga oldi. Cho'lda, jazirama oftobda qovjirab yotgan o't-xashakka qildek uchqun kifoya — lop etib yonadi. Rixsivoy ham xuddi shunday bir guvillab o'chdi.

Sharifjon akaning haqiqiy basharasi endi oshkor bo'ldi, o'zini tutolmay yana nima balolar deb o'shqirdi. Ammo Rixsivoy xotirjam edi. Miq etmasdan bez bo'lib turaverdi.

Uning dardi-fikri darsdan chiqa solib uyga yugurish, soat ikki yarimda televizorda zo'r kino bor, o'shani ko'rish edi — amerikalik hindularning oqsuyak mustamlakachilarga qarshi kurashi. Quvish, ta'qib etish, otishmalarga boy, sarguzasht film.

Qo'ng'iroq chalinishi bilan Rixsivoy birinchi bo'lib tashqariga otildi. Sinfdan-ku birinchi bo'lib chiqdi, lekin koridor baribir boshqa sinf bolalari bilan to'la edi. U o'zidan kichkinalarni itarib-sitarib, kattalardan chekinib ko'cha eshik tomon intildi. Eshik tagi har doimgidek bolalar bilan g'ujg'on, epchillar o'zini olomon orasiga urib oldingga tashlanadi, ur-suriga tobi yo'qlar chetroqda odam siyraklashishini kutardilar.

Rixsivoy endi bolalarning orasiga sho'ng'immoqchi edi, birov bilagidan ushladi, qarasa — Habiba. Rixsivoyning darrov kayfiyati buzildi. Bosh yetakchi tarbiyachi bekorga to'xtatmaydi. Yo biron topshiriq yuklaydi zimmangga, yo tartibga chaqirib nasihat o'qiydi, yo... xullas, yaxshilik kutma.

Rixsivoyning bir ko'ngli hiyla ishlatib, kasal bo'lib qoldim, doktorga boraman, deb qochib qolmoqchi bo'ldi. Kim biladi, agar boshqa odam bo'lganida balki shunday qilgan bo'larmidi, ammo Habibani aldagani vijdoni chidamadi. Chunki Habiba butun odam edi, unga suyansa bo'lardi. Shuning uchun Rixsivoy bahona qidirmadi, to'xtab, Habibaga «nima deysiz» qabilida savolchan nazar tashladi.

— Yordaming kerak bo'lib qoldi, — dedi Habiba, — vaqtingni ko'p olmayman.

Rixsivoy hayron bo'ldi, yetakchi tarbiyachiga qanday yordami tegishi mumkin?

— Yur, — Habiba uni o'z xonasiga boshladi, — lekin qo'rqlama, uzog'i bilan o'n minutcha vaqtingni olaman.

— O'n minut bo'lsa yaxshi, — dedi Rixsivoy xo-naga kirishganlaridan keyin.

— Nima, shoshilyapsanmi?

— Ha, — dedi Rixsivoy, keyin iljayib qo'shib qo'ydi: — Ikki yarimda zo'r kino bor televizorda.

— Shundaymi? Unda gapni qisqa qilamiz. Xo'sh... hozir ikkidan besh minut o'tdi...

— Ulguraman. Uyimizgacha o'n minutlik yo'l. Faqat buvim urishadilar-da, oldin ovqat yeb ol, keyin ko'rasan televizorni deb! Ovqat yeb o'tirib, televizor ko'rsa ham bo'laveradi-ku!

— Yo'q, unda yeganing qayooqqa ketayotganini bil-maysan, — kului Habiba, — ilmiy tilda aytadigan bo'lsak: hech narsaga chalg'imasdan ishtaha bilan yeylimadigan taomgina yaxshi hazm bo'ladi. O'tir.

Rixsivoy «o'tirmayman» degandek bosh chayqadi.

— Ishingizni aytavering.

— Og'ir ish emas, — Habiba Rixsivoyning oldiga, stolga bir uyum otkritka tashladi, — maktabimiz ma'muriyati urush va mehnat faxriylarini, farzandlari urushda halok bo'lgan ota-onalarni, O'zbekiston Respublikasining Qomusi qabul qilingan kun munosabati bilan otkritkalar tayyorladi. Otkritkalarda adreslar yozig'liq. Uyingga yaqin bo'lgan adreslardan to'rttasini tanlab ol, oborib berasan.

— Men-a?

— Ha, sen. Nega hayron bo'lasan?

— Kim biladi, odatda bunaqa yumushni a'lochi o'quvchilarga yuklashardi shekilli, — dedi Rixsivoy.

Habiba javob berishga shoshilmadi. Chamasi ataydan — Rixsivoyning diqqat-e'tiborini ko'proq tortish uchun pauza qildi.

— Bilasanmi... a'loga o'qigan yaxshi, albatta. A'lo o'qishga hamma bolalar intilishi kerak. Lekin afsuski, a'loga o'qiydigan bolalarning hammasi ham odam sifatida maqtovga arziguli emas, ichida chiqindilari ham uchraydi. Shuning uchun o'quvchilarga baho berishda men ba'zilarga o'xshab birinchi navbatda ularning qanday o'qishiga qaramayman. Meni eng avval o'quvchining xulqi qiziqtiradi, odamiy xususiyatlari.

Rixsivoyning yuragi «shuv» etib ketdi. Bo'ldi, hammasi tushunarli. Bekorga xulqdan gap ochmadi. Otkritka yo'liga, gap boyda darsda Sharifjon aka bilan bo'lgan mojaroda. Bolalik uyda sir yotmaydi, degan-

laridek mактабда ham har qanday voqea bir zumda hammaga tarqaladi. Mana, darrov Habibaning ham ulog'iga yetibdi.

Hozir pand-nasihat, tarbiya boshlanadi. Aybingga iqrор bo'lib kechirim so'ramaguningcha qutulmaysan.

Rixsivoy qovog'ini uyib yerga tikildi.

— Seni esa xulqing yomon emas, — dedi Habiba, — odamgarchililing ham bor.

Rixsivoy birov boshiga gurzi bilan urgandek gangib qoldi. Bunday gapni sira kutmagan edi. Bu qanaqasi?! O'git va tanbeh o'rniga maqtov!

— Jo'rttaga shunaqa deyapsizmi, meni o'zingizga og'dirvolish uchun? — so'radi Rixsivoy.

— Eng yomon ko'rganim tilyog'lamaчhilik. Meni xafa qilding, Rixsivoy. Nahotki meni shunchalik deb o'ylading?

— Kechiring, sizni sira xafa qilmoqchi emasdим. Bilmасдан og'zидан chiqib ketdi, — sidqidildan узr so'radi Rixsivoy.

— Sen haqda fikrim yaxshi, lekin, — Habiba bir zumga to'xtadi, — lekin to'g'risi, bugungi qiliq'ingni eshitib xafa bo'ldim.

— Sharifjon aka bilan tortishuvni aytyapsizmi?

— Ha! O'qituvchi bilan olishadigan bola hech qachon haq bo'lmaydi.

— Agar o'qituvchi haqorat qilsa-chi, unda ham indamasdan turaverish kerakmi?

— Haqorat kimning og'zидан chiqmasin, uni oqlab bo'lmaydi. Lekin ko'pincha haqoratlangan odamning o'zi sababchi bo'ladi haqorat eshitishga, shunga yo'l qo'yadi yoki undan ham yomoni, haqoratni o'zi so'rab oladi.

— Siz ham Sharifjon akaning yonini olyapsizmi? — o'ksidi Rixsivoy. — Tag'in birovni haqorat qilgan odamni oqlab bo'lmaydi, deysiz.

Habiba jilmaydi, Rixsivoyning o'jarligi unga nash'a qilgan edi.

— Sen bitta narsani tushunmayapsan. Haqorat ikki xil bo'ladi. Bittasi jahl chiqqanda, odam o'zining hislarini jilovlay olmaganida so'z bilan haqorat qiliшh. Ikkинчи xatti-harakat bilan... biron-bir yo'l bilan kishini haqoratlash. Bunisi birinchisiga nis-

batan xavfliroq qabihlik. Chunki birinchisi — tasodifiy, ikkinchisi ataydan qilinadigan haqorat.

— Sen eshitgan haqorat birinchisiga kiradi, tasodifiy demoqchimisiz?

— Ziyrakligingni yaxshi ko'raman. Ha, g'araz bilan qilinmagan. Agar senga o'zingdan kichkina, mushtdek bola bez bo'lib gap qaytarib tursa, jahling chiqadimi? Chiqadi. Shunaqa bolani uchratsang haqorat qilish uyoqda tursin boplab kaltaklaysan. Yo'q degin-chi?

Rixsivoy gap topolmay qoldi. U yerga tikilganicha uzoq turdi «miq» etmay. Keyin boshini ko'tardi.

— Bilaman... gap qaytaradigan odatim bor. Boshqa bolalarga ichimda qoyil qolib yuraman. O'qituvchilar ming koyishsin, pisand qilmay turisha-veradi, sal o'tmasdan hamma narsani unutib yana o'yin-kulgiga berilib ketishadi. Men bo'lsam... yomonman. Albatta o'chakishaman, tortishaman. Keyin uch-to'rt kungacha o'zimga kelolmay so'kinib yuraman, pushaymon bo'laman. Nega shunaqa-a?

— Sening o'rningda bo'lsam buning uchun ko'p ham kuyinmasdim. Bez bo'lgandan ko'ra, ta'sirchan bo'lgan ma'qul.

Rixsivoy boshini qashidi. U aytmoqchi bo'lgan fikrini qanday qilib ifoda etishni bilmay qiynalardi.

— Habiba opa, boyta haqorat ikki xil bo'ladi dedingiz... — Rixsivoy so'z topolmay tutilib qoldi.

— Ha, tasodifiy va atayin qilinadigan haqorat, — unga yordamga keldi Habiba.

— Men Sharifjon akaning og'izda qilgan haqoratlaridan xafa emasman. Tirrancha dedilar, maktabdan quvib yuboraman dedilar, o'lay agar, bu gaplardan xafa bo'lmadim. Shunchaki jig'lariga tegish uchun gap qaytarib turdim.

— Jig'lariga tegish uchun?

— Ha, jig'lariga tegish uchun. Aslida men boshqa narsadan xafa bo'ldim, oldinroq bitta gap aytdilar...

— Demak... gapdan xafa bo'lgansan, gap bilan tasodifan haqorat qilgan, ataydan emas.

Rixsivoy angrayib qoldi.

— Ha, gap bilan... e, kim biladi, o'zim ham yanglishib ketdim, — sal jilmaydi Rixsivoy, — ishqilib juda og'ir botdi-da gaplari.

— Bo'pti, o'tgan ishga salavot. Otkritkalarni tanningmi? Sening buvinglarga ham tabrik yozganmiz. Lekin uni boshqa bola oborib beradi.

— Mening buvim qanday xizmat ko'rsatibdilarki, tabrik yo'llaysizlar? — suyunib ketganini yashirdi Rixsivoy.

— Xizmat ko'rsatganlar. Buvning hayotlari ham qahramonlik, — jiddiy gapirdi Habiba va birdan gapning mavzuni burdi, — menga qara, ertaga ozgina pul olib kel. Sinfdosning Boqiveyni bilasan, oilada sakkiz bola, hammasi churvaqa, otasi ikki yil bo'ldi qazo qilganiga. Bitta onasining topgani nima bo'lardi. Ota-onalar kengashi va sinfingdag'i bolalar ozginadan, baholi qudrat pul yig'ib, bayramga Boqivoysiga biror sovg'a qilishga kelishdilar. Hammadan yig'maymiz. Ba'zi ko'pbolali yoki iqtisodiy jihatdan sal oqsaydigan oilalarning bolalaridan olmaymiz. Mana sendaqalar to'lasa malol kelmaydi. Nega deganda buving nafaqa oladilar, keyin uyda tikuvchilik qilib oz-moz pul ham topib turar ekanlar. Harholda o'zingizga to'q oilasizlar.

— Xo'b, olib kelaman, — dedi Rixsivoy.

Shunday dedi-yu, iljayib qo'ydi. Yo'q, tashida emas, ichida iljaydi. Ammo ajoyib inson-da, Habiba. Ataydan pul olib kel, deyapti Rixsivoyga. Yetimchaman deb o'ksima, yaxshi yashaysizlar demoqchi, Sharifjon akaning qilig'ini obuna uchun pul to'lab yubordim deb seni kamsitganini unut demoqchil Chaqirishdan asosiy maqsad ham shu.

Rahmat senga, haqiqiy tarbiyachi, rahmat senga, rahmdil va shafqatli inson, rahmat senga, yaxshi odam!

MEHMONGA BORAMIZ

Rixsivoy mehmonga borishni juda yomon ko'rар edi, to'g'rirog'i, umri bino bo'lib atigi uch-to'rt martagina mehmondorchilikda bo'lgan. Qayoqqa ham borsin? Buvisining hech kimi yo'q, yetim o'sgan. Bir hisobdan qarindosh-urug'ining ko'p bo'lgani ham durust — yaxshi-yomon kuningda yarab turar ekan.

Qarindoshi ko'p odamlarning hayoti quvnoqroq o'tadiganga o'xshardi. Haqiqatda shundaymi, yo'qmi Rixsivoy buni bilmasdi. Ammo yolg'izlik yomon — bu aniql!

Ko'p odam yig'ilgan har xil marosimlardan Rixsivoy nima uchundir cho'chirdi. Shuning uchun buvisi mehmonga boraylik, deb qancha qistamasin ko'nmadi, o'zingiz boraqoling dedi.

-- Katta yigit bo'lib qolding, endi mahalla-ko'yga, tanish-bilishlarga aralashgin. Hech kimga qo'shilmay odamovi bo'lib o'tiraversang, to'yingga kim keladi. Ha, katta yigit bo'lib qolding. Hademay uylantirib qo'yaman.

Rixsivoy kulib yubordi.

— Qanaqa to'y, buvil

— Voy, ko'z ochib yumguncha yillar o'tib ketyapti. Meni aytdi dersan, hash-pash deguncha uylanib, bolali bo'lib qolganingni o'zing sezmay qolasan.

— Juda gapni olib qochasiz-da, buvi?!

— Aytyapman-ku, vaqt o'tganini odam payqamay qoladi deb. Yoshing ulg'aygan sari vaqt ham tez o'taveradi. Uylanasan, sal o'tmay farzand ko'rasan, sal o'tmay o'g'lingni ham uylantirasan, qarabsanki, yana sal o'tmay nabira ham ko'rasan.

— Darrov nabiralik ham qilib qo'ydingiz-ku, odamni.

— Yaxshi-da, o'tirasammi g'aflat bosib.

Rixsivoy iljaydi.

— Unda meni qiynamay mehmonga keliningiz bilan borib kela qoling.

Rixsivoy katta to'da, katta yig'inlarda gapirolmasdi, ammo o'ziga yaqin odam bilan binoyidek hazilashardi.

— Oh, oh, oh, qani endi kelnim bo'lsa-yu qo'g'irchoqdek yasantirib, oldimga solib, hammaga ko'z-ko'z qilib mehmonma-mehmon olib yursam — bu gaplarni Mastura xola garchi jilmayishga harakat qilib gapirgan bo'lsa ham ovozidagi armon Rixsivoyning yuragini achishtirib yubordi. Axir, buvi sho'rlik nima ko'rdi, tun-u kun uyda o'tirib, Rixsivoyning kir-chirini yuvadi, ovqatini qiladi, ustiga ustak mashinada kiyim tikib, ro'zg'or tebratadi.

— Bo'pti, otlaning, borsak bora qolaylik o'sha Zumrad opanikiga, — dedi Rixsivoy.

— Voy, rostdanmi, nechuk insof kirib qoldi senga? — suyunib ketdi Mastura xola. — Boshi ko'kka yetadi Zumradxonning. Axir qachondan beri yalinadi sho'rlik. Hozir, to'ram, hozir yasanib chiqaman.

Mastura xola dik etib turib o'z xonasiga yo'l oldi.

— Ha, aytmoqchi, to'ram, siz ham kiyim-boshin-gizni o'zgartirib chiqsangiz bo'larmidi?

Rixsivoy yangi kiyimlardan uyalar, yasanishni yomon ko'rар edi, buvisining gapidan ensasi qotdi.

— Be, boshni qotirmasangiz-chi, buvi...

— Xo'p, xo'p, to'ram, xo'p, — nabirasining aynib qolishidan qo'rqib gapni qisqa qildi Mastura xola, — mayli, eshakning to'qimiga o'xshagan shu kiyim-gizda ketavering.

Kulishdilar, mehmonga otlanayotgan odamlarning kayfi chog' bo'ladi-da.

— Bu eshakning to'qimi emas, jinsi shim!

— Ha, ha, men ham jinni shim deyapman-ku.

Buvisiga teng kelish qiyin, gapdan qochirib ham bo'lmaydi uni. Har qalay, mehmonga boryapti, vannaga kirib yuz-qo'lini sovunlab yuvdi, tishini tozaladi.

Xo'sh, uy vazifalari qalay? Adabiyotni o'qidi. Ingliz tilidan mashqni ko'chirdi. Tarix bilan algebra qoldi. Ularni ertaga dam olish kuni qilar. Bugun esa mehmonga ham borib kelish mumkin.

Rixsivoy sochni xo'llab tarab, oynaga qarab qo'ydi. Chekkasidagi kichkinagina xusnbuzarni nazarga olmaganda ko'rinishi binoyidek. Ayniqsa jingalak sochlari o'ziga yarashib turibdi. Vannadan chiqib ko'tarinki ruhda so'radi:

— Ketdikmi, buvi?

— Ketdik, to'ram, ketdik, — ichkari uydan buvisining ovozi eshitildi.

Rixsivoy buvisi bo'lgunicha vaqt bekor ketmasin uchun tuflisini moylab yarqiratdi. Ammo u oyoq kiyimi yaxshi kiyar edi, hali bitta poyabzalni ham yirtib tamomlamagan, faqat kichkina kelib qolgani uchun yaroqsizga chiqardi.

O'z xonasidan chiqib kelgan buvisini Rixsivoy tanimay qoldi. Chunki Mastura xolaning yasanganini

juda kam ko'rgan. Egnida mo'l-ko'l tikilgan shoyi ko'yak, uning ustidan qora duxoba kamzul, oyog'ida qadim zamonlarda otinoyilar kiyadigan amirkon kavush, ayniqsa, ikkita uchini ikkala yelkasiga tashlab olgan garmdori gulli, jigarrang shoyi ro'moli judayam ochvorgan edi Mastura xolani.

-- Zo'rsiz-ku, buvil — hayratini yashirolmadi Rixsivoy.

— Ey, qo'yamizmil — yasama kerilish qildi Mastura xola, — tag'in ham buvang rahmatlikdan qolgan zeb-u ziynatlarimni taqmadim, agar hammasini ilib chiqsam bormi yuragi bo'shroqlar hasaddan o'zini tappa tashlavorardi!

Rostdan ham buvasidan zeb-u ziynatlar qolganmi yoki buvisi yana maqtanayaptimi, bu Rixsivoyni qiziqtirmadi.

-- Qani, boshlang bo'lmasa, to'ram, — eshikka ishora qildi kampir.

Nabira va buvi yo'lga tushishdi.

— Bozorga qarab yuraverasiz, to'ram, — dedi Mastura xola.

— Bozorda nima qilamiz?

— Ulug' joyga quruq borib bo'lmaydi, deyishadi, — uqtirdi Mastura xola, — juda bo'lmasa yigirmata kulcha olmasak, quppa-quruq qanday qilib boramiz?

Rixsivoy buvisining qo'lidagi dasturxonni endi ko'rди.

— Zumrad opa unaqa eskicha odatlaringizni tushunarmidilar?! Nondan ko'ra boshqa sovg'a olaylik, kuniga yaratadi, noningiz bekorga qotib qoladi.

— Boshqa sovg'a ham bor, to'ram, bisotni kovlab bir kiyimlik xonatlas oldim, ming yildan beri yotuvdi. Ammo nonning ham o'z fayzi bor, ha, nonning o'rnini hech narsa bosolmaydi. Xotinlarning ishiga aralashmasdan xo'p deyavering, to'ram!

Rixsivoyning xo'p deyishdan bo'lak iloji qolmadi, chunki u buvisining odatini bilardi: oldi-berdilarga kelganda juda qo'li ochiq. Qo'shnilarnikida birorta marosim bo'lib qolsa, lozimandaning eng zo'rini buvisi qilardi. Shunaqa edi uning buvisi — yolg'iz, beva bo'lsa ham qo'li ochiq va mard edi.

Bo'lmasa kim bulardan gina qilardi magazinning kulchasini olib kelibdi deb?! Yo'q, bari bir Mastura xola qayoqqa bormasin bozordan qo'lda yopilgan non olardi.

Bozor kezishni yaxshi ko'radi Mastura xola. Hay-hay u kishimning savlat to'kib non bozoriga kirib borishlarini ko'rsangiz! Xohlasalar butun bozorni sotib olishga qurbi yetadigan odamdek vazminlik va viqor bilan qadam bosardilar. Non degani savatlarda tizilib yotibdi, biri biridan chiroyli, hidini aytmaysiz-mi, o'n qadam naridan gup etib dimoqqa uradi.

Mastura xola bir chekkadan qunt bilan nonlarni ko'zdan kechira boshladи.

— Keling, opoq oyi, hozirgina tandirdan uzdim, bozillab turibdi, — deb qarshi oldi uni nonfurushlar-dan biri.

Novvoylar muloyim edi, ulardan ham ko'ra Mastura xola muloyimroq edi.

— Qo'lingiz dard ko'rmasin, otincha, boplabsiz, — dedi Mastura xola, — ammo menga jaydari undan yopilgan non kerak, o'shang a o'rganganman, ta'mi boshqacha bo'ladi.

— Voy, shu non yoqmadimi, opoq oyi?

— Nega yoqmas ekan. Noningiz juda yaxshi, otincha, nonning yomoni bo'larkanmi?! Aytyapman-ku, menga jaydari unnniki kerak. Oppoq undan yopilgan non pufakdek shishib chiqadi. Ha, g'ozi bo'lmaydi.

Mastura xola keyingi nonfurushga yuzlandi.

— Keling, xolajon, keling. Shoshib turibman, uyda emizikli bolam qolgan, keling, arzonroqqa berib yuboraman.

— Voy, yo'q, opovsi, menga arzoni kerak emas, uyatli joyga olib boraman-a.

Kampir yana surildi. Rixsivoy uning ketidan ergashdi. Buvisining injiqligi uning joniga tega bosh-lagan edi.

— Iye, keling, onajon, sizga kerak non mana sho'tta, — bu qop-qora juvon juda shaddod va ayni paytda xushmuomala edi, — ming aylaning menikini oldiga tushadigan non topolmaysiz bozordan. Ha, bekorga vaqtingizni ketkazmang, onajon. Sizga xuddi shu non kerak. Chunki ko'rinishingiz aytib turibdi, nozik joyga olib borasiz, nechta beray?

— Voy, qoqindiq, o'zi necha puldan?

— El qatori, onajon, el qatori. Nima, bu juvonning esi pastroqmi, barkashdek-barkashdek nonni arzon garovga berib yuboryapti, deb hayron bo'l mang. Bizning avlod-u ajdodimiz novvoy o'tgan. Buvimning buvalari xaridorni rozi qilib pulini ol, o'shanda topganing yuqadi, bo'lmasa surib ketadi degan ekanlar. Ha, biz faqat mehnat haqimizni olamiz. Tandirda non yopishni o'zi bo'ladimi, onajon. Hech kim bilmasa ham siz bilasiz buni. Ha, faqat mehnat haqimizni olamiz.

— Bo'pti, bering.

— Oching xaltangizni. Nechta olasiz?

— O'nta yetarmikin, — ikkilandi Mastura xola.

— Onajon, siz mehmonga o'nta non ko'tarib bora-digan tagi pastlardan emassiz. Mijozi to'qlardan ekanligingiz shundoqqina yuz-ko'zingizdan bilinib turibdi: yigirmata olasiz. Sizga beryapman, bo'lmasa mijozlarim ko'p, olib kelishim bilan birpasda talab ketishadi.

Usta novvoy ayolning gapidan erib ketgan Mastura xola ortiq tortishib o'tirmadi.

— Mayli, sazangiz o'lmasin, noningiz haqiqatda biror joyga ko'tarib borsa arziyidigan ekan, qoqindiq. Hay Rixsivoy, qani och dasturxonni.

— E, og'zingizga bol, onajon, endi o'zingizga keldingiz, pulingiz o'zingiz bilan ketadi. Oling, o'zingiz tanlab olavering.

Mastura xola nonni sanab olib, Rixsivoy dasturxonga taxlay boshladi.

— Yigitchani qiynamay o'zim bog'lab bera qolay dasturxonni, — nonfurush juvon Rixsivoyga yordam bermoqchi bo'ldi.

— Voy, aylanay sizdan, qoqindiq, — jilmaydi Mastura xola, — tugmay turing, yigirmata kulchani nima deb ko'tarib boraman. Shirmoy bilan patir ham olaman hali qoqindiq.

— Ha-ya, nega shoshilaman. Hoy, Anziratxon, patiringizzdan buyoqqa olib keling. Xayriniso, siz shirmoyingizni ko'rsating, — novvoy jilmayib Mastura xolaga qaradi, — sizga nonning asili kerak ekan, onajon, shularnikini ko'ring. Bunaqa yog'li patir

qiladigan Toshkentda bitta. Xayrinisoni shirmoyini-ku yalang chet ellik mehmonlar sotib olishadi. Yurtiga olib ketishadi, ko'z-ko'z qilgani, assobiy zakaz, import-eksport! — juvon qiyqirib kuldii.

Unga qo'shilib Mastura xola, hatto Rixsivoy ham kulib yubordi.

— Asil bo'lsa bo'ldi, puliga qayishmay olaveramiz, — tantilik qildi Mastura xola.

Shirmoy ham, patir ham novvoy juvon aytgancha eksportga chiqarsa, arziguli ekan. Shuning uchun Mastura xola narxiga tortishmadi. Oltita patir, oltita shirmoy olib dasturxonning uchini arang bog'ladi. Keyin kissasidan dastro'molchasini olib tugunini yechdi, pul chiqarib novvoylar bilan hisob-kitob qildi.

— Aynanay qizim, tagi ko'rganlardan ekansiz, deb to'g'ri aytdingiz. Buvim rahmatli birovning haqiga xiyonat qilmanglar, chunki harom pul bari bir tati-maydi, deb nasihat qillardilar, — Mastura xola qaytimiga ortiqcha berib yuborgan qora juvonga pul uzatdi. — Bir so'm o'rniqa ikki so'm berib yuborib-siz, aylanay qizim.

— Voy, onajonimdan o'rgulay, juda dovdirmandi, ko'pincha ortiqcha qaytim berib yuboraman. Bozor qilishingizdan, non tanlashingizdan darrov sezuvdim, onajon, sizni tanti, insofli kampir ekan-lilingizni. Ilohim bola-chaqa, nevara-chevaralaringizni rohatini ko'ring.

— Aytganingiz kelsin, qizim, aytganingiz kelsin.

Ular tillaridan bol tomib xayrlashishdi. Mastura xola yana viqor bilan yo'lga tushdi, qirqtacha non tugilgan zil-zambil dasturxonni arang ko'tarib Rixsivoy uning ortidan ergashdi.

Shaharning eng uchiga chiqqan boyvuchchalariga o'xshab, shoyi ro'molini hilpiratib, amirkon kovushi-ni g'irchillatib ketayotgan Mastura xolani ko'rib Rixsivoy: «Ammo buvimlar ham binoyidek oliftalar», deb dilidan o'tkazib qo'ydi.

Shunisi yaxshi ediki, Mastura xola nima kiymasin o'ziga yarashar edi.

— Buvi, — dedi Rixsivoy non bozoridan sal uzoqlashgach, — bitta non olaman deb yarim soat vaqtimiz ketdi, doim shunaqa tortishib olasizmi?

— Bo'lmasam-chi! Bozorning shunisi qiziq-da!
Obdan savdolashmasang na olgan, na sotgan xumor-
dan chiqadi, — Mastura xola nabirasi gapning
mag'zini chaqmaganini anglab qo'shib qo'ydi. —
Indamasdan aytganiga olib ketaversang, seni tentak
ekan, deb o'ylashadi. O'zbekning bozori shu, to'ram,
savdolashmasa ikkala tarafning ham ko'ngli joyiga
tushmaydi, sotgan ham, olgan ham qoniqmaydi.
Aytaman-ku, o'zbekning ko'p urf-odatini bilmaysan
deb!

— Juda bilaman-da! O'zbegingizning urf-odati zil-
dak bo'lib yelkamdan bosib turibdi, men bilmay kim
bilsin?! — orqalab olgan bir bo'xha nonga ishora
qildi Rixsivoy.

Mastura xola nabirasining qochirig'ini darrov
tushundi.

— Ammo katta bo'lsang, juda gapga chechan
chiqasan, — dedi u ichki bir hayrat bilan, — yor-
damlashib yuboraymi, menga beraqol.

Ana bu gap Rixsivoyning izzat-nafsiga tegib
ketdi.

— Nima deyapsiz, buvi! Hazillashdim men tur-
ganda siz ko'tarasizmi, nahotki shuni ham ko'tarol-
masam?! — dedi u do'q urib, keyin sal yumshab
so'radi. — O'zi boradigan joyimiz uzoq emasmi,
qayerda turishadi?

— Uzoq, shaharning chetida.

— Uylarini ko'rganmisiz, topib bora olasizmi,
ishqilib?

— Bo'lmasa-chi, men bitta ko'rgan joyimni
ko'zimni bog'lab bo'lsa ham topib boraman.

Rixsivoy buni bilardi. Mastura xola haqiqatan
ham bitta ko'rgan joyini necha yildan keyin ham qiy-
nalmay topib bora olar edi.

— Shaharning chetida bo'lsa biron narsaga
o'tiraylik. Yo yayov bormoqchimisiz?

Nega yayov ketar ekanmiz faqat trolleybus-prol-
leybus qilib o'tirmaylik — uzr ohangida gapirdi kam-
pir, — metroga o'tirsak, g'ir etkizib oborib qo'yadi.
O'ziyurar zinapoyasini aytmaysanmi, kataysa qildirib
olib tushib qo'yadi. Nima deding?

— Nima ham derdim, siz zamonaviy kampirlar-

dansiz, metro turganda trolleybusni nazarga ilar-midingiz?!

— Ha-ya, shuni aytsang-chil — hazilni ilib ketdi Mastura xola.

Ular metroning «Paxtakor» bekatiga borishdi. Eskalatorga yaqinlashishsa xuddi Mastura xolaga o'xshagan bitta kampir turibdi. Mastura xola nima gapligini darrov tushundi.

— Ha, egachi, yurmaysizmi? — so'radi u.

— Qandoq bo'larkin. Yuragimni hovuchlab turibman tushgani qo'rqib, — dedi kampir.

— Voy, aylanay sizdan, men ham birinchi marta sizga o'xshab qo'rqqandim. Endi ataydan keladigan bo'lib qolganman kataysa qilgani. Arg'imchoq uch-gandan ham maza bu. Yura qoling, — Mastura xola kampirning qo'ltig'idan ushlab eskalatorga boshladi, — qani, bismillohu rahmonu rahim, deb qadam qo'ying.

Kampir inqillab-sinqillab eskalatorga oyoq qo'ydi. Metrodag'i hamma odamlar ikkala kampirni tomosha qilishardi. Buni sezgan Mastura xola qiziqchiroq emasmi — darrov «ochilib» ketdi, shang'llab kalima qaytara boshladgi.

— Shu shayton zinadan eson-omon tushib olsam Bibi Maryam yo'llariga to'rt tanga atab yuboraman.

Mastura xolaga mahkam yopishib olgan kampir qalt-qalt qaltirab unga jo'r bo'ldi.

— Astag'firullo, o'z panohingda asra, astag'firul-lo!

Pastga tushib olishlari bilan ikkalovining ham chehralari ochilib ketdi. Kampir yoqasiga tupurib dedi:

— Yo qudratingdan o'rgulay, o'zi uchar gilamni eshitgandim, o'zi yurar zina ham bo'larkan-da! — Keyin kampir Mastura xolaga o'girildi, — voy, zinasi ham bor bo'lsin, so'rashmabmiz-ku.

— Shuni ayting-ga! — ikkala kampir xuddi endi bir-birini ko'rgandek quchoq kerib, eski qadrdon-lardek quyuq ko'rishishdi, hol-ahvol so'rashishdi. — Esonmisiz, omomisiz, bardamgina yuribsizmi?

Rixsivoy chetda qolib ketdi. Ikkala kampir oxirgi

bekatigacha suhbatlashib borishdi. Faqat metrodan chiqqanlaridan keyingina yo'llari boshqa-boshqa ekan, ajralishdi.

MEHMONTA

Mastura xola bilan Rixsivoy Toshkent — Chirchiq avtobusiga o'tirishdi. Omadlariga avtobus ekspress ekan, vizillatgancha uchib ketdi. Hademay Qibrayga yetdi. Yana uch bekatdan keyin Mastura xola Rixsivoyni yetaklab avtobusdan tushdi.

— Ha, xuddi shu yer, — dedi u nabirasidan ko'ra ko'proq o'ziga-o'zi, — hozir chapga qayrilamiz. Shu yo'l to'ppa-to'g'ri olib boradi. Ammo juda o'zgarib ketibdi, kelmaganimga ham necha yil bo'ldi!

Ular qulupnay ekilgan egat yoqalab ketgan tor asfalt yo'lga burildilar. To'rt yuz metrlarcha yurganlaridan keyin egat tugab, olmazor boshlandi. Bog' juda katta emasdi, undan chiqishlari bilan qarshilarida ajoyib manzara namoyon bo'ldi. Ko'z yayrab tomosha qiladigan keng dala, dalaning etagi qirga ulanib ketgan. Uni ilonizi bo'lib moviy suvli anhor kesib o'tgan. Shovullab oqayotgan anhordan esayotgan salqin shabada dimoqlarni qitiqlaydi.

Bu go'zal manzarani ko'rgan odam unga mahliyo bo'lib qolardi. Shu qadar maftunkor va jozibali edi. Anhor yoqalab har yuz-ikki yuz metr masofacha oraliqda besh-oltitadan ikki qavatli kottedjlar joylashgan.

— Mana shu uy, — eng yaqin kottedjni ko'rsatdi Mastura xola.

Hovli juda katta va u odam belidan keladigan qandaydir ko'm-ko'k o'simlik bilan o'ralgan edi. Devor yo'g'-u, lekin eshik va darvoza bor. Darvoza yopiq, eshik lang ochiq edi. Shunga qaramay Mastura xola eshikni taqillatdi. Zum o'tmay ko'zoynak taqqan Rixsivolar tengi bir qiz paydo bo'ldi.

— Assalomu alaykum, kelinglar, — dedi u ochiqko'ngillik bilan.

— Voy, tasadduq, Soraxonmisan? Kap-katta qiz bo'lib qolibsan-ku, — Mastura xola qizni bag'riga bosib ikki betidan o'pdi.

Qiz ham xuddi tug'ishgan buvisi bilan ko'risha-yotgandek kampirni mahkam quchoqladi.

— Qiynalmasdan topib keldinglarmi, ishqilib, xolajon. Oyim sizlarni ertalabdan beri kutadilar, — qiz kampirning qo'lting'idan ushlagancha ichkariga yo'l boshladи, birdan o'girilib eshik tagida yotsirab turgan Rixsivoyna qaradi, — kiraver!

Soraxon bu so'zlarni shunday samimiy va oddiy qilib aytdiki, Rixsivoyning yovvoyisirashi bir zumda yo'q bo'lib qo'ydi.

— Ha, ha, kir yapman, — dedi Rixsivoy ularning ortidan ergashib.

Shu payt mehmonlarning qarshisiga Zumrad opa peshvoz chiqdi. U quchoq ochib oldin Mastura xola, keyin Rixsivoy bilan so'rashdi.

— Voy-bo', bo'g'cha juda katta-ku, nima qilib ovora bo'lib yuribsizlar, — dedi Zumrad opa, u mehmonlarni koyimadi, aksincha maqtab, sevinib gapirdi.

— Ovorasi bor ekanmi, — sopolik qildi Mastura xola.

Mehmonlarni katta ayvonga taklif qilishdi, ayvon haqiqatda juda ko'rkan va shinam edi. Hovlining etagida ekinlarni shlangdan sug'orib yurgan kishi kelib mehmonlar bilan so'rashdi, chekkadagi stulga omonatgina o'tirdi. Mastura xola kaftini ochib qisqagina duo o'qidi-da, yuziga fotiha tortdi.

— Sizlar bemalol o'tiraveringlar, bizning ozgina dehqonchiligidiz bor, — uzr ohangida gapirdi uy egasi qo'lini ko'ksiga qo'yib.

— Voy, bemalol ishingizni qilavering, inim, biz o'zimiz Zumradxon bilan otamlashib o'tiramiz, ha, yig'ilib qolgan gapimiz ko'p.

— Ha, boravereng, bizlarga xalal bermang, — kuldi Zumradxon opa, keyin Mastura xolaga qarab qo'shib qo'ydi: — Suhbatga vazirlarning aralashgani ni yomon ko'raman, odam tortinib hech gap gapga qovushmaydi.

Zumrad opaning eri xaxolab kuldi. Mastura xola uy egasiga og'ir botmasin uchun nomiga iljayib qo'ydi.

Rixsivoyning og'zi ochilib qoldi, u Zumrad opa-

ning eri vazir ekanligini eshitgandi, ammo sirayam mana shu, shalvarini shalviratib yurgan odamni vazir deb o'ylamagandi. Rost-da, qanaqasiga bu vazir bo'lsin? Qo'llari, bo'yni ingichka, o'rtacha tarvuzdek qorin solgan, badani, yuzi oftob ko'rmagan — oppoq, sochi ham moshkichiri, iljayishi xokisor, ovozi mayin puf desang qulab tushadigandek.

Vazir deganda Rixsivoyning ko'z o'ngiga qovog'i soliq, salobatli, kibr-havoli, ovozi jarangdor, vujudidan kuch-qudrat yog'ilib turadigan purviqor odam kelar edi. Bu esa suvg'a botirib olgan mushuk bolaga o'xshaydi. O'xshatishidan o'zining kulgisi qistab ketdi Rixsivoyning, u tabassumini yashirish uchun yerga qaradi. Mana, Zumrad opani vazirning xotini desa arziydi. U ham chiroyli, ham kelishgan, ham madaniyatli, ham ulug'sifat ayol edi, vujudidan savlat yog'ilib turgani bilan zig'irday ham kekkaymasdi. Qizi lekin juda onasiga o'xhabdi.

Boshida vazirning uyiga keldim, deb Rixsivoy sal cho'chib, qimirlashga jur'at etolmay, iymanib o'tirdi, qarasaki, vazir qurmagur hamma qatori odam ekan. Shundan keyin u ham o'ziga erk berib bemalol, yayrab o'tirdi. Boshini ko'tarib sekin atrofga nazar tashladi. Eng avval oldidagi dasturxonqa e'tibor berdi. Bunday to'kin dasturxонни u sira ko'rmagan edi, yo'q, unda noz-u ne'mat ko'p emas, ammo hammasi asl, hammasi oliy edi.

Keyin Rixsivoy hovlini ko'zdan kechirdi. Daraxtlar alomat edi, hammasi pastak, barglari g'alati. Sinchiklab qaragan edi bir-ikkitasini tanidi, anjir, anor... Aftidan, uy egalarini mevasidan ko'ra ham daraxtning chiroyliligi ko'proq qiziqtirardi.

Hovlining etagida ustiga oq surp yopilgan yengil avtomobil turardi — «chet elniki» bo'lsa kerak — kattakon. Uyning peshtoqlari milliy naqqoshlikning eng zo'r namunasi sifatida bezatilgan, devor va shiplar nozik did bilan bo'yalgan. Xullas, kinolarda ko'rsatiladigan eng yaxshi sanatoriylardan qolishmas edi bu uy.

Birdan bu uy, bu boylik Rixsivoyning yelkasidan bosayotgandek tuyuldi, u yana o'zini noqulay his eta boshladi.

Mastura xola esa gapga tushib ketgan, Zumrad opa bilan chaqchaqlashib o'tirishardi.

— Hoy, qizim, mehmonni ham shunday kutib oladimi odam, zeriktirib qo'yasan-ku Rixsivoyni, — dedi Zumrad opa, — balki akvariumingni ko'rsatgarsan?

— Akvariumingizni qancha tomosha qilish mumkin, bir minutda jonga tegadi, — kului Soraxon.

— Zerikmayapman, — o'ng'aysiz ahvolga tushganini yashirolmadi Rixsivoy.

— Kinoni yaxshi ko'raskanmi? — so'radi Soraxon oddiygina qilib.

— Nima? — darrov tushuna qolmadi Rixsivoy.

Tushunishga tushundiku-ya, lekin mehmonni zeriktirmaslikka buning qanday daxli bor, deb o'yladi u, yo televizor ko'rsatmoqchimikin?

— Kinoni yaxshi ko'raskanmi, deyman?

Rixsivoy yelkasini qisdi.

— Qaydam, filmning qandayligiga bog'liq. Qiziq bo'lsa...

— Yur, istasang ko'rsataman. O'zim olganman.

«O'zim olganman...» Bu qiz hazilkashroq yo Rixsivoyning buvisiga o'xshagan maqtanchoqroq, dilidan o'tkazdi u.

— Mayli, ko'raylik.

Ular ikkinchi qavatdag'i Soraxonning xonasiga ko'tarilishdi.

— O'tir, — yumshoq kresloni ko'rsatdi Soraxon.

Rixsivoy kresloga o'tirgan edi, shunchalik yumshoq ekanki, cho'kib ketdi, irg'ib o'rnidan turdi.

— O'tiraver, men o'zim, — kino ko'rsatishga yordam bermoqchi shekilli, deb o'yladi Soraxon, — bu juda oson.

Rixsivoy bu gal kresloga ehtiyyot bo'lib sekingina o'tirdi.

Soraxon devorga oq choyshab ildi. Derazaning pardasini yopdi. Xona nimqorong'i bo'ldi. Keyin u xonardonlar uchun maxsus ishlab chiqarilgan kino ustanonvaga yaqinlashdi.

— Diqqat, tomosha boshlanadi. Hujjatli sarguzasht film: «Sayohat», «Sorafilm» studiyasi mahsuloti.

Oq choyshabga shu'la tushdi. Sora magnitofonni qo'ydi. Arabchami, italyanchami, — buni Rixsivoy ajratolmadi, — lekin juda ohangdor bir kuy boshlandi. Kuy fonida Soraxon ekrandagi tasvirga qisqa-qisqa izoh berib turdi.

— Bundan o'n yil muqaddam, vazirlikda bo'lim boshlig'i lavozimida ishlovchi fan kandidati Mansur Asadullayev o'z rafiqasi vrach Zumradxon bilan Odessadan chet el sayohatiga chiqdi.

Ekranda «Shevchenko» teploxdodi, uning zinasi, yonida Soraxonning otasi Mansur aka va onasi Zumrad opa paydo bo'ldi. Yoshroq payti ekan, Rixsivoy Mansur akani zo'rg'a tanidi. Odam ham shunchalik o'zgarib ketadimi?!

Rixsivoy kresloga cho'kib, yastanib o'tirdi. Hozir u o'zini amerikalik biznesmenlardek his qilar edi. Rost-da, bitta o'ziga bitta tomosha zal, kino, muzika, maxsus suhandon, faqat viski bilan buruqsitishga bitta sigara yetishmayapti.

— Sayohat dam olishdan boshlandi. Buning uchun «Shevchenko» teploxdida hamma shart-sharoit mavjud, — Soraxon xuddi tomoshabinni qo'lidan yetaklab teploxdni aylantirib chiqayotgandek uning fazilatlarini birma-bir sharhlardi, — sayohatchilar ixtiyorida istagan mazali taomingizni muhayyo etib beradigan restoran, shinam kutubxona, katta kinokonsert zal, moviy dengiz suvi bilan to'ldirilgan basseyn, oliy klass kayuta va nihoyat shifobaxsh, sof dengiz havosi!

Ekrandagi tasvir shunday tartibda tuzilgan ediki, tomoshabin teploxd bilan tanishib bo'lgach, go'yo yo'lga chiqardi va sayohatchilar bilan har xil mammakatlarni ziyorat etardi. Soraxon ham borgan sari ochilib, so'zamolroq bo'la borardi.

— Qora dengiz, Bosfor bo'g'ozi, Marmar dengizi ortda qoldi. Assalom, moviy suvli O'rtayer dengizil Salom, birinchi manzil Latakiya, assalom, Suriya!

Ekranda Soraxonning otasi paydo bo'ldi.

— Iye, notanish shaharning, notanish ko'chasida darvishlardek bo'zlab turgan bu kimsa kim? Badaviylardanmi? Yo'q, bu sohib Mansur Asadulloh! Ajabo, bu oliy zotning tanho qolganlarini boisi nima?

Boisi shuki, rafiqalari Zumrad bonu magazinma-magazin urib ketganlar. Magazin Zumrad bonuning joni, ertalab kirib ketsalar kechqurun chiqadilar. Suriyada nima ko'p, har xil yaltiroq, zarli matolar ko'p. Bas, shunday ekan, Zumrad bonuni matolar orasida o'z holiga qoldirib, sayohatni davom ettiraylik. Ma'salam, Suriyal

Ekrandagi manzara o'zgardi.

— Yana moviy dengiz, yana rohat-farog'at! Oftobda badanini tovlab qoraymoqchi bo'lganlarga teploxd palubasida joy yetishmay qoldi. «Ping-pong» bo'yicha teploxd birinchiligi uchun final uchrashuv.

Soraxonga film ham, gapiradigan gaplari ham yod bo'lib ketgan ekanmi ekranga qaramasdan tilbiyronlik qilardi.

— Bugun teploxforda O'zbekiston kuni. O'zbek turistlari o'z mamlakatlari hayotidan hikoya qiladigan ko'rgazmalar, leksiyalar uyushtirishdi, restoranda o'zbek milliy taomlari tayyorlandi, kechqurun tomosha zalida o'zbek turistlari — havaskorlar ijrosida katta konsert qo'yib berildi.

Ekranda yana yangi tasvir namoyon bo'ldi.

— Pirey. Dunyodagi eng go'zal mamlakatlardan bittasi Yunoniston bo'lsa ajab emas. Bitta qaragan-dayoq Zumrad opaning qiyofasidagi o'zgarishni sezish mumkin. Undagi jonsaraklik, bezovtalik o'rnini endi loqaydilik egallagan. Ha, endi bemalol o'zini sayohatga bag'ishlab, diqqatga sazovor joylarni, tarixiy obidalarni tomosha qilish mumkin. Chunki Zumrad opa allaqachon tashvishdan qutulgan — yettita davlatga mo'ljallab almashtirilgan pullar Suriyaning o'zidayoq tugab bitdi. Ha, buyog'i yallo!

«Juda ham serkinoya va qiziqchi ekan bu Soraxonitushmagur», — o'zicha iljayib qo'ydi Rixsivoy.

— Go'zal Gretsianing ajoyib poytaxti — Afina, — Soraxon davom etardi. — Bu esa dunyoga dong'i ketgan yunon mutafakkirlarining va faylasuflarining muborak poyqadamllari tekkan Akropol xarobalari. Yo'q, yo'q, gavdasiga to'rtta keladigan marmar ustunni bir qo'lida dast ko'tarib turgan pahlavon

Gerakl emas, bu bor-yo‘g‘i o‘zimizning Mansures Asadullidis. Agar sal sinchiklabroq qarasangiz, u kishi ustunni ko‘tarib emas, aksincha, ustunga suyanib turganini aniqlaysiz. Yonlarida iljayib turgan ayolni balki Afrodita deb o‘ylarsiz. Darhaqiqat, u husn bobida Afroditanan qolishmaydi. Biroq Afrodita hech qachon, garchi harsangda yurish qiyin bo‘lsa-da, qimmatbaho tuflisini ayab, yechib qo‘liga olvolmas, o‘zi esa shippakda yurmasdi. Demak, bu o‘zimizning Zumrad Asadullidis.

Ekrandagi manzaralar borgan sari ko‘proq Rixsivoyni o‘ziga jalg etardi.

— Port shahri Livorno. Qiziqqon va xushovoz italyanlar o‘lkasidagi birinchi uchrashuvlar. Markaziy Italiya. Piza shahri. Arxitektura mo‘jizasi — jahondagi yagona «Qulayotgan minora». Bu esa Florensiya. Mashhur san’atkorlar va olimlar belanchagi, qadimiy madaniyat o‘chog‘i — ko‘hna va hamisha navqiron Florensiya. Iye, spaghetti paqqos tushirayotgan anavi ikkita ochofat kim bo‘ldi?! Nodir san’at asarlari qarshisida sehrlangandek lol qolish o‘rniga, o‘zini ovqatga urgan bu ikki zot sin’orina Zumerida va sin’or Mansurino. Spaghetti asl taom ekan, ammo o‘zimizning lag‘mondan o‘taversin. Teploxed yo‘lga chorlaydi. Xayirino, italyano!

Rixsivoy ekrandan ko‘zini uzolmay o‘tirardi.

— Bonjur, Marsel! Boshqa xorijiy davlatlarga nisbatan bu shaharda allaqanday ruhiy yengillik hukmron — kiyinish, so‘zlashish, yurish-turish, xattiharakat — hammasi o‘ta erkin, tabiiy. Iye, iye, bu qanaqasi bo‘ldi, yengiltak va hazilkash fransuzlarning ta’siri urib mos’ye Mansur de Asad ham darrov aynibdilar-ku! Qandaydir yozgi restoranda, davraning o‘rtasida madam Zumrad bilan o‘zbekcha raqs tushyaptilar! Yo‘q, yo‘q, raqsga tushish gunoh emas, albatta. Lekin, avom xalq mayli-yu, ammo besh yildan keyin vazir bo‘ladigan odamga yarasharmikin shu qiliq? Keling, sho‘rlikning bir qoshiq qonidan kecha qolaylik, axir o‘sha paytda besh yildan keyin vazir bo‘lishini mos’ye Mansur de Asad qayoqdan bilsin! Ammo vaqt tig‘iz, bizni yangi manzillar kutadi. Adyu, go‘zal mademuazellar diyoril!

Rixsivoy o'zini tutolmay kulib yubordi. Uning kulgisi Soraxonga yanada ko'proq ilhom bag'ishladi.

— Arabistonga marhabo! Al-Iskandariya. Sahroi Kabir. Nil sohillari. Qohira, katta va anchayin betar-tib shahar. Bir yoqda ozoda va sarishta, bir yoqda qarovsiz va iflos ko'chalar. Al-Tizadagi piramidalar, eramizdan uch ming yil avval bunyod etilgan fir'avnlar qarorgohi — haramlar. Tuyada o'tirib haramlar tomon ketayotgan anavi parizod — rabba-tun Zumradnisa bo'ladilar. Qoida qaltis narsa — fir'avnlar qarorgohida bo'lib tuya minmagan sayyoh sayyohmi? Biroq tuyaning ortidan changga belanib ergashib borayotgan qora arab kim bo'ldi? Bu Zumradnisaning jufti halollari Abu Asadulloh ibn Mansur hazratlari erurlar. Jazirama issiqdan tezroq qochgan ma'qul. Shunday ekan, alvido, ko'hna Misr!

Yana moviy dengiz, yana teploxdoning gavjum palubasi, yana yangi shaharlar. Yana yangi mammalakatlar...

Birdan ekrandagi tasvir o'chib qora dog' paydo bo'ldi.

— Iye, bu yerda nega tasvir qop-qora? — deb savol berdi Soraxon va o'zi javob qildi. — Ajablanmang, bu qora kadrda «qora» ish qilinyapti — ya'ni grajdanka Asadullayeva bir pachka sigaretga bir pachka jevachka — saqich almashyapti. Bechora nima qilsin, qirq dollar, o'zingiz bilasiz, allaqachon tugagan, qiziga esa kavshaydigan saqich olib berishga va'da bergen. Plyonkani o'rtoq Asadullayeva ataydan o'chirib tashlagan yana chet el sayohatiga chiqish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolmaslik uchun.

Rixsivoy kinolarda amerikaliklar jag'i tinmay doim bir narsani chaynab turishlarini ko'p kuzatgan edi, ammo jevachkani yomon ko'rardi.

Sayohat nihoyasiga yetib qoldi. Eng so'nggi manzil turklar diyori. Istanbul, Sultonlar qarorgohi To'ptepa. Tillo, gavhar, zumrad, javohirlar xazinasi. Usti yopiq sharq bozori. Bu bozorga kirgan odam hushyorroq bo'lmasa adashib ketishi hech gap emas. Shoshilish kerak, chunki programmada bozor aylanishga atigi bir soat vaqt ajratilgan. Bosfor bo'g'ozi. Katta zamonaviy ko'rik. Bu qanaqasi? Xonim

Zumradposhsha bilan bey afandimiz Asadullo o'g'li Mansurning burunlari namuncha qaqqayib ketmasa? Xuddi o'zлari turgan ko'prikni sotib olishgan deysiz. E, ha, tushunarli. Axir, bu Yevropa va Osiyonি birlashtiradigan mashhur ko'prik-ku! Unda turish hammaga ham nasib qilavermaydi-da! Cho'x shodmiz, sog' bo'ling va yaxshi qoling qardoshlar! Safar tuga-di!

Salom qadrdon Qora dengiz, salom Odessa, assalom Toshkent! Assalom Ona yurt!

Ekrandagi shu'la o'chdi. Kresloda o'tirgan Rixsivoy hatto qimirlashga jur'at etolmadi. Bu bilag'on va dono qizning oldida u o'zini o'taketgan tentak va besavoddek his etardi.

— Qalay, yoqdimi? — so'radi Soraxon.

— Hm, — guldiradi Rixsivoy, — geografiyadan faqat a'loga o'qisang kerak-a?

Soraxon sharaqlab kului.

— Hamma fandan besh-u faqat shu geografiyadan to'rt.

— Ishonish qiyin...

— Gap geografiyada emas, — kului Soraxon, — nima desam ekan, men... bitta o'qigan narsamni xuddi to'tiqushga o'xshab darrov yodlab olaman, ha, xotiram yomon emas.

Rixsivoy Soraxon nima demoqchi, maqsadiga tushunolmadi. Qiz buni sezdi.

— Adam bilan oyim qaysi mamlakatga borishsa albatta har xil otkritka, loyihalar olib kelishadi, — fikrini oydinlashtirish uchun Soraxon gapni uzoqdan boshladi, — loyihalar, yo'llanmalar, bukletlar mingta darslikdan yaxshiroq. Ularda hech narsa cho'zib, chaynalib yozilmaydi. Har bir shahar yoki o'lka haqidada qisqa va lo'nda ma'lumotlar beriladi. Rasmlarning zo'rligini aytmaysanmi, ko'rsang og'zing ochilib qoladi. Agar men o'qituvchi bo'lganimda zerikarli darsliklarning hammasini uloqtirib tashlardim-da, bolalarni shu loyihalar bo'yicha o'qitardim.

— Bundan chiqdi...

— Ha, bundan chiqdi mamlakatlar haqida eshitgan gaplaringning hammasini o'sha loyiha-yo'llanmalardan o'qib, yodlab olganman. Bu bir, ikkinchi-

dan, mehmonlar kelganda filmni oyim sharhlab turadilar. Ko'p gaplarni oyimdan o'g'irlaganman.

— Bari bir qoyilman senga, — chin yurakdan tan berdi Rixsivoy.

Kekkaygan yoki tortinchoq odamlar bilan gaplashish qiyin bo'ladi. Soraxon juda oddiy va tabiyy tutardi o'zini, shuning uchun u bilan gaplashish juda oson edi, xuddi eski tanishga o'xshardi.

— Adang bilan oying sayohatni juda yaxshi ko'rishadimi deyman?

— Ayniqsa oyim sayohatni jonlaridan ortiq ko'radilar, topganlarini shunga sarflashga tayyorlar. Adam ikkovlari dunyoning yarmidan ko'pini kezib chiqishgandiroy, oyim juda qiziqlar, samolyotdan o'lgudek qo'rqa dilar, lekin bari bir uchishdan toy-maydilar. Samolyotga chiqib hech kim bilan so'zlashmay, ko'zlarini chirt yumib olib ketaveradilar. — Soraxonning ovozida kinoyadan ko'ra qandaydir faxr, onasiga mehr bor edi. — Adamlarning kinoapparat-lari bor. O'rgamchikka filmlar olib yursalar ham nomlari rejissyor. Oyim rejissyor yordamchisi. Qaysi mamlakatga borishsa, hozir sen ko'rganga o'xshagan sayohat taassurotlarini suratga tushirib kelishadi. Voy qaytib kelganlaridan keyin ularning tortishuv-larini eshitsang, mana bu kadrni men organidim, qara, qanday tiniq chiqqan, anavini sen olgan eding, shuning uchun xira, hech narsa ko'rinxaydi, deb rosa bir-birlarini jig'lariga tegishadi.

Rixsivoy baxtli oilalar borligini ko'p eshitgan, ammo o'z ko'zi bilan endi ko'rayotgandi. U nima uchundir bu oilada sira janjal bo'lmasa kerak deb o'yladi, chunki bular unga hazilkash, quvnoq odamlar bo'lib tuyuldi. Inoq munosabatning qadriga donolar yetadi, jaholatda qolgan odamlar umrini janjal-to'polon bilan o'tkazadi.

— Qaytishgandan keyin albatta mehmon chaqirishadi, yaqin tanish-bilishlar, qarindosh-urug'larni yig'ishadi. Olgan filmlarni ko'rsatib, o'zlarini sharhlab turadilar. Ayniqsa oyim boplaydilar. Ularning gaplarini eshitmabsan, bu dunyoga kelmabsan. Kuldiraverib hammaning ichagini uzvoradilar.

Soraxon onasining gaplarini eslab jilmaydi.

- Yana bormi?
- Tiqilib yotibdi. Ko'rasanmi?
- Mayli.
- Bo'lmasa dasturimiz rang-barang bo'lsin uchun hozir oilaviy albomdan lavhalar. Ketidan yana chet el sayohati.

Ekran yorishib, yigirma-o'ttiz yillik burungi rasmlar namoyon bo'ldi.

— Mana bu — oyog'ida arang turgan qizaloq — men, Soraxon Asadullayeva. Ha, ha, orqada belimdan bilintirmasdan oyim ushlab turibdilar. Hech kim sezmaydi deb o'ylaydilar, ammo kim ko'rsa, darrov, orqangdan ushlab turgan kimning qo'li deb so'raydi. Mana bu qotma, shimi osilib turgan o'spirin bo'lajak vazir Mansurxon aka. Sport formasidagi bu qiz esa studentka Zumrad. Mana bu esa Zumrad bonuning o'ninchi sinfdagi payti.

— To'xtal — o'tirgan joyida irg'ib tushdi Rixsivoy.

Soraxon qo'rqib ketdi-

— Voy, senga nima bo'ldi?

Rixsivoy joyiga qaytib o'tirdi, hovliqib ketganidan xijolat chekib yerga qaradi.

— Birpas to'xta, — qaytardi allaqanday qaltiroq ovozda.

Soraxon xo'p degandek itoatkorlik bilan bosh silkidi. Ekrandagi rasm qotib qoldi. Ular bir necha lahma sukul saqladilar. Nihoyat, Rixsivoy bir yutinib so'radi:

— Oyinglarning yonidagi qiz... kim, taniysanmi?

— Taniyman, bir bolalar uyida o'sib, bir maktabda o'qishgan. Oyimlarning qiz o'rtoqlari. Do'stdan ham ortiq, opa-singildek qadrdon bo'lishgan ekan, — dedi Soraxon. — Nimaydi?

— O'zim, — Rixsivoy bamaylixotir bo'lishga harakat qilar, ammo ichi alg'ov-dalg'ov edi, — do'st tutinishgan ekan, degin...

— Ha, lekin yoshlikda. Oyim Moskvadan o'qishdan qaytsalar dugonalari boshqa shaharga ko'chib ketibdi ekan. Shundan keyin ular o'rtasidagi aloqa uzilibdi. Ammo hali-hali rasmni ko'rib qolganda, eslab maqtab yuradilar, juda ham ajoyib odam bo'lgan ekan, saxiy, odamshavanda, sadoqatli.

Soraxon nimalardir derdi, ammo Rixsivoy uni eshitmas, firki-xayoli boshqa yoqda edi. Axir u ekranda o'z onasini ko'rgan edi! Uyda onasining xuddi shunaqa rasmi bor — shu atlas ko'yak, sochi-ni ham shunaqa jamalak qilib olgan, faqat u rasmda bir o'zi tushgan. Demak, yoshligida Zumrad opa bilan do'st bo'lishgan. Endi hammasi ayon Rixsivoyga Zumrad opaning buvisiga bola boqtirishi, narsalar tiktirishi shu zaylda yordam berib yurgani bejiz emas ekan.

Rixsivoyning xo'rligi kelib tomog'iga bir narsa tiqildi. Bir ko'ngli o'rnidan shartta turib ketib qol-moqchi bo'ldi, ammo o'zini bosdi, andisha zo'rlik qildi. Hovliqish yaramaydi, fikrini bir joyga yig'ib o'ylab ko'rsin-chi Zumrad opaning birovni kamsitish xayoliga ham kelmagan bo'lishi mumkin. Faqat odamgarchilik yuzasidan...

Biroq bitta narsa juda alam qilar edi Rixsivoyga. Nega Zumrad opa onasining dugonasi bo'lganini ber-kitgan, nega yolg'on ishlatgan. Yoki: «To'g'risini aytsam, mening ko'magimdan voz kechadi», deb o'ylaganmikin. Ammo shunday o'ylagan bo'lsa to'g'ri qilgan, haqiqatda ham buvisi bilsa undan yordam olmasdi, chunki buvisi ham o'ziga yetguncha g'ururli. Hech qachon birovdan sadaqa olib kun ko'rishga rozi bo'lmaydi. Xuddi shuning uchun Zumrad opa sadaqa berishdan qochgan. Juda ustalik, ehtiyyotkorlik, odob bilan yo'l tutib kampirning tikuv mashinasi sotib olishiga ko'maklashdi. Bu Mastura xola ish bilan ta'minlandi degan gap edi. Chevarchilikning orqasidan bir amallab kunini ko'rib yurdi. To'g'ri, ahvol tang paytlar Zumrad opa Mastura xolaga unchalik zarur bo'lмаган narsalarni ham tiktirishga berib turgandir. Buning uchun uni ayblab bo'lmaydi.

Demak, og'irroq bo'lish, hislarni jilovlab miyani ishlatish kerak. Xo'sh, nega Zumrad opaning o'z dugonasi oilasiga yordam berishga haqqi yo'q. Innaykeyin u tekinga yordam bermagan, buvisiga bola boqtirgan, ish bergen, mehnatiga haq to'lagan. Menga nima, qanday xohlasa shunday kun ko'raverishsin deb ketsa to'g'riroq bo'larmidi? Dugonasi

o'lib ketganini hatto qizidan ham yashiribdi, boshqa shaharga ko'chib ketgan deb qo'ya qolibdi. Nima uchundir mana shu yoddi Rixsivoyga. Bundan chiqdi Mastura xolaga qilayotgan yordamini hammadan, hatto qizidan ham yashirgan.

Rixsivoy o'zgarib, g'alati bo'lib qolgandi. Soraxon taajjub bilan, hatto bir oz xavotirlanib unga qaradi.

— Senga nima bo'ldi? — deb takror so'radi.

Rixsivoy hayajonini yashirish uchun Soraxondan ko'zini olib qochdi, yerga qaraganicha:

— Oxirgi rasmni yana bir marta ko'rsa bo'ladi-mi? — deb iltimos qildi.

— Nega bo'lmas ekan? — Soraxon ekranga shu'la tushirdi.

Rixsivoy onasiga mo'ltirab boqdi. Sochini jamalak qilib o'rgan, kulib yubormaslik uchun labini qattiq qisib olgan, hali juda yosh onajonisi xuddi hozir biror gap aytmoqchi bo'lgandek Rixsivoyning ko'ziga tiki-lib turardi. Oh, qani endi biror narsa desa, qani endi bir og'izgina so'z aytsa, qani endi Rixsivoy onasining ovozi qandayligini eshitsa! Onasining bir og'iz so'zini eshitish uchun Rixsivoy butun umrini berib yuborishga tayyor edi.

Biroq, ming afsus, rasmlar gapirmaydi! Rixsivoy ekrandan ko'zini uzolmasdi, qancha urinmasin...

— Nima, eshitmayapsanmi?!

— Labbay? — cho'chib tushdi Rixsivoy.

— Voy, eshitmayapsanmi, ikkinchi marta qaytarishim, ovqatga chaqirishyapti, — hayron bo'ldi Soraxon.

— Ketdik, — dedi Rixsivoy xijolat bo'lib.

Soraxon ekrandagi shu'lani o'chirdi. Shu asnoda birdan Rixsivoyning ichi zil ketgandek, ichida qandaydir tomiri chirt uzilgandek bo'ldi. U onasidan ayrilib yana tanho qoldi.

Ular pastga tushdilar. Buvisi bilan Zumrad opa-ning suhbati rosa qizigan payt ekan.

— Buvi, ketmaymizmi? — dedi yerdan boshini ko'tarmay Rixsivoy.

— Voy, issiq ovqatni tashlab ketasizlarmi? Suzmasdan, sizlarning tushishingizni kutib o'tirib-miz, o'tiringlar, — o'rnidan turdi Zumrad opa.

— Tayyor ovqatni tashlab ketsak Zumrad opangiz xafa bo'ladilar, to'ram, — dedi Mastura xola.

— Yoki dalaga chiqib ketdik, qanday qaytamiz deb cho'chiyapsanmi? Qo'yaver, o'zim mashinada metrogacha oborib qo'yaman, — yosh bolalarga o'xshab kerildi Zumrad opa.

— Men ham sizlar bilan boraman, — onasiga jo'r bo'ldi Soraxon.

Rixsivoy hammaning diqqat markazida bo'lishni yomon ko'rardi, yalinishlarga chek qo'yish uchun darrov o'tira qoldi.

Zumrad opa bir lagan karam do'lma olib keldi. O'zi ham bu dunyoning ne'mati bo'lmabdi, maza qilib tushirishdi.

Qorin to'ysa, g'am ketadi deyishadi-ku. Ovqatdan keyin Rixsivoyning ham kayfiyati ancha joyiga tushdi. Buning boshqa sabablari ham bor edi, birinchidan vazir hazratlari bilan bir stolda o'tirib ovqatlanish hammaga ham nasib qilavermaydi. Ikkinchidan, Rixsivoy yosh bo'lishiga qaramay vazir bilan bab-ba-ravar — beshta do'lma yedi. Bu ham har kimning qo'lidan kelavermaydi.

Uchinchidan Soraxon... juda alomat qiz ekan. Bunday qizning yonida o'tirsang kayfiyatning juda yaxshi bo'lmay iloji yo'q.

Tuyqus Rixsivoyning ko'nglida shu dilbar qizni yana ko'rish nasib etsin, degan orzu paydo bo'ldi.

Ovqatdan so'ng murabbo bilan choy ichishdi. Shundan keyin Mastura xola ketishga ijozat so'radi. Zumrad opa va'dasiga binoan, Mastura xolaning e'tiroziga qaramay, mehmonlarni metrogacha mashinada oborib qo'yadigan bo'ldi.

Hammalari yap-yangi, yaltiroq yengil mashinaga o'tirdilar. Shu payt vazir ularga yaqinlashdi.

— Voy, ovora bo'lman, Mansur aka. Mana Soraxon bor, o'zimiz oborib qo'yamiz, — dedi Zumrad opa.

— Mayli, shabadalab kelay. Qaytayotganda hamroh bo'larman, — Mansur aka kiyinib chiqqani uchun birdan sersavlat, purviqor bo'lib ketgan edi. Ha, u endi haqiqiy vazirga o'xshardi.

Mashina o'rnidan qalqib siljidi. Zumrad opa beo'xshov iljayib o'tirganlarga qaradi, o'zini oqladi:

- Motor hali sovuq-da, silkiyapti.
- Shunaqa, haydashni yangi o'rganayotgan odam doim bahona qidiradi, — dedi Mansur aka.
- Yo'lga tushdilar. Mashinadagilar xuddi tuyaning ustida ketayotgandek qalqib borishardi.
- Mana ko'rasizlar, motor qizivolsa yog'dek yuradi, — yana beo'xshov iljaydi Zumrad opa.
- Uning o'ng'aysizlanishi, beo'xshov jilmayishi, o'tirganlarni bezovta qilayotganidan xijolat chekishi Rixsivoyna yoddi. Yuragida asta-sekin bu ayolga mehr kuchayayotganini sezdi.
- Ular katta yo'lga yaqinlashganlarida mashina keskin to'xtab, yana yurib ketdi. Oldingi o'rindiqdag'i Mansur aka peshonasini oynaga qattiq urib oldi.
- Zumrad opa yana beo'xshov jilmayib o'tirganlardan uzr so'radi.
- Katta yo'lga chiqish oldidan tormozni sinab ko'ray devdim...
- Tormoz juda yaxshi ekan, — dedi Mansur aka, — shunga yarasha mashinaning oynasi ham mustahkam ekan, men uchib chiqib ketaman deb o'ylagandim.
- Voy, peshonangizni urib oldingizmi? G'urra bo'lib chiqmadimi ishqilib?! — so'radi Zumrad opa.
- E, g'urra nima ekan?! Agar siz bizni naqd o'limdan qutqarib, uyimizga eson-omon eltib qo'ysangiz, qolgan umrimizni sizni duo qilib o'tkazardik, — hazil qildi Mansur aka.
- Hozir, hozir, — dedi ikkala qo'li bilan rulga yopishib olgan Zumrad opa, — anavi oldimdan kelayotgan mashina o'tib ketsin... keyin...
- Nima keyin? — so'radi Mansur aka.
- Keyin gaplashamiz, — yana ishshaydi Zumrad opa.
- Xuddi ko'chani sotib olgandek o'rtadan yurmoy o'ngroqqa oling, o'tadi ketadi, — asabiyashib gapirdi Mansur aka.
- Zumrad opa javob berib ulgurmadi. Qarshidan kelayotgan mashina bularga yo'l beraman deb trotuarga chiqib ketayozdi, ha, haydovchi epchil ekan, arang burib qoldi. Hammaning nafasi ichiga tushib ketdi. Mashinaning haydovchisi orqadan musht o'qtalib, nimalardir deb baqirib qoldi.

Mashinasini hamon ko'chaning o'rtasidan haydab ketayotgan Zumrad opa oldiniga pinagini ham buzmadi. Lekin keyin, og'zi shaloq haydovechining haqratlarini e'tiborsiz qoldirmaslik uchun, kamsitish ohangida luqma tashladi:

— Voy savil, hali shu yurak bilan mashina haydab yuribsanmi?!

Bu gap Mansur akadan tashqari hamnaga nash'a qildi, birov ochiq kuldii, birov iljaydi. Rost-da, qilg'ilikni qilib qo'yib tag'in bu ayolning gunohni birovga ag'darishiga nima deysiz?!

— Yuragi bormi, yo'qmi, bilmadim-u, ammo tentakroq ekan. Aks holda katta yo'l qolib mashinasini trotuardan haydarmidi?! — yana hazil qildi Mansur aka.

— Shuni aytaman-da, — hazilni ilib ketdi Zumrad opa, — oldin katta ko'cha bilan yo'lkaning farqiga yetsin-da, keyin rulga o'tirsin. Avariya shunaqa noshudlarning dastidan bo'ladi-da!

Zumrad opa iljayib o'tirganlarga qaradi.

Bu gal hatto vazir janoblari ham o'zlarini tutolmay, sharaqlab kulib yubordilar.

Endi Rixsivoi Zumrad opani chinakamiga yoqtirib qolgandi. Birdan u o'zini juda yengil his qila boshladidi. Dunyoda Mansur aka, Soraxon, ayniqsa Zumrad opaga o'xshagan odamlar borligidan o'zini yengil his qilardi u.

Buvisi Mastura xolaga-ku gap yo'q!

KUN TARTIBIDA RIXSIVOYNING SHAXSIY MASALASI

Maktab o'qituvchilarining umumiy majlis bo'larmish, unda Rixsivoyning masalasi ko'rilmish, Sharifjon aka bilan Habiba opa o'rtasidagi kelishmovchilik avjga minayotgan mish-mish tarqaganiga yarim oydan oshgandi. Rixsivoylarning sinfidagi bolalar go'yo shu majlisni kutib yashayotgandek edilar.

Mana, oxiri o'sha orziqib kutilgan kun ham keldi. Majlisda oldin birinchi chorak yakunlari ko'rib chiqil-

di, keyin maktab bo'yicha o'zlashtirish muhokama etildi va nihoyat Rixsivoarning shaxsiy masalasi muhokamasiga o'tildi.

Birinchi bo'lib ♦jabrlanuvchi♦ Sharifjon aka so'z oldi. U gapni juda uzoqdan boshladi — maqsad pedagogika nazariyasini juda yaxshi bilishligini namoyish qilish edi. Qadimda o'tgan va hozir hayot mashhur olim va domlalardagi kam uchraydigan, ammo qiziq sitatalar keltirdi. Tahsinga sazovor yeri shundaki, nutqini achchiq ichakdek cho'zmadi, lo'nda-lo'nda gapirdi. Gapirishni qoyil qilardi u. Nazariyadan keyin shaxsiy mulohazalarga ko'chdi. Bolalarni sevish, busiz muallim bo'lish mumkin emasligi, biroq talabchanlik bo'lmasa bola taltayib ketishi haqida fikr yuritdi. Kattalarni hurmat qilmaydigan o'quvchidan hech qachon yaxshi odam yetishib chiqmaydi, deb ta'kidladi. Nutqining oxirida intizomni buzgan, o'qituvchining obro'sini to'kkan o'zboshimcha Rixsivoyni jazolashni talab qildi.

— Ha, boshqalarga o'rnak bo'lzin uchunoq uni jazolash kerak, — dedi u, — chunki o'rtadagi mojarodan butun maktab xabardor va agar Rixsivoy jazolanmay qolsa yolg'iz unga emas, butun muallimlarning obro'siga putur yetishi mumkin.

Raislik qiluvchi maktab direktori Qumri opa juda xotirjam edi. Ko'rinishidan Sharifjonning gaplari unga qanday ta'sir qilayotganini mutlaqo bilib bo'lmasdi. Ha, judayam xotirjam edi Qumri opa. Qirq yil maktabda ishlab bunaqa majlislarni, nutqlarni, bunaqa notiqlarning juda ko'pini ko'rgan edi u. «Yo'q, bu yigit o'qituvchilik qilmaydi, maktabda ish-lasa yana ikki yil ishlaydi, — pinagini buzmasdan xayol surardi direktor, — keyin tuman, shahar ta'lim bo'limi, keyin maorif vazirligi. Bunaqa gapdon yigitlar xor bo'lmaydi, ularni zinadan pog'onama-pog'ona yuqoriga gap boshlab chiqadi. Ish bilmasang ham gap bil, deb shunaqlar haqida aytadilar-da».

Sharifjon akadan keyin Habiba so'z oldi. Bu — uning majlisda birinchi nutqi bo'lishiga qaramay Habibaning qanday gapirishi, taxminan nimalar deyishi Qumri opaga ayon edi. Ha, albatta hovliqadi, poyintar-soyintar gapiradi. Chunki haq odam

hayajonlanadi, eng qiyini — haqligingni isbot etish.

— Rixsivoya biz alohida munosabatda bo'lishimiz kerak, — deb gap boshladi Habiba, — negaki Rixsivoy juda ta'sirchan, g'ururli, nozikta'b, gap ko'tarolmaydigan, jizzakiroq bo'lib tarbiya topgan. Uning bunday injiqroq, ginaxonroq bo'lib o'sishiga oilaviy ahvoli sabab. Bilasizlar, u yetim. Buvisi Rixsivoy yetimlikni bilmasin, hamma bolalar qatori qiyinchilik ko'rmay o'ssin uchun qo'lidan kelgancha harakat qiladi. Natijada Rixsivoy erkaroq, hatto o'zboshimcharoq bo'lib qolgan. Ayniqsa, uning izzat-nafsiga tegadigan gap qilib qo'yishdan ehtiyot bo'lishimiz kerak. Sharifjon aka esa Rixsivoyni izzat-nafsiga tegib xo'rلانلار... Bola eng rahmdil va shafqatli zot, ayni paytda,adolatsizlikka uchrasha undan o'tadigan berahm, johil topilmaydi. Chunki bola hali shakllanmagan shaxs, u o'z his-hayajonini jilovlay bilmaydi. Murosa, mug'ambirlik kabi tushunchalar hali unga yot. U hamma narsani to'ppa-to'g'ri qabul qiladi va to'ppa-to'g'ri javob beradi. To'ppa to'g'ri hal qiladi. Shuning uchun sag'al narsaga shodon kulib yuboradi, zig'irttak adolatsizlikka duch kelsa ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketadi. To'g'ri, Rixsivoy o'qituvchisiga nisbatan hurmatsizlik, qo'rslik qilgan. Lekin bu — adolatsizlikka, boringki, qo'pollikka qarshi isyon natijasida sodir bo'lgan. Sharifjon aka butun sinf oldida, o'zlarini yaxshi ko'rsatish uchun bo'lsa kerak, hamma bolalarning oldida Rixsivoy uchun obunaga pul to'lab yuborganlarini e'lon qilganlar. Bu har qanday odamga ham og'ir botadi, xo'rlaydi. Ayniqsa Rixsivoya o'xshagan noziktabiat bolaga yomon ta'sir qiladi... Shuning uchun unga ko'rildigan chora yumshoq bo'lishi kerak.

Habiba yana ancha gapirdi, pedagogik takt, g'amxo'rlik, sabr-toqat haqida to'xtaldi.

Ammo Qumri opa endi uni eshitmas edi. U o'z yoshligini esladi. Ha, u ham maktabga yangi kelganda Habibaga o'xshab oliy va pok his-tuyg'ular bilan to'lib-toshgan, u ham ko'p narsani o'zgartirmoqchi, dars berishning eski uslublarini qo'porib, yangisini joriy qilmoqchi bo'lgandi. Eskirib ketgan darsliklar-

ning o'rniga yangilarini chiqarish lozimligi haqida bong urgandi, xullas, Habibaga o'xshab isyonkorlik qilgandi. Biroq asta-sekin sovib, hammasiga ko'nikib ketdi.

Habiba ham shunday bo'ladi, oldin bir guvillab yonadi, majlislarda bir-ikki so'zlaydi, hatto biron gazeta yoki jurnalga maqola ham yozadi, lekin baribir hech narsa o'zgarmaydi, dars berish uslubi ham, darsliklar ham o'sha-o'sha qolaveradi, ana shundan keyin hafsalasi pir bo'lib, gulkandek lovullagan odam oldin cho'g'ga, keyin kulga aylanadi. To'g'ri, gohi-gohida pastqam-pustqam joylarda o'z ishidan nolib, tutab yurishi mumkin, lekin shundan nariga o'tmaydi.

Ha, Qumri opa ko'pni ko'rgan ayol.

Lekin Habiba boshqacha o'ylardi. Hech narsani o'zgartirib bo'lmaydigan zamonlar o'tib ketdi, endi o'z e'tiqoding uchun oxirigacha kurashish kerak. U shunday o'ylardi va shu tariqa ish tutardi.

Yana uch-to'rt odam so'zga chiqdi va nihoyat navbat Qumri opaga keldi. Kerak paytida juda jiddiy bo'la olardi Qumri opa. U qoshlarini chimirib, quruq va vazmin bir ohangda gap boshladi.

— O'rtoqlar, avvalambor bu yer mакtab. Maktab men uchun muqaddas dargoh va bu dargohda «jazo»ning qo'llanishi uyoqda tursin, hatto bu so'zning ishlatalishiga qarshiman. Jazolash eng jo'n narsa, u hammaning qo'lidan kelaveradi, ammo tarbiya esa insondan o'quv, ustalik, idrok, tajriba, mala-ka talab qiladi. Siz bilan biz bolalarni jazolashga emas, tarbiyalashga chorlanganmiz.

Qumri opa bamaylixotir, haqligiga ishonch bilan so'zlardi. Boshliqlarga gapirish oson, chunki qo'l ostingdagilar seni qunt va diqqat bilan tinglaydilar, shaytonroq xodimlar esa boshlarini likillatib gapingni ma'qullab o'tiradilar. Bunday sharoitda gapirish kishiga hatto rohat bag'ishlaydi.

Qumri opa har qalay katta tajribaga ega o'qituvchi edi, u bekorchi narsalarni takrorlamas, bor gapni aytardi.

— Biroq, biz qancha g'amxo'r, shafqatli bo'lmaylik, baribir, bolaga qattiq turishimiz kerak. O'zi bilib vijdonan ish tutsin, deb tashlab qo'yish to'g'ri emas.

Chunki bola o'zini o'zi tergolmaydi, chunki unda hali iroda toblanmagan, chunki u inson sifatida hali shakllanmagan. Shuning uchun qattiqqo'llik bilan biz uni intizomga bo'ysundrishimiz, majburlab, ha, majburlab dars tayyorlatishimiz kerak. Kerak payti-da qilingan qattiqqo'llik, talabchanlik juda yaxshi samaralar berishi mumkin.

Qumri opa gapga yakun yasadi. Sharifjon bilan Habibaning haq va nohaq taraflarini ko'rsatdi, ularni kelishib ishlashga chaqirdi, Rixsivoyna nisbatan qat-tiq chora ko'rish shart emasligini, u bilan shaxsan o'zi yaxshilab suhbat o'tkazajakligini, lekin «qiyin» o'quvchi bo'lgani uchun uni Habiba otaliqqa olishi lo-zimligini aytdi. Bu taklif, tabiiyki, hammaga ma'qul tushdi.

Shu bilan majlis tugadi. Bir zumda hamma tarqab ketdi.

Habiba o'z xonasiga kirib sumkasini oldi va ham-madan keyin mактабдан chiqdi. U ko'chaning narigi betida, katta daraxtning tagida turgan Rixsivoyni ko'rmadi, metro bekati tomon jadallab yurib ketdi.

Rixsivoy yugurgancha oldinga tashlandi, taxmi-nan uch yuz metrcha masofadan keyin chorrahada, ko'chaning narigi betiga o'tib orqasiga yurdi va hade-may Habibaning qarshisidan chiqdi.

— Ha, Rixsivoy, nima qilib yuribsan? — Habiba uning qo'lidagi papkasini ko'rib hayron bo'ldi. — Haliyam ketmadingmi uyingga?

— Kitob magaziniga boruvdim... — o'zining gapi-ga hatto o'zi ham ishonmadi Rixsivoy, yolg'onni eplomaganidan ijirg'anib ketdi va shartta so'radi: — Meni maktabdan haydashdimi?

Habiba jilmaydi.

— Shunchalik gunohing og'irmi?

— Sharifjon aka haydattiraman, deb va'da bergan-lariga aytyapman-da.

— Vaqting qanday?

— Nimaydi? — savolni savol bilan qarshi oldi Rixsivoy.

— Vaqting bo'lsa ozgina gaplashib ketardik.

Rixsivoy rozilik bildirib bosh silkidi. Ular o'rtasi daraxtzor, keng xiyobonga burilishdi. Garchi bu

yerni ham juda tinch va sokin deb bo'lmasa-da, har qalay suhbatlashishga yarar edi.

— Maktabdan haydalmading-ku, lekin sha'ningga yaxshi gaplar bo'lmasdi. Juda jiddiy va haq gaplarni aytishdi. Yanglishmasam qilgan qo'polligingni, aybing qanchalik og'irligini o'zing ham tushunsang kerak?

Rixsivoy «tushunaman» degandek yana bosh silki-di.

— O'qituvchi bilan bunday muomalada bo'lishga senga hech kim yo'l qo'ymaydi.

— O'zлari nega maqtanchoqlik qiladilar pul to'lavordim, deb. Men ularning sadaqalariga zor emasman, — dedi Rixsivoy, keyin burnini tortib qo'shib qo'ydi, — baribir mendan ham o'tdi, aybim bor, sag'alga qizishib ketaman. Jizzakilikni o'lgudek yomon ko'raman-u, lekin ko'pincha o'zimni ushlol-mayman. Shu alam qiladi odamga.

— O'z qilmishingni tahlil qilishing, birovdan emas, o'zingdan ayb qidirishing juda yaxshi. Bunday odamlar nuqsonlaridan tez qutuladilar, kun sayin yaxshiroq, oljanobroq bo'laveradilar.

Habibaning balandparvoz so'zlaridan Rixsivoy miyig'ida kuldji.

— E, menga oljanoblik kerak emas, oddiy odam bo'lsam... bo'lidiydi. Arzimagan narsadan ham tutaqib ketaveradigan jirttakiligidimni, shu yaramas odatimni tashlasam bo'lidiydi.

Ular Habibaning taklifi bilan skameykaga o'tirdi-lar.

— Bir hisobdan tutaqib ketish yomon emas. Eng dahshatlisi odamning befarq, beg'am, betaraf bo'lishi. Ko'z o'ngingda adolatsizlik ro'y berayotganda sen pinagingni buzmay turaversang, unda sen qanday odam bo'lding?

Suhbatning «ma'naviy-axloqiy» mavzuga ko'chgani Rixsivoyni sal zeriktira boshlagan edi. Buni Habiba sezdi va gapni boshqa yoqqa burdi.

— Xo'sh, bordi-yu maktabdan haydab yuborish-ganda nima qilarding?

Rixsivoy xuddi shu savolni azaldan kutgandek o'ylanib o'tirmasdan shartta javob berdi.

- Hunar-texnika bilim yurtiga kirardim.
 — Qaysi kasbni o'rganarding? — so'radi Habiba.
 Rixsivoy javob bermadi.
 — Kim bo'lmoqchiyding?
 Rixsivoy yana indamadi.
 — Nahotki bu sir bo'lsa, shunaqa alomat kasb tanlaganmisan? — qistadi Habiba.
 — Masxara qilmaysizmi?
 — Voy, nega masxara qilar ekanman, hamma kasblar ham yaxshi, masxarali kasb bo'larkanmi?
 Rixsivoy gapirgani botinolmay yana jim bo'lib goldi.
 — Nima, sirkda kloun bo'lmoqchimisan?
 — Yo'g'e... menga yo'l bo'lsin.
 — Ayt bo'lmasa.
 — Aytaymi, — Rixsivoy Habibaning ko'ziga tik boqdi, — qassob bo'lmoqchiman.
 — Nima, taajjubini yashirolmadi Habiba, — qassob?
 — Aytdim-ku... kulasiz deb.
 — Kulayotganim yo'q, lekin... to'g'risini aytsam tanlagan kasbing meni hayron qoldirdi.
 — Tag'in hamma kasblar ham yaxshi deysiz.
 — Ha, yaxshi, qassoblik ham yaxshi, kerakli kasb, — sal ortiqcha dabdaba bilan gapirdi Habiba, — lekin nega boshqa kasbni emas-u aynan shu qassoblikni tanlading?
- Rixsivoy yana jimib qoldi.
- Gapiraver, axir biz ochiqchasiga gaplashyapmiz-ku!
- O'zinglar doim aytasizlar-ku, biz ota-bobolarimiz izidan borishimiz kerak deb. Mening buvam qassob bo'lgan ekanlar, — dedi Rixsivoy.
- Ha, unda to'g'ri qilibsan, — dedi Habiba endi ortiqcha dabdabasiz.
- Gap bo'linib qoldi. Ular biz necha lahma «churq» etmay ketaverishdi. Oxiri tinchlikni Rixsivoy buzdi.
- Buvam har kuni uyga go'sht ko'tarib kelar ekanlar, lekin o'zları bir tishlam ham yemas ekanlar, buvimlarga berarkanlar. Buvim esa faqat til yoki jigar yerkanlar, son go'shtiga berch bo'ladi deb qaramas ham ekanlar, — Rixsivoy o'ylanib qoldi, keyin xayolchan ovozda qo'shib qo'ydi, — qassob bo'lsam

men ham har kuni buvimlarga go'sht ko'tarib kelardim.

Habibaning eti jimirlashib ketdi, lekin sir boy bermaslikka harakat qildi.

— Mayli, niyatingga yet. Axir hammayam olim, injener yoki vrach bo'lavermaydi. Kimdir qassoblik ham qilishi kerak.

— Buvimga qolsa oshpaz qilsalar meni.

— Qiziq-ku, sababi nima ekan?

— Dunyoning hamma tashvishi borib qorin to'yg'azishga taqalarmish, oshpazning esa qorni doim to'q bo'larmish, — kului Rixsivoy, — juda soddalar buvim.

Habiba ham jilmaydi. Ular yana birpas jim qoldilar. Endi suhbatga yakun yasashsa ham bo'lardi.

— Rixsivoy, bilasanmi, boyaga menga majlis tuga-ganda Qumri ona nima dedilar?

— Nima dedilar?

Habiba Rixsivoyning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

— Senga, singlim, yashash qiyin bo'ladi to'g'ri so'z ekansan dedilar, — afsuslanish yoki o'ksish o'rniga Habibaning chehrasi yorishib ketgandi, — men ularning gaplaridan sira xafa bo'lmadim, aksincha suyundim. Ishonasanmi shunga, juda suyundim. Chunki o'sha tobda o'zimning ko'zimga o'zim nafaqat to'g'ri so'z, balki haqiqatparvar,adolatparvar kurashchi bo'lib ham ko'rinish ketdim. Mayli qiyalsam ham dedim. Rost-da, haqiqat uchun kurashgan-larning qaysi birining qismati yengil bo'lgan?

Bir qadar siyqasi chiqqan bu so'zlarni Habiba shoshmasdan, Rixsivoy mag'zini chaqsin uchun dona-dona qilib aytdi. Rixsivoy, Habibaning maqsadini tushundi, ko'nglini ko'tarmoqchi, dalda bermoqchi. Ha, bejiz gapirmayapti.

Aslida Rixsivoy Habibaning ko'nglini ko'tarmoqchi, qo'llab-quvvatlamoqchi bo'lib kelgandi. Amalda teskarisi bo'ldi.

BIR QULTUM BULOQ SUVI

Rixsivoy uzoqdan podyezdlari oldida turgan «tez yordam mashinasini ko'rdi-yu, yuragi «shuv» etib ketdi.

Bir marta maktabdan kelsa buvisi qornini changal-lab o'tirgan ekan. Og'riq zo'rligidan rangi quv o'chib ketgan, peshonasi jiqqa ter. Shunda ham Mastura xola sir boy bermaslikka harakat qildi, boy a bir tilik qazi yegan edim, botmadi shekilli, dedi. Ammo erta-labgacha qiynalib chiqdi.

Shuning uchun, buvisining kasali borligini bilgani uchun, «tez yordam» mashinasini ko'rib Rix-sivoyning yuragini vahima bosdi. U qadamin tezlashtirdi, endi eshikka yetgan edi hamki, ichki hissi aldamagan ekan, qarshisidan oq xalat kiygan ikkita odam buvisini zambilda ko'tarib olib chiqdi. Rixsivoy dastlab turgan joyida taqqa qotib qoldi.

Mastura xola ko'zini yumib olgan, og'riq qat-tiqligidan yuzlari tirishib ketgandi. Keyingi daqiqada Rixsivoy unga otildi:

— Buvijon!

Kampir ko'zini ochdi.

— Nima qildi, buvi?

— Hech narsa, — shivirlab javob berdi Mastura xola, keyin iljayishga harakat qildi, — do'xtirlarni bilasanu vahma bo'lishadi, soppa-sog' odamni kasal-xonaga olib ketishyapti.

— Qayeringiz og'riyapti, buvi?

— Ha, yo'q, qornim sal quldirayapti. Bilasan-ku, azaldan shunaqa quldirab-quldirib to'xtab qoladi. Zumrad opang qo'ymadni, yuraverasizmi shunaqa qilib, kasalxonaga yotsangiz bir oy-yarim oyda ko'rmagandek bo'lib ketasiz, dedi. Zumrad opangni sazasi o'lmasin deb ko'na qoldim.

Kampirni zambil bilan mashinaning ichiga yotqizishdi. U so'nggi kuchini yig'ib ovoz berdi.

— Hoy, Rixsivoy, gazning ustida ovqating bor, isitib ye, och yurmal!

— Men ham siz bilan boraman, buvijon. — Rix-sivoy o'zini mashinaga otdi.

— Seni borishingni hech hojati yo'q, — qayoq-dandir paydo bo'lib qolgan Zumrad opa Rixsivoyning yelkasiga qo'lini qo'yib mayin gapirdi. — Men o'zim buvingni eng yaxshi kasalxonaga joylashtirib kela-man.

Qayerda ekan Zumrad opa, nega Rixsivoy uni ko'rmadi?

Oq xalat kiygan kishi mashina eshigini yopdi.

— To'xtanglar, — xuddi buvisidan bir umrga ajralib qolayotgandek jonholatda qichqirib yubordi Rixsivoy. — Qayerga olib ketyapsizlar buvimni? Qaysi kasalxonaga, qayerdan qidiraman?

— Qidirmaysan, — Zumrad opa hamon mayin ovozda gapirardi, u bir parcha qog'oz olib adres yozdi, keyin qog'ozni Rixsivoyning qo'liga tutqazdi, — mana manzil xohlasang kechqurun, joylashib bo'lganlaridan keyin ko'rgani borarsan.

Rixsivoy qo'lidagi qog'ozga qaramadi ham.

— Balki uyda davolasa bo'lar, o'zim qarab tura-man.

— Menga ishonmaysanmi? — yupatib gapirdi Zumrad opa, keyin sirli ovozda qo'shib qo'ydi: — Bu hukumat kasalxonasi, uzog'i bilan o'n-o'n besh kunda tuzalib chiqadilar.

Zumrad opa mashinaga o'tirdi. Zum o'tmay mashina joyidan siljidi. Rixsivoy eshik tagida tanho o'zi qaqqayib qoldi.

Uning boshi g'uvillar, hech narsaga tushunmas, nima bo'lganini to'la-to'kis angolmasdi. Butun borliq huvillab qolgandek, bo'm-bo'shdek tuyulardi. U anchagacha anqayib turdi. Keyin qo'lidagi qog'ozga, adresga qaradi.

Nima qilib turibdi, borish kerak, buvisining ketidan yugurish kerak. U mashina ketgan tomonga qarab jadal yurib ketdi.

U gangib, karaxt bir ahvolda ancha joygacha bordi, birdan to'xtadi, ko'zi bilan o'tiradigan joy axtardi. Topdi. Huv ana, daraxt tagida skameyka. Borib o'tirdi. Ha, esingni yig', nima bo'lyapti o'zi, qayoqqa ketyapsan? Nega hovliqasan? O'zingni bos, nima bo'layotganini xotirjam mulohaza qilib ko'r.

Xunuk voqeа ro'y berdi, buvingni kasalxonaga olib ketishdi. Endi o'zingni qo'lga olib buvingga yordam ber, Rixsivoy. Dori-darmon top, buvingga malham bo'l. Buvijon sendan boshqa kimi bor? Shunday ekan, dadil bo'l, uning taqdiri endi sening qo'lingda.

Eh, buvijon, buvijon, mendan dardingizni bekitib

nima qilardingiz, koshki men sezmay yurgan bo'lsam. Dardni ham, hasratni ham ichingizga yutardingiz. Axir kasalning qancha tez oldi olinsa tuzatish shuncha oson bo'ladi-ku. Yoki betobligimni bilsa nabiram qo'rqadi, deb o'ylardingizmi? Yoki meni yolg'iz tashlab, kasalxonaga yotishga yuragingiz dov bermasmi-di? Kelib-kelib dardingizni mendan, eng yaqin odamingizdan yashirasizmi? Koshki men payqamagan bo'lsam. O'sha o'zingiz qayta-qayta so'zlab beradigan hikoyangizni har gal eshitganimda ichimdan zil keta-man. Chunki o'shandayoq — birinchi marta toqqa sayrga chiqib qorningiz og'rib qolgandayoq dardga chalingansiz. To'g'ri, buloq suvidan ichib tuzalgan-siz, lekin butunlay sog'ayib ketganligingizga kim kafil?

Eh, buvijon, o'sha buloq suvini doim maqtaysiz. Har gal ta'rifini oldingisidan oshirib gapirasiz. Ming dardga davo, ichgan saring yengil tortasan deysiz. Sag'al mazangiz qochsa, «oh, qani endi o'sha buloq suvidan bir qultumgina bo'lsaydi, tuzalardim-ketardim», deb takrorlaysiz! Bugunoq Chimyonga chiqib o'sha buloqni qidirib topaman, shifobaxsh suvidan olib kelaman. O'lsam ham topib kelaman! Lekin yo'lga ozgina pul kerak. Pulni qayerdan oladi? Uning miyasi yashin tezligida ishlay boshladi. U qarz olishi mumkin bo'lgan odamlarni bir-bir ko'z o'ngidan o'tkazdi. Bo'ldi, topdi. Sinflarida Sanjar eng to'q oiladan, o'zi ham yomon bola emas, mard va tanti. Rixsivoy dadillashdi, Sanjarlarning uyi tomon shitob bilan yo'l oldi.

U tagida magazin joylashgan to'qqiz qavatli uyda turardi, lekin qaysi podyezdda, qaysi qavatda — buni bilmasdi.

Hovlida uch-to'rtta churvaqalar to'p tepib yurishgan ekan, o'shalardan so'ragan edi oldinma-ketin tushuntira ketishdi:

— E, Sanjar akami, kim tanimas ekan uni, ham bokschi, ham zo'r futbolchil!

Rixsivoy bolalarga bosh silkib minnatdorchilik bildirdi. Liftga o'tirib to'qqizinchi qavatga ko'tarildi. Rixsivoyning tolei bor ekan, eshikni Sanjarning o'zi ochdi.

— Iye, kel, Rixsivoy? — Sanjar sal hayron bo'ldi.

— O'n besh so'm... qarz qilib tur, — dedi Rixsivoy tomdan tarasha tushgandek.

U Sanjarning «boyvachcha» bolalardan ekanligini, yonida doim pul bo'lishligini bilardi. O'rtog'ining gapidan Sanjar sal gangib qoldi.

— O'n besh so'm deysanmi?

— Ha, bir haftadan keyin qaytaraman. Buvimning nafaqalari tegadi.

— Pulni nima qilasan? — iljayib so'radi Sanjar, go'yo hazil qilayotgandek. U bir qizarar, bir bo'zarar, bir ilayar, xullas, o'zini qo'yarga joy topolmayotgandek edi.

— Berasanmi? — dedi o'rtog'ining ko'ziga tik boqib.

— Berardim-u... yonimda yo'q-da, — Sanjar iymanib cho'ntagini kavladi, ozgina tangam bor, lekin o'zimga kerak. Ertalab oyim berib ketgan edilar. Ukingga «Pepsi kola» olib ber, yig'lab xarxasha qilmasin deb. Bo'lsa, jonim bilan berar edim, — gapga yakun yasadi qiynalib ketgan Sanjar.

Rixsivoy bir lahza jim qoldi.

— Bo'pti, kechir, — u orqasiga o'girilib lift tomon ketdi.

U ko'chaga chiqdi, qayoqqa borishini bilmasdi, qadamini bir bosib, boshi oqqan tomonga keta boshlandi.

Qancha yurganini bilmaydi. «Ha, mullavachcha», degan tanish, jarangdor tovush uni o'ziga keltirdi. Boshini ko'tarib qarshisida mazaxli iljayib turgan Anqaboyevni ko'rди.

— Ha, akasi, shoirlarga o'xshab juda ko'rining parishon?

Darhaqiqat, Rixsivoy parokanda xayolini yig'ib ulgurmagandi. Ko'zlarini pirpiratganicha Anqaboyevga birpas tikilib turdi.

— O'zim, — deb javob qildi bir oz fursatdan so'ng.

— Adabiyotchilar ta'biri bilan aytsak, «ruhiy azob chekayotganing serifoda yuzingda balqib turibdi», — yana mazax qildi Anqaboyev.

Hozir Rixsivoy birovning maynavozchiliginini ko'taradigan ahvolda emas edi. Jahli chiqib to'ng'illadi.

— Ozgina pul qarz berib turolmaysanmi?

Anqaboyev bir lahma jim qoldi. U sinchiklab Rixsivoymga tikildi. Keyin kerilgandek gapirdi:

— Albatta berib turolaman, ozgina pul nima degan gap ekan bizga?!

U yana maynavozchilik qilyaptimi, chindan aytyaptimi Rixsivoy ajratolmadı.

— Men hazillashayotganim yo'q, — dedi Rixsivoy.

— Men ham, — dedi Anqaboyev, — yur.

Oldinda Anqaboyev, orqada Rixsivoy yo'lga tushishdi, hademay Anqaboyev turadigan to'rt qavatli uyning podyezdiga kirib ketishdi. Anqaboyev uchinchi qavatga ko'tirildi, kalit solib chapdagi xonaning eshigini ochdi.

— Qani, kir ichkariga.

— Men shu yerda turib turaman.

— Ey, kim ostonada turadi. Kiraver, hech kim yo'q, — Anqaboyev Rixsivoyni turtib uyiga kirkazdi, — agar xohlasang muzdek kompot bor xolodilnikda.

— Rahmat, ichgim kelmayapti, dedi Rixsivoy.

— Zo'rslash yo'q! Bo'lmasa, buyoqqa yuri!

Anqaboyev Rixsivoyni balkonga boshlab chiqdi. Balkonning yarmisiga taxtadan karavot qilingan ekan, Anqaboyev, «hozir, bir minut», dedi-da cho'qqaydi, keyin emaklab karavotning tagiga kirib ketdi. Anchagacha taqir-tuqir qilgan ovozlar eshitildi. Nihoyat, Anqaboyev inqillab-sinqillab egni-boshi changga botib, bitta eski chamadon sudrab chiqdi.

«Nahotki, bir chamadon pul bo'lsa, — dilidan o'tkazdi Rixsivoy, — bekitgan joyini-chi». Hozir, akasi, hozir, — dalda berish ohangida gapirdi Anqaboyev, mix tiqib chamadonning qulfini ochdi.

Chamadonning ichi to'la har xil ashqol-dashqol ekan, elektr shnurlari, buzuq dazmol, yirtiq kamera... Anqaboyev chamadonning eng tagiga qo'l tiqib lattaga o'ralgan bir narsa oldi. Avaylab ochdi. Rixsivoymga ko'zlarini chaqnab ketdi. Bu po'lati yaltillab turgan katta pichoq edi.

— Nima qilasan buni? — so'radi Rixsivoy.

— Hech narsa. Chiroyli bo'lgani uchun bektirib qo'yganman. Goh-gohda olib qarab qo'yaman. Zo'r-a?

— Zo'r, — sidqidildan tan berdi Rixsivoy.

— Ovchilarniki, maxsus hujjat bilan sotiladi!

Anqaboyev yana pichoqni lattaga o'radi. Unig iltimosiga pichoqning nima daxli borligini tushunmagan Rixsivoy toqatsizlana boshladi. Axir, u pul so'rab keldi-ku!

— Ketdik, — dedi Anqaboyev Rixsivoyni fikrini uqqandek.

Ular pastga, hovliga tushishdi. Qo'shni podyezdga yaqinlashishdi. Anqaboyev ikki panjasini og'ziga tiqib hushtak chaldi. To'rtinchchi qavatning balkonida ko'zoynak taqqan bola paydo bo'ldi.

— Tush pastga, — buyurdi Anqaboyev.

Bola «nimaga» deb ham so'ramadi, «xo'p», dediyu ko'zdan g'oyib bo'ldi.

— Bitta tanish ovchidan yalinib sotib olgan edim. Buni hammaga ham beravermaydi, — qaytardi Anqaboyev g'alati ovozda, — ovchilar daftarchasi bor odamgagina sotishadi.

Zum o'tmay ko'zoynak taqqan bola pastda paydo bo'ldi. U juda olifta ekan, chiyduxobadan shim, poshnasi qalin tuqli, ko'y lagi ham qaysidir firmaniki. Ammo yuzi lo'ppigina, ko'z qarashlari mayin, xuddi qiz bolalarga o'xshaydi.

— Ushla, — Anqaboyev pichoqni unga uzatdi.

Bola lattani ochib ham ko'rmadi.

— Rostdanmi... Rozi bo'ldingmi sotgani? — ishonqiramy so'radi u.

— Pulni olib tush, — gapni qisqa qildi Anqaboyev.

— Bilasanmi, nimaga qarz so'rayapman...

— Zarurdirki, so'rayapsan, zarur bo'lmasa so'rarmiding! — surshitirishni istamadi Anqaboyev.

— Mayli, rahmat, bir haftadan keyin qaytarib beraman.

Pastda Beozor paydo bo'ldi, u rosa yuguribdi shekilli, o'pkasini bosolmy harsillardi.

— Mana, olti so'm, o'zing aytganingdek davlat narxi. Agar xohlasang o'n so'm berishim mumkin.

— Nima, men senga olibotarmanmi ustiga narx qo'yasan!

Qachondan beri menga sotaqol, deb jonimga tekkaning uchun beryapman, — do'q urdi Anqaboyev va ortiq bir so'z demay pulni olib orqasiga burilib ketdi.

Ular muyulishga yetganda Anqaboyev pulni Rixsivoya uzatdi.

— Bo'pti, akasi, men boqchaga borishim kerak, singlimni olgani.

— Rahmat, — dedi pulni olib Rixsivoy.

SO'NGGI TO'SIQ

...Bu yer kasalxonadan ko'ra istirohat bog'iga ko'proq o'xshardi. Farqi shuki, bu yerda deyarli odam yo'q, tinch va osuda. Och havorang darvoza, yonida keng derazali kichkina uycha. Deraza yonida oppoq xalat kiygan, ikkala yuzi qip-qizil, yoshi o'tibroq qolgan ayol pista chaqib o'tiribdi.

Shu payt ayolning qarshisida, ostonada yuzi qora terga botgan, egni-boshi kir-chir Rixsivoy paydo bo'ldi. Biroq ayol uni ko'r mayotgandek pinagini buzmasdan, pistasini chaqib o'tiraverdi.

Rixsivoy indamasdan ichkariga kirib ketayotgan edi.

— Hoy tirmizak! Qayoqqa, — deb do'q bilan to'xtatdi ayol, — qayt orqangga!

— Qo'yib yuboraqoling, — dedi Rixsivoy.

— Boshqa hech narsa istamaysanmi? — dedi ayol yuzini ters burib o'ta loqayd ovozda.

— Kecha buvimni shu yerga olib kelishgan edi. Xo'p desangiz, ko'rib chiqmoqchi edim, chunki buvimplarning mendan boshqa hech kimlari yo'q.

— Shanbada kelasan, beshdan keyin.

— Qo'yvoraqoling, men buvimplarga dori olib keldim, shuni ichmasalar tuzalmaydilar.

— Dori shu yerda ham ko'p, — dedi ayol, keyin nihoyat Rixsivoya qaradi. — Qanday dori?

Rixsivoy bag'riga mahkam bosib turgan uch litrli shisha balonni ko'rsatdi.

— Mana.

— Nima bu?

— Suv. Buloq suvi, tog'dan olib keldim.

— Voy tavba, odamlarga ham hayronsan. Shunchalik ham tentak bo'lishadimi? Buloq suvi emish. Bekorga vaqtingni o'tkazma, bola, baribir qo'ymayman! — Jahl va do'q bilan gapirdi ayol.

— Baribir qo'yvormaguningizcha ketmayman, — dedi Rixsivoy o'jarlik bilan, — ha, buvimlarni ko'rmasdan ketmayman.

— Ho, mana buni do'qini, mushtdek bo'lib kim qo'yibdi senga...

— Marfa, bolani qo'yib yubor, — dedi o'rtadagi gapni tinglab turgan qorovul.

— Senga, gapirish oson, Mamarasul, — bo'sh kel-madi ayol. — Bosh vrach shu yerda. Bilasan, odatini, sag'alga ishdan quvib yuboraman, deb dag'dag'a qila-di.

— Bolani qo'yib yubor, — qaytardi qorovul xotir-jam ovozda, — bosh vraching g'idi-bidi qiladigan bo'lsa, menga ro'para qil, o'zim javob beraman. Bola ataydan toqqa borib, buloq suvi olib kelibdi buvisiga. Qo'yib yubor.

Ayol Rixsivoydan buvisining familiyasini so'rab bildi, ro'yxatga qarab nechanchi palatada yotganini aniqladi.

— Buvning birinchi qavatda, to'rtinchi palatada ekan. To'g'ridan yurma, hov anavi chekkadan aylanib bor. Oltinchi bo'lsa kerak, ha, oltinchi derazani taqil-latasan, — ayol masxaraomuz iljayib qo'shib qo'ydi, — keyin suvingni berasan.

— Rahmat, amaki, rahmat, xolajon, — dedi Rixsivoy.

Xavotir va hayajon, alam va iztirob bilan diydor ko'rishgani oshiqayotgan Rixsivoy qo'lidagi buloq suvi obi zamzam singari buvijonisining dardiga davo berishiga ishonardi.

Ishonch esa orzu-umidlarining amalga oshishining kafolati.

M U N D A R I J A

| | |
|----------------------------------|-----|
| ORZUGA AYB YO'Q | 3 |
| BO'SH KELMA, ALIQULOVI | 114 |
| BIR QULTUM BULOQ SUVI | 228 |

FARHOD MUSAJON

BO'SH KELMA, ALIQULOV

Qissalar

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent—2005

Muharrir *Erkin Malik*
Rassom *Tohir To'xtayev*
Badiiy muharrir *A. Musaxo'jayev.*
Texn. muharrir *L. Xijova.*
Sahifalovchi *M. Athamova*
Musahhihlar: *Y. Bizaatova, H. Abdusamatov*

Bosmaxonaga berildi 01.03.05. Bosishga ruxsat etildi 12.07.05.
Bichimi 84x108'/². Bosmaxona qog'oz. «SchoolBook» garnitura.
Shartli bosma t. 18,48. Nashriyot hisob t. 18,96. Adadi 5000 nusxa.
Buyurtma № 5333. Bahosi kelishilgan narxda.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi. 700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.